

Nizomiy Ganjaviy

ISKANDARNOMA



821 5/2 162-1

G 20

NIZOMIY GANJAVIY

ISKANDARNOMA

Originaldan O'zbekiston xalq shoiri
Jamol Kamol tarjimasi

Maxsus nashr

19154

*Azərbaycan Respublikası Mədəniyyət Nazirliyi
Kitab Özbəkistandakı Heydər Əliyev adına Azərbaycan Mədəniyyət
Mərkəzinin layihəsi çərçivəsində çap edilmişdir*

*Ozərbaycan Respublikası Mədəniyyət Vəzirliyi
Kitab Azərbaycan Respublikasının Özbəkistandakı Heydər Əliyev
nomidagi Azərbaycan Mədəniyyət Mərkəzi layihəsi əsasında çap edilmişdir*

Layihə rəhbəri:

Samir ABBOSOV

*Özbəkistandakı Heydər Əliyev nomidagi
Azərbaycan Mədəniyyət Mərkəzi rəhbəri
fəxriy mədəniyyət xodimi*

Mas'ul muharrir və
so'z boshi mualliflari:

Nurbəy JABBOROV

filologiya fanlari doktori, professor

Shuhrat SIROJIDDINOV

filologiya fanlari doktori, professor

Muharrir və nəşrə
tayyorlovchi:

Gulbahor ASHUROVA

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Naim KARIMOV

filologiya fanlari doktori, professor

Boqijon TO'XLIYEV

filologiya fanlari doktori, professor

Nəşrə mas'ul:

Karimulla MAMMAD-ZADE

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Nizomiy Ganjaviy. "Iskandarnoma". Boku, "Nusxa" Nəşriyati, 2021, 952 b.

Insonlar ədal-əzaldan davlat hoshida aqlli, insofli, odil və otiyanob arboblur bo'lishini orzu etishgan. "Iskandarnoma"ning birinchi kitobi bo'lmish "Shurafnoma"da unu shumlay donishmand davlatboshi – shoh Iskandar siyomasiga duch kelasiz. Asardaki Iskandarning tug'ilishi, ta'lim-tarbiya topishi, taxuga o'tirishi, zanjililar podshosi-yu eroniyilar shohini mug'lub etishi, Doroning qiziga uylanishi, Hindiston, Chin, Dushti Qipc-hoqqa yurishi, ravslar bilan jungi, zulmat dunyosiga kirib, yash ona yilqi ko'mugida u yerdan eson-omon chiqishi kabi ajoyib-g'aroyib voqealar qalamga olinadi. Shoir har bir voqeani soqiyнома aytib, pandu hikmat bilan boshlaydi. O'qing, Shayx Nizomiy ma'rifatidan bahramand bo'ling.

ISBN 943-9943-4373-8-7

UO'K: 82-1.512.162.

© J. Kamol 2021

© "Nusxa", 2021

© Özbəkistandakı Heydər Əliyev nomidagi Azərbaycan Mədəniyyət Mərkəzi, 2021

Abdulla Qodiriy nomidagi

viloyat AKM

INV № 2023/32-1

I

SHARAFNOMA

Azərbaycan Respublikasında 2021-ci ilin
“Nizami Gəncəvi İli” elan edilməsi haqqında
Azərbaycan Respublikası Prezidentinin

Sərəncamı

Dünya ədəbiyyatının görkəmli nümayəndəsi, dahi Azərbaycan şairi və mütəfəkkiri Nizami Gəncəvi bəşəriyyətin bədii fikir salnaməsində yeni səhifə açmış nadir şəxsiyyətlərdəndir. Nəhəng sənətkarın xalqımızın mənəviyyatının ayrılmaz hissəsinə çevrilmiş parlaq irsi əsrlərdən bəri Şərqlin misilsiz mədəni sərəvətlər xəzinəsində özünəməxsus layiqli yerini qoruyub saxlamaqdadır.

Nizami Gəncəvi ömrü boyu dövrün mühüm mədəniyyət mərkəzlərindən olan qədim Azərbaycan şəhəri Gəncədə yaşayıb yaradaraq, Yaxın və Orta Şərq fəlsəfi-ictimai və bədii-estetik düşüncə tarixini zənginləşdirən ecazkar söz sənəti incilərini də məhz burada ərsəyə gətirmişdir. Nizami Gəncəvinin geniş şöhrət tapmış “Xəmsə”si dünya poetik-fəlsəfi fikrinin zirvəsində dayanır. Mütəfəkkir şair çox sayda davamçılarından ibarət böyük bir ədəbi məktəbin bünövrəsini qoymuşdur. Nizaminin ən məşhur kitabxana və muzeyləri bəzəyən əsərləri Şərq miniatur sənətinin inkişafına da təkan vermişdir.

Nizami dühası hər zaman dünya şərqşünaslığının diqqət mərkəzində olmuşdur. Ölkəmizdə Nizami sənətinin öyrənilməsi və tanıtılması sahəsində xeyli iş görülmüş, əsərlərinin nizamişünaslıqda yüksək qiymətləndirilən elmi-tənqidi mətni hazırlanmış, kitabları nəfis tərtibatda və kütləvi tirajla nəşr edilmişdir. Nizaminin ədəbiyyatda və incəsənətdə yaddaqalan obrazı yaradılmışdır. Mütəfəkkir şairin doğma şəhəri Gəncədə məqbərəsi, Bakıda, Sankt-Peterburqda və Romada heykəlləri ucaldılmışdır. Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyasının Ədəbiyyat İnstitutu

və Milli Azərbaycan Ədəbiyyatı Muzeyi Nizami Gəncəvinin adını daşıyır. Böyük Britaniyanın Oksford Universitetinin Nizami Gəncəvi Mərkəzi uğurla fəaliyyət göstərir.

Nizami Gəncəvinin yubileyləri ölkəmizdə hər zaman təntənə ilə keçirilmişdir. Dahi şairin 800 illik yubileyi onun irsinin tədqiqi və təbliğində əsaslı dönüş yaratmışdır. Azərbaycanın klassik ədəbi-mədəni irsinə həmişə milli təəssübkeşlik və vətənpərvərlik mövqeyindən yanaşan ümummilli lider Heydər Əliyev Nizami irsinə də xüsusi diqqət yetirmişdir. Heydər Əliyevin təşəbbüsü ilə 1979-cu ildə qəbul olunmuş “Azərbaycanın böyük şairi və mütəfəkkiri Nizami Gəncəvinin irsinin öyrənilməsini, nəşrini və təbliğini daha da yaxşılaşdırmaq tədbirləri haqqında” qərar Nizami yaradıcılığının tədqiqi və təbliği üçün yeni perspektivlər açmışdır. Ölməz sənətkarın 1981-ci ildə Ulu Öndərin bilavasitə təşəbbüsü və iştirakı ilə keçirilən 840 illik yubiley mərasimləri ölkənin mədəni həyatının əlamətdar hadisəsinə çevrilmişdir. 2011-ci ildə Nizami Gəncəvinin 870 illiyi dövlət səviyyəsində silsilə tədbirlərlə geniş qeyd edilmişdir.

2021-ci ildə dahi şair və mütəfəkkir Nizami Gəncəvinin anadan olmasının 880 illiyi tamam olur. Azərbaycan Respublikası Konstitusiyasının 109-cu maddəsinin 32-ci bəndini rəhbər tutaraq, qüdrətli söz və fikir ustasının insanları daim əxlaqi kamilliyə çağırان və yüksək mənəvi keyfiyyətlər aşılان zəngin yaradıcılığının bəşər mədəniyyətinin nailiyyəti kimi müstəsna əhəmiyyətini nəzərə alaraq qərara alıram:

1. 2021-ci il Azərbaycan Respublikasında “Nizami Gəncəvi İli” elan edilsin.

2. Azərbaycan Respublikasının Nazirlər Kabineti “Nizami Gəncəvi İli” ilə bağlı tədbirlər planı hazırlayıb həyata keçirsin.

İlham Əliyev

Azərbaycan Respublikasının Prezidenti

Bakı şəhəri, 5 yanvar 2021-ci il.

Ozərbaycan Respublikasında 2021 yılning
“Nizomiy Ganjaviy” yılı deb e’lon qilinishi haqida
Ozərbaycan Respublikası Prezidentining

Qarori

Dunyo adabiyotining yirik namoyandasi, buyuk ozarbayjon shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy insoniyat badiiy tafakkur yilnomasida yangi sahifa ochgan nodir shaxslardan biridir. Xalqimiz ma’naviyatining ajralmas qismiga aylangan buyuk so’z san’atkorining yorqin merosi asrlar davomida Sharqning mislsiz madaniy boyliklari qatorida munosib o’rni saqlab kelgan. Nizomiy Ganjaviy butun hayoti davomida o’sha davrning eng muhim madaniy markazlaridan biri bo’lgan Ganja shahrida yashab ijod qilgan va Yaqin Sharqning falsafiy-ijtimoiy va badiiy-estetik tafakkuri tarixini boyitib ajoyib so’z san’ati marvaridlarini yaratgan.

Nizomiy Ganjaviyning mashhur “Xamsa” asari jahon she’riy va falsafiy tafakkurining cho’qqisidir. Mutafakkir shoir ko’plab izdoshlaridan iborat katta adabiy maktabning poydevorini qo’ydi. Dunyoning eng mashhur kutubxona va muzeylarni bezab turgan Nizomiy asarlari Sharq miniatyura san’atining rivojlanishiga ham turtki berdi. Nizomiy dahosi doimo jahon sharqshunosligi diqqat markazida bo’lgan. Kitoblarini chop etish borasida juda ko’p ishlar qilindi. Asarlarining ilmiy-tanqidiy matni tayyorlandi, yuqori did va saviyadagi dizayn va ommaviy tirajda kitoblar nashr etildi.

Adabiyot va san’atda Nizomiyning unutilmas obrazi yaratildi. Mutafakkir shoirning maqbarasi uning tug’ilgan shahri Ganjada, haykallari Boku, Toshkent, Sankt - Peterburg va Rimda o’rnatilgan. Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasi Adabiyot instituti va Ozarbayjon adabiyoti milliy muzeyi

Nizomiy Ganjaviy nomi bilan atalgan. Buyuk Britaniyaning Oksford universitetining Nizomiy Ganjaviy nomidagi markazi muvaffaqiyatli ishlamoqda.

Mamlakatimizda Nizomiy Ganjaviyning yubileyi doimo nishonlanib kelgan. Buyuk shoirning 800 yilligi uning merosini o'rganish va targ'ib qilishda burilish nuqtasi bo'ldi. Ozarbayjon mumtoz adabiy va madaniy merosiga har doim milliy g'oya va vatanparvarlik nuqtai nazaridan yondashgan umummilliy rahbar lider Haydar Aliev ham o'z davrida Nizomiy merosiga alohida e'tibor qaratgan.

1979 yilda Haydar Aliev tashabbusi bilan qabul qilingan "Buyuk ozarbayjon shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy merosini o'rganish, nashr etish va targ'ib qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori Nizomiy ijodini o'rganish va targ'ib qilishning yangi istiqbollarini ochdi.

1981 yilda buyuk yo'l boshchining bevosita tashabbusi va ishtiroki bilan o'tkazilgan o'lmas so'z san'atkorining 840 yilligini nishonlash mamlakat madaniy hayotida muhim voqeaga aylandi.

2011 yilda Nizomiy Ganjaviy tavalludining 870 yilligi davlat miqyosida bir qator tadbirlar bilan keng nishonlandi. 2021 yilda buyuk shoir va mutafakkir Nizomiy Ganjaviy tavalludining 880 yilligi nishonlanadi. Ozarbayjon Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 32-bandiga binoan, milliy-ma'naviy fazilat, so'z va g'oyalarning qudratli ustozining faoliyati yuksak qadrlanib qaror qilinadi:

1. Ozarbayjon Respublikasida 2021 yil "Nizomiy Ganjaviy yili" deb e'lon qilinsin.

2. Ozarbayjon Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Nizomiy Ganjaviy yili" bilan bog'liq harakatlar rejasini ishlab chiqsin va amalga oshirsin.

Ithom Aliev

Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti

Boku shahri, 2021 yil 5 yanvar.

Layihəyə dair

Türk dünyası dünyaya böyük alimlər, filosoflar, şairlər, yazıçılar bəxş edib. Belə istedadlardan biri də görkəmli Azərbaycan şairi, mütəfəkkiri və filosofu Nizami Gəncəvidir.

Azərbaycan Respublikasının Prezidenti İlham Əliyev tərəfindən 2021-ci ilin "Nizami Gəncəvi ili" elan edilməsi, dahi şairin 880 illik yubileyi münasibətilə Azərbaycanın böyük şairi, dünya şöhrətli söz ustası Nizami Gəncəvinin 5 əsərini özündə əks etdirən "Xəmsə"nin özbək dilində xüsusi nəşri həyata keçirilmişdir.

Özbəkistandakı Heydər Əliyev adına Azərbaycan Mədəniyyət Mərkəzinin layihəsi və sifarişi ilə son 3 il ərzində dahi Nizami Gəncəvinin bütün əsərləri orijinaldan Özbəkistanın xalq şairi Camal Kamal tərəfindən özbək dilinə tərcümə edilmiş və sözügedən tərcümə əsasında tarixdə ilk dəfə olaraq Nizami Gəncəvinin "Xəmsə"si tam və mükəmməl şəkildə özbək dilində işıq üzü görmüşdür.

Azərbaycan, Şərq və dünya ədəbiyyatı xəzinəsinin incisi sayılan Nizami Gəncəvi "Xəmsə"si özbək dilinə tərcümə edilərək ictimaiyyətə, xüsusilə ədəbiyyatsevərlərə, tədqiqatçılara təqdim olunur.

Bununla da elm, mədəniyyət, irfan və poeziya yurdu hesab edilən Özbəkistanda da Nizami Gəncəvi irsinə əbədi abidə ucaldı.

Samir ABBASOV,
*Özbəkistandakı Heydər Əliyev adına
Azərbaycan Mədəniyyət Mərkəzinin direktoru,
fəxri mədəniyyət xadimi*

Loyiha haqida

Turkiy dunyo jahonga buyuk allomalar, faylasuflar, shoirlar, yozuvchilar baxsh etgan. Ana shunday iste'dodlardan biri atoqli Ozarbayjon shoiri, mutafakkiri va faylasufi Nizomiy Ganjaviydir.

Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning 2021-yil "Nizomiy Ganjaviy yili" deb e'lon qilinishi, ulug'shoir tavalludining 880 yilligi munosabati bilan Ozarbayjonning buyuk shoiri, jahonga mashhur so'z ustasi Nizomiy Ganjaviyning besh asarini ozida aks ettirgan "Xamsa"ning o'zbek tilidagi maxsus nashri amalga oshirildi. O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat markazining loyihasi va buyurtmasiga ko'ra o'tgan uch yil mobaynida daho Nizomiy Ganjaviyning barcha asarlari O'zbekiston xalq shoiri Kamol Jamol tomonidan asliyatdan o'zbek tiliga tarjima qilindi va mazkur tarjima asosida tarixda ilk bora Nizomiy Ganjaviy "Xamsa"si o'zbek tilida dunyo yuzini ko'rdi.

Ozarbayjon, Sharq va jahon adabiyoti durdonasi hisoblangan Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa"si o'zbek tiliga tarjima qilib, jamoatchilikka, xususan, adabiyot ixlosmandlari va tadqiqotchilarga taqdim etilmoqda.

Shunday qilib, ilm-fan, madaniyat, irfon va she'riyat qasri bo'lgan O'zbekistonda Nizomiy Ganjaviyning abadiy haykali qad rosladi.

Samir ABBOSOV,
*O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi
Ozarbayjon Madaniyat Markazi direktori,
faxriy madaniyat xodimi*

Donolik xazinasi

Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” dostonini bundan qariyb yetti yuz yil avval asliyatdan o‘zbek tiliga erkin tarjima qilgan Qutb Xorazmiy mana bunday yozgan edi:

*Nizomiy nazmi yanglig' tuz so'zungni,
Anin hilgut xoningg'a bu o'zungni...
Qozontek qaynab-ush savdo pishurdum,
Nizomiy holidin halvo pishurdum.*

Qutb Xorazmiyning ushbu so‘zlari aslida tarixiy ildizlari qadim davrlarga boradigan ozarbayjon-o‘zbek adabiy aloqalari XIV asrga kelib taraqqiyotning yangi bosqichiga kirganini ko‘rsatadi. Bu ikki qardosh xalqning adabiy hamkorligi XV asrda Alisher Navoiy ijodi misolida eng yuksak darajaga ko‘tarilgani ma‘lum. Buyuk o‘zbek mutafakkiri “Xamsa” yozishga kirishar ekan, “Nizomiy panjasiga panja urish” oson emasligini alohida ta‘kidlagan. Chunki Alisher Navoiyning buyuk beshligi uchun adabiy-estetik mezon Nizomiy “Panj ganj”i edi. Hazrat Navoiy shuning uchun ham Shayx Nizomiyni fasohat ahli boshidagi toj, Haq taolo sirlari xazinasidagi tojning gavhari, fazilat gavharlari konining amini, balog‘at dengizining durri samini, deya ta‘rif etadi.

*Ganja vatan, ko'ngli aning ganjhez,
Xotiri ganjuru tili ganjrez, –*

tarzidagi e‘tirofi orqali ulug‘ salafi shaxsiyati va ijodiga yuksak baho beradi. Hazrat Alisher Navoiy “Xamsa”si buyuk Nizomiydan keyin so‘z mulkini fasohat va balog‘atda tengsiz yana bir turkiy sohibqiron fath etganidan darak berdi.

Nizomiy Ganjaviy asarlarini o'zbek kitobxonining ma'naviy mulkiga aylantirishga bo'lgan intilish hech bir zamonda to'xtab qolmagan. XV asrda Haydar Xorazmiy buyuk salafining "Maxzan ul-asror" ("Sirlar xazinasi") asarini, XIX yuz-yillikda Muhammad Rizo Ogahiy ulug' mutafakkirning "Haft paykar" ("Yetti go'zal")ni erkin tarjima qilgani ham ushbu fikrni tasdiqlaydi.

Ushbu xayrli an'ana bizning zamonamizda ham muttasil davom etayotgani, ayniqsa, quvonarlidir. Shoir Olimjon Bo'riev tomonidan Nizomiy Ganjaviy "Xamsa"si to'liq tarjima qilinib nashr etilgani adabiy hayotimizdagi e'tiborga molik hodisa. Bu adabiy-estetik an'ana Jaloluddin Rumiy, Fariduddin Attor, Abdurahmon Jomiy singari buyuk mutafakkirlar asarlari tarjimoni, O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol tomonidan yangi sifat bosqichiga ko'tarilgani badiiy tarjima san'ati tarixida katta ahamiyatga ega ekanini alohida ta'kidlash kerak. Atoqli shoir chuqur bir muhabbat bilan Shayx Nizomiy Ganjaviy "Panj ganj"ining har besh dostoni tarjimasini yakunladi. Shoir tarjimasida "Maxzan ul-asror", "Layli va Majnun" dostonlari nashr etilgan edi. "Xusrav va Shirin", "Haft paykar" tarjimalari ham qo'lyozma holida tayyor.

Ma'lumki, bu bebaho badiiy obidaning beshinchi dostoni "Iskandarnoma" ikki qismdan tarkib topgan: "Sharafnoma" va "Iqbolnoma". Jamol Kamol "Iqbolnoma"ni mahorat bilan tarjima qilgan. Asliyatdan amalga oshirilgan ushbu tarjima matni 2017 yili Ozarbayjonning O'zbekistondagi elchixonasi huzuridagi Haydar Aliev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat markazi bilan hamkorlikda chop etilgani ma'lum. Ushbu tarjima kitobxonlar qalbidan o'rin oldi. Shoir bu boradagi ijodiy ishlarini muttasil davom ettirib, dostonning birinchi qismi bo'lgan "Sharafnoma" tarjimasini ham yakunladi. Shu bilan "Iskandarnoma"ning o'zbek tiliga to'liq yangi tarjimasini amalga oshdi. Demak, biz ulug' mutafakkir qalamiga mansub buyuk beshlikning to'liq, badiiy jihatdan ancha yuqori yangi tarjimasiga egamiz. E'tirof etish kerak, bu – adabiy hayotimizdagi muhim voqea.

“Sharafnoma” tarjimai vazni istisno qilganda asliyatga har jihatdan muvofiq. “Iskandarnoma”ning bu qismini yozishga kirishar ekan, muallif o‘z badiiy niyatini quyidagicha ifodalaydi:

*Charog‘im ravshan etay parvonadin,
Daraxt o‘stiray bir dunak, donadin.*

*Kimki ul daraxtning uzsa mevasin,
Bog‘bonni ham eslab, duo aylasin.*

*Yana shartim shuki, oriyatsiz, go‘l,
Kimsalar bog‘imga uzatmasin qo‘l.*

Shoir asar bitayotgan ijodkor faoliyatini daraxt o‘stirayotgan bog‘bon mehnatiga tashbih etadi. Bu daraxt mevasidan bahramand bo‘lganlar bog‘bonni duo bilan eslashlarini o‘tinadi. Biroq oriyatsiz, go‘l kimsalar boqqa qo‘l uzatmasliklarini istaydi. Ya‘ni bu bog‘dan so‘z qadrini bilguvchi ma‘ni ahli bahra olishini niyat qiladi. So‘zning fasohatiyu balog‘atini his etmaydiganlar bunga urinmagani ma‘qul, deb biladi.

Mana bu so‘zlar esa buyuk shoir qalbidan faxriya o‘laroq quyilib kelgan:

*O‘yladim, shoirlar sarbonidirman,
Gavharfurushlarning sultonidirman.*

*Hama hoshoq tersa, uyarman xirmon,
Hama pardoz etsa, qururman qo‘rg‘on.*

Zamonamiz kitobxonlari mumtoz asarlar matni zamiridagi teran mohiyatni to‘lalgicha anglash borasida muayyan qiyinchilarga duch kelishi tabiiy. Bulardan birinchisi, mumtoz shoirlar asarlarida ko‘p qo‘llanilgan arabiy, forsiy so‘zlarni tushunish bilan bog‘liq. Ikkinchisi, mumtoz she‘riyatda Qur‘oni karim oyatlari, muborak hadislar mazmuni ba‘zan asliyatdan iqtibos tarzi-

da, ayrim hollarda shoirning badiiy talqini o'laroq ifoda etilganidir. Zamondoshlarimiz uzoq yillar davomida, birinchidan, til bilan bog'liq to'siq, ikkinchidan, diniy ta'limdan mahrumlik oqibatida mumtoz matnlar fasohatini his etishdan yiroq qolib keldi.

Bundan tashqari, mumtoz adabiyot namunalari ramz, majoz tilida bitilgan. Tasavvufga, ilohiy ishqqa oid timsollar Sharq mumtoz she'riyatining asosini tashkil etadi. Ularni tushunish hozirgi davr kitobxonlari uchun anchayin mushkul. Garchi hazrat Alisher Navoiy: "Sen gumon qilgandin o'zga jomu may mavjud erur", deb yozgan bo'lishiga qaramay, bugungi o'quvchilarning aksariyati mumtoz she'riyatimizdagi "may" timsolining haqiqatini anglay olmaydi. Hazrat Nizomiy Ganjaviyning "Sharafnoma" muqaddimasidagi mana bu baytlari ana shu timsol mohiyatini tushunishga yordam berishi jihatidan ahamiyatlidir:

*Ey Xizr, o'ylama, uldir maqsadim –
Ki, maydin may erur mening matlabim.*

*O'shal maydin bir behushlikdir murod,
Bir majlisi ko'ngil xushlikdir murod.*

*Menga soqiy erur va'dayi Xudo,
May derman garchi men xarobiy, ado,*

*Tangriga qasamki, shu jahon ichra
Labim may jomiga tegmamish sira.*

*Agarda labiga eltgan ersa jom,
Nizomiyga har ne halol ham harom.*

Ko'rinib turibdiki, mumtoz badiiy matnni anglashda zamondoshlarimiz uchun muayyan murakkabliklar bor. Yuqoridagilardan ham muhimi adabiy idrokka bo'lgan ehtiyojdir. Adabiy-estetik didni tarbiyalamay turib, bu borada yutuqqa

erishish mahol. Buyuk shoirning mana bu fikrlari ham ayni fikrni ifoda etadi:

*Injuga sadaf deb boqsa xaridor,
Sotuvchiga undan ne manfaat bor?
Gavharim hor mening andoq arjumand,
Xaridor istarman hir gavharpisand.*

Ushbu baytlarda buyuk mutafakkir chinakam xaridor inju bilan sadafni farqlashi kerakligi haqida bahs yuritgan. Modomiki ulardan birining shunchaki idish, ikkinchisining bebaho gavhar ekanini anglamas ekan, bundan na sotuvchi naf ko'radi, na xaridor. Nizomiy asari esa haqiqiy gavharga mengzaydi. Shuning uchun ham ulug' shoir o'z asarining gavharpisand, ya'ni asl injuning farqiga boradigan o'quvchi qo'liga tushishini istaydi.

Nizomiy buyuk salafi Fidavsiyni "avvalgi suxanvar", "donoyni Tus" deya ta'riflaydi. Uning so'zni kelinchakdek bezatib yashnatganini e'tirof etadi. Nizomiy ta'rificha, Fidavsiy dostonida shunchalik duru gavharlar sochdiki, aytilmagan sir deyarli qolmadi. Agarda barchasini bayon etganida doston yanada kengayib ketmog'i ayon edi. Shuning uchun u ko'ngli ko'targancha aytdi, ko'ngli tortmaganini aytmadi. Bu orqali do'stu yorga muayyan ulush ayirdi. Axir holva ham yolg'iz yeyilmaydi-da. Firdavsiyni shunday so'zlar bilan vashf etgach, muallif o'z ijodiy konsepsiyasini quyidagicha ifodalaydi:

*Nizomiy rishtaga gavhar tizgan dam
Qalam urilganga urmadi qalam.*

*Duru gavharlarga to'la topdi ganj,
O'z tarozusida o'zi tortdi ganj.*

*"Sharafnoma" sin ovoza ayladi,
Eskini yangilab, toza ayladi.*

Ya'ni Shayx Nizomiyning asl muddaosi betakror badiiyat namunasini yaratish edi. Shuning uchun ham u qalam urilganga qalam urmadi. Duru javohirga to'la ganj topdi va uni o'z tarozisida tortdi. "Sharafnoma"sini ovoza etar ekan, eskini yangilab toza ayladi. "Xamsa"ning buyuk salaflari asarlarini hech bir jihatdan takrorlamasligi, yangi bir badiiy obida darajasiga ko'tarilishi zarurati – Nizomiyning o'z oldiga qo'ygan buyuk bir orzusi, ijodiy niyati edi. Buyuk shoir ohorli va badiiyat jihatidan yuksak asar yaratish haqidagi fikrlarini qayta-qayta uqtirishi sababi shunda. Dostonning "Hazrati Xizming doston borasida Nizomiyga ta'lim bergani" bobida muallif, jumladan, quyidagicha yozadi:

*Avval aytilganni aylama takror,
Sababki, dur degan teshilar bir hor...*

*Sen yangi ustozsan, yetuksan, ulug'
O'tgan ustozlarga ergashma ortiq.*

*Bokira so'zlaring bisotingda mo'l,
Uzatma har nechuk beva so'zga qo'l.*

Darhaqiqat, Nizomiy "Xamsa"si Sharq she'riyatida yangi bir taraqqiyot bosqichini boshlab berdi. Buyuk shoir tomonidan xamsachilikning kanonlari badiiy-estetik talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra, beshlikning nomi va janr xususiyatlari, vazni, syujeti, obrazlar tizimi va kompozitsiyasi Nizomiy "Panj ganj"iga mutanosib bo'lishi, shuning barobarida uning takrori yoki taqlidi bo'lmasligi, original "Xamsa" darajasiga ko'tarilishi zarur edi. So'z san'ati taraqqiyotini yangi bir yuksalish bosqichiga olib chiqishi talab etilardi. Yuqoridagi baytlar ana shu talablarning asosiy tamoyillari bayon etilgani jihatidan alohida ahamiyatga ega.

Iskandar haqida turlicha qarashlar bo'lgani ma'lum. Hazrat Alisher Navoiy ta'rificha: "Iskandar nisbatida ixtilof ko'pdur...

Va aning umrini ming olti yuz yil debdurlar va Zulqarnaynkim, aning laqabidur, vajhi tasmiyasin mundoq debdurlarkim, ul zamonda ming yilni bir qarn der ermişlar... Amir Xusrav Dehlayiy "Oyinayi Iskandariy"da aning saltanati zamonin besh yuz yildin ortuq debdur. Ammo hazrat Shayx Nizomiy quddisa sirrihu "Iskandarnoma"da iki qarn ma'hud debdur va tahqiq yuzidin ixtilofiy rivoyotni rad qilib, ani Faylaqus o'g'li debdur. Va faqir «Saddi Iskandariy»da ul iki buzurgvor qavlini soyir muarrixlar aqvolig'a tarjih qilib, nazm adosig'a qaror beribmen. Har taqdir bila Iskandar podshohe erdikim, andin burung'i va so'nggi salotin bu kungacha ul qilg'on ishni qilmadilar. Ham hakim erdi, ham vali. Ba'zi anga nubuvvat ustodi ham qildilar... Va aning osoridin Ya'juj saddidur va Marv va Hirot va Samarqand va Isfahonni ham debdurlarkim, ul bino qildi".

Iskandar borasida ixtilofli fikrlar borligini ta'kidlagan muallif "Sharafnoma"da mazkur buyuk siymo obraziga qaysi mezonlar asosida yondashganini quyidagicha talqin etadi:

*Bir guruh sohibi toju taxt derdi,
O'lkalar oluvchi jahongir erdi.*

*Bir guruh ilmini ko'rib headad,
Donishmand atardi, daryoyi hikmat.*

*Bir guruh ko'rarkan dinparvarligin,
Qahul aylamishdi payg'ambarligin.*

*Men shu uch urug'ni endi etib jam,
Istarman, azamat daraxt ko'kartsum.*

Ya'ni Shayx Nizomiy Ganjaviy o'z asarida Iskandar obrazi-da unga nisbat berilgan har uchala xususiyatni jamladi. Iskandarni jahonni fath etgan odil hukmdor, benazir hakim va payg'ambar sifatida vasf etdi.

Abdulla Qodiriy nomidagi

viloyat AKM

INV № 2023/523-1

“Sharafnoma”da alohida bob Iskandar nasabi masalasiga bag’ishlangan. Hazrat Alisher Navoiy ta’kidlaganidek, Shayx Nizomiy buyuk jahongirni Faylaqus o’g’li sifatida talqin etadi. Dostonda Iskandarning Arastu bilan birga uning otasi Naqo’mojisi hakimdan ta’lim olgani, podshohlik taxtiga o’tirgani, Misr ahlini zangiylar zulmidan ozod etgani, dengiz osha Rumga qaytib, ko’zgu yasagani, Iskandar va Doro o’rtasidagi kurashlar, o’zaro yozishmalar, Doroning mag’lub etilishi, buyuk jahongirning Ajam otashkadalarini vayron etishi, Ravshanakka uylanib, unga Jahonbonu deya nom berishi, Mag’rib sari yurib, Ka’bani ziyorat etishi, Iskandarning Barda podshohi No’shoba huzuriga elchi qiyofasida borishi, No’shoba uni tanib qolgani, keyin saroy ahli va kanizlari bilan sohibqiron huzuriga kelishi, Iskandarning Alburz tog’iga chiqishi, Darband va Sarir qal’alarini ochgani. Kayxusrav g’origa kirgani, Ray, Xuroson, Hindiston va Chinni fath etishi, qaytishda Movarounnahrda kelib, Samarqandni bunyod etishi, ravsiylar bilan yetti jangi va ular ustidan g’alaba qozonishi, Iskandarning obi hayot izlab zulmatga kirishi voqealari teran mazmun va go’zal badiiy shakl uyg’unligida tasvirlangan.

Asarda hayot falsafasi chuqur yoritilgan. Shayx Nizomiy, jumladan, Iskandarning obi hayotga erisha olmasligi voqeasini bayon etar ekan, quyidagi teran xulosani bildiradi:

*Nogahon hotifdin yetdi bir ovoz –
Ki: “Har kimga qismat berar chorasoz.*

*Iskandar izladi, yetmadi suvga,
Xizr izlamadi, yetishdi unga.*

*Sikandar zulmatda yo’l bosdi nuqul,
Xizr yurganida ravshan erdi yo’l.*

*Yuz kishi o’t yoqib, pishirar halvo,
Lekin bir og’izni chuchitar halvo”.*

Jamol Kamol soʻzni nozik his etishi barobarida uni goʻzal badiiy sanʼatlar bilan ziynatlash salohiyatiga ega, tarjima borasida katta mahorat kasb etgan shoir. Bu fazilat doston tarjimasining har bir baytida, har bir satrida yaqqol namoyon boʻlgan. Shunga qaramay, katta ishda salmoqli yutuqlar bilan birga muayyan mulohazatalab oʻrinlar ham boʻlishi tabiiy. Bu hol, birinchi navbatda, vaznda koʻrinadi. “Sharafnoma” aruzning qahramonlik dostonlari uchun xos boʻlgan mutaqorib bahrida – muta-qoribi musammnani mahzuf (ruknlari va taqti: fauvlun fauvlun fauvlun faal V— V— V— V—) vaznida yozilgan. Tarjimada esa vazn saqlanmagan. Vazn jihatidan ham asliyatga muvofiq boʻlganida, tabiiyki, tarjima matni yanada mukammallik kasb etar edi.

Bundan tashqari, ayrim baytlar qofiyasida “aybgʻina” borligi seziladi. Jumladan, bu holni quyidagi baytda kuzatish mumkin:

*Qaytdi soʻng olamga yuzni yashnatib,
Koʻnglida olum ilmimi jam etib.*

Taʼkidlash kerakki, bu kabi juzʼiy kamchiliklar katta miqyosdagi ijodiy mehnat jarayonida uchrashi tabiiy.

Yuqorida “Maxzan ul-asror” tarjimasi misolida Qutb Xorazmiyning buyuk salafiga boʻlgan ehtiromi va eʼtirofi esga olingan edi. Oradan qariyb yetti asr oʻtib, zamonamizning atoqli shoiri Jamol Kamol ham “Nizomiy bolidan halvo pishirdi”. Bu halvo oʻzbek kitobxonining adabiy-maʼnaviy dasturxonini bezashi barobarida badiiy soʻzning totli mazasini his etish imkonini berishi jihatidan ham qimmatlidir.

Nurboy Jabborov,
filologiya fanlari doktori, professor

Yaratgan Rahmonu Rahim nomi ila

Xudoyo, jahonga podsholik sening,
Biz senga bandamiz, xudolik sening.

Hama pastu balandga sensan panoh,
Hama yo'qlik erur, O'zing bor, Xudo!

Balandu pastlarni bor etguvchisan,
Har nechuk bor esa, yaratguvchisan.

Buyuk allomasan, ustozlari olam,
Ilmdin shu tuproqqa surding qalam.

- 5 Shu ham bir dalili xudolik senga,
Avval aql berdi guvohlik senga.

Aqlning ko'zini ravshan aylading,
Hidoyat charog'ini shan aylading.

O'zingsan osmonni ko'tarib raso,
Zaminni aylagan unga guzargoh.

Bir qatra suvdanam o'zingsan andoq,
Gavharlar yaratgan quyoshdek porloq.

Lutf etib javharni aylading aqiq,
Gavharfurushga ham topshirding kalit.

- 10 Tosh bag'riga javohir berguvchi – sen,
Javohir yuziga rang surguvchi – sen.

Bulut yurmas, o'zing "yur" deb aytmasang,
Zamin bermas, o'zing "ber" deb aytmasang.

Bir kimsadin madad olmayin chunon,
Yaratding, Xudoyim, go'zal bir jahon.

Issiqdan, sovuqdan, ho'lu quruqdan
Insonga omuxta aylading vatan.

Yaratding san'atingdin andoq jamol,
Aqlu xirad qoldi qarshisida lol.

- 15 Muhandis izlarkan uning rozini,
Topolmas, qaydin etding og'ozini.

Bizga nasib nazar etishdir, xolos,
Yeb-ichib, uyquga ketishdir, xolos.

Senga bandalikni aylamak iqrор,
Ishning illatini etmaslik izhor.

Hisob bundan o'tsa, bo'l ur gumrohlik,
Rozingdin so'z ochish emas ogohlik.

Har neki yaratding, aylading taroz¹,
Xudoyim, baridin O'zing beniyoz –

- 20 Yaratding bo'ylakim zaminu zamon,
Boshida yulduzlar to'la osmon.

Fikru andishalar uchsa ham baland,
Nariga o'tolmas, bo'ynida kamand.

Yaratiq yo'q edi, sen eding tanho,
Hama yo'q bo'lsa ham bo'lursan, Xudo.

¹ Taroz _ bu yerda zebu ziynat ma'nosida.

Yulduzni samoga payvasta etding,
Tuproqni odam-la orasta etding.

To'rt unurni qo'shib, gavhar aylading,
Keyin gavharlarni ulab, boylading.

- 25 Falak qo'rhonini ko'tarding baland,
Andishani etding unda poyband.

Ko'tarding andoq toqi nilufari,
Andishaga yo'l yo'qdir undan nari.

Aqlu xirad sira zotingga yotmas,
Qudrating oldida qudrati abas.

Vujuding makoni erur lomakon,
Idrok elchisini etar toshbo'ron.

Tarqalish yo'q senda, to'planish ham yo'q,
Ko'payish yo'q senda, kamayish ham yo'q.

- 30 Xayolu nazar ul o'yingdin yiroq,
Axtarganlar tushar ko'yingdin yiroq.

Birovning boshini aylasang baland,
Bir kimsa egolmas uni kuch bilan.

Birovning boshini buksang, bo'ynini,
Bir kimsa sarbaland etolmas uni.

Biz senga bandamiz, amringga hozir,
O'zing madadkorsan, O'zing choragir.

Filning oyog'imi, pashsha qanoti,
Sendandir zo'rligu zaiflik zoti.

35 O'zingdin keldi andoq taqdiri pok,
Ilonni chumoli ayladi halok.

Aritding tutunni tamoni yo'l osha,
Namrud miyasini yemirdi pashsha.

G'anim lashkariga solding zalilni.
Qushlar xarob etdi ashobi filni.

Gahi nutfadin nekbaxt undirib,
Gahi ustuxondin daraxt o'stirib,

Gahi Xalil keltirib butxonadin,
Gahi oshno yetkazib begonadin,

40 Gahi gavhar ungan xonadin hamon
Abu Tolibni ham aylab toshbo'ron...

Xudoyim, kimda bor jasorat so'zga,
So'z ochar tasliming bo'lmoqding o'zga.

Senga dahli yo'qdir gapirsa kishi,
Ganjning mash'alaga ne erdi ishi?

Kim rozingni bilsa, boylarsan tilin,
Ki sulton sirtini yoymasin tag'in.

Menkim gardu g'ubormanu tiyra xok,
Ravshan ko'ngil berding, yana joni pok.

45 Gar oluda yurgayman, andisha yo'q,
Tuproqqa bundan o'zga bir pesha yo'q.

Agar bo'lmasaydi gunohim mening,
Kimni afv etarding, ilohim mening?

Gunohim ketmasa haddidin ortib,
Kim seni atardi kechirguvchi deb?

Kechayu kunduzlar, shom ila bomdod,
Xudoyim, men seni yod etarman, yod.

Tun avvali uyqu oldidin har bor
Nomingni tilimda aylagum takror.

- 50 Tun yarim bolishdin ko'tarib boshim,
Seni eslaymanu to'kaman yoshim.

Tong otar chog'da ham dilxohim o'zing,
Kun bo'yi, shomgacha panohim o'zing.

Kunu tun tilarman, madad aylagil,
Sharmsor etmagil, shafqat aylagil.

Istagim ul, ey Xudoyi chorasoz,
Niyoz ahlidin et meni beniyoz.

Kimsakim, bandalik yo'lini tutgay,
Senga sajda aylab, itoat etgay.

- 55 Shu dunyoda ganj ila shod aylagil,
U dunyoda ranjdin ozod aylagil.

Ilkimda ne hisob, ne kitobim bor,
Faqat sen bilursan, ne hisobim bor.

Yaxshi, yomonlikning kaliti sendan,
Yaxshilik sendanu yomonlik mendan.

Yaxshilik et, yomonlik etsam nuqul,
O'zimga etarman yomonlikni ul.

Sen chekding avvalin naqshimni, Egam,
O'zingga qaytadi oxirgi so'z ham.

- 60 Sen menga oyating o'rgat, mehribon,
Men shayton ko'zini boylarman hamon.

Noming panoh ekan jonimga, illo,
Shayton menga daxl etolmas aslo.

O'zingdin o'zimni ayru ko'rolmam,
Ki avval "sen" debon, keyin "men" desam.

Goh osuda, goh notavonman andoq,
Qandoq yaratgansan, yasharman shundoq.

Umidim Xudoyi toq, yagonadin,
Qutilsam dunyoyi g'urbatxonadin.

- 65 Buzilsa nizomu tartibim mening
Va o'zgacha bo'lsa tarkibim mening.

Shamol tuprog'imni har yon sovursa,
Shu joni pokimni kimsa ko'rmasa.

Holimni bilishni istagan inson
Borimni yo'q deya aylasa bo'hton.

G'aybdin zohir ayla, ne baxtga yormen,
Ki g'oyibdin ogoh bo'lishsin, bormen.

Sening borlig'ingga men zoru zalil,
Keltirdim necha yaxshi hujjat, dalil.

- 70 O'lsam, ma'lum ayla barchaga aytib,
Tani xok bo'lsa ham joni tirik deb.

Qizit azmi royimni sen onchunon,
Huzuringga boray men shodu xandon.

Eshikkacha hama hamrohim manim,
Keyin do'stlarim ham bo'lar dushmanim.

Ko'zim, qulog'im ham ayrilur mendan.
Qo'lim, oyog'im ham ayrilur mendan.

O'zingsan men bilan qolguvchi tanho,
Eshigingdin quruq qaytarma, Alloh!

- 75 Aziz ostonagga boshim urarmen,
Boshimga toj bergil deya so'rarmen.

Eshigingda lutfing tutmagil darig',
Boshimga tig' emas, toj ayla tortiq.

Azaldin bergan ul hukmingki mahkam,
Uni o'zgartishga yurarmi qalam?

Hukmingga bosh egib, so'rab bir ulush,
Etarmen shu so'zlar ila dilni xush.

O'zing aytgansan-ku, kishi ranju tob
Ichra duo qilsa, etgum mustajob.

- 80 Najot berguvchisan ojiz kim sanga,
Ojizman, ne uchun yalinmay senga?

Ishing bandalarga navozandalik²,
Bizdan hikmat senga faqat bandalik.

² Navozandalik – bu yerda mehribonlik ma'nosida.

Shikastaman andoq, yetdim shu holga,
Hama obodligim uchdi shamolga.

Shikasta bandangga sen shifo bergil,
Gar sindirgan esang, mo'miyo bergil.

Tun qo'ynida sendin so'rarmen panoh,
Fazlingdin yo'limni yoritgil, Xudo!

85 Qaroqchi zotini yo'qot, ayama,
Dushmanlarim ko'nglini shod aylama.

Avval shukr, keyin nasib ayla ganj,
Avval sabr, keyin qismat ayla ranj.

Etsam besabrlik baloyingga men.
Baloni boshimdin yiroq ayla sen.

Agarda baloga etsang muhtalo,
Avval sabr berib, keyin ber balo.

Aylarsen shikasta yoki salomat,
Bir hovuch tuproqman senga oqibat.

90 Garchi tuproqdirman oxir, garchi qum,
Senga bandalikni qo'ldan qo'ymagun.

Qay go'shaga borsam, sano degayman,
Har joyga yetsam-da, Xudo degayman.

Barchaga oqibat yo'qlikdir qaror,
Faqat O'zing borliqsanu barqaror.

Behudadir ul kimsaning etgani,
O'zidin qiyos aylab ko'rsa seni.

Kishi sendin seni nazzora etgay,
Qo'lida safhalarni pora etgay.

- 95 Seni faqat senda ko`rishlik ravo,
Har eshikdin izlash seni noravo.

Nazar to shungacha, ey manzilshunos,
Bundan nari qo`rqinch, vahimdir, xolos.

O`zingga topshirdim shu jonu tanim,
O`zingga ayondir iqbolim manim...

Munajat

Ey Azim, ey Karim, bekasman chunon,
O`zing suyanchimsan, O`zing mehribon!

Kelganda bir narsam yo`q edi mening,
Barini sen berding, barchasi sening.

- 100 O`zing charog`imni aylading porloq,
O`chirguvchi yeldan uni tut yiroq.

Ekin ekmoqlikka berding quvvatim,
Endi hosildanam bergil ne`matim.

Sel kelur balanddin toshqin, vahima,
Iqbolim yo`lidin otimni burma.

Rabbim, sellaringdin O`zing ber omon,
Yuvib, ko`prigimni etmasin vayron.

Uqubat aylama, ming afsus ila,
Borsam eshigingga qaro yuz bila.

105 Qaroligimni sen oq ayla tayin,
Eshigingdin men noumid qaytmayin.

Tiynatimni tuzib tuproqdin, xokdin,
Tanimni yaratding poku nopokdin.

Yaxshidir, yomondir mendagi tiynat,
Qazoyingdin chekding peshonamga xat.

Xudovand O'zingsan, senga bandamiz,
Qudrating tufayli tirik, zindamiz.

Har ne yaratilmish, ko'z ochib hamon,
Yaratuvchisidan bergaydir nishon.

110 Nazargohing erur har lahza ko'nglim,
Ko'z solib, yo'lingni nechun ko'rmagum?

Sen yaratdingki, ul andoq yaralmish,
Sen bor etding sabab andoq bor emish.

Ko'rguvchi o'ngida har naqshu surat
Chizgan naqqoshini ko'rsatur albat.

Mendan sengacha yo'l uzoqdir, illo,
Seni topmoq mumkin sen bilan tanho.

Osmonu zaminga qo'yilgan asos
Odamiy fikrati mezoniga mos.

115 O'shal andozadir fikrat rahbari,
Fikrat andozadin chiqolmas nari.

Qo'l yetar har nechuk poyaga har on,
Gar esa ul poya haddiga poyon.

Haddu poyonsizdir ushbu koinot,
Aqlu xirad uning o'trusida mot.

Undan nari yo'qdir andishaga yo'l,
Sen undan yiroqsan, sendan yiroq ul.

Xudoyim, nuring-la yorit ko'nglimni,
Maslahat soriga ochgil yo'limni.

120 Yo'limni ko'rsatib, bergil murodim,
Sen xushnud bo'l, menga yetsin najotim.

Boshqa bir choram yo'q, qismatim tayin,
Qazoyi qadardin tovlamam bo'yin.

Madh etib nomamda yozmishman uni,
Ustiga Payg'ambar urmish muhrini.

Kim guvohdir bunga? Aziz choryor,
Yuz ofarin o'shal ashobga takror.

Mahkumga xun hukmidin bergan omon
Xat kabi men uni asrayman nihon.

125 Hisob kuni, o'shal Qiyomat mahal,
Hukmlar o'qilar ekan galma-gal,

Nomalar o'q kabi otilgan u dam,
Men ham shu nomani chiqargum ildam.

Ko'rsatib, qarshingda namoyon etgum,
O'zingsan hukmron, o'zing et hukm.

Iltilo aylarman, etarman umid,
Meni dargohingdin etma noumid.

Garchi otim surib, yo'lga soldim men,
Etolmadim, yarim yo'lda qoldim men.

- 130 Joy ber, dargohingga yetishsin taxtim,
Bandangni ortiga qaytarma, Rabbim!

Sendan yo'l ko'rsatish, izlanish mendan,
Mendan jon fidolik, jon berish sendan.

Mensiz bozorimga aylading hukm,
Rasmu oyin etding unga bo'ylakim,

Kam etma endi naqshu oroyishim,
Ganjingdin nastb ayla baxshoyishim.

Ne istarsen mendek zoru zaifdan,
Ne edim, avvalda yo'q edim zotan.

- 135 O'zing nazaringni solding, ey G'ani,
Endi qamchi urib, haydama meni.

O'zing berding menga shu poygohi xos,
Endi shu zindondin o'zing et xalos.

O'zing berding nomu nomusimni ham,
Endi dodimga et, ey oliy hakam!

Bandaning boshiga qo'ndirib kuloh³,
Keyin uni qorma tuproqqa, Alloh.

Eshiging roziga yor ersa ko'ngil,
Aziz tut, yurmasin gadolikda ul.

³ Kuloh - bu toj ma'nosida.

- 140 Yaxshilik et, o'zga samar etmagil,
Menga amalimdek amal etmagil.

Nizomiy shu dagohda istab madad,
Shafoat tilar Mustafodin faqat.

Sarvari koinot vasfida

Yaratganning yuborgan xos elchisi,
Uning ustuvor hujjati, tilchisi.

Ozodalar tojining eng qimmatini,
Odamiyozdalar sohib izzati.

Azaldin to abad har narsakim bor,
Muhammadning nomi unda barqaror.

- 145 Aqlning charog'i uning-la ravshan,
Ko'ngillarning bog'i uning-la gulshan.

Zamondori olam oqdin to qaro,
Shafoatchidir vahmu ummid aro.

Daraxtdir, maydoni shariat bog'i,
Ildizi yerdadir, ko'kda butog'i.

Payg'ambarlar etar uni ziyorat,
Tuproqzodalarga ulashar ne'mat.

Charog'dir to o'zi bermaguncha nur,
Jahon ko'zi nurdin yiroq erdi ul.

- 150 Abbosiy xoliga bermish qarolik⁴,
Shammosiyga ko'z oqidin judolik⁵.

Nafasi Isoning nafasidin xush,
Tani obi hayot kabi siyahpush.

Osmon yerga unda besh qubba solmish,
Er osmon uzra besh nog'ora chalmish.

Suyanchig'i xirad ustuni erdi,
Oyni barmog'i-la ikkiga bo'ldi.

Xiroj to'lar erdi unga Rumu Ray,
O'lpon jo'natar erdi Kisrovu Kay.

- 155 Seryog'in erdi ul osmon yanglig',
Bir qo'lida gavhar, bir qo'lida tig'.

Gavhar ila berdi jahonga oro.
Dinu diyonatga shamshiri panoh.

Mirshab tig'i magar uchirsa boshni,
Uning tig'i boshdin uchirdi tojni.

Yov boshini uzmoqqa etsa talosh,
Qilichi yetmasdan kesilardi bosh.

Ikki olamki to'n tikdilar unga,
Ikkisi ham ziynat berdilar to'nga.

⁴ Abbosiylar – bani Abbas xalifalari (656-1258 yillar) qariyb 524 yil hukmronlik qilishgan.

⁵ Shammos (Shamus) – otashparastlik aqidasiining asoschisi. Qadimda otashparastlarni shammosiylar deyishgan. Ya'ni, Payg'ambarimiz (s.a.v.) ikki olamdan ustundir.

- 160 Ikki olam to'nini kiyarkan, ko'ring,
Bir qarich yetnadi bo'yniga uning.

Qomatini Alloh etmishdi raso,
Oroyishini ham bermishdi Xudo.

Kalit bo'ldi uning har ishda urfi,
Necha qal'alarning ochildi qulfi.

Keng qanot berdi ul da'vat sasiga,
Tosh ham guvoh bo'ldi mo'jizasiga.

Sulton edi, darvesh libosli yo'qsil,
Qullik oldi sotib podsholikni ul.

- 165 Me'roj tuni ko'kka ot surdi shiddat
Va bo'ldi chun me'roj ahliga ziynat.

Tun – me'roj chodirin soyasi erdi,
Osmon – narvonining poyasi erdi...

Payg'ambari akram me'roji ta'rifida

Tun ko'kda porlatib oy ila yulduz,
Go'yoki derdi men tun emas, kunduz.

Sultonga deb yetti taxt erdi mahtal,
Ipak chodirlarni bezamish gavhar.

Yashil edi behisht bo'stonida rang,
Bihisht ahlida ham libos yashilrang.

- 170 Muhammadki sultoni shu mahd edi,
Necha payg'ambarga valiahd edi.

Mushki atrin bayti Aqsoga sochdi,
Makkadin to arshi a'loga uchdi.

Jahon bandidin etdi o'zni xalos,
Arsh ahliga bo'ldi chun mehmoni xos.

Etmish yo'lli dunyoni tark aylabon⁶,
Ettinchi falak uzra tutdi makon.

U to'qqiz hujrani hamon tark etdi⁷,
Va to'qqiz samoviy hujraga yetdi.

175 To'rt zanjirli yerni tark etib shu tob,
Etti falak uzra ot surdi shitob.

Buroq oti ustida chun barq edi,
Egari quyoshdek nurga g'arq edi.

Suhayliy arab avjida tovlanib,
Adimi Yaman ham undan rang olib,

Buroq ipak dumli, gavhar tuyoqli.
Suvoriysi gavhar edi, ardoqli.

Ot siynasi atru ufor erdi tek,
Tishlari durdona edi ohudek.

180 Lijomi kumushdek tovlanur edi,
O'zi uchgan o'qdan-da uchqur edi.

Uchqur qanot uchib uchqur qanotda,
Undan yetmish qadam qolardi otda.

⁶ Yetmish yo'lli dunyo – yetmish ikki mazhabli dunyo.

⁷ To'qqiz hujra – Payg'ambar (s.a.v.) ning to'qqiz ayoliga ishorat.

Farishtadek olam kashf etardi ul,
Kashf aylabon, olamni eltardi ul.

Kecha yaylovida mast edi andoq,
Bugun ustida oy kabi shabchiroq.

Shundoq sur'at ila odam otardi,
Manzil oshib, manzillarga yetardi.

185 Qadam bosardiyu solardi nazar,
Nazar solardiyu yana yo'l bosar.

Payg'ambar samoda ot surib yalang,
U moviy dengizdan chiqarardi chang.

Yo'lshunos yo'lchiyu toliqmas tulpor,
Ajab tulpor edi. ajab shahsuvor!

Otlanib, manzildin chiqqani zamon,
Nurlanib, yangicha to'n kiydi osmon.

Falak gunbazi, gulshan bo'ldi andin,
Yulduzlar barcha ravshan bo'ldi andin.

190 O'shal pardaki chun g'ubordin forig',
Gardu g'ubor ila bo'lmasdi borib.

Etti dengizga ul yetgani hamon,
Yuvindi, qadamin pok etdi tamom.

Asbob-anjomini yulduzga tutdi,
Uyqu beshigini oyga baxsh etdi.

Utorudga qalam tutqizdi shu dam,
Toki avom bo'lib surmasin qalam.

Tab'ining sharbatin Nohidga berdi,
Shukrona nonini Xurshidga berdi.

- 195 Berdi qahr o'tin Mirrixga shunda,
Qahr ila yurib bo'lmasdi bunda.

Mushtariyga berdi kibrini andoq,
Uzugiga yangi tosh qo'ydi, porloq.

To'rt unsumi tutdi Kayvonga yana,
O'zida oq gavhar qoldi yagona.

Har manzilda xayru ehson etdi ul,
Qoldi borlig'idin tanho bir ko'ngil.

Payg'ambarlar so'rab gardi xokini,
Har tarafdin tutdilar fitrokini.

- 200 Necha dovon oshib, otini surdi,
Tog'lardanam tushib, yeldi-yugurdi.

Unga hamroh edi Xizr va Muso,
Oldinda yo'l boshchi edi Masiho.

O'shal bir nafasda kechgan qadamda,
Ya'ni, bir ko'z yumib ochgudek damda,

Osmon gunbazini oshib o'toldi,
Zamin ham, zamon ham orqada qoldi.

Ko'rolsang, shu sur'at aro ko'r ani,
Bir kimsa ko'rmadi uning gardini.

- 205 Misli o'qdek kechgan shu sur'at ora,
Falak o'q uzishga topmadi chora.

Tani masofalar osharkan uchqur,
Ruhoniy jonlarga bag'ishladi nur.

O'sha yo'lsiz yo'lda tulpori toldi,
Yuki ham noiloj yo'llarda qoldi.

Qanoti, parrini to'kdi Jabroil,
Vahimaga tushib qochdi Isrofil.

Rafradfin ham o'tib necha farsanglar,
Ko'rdi ul pardada turfa ohanglar.

- 210 Sidradin to Arshning shiftiga dovr
Qadam-qadam ismat to'shab bordi ul.

Arshiyarning dovongohidin o'tdi,
Kechib darjdin, yana ilgari ketdi^{*}.

Etdi maqsad masofasiga poyon,
Bitdi shu nuqtada pargori davron.

Zamin o'g'li shundoq yo'l bosib otda,
Zaminu osmonni qoldirdi ortda.

Shunchalar qoldiki yo'qsil, benavo,
O'zidin bir vaqo qolmadi aslo.

- 215 Ki yo'qlik yo'lida chun urdi javlon,
Butun borlig'idin qolmadi nishon.

Tushdi bir doira aylanasiga,
Bosh, oyog'i keldi osti ustiga.

^{*} Darj – daraja, koinot pillapoyalaridan biri.

Bir pastu balandsiz yo'l edi zotan,
Ki ul doirada yo'q pastu baland.

Siyosat pardasi otildi nari,
Hujra qoldi begonalardin xoli.

Va o'shal makonda voqe bo'ldi shul,
Muhammaddin salom, Allohдин qabul.

220 Eshitdi bir kalom, sadosiz erdi,
Ko'rmoq istadigi siymoni ko'rdi.

Ko'rdi shunda ul Hazrati zuljalol,
U yoqdin jihatmas, bu yoqdin xayol.

Tani nargis kabi aylandi ko'zga,
Ko'zida yo'q edi Xudodin o'zga.

O'shal ko'z kim nargisi bog'din edi,
Surmasi zog'danmas, mozog'din edi.

Sufraga o'ltirib, ayladi ixlos,
O'zi yeb, bizga ham ulush oldi xos.

225 Ko'ngil nuri fayzi llohga to'ldi,
Ko'ring ul yetimni, podsho bo'ldi.

Qaytdi so'ng olamga yuzni yashnatib,
Ko'nglida olam ilmuni jam etib.

Bo'yla borishniyu qaytishni sira
Bir kimsa ko'rmamish andisha ichra.

Borib qaytdi misli bir yashin yanglig',
To'shagi hali ham turardi iliq.

Bilmam, ul kechanning aslin ne derdi?
Bir necha erdimi yoki yil erdi?

- 230 Bas, bizning ruhimiz charx urib chunon,
Bir zumda olamni sayr etar qachon?

Tani jonimizdin sof erdiikm, ul
Bir zumda olamni sayt etdi butkul.

Ravodir unga jon nisor aylasam,
Chor yoriga madhu sano so'yilasam.

To'rt gavhar bordiru tort xaridor bor,
Sotuvchi past-baland etarmi zinhor?

Garchi Ali mehri dilda hmmo-lim,
Umarning ishqidin xolimas ko'nglim.

- 235 Har ikki nur ila nurafshon dimog',
Abubakr shamu Usmondir charog'.

Ul to'rt sulton erdikim darveshmaqom,
Davlatga to'rt takbir etdilar tamom.

Nabiylarga peshvo bo'lganga tahsin,
Uzrlarni qabul qilganga tahsin.

Sensan shu olamda avvalin oyat,
Davr so'nggida oyati nihoyat.

Sababkori har ikki olam O'zing,
Senga o'xshashi bo'lsa, ul ham O'zing.

Ganjinalarga sen kalit begumon,
Yaxshi ne, yomon ne, aylading ayon.

240 Bizni kunu tunlar etib tarbiya,
Shafolat etarsan ummatim deya.

Men ham bir ummating g'arib, xokisor,
Fitrokingga boshini qo'ygan shikor.

Nizomiykim tutdi Ganjada maskan,
Salomingdin etgil uni bahramand...

“Sharafnoma” nazmiga kirishmoq

Tun sahardek o'zini orasta aylab,
Subhidamga necha duolar so'ylab.

245 To'lin oydan ravshan etib jahonni,
Jahon uzra sochib atri rayhonni.

Bozor shovqin-suroni tingan mahal,
Qo'ng'iroqlar jarangi tingan mahal.

Uyquga ketganda qorovullar ham,
Subhi sodiq boshin suvga urgan dam.

Men dunyo ishidin ko'z yumib mutloq,
Fikr zanjuriga band edim, tutsoq.

Ko'zim yumuq, ko'nglim munavvar edi,
Yo'l topishga xotir safarbar edi.

250 Derdim, bir ovxalta qo'linga olsam,
Ov qilsam, o'ljani o'shanga solsam.

Marol surunidek erdi bolishim,
Sarosima ichra uchib nolishim,

Tizzamga bosh qo'yib, o'ylardim hamon.
Boshim ostida yer, poyimda osmon.

A'zoyi tanimda raqs edi, o'yin,
Boshim kursi edi oyog'im uchun,

Fikrim javloniga etarkan madad,
Jismim sovrilardi go'yo gard-gard.

255 Tanimni shu manzil aro tark etib,
Jonim sahrosiga ozuqa eltib,

Goh sirli lavhadin olib ibratlar,
Gahi ustozlardin o'qib hikmatlar,

Sham'im otashidin o't olib bog'im.
Bog'im bo'lib go'yo bag'rimda dog'im.

Quyoshda erigan mum kabi tuyg'u
Boyladi oqibat ko'zimga uyqu.

Jodugarlar mendan o'rgandi nuqul,
Uyquni mum ila boylamakni ul.

260 O'sha tashvishli fikru andishadan
Xayolim boshimda chuvalab Chindan,

Chunon uyqu bosdi meni ul zamon,
Qarshimda bir bo'ston bo'ldi namoyon.

Xurmo terar edim bog'da tinmayin.
Uchragan kishiga berardim keyin.

Bir mahal uyg'ondim tark etib uyqu,
Fikrimda otashu og'zim to'la suv.

Muazzin boshlarkan birinchi qunut,
Ki “subhon hayyallaziy loyamut”⁹

- 265 Mendanam bir nola uchdi daf’atan,
Fikrim tiniq tortdi, o’ylarim ravshan.

Chu subhi saodat balqidi nogoh,
Tirildim sabodin o’shal subhgo.

Sham’imni qaytadin yoqib, quvondim,
Fikru andishadin o’zim-da yondim.

Boshladi dil va til suxanvarligin,
Horutu Zuhrodek afsungarligin.

Ki bo’ylakim bekor o’ltirganim bas,
Yangi mashg’ulotga uray endi dast.

- 270 Ajib navo ichra aytay kalomim,
O’tganlar ruhiga yo’llay salomim.

Charog’im ravshan etay parvonadin,
Daraxt o’stiray bir danak, donadin.

Kimki ul daraxtning uzsa mevasin,
Bog’bonni ham eslab, duo aylasin.

Yana shartim shuki, oriyatsiz, go’l,
Kimsalar bog’imga uzatmasin qo’l.

O’yladim, shoirlar sarbonidirman,
Gavharfurushlarning sultondirman.

⁹ Hamisha tirik va abadiy bo’lgan Allohga hamdu sanolar bo’lsin.

275 Hama boshqoq tersa, uyarman xirmon,
Hama pardozi etsa, qurarkan qo'rg'on.

Garchi bu chorsuda qurganman dastgoh,
O'g'rilardin emin emasman ammo.

Magar bu bozorda bormidir do'kon,
Ki unga har yoqdin yetmagay ziyon?

Qatra o'g'irlansa daryodin, ne g'am,
Bulut bergaydir ortiq undanam.

Yuz bir chirog'ing yoq, porlasin yonib,
Quyosh balqiganda qolurlar so'nib...

Hikoyat

280 Eshitdim. bir rindi jafokash erdi,
Qo'liga bir kuni bir dinor kirdi.

So'ylamishdi bir kotibi tangasanj¹⁰
Zarni zar tortadi doim, ganjni ganj...

Bozorda yugurdi shunda tezgina,
Bir dinordin topgum dedi xazina.

Bozorda bir do'kon ko'rdi shu asno,
Peshtaxta ustida chosh erdi tillo.

To'kilgandi unda bir xalta dinor,
Yarqirab turardi tiniq, beg'ubor.

¹⁰ Tangasanj – oltin, kumush tangalarning qiymatini yaxshi biladigan kimsa.

285 Xazina hirsini ko'nglida tuydi,
Dinorini darhol taxtaga qo'ydi.

Dinori turmadi joyida, ajab,
Uyulgan tilloga bordi pildirab.

Bechora rind bo'ldi shunda pushaymon,
Birga yuz olishga yo'q edi imkon.

Oh chekdi, o'zga bir chora topmayin,
Gavharfurushga ul yolbordi keyin.

Dedi: menkim yo'qsil, andoq holi tang,
Dunyoda bir dinor topgandim arang.

290 Menga oqil emas, bir nodon magar,
Zarni zar chekadi degandi bir gal.

Shuning-chun do'koning sari yugurdim,
Dinorim xazinang yoniga surdim.

O'yladim tortar deb xazinangni ul,
O'zi borib zarga qo'shildi butkul...

Kuldi sarrof buni eshitgan zamon,
Keyin bilganini ayladi bayon.

Dedi: ko'pni sira kam tortgaymidir?
Bimi yuz tortadi, tortmas yuzni bir...

295 Gar birov bisotimga cho'zsa qo'lin,
Shu masal soqchidir, to'sgaydir yo'lin.

Tegirmon agarchi g'arra-g'ur qilur,
Unni u tortadi, boshqalar olur.

O'g'rilardin olgan muzdim emas kam,
Ki meni o'g'ri deb urolmaslar dam.

Qarolar o'g'rilik ado aylagay,
Dunyoni ko'zlarga qaro aylagay.

Kunduzi ko'z ko'zdin uyalar debon.
Mardumni kechalar etgaylar talon.

300 Kotiblar to oppoq tonggacha ishlab,
Ko'chirgaylar toldin qalam tarashlab.

Nihonim so'ngra oshkora borar,
Ganjadin yo'l bosib, Buxoro borar.

Yashirin eltmoqni ular istamas,
O'g'irlangan molga baho bo'lur past.

Qachon qilmishlari bo'lsa oshkor,
Qalblari, qo'llari qolur hemador.

O'g'irlangan moldin chiqmasa nishon,
O'margan o'g'rimas, mirshabdir hamon...

305 Xayr, mayli dedim, falakning o'zi
Har yaxshi, yomonga baho bergusi.

Falak tarozisi etmas ko'pu kam,
O'lchadi, o'lchagay bundan keyin ham...

**O'z holi va zamon ahvoli xususida
Soqiynoma**

Ketur, soqiy maydin nishon ber menga,
Meni behush etsin, hamon ber menga.

Ul achchiq doridin dilim xush etgay,
O'zimni bir nafas faromush etay...

Pandu hikmat

Nizomiy yetar sohib ovozalik,
Keksaygan chog'da ham chunon tozalik.

310 Panja sol o'kirgan sher bo'lib go'yo,
Vale tulki kabi turlanma aslo.

Eshitganman kirdorin rus tulkisin,
O'ziga berarmish kelinchak tusin.

Yong'ir yog'sa, to'zon tursa-a. ajab,
Inida yotarmish mo'ynasin asrab.

Ochlik qiynasa-da chidarmish tag'in,
Qo'lini yalarmish yoki oyog'in.

Terisi deb icharmish o'z qonini,
Terisiga tikar emish jonini.

315 Ajal yetib, bosar nogoh falokat,
Terisi keltirar unga halokat.

Ovchilar joniga avval qasd qilib,
Keyin terisini olurlar shilib.

Bisot jam aylamak ma'nisi nadir,
Bir kun barchasidin kecharsan, axir.

Oro bermasaydi o'ziga hayvon,
Unga o'zgalardin yetmasdi ziyon –

Etti rang paradani tark etgil, ayo,
Chang bossa, ko'zgu ham tiyradir, qaro.

320 Shuncha jodu qurding, yetar endi, bas.
Jodu birlan bir kimsaga etma qasd.

Qizil gugurtmassan, oq la'li-yoqut,
Ki izlagan bo'lgay sendan nounid.

Odamlarga qo'shil ersang odamiy,
Odam yashar odam ila har damiy.

Qo'l yetmas xazina ersang-da porloq,
Bundoq xazinalar konidir tuproq.

Daraxtning mevasi yeyilmas ekan,
Farqi yo'q, ul xurmomidir yo tikan.

325 Yoshliksiz tiriklik bormi, ey falon,
Gar yoshlik bo'lmasa, bo'lmasin jahon.

Yoshlik go'zallikdir, unda gul isi,
Go'zalliksiz shodlik qachon bo'lgusi?

Paying sust bo'lib, mo'rt esa ustuxon,
Jangu jasoratdin so'ylama doston.

Yoshliging g'ururi o'ldi, bas endi,
O'yinqarog'liging yarashmas endi.

Bog'u bo'ston chiroyi chandon erur,
Gar shamshod birla lola xandon erur.

- 330 Xazon shamoliga eshik ochsa bog',
Bulbulning o'rnini bog'da olur zog'.

Baland butoqlardin sochilur xazon,
Boqib, andin ma'yus tortadi bog'bon.

Bog' sahnida guli rayhon ko'rinmas,
Eshikda endi bir inson ko'rinmas.

Fig'onu nola chek, ey keksa bulbul,
Qizil gulning ruxsori tortdi sarig'.

Sarvinozning tik qomati bo'ldi xam.
Soyadin o'zini chekdi bog'bon ham.

- 335 Yosh ellikka yetgach, boshqachadir hol,
Yurish-turishda ham ayricha ahvol.

Yuk bosib, toshga bosh urilar shu tob,
Tor yo'lda tevaning holidir xarob.

Qo'lim titrar sharob kosasin tutsam,
Oyog'im qaltirar o'rnimdan tursam.

Lojuvard, ko'kish rang tinimga indi,
Qizil gulim so'lib, sarg'aydi endi.

Chopqir otim chopmas, bitdi bardoshim,
Etdi bu alamdin yostiqa boshim.

- 340 O't chaqnardi avval otim poyidin,
Endi qamchi ursam, jilmas joyidin.

Mayxona yo'lini yo'qotdim shu on,
Pushaymonlik ko'rsatdi o'zdin nishon.

Tog' ortidin bulut yog'dirdi kofur,
Zamin peshvoz chiqib, simirdi kofur.

Ko'nglim aylar gahi ketishni orzu.
Boshim istar gahi yetishsa uyqu.

Yor sasin ilg'amas endi qulog'im,
Qadah bo'sh, qarshimda soqiy turar jim.

345 Boshdin kayf, quloqdin uzildi samo,
Yaqin qoldi olamga etmak vido.

Saroydin afzaldir xilvat bu zamon,
Bunda kulgu, mazax aylamas davron.

Toki Sham'i Shabafruz xandon erur,
Parvonaga tamosho chandon erur.

Shamdin xoli etsang magar xonani,
Unda ko'rmagaysan bir parvonani.

Gurkirab yoshligu ozodalikdin,
Lof urdim keksalik, aftodalikdin.

350 Endi g'am bosganda shodmonlik etay,
Qarilik ichra navqironlik etay.

Bog' kunjida yotgan quruq yog'och ham,
Kechani charog'dek aylagay ravshan.

Yaltiroq qurt dag'i chaqnab tovlanur,
Tun qorong'usida urar lofi nur.

O'zimda ko'rsaydim gar afzoyishim¹¹,
Topardim bir manzili osoyishim.

Yangi bir osuda damga yetardim,
Jahonni shodlikka garov etardim.

- 355 Yoshlik poyoniga yetgan shu mahal
Mashriqdin oqarib ko'rishdi sahar.

Nechuk tadbir-la daf etib zahmatim,
Etarman, muyassar bo'lur rohatim?

Toj kiymoqqa loyiq boshga doimo
Oq yarashmas, yarashgay mushkin qaro,

Etti pargorli ko'k, yetarkan gali,
Umr xatim chilpora etmay hali,

Qo'limni band etay zahmatga tag'in,
Olamga ovoza qilay borlig'im.

- 360 Har bir so'z uza huqqabozlik etay¹²,
Ojizligimga chorasozlik etay.

Gelon ko'prigidin gar o'tsa otim,
Ahdim shuki, gelonga hech qaytmagum.

Bu yo'l uzra mendek yotganlar ziyod,
Ularni aylamas biror kimsa yod.

Ey sayroqi kaklik, yod ayla meni,
Mozorim ustidan o'tganing dami!

¹¹ Ya'ni, kuch-quvvatim oshganini ko'rsaydim.

¹² Huqqabozlik – sehrbozlik.

Ko'rarsen, qabrim uza o'smish alaf,
Qabr toshim cho'kib, og'mish bir taraf.

365 El hokimni sochib, aylamish g'ubor,
Boshimga kelmamish biror do'stu yor.

Qabrim uzra kelib qo'nganing zamon,
Gavhari pokimni yod ayla hamon.

To'ksang ko'z yoshingdin qabrim uzra dur,
Socharman samodan u dam senga nur.

Meni duo aylarda etsang shitob,
"Omin!" derman, bo'lsin deya mustajob.

Salom desang, men ham degayman salom,
Kelar bo'lsang, ko'kdin tusharman hamon.

370 Meni o'zing kabi tirik deb o'yla,
Jon birla kelgayman, kelsang tan ila.

O'zingga hamisha hamdam et meni,
Sen ko'rmasang-da, men ko'rarman seni.

Marhumlar yodida saqlama sukut,
Uxlaganlarni sen aylama ugut.

Labolab to'latib, ol ilkingga jom,
Nizomiy qabri sori etgil xirom.

Ey Xizr, o'ylama, uldir maqsadim,
Ki maydin may erur mening matlabim.

375 O'shal maydin bir behushlikdir murod,
Bir majlisi ko'ngil xushlikdir murod.

Menga soqiy erur va'dayi Xudo,
May derman garchi men xarobiy, ado,

Tangriga qasamki, shu jahon ichra
Labim may jomiga tegmamish sira.

Agarda labiga eltgan ersa jom,
Nizomiyga har ne halol ham harom.

Ushbu noma va o'zga nomalar sharafiga Soqiynoma

Ketur, soqiy, ko'zimdin quv uyquni,
Mayi nob birla tark etay qayg'uni.

- 380 Andoq mayki, no'shi ziloldir o'shal,
To'rt mazhab uchun ham haloldir o'shal.

Pandu hikmat

Ko'nglim, buyuklikka bo'lmasang oshiq,
Buyuklar birla o'ltirmak ne loyiq?

Buyuklik maqomin aylasang havas,
Buyuklar yodi birla bo'l hamnafas.

Toki so'ralmasa, jim tur, poyla payt,
Gavhar so'zing sindirna, ohista ayt.

Birov so'ramasdan so'z ochsa inson,
So'zini sovurib, etadi roygon.

385 Magar ko'rmas ko'zga ne hojat charog',
Ko'rar ko'z birla ko'ngil ko'rgusi bog'.

So'z aytkim, insonlar bo'lib bahramand,
El aro ovozi ketsin baland.

So'zingga ho'lmasa munosib javob,
Uni zoe etib, aylama xarob.

So'zini shamolga sovurmay kishi,
Tiligi erk bermay turgani yaxshi.

Ne derdim, ey so'zga e'tiborsiz kas,
Senga yeb-ichishu yotish bo'lsa, bas.

390 Bilmassan, aytganim ne emishdir ul,
Men o'z eshigimda qoraman dovul.

Ajab matohlarim bordir har kuni,
Birov istamasa, chiqar jam uni.

Injuga sadaf deb boqsa xaridor,
Sotuvchiga undan ne manfaat bor?

Gavharim bor mening andoq arjmand,
Xaridor istarman bir gavharpisand¹³.

Andoq bir suhbatdosh kerakdir menga,
Ki ustoz asrorin aytayin unga.

395 Olmosi-la konim kovlasam deyman,
Joniga jonimni boylasam deyman.

¹³ Gavharpisand – gavharni taniydigan, uning qadriga yetadigan.

Dunyoda shunday bir qoida magar,
Birov dur sotadi, birov dur olar.

Ko'ngil qaydaki, unda g'am bo'lmagay,
Kamand qaydaki, ortga evrilmagay.

Xazina ustida o'ltirar ilon,
Ki unga yetishmoq bo'lmagay oson.

Butog'i bo'lmasa baland xurmoning,
Talon etilardi mevasi uning.

400 Soqchi bilan oshgil yo'lda dovonni,
Kul ostida asra o'tni, olovni.

Yumshoq tabiatim tufayli, ko'ring,
Ekinzorim mudom payxondir mening.

Dag'al tabiati bois o'zgalar
O'g'ri, yo'lto'sardin o'zini asrar.

Bolalarni yo'ldin qochirmoq uchun
O'zni zanjiy kabi qoraytmoq nechun?

Qay tarafga tushsa yo'lim, raftorim,
Yo'l ozuqam yaxshi fe'lu atvorim.

405 Xush tabiat mening gavharim, porloq.
Shundoq yashab keldim, ketaman shundoq.

Boshqalar-chun chochdim talay durdona.
Endi o'zimga deb tuzay tarona.

Necha suxanvarlar aytdilar ash'or,
So'z mulkidin jahonda men yodgor.

So'z men bilan etarkan istiqomat,
To qiyomatgacha solur qiyomat.

So'z bo'stoni sahnida orastaman,
Sarvdek xizmatga kamarbastaman.

- 410 Falakdek barchadin turarmen yiroq,
Magar bosh bo'lsam-da, o'parmen oyoq.

Barjisdek jang aro ko'rsam badgumon¹⁴,
Kamonini bor, ammo otmasmen kamon.

Zuhrodek tarozuga qo'ygum diram,
Tortmasmen tarozuda, baxsh aylaram.

Kulmasmen birovning g'amiga zinhor,
Yashindek o'zimni kuydirar sharor.

Har tikanga guldek salo degaymen,
Har ma'yusga naydek navo degaymen.

- 415 Bu kuyin ko'ngilda olovdir andoq,
Tikanlar yodidin chun bo'ldi yashnoq.

Daryodek ayblarni yuvguvchimen, bas,
Ko'zgudek do'st aybin ochguvchi emas.

Kim istasa, baxsh aylagum molu ganj,
Gar qaytarib bersa, chekmagaymen ranj.

Arpa ko'rsatarmen bug'doy bersam-da.
Bug'doyim ko'rsatib sotmasmen arpa.

¹⁴ Barjis – Mushtariy yulduzi. Badgumon – dushman.

Quyoshdek old-ortim nurlidir porloq,
Nurlarim farovon, firibim ozroq.

- 420 Kimsaning ortidin demasmen yomon,
Xijolat chekarmen duch kelgan zamon.

Yomon so'zni tilga olmasman aslo,
Pushaymon bo'lurmen oxirda, illo.

Yomon, badniyatni demasman yomon,
Ki o'zim ham yomon bo'lgaymen hamon.

Faqat Yaxshilikdin kalom degaymen,
Yaxshilar nomidin salom degaymen.

Men hikoyat etsam bugun yaxshini,
Yaxshilar ziyorat etgaylar meni.

- 425 Diram sochganlarga dur etgum nisor,
Sarkashlik etganga sarkashligim bor.

Bir burchakda nochor yotarmidim tinch,
Jahon shamolidin qo'rqadi turunj.

Jahon shohlaridin qay biri qachon
Mendek shoir ko'rmish, yetuk, xushzabon?

Gulshan aro yashnab ochilgan bir gul
Ko'rmishmi men kabi oshufta bulbul?

Har donishdin daftar orasta aylab,
Har nuqta sharhiga qalamim shaylab.

- 430 Har bilimda bordir fikri ravshanim,
Har ilmda yana ayru bir fanim.

Lablardin gohida to`karmen sharob,
Ko`zlardin gohida socharmen gulob.

Birovni yig`latib, yoshga g`arq etsam,
Uni quyosh kabi kuldirarman ham.

Hovuchim to`la dur erur, davlatim.
Oq novoddin qizil unnob sarvatim.

Zuhd eshigin mahkam berkitib hamon.
Qodirman tuzmoqqa bir bazmi jonon.

435 Daraxtim bir joyda ko`kardi, undi,
Silkitsam, ildizi lat yegay endi.

Chilla qirq kun esa xilvati mingdir,
Bazmga bormog`im endi qiyindir.

Sel bosib kelarkan ortiq tashvishi,
Raydan Buxoroga borarmi kishi?

Ul joizki, shamol xuruj etgan dam
Qarddon go`shamdin nari ketmasam.

Endi kamroq bo`lay xalqqa rahnamoy,
Xumoyun bo`ldi kam ko`ringach humoy.

440 Emoq, yugurmoqdin aylanib boshim,
O`zga bir chora yo`q, bitdi bardoshim.

Lozimdirki guldek tarashlab so`zni,
Unga nolon bulbul aylasam o`zni.

Ko`rsaydim o`zimdin yaxshiroq gulshan,
Guldasta yasardim oq, sariq guldan.

Jigarimdin kabob pishirgum ortiq,
Gadolik etmasman oftob yanglig'.

Simurg'dek bir go'shani tutgum makon,
O'zim qulog'imga so'ylagum doston.

- 445 Etishdi davronga mendin malolat,
Topay bir go'shada endi farog'at.

Xonam eshigini osmon monand
Bekitdim, bir kimsa bosolmas qadam.

Bilmam, qay tarafga zamon borgusi,
Ne yaxshi, yomonga jahon borgusi.

Qariyb o'likdirman, lek mardi maydon,
Karvondamen, emasman ahli karvon.

Yuz ranj ila bir bor olurman nafas,
Uxlamay deb tinmay chalurman jaras¹⁵.

- 450 Necha izlasam-da, topmadim ani,
Meni jondin aziz ko'rgan kimsani.

O'zgalar mehridin yuz burib shunda,
Mehribon kimsani topdim o'zimda.

Garchi oshiqlarga xush emas, biroq,
O'zinni sevganim bugun yaxshiroq.

O'zgalardin mehr ko'rmasam, ne g'am,
Xudoyim razzoqdir, bergay nasibam.

¹⁵ Jaras – qo'ng'iroq.

Xalqdin hojat eshigin yopsang, na xush,
Eshikbondin yiroq turolsang, na xush.

- 455 Ilojim yetsaydi, birovni, illo,
Hojatmand etmasdim birovga aslo.

Turibman tilsimli doira ichra.
Boshimni tashqari chiqarmam sira.

Bu doira ichra inson holi shul,
Qonli bir go'shada mahbus erur ul.

Xalq ila tugadi, bitdi suhbatim,
Osudalik bo'lur andin davlatim.

Qirq kun etdim o'zni sinovga duchor,
Charm ham qirq kunda bo'lgusi tayyor.

- 460 To'rt bolish ustida tin olib arang,
O'ltirdim to'rt devor ichra holi tang.

Tegirmonga har gal solib arpa-don,
Gavharshunosga dur etdim armug'on.

Suxanparvarga ming ofarin, o'shal
Arpadondin gavhar undirar har gal.

Ho'lu quruq yoshli ruxsorim mening,
Uning-la suvalmish devorim mening.

Tan unda arpa donin paydo etar,
Dil bunda xazina muhayyo etar.

- 465 Behuda kechmadi umrim, turmushim,
Eb-ichishdin o'zga bor edi ishim.

Bir oqshom yotmadim shodon, beqayg'u,
Har kecha ilmdin bob ochdim ayru.

Zamirim ayolmas, olov-o'tlidir,
Maryamdek bokira, biroq yuklidir.

Erga ehtiyoji nechuk bo'lgusi,
Bola toshu tomirdin bo'lgay o'zi.

Mehnat, mashaqqat-la musaffo, biki
So'zlarni maydonga keltirar fikr.

470 So'z aytish so'zga jon etishdir fido,
Suxanvarlik har kimga ermas ravo.

Eyki, sen sopolni ataguvchi dur,
Va hammomda qo'shiq aytishga mohir,

Keng sahroni his et tasavvuringda,
Tomog'ing ovozdin yirtilar unda.

Shohning sikkasini tilloga urgil,
U sinsa ham, mayliga, sen sinmagil.

Juhud misni zarga bo'yadi, ko'ring,
Do'konini g'orat etishdi keyin.

475 Anjir bo'lolmagay har nechuk meva,
Zubayda bo'lurmu uchragan beva?¹⁶

Anjirxo'r qushlar ko'p bo'lsaydi bog'da,
Anjir qolmas edi novda, bu tog'da.

¹⁶ Zubayda – Horun ar Rashidning xotini.

Ikki hindu yo'lga tushsalar har on.
Bir o'g'ri bo'lur, biri posbon.

Men bu kumush suvni tortib kanordin,
Musaffo ayladim xoku g'ubordin.

Xurmodek qomatin tiklasa sanam,
Niqobin yuzidin olurman shu dam.

Daraxtni silkitib gohi mahalda,
Pishmagan mevasin tersang agarda,

Olganing ul olma xommidir, dumbul,
Esang tishlaringni qamashtirar ul.

Xom anjirni ezsang, yumshaydi hamon,
Eyar bo'lsang, etar tomog'ingni qon.

Vaqtida gul ochib, yashnasa daraxt,
Mevasi butog'da mo'l bo'lur albat.

Imorat qurma bo'sh, yumshoq zaminda,
Poydevor mustahkam bo'lmagay unda.

485 Nizomiyning nuqul g'ayratdir ishi,
G'ayratsiz maqsadga yetarmi kishi?

Oqibat g'alladin uyarman xirmon,
Deb har gal ekinga kirishar dehqon.

G'allasi bozorda bo'lsa kambaho,
Ekinchi dalani o'ylamas aslo.

Tarannumsevarlar g'am bo'lib har chog',
Mug'anniy soziga tutarlar quloq.

Zarurat bo'ldikim, shaylanib bu dam,
Shu go'zal nomani raqam aylasam.

- 490 Ki doston degudek bir asar bo'lsin,
O'qiganlar andin bahravar bo'lsin.

Bildikmi, istarlar shuni do'stu yor,
Men uni yozishga ayladim qaror.

Yaxshilar nazdida misoli bo'ston,
Bo'lmamish bu yanglig' go'zal doston.

Boshqa nomalarni o'qi, xush emas,
Millatlar nazdida yaxshi sanalmas.

Ularda uchragan yolg'on uydirma,
Bu doston sahnida uchramas sira.

- 495 O'tkir qalamlar-la yozilmish butun,
Boshqa dostonlardin necha bor ustun.

Podsholar mayidin to'liq jomidir,
"Podsholar sharafnomasi" nomidir.

Avvalgi suxanvar, u donoyi To's,
Kelinchakdek bezatdi, yashnatdi so'z .

Duru gavhar sochdi dostonda necha,
Vale aytilmagan sir qoldi qancha.

Agarda barchasin etsaydi bayon,
Yana-da cho'zilib ketardi doston.

- 500 Ko'ngli ko'targuncha so'yladi faqat,
Ko'ngli tortmaganni aytmadi albat.

Do'stu yorga ulush ayirdi bir oz,
Odatda holva ham yolg'iz yeyilmas.

Nizomiy rishtaga gavhar tizgan dam
Qalam urilganga urmadi qalam¹⁷.

Duru gavharlarga to'la topdi ganj,
O'z tarzusida o'zi tortdi ganj.

"Sharafnoma"sin ovoza ayladi,
Eskini yangilab, toza ayladi...

Hazrati Xizrning doston borasida Nizomiyga ta'lim bergani Soqiynoma

505 Ketur, soqiy, ul arg'uvoniy sharob,
Menga tutgilki, etsin mastu xarob.

Xarobiy bo'lib men navo aylayin,
Xarobotiylarga salo aylayin...

Doston

Tun oqshom Xizrdin ta'lim yetdi, roz,
Quloqqa chalinmas g'oyib bir ovoz.

Dedi: "Tadbiringa jon etib payvand,
Jomimdin so'zimning sharbatin tortgan,

Bandalikdin bosh burib savsan kabi,
Tiriklik suvidin namlangan labi!

¹⁷ Ya'ni, avval yozilganlarni qalamga olmadi

510 Eshitdim, shohlarning vasfin aylabon,
Soʻz aytmoq boʻlibsan chun obi ravon.

Nopisand soʻzlarni aylama eʼzoz,
Qiyshiq pardalarda chalinmaydi soz.

Inja soʻzlar topgil, boʻlursan aziz,
Inja soʻzlaringni degaylar laziz.

Ajdaho komida jon berishlikni,
Yoki bir nahangga yem boʻlishlikni.

Afzal bilishadi soʻzga hassoslar
Nopisand bir soʻzni oʻqishdan avval.

515 Avval aytilganni aylama takror,
Sababki, dur degan teshilar bir bor.

Ammo zarur esa, yoʻqsa imkoni,
Takror aylamakning yoʻqdir ziyoni.

Sen yangi ustozsan, yetuksan, ulugʻ,
Oʻtgan ustozlarga ergashma ortiq.

Bokira soʻzlaring bisotingda moʻl,
Uzatma har nechuk beva soʻzga qoʻl.

Ovlanmagan ovga koʻpam gʻam yema,
Emagan taoming koʻrinar yaxna.

520 Gavhar toshda oson tutmagay makon,
Toshdan ajratish ham emasdir oson.

Har neki koʻrarsen goʻzallikka band,
Qattiq yerdan chiqar mashaqqat bilan.

Gavhar mashaqqat-la kelar hamisha,
Kumush tozalikni sevar hamisha.

Hulu quruq demay ishlagan odam,
Sigirdin zar topar, baliqdin diram.

Kumush xum istarsan yoki zar tovoq,
Iroq tuprog'idin ketmagil yiroq.

525 Raydan Jand, Dehiston, Xorazmgacha
Ko'rganing sel izi bo'lur bir necha.

Buxoriyu xizriyu geliyu kurd
Bir burda non uchun jon berarlar zud.

Ikki nav erur ahli Mozandaron,
Biri dev, birisi devsifat polvon.

Bir giyoh ko'karsa Mozandaronda,
Yuz tikan nishtardek o'sadi unda.

Bor bo'lsin iroqiy ahli arjmand,
Fazli ovozasi hamisha baland.

530 Har gal ochilarkan yashnab atirgul,
Iroqda o'shandin gulob tortilur.

Sen, ey elchi qushim, endi o'tir tek,
Jahonni kezmagil charx urib yeldek.

So'zingga sayqal ber, guhar aylagil,
Bayoning shirindan shakar aylagil.

Iskandar konidin guhar izla, dur,
Xarid aylamoqqa Iskandar kelur.

Jahondor esa xaridoring sening,
Kelur ko'k avjidan biroring sening.

- 535 Xaridor eshikka kelsa, sot shu dam,
TalaShma, bahosin etma ko'pu kam.

Dengiz guhar olsa, himmati boshqa,
Bir kema dur berar, bir parcha toshga.

Dengizdin bekitma o'sha afzaling,
Dur talab etgilu sotgil gavharing.

O'rtada xolis tur bahaqqi savob,
Six ham kuymasinu kuymasin kabob".

Xizrning o'giti keldi menga xush,
Tozardi boshimga hamon aqlu hush.

- 540 Dilrabo so'z qachon besamar ketgay?
Yurakdin chiqsa ul yurakka yetgay.

Qalbinga jo bo'lgach o'gitlar bari,
Lab ochdim so'zgakim, ul durri dariy.

Boshlab har shevadin bir hangomani,
So'z ila yangilay dedim nomani.

Hayratlar ko'yida ko'ngil xushladim,
Buyuklar nomiga qur'a tashladim.

Xayolim ko'zgusi yorishdi shunda,
Iskandar timsoli ko'rindi unda.

- 545 Bepisand boqmagil, o'shal Shahriyor
Ham jasur jangchi erdi, ham tojdor.

Bir guruh sohibi toju taxt derdi,
O'lkalar oluvchi jahongir erdi.

Bir guruh ilmini ko'rib beaded,
Donishmand atardi, daryoyi hikmat.

Bir guruh ko'rarkan dinparvarligin,
Qabul aylamishdi payg'ambarligin.

Men shu uch urug'ni endi etib jam,
Istarman, azamat daraxt ko'kartsam.

550 Avval podsholigini etsam bayon,
Jahongirligini aylasam ayon.

Keyin hikmatiga so'zimni ulab,
Ul ko'hna tarixni aysam yangilab.

Payg'ambarligini desam yakuni,
Payg'ambarim demish Xudo ham uni.

Uch eshik yasadim, bari koni ganj,
Chekib ayru-ayru adosiga ranj.

Uch eshikdin yangrab uhsin so'zlarim,
Olam etagiga to'lsin gavharim.

555 Jahon ichra qurdim yangi tarozu,
Jahonda necha bir ellarga orzu.

Xayf erur, yozganim shu go'zal ash'or,
Ustini qoplasa chang ila g'ubor.

Bir davlat eshigi bo'lgaymi yorim,
Cheksam devoriga naqshu nigorim?

Ki andin umrini daroz aylasam,
Zamonlar gardidin xalos aylasam.

Va bu nomaki bo'yla nomdor erur,
Men nomiga bitib, baxsh etsam umr.

560 Qursam shu nomadin manzilida taxt,
Unda o'ltirsa ul abadul abad.

So'z ila muzayyan etay nomini,
Shu yerda topsin tinchu oromini.

Bir so'zi olam yodidin o'chmasin,
Selda yuvilmasin, yelda ko'chmasin.

Shart shuki, men chekib mashaqqat necha,
Ko'targum boshin oyu oftobgacha.

Joy tegsin menga ham poygohidin ul,
Boshinga yarasha kulohidin ul.

565 Quyoshdin har lahza nur kelur porloq,
Soyaning yo'li bu shevadin yiroq.

Qarg'aning kabutarga haddi bor,
Podsho loChin ila aylagay shikor.

Nizomiykim, dariyda ash'oridir,
Dariy nazmi uning sazovoridir,

Chunon so'ylamish bu noma naqlini,
O'qiganning ravshan etar aqlini.

Do'st uni ko'ziga qaroq aylasin,
G'animlar ko'zidin yiroq aylasin.

570 Navosi agarchi bo'zto'rg'aysimon,
Dushmanim cheksa, ul bag'rim etar qon.

Men so'zni yuritib shu suhbataro,
Tangriga etarman zoru tavallo!

Bu nomani oliymaqom aylasin,
Kirom aylaganni kirom aylasin.

Ochsin qanotini, parru bolini,
Xayrli yulduzdin bersin folini.

Quvonch bersin o'qib yurguvchilarga,
Farah baxsh aylasin bilguvchilarga.

575 Tiriltirsin o'lik dillarni takror,
G'amga botganlarga bo'lsin madadkor.

Xasta yuraklarni etsin navozish,
Yo'li yopiq'larga bersin kushoyish.

Zaifu notavon o'qisa, illo,
Quvvat bag'ishlasin jismiga Alloh.

Noumid kimsa ham olarman qo'lga,
Muyassar bo'lsin ul umidli dilga.

So'radim, Xudoyim berdi ne'matim.
Har ne berganiga shukrona etdim.

580 Bu noma muborak bo'lur muqarrar,
Muborak bo'lsa shoh bazmida avval...

**Atobeki a'zam Nusratuddin Abubakr ibni
Muhammad madhi¹⁸
Soqiynoma**

Ketur, soqiy. ul yoqutrang bodani,
Yoqutdek jomingga to'ldirgil ani.

Safolin jomki, may uning jonidir,
Safolin zamin guli rayhonidir...

Madh

Bayrog'ing ko'tar, ey oftob, baland,
Bulutlar, xiromon aylangiz xursand.

Guldirak, chal gumbur nog'orangni ul,
Chaqin, tong nuridek xandon otib, kul.

585 Havo, soch qatrayi gavhar misoling,
Sadaf. dur ayladi obi ziloling.

Inju, chiqib sen ham royingni topgil.
Borib, shoh tojidin joyingni topgil¹⁹.

Shohki, yuksalishing orzu aylanar,
Uning xoki poyi tojing uzra dur.

Sikandar shukuhdir, uning-la ro'y-rost
Sikandar shukuhi qaytib keldi boz.

¹⁸ Ozarbayjon hukmdori, Qizil Alp arslonning ukasi, milodiy 1193 yilda vafot etgan.

¹⁹ Inju – bu yerda shoirning so'zi ma'nosida.

Eru samolarga o'zidir mahbub,
Yovlari hamisha poyida mag'lub.

- 590 Mardonalik ila mag'ribga suyanch,
Farzonalik ila mashriqqa tayanch.

Jahonpahlavon Nusratuddinki, bas,
G'animlar oldida ko'kdek zabardast.

Dushman so'ng ko'rganni u ko'rar oldin,
Kammehr yomonga aylar qahru kiyn.

Ilkida qilichdir va taxtu kuloh,
Uch karra nog'ora, besh karra panoh²⁰.

Rustam rikobida yurar, oti Raxsh²¹,
Taxtga ziynat berib, toj aylagay baxsh.

- 595 Shohlarga yasatish odat shu taxlit,
Zarrin xazinaga temirdin kalit.

Buning rasmu royi o'zga dir Chindan,
Kaliti zardanu ganji temirdan.

Agarchi Furotdek munis, mehribon,
Vale Nildek etar dushmanni pinhon.

Gar quyoshga soya solsa banogoh,
Ul otash chashmaga suv urar go'yo.

²⁰ O'shanda podsholar eshigida har kuni uch mahal nog'ora chalinar edi.
Besh karra panoh – besh mahal namoz.

²¹ Raxsh – Rustamning afsonaviy oti.

Yangi oyga nazar tashlasa bir on,
Hilol to'lin oyga aylanur hamon.

- 600 Uning in'omini sanagan har zot,
Shukronasin etar keyin umrbod.

Shukridin hamisha ne'mati ortiq,
Valine'mat bormi yana u yanglig'?

Falakvor beliga boylasa kamar,
Dushmanni qalqonga suvga irg'itar.

Bulutdek guldirab kechar taloshi,
Tig'idin qirqilar tog'larning boshi.

Maydonda minchakim jasorati bor,
Na Rustam ko'rmishdir, na Iskandiyor.

- 605 Jahonning iqboli kuldi ul sahar,
Onadin quyoshdek tug'ilgan mahal.

Tulpori qayoqqa bossa tuyog'in,
Zamin yashnab ochar sabza yaprog'in.

Qaysi doiraga kirar bo'lsa, hay,
Pargori xatidan tugun yechilgay.

Qaysi shahar tomon tusharkan yo'lga,
Qorun xazinasin kiritgay qo'lga.

Qaysi bir qal'ani zabt etgan zamon,
Qal'a begi boshidin ajrar hamon.

- 610 O'zgalardek garchi odam bo'lsa ham,
Hama mardum erur, u o'zga odam.

Etuk insonlardin yo'qdir bir kimsa,
Ki uning sha'niga tahsin aytmasa.

Nozu ne'matlarkim aylamish nisor,
Olamning valine'mati oti bor.

Bir murda tirilib chiqsa qabrdin,
Sho'ru g'avg'o qo'par shaharda andin.

Adli jon baxsh etib minglarcha dilga,
Tirguzsa ham, dushman kirmamish yo'lga.

615 Necha murdalarni zinda ayladi,
Mardumni O'ziga banda ayladi.

Jahon gavhar konidek erdi xarob,
Uni obod ayladi chun oftob.

Zamin do'zax edi, otashda butkul,
Bulutdek dur sochib, jannat etdi ul.

Necha ne'matlarki, keldi bor-bor,
Hojatmand insonlarga etdi nisor.

Yaxshilik ayladi chunon erta-kech,
Jahon ahli buni unutgaymi hech?

620 Tubosidin yetsa bihishtga biri,
Har ko'shk aro kezar atri-anbari.

Etar Sharqdin g'arbga ehsoni uning,
Har xonada ne'mati xoni uning.

Ajab qasri borkim, misoli oftob,
Mashriqdin mag'ribga uzatmish tanob.

Nomi Kayxusravdek erur arjmand,
Nasabi Kayqubod singari baland.

Qaysi bir vodiya ot sursa hamon,
Xirmon-xirmon diram kelur begumon.

- 625 Er ganjiddin hamyon tikmishdir unga,
Suman siym, xayri zar to'kmishdir unga²².

Bormi shu dunyoda xazina magar,
Ki uning ganjiddin ko'rmamish samar?

Uning toji ila falak sarbaland.
O'shal toj ila boshi bo'lsin baland.

Ajab Xizru Iskandari koinot,
Ilkida mulkdiru ham obi hayot.

Iskandardek yurib, jahon olguchi.
Xizr kabi adashganlarga yo'lchi.

- 630 Har narsang bor, vale yurishingdir tek,
Bisotida vaqosi yo'q kimsadek.

Daryodek beqiyos himmating bordir,
Tuganmas kon kabi qiymating bordir.

Sher oldida sher kabi turguvchisan,
Bir o'q bilan ikki ov urguvchisan.

Fillar jangida sen otganda kamand,
Etarsan Qannuj shohini filband.²³

²² Xayri – gulixayri.

Sher marolni zo'rg'a yiqitgan damda,
Sherni yiqitarsan, Bahrom go'mi-da.

- 635 Ne davlat ul, sening izmingda ermas,
Ne shavkat ul, sening izmingda ermas.

Mag'rur edi ne-ne bo'yinlar doim,
Sen ot surganingda tortdi muloyim.

Ikki shaxs qahringdin omon qolgaydir,
Biri banda, biri anringga hozir.

Dushman uzr so'rsa, baxsh etarsan jon,
Ahdida turgay ul turguncha jahon.

Jahonning sahnida kechib ro'zgor,
Olti shohdin qoldi olti yodgor.

- 640 Toj qoldirdi Qayurmarsi nekbaxt,
Jamshiddan shamshiru Faridundan taxt.

Kayxusravdan qoldi jom getinamoy,
Yulduzlar asrori undan oldi joy.

Keyin keldi oyinayi gavhariy,
Ayon etdi tarixi iskandariy.

So'ngra la'linigor ul tillo uzuk,
Sulaymon muhri birla erdi tuzuk.

Shu olti narsa ham sendadir, ey shoh,
Bunga nomingdagi olti harf guvoh.

²¹ Qannuj – Hindistonning qadim shaharlaridan biri. Filband – shahmatda fil va piyoda vositasida shohni mot qilish.

645 Yana senga xosdir olti fazilat,
Ulardin hamisha nasibangdir baxt.

Birinchisi ulkim, xazinang bisyor,
Kutmaganda andin etarsan nisor.

Ikkinchisi, aylarsan lutfu karam.
Haqqiga shukrona kutmaysan hecham.

UChinchisi, minib shafqat otiga,
Etarsan sitamdiydalar dodiga.

To`rtinchisi, tikib ko`klarga bayroq,
Lashkaring boshida quyoshsan, porloq.

650 Beshinchisi, tinglab gunohkor ohin,
Muruvvat etarsan kechib gunohin.

Oltinchisi, ahdu paymonu qaror
Aylasang, so`zingga sadoqating bor.

Shu olti jihatdin judo bo`lmagil,
Olti xislatindin ayro bo`lmagil.

Ikki loChin kerak senga bir yo`la,
Biri mulking, biri xazinang uzra...

Er o`pib aytur...

655 Ey jahon podshosi, shu yetti osmon,
Ostida beshinchi iqlimga sulton!²⁴

²⁴ Beshinchi iqlim – Ozarbayjon va Turkiston.

Farmoningda shahru ma'volar necha,
Eshigingda turar podsholar necha.

Uzun tunlar oy sayri gardun etar,
Charog'ing moying ul afzun etar.

Kun bo'yi quyosh, zarrin tosh boshida,
Kamarbasta turar taxting qoshida.

Tangri senga shohlikni bergan kuni,
Ne istading jahondin, berdi uni.

660 Berdi shu mulkingni shohlik ayla deb,
Shu vatanda dodxohlik ayla deb.

To loChin pashshaga ziyon etmasin.
Fil bechora chumolini ezmasin.

O'zingga shukur, Xudoyi bokiram.
Shoh insofi ortiq aytganimdanam.

Insofiga ko'z tikarman bir qadar.
Ki shu doston sari tashlasin nazar.

Gar quruq afsona ko'rsa bunda ul,
Na bir soya solsin. na bir zarra nur.

665 Behisob dur ko'rsa ul Shaffofu Sha'n,
So'ylaguvchi sha'nini tutsin baland.

Bu ganjnomada so'ylab rozi jahon,
Necha zarrin kalit ayladim nihon.

Ul zarrin kalitni topa olsa kim,
Uning qarshisida ochilar tilsim.

Gar unga xazina ochilmasa ham,
Oltin kalit ila shod bo'lur, xurram.

Yarim sayqallanmish ul gavhar hamon,
Necha ganjinalar ostida nihon...

- 670 Nishot sendin erurki, sochdim guhar,
Ofarin dedimki, loyiqsan magar.

Xirad osmonni zamin aylagay,
Bu ofaringa ofarin aylagay.

Berdi farmonini menga Shahriyor,
Nomimizga naqsh ayla deb zarnigor.

Shohning farmoniga o'zni shaylayin,
Aqlu shuurimni ishga boylayin.

Bir sanam orasta etay, dilrabo,
Ki andin charog'on bo'lsin bazmi shoh.

- 675 Borsin shohga sanam, bir banda bo'lsin,
Shoh undan hamisha farxunda bo'lsin.

Charog'i jahontob baxsh aylab surur,
Har yaqin-yiroqni nurga to'ldirar.

Shoh bog'ining guli bo'lsin-da, kulsin,
Tun charog'i, kunduz mash'ali bo'lsin.

Dushmani qarg'adek og'zi yirtilib,
Tili kuysin yana jizg'anak bo'lib.

Nizomiy ayvonda o'ltirib shodon,
Ofarin o'qisin unga har zamon.

680 Yomon ko'zdin sira yetmasin asar,
Isiriq o'tida yonsin badnazar.

Sehr etmasin bu saroyini xarob,
Asrasin safolin idishda sudob.²⁵

Dushmanlari kuyib, omon bo'lsin shoh,
Deb Nizomiy tonglarda aylar duo.

Dostonni muxtasar bayon etmak Soqiynoma

Ketur, soqiy, Sharobi rohatfazo,
Uzat, to sabuhiy ichay tong aro.

Mayi halolim obi kavsar etay,
Rohatini to Ro'zi mahshar etay...

Pandu hikmat

685 Jahon yaxshi-yomon o'yinlardadir.
Yaxshiyu yomoni bo'yinlardadir.

Kunu tun shu pardayi nilgun
Chiqargay necha turfa, anvo o'yin.

Mendin o'yin kelsa magar dilpazir.
Uni ham charxi davron nayrangi bil.

Nayrangi meni chun xayoliy qildi,
Nechun xayol ila o'ynashmay endi?

²⁵ Sudob – sariq gul ochiladigan giyoh.

Endi shu pardani men xoliy etay,
Parda uzra joduxayoliy etay.

690 Andoq xayol to'kay so'zimdin magar,
Ki uni ko'rmamish biror jodugar.

Avval men chunon etib og'ozini,
Jonso'z ayladim nag'mayi sozini.

Chunon so'yladim, base hayrat edi,
Zamirida ammo haqiqat edi.

Har ikki aqldin yiroq erdi to,
Doston tarkibiga qo'shmadim aslo.

Har eshikdin olib gavhar donani,
Bezatdim andin bu sanamxonani.

695 Boshdanoq tamalin qo'ydim pishiq zo'r,
Ki uyning devori mustahkam bo'lur.

Ma'zur tut, ko'zingga chalinsa nuqson,
Nuqsonsiz bo'lmagay bu ish hech qachon.

Qalam topmamish Moniyi Naqshband,
Chizmoqqa shu mening san'atim monand.

Dostonni yozishga etarkan qaror,
So'z ravon, yo'l edi qarshimda qator.

Iskandarshoh xususida izlabon,
Ko'rmadim bir joyda jamuljam bayon.

700 So'zlarkim, xazinasifat kon edi,
Har nusxada ayru, parishon edi.

Har nusxadin oldim muayyan asos,
Nazmga boyladim, ayladim pardoz.

Yahudiyu nasroniyu pahlaviy
Tarixidin oldim xabar har naviy.

Har nomadin saylab-saylab aslini,
Po'stini tashladim, oldim mag'zini.

Har tildan o'zimga bir ulush uzdim,
O'sha jumalardin sarjumla tuzdim.

705 Ki har tildan kishi ogoh bo'lsa, bil,
Tiliga bir kimsa tegizolmas til.

Qaysi bir parada to'g'ri so'z ko'rdim,
Nazmdin ziynatlab, zulfini o'rdim.

To'g'ri so'z istasang, so'z ki ro'y-rost,
Nazm ziynatidin izlamak bo'lmas.

Magar nazm ziynatin kam aylasam,
Ul kammoya baytlarni jam aylasam,

Iskandar sarguzashtin, xullas kalom,
Bir varaq qog'ozda etgaydim tamom.

Iskandar tarixining bir varaqda bayoni

710 Sikandarkim shohi jahon erdi ul,
Jahon kezib, rosa javlon urdi ul.

To'rt jihat jahonni ko'rdi u yaxlit,
Ki mulk to'rt jihatsiz etilmas xarid.

Fath aylasa qay bir diyorni, albat,
Kayoniy rasmiga etdi rioyat.

Zardushtiy rasmini xushlamay yolg'iz,
O'zga odatlarga bo'ldi ochiq yuz.

Ilk bora ul zebu ziynatga o'tdi,
Rum ichra tillodin tanga zarb etdi.

715 Uning farmoni-la zargarlar, illo,
Kumushga tillodin berdilar jilo.

Xiradnomalarki yozilmish dariy,
Yunoniycha, qilib bitildi bari.

U joriy etmishdi har kun subhu shom
Eshikda muntazam bong urishni ham.

Xalqqa oyinadin bo'loldi rahbar,
Zulmatlar qo'ynidin chiqardi gavhar.

Jahondir surdi sho'rishu zangni ul,
Dorodin oldi toju avrangni ul²⁶.

720 Ham savdoyi Hindu, ham g'avg'oyi Ravs²⁷
Gardidin olamni xalos etdi, bas.

Ko'zgu bo'ldi Chiniyga royi aning,
Kayxusrav taxti uzra joyi aning.

Umridin yigirma yil o'tgan zamon
Shahanshohligini aytib urdi bong.

²⁶ Avrang – taxt.

²⁷ Ravs – ayrim tadqiqotchilar bu so'zni slavyan yoxud rus deb talqin etishgan.

Yigirma yoshiga yetganda yetti,
Unga payg'ambarlik maqomi yetdi.

O'shal kundanki ul Haq payg'ambari,
Yozildi bu tarixi Iskandariy.

725 Haq dini bobida ustoz bo'ldi ul,
Davlati dunyoga yoyildi butkul.

Dini pok yo'lida tuzib hujjatlar,
Qurdi Yer yuzida ko'p imoratlar.

Jahon sahnin ma'mur ayladi, obod,
Ne-ne buyuk shaharlar etdi bunyod.

Hindistonni qo'yib, Rumga qaytdi ul,
Har diyorda shahar barpo etdi ul.

Qurdi Samarqanddek porloq shaharni,
Samarqand, ne necha shundoq shaharni.

730 Yaratdi shaharlar ul misli Hiri²⁸,
Undan yodgor erur endi har biri.

Keyin borib shahri Darbandni qurdi,
Aqlu adolat-la boshida turdi.

Keyin shahar qurdi, nomidir Bulg'or
Aslida ul Bulg'or emas, Bunig'or²⁹.

Hamon saddi ya'juj ko'tardi baland,
Go'yoki tog' uzra tog' crdi Chindan.

²⁸ Hiri – Hirot.

²⁹ Iskandar zulmat dunyosiga yo'l olganda qo'shini qurol-aslahasini bir g'orda qoldirgan. Keyin shu yerda u shahar bunyod etgan. Buni g'or – g'orning tubi demakdir.

Yana ko'p qal'alar bunyod etdi chun,
Yod aylamak inushkul erur barchasin.

- 735 So'ng buyuk hukmdor shu jahon uzra
Shunday bir taqsimot ayladi so'ngra.

Salib xat ila chizdi naqshi jahon,
Salibiylikdin avval aylab ayon.

To'rtburchak xati atlasiy birla xos,
Soldi ul Handasa ilmiga asos.

To'rt taraf dunyoning tasvirin etdi,
Ovozasi to'qqiz falakka yetdi.

Bir qoziq Shimoliy qutbga qoqib,
Janubiy zaminga ildizin tortib,

- 740 Keyin mashriq sari tortib tanobin,
Keyin mag'ribga yetkazib hisobin,

Bo'ylakim sarosar zabt etdi dunyo,
Yana kimda bordur bu yanglig' borgoh?

Jahon kezmagin chun og'oz ayladi,
O'lchov asboblarini soz ayladi.

So'ng farsangu farsang, qadam bar qadam,
O'lchovsiz qolmadi bir qarich yer ham.

Er o'lchovlari, ul andozagir,
Yordamchi erdilar unga yuz dabir.

- 745 Rasan boylab, andoza paydo qilib,
Manzil miqdorini huvaydo qilib,

Quruqlikda chodir qurib o'ngu so'l,
Manzil-manzil keyin o'lchanardi yo'l.

Dengizga yetishib, tugasa quruq,
Dengizni o'lchashga berardi buyruq.

Ikki kema dengiz ichra yonma-yon,
Bog'lab turar edi o'rtada arqon.

Shunda langar tashlab turarkan biri,
Biri suzib ketar edi ilgari.

750 So'ngra langar tashlab to'xtar edi ul,
Langarin ko'tarib, suzar edi bul.

Ikkisi damba-dam ketardi olg'a,
Ikkisi damba-dam surardi dolg'a.

Shu tariyq o'lchar edi manzilshunos,
Sohildin to sohilni aylab qiyos.

Shu yo'sin rohatu farog'at chekib,
Handasa ilmi-la masofat chekib,

Zamin qanchadiru yo'l unda qancha,
Hisob-kitobini ayladi necha.

755 Chun rub'i maskunni ko'rsatdi ayon³⁰,
Yo'qsa, bizga uni bilishlik qayon?

Har manzil sori ul surar ekan Raxsh,
U joyni yashnatib, chiroy etdi baxsh.

³⁰ Rub'i maskun – Yerning to'rtidan bir bo'lagi, insonlar yashaydigan qismi.

Davo topdi dardlarga ovarasiz,
Lek amal yetganda qoldi chorasiz...

Sikandar tarixin aylarkan bayon,
Aytsa arzigulik shudir begumon.

Bundan boshqasini yozarkan qalam,
Xayol aralashur unga ko'pu kam.

760 Tarixda gar nazm ravo bo'lgusi,
Shubha yo'q, unda bir xato bo'lgusi.

So'zlarim gar andoq shirin adolik,
Barcha ishim g'alatkorlik, xatolik.

Shuning-chun har neki uydirma topdim,
Undan yuz o'girib, bir chetga otdim.

Shoh tarixin bayon aylab birma-bir,
O'quvchiga bo'lsin dedim dilpazir.

Zo'r bersam ortiqcha hayrat bayonga,
So'zning jilovini berar yolg'onga.

765 So'zga zebu ziynat bermasam agar,
Jozibasiz bo'lur eski nomalar.

So'zning andoq etay ko'rku jilosin,
Ki o'qigan kimsa unga ishonsin.

So'z gavhardek yonsa, ortiqcha yashnab,
Qolur shu boisdin yolg'onga o'xshab.

Yolg'on so'zing rostga o'xshasa agar,
Rostdin yaxshiroqdir, yaxshidin afzal.

Nizomiy, ketdi do'stu yoring sening,
G'am qoldi, ketdi g'amgusoring sening.

770 Etti iqlim shohi Sikandar ketdi,
Gar Sikandar ketdi, kim qolur endi?

Mayni yolg'iz ichma, davrani ko'zla,
Avvalgi do'st, ulfatlaringni izla.

Kelsalar, no'sh bo'lsin qo'lda sharobing,
Yo'qsa, unutgil bu harfu hisobing!

**"Sharafnoma" nazmiga Nizomiy rag'batii
Soqiynoma**

Ayo soqiy, dehqon xumidin shu tob
To'ldir qadahga boldek shirin sharob.

Ul maynimaski mazhab etmish harom,
Ul maynikim, mazhab erur, vassalom...

Bahor vasfi

775 Kel, ey bog'bon, shodlikka bergil rivoj,
Bog'ingga gul keldi, darichangni och.

Nizomiy shahardin yetishdi bu dam,
Bo'stoning yashnatgil endi damo-dam.

Binafsha zulfidin yechgil tugunni,
Nargisga ayt, tark aylasin uyquni.

G'unchaning labidin sut hidi kelur,
Qizil guldin olib, uforin ufur.

Sarvinoz samoga cho'zibdir butoq,
Qumriga xabar ber, yashildir yaproq.

780 Mujda ber, mashqini boshlasin bulbul,
Mayxonaga tag'in yetib keldi gul.

Suv sepib, aritgil sabzalardin gard,
Yuvilsa, rang ochar yana lojuvard.

Bag'rida jo'sh urar lolaning qoni,
To'kib, tuproq ila keyin ko'm uni.

Nastarin sochlari kumushrang, oqdir,
Majnuntol soyasi ila qoraytir,

Guli nor labini may bilan ho'lla,
Gulxayridin yerni zarandud ayla.

785 Sumanga yetkaz arg'uvondin salom,
Gulisadbargga yo'lla obi ravon.

Maysa-giyohlarkim nafis, nozanin,
Ohista qadam bos, ziyon yetmasin.

ISHqimki boshimdin oshibdir shu payt,
Nozik nihollarga salomimni ayt.

Havo mo'tadilu bog' bilkash erur,
Yoronlar ko'ngli ham ajab xush erur.

Daraxtlar gul ochmish bezab bog'-rog',
Va har gul chaman ichra ravshan charog'.

790 Ey bog'on, xomush qushga bergil ovoz,
Yana bulturgidek boshlasin parvoz.

Chang navosin tarat, yechgil chigilni,
O'yinga tushir bu o'ksik ko'ngilni.

Ma'shuqa zulfini tarab tol-tol,
Keyin zanjir etgilu bo'yninga sol.

Rayhonlardin terib, dasta aylagin,
Sarvi chaman ustiga sochgil keyin.

Navbahorning kumush tangasin jamlab,
Ariqlarga tashla hovuch-hovuchlab.

795 Jilg'alar bo'yini kezib birma-bir,
Savsan bisotidin to'sha oq harir.

Shohona bazm aro aylab xush xirom,
Tutgil nishot ahliga shohona jom.

Menga ham labolab uzatgil uni,
Sipqoray, tashnalik o'rtadi meni.

Do'stlarim yod etib ichay shu lahza,
Ketdilar, qolmadi ulardin ximsa.

Biz dag'i ketarmiz navbati yetib,
Icharlar o'shanda bizni yod etib.

800 Bahor chiroyiga to'lganda bo'ston,
Sarvu suman ostini tutdim makon.

Sarv soya solib, yashnar ekan gul,
Muhabbat ku ini boshladi bulbul.

Gul tergali keldi bir go'zal shu chog'
Yuzlari yoniq misli ravshan charog'.

Sochlari sochilib etagi qadar,
Chehrasi ol edi, kulgusi shakar.

Yanog'i shabnamda yuvilgan gulday,
Qadahni to'ldirib, tutdi menga may.

- 805 Dedi: Shohi jahon uchun ayla no'sh,
Ko'nglingda borini ayla faromush...

Bilimdonlar ila o'tirib har on,
Buyuklarga atab boshladim doston.

Ko'ngil chashmasidin sizib damba-dam,
Ajab so'zlar oldim chiroyli, ko'rkam.

Har necha so'z aytdim, vale to'y madim,
Qilichim keskiru tikdir qomatim.

Ko'hna xazinalar ochib bir talay,
Yangi ma'nolarga to'ldirdim talay.

- 810 Bu ishda sustkashlik etmadim aslo,
"Mahsanul asror"ni yozdim avvalo.

Yana so'zlar tizib shirindan shirin,
Nazm ayladim so'ngra "Xusrav va Shirin".

Yana ishq ko'yida jonimni yoqdim,
"Layli va Majnun"ning eshigin qoqdim.

Tag'in ishga solib so'z bisotimni,
"Etti go'zal" sari surdim otimni.

Endi suxanvarlik san'ati bilan
Chalay Iskandariy bongini baland.

815 Ilmu ma'rifatin so'ylayin uning,
Yuksak toju taxtin so'ylayin uning.

Zamonlar ketidan o'tdilar zamon,
Obi hayot ila tirguzay hamon.

Sikandar ma'nolar yo'lini tutdi,
Tiriklik chashmasin axtarib o'tdi.

Bildi, chun muyassar bo'lur mangulik,
Tiriklik suvidin topsa tiriklik.

Izladi hayotbash, go'zal chashmani,
Vale topdi endi o'shal chashmani.³¹

820 Kelur bobolardin bu qadim hikmat:
Izlaganlar topgay alal-oqibat.

Nizomiy, Sikandar ila may ichib,
Adab rasmin unutmadi o'zdin kechib.

Xizr o'ltirur sufra boshida, hay,
Etmish yetti karra sen og'zingni chay...

Doston ibtidosi va Iskandar nasabi Soqiynoma

Ketur, soqiy, sharobing baxsh etar jon,
Sikandar qasriga jo'natgil hamon.

Ki arkoni ulyosi o'psin uni,
Sikandar vorisiga tutsin uni...

³¹ Iskandar abadiy tiriklikni "Sharafnoma" bulog'idan topdi.

Doston

Bu podsholik sharhini bitguvchi zot
So'z nazmiga berdi shu yanglig' sifat.

Ki Rum podsholari ichida nomdor
Bor edi bir shijoatli hukmdor.

O'shal shohning nomi Faylaqus edi,
Amru farmonida Rumu Rus edi.

Yunonzamin edi ma'vosi uning,
Maqduniya maskani xosi uning.

Bahodir edi, shohi ofoq edi,
Navozodayi Isi Ishoq edi.³²

830 Chunon odil edi davlati ichra,
Bo'ri qo'yga daxl etmasdi sira.

Zulmu sitam dodini bermish ajab,
Doro rashk ayladi unga shul sabab.

Garchi edi sohibi shamshiru toj,
Shahanshoh talab etdi andin xirom.

Faylaqus oqil edi, sohib ko'ngil,
Xusumat yo'lini tanlamadi ul.

Kishikim davlat inga yorliq etar,
Kim anga taaddiy, ag'yorliq etar?

³² Navozoda _ nabira, isi _ Ibrohim xalilullohning o'g'li Ishoqning farzandi

835 Jo'natdi Doroga necha ganju mol,
Tahdidu ta'ziyqdin qutildi alhol.

Va o'zi ham bo'ldi bu ishdin mamnun,
Sham'ini otashdin asray oldi chun.

Lek Sikandar davri boshlangan zamon
Boshqacha aylandi gardishi davron.

Doroga ul xiroj bermadi aslo,
Toshni teshib o'tdi nayzasi go'yo.

Bu to'g'rida naqlu rivoyat bisyor,
Necha bir kimsadin eshitganim bor.

840 Naql etmish rumlik necha bir dono:
Bir ayol bo'lganmish sohibi taqvo.

Homilasi bois bechora bo'lmish,
Eridin ayrilib, ovora bo'lmish.

Tang ahvolga tuShmish yetganda soat,
Tug'uruq dardidin chekib mashaqqat.

Tug'mish bolasini bir vayronada,
Jon taslim etarkan ul g'amxonada,

Demishki, kim bo'lur senga mehribon,
Qaysi yirtqich yegay seni, bolajon?...

845 Vale bilmasdiki, Haq parvardigor
Unga lufu karam ko'rsatur bisyor.

Ne-ne xazinalar baxsh etar unga,
Saodat baxsh etar uning nomiga,

Ayol ketdi, bola qoldi kimsasiz,
Oldi panohiga Allohu aziz.

Shu mulki jahonni, ot surib necha,
Fath etdi ul keyin Qofdin Qofgacha...

Shoh Faylaqus etib sayru tamosho,
Shu manzil yonidin o'tarkan nogoh,

850 Ko'rdi vayronada o'lik ayolni,
Oldida bir go'dak, bechoraholni.

Sut istab barmog'in so'rardi sho'rlik,
Barmog'ini tishlab turardi sho'rlik.

Buyurdi, shotirlar yugurdilar zud,
Ayolni tuproqqa topshirdilar zud.

Shoh u chaqaloqni tuproqdin oldi,
Necha kun o'y surib, hayratga toldi.

Saroyiga eltib, qildi tarbiya,
So'ngra e'zoz etdi valiahd deya...

Ammo otashparastlar derlar: g'alat,
Bu ishni berishar Doroga nisbat.

Necha tarixlarni varaqlab hoqib,
Mardi ezidshunos nomasin o'qib,³³

Bildimki, har ikki talqin ham xato,
Unda haqiqatdin asar yo'q aslo.

³³ Firdavsiyning "Shohnoma" asari.

To'g'risi uldirkim, bilur har diyor,
Faylaqus o'g'lidir o'shal Shahriyor.

Boshqa so'zlar zaminida rost ko'rmadim,
Shunday deb aytishga asos ko'rmadim.

- 860 Bir kekxa donishmand aylab rivoyat,
O'tnish podsholardin demish hikoyat:

Faylaqus bazmi xosida bir mahal
Bo'lardi bir sanam go'zaldin go'zal.

Yuzi oy erdiyu qomati baland,
Qoshlari kamonu sochlari kamand.

Sarvdek gul edi, chaman tegrasi,
Zulfi binafshayu suman chehrasi.

Jamoli yarqirab misoli oftob,
Karashmasi jonni etardi xarob.

- 865 Sunbul sochlari erdi mushkin, qaro,
Muattar hididin sarnast edi shoh.

O'shal oy yuzliga termulib xurram,
Uning shavqi ila yashardi har dam.

Bir kecha shoh bosdi bag'riga xushhol,
Chun go'zal xurmodin ko'kardi nihol.

Bir zumda sadafni to'ldirdi nayson,
Va gavhari shahvordin keldi nishon.

To'qqiz oy ko'targach mashaqqat ila,
Harakatga tushdi yetuk homila.

870 Shunda donishmandlarga amr aylabon shoh,
Dedi: yulduzlarga tashlangiz nigoh!

To yashirin asror nishonin bering,
Bu junbushning oromi jonin bering.

Munajjimlar shunda qo'lga olib soz,
Falak avroqidin axtardilar roz.

Ko'k sayri-chun tuzib anjuman ular,
Anjumdin tarozu dag'i qurdilar.

Tolei ko'rindi Asad burjidan,
Dushmanlar ko'r bo'lur uning kuchidan.

875 Sharaf baxsh etardi quyoshga hamal,
Ilmga tutashib ketardi amal.

Utorud Javzoga etardi hamla,
Savr burjidaydi Oy bilan Zuhra.

Mushtariy Qavsni ziynatlar edi,
Zuhal Tarozuda raqs aylar edi.

Oltinchi xonada Bahrom tutib joy,
O'zni shaylamishdi bir xizmatkorday.

Andoq toleki, nur edi mazmuni,
Derding yomon ko'zdin asrasin uni!

880 Tug'ildi ul farzand andoq fol ila,
Bog' bezandi andoq navnihol ila.

Etti yulduzdin ayon bo'ldi, padid,
Dunyo uning ilkiga bergay kalit.

—
Tole taqvimini baxtga yo'ydilar,
Sikandarfalak deb ismin qo'ydilar.

Shoh ul farzandi arjmand mehri-la
Xazina eshigin ochdi baralla.

Aritdi ko'ngillardin anduhu ranj,
Hovuch-hovuch sochdi xaloyiqqa ganj.

885 U atir bo'ylining baxtini tilab,
Qadahlar tutdi mardunga labolab.

Nozlanib yetishgach u sarvi ravon,
Tovusdek bog'aro bo'ldi xiromon.

Maydon ishtiyoqin ko'ngliga soldi,
Beshikdin o'zini egarga oldi.

Kamon istadi doyadin besabr,
Nishoni goh qog'oz edi, goh harir.

Balog'atga yetgach, shamshir istadi,
Maydon aro yiqmoqqa sher istadi.

890 Otda ustuvorlikni etdi havas,
Shohlik, Shahriyorlikni etdi havas.

**Iskandarning Arastu otasi Naqo'mojisi
hakimdan ilm o'rgangani
Soqiynoma**

Ketur, soqiy, sharobi rayhonsirisht³⁴,
Tutgil menga, yodinga tushdi bihisht.

O'shal may birla obod ayla ko'nglim,
Unda cho'kar bo'lsam, jannatiy bo'lgum...

Pandu hikmat

Na go'zaldir andoq bashar turmushi,
Ki hirsu havasni cheklasa kishi.

Qo'lida bir qadar bisoti bo'lsa,
Va biror kasbi, mashg'uloti bo'lsa.

895 Rohat-farog'atda kechadi kuni,
Dunyoning tashvishi qiynamas uni.

Me'yoridin ortiq in'om aylamas,
Behuda sovurib, roygon aylamas.

Xasislikdin kelur mashaqqat, tutun.
Eshik buzib kirsang, uy to'la o'tin...

Shundoq yashagilki, naf ko'rganing on
Sendin o'zgalarga yetmasin ziyon!

³⁴ Sharobi rayhonsirisht – rayhon hidli sharob.

Doston

Bayon aylaguvchi ul dehqonnajod
O'tganlar yodini yana etdi yod.

- 900 Ki ul shohi Yunon, malik Faylaqus
Jahon mulkiga berdi husnu nufuz.

Farzona farzanddin edi sarbaland,
Farzand dema, bir gavhari arjmand.

Ko'rdikim, farzandi xiradmand edi,
Amin bo'ldi, shoista farzand edi.³⁵

Otaga nima bor bundan yaxshiroq,
Farzandi shoistadin shoistaroq!

Uni ilm o'rganishga qo'ydi ul,
Ki tosh ham sayqal ila gavhar bo'lur.

- 905 Naqumojis olimlar ichra sarvar,
Arastuyi oqilga erdi padar.

Munchakim o'rgatdi bilim u, dono,
Sanog'iga yetib bo'lmasdi aslo.

PodSholik odobi, hunarlar yana,
Qalbga quvvat, aqlga rag'bat hama.

Ne-ne ilmu donish etdi unga xos,
Lol edi o'trusida ma'nishunos.

³⁵ Shoista – loyiq, munosib, sazovor.

Etishtirdi chun gavhari pokni,
Yulduzlar bezagandek aflokni.

- 910 Pardali har sirdin ogoh ayladi,
Bolani shu yanglig' raso ayladi.

Shahzoda ilmga aylab ishtiyoq,
Undan o'zgasiga solmadi quloq.

Ziyrakligi har narsaga yetardi,
Nozik, inja ma'nolar kashf etardi.

Shahzodaga hamdars edi Arastu,
Sidqidildan xizmat etar edi u.

Otasidin o'rganganin paydar-pay,
Shahzodaga o'rgatardi erinmay.

- 915 Ustodi donoga derdi tuyg'usi,
Malikzoda bir kun podsho bo'lgusi!

Shuning-chun ta'limga zo'r berdi ustod,
Boylikni qo'rigan bir kun bo'lur shod.

Shahzoda iqbolin tahqiq ayladi,
O'g'lining baxtini unga boyladi.

Bir kun tole kulib turguvchi erdi,
So'z uzugi muhr urguvchi erdi.

Shahzodaga topshirdi farzandini,
Oldi undan ahdini, savgandini.

Dedi: "Boshing ko'kka ko'targaning dam,
Maktabdin dunyoga qo'yganda qadam,

Dushmanlaring qaro tuproqqa qorsang,
Jahonni anru farmoningga olsang.

Yarqirab ostingda taxt, boshingda toj,
Etti iqlim senga to'larkan xiroj.

Nasib etgay kishvarkusholik senga,
Jahon ichra jahonpodsholik senga.

Yodingda tut shu darsu ta'limni sen,
Ko'pam aziz tutma zaru simni sen.

925 Asra farzandimni, o'rniga qo'ygil,
Jonga payvandimni o'rniga qo'ygil.

Uning kengashiga quloq tut faqat,
Tillodin afzaldir dono maslahat.

Sanda davlat, unda ilmu hunar bor,
Hunarmand davlatga doim sazovor.

Qaydakim hunarning baland qiymati,
Yuksalur davlatning shonu shuhrati.

Qayda buyuk davlat esa, hamisha
Yuksak fikrlardin yuksalmish o'sha.

930 Oyga chaqmoq esa muroding sening,
Unutma, chorasi ilmdir uning".

Malikzoda qabul aylab bir yo'la,
Ahdu paymon boyladi ustoz ila.

Dedi: "Agar bo'lsam toju taxtli shoh,
Vazirim bo'lur ul, Xudoyim guvoh!

Ra'yu imkonida yurarman doim,
Amru farmonida turarman doim".

Yillar kechib, iqbolga yor bo'ldi ul,
Etgan ahdida ustuvor bo'ldi ul.

- 935 Ustod bilardiki, shu ushoq bola
Olur dunyoni tig'u tadbir ila.

Shakl chekdi ul handasa harfidin,
Ki g'olibu mag'lub ko'rinar andin.

Dedi: "Bu harflarni sana bittalab,
O'z nomingu dushman nomiga atab.

G'olib esa doira ichra noming,
Hisob etki, zafar ichra ayyoming.

Magar seni g'olib etmasa sanoq,
G'olib bo'lganlardin o'zni tut yiroq..."

- 940 Shoh olib harflarni donoyi pirdan,
Bu dasturni qabul ayladi dildan.

Har safar ularni yozib Iskandar,
Ogoh bo'lardiki, uningdir zafar.

Shu yo'sin izmiga solib zamonni,
Ilmdin qaynatar erdi qozonni.

Ham fikru hikmatin etardi baland,
Ham donolar qadrin tutardi baland.

Kordonlar kengashi ila ish tutib,³⁶
Ogohlik-la o'zni baxtiyor etib,

- 945 Yonida farzandi ustodi erdi,
Ki hamdarsi uning, hamzodi erdi.³⁷

Shahzoda mehribon edi onchunon,
U ham shahzodaga doim mehribon.

Bir qushni tortmasdi sixga Iskandar,
Arastudan kengash bo'lmasa magar.

Har holatda izlardi tadbirini,
Har bir ishda so'rardi dasturini.

Charx pargori har lahza sur'at olib,
Shu doira ichra turdi aylanib.

- 950 Malik Faylaqus tark etdi jahonni,
Yangi Shahanshohga topshirdi uni.

Jahon ne emish, chun nayrangu ozor,
Uning changalidin o'zingni qutqor.

To'rt ildizu olti shoxli og'och bil,
Chormixga tortmishdir necha tanni ul.

Har safar shiddatli shamol esarkan,
Uchar yaprog'imiz o'shal og'ochdan.

Muqim turolmagay bu bog' ichra kas,
Tamosho qilurmiz uni bir nafas.

³⁶ Kordon – ishning ko'zini bilguvchi, ishbilarmon.

³⁷ Hamzod – bir paytda tug'ilgan, tengdosh.

955 Har lahza bir mevadin bergay nishon,
Biri ketsa, biri yetishgay hamon.

Ketarsan jahonni tashlab muqarrar,
Xudbinlik etishdan senga ne samar?

Bozor hech g'alvasiz bo'lgaymu, kunda
Bir epchil kissavur izg'iydi bunda.

Jahon domidasan qarzi-vomidin,
Bergil qarzingni ul, qutil domidin.

Taqachi, to'qimdo'z eshshakdin ajab,
Haqqimizni ber deb etdilar talab.

960 Lang oyog'u yag'ir belidin hayvon
Taqayu to'qimni otdi shu zamon.

Ki o'zni qarzdin ozod ayladi,
Tinchidi ul, ko'ngilni shod ayladi.

Sen ham, ey tuproqqa belangan inson,
Qarzing bor tuproqdin, uni uz hamon...

**Iskandar otasining taxtiga o'ltirib,
podsho bo'lgani
Soqiynoma**

Ketur, soqiy, sarmast aylarimni ber,
Qadah to'la mayi gavharimni ber.

O'shal mayki, dardga davolik qilur,
Ozurdalarga mo'miyolik qilur...

Pandu hikmat

965 So'z zargari qo'lda tarozu bilan
Aslni ayirdi yasama puldan.

Bildimki, oltinmas, kumushdir unda,
Kechdim tasarrufin etmadim shunda.

Bir so'zga barmog'im bosgudek bo'lsam,
Biror kotib unga urolmas qalam.

Vale taqdir menga kuch berdi andoq,
Birovning so'ziga bosnadim barmoq.

Birovga badxohlik etmadim aslo,
Badxohlik eturlar menga doimo.

970 Yo'lim zahmat chekib, zahar yutmoqlik,
Hunar izlamagu ayb bekitmoqlik.

Yo'lim boshlanmishdi rostlikdin u dam,
Oxirgacha to'g'ri tashlarmen qadam.

Charmimni pishitib, berdim bo'yla osh,
Har nechuk zarbaga bera olur dosh.

Istarman o'zingdin, ey Parvardigor,
Bu yo'lda hamisha turay ustuvor...

Doston

Roviykim, ul zamon naqqoshi erdi,
Rivoyat boshladi, so'zga naqsh urdi.

975 Ki taxtga o'ltirib o'shal shohi Rum,
Muhr bosdi, jahon unga erdi mum.

Adolati elga ovoza bo'ldi,
Toju taxtdin ovoza toza bo'ldi.

Otasidin qolnishi ne rasmu odat,
Ko'ngil tortganiga etdi rioyat.

Eski ahdu paymon joyida erdi,
Avvalgi alamlar poyida erdi.

Doroga ul xiroj to'lardi hamon,
Avvalgi tartibot etardi davom.

980 Faylaqus amrida bo'lgan o'lkalar
Uning famrmoniga bo'yin egdilar.

Do'stlikda erdi ul otidin ustun,
Dushmanlarga so'zi, qilichi keskin.

Andoqki, zo'rlikda zo'r edi rosa,
Bellasha olmasdi u bilan kimsa.

Tanida kuch-g'ayrat qaynardi andoq,
Sherning qulog'iga solardi sirtmoq.

Qo'lida sus tutib otsa-da kamon,
O'qi o'ljasiga yetardi hamon.

985 Dashtda arslonni etardi shikor,
Jayronu marolni ovlardi bisyor.

Botirlardin zo'ru tavono yana,
Ziyraklardin ziyragu dono yana.

Xatti oftob uza qalamin chekdi,
Keyin mushki nobdin jadvalin chekdi.

Ul xatti jadvaldin osmon chizib,
Habash qarosidin sahifa tuzib,

Shay ayladi jahongirlik hisobin,
Jahonni o'z ilkida ko'rdi zabun.

- 990 Dono erdi, qudratli erdi, odil,
Taxtga o'ltirishga loyiq erdi ul.

Ko'nglida har ishga tug'ilsa tilak,
Unga madadkorlik etardi falak.

Rum o'lkasi ul sarvi navrastadin,
Ul rayhoni sarsabzu orastadin.

Chiroy ochib, yashnardi har xonasi,
Sarhadlardin oshirdi afsonasi.

Roz ochardi anjumanaro ba'zan,
Goh tugun yechardi anjum rozidan.

- 995 Yosh-yalanglar ila etardi ishrat,
Bilimdonlar ila tutardi xilvat.

Xalqiga munchva Yaxshilik etdi ul,
Odamiy etolmas buni tasavvur.

Undan hech kimsaga yetmadi ozor,
Adolatni hamishaetdi shior.

Savdogar, tujjordin u bosh olmadi,
Shaharlar ahlidin xiroj olmadi.

Dehqonni soliqdin ayladi ozod,
Yo'qsil, bechoraga ko'rsatdi imdod.

1000 Imorat qurardi, zao sochardi ul,
Tikanni qo'porib, o'stirardi gul.

Epladi zafarga zafar ulashni,
Atri, bo'yi tutdi Misr, Habashni.

Ikki qo'lin cho'zib, yozmishdi quloch,
Tiri tig' chekardi, biri berar toj.

Tarozuning ikki pallasi nechun?
Biri temir, biri kumush, zar uchun.

Har ishda ko'kardi munosib iqbol,
Temirga temirdek, zarga zar misol.

1005 Adli, saxovati taralib chunon,
Bo'ldi shon-shuhrati olamga doston.

Arastu ul dasturi dargoh edi,
Suyanchiq cdi, mahrami shoh edi.

Sikandarkim, hamdami dono vazir,
Oz fursat ichida bo'ldi jahongir.

Vazir chunon ersa, chunon Shahriyor
Nechun bo'lmagay jahonda ustuvor'?

Hama shohlar ishi olamda asru
Vazirlar royidin qozondi shukuh.

1010 Malikshohu Mahmudu No'shiravon,
Shohlarkim, shohlarga berguvchi farmon,

Vazirlar pandiga quloq tutdilar,
Shu dunyodan zafar quchib o'tdilar.

Shohimizki, dushman dodini berdi,
Sababki, vaziri suyanchiq erdi.

Bizning oyog'imiz sust bo'lsa, ne g'am?
Shohimiz sog' bo'lsin, salomat, bardam.

Podshoning oyog'i gar toysa yo'lda,
Fitna, g'alayonlar yuz berar elda.

1015 Yomon ko'zlar shoh-la boshlasa o'yin,
Shaytonning maydonga tushmog'i tayin.

Jahon mazlum, podsho adolatpesha,
Jahon bir odilga muhtoj hamisha.

Jahonga nur tortsin sohibjahon,
Yomon ko'zdan o'zi asrasin Rahmon...

**Misriylar zangiylar zulmidan Iskandarga
shikoyat etishgani
Soqiyuoma**

Ketur, soqiy, tutgil davo sharbatim,
Jonimni o'rtadi g'amu hasratim.

O'Shal sharbatdin etsam ko'nglimni shod,
Dardu g'amni etmasdim ortiq bisot.

Pandu hikmat

- 1020 Bo'ri nafasidin tongotar payti
Tushdi vovullashga posbonning iti.
- Xo'roz qanot qoqib uyg'ondi hamon,
Nog'orachi dovul urdi shul zamon.
- Men ham uyquni tark etib shu mahal,
Xotiram tubidin izladim gavhar.
- Javohir izlagan kovlaydi konni,
Gavhar umidi-la qiynaydi jonni.
- Bir dona gavharni topguncha beshak,
Necha bir toshlarni maydalash kerak.
- 1025 Ey ishni oson deb o'ylaguvchi kas,
So'z gavharin tizish oson ish emas.
- Anjirxo'r qush bog'da ko'p bo'lsaydi ul,
Anjir qolmas edi bu tog'da butkul.

Doston

Tarix matohini etguvchi ayon.
Chekib naqshini bo'yla etdi bayon.

Ki subhidamlarda samo charog'i
Jahonning sahnini yoritgan chog'i.

Asta dilva aylab oftobi go'zal,
Oltin kursisiga o'ltirgan mahal.

1030 Sikandar ko'rsatib shohlik azmini,
Tuzdi ayvonida shodlik bazmini.

Xizmatkorlar ul nodiri zamona
Taxti atrofida edi parvona.

Kay yodi-la sharob no'sh etardi shoh,
Va sharob jomiga zar to'kardi goh.

Nur sochardi ko'ngil degan chiroqdin,
Nogahoniy ovoz yetdi yiroqdin.

Xabarchilar xabar berdilar chunon,
Etishdi sitamdiydalar deb hamon.

1035 Ki Rum podshosiga arz etmoqchilar,
Misriylar ahvolin yetkazmoqchilar.

"Qabohatkim, ul ahli Zang aylamish,
Misriylar ahvolini tang aylamish.

Jahonni to'ldirmish ular bo'ylakim,
Tog'u dashtni tutmish tahlika, vahim.

Shunchalar ko'p ular, qatrondek qaro,
Uncha ermas biyobon ichra giyoh.

Qarisi bolaga o'xshaydi, ko'sa,
O'zini yaxshi der, xunukdir rosa.

1040 Na yuzida hayosi bor, uyati,
Na ko'nglida insofi bor, shafqati.

Bari odamxo'ru o'limiktalosh,
Ki Misr ularga berolmaydi dosh.

Misrga madad ber, ayo Shahriyor,
Yo'qsa, ado bo'lur bu xurram diyor.

Na Misr, Afranja qolgaydir, na Rum,³⁸
Bitgay ul otashdin erib misli mum.

Yuraklar vahima, qo'rquv iChinda,
Shohim, hukmingni ber, biz senga banda".

1045 Ul shohi odilki, diyonatpanoh,
Eshitdi chun zanjilar tortmish sipoh.

Bildi, chigirtkadek ko'p emish ular,
Qo'rqdi, odil kishi qo'rqmasmi magar?

Arastuyi donishmandni chorladi,
Unga bor ahvolni bayon ayladi.

Xiradmand vazir edi ul, rahnamo,
Zafarlarga undar edi doimo.

Dedi: "Baxting sina, o'zni shaylagil,
O'shal ajdahoni halok aylagil.

Dushmaningni mag'lub aylasang, albat,
Mustahkam bo'lgusi toju saltanat.

Misr bo'lib o'shanda roming sening,
Chiqar mardonalikda noming sening.

Boshqa raqiblar ham bosh egar shu chog',
Do'stlaring shod bo'lar, dushmaning tuproq".

³⁸ Afranja – Qizil dengiz bo'yida bir shahar.

Sikandar rahnamo aytganin etib,
Chiqdi Maqduniyadin ot o'ynatib.

Bir lashkar chekdikim, qilich, nayzasi
Andoqki, bulutga yetar shu'lasini.

1055 Yo'lini dengizdin quruqqa burdi,
Borib, bir muddat ul Misrda turdi.

Butun Misr xalqi qarshilab uni,
Yaxshi istiqbolga yo'yidilar buni.

Shoh buyurdi, qo'yib Nil bo'yin hamon,
Lashkarlar yuz burdi biyobon tomon.

Zangiylar qasdiga shitob yurdilar,
Qo'sh otlarni sahro sari surdilar.

Yuraklarda kiynu g'azablar ortib,
Belga kamar boylamishdilar tortib.

1060 Zangiy xabar topdi, kelmishdir sipoh,
Yorug' jahon bo'ldi nazdida qaro.

Ikki lashkar shunda yuzma-yuz turib,
Yuraklarni qonlar yoqdi gupurib.

Jang boshlanib botirlar hamlasidin,
Er titradi tuyoqlar zarbasidin.

Na'ralar yuksalib biyobon aro,
Osmon zamin uzra quladi go'yo.

Ishga tushib og'ir gurzilar toshi,
Ezildi ho'kizu baliqning boshi.

1065 Go'yoki qiyomat soldi qaldiroq,
Yirtqich jonivorlar qochdilar yiroq.

Sahro to'lib-toshib jang gurrosidin,
Hatto devlar qochdi alolosidin.

Savashlar avjiga chiqarkan chunon,
Ko'kka o'rlab uchdi chang ila to'zon.

Zamin gugurt kabi qovjiroq, quruq,
Ilavo do'zax kabi olovli, yoniq.

Namligida nam yo'q, bari zahri nob,
Issig'i mehsiz, bari oftob.

1070 Ajdahoga makon edi o'ru g'or,
Ularda qizimish fitnadin bozor.

Yana devlar makon tutmishdi unda,
Charx urib, o'ljasin kutmishdi unda.

Zamin gavhar kabi suvga botgan on,
Pistirmadin chiqdi qora arslon.

Dunyoni chulg'adi tun degan ho'kiz,
Arslon tishidek chaqnadi yulduz.

Atru uforini taratdi kecha,
Osmon yoritqichlar yoritdi necha.

1075 Posbonlar qurolni shay tutib birdek,
Yo'llarda turdilar qorovulda tek.

Yulduz ko'k sahnida porlab ko'rindi,
Lashkar jang-jadaldin tin olur endi.

Rum ila Zangibor horg'inu yo'rg'in,
Bir joyga bosh qo'yib olar edi tin...

**Iskandarning Zangibor qo'shiniga
qarshi jang qilgani
Soqiynoma**

Ketur, soqiy, mayi rumiyvashni ul,
Tabxim zangiy kabi qaro, g'ash erur.

Rumiyu zangiydek bo'lib ikki rang,
Dunyo menga tag'in etmasin nayrang.

Pandu hikmat

1080 Bu dunyoning yo'li ozdirguvchidir,
Ko'rarsen yettinchi falak ichra nur.

Bu yo'lda farishta yo'ldin ozgusi,
Bir dev kelib, o'ntasin ozdirgusi.

Ikki donni bunda o'lchamas inson,
Toki o'g'irlamas esa bitta don.

Avval o'g'irlyaydi mayda-maydalab.
Shu yo'sin ishini boradi o'nqlab.

Donalab olarkan dehqon donini,
Botmonlab devonga jo'natar uni.

1085 Undaylarga kunim qolmasin manim.
Shu nuqtada manzur bo'lsin aytganim.

Bunday oshnovu begonasiyrat,
Kimsalardin sira kutma oqibat.

Tulkidir ikkidir teshik atigi,
Biri tamah, bir shahvat teshigi.

Ammo chayon kabi hushyor esa bas,
Uning ko'z va quloq teshigi bo'lmas...

Doston

Nihoniy sirlarni bilguvchi dilso'z
Dehqon tarixidin yana ochdi so'z.

1090 Ki Chin shohi otin shaylagan zamon,
Zanjiyning taqasin yondirdi osmon.

Falakdin taraldi quyosh shu'lasi,
To'kildi zaminga yulduz nuqrasi.

Jahon qo'shinlarning botirlaridan
Behisob yulduzdek tuzdi anjuman.

Fil ko'zgusi, teva zangidin endi
Sadafda dur emas, shabah o'sardi³⁹

Tuyoqlar toptamish erdi bo'ylakim,
Zarbidin tep-tekis bo'lmishdi zamin.

1095 Rum Shohi kayoniy rasmi-la toza
Bong urib, jahonga soldi ovoza.

³⁹ Shabah – oddiy, shisha munchoq.

Rum oyini birlan lashkarin qurdi,
Naqsh chekib, munga muhrini urdi.

Rumiylardin bor edi bir mehribon,
Har tilni bilguvchi va o'tkir zabon.

Jasur edi, dono va donishparast.
O'q uzib, shamshir urishda charchamas.

Lab ochsa, to'tiga so'zi erdi dom,
To'tiyonush erdi suxanvarga nom.

1100 Shirin so'zlar ila lol aylar edi,
Tinglaguvchi sabr ila tinglar edi.

Sikandar nadim edi subhu shom,
Suhbatlari oyu quyoshdin mudom.

Sikandar chorladi uni yoniga,
Noil etib elchilik unvoniga,

Buyurdi, Shahriyor farmoni bilan
Borsin Zang sardori sari shitoban.

Borib, shoh shamshiri shiddatin aytsin,
Buyruqni bajarib, ortiga qaytsin.

1105 Zangiycha so'ylabon aylasin tadbir,
Olovga tushganda eriydi temir...

Ul javonmard, donoyu sohibhunar
Rumiydan zangiylarga eltdi xabar.

Dedi: "Shohim sohibi shamshiru taxt,
Qudratiga uning taslim erur baxt.

Navqiron bir shohkim, jo'shqin, dilovar,
G'azabi qo'zg'olsa, o'tdek yondirar.

Kamand tashlaydi ohuning shoxiga,
Chumolining boshin tikar poyiga.

1110 Yaxshisi, u bilan muroso ayla,
Bosh egib, yolborib uzringni so'yla.

Yo'qsa, g'azab otashin etsa ayon,
So'ndirolmas daryo suvi ham, inon.

Sadoqat ko'rsatib, mehrini kutgil,
Do'st bo'l, dushmanliging endi unutgil.

Jahon sulhu janglarni ko'rdi behad,
Jangdin ziyon kelur, sulhdin manfaat".

Zangiy shohi buni eshitgan zamon,
To'lg'ondi andoqkim chaqqandek ilon.

1115 Tutaqib, g'azabi, qahri urdi jo'sh,
Xuddi guldirakday chiqardi tovush.

Buyurdi, To'tiyonush sho'rlikni to,
Tanasin boshidin eting deb judo.

ElChining ustiga tashladi bari,
Qahraboga somon yopishgan kabi.

Zarrin tosga egib kesdilar boshin,
Qizil qonga bo'yab tanasi, loshin.

Qip-qizil qon ila to'lganida tos,
Zangiy shoh oldi-da, simirdi paqqos.

1120 Alarkim, elchiga erdilar hamroh,
Podshoni etdilar bu ishdin ogoh.

Sikandarga bayon etdilar bir-bir,
Nelar etganini zangiy toshbag'ir.

Shoh elchi dardini yurakda tydi,
Uning hijronida o'rtandi, kuydi.

Qon to'kishsa azmu qaror etdi chun,
Begunoh to'kilgan o'sha qon uchun.

Qonxo'rlikni ko'rish oson emasdi,
Rumliklarni qo'rquv, vahima bosdi.

1125 Qarolar kuldilar tishni oqartib,
Rumliklar qoldilar tashvishga botib.

Tun yaxshidir ko'rinmas ersa tishi,
O'lar chog'i xandon kulgani yaxshi.

Sikandar necha kun o'ltirib sokin,
Qabru g'azabiga bir oz berdi tin.

Tunda tog' boshini qopladi tuman,
Qush doston boshladi tunga hamohang.

Charx hindusi tun Horuniga kamar
Boylab, osdi unga zar qo'ng'iroqlar.

1130 Qo'ng'irog'in chalib, dedi Horunshoh:
"Shoh tojvar bo'lsinu dushman ado!"⁴⁰

⁴⁰ Horunshoh – Muso alayhissalomning akasi. Hazrati Muso buyrug'i bilan u tunlari qorovulchilik qilgan.

Soqchilar yurdilar o'ngu so'l taraf,
Poyloqda turdilar yo'lni qo'riqlab.

Ertasi kun gardun etarkan shitob,
Bosh ko'tardi tog'lar ortidin oftob.

Shahriyor dovuli gumburlab shu on,
Eru ko'kka soldi g'ulg'ula, suron.

Zalvorli charmni siltab, bor kuchi
Bilan tun og'ziga urdi dovulchi.

1135 Samogna yuksaldi karnaylar sasi,
Avjga chiqdi nog'oralar vahmasi.

Tarozu pallasidek ikki qo'shin,
Bir-biriga sedek oqizardi xun.

Nayzalar sanchilar edi damba-dam,
Badanlarni teshib o'tardi ildam.

O'qlar qilichlarning zarbidin necha,
Uchar edi qalpoqlar parcha-parcha.

Jang maydoni to'lgan edi suronga,
Bulutlar bag'ri ham to'lmishdi qonga.

1140 Ikki qo'shin andoq yuzma-yuz mahal,
Har ikki taraf ham aylardi jadal.

Ikki taraf bir-birga tig' chekdilar,
Ikki taraf o'lguncha qon to'kdilar.

Zangiylar solardi rumiyga qiron,
Rumiy qulon erdi, zangiy arslon.

Zangiylardin ko'rib rumiy talafot,
Har yerda chekardi fig'onu faryod.

Rumiylar qolmishdi tashvishga botib,
Zangiy to'tiyonushga ne qildi deb.

1145 Zarrin tosni qonga to'ldirib atay,
Zangiy shoh simirib ichmishdi suvday.

Zangiy ko'satardi andoq bir o'yin,
Shu boisdin rumiyga bo'ldi qiyin.

Sikandar ko'rib bu holni, bildikim,
Zangiylar solmishlar rumiyga vahim.

Lashkarni qo'rquvga solsa dushmani,
Har lahza qochishga hozir bil ani.

Xiradmand vazirin chorladi podsho,
Ayanchli ahvoldin ayladi ogoh.

1150 Dediki, askarlar qo'rqib qoldilar,
Maydonni tark etishga hozir ular.

Lashkar jang qilmasa tarafma-taraf,
Yakka suvoriydan maydonda ne naf?

Ichdi To'tiyonush qonini zolim,
Ul sababdin lashkarda andoq vahim.

Har biri qo'rquvin etar oshkor,
Qo'rquvchi askardin nechuk foyda bor?

Baski, qo'rquv, vahiundin shashti sindi,
Mardlik, jasoratdin qo'lni yuv endi.

1155 Hamon zangiylar chiradastlik qilur,⁴¹
Qutirgan fillar kabi mastlik qilur.

Nechuk tadbir kerak, chora shu nafas,
Ki ul bois zangiylar topgay shikast?

Yo'l ko'rsat, o'zni chorasoz aylagil,
Bizni bu vahshatdin xalos aylagil...

Jahondiyda oqilu dono vazir
Bu mushkil halliga so'yladi tadbir.

Dedi: "Shoho, xirad senga rahnamun,
Zafar yoring bo'lgay, dushmaning zabun!

1160 Shu yorug' jahonga O'zing rahnamo,
Panohingda bo'lsin sening doimo!

Tog'u dashtlar sari aylasang safar,
Falakdin boshingga yog'ilsin zafar.

Qarolarkim, qaro ilonga monand,
Ular inson emas, balki ahriman.

Magar rumiy zangiydin qo'rqsa, ayo,
Ajabmas, bu baliqdir, u ajdaho.

Odamkushlik odamning qo'rqinch ishi,
Odamxo'rlikdin nechuk qo'rqmas kishi?

1165 Shafqat tilar esak ko'ppaklardin ul,
Bizni oqil deya atamak mushkul.

⁴¹ Chiradastlik – ustunlik, g'oliblik.

Maydonni ularga bo'shatsak magar,
Dunyoni tuproqqa qorgaydir ular.

Gar ular rumiydin qo'rqsaydi ozroq,
ElChining so'ziga osardi quloq.

Elchiga o'lim yo'q, chunki elchidir,
Ular kim, elChini o'ldirguvchidir.

Bir chorayi tadbirga o'tmoq kerak,
Odamxo'rlik makrini etmoq kerak.

1170 Ki bir necha zangiyni aylab asir,
Sening huzuringda etsinlar hozir.

Sen sukut saqlagil boqib g'azabkor,
Zangiylarni yerga o'tqizib qator.

Birining boshini tanidin uzib,
Oshpazni chaqirib, boshni ko'rsatib.

Desinlar zangiycha: "Yuv, pishir buni,
Shohimiz tanovul aylagay uni".

Buyurgil oshpazga, ado aylasin,
Eltib uni tuproqqa jo aylasin.

1175 Qora qo'y boshini qaynatib shu on,
Uni shohimizga keltirsin hamon.

Podsho ul kallakim, nimpuxta, nishxom,
Burdalab, yeb-chaynab, bitirsin tamom.

Desin yana: "Miyasin ham keltiring,
Munchalar yaxshidir mazasi buning!

Agarda bilsaydim avvalroq buni,
Zangiyxo'rlik sog'lom aylagay tanni.

Asirlarni so'ying bir-bir. der edim,
Barcha zangiylarni o'zim yer edim".

1180 So'ng yetsin odamxo'rga bundan xabar,
Ki odamxo'r bordin undan-da battar.

Qo'rquvga to'lsin ul hovuchlab yurak,
Temirni temir-la ushatmoq kerak.

Etsak shu tadbirni magar, tong emas,
O'sha chiradastlarga yetgay shikast.

Bo'rilarga bo'ridek tashlanib zud,
Jahlni jahl ila etarmiz nobud"

Buyurdi shoh, rumiy botirlar borib,
Dala-dashtda yursinlar javlon urib.

1185 Pistirna qo'ysinlar dushman yo'liga,
Ki zangiylar tushsin ular qo'liga.

Botirlar bo'ldilar chun farmonpazir,
Necha bir zangiyni etdilar asir.

Haydab, shoh dargohiga keltirdilar,
Soqchilar sardoriga topshirdilar.

Nazar soldi o'shal asirlarga shoh,
Boshlari qon edi, yuzlari qaro.

Shoh g'azabga to'lgan arslon edi,
Ovni quvgan sherdek hayqirib, dedi:

1190 “Birini ayirib guruhidin tez,
Boshini tanidin judo aylangiz.

Oshpazga topshiring. pishirsin hamon,
Shay bo‘lsin podshoga ul tansiq taom”.

Boshqasi oshpazga anglatdi buni,
Nechuk o‘ynamoqlik kerak o‘yinni.

Necha zangiy turib oyoqda shu on,
Bu mudhish odatga boqardi hayron.

Shoh buyurdi: “Hay, dasturxon keltiring,
Tansiq taomimiz hamon keltiring!”

1195 Keltirdi mulozim, hozir edi u,
Qo‘y boshi suyakdin etilmish ayru.

Shoh uni yemoqqa kirishdi darhol,
Qulonni chaynagan arslon misol.

Ishtaha birla yeb, bosh chayqar edi,
Emaganman mundoq taom, der edi.

Zangiy etin yemak menga xush erur,
Boshqa taom nafsimga noxush erur.

Zangiylar etin yeb, simirgum sharob,
Qayda, bor bu yanglig‘ mazzali kabob!...

1200 Zangiylarning ko‘zi o‘ngida andoq,
Qo‘y etin tanovul ayladi mundoq.

Zangiylarga ko‘rsatib qo‘rqinch o‘yin,
Sahro sari haydab soldilar keyin.

Qarolar manzilga borib yetdilar,
Zangiy shohga arzi bayon etdilar.

Dedilar: ul ajdahodir bemisol,
Ki andin biz, zanjiyga yetgay zavol.

Zanjiy etin yedi ul aylab taom,
Andoqki, zanjiylar yegaylar bodom.

1205 Bir zanjiy boshini ishtaha bilan
Qo'yning boshi kabi yedi da'atan...

Zanjiylarga yoprildi qo'rquv, haros,
Ipak o'rninga chiqdi kandir palos.

Hujum, hamlalari sustlashib qoldi,
Tahdid, shiddatlari pastlashib qoldi.

Ertasi kun yana qush yoydi qanot,
Boshlar uzra ochildi ko'k, koinot.

Tongga peshvoz chiqib qichqirdi xo'roz,
Yana nog'oralalar soldi guldiros.

1210 Kamaylardan uchib yana qahqaha,
Isrofil suridek qildi dag'dag'a.

Na'ralar yuksalib samolarga to,
Osmon o'takasi yorildi go'yo.

Dovaullar suroni avjiga chiqdi,
Gumburi jahonni tutib, chayqatdi.

Tunbaklar sadosi ko'kka tutashib,
Falak dimog'ini o'tardi teshib.

Botirlar yuragi jo'shqin edi chun,
Turkiylar nayidek chekar edi un.

1215 Zaminning qalbiga tushgandi larza,
Bag'ridin o't chaqnardi lahza-lahza.

O'qlar "chekil!" deya uchardi har dam,
Jangchilar maydonda arslonmonand.

Qo'llarda qilichlar turar tovlanib,
Bulutli kechada yulduzdek yonib.

Ikki lashkar yana turib oyoqqa,
O'zini urardi nayzaga, o'qqa.

Ikki bulut yana to'qnashib shu on,
Ikki o't daryoga solardi tug'yon.

1220 Qo'shin tortib maydon aro Rumu Zang,
Jang qilardi oqu qaro, ikki rang.

Tulporlar tuyog'i toptab maydonni,
Tuproqni bo'yadi botirlar qoni.

Kamonlar otilib yana har yondan,
Necha bir tanlarni ayirdi jondin.

Durafshon erdi tig'lar, oyina tob,
Ki andoq socholmasdi dur oftob.

Rum lashkarin shiddati erdi baland,
Erda kamon erdi, osmonda kamand.

1225 Qo'shinning qalbida edi Iskandar,
Ikki yoqda necha qo'riqchi askar.

Rumiylarga qarshi zangiyi qirgun⁴²
Lashkar sarflamishdi misli Besutun.

Fillar hozir edi yana bir guruh,
Turardi qorayib Runga ro'baro'.

Kipriklar nayzadek, ko'zlar chun aqiq,
Xartumdin dumgacha sovut, yopinchiq.

Har fil ustida erdi bir taxti oj⁴³,
Unda zangiy, mushkdin boshida toj.

1230 Qichqirib nogoh fili sarkashga ul,
O'zini urdi xuddi otshga ul.

Fillar tushdi maydon aro munchakim,
Oyoqlar zarbidin qoraydi zamin.

Piyoda qurshovida pili baland
Yuz pilni to'sardi haybati bilan.

Ikki saf tek turib, bir-birga boqdi,
G'azab yuraklarda olovlar yoqdi.

Zaroja degan bir sitamgar, qaro,
Tushib ketdi dov tortib maydon aro.

1235 Qo'lida fil ustuxoni erdi, bas,
Derdi: fil suyagiga bergum shikast.

Qora ilon erdi, bo'riyi xunxor,
Devqomat, qabariq, uzun boshi bor.

⁴² Qirgun – bu yerda qoravoy ma'nosida.

⁴³ Taxti oj – fil suyagidan yasalgan toj.

Qora og'zi qora qozondek kengish,
Ko'rganning boshidin uchar erdi hush.

Xum erdi andoqkim, temir xum go'yo,
Ichida bulaniq, qop-qora siyoh.

Ko'kragi ko'krakmas, po'lat bir qalqon,
Pahlavonligiga yo'q edi gumon.

1240 Bir mash'um bayroqni tikmishdi boshga,
Zangiy bayrog'i ul, emasdi boshqa.

Manglayi misoli to'nkarilgan tos,
Ikki ko'zi yana qonga to'lgan tos.

O'zini zangiycha ta'rif etardi,
Suv ostida yongan olovman, derdi.

Zarojamen. po'lat chaynagaymen, ha,
Pil ustida simirgum pilpoy qadah.⁴⁴

Pilpoy qadah icharkan, oq etarman,
Pilning oyog'ini oqsoq etarman.

1245 Qilich sirmab kirsam magar jang aro,
Tog'ni ham aylagum men pora-pora.

Qarshimdin chiqar bo'lsa sheri jayon,
Bulutdek boshiga to'karmen to'fon.

Shiddatim ortiga oqizar Nilni,
Ruxim yurib, piyoda aylar pilni.

⁴⁴ Pilpoy qadah – ulkan qadah.

Tanim parra sherdek jangda ustuvor,
Po'latdin boshqa bir qurolim ham bor.

Olmosu temirdan qiyofat menga,
Olmosu temirga ne hojat menga?

1250 Boshimni tik tutib, turarmen sarkash,
Na suv qo'rqitolgay meni, na otash.

Pahlavon deganga bermasmen omon,
Etini burdilab, yutarmen hamon.

Odam o'ldirishda ajdaho erman,
Faqat o'ldirmasman, o'ldirib yerman.

Jahonda kimsadin uyatim yo'qdir,
Qahr g'azabim bor, shafqatim yo'qdir.

Qahr ila g'azabni so'ndirar shafqat,
Eshakni rom etgan to'qimdir faqat.

1255 Zangiy qachon men kabi xandon bo'lur,
Olmos tishli qora arslon bo'lur".

Shu so'zlarni aytib, qoshin chimirdi,
Ganj ustida turgan ilondek erdi.

Bir rumiy suvoriy zangiyga qasdlab,
O'shal otashga o'zni urdi dastlab.

Parvonadek qoni jo'sh urib butkul,
So'ndirmoq istadi o'shal o'tni ul.

Zangiy sira hadik chekmadi andin,
Bir zarb ila uzdi boshini tandin.

1260 Boshqa rumiy dag'i ayladi talosh,
Falak urdi uning ham boshiga tosh.

Xuddi shundoq yana yetmish bahodir,
Qilichga yem bo'lib, yiqildi bir-bir.

Boshqa hech kimsada qolmadi jur'at,
O'shal zangiy ila olishmoqqa had.

Tipirchilab qoldi yaroqdori Rum,
Otashin ko'rada erigandek mum.

Maydonda ul zangiy ila savashga
Birov yurak yutib chiqmadi boshqa.

1265 Shunda shoh qalbida g'azabi jo'shdi,
O'q kabi otilib maydonga tushdi.

Zangiy-la olishmoqqa qasd ayladi,
Zangiykushlikka nayzasin shayladi.

Sirilib gavharin kamari belda,
Boshida po'latdin hindiy dubulg'a.

Samoviy sovuti taniga tortiq,
Zangiyning sochidin tuguni ortiq.

Kiftiga osiqliq olmoqdek o'tkir
Zahar singdirilgan yamaniy shamshir.

1270 Kamandi tamg'ochiy qoshidek hamon,
Egilmish chochiylar kamonisimon⁴⁵

⁴⁵ Chochiylar – Choch (Shosh, Toshkent) ahli yasagan kamonlar o'shanda juda mashhur bo'lgan.

Ipak jul birla yormishdi otini,
To'riq ot uzra erdi fildek tani.

Tulpori jilovin qo'yib erkiga,
Olmos qiliChini qo'tardi tikka.

LoChindek kaklikka otildi shu tob,
Nayzasin tuproqqa otgandek oftob.

Undan-da keskinroq tashlandi, birdan,
Qarshisida erdi qora ahriman.

1275 Bong urdi: "Tur endi, qora qarg'a, tek,
Ustingga qarchig'ay keldi, boshni eg!

Bosh egmasang magar amringa, ayo,
Dunyoni yuzingdek aylagum qaro!

Qaro yuzlisanki, ko'zingni yoshlab,
Qochmoqni ko'zlaysan maydonni tashlab.

To'xta, qonlaringni yuzlaringga surkay,
O'zingni soChingdek jingirtob etay!

Zang qo'nar shamshirgakim, oyina rang,
Men ul oyinamen, mendin o'lur zang.

1280 Agarchi ko'z og'riq oqartgay yuzni,
Mening olmos tig'im qizartgay yuzni.

Odamxo'r devman deb boya solding jar,
Meni yegil, odamxo'r bo'lsang agar.

Sen bilmaysan nechuk shamshir urishni,
O'rgatib qo'yaman senga bu ishni.

Qimirlama, hovliqma jon qasdida,
Yo'qsa, hoshing bo'lur oyoq ostida.

Men o'sha rumsoloru, ham tozihush,
Saboh xanjaridek yana zanjikush.⁴⁶

1285 Hindudek fil boshiga ursam agar,
Filbon fil xumiga to'nni itqitar.⁴⁷

Nayzam toshlarni ham parchalaganda
Sen ham qulog'ingga taqarsan halqa!"

Dedi-da, uzangida so'ng tik turib,
Dilov qo'yib, yov ustiga ot surib,

Hamla qildi go'yoki mast arslon,
Qo'lida gurzi ham edi shersimon,

Zangiyning boshiga andoq kuch ila
Urdiki, Alburzda qo'pti zilzila.

1290 Ko'ring, bir zarbasi ne holga soldi,
Obnusiyo'g'ochning jonini oldi.⁴⁸

Bosh, bo'yin, qo'l-oyog'u, bel, siyna-to'sh,
Bo'ldi shu onda xuddi bir xalta go'sht.

Zaroja birla bo'ylakim bitdi ish,
Ammo yetdi hamon yana bir tashvish.

⁴⁶ Men rumiylarning arab hushli qo'mondoniman, tong xanjari tunni yorgandek, zangiy larni o'ldurguvchiman.

⁴⁷ Fil egasi to'nini bo'yab, o'ziga motam libosi tayyorlaydi.

⁴⁸ Obnusiyo'g'och – Hindistonda o'sadigan qora daraxt, bu yerda zangiy ma'nosida.

Yana bir qarotan, bahaybat, baland,
Tushdi maydonga shashtu shiddat bilan.

Tashlandi o'ylakim yovuz ajdaho,
Qilich sirmadi shoh boshiga nogoh.

1295 Ammo po'lat sovut asradi shohni,
Zanjiyning alandin uchdi fig'oni.

Rumiy pahlavon ul xezlanib Chindan,
Olmos shamshirini sug'urdi qindan.

Chunon zarb tushirdi yovga beomon,
Chang solgandek qari qo'tosga arslon.

Zanjiy boshi so'yi havoga uchdi,
Tanasi losh bo'lib tuproqqa tushdi.

Boshqa zanjiy kelib, turdi yuzma-yuz,
O'zini ta'riflab necha aytdi so'z.

1300 Dedi: "Zang tog'idin qora bulutmen,
Qora ajdahodek solgum chovut men.

Bahodirman, magar aylasam hujum,
Tog'larni silkitishga yetgay kuchim.

Bir zarb ila mag'lub etarman filni,
Quritarman, magar simirsam Nilni.

Qilichim yetarkan kinga shu onda,
Qaro to'n bicharman unga shu onda".

Jahondor ko'rdi, vaysaqi ne derdi,
O'z qoniga bo'yalsa, yaxshi erdi.

1305 Urdi gardaniga shamshirin hamon,
Maqtanchoq qoravoy taslim etdi jon.

Ammo yetib kelib o'zga bir qaro,
Tig' o'qtaldi podshoga maydon aro.

Lek uning ham boshiga tushdi shamshir,
Zanjiy tuproq bo'ldi aylanib gir-gir.

Boshqa zanjiy keldi shunda ot surib,
Uni ham tashladi tuproqqa qorib.

To qosh qorayguncha birorta zanjiy
Yurak yutib, zang qilgani chiqmadi.

1310 Jahondor kech kirib, qora shom payti
Zafar quchib oromgohiga qaytdi.

Shafaqdin lolagun edi osmon,
Ko'kintir tus olib, bo'ldi noparmon.

Kecha posbonlari, yulduzlar, ajab,
Yondilar falakda bir-bir yarqirab.

Turdilar samovot sahnida qator,
Yulduzshunosdin ham sergak va hushyor.

Rumiy posbonlar ham erdilar uyg'oq,
Zanjiy soqchilar ham shay edi shundoq.

1315 Sahargoh Yaxshilikka yuz ochib ul,
Moviyo ko'k toqiga sochdi qizil gul.

Sikandan tong-sahar uyqudin turib,
Qo'shinni zanjiylar ustiga surib,

Dushmanga bulutdek yoprildi hamon,
Sel edi, lek shiddati otashsimon.

O'zi qo'shin markazining sarvari,
Atrofida jasur bahodirlari.

O'ngu so'li erdi temirdek hisor,
Ne hisorkim, tog' singari ustuvor.

1320 Hamon zanjijy lashkari, xayli habash,
Har go'shada bo'ldilar shamshirkash.

Habash o'ng qanot, barbariy so'l qanot.
Qo'shin qalbida zanjiji devzot.

Rumiylar bong urib, e'lon etdi jang,
Zanjiylar dag'i hayqirib, urdi zang.

Qaro bulut guldirak boshlab shu on.
Erdin to samoga yuksaldi suron.

Maydonning tuprog'i qo'zg'oldi, to'zdi,
Qo'rquvdin devlar ham aqldin ozdi.

1325 Bo'g'di xalqumlarni to'zon. g'ubor-tuz,
Bo'zardi chehralar, oldi sariq tus.

Gurzilar, qilichlar jon ko'zlar edi,
Miyonchi qochishga yo'l izlar edi.⁴⁹

Maydonni to'ldirib g'uluv bo'ylakim,
Hatto osmonga ham tushgandi vahim.

⁴⁹ Miyonchi _ sulh elchisi.

Go'yoki dunyoni bosmish tahlika,
Er tog'ni qo'porib, otardi ko'kka.

Bonglar, nog'oralar gumburlar edi,
Devorlar yiqilib, yemrilar edi.

1330 Karnaylarning uchib ko'kka g'ur-g'uri,
Go'yo yangrar edi Isrofil suri.

Zamin yanchilib gurzidin bor-bor,
Har o'ngirdin o'rlab uchardi g'ubor.

U po'lat minqorli o'qlar, beomon,
Qoyatoshlar bag'rin aylamishdi qon.

Kamonlar o'q uzib kiprigidin zud,
Sog'ardi sovutlar mammasidin sut.

Kamandlar halqasi, necha bir tugun,
Bo'yinlarga tushib, bo'g'ardi har zum.

1335 Hindu raqqosasi kabi har lahza
Qilichlar yarqirab, berardi zarba.

Nayzalar sanchilib, olar edi jon,
Asov otlar chopib, urardi javlon.

O'qlar yomg'iridin qizg'in jang aro,
Toshu temirda ham erdi yuz yaro.

Zamin bo'yalmishdi qirmizi qonga,
Havo to'lmish edi ohu fig'onga.

Lojuvardin bunyod tog'dek azamat,
Erdi shoh qo'shini qalbiga ziynat.

1340 U qilich o'ynatgan zanjiyi shovvoz,
Zanjiy zangi kabi chiqarib ovoz,

Yuragi yorilib, labida ko'pik,
Og'zini ochmishdi naq toshbaqadek.

Ikki qo'shin qalbi bo'lgach ustuvor,
Hujumga o'tdilar takroru takror.

Ko'rsatdilar maydonda mardonalik,
Ziyraklik etdilar, ham devonalik.

Rumiylardin ustun keldi zanjiylar,
Bular nozik tan erdi, qo'rqinch ular.

1345 Shoh shunda lashkarin andisha qildi,
Ulardin g'alaba kelmagay endi.

Ko'nglida aytdikim, sohib qahrı kiyn,
Arslonlig'imni ko'rsatay tag'in.

Lashkarimga shikast yetdi beomon,
O'zim harbu zarbga kirishay hamon...

Maydonga ot surdi misoli oftob,
Kechagi hunarin etgali shitob.

Necha bir dushmanga hamla etib, hay,
Bir zarb ila halok ayladi itday.

1350 Zanjiylar ko'rdikim, ish edi mundoq,
Shamshiri zarbidin qochdilar yiroq.

Sikandar maydonni raqibsiz ko'rib,
Zanjiylar yoniga bordi ot surib.

Zanjiylar sardori qora Palangar
Ko'rdikim, dengizdin chiqmishdi ajdar.

Dedi do'stlariga: "Bu o'lja hamon
Domimga tushadi, qutulmoq qayon?"

Shohona yarog'in tartib ayladi,
Qilichga qolqonin tarkib ayladi.

1355 Karkidon kiyimin kiydi qatma-qat,
Berilmishdi unga zar ila ziynat.

Po'lat dubulg'asin naq ko'zgudayin
Chaqnatib, boshiga qo'ndir keyin.

DuratShon shamshiri chun yarqiroqdi,
Uni ham shu zamon beliga taqdi.

Arslon sari yurdi mardonavor,
Sher oldida sherdek turmog'i darkor!

Baqirdi: "Ey ov ko'zlagan arslon,
Sabr ayla toqatingni ayla ayon!

1360 O'zingni sherdek tut sherning yonida,
Sherdek olishaylik jang maydonida.

Ko'raylik maydonda kim ustun kelur,
Savash asnosida kim g'olib bo'lur!

Oshib-toshar ekan zanjiyi xunxor,
Qahru g'azab ichra yondi Shahriyor.

Dushman dag'dag'a etsa chun tumtaroq,
Raqibning qoni ham jo'sh urar andoq.

Sikandar dedi: "Behuda urma lof,
Mard oldida safsata sotma, gazof!

1365 Mardonalikdin so'z ochib, urma dam,
O'z soyangdin hadixsirab bos qadam.

Qo'rq, agarchi sherlar sherisan chunon.
Kerilma, qarshingda turar pahlavon.

Tebrata bilmassan og'ir taningni,
O'ldirmoq ho'lganing o'ldirar seni!

Joizdir arslon soriga zarbing,
Gar uni yiqishga yetishsa qurbing.

Oshiqib-toshiqib o'z boshing yema,
Chumchuqsan, loChinlik da'vo aylama.

1370 Kel, endi maydonda olishaylik, bas,
Ko'raylik, kim g'olib erur, zabardast.

Tahqir aylab, kutma o'zingga omad,
Malomat etguvchi topar malomat!"

Shoh so'zidin zanjiiy quturdi, jo'shdi,
Tutundek qorayib maydonga tushdi.

Sikandar qiliChin sug'urdi qindan,
Ko'kdagi bulutga chaqmoq ne pisand!

Shohga g'uzabga mindi xunukdin toki,
Misli nayza bo'ldi har tola tuki.

1375 Zanjiiyga shamshirin urdi shu zamon,
Sovuti tufayli yetmadi ziyon.

Base savash bo'ldi ul maydon aro,
Na unga, na bunga yetmadi yaro.

Qorayib hoshlarga yetib keldi tun.
Maydonda hech biri bo'lmadi ustun.

Zanjiy shoh jangidin bo'lib parishon,
Dedi: "Quyosh botdi, yetishdi xufton.

Qo'yaylik shabexun aylab urushni.
Ertaga etaydik endi bu ishni.

1380 Kecha tong nuridin suringan mahal,
Quyosh tun ortidin ko'ringan mahal.

Maydon aro holingni tang aylaram,
Sichqonning inini izlarsan u dam.

Shart shuki, subhidam chekarkan sipoh,
Subhidamdek bo'lgin qarshimda paydo".

Zanjiy shuni aytib, burildi, ketdi,
Shoh dag'i maydonni hamon tark etdi.

Kunduz tugab, kecha etarkan davom,
Jang-jadal so'nggida oldilar orom.

1385 Ertasi kun tongda yarqirab quyosh,
Dengizdin samoga ko'tardi otash.

Qo'shinlar bong urib ikki tarafda,
Shatranj donasidek turdilar safda.

Bir tomonda rumiy, bir tomonda zang,
Bo'lib oqu qaro, ya'ni ikki rang.

Qarolar tun edi, rumiylar charog',
Birisi zog' esa, biri chashmi zog'.⁵⁰

Qalqidi bir bulut, ko'k, zangorgun,
Oqizdi diydalardin daryoyi xun.

1390 Andoq sel edikim, aylamasdi farq.
Biri tashna qolsa, biri erdi g'arq.

Jahonxusrav maydonda jang ayladi,
O'shal badxoh holini tang ayladi.

Jang qilib, jangohda qizitdi bozor,
Oqar suvdin ko'tardi changu g'ubor.

To'n kiygan edi ul qalin ipakdin,
Qilich, nayza teshib o'tolmas andin.

Ham sovut kiygandi, po'lat, shu'lavor,
Ko'zlar qamashardi boqqanda har bor.

1395 O'ttiz quloch nayza erdi ilkida,
Jigar qoni bilan toblangan juda.

Belida hind shamshiri erdi shu tob,
Yo'q, shamshir emasdi. shamshiri oftob.

Boshida Chin dubulg'asi erdi. bas,
Gavhariga gavhar etardi havas.

Yana xanjar osmishdi shoh zahrvor,
Urganda achchig'i misli zahri mor.

⁵⁰ Chashmi zog' – qarg'aning ko'zidek oq deyilmoqda.

Otlandi, mingani zo'r tulpor edi,
Ko'rinishi dilkash, xushraftor edi.

1400 Jadallab yetishdi so'ng so'yi jangoh,
Kutdi, dushman qachon bo'lur deb paydo.

Kelmadi Palangar, chu so'lmishdi ul,
Andisha bahriga g'arq bo'lmishdi ul.

Boshqa zanjiyni, erdi ifriti mast,
Yubormish, to uzatsin gavharga dast.

Shoh bir nayza birlan sohib qahru kiyn,
Tiriklik tomirin kesdi zanjiydin.

Boshqa bir dev keldi, tog'dek turishi,
Ko'rganning boshidin uchardi hushi.

1405 U ham shoh nayzasi totini tuydi,
Yiqildi, tuproqqa boshini qo'ydi.

Qaro yuzlik keldi yana devsimon,
Ilondek chirmashmak istadi hamon.

Unga ham o'lim sharbatin tutdi shoh,
Uni ham jonidin ayladi judo.

Boshqa zanjiy tag'in qasoskor bo'lib,
Tushdi maydonga baski xunxor bo'lib.

U ham avvalgilar sharbatin ichdi,
Nayzaga yem bo'ldi, nafasi o'chdi.

1410 Boshqasi tushmadi so'ng jur'at etib,
G'azabli arslondin qolishdi qo'rqib.

Shoh shunda zanjiylar sari surdi ot,
Badxohlar qavmiga istadi mamot.

Ko'rdi bu ahvolni Palangar zangiy,
Talvasaga tushdi, bo'zardi rangi.

Va istar-istamay o'rnidan turdi,
Otlanib, shasht ila maydonga yurdi.

Necha bor tashlandi shohga jahd ila,
Lekin omad kulib boqmadi sira.

Necha qilich soldi jadal aylabon,
Ammo Sikandarga yetmadi ziyon.

Podsho, ul zanjiykim erdi asabiy,
Tashlandi unga otashin sher kabi.

Xudovandni yod etdi shul soniya,
Yolvordi unga omadim ber deya.

Va bir hamla aylab, andoq etdi jang,
Shu nuqtada raqib holi bo'ldi tang.

Shoh tag'in olg'a deb amr etdi otga,
Chaqmoqdek otildi qora bulutga.

1420 Urdi to'qqiz qirra nayzasin shu dam,
Sovutni ham teshdi, yana tanni ham.

Kemasi bo'ronga uchradi magar,
Langar tashladiyu o'ldi Palangar.

Podsho ot ustida turib shu zamon,
Hujumga o'tishga ayladi farmon.

Lashkar ikki yoqdin maydonga tushdi,
Kecha-kunduz tinim bilmay urishdi.

Avj oldi urho-ur ila qirho-qir,
Kafan bo'ldi sovut ostida harir.

1425 Qilichlar sharaqlab, qalqon taraqlab,
Changu to'zon uchdi samoga o'rlab.

Tano'rani tanda qizdirib oftob,⁵¹
Tandirdek olovga solmishdi shu tob.

Sarosima ichra aylanib boshlar,
Jahon ham olovdan qochardi badar.

Zanjiylar loshidin ul maydon aro
Zamin ham osmonga edi yuz qaro.

Aqiqlar shavani yoqardi nuqul,
Shavalar yonardi otashdonda ul.⁵²

1430 Shava yengil, vale og'irdi gavhar,
Ko'p qiymat berardi unga sarroflar.

Suman asir etib mushki qaroni,
Bo'zloChin ovlardi qora qarg'ani.

Boshlardin uchgandi tamom aqlu hush,
Aqlu hushdin xoli miyalar bo'm-bo'sh.

Chovushlar etarkan erakka dalda,
Qulonlar berardi sherlarga zarba.

⁵¹ Tano'ra – zirhli jang libosi.

⁵² Aqiqlar – qirmiz rangli tosh, rumiylar. Shavalar – qora rangli tosh. zanjiylar.

Birisi "hay" desa, biri "huy" debon,
"Hayyo-huy"ga to'lib ketmishdi jahon.

1435 Ikki lashkar etib jangu jadalni,
Zamona biriga yozdi zafarni.

Zabardastlarga fath bo'lib rahnamun,
Zalolatpeshalar bo'ldilar zabun.

Rumiylar lashkari ot surib har yon,
Zanjiylar boshiga soldilar qiron.

Sikandar qiliChin ko'tarib chun dast,
Zanjiylar bozoriga berdi shikast.

Zanjiy Zagonrudga bo'lib ravona,
Rumiy Shahrudidin uchdi tarona.

1440 Shoh dovrug'i yetib samolarga to,
Bitdi zanjiy solgan sho'rishu g'avg'o.

Rahmat yomg'irini bulutlar quydi,
Qilichlar damining dog'ini yuvdi.

Bayrog'i ostida turar erdi shoh,
Egnida ipakdin binafsha qabo.

Har tarafdin solib bo'yniga arqon,
Sudrab kelar edi nahangni arslon.

Zanjiylarni shunda jam etib ular,
Sikandar amri-la boshin kesdilar.

1445 Vodiydin zanjiylar izi yo'qoldi,
Qolgan esa, loshi kalxatga qoldi.

Pilga zo'rvonlik aylagan habash
Pilladek chumoliga bo'ldi talash.

O'Shal hammolki, moli mardum tashir,
Gohida sham, gohi berishim tashir.⁵³

G'anim xorlik chekib, bo'ldi ziyonlik,
Habash tizza cho'kib, so'rdi omonlik.

Sikandar ul qavmga berdi omon,
Amr etdi ularni o'ldirmang debon.

1450 Qilmishlari afv ayladi Shahriyor,
Qilichning damiga etmadi duchor.

Buyurdi, habashga urdilar tamg'a,
Habashga ul otash bo'ldi sadag'a.

Yoritdi ularni o'shal o'tli dog',
Magarki olovdin yorishar charog'.

Boylik keltirdilar jam etib shohga,
G'animat sig'madi ulug' dargohga.

Shoh ko'rdi, behisob matoh erdi ul,
Javohir to'la bir daryo erdi ul.

1455 Jomlar gavharinu idishlar zarrin,
Xarvor-xarvor anbar, ud edi tag'in.

Hama la'lu oltin ham kumush edi,
Charm xaltalarni to'ldirmish edi.

⁵³ Berishim – ipak.

Boyligu bisotga to'lmishdi sahro,
Xirmon-xirmon qilib uyulmish raso.

Mahobatli fillar bor edi necha,
Tovusdek tulporlar qanchadan-qancha.

Go'zallar yana, bumiyu barbariy,
Husniga lol edi Oyu Mushtariy.

1460 Yana qancha shul edi, gavhamigor,⁵⁴
Jirafa charmi ham mo'l edi, bisyor.

Sahro sahni to'lmishdi sarvatga ul,
Ganju gavhar ila orasta butkul.

Shohni quvontirdi zafar, molu ganj,
Tinchidi, tark etdi uni dardu ranj.

O'lganlar holiga boqib har zamon,
Oshkora kulsa-da, yig'lardi nihon.

Ki necha xaloyiq jangda kechib xun,
Shamshiru nayzaga yem bo'ldi nechun?

1465 Ularni gunohkor demak noravo
Va o'zni gunohkor etmak ham xato.

Taqdiri azalga bermoq kerak tan,
Qismatdin qutulib bo'lmagay zotan.

Lojuvard niqobli durdonasan ul,
Lojuvard gunbazdin boshing burmagil.

⁵⁴ Jul – otning yopinchig'i.

Falaklar lojuvard to'nlidir, andin
To'n bichar barchaga lojuvard rangdin.

Bu buzuq pardada navo kuylama,
Sho'rlangan tuproqdin zilol izlama.

1470 Kim bilar, shu tuproq, bosib turganing
Qoniga bo'yalmish necha bandaning.

Gar bilsang, hama yo'l ostiyu usti,
Marol terisiyu qulonning po'sti...

Iskandarning Misrdan Rumga qaytgani Soqiynoma

Ketur, soqiy, may birla mast aylagil,
Qadahni qadahga payvast aylagil.

Ichib mayingdin, ko'ngilni xush etay,
Borib do'zaxga, daf'i otash etay...

Pandu hikmat

Omon bo'lsin o'sal humoyun og'och,
Ko'lankasi ko'ngilga bergay.

1475 Mevasi oroyishi xondir gahi,⁵⁵
Soyasi osoyishi jondir gahi.

Mevaga yetarkan bahori uning,
Minar avjiga kasbi kori uning.

⁵⁵ Xon – bu yerda dasturxon ma'nosida.

Meva tugmoq esa ishi, tashvishi,
Boltaga uni yem etarmi kishi?

Zimiston qish tugab, yetishdi bahor,
Ariqlar yoqasi bo'ldi lolazor.

Yashillik qopladi tuproq sahnini,
Binafsha taratdi ufor atrini.

1480 Nargis ul uforning xushtori erdi,
Uyg'onib, boshini yerdan ko'tardi.

Men dag'i xiznam ochib daf'atan,
Dala uzra bayroq ko'tardim baland.

Ko'zdin nihon, yashil libosli dildor,
Ki ilhom parisi degan nomi bor,

Mayin shivirladi qulog'imga: "Tur,
Xotiring gavharin sochgml, qalam sur.

Rumiy nechuk zanjiyni yerga qordi.
Sikandar otini qayoqqa burdi..."

Doston

1485 So'ylaguvchi bu muhtasham doston,
Davom etdi naqlini nazm aylabon.

Ki ko'ngil sevinchiga yo'q erdi chek,
Gulinordek yashnab, kulardi guldek.

Xazina eshigini lang ochdi shoh,
Oltinu gavharga to'liqdi sipoh.

Sikandar shu yerda bir hafta qoldi,
Yuzlar may rangidin qizil tus oldi.

Bulut saqqo, yel farrosh bo'ldi shunda,⁵⁶
Suv sepilib, yo'llar suprildi tongda.

1490 Suv bilan supurgi changlarni surgay,
Chang bo'lmasa, yo'l ham orasta bo'lgay.

Yo'llar chang-to'zondin toza bo'ldi to,
Mindi otiga shohi olampanoh.

Zarrin kamay chalib, olg'a yurdilar,
Parvin uzra saroparda qurdilar.

Afranja dengizidin to Nilgacha,
Nog'oralarda avj edi daraja.

Tevalar qo'ng'irog'i sochgan jarang
Andoqki, boshlarni etardi garang.

1495 Eru ko'kni jarangos bo'ylamishdi,
Quloqlarni batang, kar aylamishdi.

Lashkar kelar edi har yoqdin hamon,
Haddu hisobiga yo'q edi poyon.

Shoh rikobida arkoni xos edi,
Mingan oti ostida raqqos edi.

Necha manzil osha bedov surdilar,
Vodiy qolib, sahroga yuz burdilar.

⁵⁶ Saqqo – suv tashuvchi.

Qizil, sarig' bayroqlar erdi behad,
Muqarnas erdi gunbazi lojuvard.⁵⁷

1500 Bisotu g'animat erdi muncha mo'l,
Tevalar hansirab bosar erdi yo'l.

Tevalar ustida edi muncha yuk,
Nil uza yuz joyda qurildi ko'prik.

Andoq surur-la Shohi firuzmand,
Boshini osmonga ko'tarib baland.

Misrga kelib, etdi misriyni shod,
Shaharni yangidan ayladi obod.

Va dengiz sohilin etdi ixtiyor,
Bir muddat turishga ayladi qaror.

1505 Har manzilda bayroq ko'targan asno
Necha bir imorat bo'lardi paydo.

Ganju farmon va shavqi mardum ila,
Binolar qurdi oyini Rum ila.

Yo'l obodligi deb chekar edi ranj,
Yo'l uzra tuproqdek to'kar edi ganj.

Ilk bor dengiz bo'yida tutgach qaror,
Shahar hunyod etdi chun xurram bahor.

Bog'i bihisht erdi chiroyda go'yo,
Hama joy bozoru yana bandargoh.

⁵⁷ Muqarnas – naqshu nigori.

1510 Shaharni haddiga yetkazib tamom,
Iskandariya deb unga qo'ydi nom.

Bir shahar qurdikim, gul chaman edi,
Misr ila Bag'dodga monand edi.

Yunonga qaytishni azm etdi shunda,
Avval kelgan yo'ldin qaytdi ortiga.

Kechib dengizdin Rumga bo'ldi ravon,
Muhri ostida mumdek erdi jahon.

O'shal mum izmida edi kun-tuni,
Har neki istasa, etardi uni.

1515 Rumning ulug'lari tahsin aytdilar,
Sochib uning boshiga durru guhar.

Yunon shaharlari bezandi gul-gul,
U tufayli murodlar erdi hosil.

Bazmi nishot tuzdi sochib ganju mol,
Bir bazmki, tasavvur etmoq mahol.

Sikandar muzaffar, chehrasida nur,
Chiqib taxti uzra o'ltirdi masrur.

Maydonda jang qilib, yetishdi shonga,
Xursandlik baxsh etdi davru davronga.

1520 Zanjilardind tushgan o'ljani har yon,
Jo'natdi, o'lchamay etdi armug'on.

O'ljasi ganj edi, molu sarvatdi,
Har shohga ulardind ulush jo'natdi.

Navbat yetib borib so'ng Dorogacha,
Karvon tizildi to Buxorogacha.

Yurib donolar farhangu royiga,
Xizmat qoidasin qo'ydi joyiga.

Tanladi g'animatdin necha turfa,
Ki inson ko'rmamishdi muncha turfa.

1525 Qimmatbaho, g'aroyib molu bisot,
Duru gavhar, otu harir, atriyyot.

Tabaq-tabaq oltinki, ul shu'lavor,
Sandiq-sandiq anbar va mushki ufor.

Yana o'shal suyuq kumushdin qancha,
Yonida bir xirmon kofur qo'shimcha,⁵⁸

Tugun-tugun ud ham yuk edi chunon,
Ki har tugun vazni edi yuz botmon.

Necha gavhar sopli qilichlarki, hay,
Zarrofa charmli namatlar talay.⁵⁹

1530 Necha joriyalar, havas etgudek,
Necha qullar yana, sog'lom va tetik.

Fil suyakli taxtlar yana, taxti oj,
Gavhar ila ziynatlangan tavqu toj.

Asirlarkim, qo'li, bo'ynida zanjir,
Har biri mast fildek yirik, davongir.

⁵⁸ Kofur – bu yerda xushbo'y modda ma'nosida, kamfara.

⁵⁹ Zarrofa – jirafa.

Necha Chinoq quloq tevalarda yuk,
Xirvor-xirvor yuklarki vazmin, buyuk.

Tag'in tog' kelbat, jangari o'nta fil,
Maydonda jo'shqini misli nahri Nil.

1535 Shuncha molu bisot muqarrar etib,
Jo'natdi bir elChini rahbar etib.

Elchi yetib bordi horitib otni,
Doroga topShirdi ganju bisotni.

Doro ko'rib, kibru havosi oshdi,
Ko'ngliga kiyn ila hasad chirmashdi.

Jo'natilgan boylik ersa-da maqbul,
Minnatdor bo'lmadi jo'natgandi ul.

Javobida shohga ta'nalar sochdi,
Kiynu adovatning eshigin ochdi.

1540 Elchisi yetishib, yetkazdi xabar,
Doro maktubini o'qib Iskandar.

Ko'ngli ozor chekdi uning koridin,
Qiynaldi nihoniy dil ozoridin.

Ammo fathu davlat sururini shoh
Surarkan, Doroga bo'lmadi badxoh.

Har yoqqa xabari yoyilgan erdi,
Ki "Rumiy zanjiyning ta'zirin berdi".

Har yoqdin elchilar yog'ilib talay,
Tahsin o'qishardi unga paydar-pay.

1545 Ta'nalar eshigin yopilib ortiq,
Rumiylarga xursandlik erdi tortiq.

Zamona ojizga madad etsa gar,
Ajdahoni chumoli ermak qilar.

Bu bir tegirmondir, doni kam emas,
Un tortadi navbati kelganda kas...

**Iskandar Doro bilan jang qilishga qasd etgani
Soqiynoma**

Ketur, soqiy, maying qutlug' qadam ul,
Tutgil menga, dardimga darmon bo'lur.

Halvodek bir ajab ko'rinar ko'zga,
Olov ko'rmamish ul quyoshdin o'zga...

Pandu hikmat

1550 Jahon ahlida mayl emas yagona,
Birov dengiz izlar, birov durdona.

Jahon ichra kimsa ko'rmadim hali,
Ki ustozga bo'lsa ixlosi, mayli.

Men sho'rida bulbulga ul yaxshiroq,
Ki bo'lsam bo'yla kimsalardin yiroq.

Mashg'ulotimni etsam sozu surud,
Dengizning dardini aylasam unut.

Vaqti-vaqti bilan tark etarkan bog'.
Qo'limda turunjim chu ravshan charog'.

1555 Ajab, bir hushyorni ko'rmasman ortiq,
Ki unga turunjim aylasam tortiq.

Yana bog'im sari burarmen yuzni,
Uning og'ushiga urarmen o'zni.

Toki sayri bo'stoni dilkash etay,
Siniq xotirimni o'zim xush etay...

Doston

Rivoyat aylaguvchi, sohib xabar,
Qadim mo'badlardin rivoyat etar.⁶⁰

Ki Rum shohi Zanjini mag'lub etdi,
Tinchidi, sabaki, murodga yetdi.

1560 Mayl ayladi osoyishu xobni,
Va kaftiga oldi mayi nobni.

Navro'zda o'tirib, may yutumladi,
Xonandalar taronasin tingladi.

Uxlaguncha unga do'st edi, ahhob,
Mug'anniyu soqiyu sozu sharob.

Xursandlikdin bo'lak bir ish etmadi,
Kimsa andoq tiriklikka yetmadi.

⁶⁰ Mo'bad – otasbparastlar oliy ruhoniysi, bu yerda donishmand ma'nosida.

O'ltirib jahondori getifuruz,
Ishrat aro tunni aylardi kunduz.

1565 Faylasuflar atrofida doimo,
Dunyoga adolat etardi ato.

Arastu, Falotun qadah. jom ila,
Mayi xom ichardi xuni xom ila.⁶¹

Mug'anniy, xonanda ko'ngilni xushlab,
Qo'shiqlar kuylardi shohga bag'ishlab.

"Davlatpanoh, salomat bo'lsin boshing,
Toj ila taxtingga teng bo'lsin yoshing!

Abadiy umringga garov qil jomni,
Garov et baxtingga bodayi xomni.

1570 Mayi arg'uvoniyni kes shashtini,
Ishrat ila sur yigitlik gashtini.

Yosh-navqirondirsan, iqboling mahbub,
Sozu sharob ila o'ltirmog'ing xub.

Shamshir tartibini etding saranjom,
Topsin tartibini majlisingda jom.

Olgin toju taxting izniga hamon
Jahon ahlinikim, sendin topar jon.

Qarolikni olding, oqlikni ham ol,
Oqu qarolikni olmog'ing halol.

⁶¹ Mayi xom – toza sharob.

1575 Falakka bayroq tik, shu olam sening,
Qo'shib ol davlatingga. ul ham sening!"

Misrda muyassar bo'lib nusrati,
Zangni mag'lub etgach, oshdi shuhrati.

Yovni yengib, shohi zamon bo'ldi, chun
Olar bo'ldi Xurosondin xirojin.

Mamlakati yetib Rumdan Shom qadar,
Kimsa kelolmasdi unga barobar.

Doroga boshqa mol-bisot bermadi,
Avval berganini talab ayladi.

1580 Qoni qaynoq edi, yosh edi, dono,
Mamlakat olmoqni etdi muddao.

Eroniylar shashtin sust aylab magar,
Eronni olmoqqa boyladi kamar.

Daraxtki, yuksalib bo'y cho'zar chunon,
Boshqa daraxtlarga yetkazar ziyon.

Bir kuni otlanib ovga chiqdi shoh,
Ko'ngli xush ediyu xush edi havo.

Shikor aylar ekan, ot surdi yakkash,
Tulpori uchardi kezib tog'u dasht.

1585 Falakvor uchardi yelib sarsari,
Gohi sahro tomon, gohi tog' sari.

Bir toqqa yetishdi tasodifan ul,
Ki unda ov-o'lja, shikor edi mo'l.

Ko'rdi, qoyatosh erdi, ikki kaklik
Olishardi unda turib tikma-tik.

Biri boshqasiga minqor urardi,
Boshqasi raqibning patin yulardi.

Sikandar bu jangning oxirin kutib,
Ko'z uzmay, bir muddat turdi kuzatib.

Shunchalar qizishgandi ikki kaklik,
Shohning nazaridin olmasdi hadik.

1590 Ne bois bo'ldi deb hayratlandi shoh,
Qushlarning boshiga tushdi bu savdo.

Birini o'zi deb xayol ayladi,
Qismati folini unga boyladi.

Biriga berdi ul Doru nomini,
Kutdi olishuvning saranjomini.

Ikki qush jasorat ko'rsatib tamom,
Andoq jang-jadalga etdilar davom.

O'shal kaklik muzaffar bo'ldi alhol,
Ki uni o'zim deb etmishdi xayol.

1595 Sikandar quvondi ko'rib bu holni,
Zafardin mujda deb bildi bu folni.

G'olib kaklik yurib xiromon shu dam,
Uchdi ul yengilgan kaklik yonidan.

Tog' ortiga parvoz etarkan shitob,
Tutib, uning boshini uzdi uqob.

Burgut panjasida kaklik berdi jon,
Ko'rib, shohning holi bo'ldi parishon.

Illo, iqbolidin ko'ngli to'q edi,
Tanu jonidin tashvishi yo'q edi.

1600 Bildiki, baxtomad unga yor bo'lur,
Doroni yengiShda madadkor bo'lur.

Va lekin uzoqqa bormas sururi,
Uncha ham poydor bo'lmagay umri...

EShitgandi, baland tog'da viqorli,
Bir gunbaz bor emish naqshu nigorli.

Har kimsa savol aylab, cheksa nido,
Javobini aytib, berarmish sado.

Savoliga javob aylarkan shu on,
Baxtu iqbolini etarmish ayon.

1605 Buyurdi shoh bir oqilga: borib ul
Nido et gunbazga, undan savol so'r.

Ki qonlar to'kilur jahonda davom,
Mening baxtim nechuk topgay saranjom?

Borib oqil gunbazdin so'rdi savol:
"Nechuk bo'lgay oxir saranjomi hol?"

Sikandar jahonda bo'lgaymu g'olib,
Qudratli Doroni etgaymu mag'lub?"

Sado ayon etdi ne erdi asror,
Aytilganni yana ayladi takror.

1670 Bu xayrli foldin taskin topib shoh,
Ko'ngli baland tog'dek yuksaldi go'yo.

Sevinch ila bitdi sayru safari,
Yurdi tog'u dashtdin bazmgoh sari.

Tadbir ila tuzdi yana anjuman,
U sarvi bolo edi, majlis chaman.

So'z ochdi o'z ahvoli ohangidin,
Quchgan zafariyu sulhu jangidin.

Dedi: "Qudratim-la yozib qulochim,
Etkazurman avji falakka tojim.

1675 Tekinxo'rlarga boj bergaymen nechuk?
O'zimni tuproqqa urgaymen nechuk?

Nechun bergum yana Doroga xiroj,
Menda ham bor o'shal gavhar, taxtu toj?

Gar unda toj esa, menda qilich bor,
Qilich sirmab, toju taxtga yetish bor.

Qo'shin tortib etsa qasdi jon menga,
Xudoyim panohu mehribon menga.

Xudoyimdin murodim hosil erur,
So'zim qat'iy, lashkarim hozir erur.

1680 Qo'shinga qachonkim g'alaba kelgay,
Do'stlar tayanchi ham ziyoda bo'lgay.

Ikki dil birlashsa, yiqadi tog'ni,
Parokanda aylar yaqin-yiroqni.

Umidim uldirki, imdod etib baxt.
G'animlardin talab etgum toju taxt.

Doroga boj-xiroj to'lamoq nechun?
Bu nomus emasmi, axir, biz uchun?

Donolar, ne erur maslahat, ayting,
Bu ishda ne tadbir, hamjihat ayting.

1685 Doroga ne dalil ko'rsatay hamon?
Har ne nihol ersa, aylangiz ayon".

Ishning saranjomin bilguvchi o'shal
Donolar podshoni duo qildilar:

"Toki falak bordir va unda yulduz,
Ularning ulfati gavhardir yolg'iz.

Shoh gavhari jahon charog'i bo'lsin,
Chehrasi osmonda oy bo'lib to'lsin!

Ko'rish qudrati, podshohim, sendadir.
YaratiSh san'ati, shohim, sendadir.

1690 Qayga qadam qo'ysang, bo'lgil hukmron,
Qayga urug' sochsang, ko'targil xirmon!

Baski, so'raydiansan bizdan maslahat,
Aytamiz qurbimiz yetganча albat.

Maslahat uldirki, yur osuda, tinch,
Sen birinchi bo'lib ko'tarma qilich.

U boshlasin, sen shunda jang aylagil,
Qilich sirmab holini tang aylagil.

Shamshiring boshiga sirmasang, illo,
Bo'lur ham toji, ham boshidin judo.

1695 Marol arslon-la talashsa maydon,
O'zini o'linga shaylagay hamon...

Doroning bilgani faqat noz'u no'sh,
Senga hujum qilur qoni ura jo'sh.

Senda ziyodadir lashkar va qudrat,
Xiroj zaiflardin olinur faqat.

Sening shiddatingni zanjiylar bilur,
U esa haramga yugurar nuqul.

Sen dinparvar, Doro kinparvar kushod,
Farishta boshqa, ahriman boshqa zot.

1700 Sen shamshir ko'tarsang u jom olgusi,
Sen maydonda, u taxtda o'lturgusi.

Sen adolat etsang, u bedod etar,
Sen qudrat yiqqaningda, u simu zar.

Sen hushyor ekanda, u sarxush erur,
Sen Yaxshilik, Doro yomonlik qilur.

Xush ko'rmas uni jumla shahr'u sipoh,
Bir nafar topilmas unga xayrixoh.

Bo'ylidir ulusga ozori uning,
Kasodga uchragay bozori uning.

1705 Yuksak navozishu munis maroming,
Ettinchi falakka ko'tarur noming.

Dushmanlik etsa-da haqqa har qachon,
Botil haqdin qochib qutulmish qachon?

Mahkam tut hamisha uyg'oq baxtingni,
Hukmdorlik ila toju taxtingni.

Banda bo'lma andoq xayolga, illo,
Ki davlat mulk ila, nusrat mol ila.

Mardumga bosh bo'lolmas har odamiy,
Ham odamiy ham magar odamiy.

1710 O'shal kinsa mardumnavozlik qilur,
Hama mardumga sarfaroqlik qilur.

Sherni jumla hayvon shohim deb atar,
Ov ovlasa, mehmonnavozlik etar.

Jahon xushlamas jam etib mulkini.
Zanjiru qulf bandida tutsang uni.

El aro baxtiyor ersan hamisha,
Undan olib, bunga bersang hamisha.

Javonmard insonlarga payvast erur,
Inson emas ul kaski nokas erur.

1715 Insonlar xamiri pishmagan kaska
Pishgan non beradi so'rasa qarzga.

Muruvvatu mardlik sengadir ravo,
Dushmaningga bo'lsin ganju ajdaho.

U gudirak esa, sen chaqin otash,
U xazina esa, sen xazinabaxsh.

Otang kuch-quvvatda edi misli sher,
Lekin g'azab ichra chekmadi shamshir.

Arslon ovlarsan jangda beomon,
QiliChing toshni ham etar bag'ri qon.

1720 Ko'rding, ne qabohat erdi zanjilar,
Yoprildi ustingga deb kabi ular.

Agarchi qanchasi ko'pirdi, toshdi,
Boshlari oyog'ing ostiga tushdi.

Sellar qarshisida tog'dek sarbaland,
Turib, toshqinlarni etmading pisand.

Nahangki, solgay ul filga ham og'iz,
Ohu qarshisida qolgaymi ojiz?

Qulon nechuk ovlar sheri jayonni?
Chumoli yengarmi sira ilonni?

1725 Burgut bir o'ljani ovlar bo'lsa ul,
O'zga qushlar undan bahramand bo'lur.

Yulduzlar falakda xayrixohingdir.
Jahon ahli hama xoki rohingdir.

Musallamdir shu mulki dunyo senga,
Dushmaningga azob, mo'miyo senga.

Ramzu ishoratlarki, folingga xos,
G'animlarni nechuk xarob aylamas.

Yulduzlar falakdin guvohlik berar,
Bo'lursan bu jangda g'olib, muzaffar.

1730 Handasiy hisoblar ko'rsatur ayon.⁶²
Muzaffar bo'lguvchi sensan begumon.

Palangarki erdi sarlashkari Zang,
Mashg'uloti maydon aro erdi jang.

G'olibu mag'lub kim, gumonda erdik,
G'olib chiqding o'shal maydonda, ko'rdik.

Xayrli bo'ldi senga ul jangda fol,
Bu jangda ham dushmanga yetgay zavol".

Shoh tinglab donolar kengashin shu dam,
Jahongirlikka bel boyladi mahkam.

1735 Har gal qo'lga olarkan shamshiru jom,
Fol ochar erdi Yaxshilikka mudom.

Kishi fol ocharkan, folini atay,
Xayrli deb ochsa, xayrli bo'lgay.

Yomonlikka ochma, yomon fol bo'lur,
Ki andin natija yomon hol bo'lur...

Iskandarning ko'zgu yasagani Soqiynoma

Ketur, soqiy, o'shal bodayi la'ldin,
Yuvsin ko'nglimizni anduhu g'armdin.

Yoniq bir la'ldirki, ul rayboni bog'
Uning shu'lasidin yoqarmish charog'...

⁶² Arastu otasining Iskandarga taqdim etgan g'olibiyat va mag'lubiyat jadvali ko'zda tutilmoqda

Pandu hikmat

- 1740 Kun xayrli bo'lur, oqarganda tong
Kishida xush holat ersa ul zamon.

Yaxshilik rasmini ul bunyod etar,
Yaxshilik aylar, yaxshilik yod etar.

Yaxshilikdin boshlar ish-a'molini,
Yaxshilikka yo'yar har ne folini.

Mashaqqat kelsa, noumid bo'lma. boq,
Qora bulutdanam suv yog'ar oppoq.

Chorasizlik eshigin yopma mahkam.
Axir, foyda kelur achchiqlikdanam.
- 1745 Nafas gar umidga yor aylar seni,
Alloh o'zi umidvor aylar seni.

Qoshing chatib, ma'yus etma o'zingni,
Zafar ko'zrusida ko'rgil yuzingni...

Doston

To'quvchi harir to'qib Rumiya,
Chekib naqsh, ufurdi uforin yana.

Ki Sikandar jahonga soldi kalit,
Shamshiridin oyina bo'ldi padid.⁶³

⁶³ Padid – paydo.

Jahon kelinchagi bo'lib jilvasoz,
O'shal oyinaga arz etdi niyoz.

1750 Undan oldin yaralmamishdi ko'zgu,
Ko'zguni shu yo'sin bunyod etdi u.

Ko'zgu yaratmoqqa etib ilk amal,
Siymu zarni qolipga solmishdilar.

Necha urindilar jadal aylabon,
Suratlari unda bo'lmadi ayon.

Sinov etsalar-da necha gavharni,
Har biri ko'rsatdi o'zga paykarni.

So'ngra sinov gali temirga yetdi,
Sayqali suratni namoyon etdi.

1755 Sayqal berdi tag'in temirchi rassom,
Temir yuzi tiniq tus oldi tamom.

Keyin har suratki ayladi g'araz,
Ko'rdi unda rassomi suratparast.

Garchi tiniq edi, beg'ubor edi,
Lekin bir nuqsoni, aybi bor edi.

Kengish ko'zgu kengish ko'rsatar yuzni,
Uzun ko'zgu uzun etardi yuzni.

To'rt burchak ko'zguda qorishiq ahvol,
Olti burchakda ham shu begona hol.

1760 Doira shakliga solindi shunda,
Surat bekamu ko'st ko'rindi unda.

Qaysi bir tarafga bursalar necha,
Suratni ko'rsatar edi aslicha.

Ilmi handasani qo'llab, temirdan
Sikandar oyina yaratdi Chindan.

Sen dag'i ko'z solganda oyinga,
Sikandar ko'zgusi yuz ochar senga.

Yumaloq yuz bo'ldi, temirdin orti,
Dag'al tabiati muloyim tortdi.

1765 Ko'z soldi birinchi bo'lib Iskandar,
Gavhardin gavharga yetishgay samar.

Ko'rdi o'z yuzini, sevindi rosa,
Oyina yuziga qo'ndirdi bo'sa.

Kelinlar shu sunnatga aylab amal,
Ko'zguni o'parlar boqqanda har gal.

Doro Iskandardan xiroj talab etgani Soqiynoma

Ketur, soqiy, ul jomi oyinafom,
Ajabdir kaflimda makon tutsa jom.

Ki andin o'zimni Kayxusrav etay,
Jahonbin bo'lib, jahonga yuz tutay.

Pandu hikmat

1770 Kel, zulmu bedodni qo'yaylik endi,
Bedod etib, bedoddin kim qutuldi?

Jahonga asiriniz, bandayi jahon,
Uyda ham, yo'lda ham ul devu shayton.

Jahon berganlarin bilxossa olgay,
Bir yutum bergay-da, bir kosa olgay.

Yog'ib qatra-qatra muhayyo etar,
Sel aylab, so'ngra so'yi daryo etar.

Qanoat qilaylik boriga bugun,
Diram uzra diram yig'ishlik nechun?

1775 Och-ofat bo'lishdin o'zni avayla,
Shukr etib, nasibing tanovul aylala.

Qorun yig'ib shuncha davlatu sarvat,
Tuproqqa yem bo'ldi o'zi oqibat.

Oltin gashtdin saroy tikladi shaddod,
Oqibat jahondin ketdi bemurod.

Bu rangin bog' aro bormi bir daraxt,
Ki unga yetmagay boltadin ofat?

Doston

O'shal toju taxtga berguvchi oro
Yana naql ayladi: saodatli shoh

1780 O'ltirardi joni rohatga yetib,
Jahon tashvishini bir dam tark etib.

Jomida sharobu sarxush nigohi,
Goho to'ldirardi, ichardi gohi.

Hushyordil hakimlar turar qoshida,
Yuksak aqlu xirad erdi boshida.

Har safar o'zgacha jaranglasa chang,
So'zi ham olardi o'zgacha ohang.

Har gal qatra sharob to'karkan xushhol,
Muhandis u joyga ekardi nihol.⁶⁴

1785 Boda baxsh etardi jonga harorat,
Qadah shakkar sochar, simirish rohat.

Boshlar sarxush bazm jarangosidin,
May kayfiyu sozandalar sozidin.

Qadahlar jaranglab, yangrab arg'unun,
Ko'ngil chashmasidin sizar edi xun.

Ko'ngillarga yaro solardi navo,
Achchiqmas, shirin erdi andin yaro.

Bazm orasta erdi misli bihisht,
Latofati avji bahordanam xush.

1790 Sikandarkim g'olib, muzaffar edi,
Osmonda oy yanglig' o'ltirar edi.

Banogoh Dorodin aslzodae.
Etishdi, so'zga mohir, ozodae.

Elchilik rasmin ul yaxshi o'tadi,
U shohni ham, bu shohni ham maqtadi.

⁶⁴ Sikandar har gal qadah bo'shatganda muhandis-folchi uning bo'lajak zafarlaridan xabar berardi.

Jahonpahlavonni olqishlab shu on,
Doroning anrini ayladi bayon.

Avvalo Dorodin salomlar aytdi.
Keyin to'lanmagan xirojga qaytdi.

1795 "Tekinga oldingmi taxt ila tojni,
Nega to'lamaysan bizga xirojni?"

Yomonlik ko'rdingmi Dorodin magar,
Sarkashlik etarsan unga munchalar?

Eski ahdimizga amal et hamon,
Yo'qsa, yaxshi bo'lmas, ko'rarsan ziyon".

Sikandar eshitib, yondi, tutaqdi,
Qalbining otashini tilini yoqdi.

Qoshlari kerilib, yozildi xami,
Shu onda elChining kesildi dami.

1800 Ko'rdi yiroq yo'lning yo'lchisi shu dam,
Sikandar g'azabga erdi Chindanam.

U g'azab o'tida so'zni boshladi,
Aytilmas gaplarni aytib tashladi.

Qattiq-qattiq so'z aytishdin shu mahal
O'zni tiyolmadi rumiy Sikandar.

Kimda aqlu xirad raso ersa, bas,
Behuda so'zlarni sira so'zlamas.

Qizishganda sabr aylasa bir zamon,
Oxirda bo'lmagay zarra pushaymon.

1805 So'z meni so'yla deb tursa ham, ayo,
Uni aytganingdin aytmagan a'lo.

Na xush demish ul donoyu arjmand,
Til etdan yaralmish, pichoq temirdan.

So'ziga hukmron emasdir kimsa,
Tiliga kelganni agar so'ylasa...

Kayoniy siyratli dono, ko'r ani,
Andoq naql ayladi bu hangomani...

So'z borardi gavhar, tig' ila tojdin,
Doroga Yunondin boju xirojdin.

1810 Ki ul ganju bisot ichra jamuljam,
Shart edi tabiiy oltin tuxum ham.

Munaqqash edi ul shohona bisot,
Ko'rguvchi ko'zlarga nur edi, nishot.

Shularni eslatib elchi so'yladi,
Xiroj deb tilini burro ayladi.

Unga xitob etdi shunda shohi sher:
"Sherdin xiroj talab etar qaysi er?!"

Zamona joriy etdi o'zga yo'rug',
Oltin tuxum tuqqan tovuq endi yo'q!

1815 Gardun eski nizom uzra chizdi xat,
O'zga nizom kasb ayladi toju taxt.

Tog'u toshdin gavhar olinmas yalang,
Jahon gohi sulh aylagay, gohi jang.

Etna mening qarshimda kibru itob,
Gar istasang, shamshir ila ber javob.

Kifoyat emasmi, shamshirim manim,
Tayin etdi taxt ustida maskanim?

Rikobingda yurgan mulozim erdim,
Jahon jilovini qo'lingga berdim.

1820 Cheksiz mulking uza et andishani,
Menga qo'y shu kichik, mo'jaz go'shani.

Menga kibru havo aylama muncha,
Urarmen ul zamon panjanga panja.

Bir chetga otarmen mehru saxoni,
Qonimda yoqarmen qahrul baloni.

Magar bilmasmisan, etib jangu jang,
Maydonda ot surdim, mag'lub bo'ldi Zang?

Magar bilmasmisan qaylarga yetdim.
Yovuzlar lashkarin toru mor etdim?

1825 Podshohki, kimsaga berar taxtu toj,
Miskindek birovga bergaymu xiroj?

Mendan Mismni so'r, zar istarmisan,
So'zingga oro ber misriy zar bilan.

Qara, yer hududim qanchalar ulug',
Talab ayla maqomimga muvofiq.

Fitna qo'zg'ab kiynu itob aylama,
Eroniy zaminni xarob aylama.

Yurting osuda, tinch, yiroq dog`u ranj,
Shukur qil, qo`lingda shuncha molu ganj.

1830 Zamona zayli deb tutma zavolni,
Uloqtir boshingdin fosid xayolni.

Mendin bermasimni so`rama aslo,
Munosabat ayla chu shoh birla shoh!"

Sikandar so`yladi, elchi tingladi,
Jim qotdi, so`ng dargohni tark ayladi.

Doro huzuriga bordi shoshilib,
Chaqindek o`t sochib, shamoldek yelib.

Ul dag`al javobni aytar ekan to,
Sarvdek qomati xam bo`ldi, duto.

1835 Sikandar javobin Doro tinglabon,
"Yo`qol!" deb baqirdi elchiga hamon.

Dedi: "Kim qo`yibdi u sikkasizga,
Barobar bo`lishni jahonda bizga!"

Yod etdi nega bir doston alamdin,
Eshitganlar yuzi sarg`aydi andin.

Kuldi, kulgusidin yog`ilib zahar,
Dedi: "Afsus, charx aylar andoq hunar!"

Falak zulmini oshkora qilur,
Iskandar bugun qasdi Doro qilur.

1840 Ko`hi Qof bo`lsa ham haddini bilsin,
Kimdir ul, men bilan kelib jang qilsin?

Sor loChin oldida pashshadir o'shal,
Dengiz qarshisida qatradir o'shal!"

O'zga bir elChini yo'lga yo'llabon,
Uning yo'llariga ko'z tikdi har on.

Bir to'p ila chavgon topshirdi unga,
Yana bir qop kunjut ham berdi unga.

Va ramzu ishorat sirrin so'yladi,
Bu o'yindin ko'nglini shod ayladi.

1845 Rum sari yuzlandi elchi xushxirom,
Izmida ul Dorodin erdi payom.

Ko'rib o'trusida keyin shohi Rum,
Eridi andoqki otash ichra mum.

Bosh egib, bandalik bayon etdi ul,
Itoatkorlikni ayon etdi ul.

Ilk tugunni yechib, oshkor etib roz,
Aytar so'zin shunda ayladi og'oz.

Ki "Farmon berguvchi hokimdir jonga,
Keltirguvchi quldir o'sha farmonga.

1850 Ne farmon aylasa ul shavkatli shoh.
Uning amrini so'zsiz etgum bajo".

Sikandar bu gapdin angladi darhol,
Doroning javobi xush emas, dag'al.

Qahr ila dedi: "Payomingni ayol!"
Payomchiga keldi so'z ayturga payt.

Matoki o'ramishdi boshiga,
Echib bir-bir, Sikandarning qoshiga.

Qo'yib, tilga keltirdi so'ng kalomin,
Shohga taqdim etdi Doro payomin.

1855 Chavgon ila to'pdin boshladi avval:
"Sen bularni o'yna, bolasan magar.

Menim-la jang aylamoqni o'ylasang,
Behuda xayolga dilni boylasang,

Lashkarimki, boshing uza yoprilur,
Shu behisob kunjutdin ortiq bo'lur".

Sikandarda zakovat erdi, kamol,
Ko'rdi bu ashyolarda farxunda fol:

"Har narsakim qochmoq bo'lur bir yo'la,
Uni tortib olurlar chavgon ila.

1860 Doro chavgon etmish menga armug'on,
Mulkini olurman tortib begumon.

Chavgon to'pin olimi hay'atshunos
Mudom Yer kurrasiga aylar qiyos.

Shoh zamin to'pini irg'itdi menga,
Olarmen, qaytarib bermasmen unga".

To'p ila chavgonida baxtini ko'rdi,
Keyin diqqatini kunjutga burdi.

Sochdi bor kunjutni saroy sahniga,
Saroy qushlarini chorladi unga.

1865 Bir lahzada qular keldilar yetib,
Edilar kunjutni tap-taqir etib.

Dedi: "Javobim shu podshohingga tek,
Misoli kunjutdin olingan yog'dek.

Doro, kunjut esa lashkaring sening,
Kunjutxur qushlardir lashkarim mening!"

So'ng kichik xaltaga isiriq to'latdi,
Kunjutga evaz deb elchiga tutdi.

Dedi: "Shoh lashkari esa kunjutcha,
Bilsin, lashkar degan bizda ham shuncha".

1870 Sikandar so'zini elchi tinglabon,
Yukini eshakka yukladi hamon.

Doroga keltirdi shu yanglig' javob,
Javobmas, tomoqni bo'g'ar zahri nob.

Eshitdi, kunduzi qoraydi shohning,
So'zi og'ir botdi o'shal badxohning.

Jahondor Doro so'ng birinchi navbat
Talab etdi croniylardin madad.

Kelishdi Xorazm, Chin, G'azni, G'uridin.
Tuproq temir bo'ldi tuyuq zarbidin.

1875 Lashkar dema, bir Ko'hi Qof erdi, hay,
Toshu temirlarni ushatmoqqa shay.

Hisobdor sanamoq istadi alhol.
Sanog'iga yetmay aql bo'ldi lol.

Jangchi suvoriysi, chobukrikobi
Etardi to'qqiz yuz mingga hisobi.

Doro ko'rdi, lashkar ul qadar erdi,
Azamat dengizdek mavj urar erdi.

Lashkarin olovdek surdi Rum tomon,
Qayga borsa, boyqush qurdi oshiyon.

1880 Arman tuprohiga ot soldi tikka,
Yo'llarning to'zoni yuksaldi ko'kka.

O'lkadin o'lkaga to aqsoyi Rum,
Yurib, yeru ko'kka soldi talotum.

Otlar tuyog'ining zarbidin ma'vo
Bosildi, yanchildi, qolmadi giyoh.

Agar ergashsaydi Doroga oftob,
Har manzilga yetsa, etardi xarob.

Iskandarning Doroga qarshi qo'shin tortgani Soqiynoma

Ketur, soqiy, ul beg'ubor bodadin,
Ko'ngilga farah bergil ozodadin.

Men ichsam, qatrası ko'nglim etar xush,
Ul yesa, tuproqqa bo'lurman mish...

Pandu hikmat

Na go'zal matohdir ogohlik chunon,
Ogoh insonlardin xolimas jahon.

Boshini ko'tarib boqqanda har bor,
Olamning ishidin bo'lur xabardor.

O'yin deb o'ylamas umr-yo'lni ul,
O'g'ridin qo'riqlar o'ngu so'lni ul.

O'ziga kerakli narsani dono
Kerakmas deb nari otmagay aslo.

1890 Eski deb to'ningni tashlama zinhor,
Oldinda ayozli qish-qahraton bor.

To'nsiz yo'lga chiqdi bir kishi, ajab.
Dovonga yetganda jon berdi muzlab.

Sikandar qissasin etguvchi kitob
Savolimizga berdi andoq javob.

Ki Doro Armanga lashkarin tortdi,
Degilki, u yerda qiyomat qo'pti.

Sikandar bu ishdin edi bexabar,
Qiyomat solardi boshiga magar.

1895 Doro bosqinidin qochib necha el,
Kelardi go'yoki nogahoniy sel.

Doro kirgan edi Shabexun urib,
Lashkari kelardi tunday bostirib.

Josus xabar berdi: "Dushman erur mast,
G'ofildir tunu kun ul, ogoh emas:

Agar Shoh Shabexun ursa nogahon,
Etar ul g'animni yer bilan yakson".

Sikandar kulib unga berdi javob:
“Yashirincha olmas jahonni oftob.

1900 Tun aro o‘g‘ridek dushmani bosib,
Zafar quehmoq emas shohga munosib”.

Keyin boshqa josus ayladi xabar:
“Doroning lashkari ko‘pdir shu qadar.

Uni bir-bir sanab etmoqqa qiyos,
Loziindir necha dono lashkarshunos”.

Sikandar dedi: “Bir pichoqdin hamon
Qiyma-qiyma bo‘lur yuz bitta hayvon”.

Askar savoliga chunon arjmand
Baland javob berdi ul shohi baland.

1905 Xabarlar yoyildi yurtga shu asno,
Rum sari kelur deb yovuz ajdaho.

Sikandar bildiki, qaro bulutdek,
Yov kelur, qalbida alam, kiyna, kek.

Amr etdi elchilar ila Shahriyor,
Lashkarin jo‘natsin Rumga har diyor.

Misrdin, Afranja, yara Rumu Rus
Tarafdin lashkarlar yig‘ilib sonsiz.

Jam bo‘ldi bir qo‘shin buyuk, beaded,
Buyurdi: aniqlang, qanchadir adad.

1910 Hisobdon dediki, ayo Shahriyor,
Uch yuz ming bahodir hujumga tayyor!

Lashkar hozir bo'lgach ul maydon aro,
Maysiz, musiqasiz majlis qurdi shoh.

Oqillar ko'rsatib ayru ishtiyoq,
Sikandar so'ziga soldilar quloq.

Shoh so'z ochib Doroning raftoridin,
So'zladi yaramas kirdikoridin.

Dediki. "Kayoniy o'shal tojdor
Biz bilan urushga aylamish qaror.

1915 Sulhu jang bobida maslahat nadir,
Dushman yaqinlashur, ko'rsating tadbir.

Qindan sug'urmasak qilichimizni,
Mard emas, nomard deb atashar bizni.

Toju taxt tilansam Dorodin magar,
Zulmu bedod uchun boylarmen kamar.

Doroni bu yurtidan qandoq irg'itay,
Kayoniyga nechuk yomonlik etay?

Qo'rqaman, nogahon falak etib kiyn,
Dushmanimni g'olib aylamasmikin?

1920 Nechuk tadbir kerak bizga, rasmu yo'l,
Ki oxir bo'lmagay holimiz mushkul?

Ham yaxshi andisha aylab, ham savob
Deb mening so'zinga beringiz javob".

Jahondiyda keksa donolar hamon,
Iskandarning aytgan so'zin tinglabon,

Javobiga birdek og'iz ochdilar,
Shoh sha'niga xayru duo sohdilar.

Dedilar: "Bor bo'lsin humoyun og'och,
Tanasi baquvvat, shoxi yuz quloch.

1925 Toju taxti ila yashnasin jahon,
Dushmanlari bo'lsin yer bilan yakson!

Hama ra'yi uning to'g'ridir g'oyat.
Bizdin ra'y so'ramoq yana ne hojat?

Vale farmon berding aylab marhama,
Farmoningga bo'yin egarmiz hama.

Bizning ko'nglimizga kelgan fikr shu,
Jahondiyda jonlar kalomidir bu.

Dushmaning kiynadin yondirib dilni,
Zulmu vahshat ila to'ldirdi yo'lni.

1930 Kiyna olovini sen ham yoq baland.
So'ndir otashini otashing bilan.

Sen sarvi balandsan, dushman qari tol,
Tol sarvi balandga yetmog'i mahol.

Bog' tarhini yangidin tuzmoq kerak,
Qartaygan og'ochlarni kesmoq kerak.

Yoshdir, navqirondir qo'lingda davlat,
Kelinchakdek yasat, baxsh ayla ziynat.

Dushmaning bedodgar, zolim, hiylagar,
Raiyatga zulmu taaddiy etar.

1935 Qo'rqish joizmikin o'shandanki, bas,
Uyida dushmani uning kam emas.

Qalam chek uning zulmu bedodiga,
Et bechora, mazlunning faryodiga.

Mamlakat zolindin to'ymishdir shu dam,
Uni ag'darmoqqa dadil bos qadam.

Tandir qizitgali yondir olovni,
Tulporingga urgil otash jilovni.

Qayda qadam qo'ysang, boshimiz unda,
Amringni buzishga jua'at bor kimda?

1940 Kindirki ul amringga barham urar,
Xohishingdin bo'yin tovlab, dam urar?"

Va xulosa qilib aytishdi: "Ey shoh,
Sen birinchi bo'lib qon to'kma aslo.

Doro izzatini o'rninga qo'ygil,
Avval qon to'kishdin o'zingni tiygil".

Bildi, uni to'g'ri yo'lga yo'llashar,
Shuni sarkardalar dag'i qo'llashar.

Bas, ulug'lar aytgan dasturni tutdi,
Hama lashkarini jamuljam etdi.

1945 Gardishi davron ham turarkan chorlab,
Tolci yulduzi yonarkan porlab.

Kun keldi, bo'lgum deb maydonda ustun,
Buyurdi, o'midan qo'zg'oldi qo'shin.

Ot jilovin siltab, yo'lga tushdi shoh,
Qarshisida qattol yov edi, badxoh.

O'zi sheru ilkida shamshir emas,
Dunyoning fathiga kalit erdi, bas.

Sipohi aridek nishtarli edi.
Unga muqovimat xatarli edi.

1950 Boshida suzardi dirafshi porloq,
Faridundan qolgan edi u bayroq.

O'shal bayroq bo'lganda ko'k ustuni,
Falak quvvatlardi uning do'stini.

Go'zal ersa-da kovayoniy dirafsh,⁶⁵
Berdi anga ipakdin zebi bunafsh.

Ellik quloch yog'ochda erdi o'shal,
Har qulochi orasta erdi, go'zal.

Eng ustida harir bir ajdahokim.
Ko'rganlarga qo'rquv solardi, vahim.

1955 Ajdaho boshida bir mudhish kuloh,
Tog' boshida qora bulutdek go'yo.

Necha farsanglardin ko'zga tashlanur.
Qora burgut edi, qanotlari nur.

Qo'zg'oldi ajdaho singari lashkar,
Boshida podshohi ajdahopaykar.

⁶⁵ Kovayoniy dirafsh – temirchi Kova ko'targan bayroq.

Jahon tag'in qayg'uga botdi butun,
Ne uchun deng? Bir hovuch tuproq uchun.

Cheksizdir dunyoning hiylayu pandi,
Bo'rini bir zumda aylagay bandi.

1960 Jahon bir yemishdir sufrada magar,
Unda goh halvodir, goh xuni jigar.

Falak balanddayu yer pastda andoq,
U bir tos qon esa, bu bir tos tuproq.

Har ikki tostda ham ko'rinar ayon,
Siyovush xunidin bitilgan doston.

Zamin berar ekan har lahza hosil,
Qonlarga bo'yaydi tuproqni butkul.

U tosga bandaning faryodi yetmas,
Yo'l bog'liq, kimsaning imdodi yetmas.

1965 Baski, shundoq ekan, jahd aylama ko'p,
Ko'mak istaganlar jim turgani xo'p.

Yaxshidir jimlikka qaror etganing,
Xomushlikni o'zingga yor etganing...

Doroning Eron ulug'lari bilan kengashgani **Soqiyнома**

Ketur, soqiy, maying otashi ila
Boshimni shu'ladin munavvar ayla.

Mayingdin majlisda ko'ngil xush bo'lur,
Boshimda shamch kabi bir otash bo'lur.

Pandu hikmat

Xiradmand yaxshilikdin kutmas samar,
Samar unga lutfi Xudodin kelar.

1970 Kishiki bu mulk ila xursand emas,
Donolar nazdida xiradmand emas.

Xirad – yaxshi qo'shni, yaxshimas albat,
Senga qo'shni bo'lsa magar bexirad.

Bexiradlar ko'yida dam urmagil,
Xirad dostonini ozroq so'ylagil.

Gar kishi bu ko'yda uy obod qilur,
Dehqonchilikdin o'zni ozod qilur.

Bo'yindan soqit qil bu yukni sen-da,
Kimsadin qo'rquving bo'lmagay unda.

1975 Dengizdek o'zingdin sarmoya ko'zla,
Manfaating har ne boringdin izla.

O'lguncha o'zingni mehmon etib, boq,
Daraxt bo'l, o'zingdin novda yoz, yaproq.

Pilla qurt o'zgalar molidin o'sdi.
Bormoqdek yetishdi, yeganin qusdi.

Doston

Ul kekxa mo'badkim rivoyat qilar.
Xiradmandlarga chun hikoyat qilar.

Ki Rum shohi chiqdi dadil, basavlat,
Qo'lida qiluchi izmida davlat.

1980 Xabar tarqadi jumla borliq aro:
Kelur Rum tarafdin buyuk ajdaho.

Kelur Doro joniga qasd aylabon,
Bayrog'in bulutga payvast aylabon.

Bu xabardin jahonda navro'z edi,
Chunki Doro zolim, jahonso'z edi.

Elu yurt Doroning cheksiz, bardavom
Sitamkorligidin to'y mishdi tamom.

Doroni sarzanish aylamishdilar,
Sikandarga mehr boylamishdilar.

1985 Xullas, shu xabar Doroga yetishdi:
Sikandar daryosi qirg'oqdin oshdi.

Ko'pni ko'rgan dono keksalar bilan
Tuzdi u pinhon kengash, anjuman.

Ish ko'rganlar bilan shu majlis aro
Izladi bo'lajak janglarga chora.

Ne yo'sin dushmanga berolgay shikast?
Ne yo'sin yurolgay unga qasdma-qasd?

Nechuk sehru amal kerak aylashi,
Toki chappa ketsin Sikandar ishi?

1990 Jangidin xabarlar yetishgan edi,
Gurrosidin qo'rquvga tushgan edi.

Bir kimsa choradin ochmadi og'iz,
Kimsa hamdard bo'lib aytmadi bir so'z.

Chunki bilishardi, sarkash erdi ul,
Yoqib, yondiruvchi otash erdi ul.

Maslahat berganni ko'rmas edi xush,
Shuning-chun bosh egib, turdilar xomush.

Majlis ahli aro Zanga-Shovaron
Yurtidin bor edi asl pahlavon.

1995 Nomi Fariburzu tog' edi tarzi,
Tani temir, uzun qo'llari gurzi.

Doroga har qadamda hamroh edi,
Ishning ravishidin ul ogoh edi.

Sanolar aytib dedi: "Shavkatli Shoh,
Sendin obod bo'lsin ushbu bazmgoh!

Shu olamni to'ldirsin noming sening,
Dunyoni tebratsin oroming sening!

Bir zamon nasllar baxtini o'ylab,
Bobom so'ylamishdi nasihat aylab.

2000 Kayxusrav g'or ichra tutganda qaror,
Xabar bermishdi jomi gavharnigor:

Yaqin bir zamonda zavol bo'lgusi,
Past tushar davlatning tole yulduzi.

Rumdin qaysar kelur, ilkida yalov,
Har otashkadaga o't urar, olov.

Eron mulkini ul egallar tayin,
Kayoniy taxtiga o'ltirar keyin.

Jahonni zabt etib, bir yerda turmas,
O'zi ham oqibat bo'lgusi abas...

2005 Kelmish rumiynajoddin andoq xabar,
lloyo, Iskandar bo'lmasin o'shal!

Shohim muzga yozgil uning nomini,
Topmasin bu tuproqda oromini.

Etmasin davlatga ziyon, zaxmu ranj,
Muflis jon berarmish istab koni ganj.

Bir hiyla tuzgilki, itoat etsin,
Tanho Rum mulkiga qanoat etsin.

Hiyla yo'lin tutmoq g'azabdin afzal,
Suv sepganing, Shohim, olovdin afzal.

2010 Bilak quvvatingga ishonmagil ko'p,
Vazni to'g'ri tort tarozu tutib.

Urma o't, olovdin kelur qahru kiyn,
Sikohan temimi tozalar zangdin.⁶⁶

Sherlik haybatini gar yo'qotsa sher,
Bir ot uning boshin egib, etar yer.

Jahonni nomus-la tutmoq yaxshi ul,
Obro'-e'tiboringni yuksaltirur.

⁶⁶ Sikohan – sirka va temir zarralaridan tayyorlanadigan bo'yoq.

Unga o'zni barobar etma aslo,
O'zni baland tutsin, buyukdir Doro!

2015 Zar o'zni arpaga teng tutsa agar,
Arpani tilloga barobar aylar.

Necha sheri darrandayi g'azabok
Bir tikan zaxmidin bo'lurlar halok.

Chayon bilan o'chakishni ko'rma ep,
Bepisand boqmagil unga kichik deb.

Nayzador pashshani dema mitti, go'l,
Namrudga demishdi: "Menga taslim bo'!"

Jahon istar esang, bordir bitta shart.
Kurashda mard bo'lgin, bo'lmagil nomard.

2020 To'q odam och ila yeganda kabob,
Teng yesa, yegani joniga azob.

O'rtada bitta to'n talash bo'lsa gar,
Ayolu farzand ham to'ningni yirtar.

To'ning farzandingga kelarkan loyiq,
Etar, undan mehr ko'zlama ortiq.

Bir giyoh qaddini ko'tarsa baland,
Undan ziyon ko'rgaydir sarvi chaman.

Buyuklar pandini esla erta-kech,
Ularning so'zidin bo'yin Burma hech.

2025 Dunyo tajribasin kasb etib kushod,
Donishmandlar pandin aylagaysen yod.

Kishi nasihatni jo etsa dilga,
Chora kalitini kiritgay qo'lga".

Donishmand pandu hikmatin tinglabon,
Doro sarosimaga tushdi hamon.

Valekin adolatga yo'l bermadi,
Xudpisandlik o'tini so'ndirmadi.

Qayta boshdin yondi g'azab ichra ul.
Ilondek to'lg'ondi g'azab ichra ul.

2030 Payvasta qoshlarin chimirib Chindan,
Ko'zlari olayib qahr ila kiyndan,

Ajdaho tusiga kirdi ul shu tob,
Nazariga tosh ham berolmasdi tob.

So'ng baqirdi: "Bizni kim deb o'ylading?
Uning qiliChini pisand aylading!

Nazaringda mardi maydon erur Rum,
Olov tog' yo'lini to'sar qaysi mum?

Shamolga somondin lof urarmisan?
Po'latni yog'ochdin qo'rqitarmisan?

2035 Burgutlar kakliklar ila etsa jang,
Andin sor loChinning bo'lur holi tang.

Uni deb men kamar boylarmidim hech?
Lashkarim kamarbastadir erta-kech.

Menga qo'rslik aylasa nodon o'shal,
Sher bilan o'ynashgan qulonga o'xshar.

Boshi shum uyqudin uyg'ongan zamon,
Ko'rarki, tanasin yemish arslon.

Qush tuxmi gohida bo'lsa hamki tosh,
Bolg'aning zarbiga berolmagay dosh.

2040 Kim o'ylabti, hali go'dak narsa ul,
Buyuklarga bundoq qo'pollik qilur?

Ilk qadahdin g'uborni oshkor etar,
Meni g'olib, o'zni sharmsor etar.

Loyiqdirmi pastlik yo'lini tutsam,
Zabunlar oldida zabunlik etsam?

Tanini g'arq etsa hamki zahri mor,
Nahang qurbaqaga yalinmas zinhor.

Kishi ko'rganmi hech, zo'r berib qachon
Kemani dengizdin chiqarmish yunon?

2045 Quyosh taxtini ters burmoqchi bo'lur,
Jamshidning joyini tamanno qilur.

Ki ul Eron ustiga tortib alam,
Kayxusrav taxtin istaru jomi Jam!

Lozimdir Kayonga etish andisha,
Qadamini bilib bossa hamisha.

It emas u hali, tulkidir, kuchuk,
Arslonga ziyon aylagay nechuk?

Arslon sarqiti tulkiga davo,
Er kulmas, ko'z yoshi to'kmasa havo.

2050 Yo'qsil ko'rsatarmu o'zni boy etib,
Oqsoq kishi yo'lda yugurgay netib?

Bilarsen, menda chun shavkatu shukuh,
Bir rumlik boladan joizmi qo'rquv?

Mast qullarim ilkiga bergum uni,
Tayoq ila boshiga urgum uni.

Arslon kuchukdan hayiqsa, beshak,
Keyin jittak otar o'shanga eshak.

Burgut bir pashshadin qochsa agarda,
Yiqilgani shudir, turmasin qayta.

2055 Yo'lbars qo'r qar esa tulkidin, hamon
Boshini majaqla, bermagil omon.

Ertaga ko'rarsen rumlik loshini,
Oyoqlar ostiga otgum boshini.

Bu o'shandoq boshning jazosi bo'lar,
Ki o'zni Doroga etmish barobar.

Kayoniylar mulku davlati menda,
Boshimda tojim bor, kamariim belda.

Kim ul jur'at etib, rost aylab yo'lin,
Bobolarim yurtiga cho'zgay qo'lin?

2060 Kayoniy kulohi kayonga sazo,
Qachon ul rumiyga ko'rilmish ravo?

Men Baxmanu Kayning nasliman tayin,
U qo'r qoq rumiydin nechun qo'r qayin?

Bobomdir ul bahodir Isfandiyor,
Uning oltin taxti menga yodgor.

Yo'lidin qaytmasa, burmasa izin,
Qaro tun etarmen yorug' kunduzin.

Kemasin suvinga tushirsa magar,
Boshini poyimda ko'rar muqarrar.

2065 Dengizdek javobim achchiq etarmen,
Tuproqdin uzarmen, suvga otarmen.

Bulutdek boshiga yog'dirarmen do'l,
Ki quyoshga ortiq cho'zolmagay qo'l.

Qishloqi ko'nglida gar qahru kindir,
Mo'miyoni qo'ygil, belini sindir.

Eshakka egarmas, bosilar to'qim,
Egasi yukini tashishga mahkum.

O'shal o'ljani etgandim sarbaland,
O'zim solgum yana bo'yniga kamand.

2070 Ey qari, miyasi aynigan o'sal,
Podshoga nasihat etishdan uyal!

So'z ingni o'ylamay aytmog'ing nadir?
Tog' boshiga kamand otmog'ing nadir?

Sahroyi azimda sham yoqmog'ing ne?
Falakka podsholik o'rgatmog'ing ne?

Haddingni bil qadam bosishdin burun,
Ki har gavharga bor munosib o'rin.

To'ning uzun ersa taningga magar,
Demak, o'g'irlanmish matohdir o'shal.

2075 Qarilik fitrati chalg'itmish seni,
Aqlingni sovurmish, aynitmish seni.

Keksayib bo'lganda qomati duto,
Kishiga nayzamas, kerakdir aso.

Qariganda holing parishon bo'lur,
Unutmoqlik, faromushkorlik kelur.

Qariga ikki narsadir zebu noz,
Biri mozor esa, birisi namoz.

Jahonni jangovar yigitlarga qo'y,
Qariding, bas endi, chetga chiq, boboy!

2080 Tani notavonni qo'yma tashvishga,
Singan qurol ortiq yaramas ishga.

Jangda yov holini yigit etar tang,
Keksa sulh so'raydi qiziganda jang.

Gar bevaqt qichqirsa xo'roz, nogahon,
Boshini tanidan uzarlar hamon.

Tilni tiya bilsang, boshing omondir,
Tiyiq tildan tomoqqa ne ziyondir?

2085 Tilsiz bosh qonlarga bo'yalsa ham gar,
Boshsiz tildan o'sha ming bora afzal.

Tilingga ehtiyot bo'lgin doimo,
Dam urma fursati yetmaguncha to.

Dam urmay, tiyilsa tiling, yaxshidir,
Baxtingga garovdir, umr naqshidir.

Rost deb nom qozonmish tarozu tili,
Ul sabab hech qachon bukilmas beli.

Milidan ozgincha og'ar bo'lsa ul,
Tebranib ikki yoq sarnigun bo'lur.

2090 Shunday so'zlar borki, aytilmasa, xub,
Boshqa so'zlar ila aytilsa, mahbub.

Magar qattiq-qattiq aytilsa u, bas,
Ta'siri kam bo'lur, quloqqa kirmas.

Podshoga yuzlanib, so'z aytganing chog',
Avval o'ylab, keyin so'ylagil yumshoq".

Achchig'lanib aytdi shu so'zlarni shoh,
Pushaymon bo'ldi ul keksa, uzrxoh.

Ortiq xatarlidir podshoning ishi,
Do'sti jon bo'lolmas unga bir kishi.

2095 Qahr olovida qalbi yongan dam,
U shafqat aylamas farzandiga ham.

Hamonoki shoh misli otash erur,
Otashga yiroqdin boqish xush erur.

Nasihati podshoga joiz, o'rinli,
Gar kibrdin yiroq tutsa ko'ngilni.

Nasihati aylamak shohga ko'p mahal
Sho'rxok yerga urug' sochganga o'xshar...

Chu ogoh bo'ldi ul nasihatguzar,
Pandidin g'azabga kelmish Shahriyor.

2100 Bir o'zgacha suxan bunyod ayladi,
Shirin so'zlar ila shohni alqadi.

Dedi: "Doroyi oshkoro o'zing,
Muxolif kim emishki, Doro o'zing!

Kim emish Sikandarki, tortib sipoh
Jahondor boshidin ololsin kuloh?

Kulohingni tikmish samo, ey aziz,
Charog'ingni yoqmish falakda yulduz.

Tog' ila kurashga tusharkan kesak,
Toshga urilganda sochilur qumdak.

2105 Qovoq intilmasin necha, befoyda,
Pastdadir, Chinorga yetishmoq qayda?

Har safart miriqib suvga qonarkan,
Tushar yerga, bo'ynida chilvir bilan.

U ham yetmoq bo'lib samo qo'yniga,
Giyohlardin ip boylamish bo'yniga.

Ipi giyohdandir, chiriydi oson,
Chelagi quduqqa qular ul zamon.

Quyosh mash'alidin yorishganda bog',
Xuddi parvonadek jon berar charog'.

2110 Cho'loq tulki maydon surib jang aro,
Yo'lbars qarshisiga chiqarmi aslo?

Shohim, qoshing tugun etib chatmagin,
Kamonga yarashar andoq bir tugun.

Oshiqmay, olam ishini ayla hal,
Oshiqmoqlik bergay ishingga xalal.

Charog'da o't-olov bo'lmasa agar,
Ne o'zni, na parvonani yondirar.

Olovli tandirga tushmasa xamir,
Og'izga qaydanam yo'l topa olur?

2115 Har eshik kaliti sabr har qachon,
Sabrli insonlar bo'lmas pushaymon.

Shatranjda donani ters qurnoq nechun?
Otni fil ustiga yugurtmoq nechun?

Sozanda ilkida singay necha soz,
Toki ul yetishib bo'lguncha ustoz.

Shohim, qiyosingni nechuk anglatay,
Shuhratingni kimga barobar etay?"

Doro ta'rifida keksa pahlavon
Yana necha doston ayladi bayon.

2120 Doro bu so'zlarni eshitarkan, lek
Yumshamadi qalbida ul kiyna, kek.

G'azabin o't oldirgali qistadi,
Qahrini nomiga to'kmoq istadi.

Chaqirdi, devondin kelsin deb dabir,
Keltirsin o'zi-la mushk ila harir.

Etib keldi kotib-dabir shu zahot
Va Doro buyurganlarin yozdi bot.

Ravon etib kilki shabah rangni ul,
Qoyil qildi Moniyu Arjangni ul.⁶⁷

Shohona ul nomani olgach hamon,
Elchi Sikandar sari bo'ldi ravon.

Nomani topshirib, ko'nglin xushladi,
Kotib uni o'qimoqqa boshladi...

Doroning Iskandarga maktubi

2130 "Buyuk Ezid nomi-la, ul dodbaxsh
Har ilmdin bizga ulush etdi baxsh.

O'zi rizq berguvchi, madadkor yana,
Uning eshigiga bosh urar hamma.

Yulduzlarni ko'kda tobon aylamish.
Bir hovuch tuproqni inson aylamish.

Tavonoyu donoyu sohib karam,
Gunohlarni tag'in kechirguvchi ham.

Ruhga har daqiqa berguvchi rag'bat,
Aqlga har lahza berguvchi qudrat.

2135 Birovni tang holga solgay chunoni,
Gado xaltasida ko'tmagay nonni.

⁶⁷ Moniy- buyuk rassom. "Arjang" uning mashhur asari.

Birovga baxsh etar tog'dek molu ganj,
Sanab hisobiga yetolmaydi hech.

Ul gunoh aylamas, vale ranj topar,
Bu sa'y etnasa-da, koni ganj topar.

Har neki istagaydir, ijro qilur,
Yaratmak, o'ldirmak unga bir erur.

Bo'yin toblab bo'lmas hukmidin zinhor,
Andoq bir hukmron yana qayda bor?

2140 Xudoning salomi bo'lsin bandaga,
Ki madadkor bo'lur har afkandaga.⁶⁸

Ne foyda andinki, ul haqnoshunos
Etar ofarinni nafringa qiyos?

O'shal joydakim g'anim xunlik erur,
Tavozu aylamak zabunlik erur.

Ne xush demish bir donishmandi aziz:
Ojizlar oldida turmagil ojiz...

Ey sen bola, hali g'o'ru xomroy,
Arslonga panja urma o'ylamay.

2145 Men bilan olishganda kim yor senga?
Qayda ul sipohu sipohdor senga?

Chayonsan, ehtimol ilonsan kichik,
Ajdaho ila jang qilursan nechuk?

⁶⁸ Afkanda – yiqilgan. ojiz

Ilonlikni o'zingga ko'rsang ravo,
Boshingda qilichim bo'lur ajdaho.

Ta'ziringni andoq berurmen, ajab.
Yo o'lursen, yo qocharsen tirqirab.

Ont icharmen porloq "Asto" vu "Zind"ga,
Munavvar quyoshga, charxi balandga.

2150 Yazdongakim, Ahriman dushman erur,
Zardushtgakim, xasmi Ahriman erur.

Ki Rumu rumiydin qoldirmam nishon,
Ikkisiga bo'lurmen otashfishon.⁶⁹

Rum ahli sarosar kiysalar temir,
Otashgohimizda u mumdek bo'lur!

Rumiylarning payxon etib lashkarin.
Tuyoqlar ostiga otgun kishvarin.

Xarvor-xarvor bo'lsa hamki aslahang,
Terak yaprog'idek holing bo'lur tang.

2155 Ne ermish tiri turkonim, bilirsen,
Bilursen, bas, nechun g'avg'o qilursen?

Xo'bdir boshing olguncha Doro bugun,
Doro bilan etsang madoro bugun.

O'qingni yerga ot, kamonni sindir,
Harir kiy ustingga, sovut kiymagil.

⁶⁹Otashfishon – olov yondiruvchi.

Yo'qsa, qulog'ingdin cho'zarmen chunon,
Boringdin qolmagay bir nomu nishon.

Qahrimdin hazar qil, itob aylama,
Uyquni quyon deb meni o'ylama.

2160 Quyon uyquda deb o'ylama zinhor,
Bir sakrab, o'q kabi uchishi ham bor.

Istasam, sen bilan raftor etardim,
Ammo, ne qilayki, g'azabga mindim.

Masal bordir, zalolatga botsa shoh,
Anga taxt uzramas, maskan bo'lur choh.

Hiroj bergil, ot ko'ngildin kiynani,
Qalam chizma, tut rasmu oyinani.

Har yili bir po'stin tikmak ne darkor?
Eshak arqon ila sotilur bir bor.

2165 Eski xonadonga solmagil raxna,
Yo'qsa, raxna bo'lur boshingda har na..

G'azabim qo'zg'atma so'lu sog'iga,
Pashsha qanotisan fil oyog'iga.

Xudo bergan yurtga xursand bo'lib boq.
Arslonlar bilan talashma mundoq.

Bir qarg'a kaklikdek yurgani zamon,
Qarg'adek yurishni unutmish hamon.

Anjuman tuz, yod et o'shal kengashda,
Osmon eshigini ochmish farishta.

2170 Gumonim bor Kayxusravning tojidin,
Bilmadim, kim olur kimning boshidin.

Zamona kinga xush boqarkan keyin,
Yulduz kimning joni-la etgay o'yin?

Tuproq olib, sochsang osmonga agar,
Ko'zingga ziyondir, boshingga zarar.

Men – boshman, boshqalar qo'l-oyoqdir, bas,
Kishi o'z boshiga bergaymu shikast?

Shapaloq urarsen qulog'ingga sen,
Boltani choparsen oyog'ingga sen.

2175 Gar yoshlik g'ururin ko'ngling suygusi,
Qilichim bo'yiningni qashib qo'ygusi.

Ishq, sen egmagum yolg'iz, yagona,
Necha gardanlarni sindirgum yana.

Munosibdir menga shu mulki Ajam,
Shu taxti Qovusu shu iqlili Jam.

Qattqlikda temir misliman o'zim,
Pahlavon shohlarning nasliman o'zim.

Yomg'irdan hech qachon qocharmi qashqir,
Magar po'stin kiyib, kiymasa harir.

2180 Baxtiyordin baxti tortib olinmas,
Tag'in toju taxt ham sotib olinmas.

Isfandiyor jahondin raxtni surdi,
Nasabnomani ul Bahmanga berdi.

Bahman ila bitdi uning shohligi,
Menga o'tdi jahonning podsholigi.

Maydon aro bugun menga bo'ldi yor,
Dili Bahman, qudrati Isfandiyor.

Bahmandan o'tdi ustuvorlik menga,
Jasoratda isfandiyorlik menga.

2185 Men ustunman bugun, o'zgalar ostin,
Kayonlar nasliga kim kelar ustun?

G'alatdir men sari boqib ko'rganing,
Bahman bilagini sinab ko'rmading.

Sohibi mulkdirman, kishvaru diyor,
Sohibingga bo'lma osiy, gunohkor.

Tavba qil mustajob bo'lguvchi joyda,
So'nggi pushaymondin kelmagay foyda.

Yoshlik qilma, garchi botirsan, dadil,
Yanglish yurib, yo'lbarsga yem bo'lmagil.

2190 Qo'pollikni qo'ygil, yumshoqlik-la tur,
Joyindin qo'zg'otma, joyingda o'ltir.

Yurtingni buzarmen qahrim qo'zg'asang,
Beramen o'zga bir o'lka, istasang.

Agarchi tog' kabi sokinman hamon,
Harakatga tushsam, bermasman omon.

Meni qo'zg'atmagil, tebranar zamin,
Shuni dedim, shuni degayman tag'in.

O'qildi chun ul nomayi Shahriyor,
Ayon bo'ldi Dorodin azmu qaror.

2195 Sikandar buyurdi: boringiz shitob,
Bundan-da keskinroq yozilsin javob!

Dabiri qalamkash qalamni oldi,
Ganji gavharini nomaga soldi.

Javob yozdi andoq ajab, dilpisand,
O'pdi ilkini ul sipehri baland.

Tayyor bo'lgach ul nomayi dilnavoz,
Sikandar amr etdi: elt, ayla parvoz!

Dabir bordiyu ul maktubni ochdi,
Har nuqtadin ma'no gavharin sochdi.

2200 O'qidi boshdin to oxirga qadar,
Har so'zi so'z emas, dur edi magar.

Doroning maktubiga Iskandarning javobi

"Noma boshi nomi jahondori pok,
Uning san'atidin gulshan erur xok.

Osmonni shunchalar ko'tarmish baland,
Ko'zlarni aylamish ko'rguvchi, ravshan.

Jahonni yaratib, andin beniyoz,
Bechoralik ayyomida chorasoz.

Zaminga insonni ayladi zavar,
Osmonning beliga boyladi kamar.

2205 Suvning shamshiriga yer bo'ldi g'ilof,
Yarqiratdi chun chashmayi oftob.

Xudovanddir, yo`qdir unda bandalik,
Na keksalik va na parokandalik.

Birdir va hech birga o`xshamaydi ul,
Jumla borliq mulkidin andak erur.

Qaviy erur, qudratlidir hujjati,
Hech kimsaga tushmas uning hojati.

Sizu bizga avval kerakdir moya,
Uning birla yaratgaymiz bir nima.

2210 Yaratgani asbob-la ermas mudom,
Anglamoqqa aql o'jizdir tamom.

Aqlu xirad tolibi ta'lim anga,
Ko'ngil dog' ichradir va taslim anga.

Hukmu hikmatiga to'lmishdir jahon,
Hukmi oshkoro, hikmati nihon.

Qanotli malaklar madhin aytishar,
Undan kelib, yana unga qaytishar.

Anglamishdir dilu diydani ravshan,
Senu menga podsholik o'shandan.

2215 Farmoniga hama hoziru nozir,
Ul Xudodir, biz bandi, farmonpazir.

Magar shu jahonga bo'lsam tojdor,
Ajab yo'q, ul atoyi Parvardigor.

Sen ham, ey jahondori piruzhaxt,
Onangdin qolmishmi magar toju taxt?

Xudo lutfin darig' tutmadi sendin,
Xudo berganiga boqma balanddin.

Xudoga shukur qil, bo'lma noshukur,
Noshukurni sevmaslar ahli shuur.

2220 Kishi hushyor erur, behushdir yoxud,
Uning farmonini etmasin unut.

Xudovand gar menga madadkor erur,
Ajab yo'qki, jahondorlik ham berur.

Ajab yo'qki, baland cho'zsam bo'yin,
Shamshir tutib, sher ila etsam o'yin.

Tig' ila toju taxt olmoq istaram,
Men ajdahoga oy bo'lmoq istaram.

Jamshid tarixini o'qigil, ayo,
To'lin oyni yutgan edi ajdaho.

2225 Faridun ul ajdahoni nayladi?
Ajdaho kuchi-la mag'lub ayladi.

Shu osmonu zamin Rabbiga qasam,
Andin quvvat olur osmon, zamin ham.

Xudodir ul, kim andin ogoh emas,
Anga aqlu xirad sari roh emas.

Ont icharman ajdodlarim rohiga,
Dinimizning payg'ambari pokiga,

Suhufi haqshunos Ibrohimga ul,⁷⁰
Uning dini uchun Yazdonga shukur!

2230 Gar eroniylarni mag'lub etolsam,
Zardushtiy dinini mardud etarman.

Na otash qoldirgum, na otashkada,
Otash bo'lur dastundin otashzada.

Bo'yla rasmi pokizavu rohi rost
Bizning yo'limizdir bobolarga xos.

Bu mushk uzra xashak tashlamak yomon.
Ki mushk uforin ul aylagay nihon.

Xurmo og'ochiga otguvchi kamand,
Uning mevasidin bo'lur bahramand.

2235 Gul bo'ston sahnida bo'y cho'zsa magar,
Rangu atri ila dilni yashnatar.

Boshini to'dada tik tutar qulon,
Gar unda bo'lsa kuch, ersa navqiron.

Sherlar aro base xunrez bo'lur sher,
Tishi o'tkir esa, panjasi keskir.

Bir iarol ustida ikki arslon
Talashsa, kabobin yegay zo'ravon.

Ikki fil soladi bir-birga xartum,
Jangda g'olib chiqar kuchli bo'lsa kim.

⁷⁰ Ibrohim alayhissalom sahifalari

2240 Sen mardu men mardman, maydonda albat,
Mardlik ila ayon bo'lur mardi mard.

Bu yo'lda men yozdim andoq bir quloch.
Yo boshim berarmen, yo olurmen toj.

Sendin bo'lak kimsa yo'qmidir, ey shoh,
Dunyoda jahondor senmisan tanho?!

Har yaproq ostida yotguvchisi bor,
Har manzil soriga ketguvchisi bor.

Mendek ilon ila o'ynashgum dema,
Jang aylagil, nayrangbozlik aylama.

2245 Ulushimni bergaymisan o'lkamdin?
Suhayl barotin berma yamandin.

Dalama suvidin ichirma qo'yga,
Necha qatra qoni qo'shilgan unga.

Lofu qof urmoqni ortiq ayla bas,
Tuproqdin yaralding, otashdin emas.

Kiyina, adovatni tark et, o'yla bir,
Qalayi olmosni yemirar oxir.

Bir shisha maying bor qo'lingda, oshna,
Hazir bo'l, shishani tushirma toshga.

2250 Ogoh bo'l, naft ila to'liqdir jahon,⁷¹
Chinoring yoqmasin olovli to'fon.

⁷¹ Naft – neft.

Osuda aysh etgil aylab dil xushi,
Jahonjo'yning juz'iyatga ne ishi?

Birov bir yo'qsilga to'hfa etmish bog',
U bog'din bir meva kelmamish biroq.

Mendin zaifroq bir o'lja saydin et,
Arslon oldidin chiqmas laqqa et.

Bir daraxt shoxiga chiqmog'ing nadan,
Meva terolmasang o'shal novdadan?

2255 Podsho orzusiga yetar ayniqsa,
Gar daryo ustiga ko'prik qurolsa.

Senga joizmidir kibru havu ul,
Behuda orzuga boylama ko'ngil!

G'uriri Bahmanni yedi, ko'r ani,
Bu qo'rqinch ajdaho yamlagay seni.

Shayton urib, ne bo'ldi Isfandiyor?
Maydonda Rustamga bo'lursen duchor.

Devlar ila do'st tutinsa Sulaymon,
Qo'lidin uzugi ketardi hamon.

2260 G'alatkorlik etma jahonda zinhor,
Bizdeklar javringni chekdilar bisyor.

O'zingga baland deb nazar tashlading,
Bu qaltis o'yinni g'alat boshlading.

Tark ayla behuda tamannonikim,
Simurg'ni domiga tushirolgay kim?

Zanjiymassan, vale undan-da xorsan,
Barbarmas, undan-da mardumozorsan.

Ko'rgil, men qanchalar qilichim chekdim,
Zanjiy va barbarning qonini to'kdim.

2265 Murosa qil. qon to'kishga etma ahd,
Ozor bermas mardumga ozodnard.

Men ilk boylamadim kurashga kamar,
Ilon boshingni sen ko'rsatding avval.

Qonimni to'kishga lashkar to'plabon,
Shabexun urib so'ng yurding men tomon.

Yuragimga chovut solmoqchidirsən,
Bobolarim yurtin olmoqchidirsən.

Shul sabab menga ham joizdir beshak,
Kamar boylamagu qo'shin jamlamak.

2270 So'ng kechib yo'lda ne son daryosini,
Shamshir-la oqizmak qon daryosini.

Gar sen hushyor esang, men ham hushga yor,
Menda ham farosat, aqlu xirad bor.

Baxting gar yo'lingga sochgan esa nur,
Men ham o'z yo'limda baxtliman, masrur.

Jahon gar ilkingga bergan esa ish,
Mening ham ilkimda o'shandoq yumush.

Sen toj ila, men tig'-la turguvchiman,
Sen tojdor, men shamshir urguvchiman.

2275 Dema, toju taxtim abad qolgusi,
Taxt oldida bir tobut ham bo'lgusi.

Tog' abadiy tosh bo'lib qolgay dema,
Toshlarga kim shikast berolgay dema.

Erga larza solsa zilzila bir kun,
Sochilur u tog'lar gard bo'lib, kukun.

Etsa mulk davroni oxirgi kunga,
Izlaganning qo'li yetadi unga.

O'rtada "men"u "sen" turgan zamoni,
Nechun o'rtanmasin jahonning joni?

2280 Menligu senlik gar adosh bo'lmagay,
Bir tarozuda ikki tosh bo'lmagay.

Meni o'z toshingda tortmagil hamon,
Ajdahodin Bahmanga yetmish ziyon.

Tosh ila daryodin gapirsang menga,
Uloqtirgum tog'dek toshimni suvga.

Sovut kiygum, gar jangga hozir esang,
Kamar boylagum, sulhga moyil esang.

Ayon ayla ne savdoying bo'lsa ul,
Urushmi, yarashmi, etgaymen qabul.

2285 Keltir ne istasang, shamshir yoki jom,
Menda ham ikkisi hozirdir mudom".

Jahondor nomani tinglagan oni,
G'azabi tutashdi, qaynadi qoni.

Amr aylab maydonda safladi lashkar,
Sikandar dag'i qo'shin chekdi jadal.

Muhoraba rasmini rost ayladi,
Askarini harbu zarbga shayladi.

Doro angladiki, o'shal ajdaho
Arslonni pisand etmas mutlaqo.

2290 Qalqidi oyoqqa salobat ila,
Tog'lar zamiriga tushdi zilzila.

Lashkarlar maydonda kelib tikma-tik,
Zamon ochdi yana kiynaga eshik.

U bir jazira yerki, Mavsil edi,
Xush oromgoh edi, xush manzil edi.

Shu joyga ikki shoh yetib, savashdi,
Dahshatidin tog'lar titroqqa tushdi.

Janglar kechdi unga ayovsiz, hamon
Sochilib yotibti qancha ustuxon...

Doroning Iskandar bilan jangi Soqiynoma

2295 Ketur, soqiy, och menga mayko'zani,
Quy damba-dam, bekitma hech og'zini.

Xarob ayla tutib menga jomi xos,
Jonimni xarobotdin etgil xalos...

Pandu hikmat

Lojuvard osmon charx urar har dam,
Sayr etib o'tarlar oy ham, quyosh ham.

Buni ermak, o'yin o'ylama sira,
Sarsari bo'lmamish ul saroparda.

Bu pardada bir rishta bekor emas,
Garchi bizga sarrishta oshkor emas.

2300 Kim bilur, ro'y berib holi g'aroyib,
Ertaga kim bo'lur nazardin g'oyib?

Kim ketar bosh olib dala-toshiga,
Iqbol toji qo'nar kimning boshiga?

Doston

Qissalar aytuvchi yaxshi-yomondin,
So'yladi ul shohlar o'tgan zamondin.

Ki sahar yorishib, yetishdi kunga,
Adan kelinchagi yo'l berdi unga.⁷²

Ikki lashkar shunda saf chekib tig'iz,
Ikki Ko'hi Qofdek bo'ldi yuzma-yuz.

2305 Yo'llarga to'kdilar temirdan tikon,
Karnaylar hayqirib boshladi suron.

⁷² Adan kelinchagi – osmon.

Ikki lashkar turdi shunda ro'baro',
Na dilda sukunat, na ko'zda uyqu:

Har ikki yoqda ham erdi ayni chog'
Qo'llar, oyoqlarda qo'rquv, qaltiroq.

Yuzma-yuz turdilar aylamoqqa jang,
Qimirlashga jur'at aylashib arang.

Ehtimol o'rtaga sulh tushar, rohat,
Qilich sug'urmoqqa qolmagay hojat.

2310 Yoshlik, o'jarlikdin edi bu yakkash,
Bir tomon suv esa, bir tomon otash.

Nihoyat kiyn keldi shavqatga g'olib,
Yuraklarda g'azab yondi o't olib.

Qahru g'azab ichra ko'rarkan o'zni,
Mehr izlamoqdin burdilar yuzni.

Kamay, nog'oralar solib guldirak,
O'pdi dovullarning dahonin falak.

Mast fillar shovqini maydonni tutdi,
Oldidan chiqqanni bosdi, yiqitdi.

2315 Shaypurlar o'kirib arslon misol,
Aqlu hushni karaxt aylab bo'yla hol,

Turkiy burg'alar ham solib g'ulg'ula,
Jangga undab lashkarni shiddat ila,

Quyoshning nurida nayzalar yashnab,
Qamchilar zarbidin bedovlar kishnab,

“Yurho-yur!” nidosi bosib har yonni,
“Urho-ur!” suroni tutib maydonni,

Zamin titrar edi, osmon qaltirar,
Isrofil suridan qiyomat magar.

2320 Ko'kka o'rlamishdi to'zon, chang-g'ubor,
Qo'llardin ketmishdi inon-ixtiyor.

Boshu ko'zlarda ham chang edi qalin,
Zamin osmon edi, osmon – zamin.

Maydonda na'ralar ucharkan baland,
Bo'yinlarga tushdi necha bir kamand.

Nafaslardin tutdi havoni bulut,
Qilichlardin tushdi jahon uzra o't.

Tig' zarbidin tuproq qorilib qonga,
Havoning dumog'i to'lmishdi jonga...

2325 Eron sipohdori aylab intizom,
Maydonga lashkarin tizmishdi tamom.

Avval boshlab maymanani sarfladi,⁷³
Qilichlar tig'ini ajdar ayladi.

Keyin maysaraning tartibin berdi,⁷⁴
Tog' derdingiz go'yo, po'latdin erdi.

Ilg'orin oldinda shayladi raso,
Oy ila oftobni to'sardi go'yo.

⁷³ Maymana – qo'shinning o'ng qanoti

⁷⁴ Maysara – qo'shinning so'l qanoti.

Lashkar qalbini ham rostladi chunon,
Panoh izlaganga – po'latdek qo'rg'on.

2330 Ikkinchi tarafdin, sardori Rum ham
Lashkarin aridek chiqardi mumdan.

Qurol-yarog' ila ta'min ayladi,
Qo'shin orqasini mustahkamladi.

O'ngu so'lga dag'i tartib berdi ul,
Bulutdin oroyish topgan kabi gul.

Orqa-oldin etdi tog'dek ustuvor,
Etdi lashkar qalbini misli hisor.

Ikki yoqdin qo'shin saf chekib birday,
Botirlar turdilarharbu zarbga shay.

2335 So'ngra bo'yinlarga qilich tushgan chog'
Jahonning ko'zi bo'ldi nurdin yiroq.

Qonlar oqib, xandak, chuqurlar to'ldi,
Tuproq gugurt kabi olovrang bo'ldi.

Qaytishga shamshirga ravo yo'q edi,
Undan o'zga bir ajdaho yo'q edi.

Nayzalar sanchilib, otilib kamon,
Zamin uzra tinim yo'q edi bir on.

Kamandlar ajdaho erdi shubhasiz,
Jon toroj etgali ochmishdi og'iz.

2340 Mast pillar maydonda o'kirib davom,
Botirlar damini kesmishdi tamom.

Bo'yin kesar edi munchakim olmos,
Bo'yni kesilmagan kimsa erdi oz.

Ota sochar edi o'g'liga g'azab,
O'g'li ham o't sochar, turmasdi qarab.

Bayroq libosini kiymishdi qondin,
Najot chodirini yig'mish jahondin.

Yoylardin ul qadar o'q yog'ardi, o'q,
O'q uzgan qo'llar ham qabarmish ortiq.

2345 Maydonda jang ketar, jangki beayov,
Otlar taqasidin uchardi olov.

Qo'shinning qalbida jahongir Doro
G'azabga to'lmishdi chun sheri qaro.

Butun vujudi-la kirib savashga,
Bahmaniy kuChini solmishdi ishga.

Har yerdakim etsa tig' chekib talosh,
Oyog'i ostiga tushar edi bosh.

Qay g'animga boqsa, bermasdi omon,
Qay boshna tikilsa, uzardi hamon.

2350 O'shal jangda oqib rumiylar qoni,
Tuproqqa qorishdi ming pahlavoni.

Bu yoqdin Iskandar tig' chekib behad.
Jahonga solardi qizil qiyomat.

Har ikki qo'l ila jangga rost edi,
Har birida shamshiri olmos edi.

Ikki qo'llab jangda chekar edi tig',
Qarshisiga dushman chiqmasdi ortiq.

Qarshisiga chiqsa fil ham mabodo,
Shamshiri etardi boshidin judo.

2355 Qahrini daryoga to'kar bo'lsa ul,
Otashidin daryo yonardi butkul.

Og'zidin o't purkab chiqsa arslon,
Kiyiklar tirqirab qochmasmi har yon?

Doroga dedilar: "Ul g'azabli sher
Necha arslonni yiqib, etdi yer.

Shoh g'azab otashin unga qaratsin,
O'sha pahlavonni o'rtadin otsin.

Buyursin lashkaru lashkarboshiga,
Bir yo'la bostirib borsin boshiga".

2360 Doro amr ayladi: "Qo'zg'alib jadal,
Daryo kabi borsin bostirib lashkar.

Iskandar qasdiga o'zni shaylasin,
Hamma Iskandarga hamla aylasin!"

Andoq farmon bo'lgach, o'tmadi bir zum,
Doro askarlari boshladi hujum.

Jilovni bir mo'ljal tomon burdilar,
Ikki qo'lda qilich, bedov surdilar.

Sikandar ko'rarkan yov taloshini,
Uloqtirdi bir chetga bardoshini.

2365 Buyurdi, shu onda Rum lashkari ham
Qo'zg'olsin, yov qasdiga qo'ysin qadam.

Jahd aylab, g'animning yo'lini to'ssin,
Hech omon bermasin, boshini uzsin!

Ikki lashkar chigirtkadek yurdilar,
Jahonda jahonning jangin qurdilar.

Shamshirlar sharaqlab, o'qlar yog'di mo'l,
Chumoli topmadi o'rmalashga yo'l.

Aridek bir-birga nish urdilar, bas,
O'qlarga o'q bilan berdilar shikast.

2370 Sikandar shu qo'rqinch, xatarli onda
Chinordek ustuvor turdi maydonda.

Bir dushman fil tanli, bahaybat, yovuz,
Kelib ahrimandek etdi tajovuz.

Sikandar berdi zarbini shul zamon,
Zarbidin titroqqa tushdi pahlavon.

Shamshir yov ko'ksini pora ayladi,
Ko'ring, sovutga ne chora ayladi.

Engilish bilmagan botir edi Chin,
Zo'rga duch kelganda yedi ta'zirin.

2375 Shohning bir tuniga etolmay ziyon,
Yiqildi boshidin ajrab zo'ravon.

Dushman ko'rib buni qo'rquvga tushdi,
Jonu tani kuyib, g'uluvga tushdi.

Jilovni ortga burmoqni o'yladi,
Shirin jonni asramoqni o'yladi.

Lekin yana baxtdin bo'l ib umidvor,
Ustuvor turishga ayladi qaror.

Folida zafardin nishona ko'rdi,
O'zini raqibdin mardona ko'rdi.

2380 Quvvatini yig'di bilakka, belga,
Kirishti boshqatdan jangu jadalga.

Rumiylar tig' chekib, qon to'kishardi,
Marradin marraga tashlanishardi.

Eroniy jangchilar jang qilib qattiq,
Rumiylar yo'lini to'sdilar ortiq.

Quladi rumiylar qanchadan-qancha,
Ajalg giriftor bo'ldilar necha.

Lekin oyoq tirab maydonda har dam,
Temir tog' singari turdilar mahkam.

2385 Or-nomus tuyg'usiga to'ldilar,
Dushmanga g'animat bermas bo'ldilar.

Zanjij qadaganda tojiga gavhar,
Chin podshosi taxtidin tushdi jadal.⁷⁵

Oy balqib samoda taratdi yog'du,
Yoritdi olamni munavvar ko'zgu.

⁷⁵ Ya'ni quyosh botdi, ko'kda yulduzlar ko'rindi.

Ikki lashkar bir joyda jam bo'ldilar,
Kiynu adovatdin yiroq erdilar.

Keyin oromgohda tutdilar qaror,
Yuvib tandin yaro, yuzlardin g'ubor.

2390 Barchaning boshida bir xayol erdi,
Ertaga ularni ne kutar endi?

Ertasi kun toza turunj ul, quyosh,
Ko'tardi rayhondek bir go'shadin bosh.

Sipoh ikki tarafda saflandilar,
Bahodirlar bedovlarga mindilar.

Ishga tushdi yana shamshiru kamon,
Bilak kuChin base ko'rsatdi osmon.

Askarlar toliqdi, susaydi jangi,
Qo'l jilov yo'qotdi, oyoq uzangi.

2395 Doroga ikki sarkarda erdi xos,
Yo'q erdi ularda Doroga ixlos.

Uning bedodidin to'ymishdi ular,
Necha bir ozorin tuy mishdi ular.

Doroning qonini to'kmoqchi bo'lib,
Yurardilar kiynu alamga to'lib.

Maydonda jang-jadal qizigan zamon
Kelib, Sikandardin so'rdilar omon.

Dedilar: "Doroga yaqinmiz Chindan,
Doroga yaqinroq kishi yo'q bizdan.

2400 Bo'ldi uning jabru zulmidin bezor,
Qonini to'kishga ayladik qaror.

Ertaga muqarrar Doro o'lgusi,
Zolimdin xalqimiz xalos bo'lgusi.

Bir kecha suyangil yana sabrga,
Ertaga dushmaning kirar qabrga.

Bayroq ko'tararkan ertaga tag'in,
Tig'imizdin ichar ajal sharbatin.

Faqat shartimiz bor, xizmatimizga
Yarashiq ganj-bisot berarsan bizga.

2405 Etarsen bizni, ey podshoh, badavlat,
Behisob zar berib, baxsh etib sarvat".

Sikandar ular birla bay boyladi,
Qo'l berdi, Chin ahdu paymon ayladi.

Ammo ishonmadi, ul ikki xoin
Doroni Chindanam o'ldiramikin?

Vale dushmaniga bergali shikast,
Kishi ne chorayu tadbir aylamas.

Ular bedodida adolat ko'rdi,
Esladi, shunday bir maqol bor edi.

2410 Emishki, har yurtning quyoni Chindan
Ovlanur o'sha yurt tozisi bilan!..

Shohini o'ldirmoq bo'lgan kimsalar
Adolatli shohdin topishib xabar,

Necha zaru zavar olmoq uchun naqd,
Zolimning qonini to'kishlikka ahd.

Aylashib, mindilar xiyonat otin,
Unutdilar uning nonu ne'matin.

Chun quyosh yoqutin o'g'ri o'mardi,
Yoqut izlamoqqa jahon yuz burdi.

2415 O'g'ri deb tutdilar to'lin oyni ul,
Sen olding deb quyosh javharidin nur.

Ikki lashkar ikki safbasta tog'dek,
Savash maydonini ayladilar tark.

Manzilga qaytdilar toliqib, horib,
Ko'rdilar ertagi jangga tadorik.

Sarkardalar Daroni qatl etgani Soqiynoma

Ketur, soqiy, meni mendin et yiroq,
Mayi la'ling etar jahonni porloq.

Mayi la'ling manzil sari boshlayur,
Hama dil olsa, ul g'ami dil olur...

Pandu hikmat

2420 Jahon ayshu orom manzili magar,
Shitob etguvChining tovonin yoqar.

Ikki eshigi bor bu bog'ning, aniq,
Ularda na zanjir, na qulfu kalit.

Bul eshikdin kirib, sayr etgil davom,
Ul eshikdin chiqib, aylagil xirom.

Aqling esa, gulga bermagil mehring,
Mumkin emas gul qoshida qolmaging.

G'animatdir, qadrini bil, dam bu dam,
Kechmishu kelgusini deb chekma g'am.

2425 Hayot bu dilxushlik emasdir yolg'iz,
Kelganmiz ranj ila mashaqqatga biz.

Chaqirgaylar eshakni to'yga hamon,
O'tin ila su tugab qolgan zamon.

Doston

Roviyki, nazmini muncha so'yladi,
Dostonini bo'yla davom ayladi.

Chun ketdi ul kunduz otashi, ravshan,
Qoraydi zulmatdin gunbazi baland.

Oy balqib, baxsh etdi tunga piroya,⁷⁶
Tun aro qorishdi nur bilan soya.

2430 Har ikki lashkargoh posbonlari, boq,
To oppoq tonggacha turdilar uyg'oq.

⁷⁶ Piroya – zebu ziynat.

Ularning hayqiriq sasidin har on
Qushlar yo'qotmiShdi uyqu va orom.

Fillar na'rasidin yotganlar, ajab,
Turishardi vahima ichra sakrab.

Askarlar uyquga g'arq etib o'zni,
Uyqudan damo-dam ochardi ko'zni.

Har ikki lashkar ham edi bag'ri xun,
Der edi: koshkiydi, tun bo'lsa uzun!

2435 Uzaysa kechayu kechiksa kunduz,
Maydonga tushmasak yana yuzma-yuz.

Ikki podsho adovatni unutsa,
Keyin sulhu saloh yo'lini tutsa...

Bosh ko'tardi quyosh yana purviqor,
Qarodin oq bo'ldi ajrab, oshkor.

Ikki podsho maydonga ot surdilar,
Do'stlik ipin boylamoqchi erdilar.

Yuraklarga mehru shafqatlar to'lib,
Xayrli bir ishga erdilar tilib.

2440 Bu ishga o'rtachi izladi Doro,
Topilmadi biron a'yonlararo.

Bir kimsa bo'lmadi ishga rahnamun,
Dedilar: mushkulni tig' bitirgay, xun.

Eroniy rumiydin o'jizmi magar,
Nega maydon surib, qozonmas zafar?

Ertaga bo'larmiz Chin mardi maydon
Rumiylar zotidin qolmagay nishon!

Shundoq so'zlar ila berdilar dilda,
Birisi lof, biri makr etib, hiyla.

2445 Sababki, qosidlar ayladilar jahd,
Qonini to'kmoqqa etmishdilar ahd...

Bu yoqda Sikandar bo'ldi chorasoz,
Yovga muqovamat ko'rsatmoqqa boz.

Ko'zda tutdi ul ikki sarkardani,
O'z sarkardalari qo'llardi uni.

Pahlavonlariga dedi boqib tik:
"Ko'rsating ertaga ne emiSh mardlik!

Ko'rsataylik har ne qudratimiz bor,
Turaylik maydonda dadil, ustuvor.

2450 Agar g'olib kelsak, bizda qolar mulk,
Gar yengilsak, Doro bizdan olar mulk.

Qiyomat gar bugun ko'zlardin nihon,
Ertaga siz uni ko'rarsiz ayon".

Ikki lashkar yotdi chekib g'am-alam,
Yuraklarda vahim, xavotir bilan.

Yorug' darichasin ochdi osmon,
O'zga bir raqsini boshladi jahon.

Avval sochib ko'kka bir hovuch uchqun,
Keyin chiqdi quyosh, qoyim bo'ldi kun.

2455 Ikki qo'shin yurib tog'dek shu lahza,
Jang qilib jahonga soldilar larza.

Fariddunnasab, shohi bahmannajod
Qalqidi oyoqqa ayni bomdod.

Tizdi lashkarini maydon aro ul,
Qurol-yarog'ini shayladi butkul.

Go'yo yuz po'lat tog' etib shayladi,
Poyiga ganj-xazinasin joyladi.

Maymanasi yana ko'tardi qomat,
Maysarasi tag'in ko'rsatdi haybat.

2460 Lashkar qanotlari chormixga o'xshash,
Erga tutash edi, havoga tutash.

Joy oldi o'zi lashkari qalbidan,
Kayoniy bayrog'i boshida baland...

Iskandar ham, ilkida shamshir edi,
Xizmatiga shay edi, hozir edi.

Go'yoki bulut erdi, shiddat ila
Kamondin do'l yog'dirdi, tig'din jala.

Lashkar qanotlari yetib osmonga,
Bedovlar tuyog'i bo'yaldi qonga.

2465 Bahodirlarga amr etdi Sikandar,
Saf chekib o'ng tarafga o'tsin ular.

Boshqa guruhlar ham saf chekib qator,
Borib, so'l tarafda tutsinlar qaror.

So'ng dargoh arkonlarini yig'di bot,
Ularga e'timodi erdi ziyod.

Atrofiga tizdi chun devor qilib,
Qo'shin qalbida turdilar tog' bo'lib.

Uchdi lashkar qalbidin sher na'rasi,
Osmonga o'rladi qiyomat sasi.

2470 Nog'ora gumburladi chun narra sher,
Raqs boshladi ajdaho tepib yer.

Karnay sadosidin bitdi quloqlar,
Titradi tanlarda qo'llar, oyoqlar.

Fil minganlar solib hayqiriq, suron,
Nilda nahanglar ham chekdilar fig'on.

Shaypurlar tahdidi taralib shu dam,
Yuraklarni yordi, o'takani ham.

Dovullarning guldirosidin shu chog'
Zamin tirar edi, qaltirardi tog'.

2475 Nayzalar sanchilib yana shu oni,
Teshardi kiyimni, sovut, qalqonni.

U qadar o'q uchar o'xshab yomg'irga,
Bulut yomg'irini to'shardi yerga.

O'q yomg'iri davom etarkan chunon,
Bulutdin o'q emas, yog'ar edi qon.

Dovullar shiddati erdi bo'ylakim,
Eshitganga qo'rquv solardi, vahim.

Maydonda jang hukm yurgizar edi,
Toshlarning bag'ridin qon sizar edi.

2480 Ikki daryo toshib sochar erdi xun,
O't mavjidan zamin erdi lolagun.

Zaminki, borlig'i orasta erdi,
G'ubori falakka yuksalar endi.

Qo'l berdi kamonning ipiga buyruq,
Xazina iloniga aylandi o'q.

Simobdek yarqiroq tig'lardin shu on
Simobdek tirqirab qochardi inson.

Duch kelib nayzalar, o'qlar zarbiga,
Larza tushgan edi tog'lar qa'riga.

2485 Qilichlar zaxmidin charxi tumtaroq
Yo'lidin adashib, lang erdi. oqsoq.

Gurzilardin yetib shikast, ziyoni.
Parcha-parcha erdi yer ustuxoni.

Bo'g'ziga sanchilgan necha o'q edi,
Nafas olishlikka iloj yo'q edi.

Nayza nayza bilan tutashib hazor,
Qalqon qalqon ila edi lolazor.

Qiyomatdin qochmoq bo'lganlarga ul,
Na yurmoqqa iloj, na qochmoqqa yo'l.

2490 Suvoriylar ot uzra otash edi.
Qo'llarda gohi tir, goh tirkash edi.

Jangu jadal omonsiz erdu andoq,
Yiqilganlar loshi zamin uzra tog'.

Inson jon bermakdin go'yo erdi shod,
Boshida ajalni aylamasdi yod.

Yo'q edi motam-la o'zni tig'lagan,
Na bir qaro kiygan, na bir yig'lagan.

Suxanvar so'zini sof aytar nuqul,
Gohida o'limni bayram degay ul.

2495 Shaharda bir kimsa vafot etsa gar,
Butun shahar xalqi ko'z yoshi to'kar.

Butun shahar xalqi o'lsa ham, ammo,
Yiroqda bir shahar yig'lamas aslo.

Maydonda jasadlar andoq ko'p edi,
Magarki yurishga yo'l ham yo'q edi.

Bu qon dengiziga baland oftob
Yorug' shu'lasini solmishdi shu tob.

Sikandar nayzasi yuksalib boshdin,
Saboq olar edi o'shal quyoshdin.

2500 Doroning qilichi g'uluv solardi.
Qoyatosh bag'riga qo'rquv solardi.

Lashkar lashkar bilan kelganda to'qnash,
Qiyomat yoqardi o'rtada otash.

Maydonda tarqalib ketganda lashkar,
Tahdid soldi Doro joniga xatar.

Atrofida jangchi posbon kamayib,
Tor maydon qolmishdi endi kamayib.

Yonverida xos kimsasi yo'q edi,
Parvo etgudek bittasi yo'q edi.

2505 Ikki sarhang, yonib ko'zlarida o't,
Shu zamon soldilar Doroga chovut.

Qilich sirmadilar beomon bir bor,
Qonidin ul tuproq bo'ldi lolazor.

Yiqildi Shahanshoh, bahodir qomat.
Jahonda go'yoki qo'pti qiyomat.

Kayoniy og'ochi tuproqqa tushdi,
Jarohatli tani qona qorishdi.

Nozik tani chekdi andoq dardu dog',
Nechuk ulfat bo'lgay yel bilan charog'?...

2510 Ikki sarhangni ul to'kmishdilar qon,
Sikandar oldiga keldilar hamon.

Dedilar: "Dushmaning otashda yoqdik,
Shohning iqboli deb taxtidin yiqdik.

Toju taxtdin etdik Dorodin xalos,
Iskandar tojini etdik sarafroz.

Bir zarb ila sochdik yerga qonini,
Shohning oyog'iga otdik jonini.

Kel, o'zing ko'r uni, tasanno deya,
Oting tuyog'ini qoniga bo'ya.

2515 Bergan va'damizni ayladik ado,
Bergan va'dangga sen ham etgil vafo.

Xazina bergum deb aytganding magar,
Endi o'sha so'zingga etgil amal".

Sikandar bildiki, bu ikki yomon
Doroning qonini to'kmish beomon.

Afsus chekdi etgan ul paymoniga,
Uyatdin bir olov tushdi joniga.

Umid tark etadi har gal tengdoshin,
Tengdoshi tuproqqa qo'yganda boshin.

2520 Qani, boshlang, dedi, meni u yoqqa,
Qayda ul qorishib yotar tuproqqa.

Ikki bedodpesha hamon yurdilar,
Uni shoh boshiga boshlab bordilar.

Ko'rdi, tuproq uzra yotardi jussa,
Xos a'yonlaridin yo'q edi kiinsa.

Xunu tuproq aro yotardi behush,
Kayoniy kulohi bir yoqqa tushmish.

Chumoliga Sulaymon erdi mag'lub,
Pashsha tog'dek filga kelmishdi g'olib.

2525 Bahman bilagiga o'ralmishdi mor,
Ayvondin yiqilmishdi Isfandiyo'r.

Faridun bahori, jamshid gulshani
Bo'lmishdi xazondin qayg'u maskani.

Nasabnomayi davlati Kaykubod
Uchib varaq-varaq, bo'lmishdi barbod.

Sikandar otidin tushib shul zamon,
Yurdi xushsiz yotgan jahondor tomon.

So'z qotdi ikki sarhangga amr etib,
Joyingizda turing, qimirlamang deb.

2530 Ular Doro sari bosolmay qadam,
Turgan joylarida qotdilar shu dam.

O'zi ma'yus yurib bordi qoshiga,
Egildi bir nafas xasta boshiga.

So'lg'in chehrasiga tikildi ani,
Echdi kiyimining bog'ich-bandini.

Tizzasiga olib, boshin siladi,
Qorong'u kechani kunduz ayladi.

Xasta ko'zlarini horg'in ochib ul,
Dedi: "Xunu xokni holiga qo'ygil.

2535 Qo'ygil meni, menga najot qolmadi,
Charog'imda nuri sabot qolmadi.

Davron peshonamni yordi onchunon,
Ko'rolmasmen, dunyo ko'zimdin nihon.

Sen, pahlavon, qoshingga kelding, biroq,
Yaxshisi, o'zingni nari tut, yiroq.

Bulutdek tegramni yirtdim, ey darig',
Hamon atrofimdin kelur bo'yi tig'.

Sarvarlar boshini qo'ygil yerga, bas,
Sindirma, davron o'zi berdi shikast.

2540 U ne qo'l erurkim, shu motam kuni
Kayoniy tojiga cho'zarsan uni?

Qo'lingni tegizma, bu Doro erur,
Yo'q, pinhon emas, oshkoro erur.

Quyoshim sarg'aydi chekib ranju dard,
Niqob tort yuzimga moviy, lojuvard.

Sarvni ko'rma yiqilgan holida,
Shohni ko'rma zabun bo'lgan holida.

Bandidirman, bandimdin ayla ozod,
Haqning rahmati-la keyin ayla yod.

2545 Zamin tojdoriman, sen tebratmagin,
Toki tebranmagay shu ro'yi zamin.

Qo'ygil meni, xobi xushim eltadir,⁷⁷
Zamin suvim, charx otashin eltadir.

Uxlaganni taxtdin ayirma bir on,
Ki garduni gardon ko'targay fig'on.

Fursatim oz qoldi, unr bitdi, bas,
Qo'y meni, uyquga ketay shu nafas.

Boshimdin tojimni olmoq esang, hay,
Bir lahza kut, toki jonim topshiray.

⁷⁷ Xobi xush – shirin uyqu.

2550 Men dunyodin ko'zni yumarkan alhol,
Xoh tojinni olgin, xoh boshimni ol".

Sikandar nola chekdi: "Ey tojdor,
Sikandarman, ul chokari Shahriyor.

Istamasmen, boshing tuproqqa tushsa,
Jismi zoring yana qonga qorishsa.

Lekin ne choraki, bo'lar bo'ldi ish,
Endi befoydadir taassuf chekish.

Boshingni ko'tarib, toj kiysang agar,
Qoshingda chokaring bo'lur Iskandar.

2555 Darig'o, daryoyi junun ichramen,
To ko'ksim qadar mavji xun ichramen.

Otimning taqasi tushmadi nechun?
Nega adashmadim yurgan yo'limdin?

Uchmas edi shohning nolasi, uni,
Ko'zim ko'rmas edi bu qaro kunni.

Ont bo'lsin o'zingga, ey donoyi roz,
Yaxshilik tilarmen Doroga, xolos.

Ne choraki, shisha urildi toshga,
Chora yo'q oh-voh chekishdin boshqa.

2560 Darig'o, shu o'lkaga Isfandiyor
Naslidin yolg'iz ul edi yodgor!

Ne bo'lardi, o'lim kelarkan, unda
Sikandaru Doru jon bersa birga.

Ammo zo'rlik ila o'lib bo'lmagay,
O'lolmaysan, to soating kelmagay.

Shohning bir tola mo'yi nazdimda ul
Yuz ming tojdin azizu afzal erur.

Koshki bilsam edi bir chora hanon,
Etardim dardiga doruyu darmon.

2565 Ne kerak toju taxt, shohona obro',
Gar ul qolar bo'lsa Dorodin ayr?

Nega tojutaxtga qon yig'lamay, qon,
Sohibini tuproqqa qordi chunon?

Yo'qolsin u gulshan, u bo'ston saro,
Bog'boniga etsa tikandin yaro!

La'nat shu jahongakim, Dorokush ul,
Nihonparvar bo'lib, oshkorakush ul.

Bir chora etmoqqa ojizman shu on,
Joiz endi cheksam boshida fig'on.

2570 Ayt, bilay ta'biru muroding shu dam,
Umiding kimdanu qo'rquving kimdan?

Aytil, ne tilarsen, etarmen farmon,
Chorasin ko'rmoqqa qilurmen paymon".

Doroga yetarkan dami dilnavoz,
Ko'z ochib, ohista chiqardi ovoz.

Dedi Iskandarga: "Ey aziz baxtim,
Munosibdir senga toj ila taxtim.

Ne so'raysan jonga yetishgan jondin,
Samum qovjiratgan guli xazondir?

2575 Jahon har kimsaga tutib sharbatin,
Muz ustiga yozmish mening qismatim.

Tashnalikdin bag'rim yonarkan shu dam,
Cho'kib, qon daryosi ichradir tanam.

Bulutda chaqnagan chaqinman, uchqur,
Labim suvga tashna, tanim suvdadir.

Ko'zaga darz tushsa, sinar bir kuni,
Mum ila tuzatib bo'lmagay uni.

Jahon har xonadonni g'orat etar,
Birovni keltirar, birovni eltar.

2580 Na yurganlar undan nari ketolmas,
Na ketganlar qochib undan, qutulmas.

Mening holimga boq, rostlik pesha qil.
Boshimga tushgan kunni andisha qil.

Nasihatim quloqqa olsang, inon,
Boshingga shu kunni solmagay jahon.

Bahmandin ortiqmidim, ul ajdaho
Unga bir nafasni ko'rmadi ravo.

Ortiqmıdim Isfandiyordin o'shal,
Boshiga qiliChin sirmadi ajal.

2585 O'ldirilmak naslimga qismat erur,
Qotil nasabimga guvoqlik berur.

Shahanshohlik bo'lsin boshingga tole,
Bu yostiqni senga ayladim xoli.

Men uchun yig'lamoqqa kelganda payt,
So'rading: ne erur, tilagingni ayt?

Uch tilagim bordir shu topda nihon,
Har birida iqboli shohi jahon.

Biri – men gunohsiz o'ldirildim, shoh,
Adolat bila qoyim etgil jazo.

2590 Yana ulki, shu toju taxti Kayon
Hukmingga o'tarkan, aylama ziyon.

Adovat urug'in ko'nglingda tutma,
Bizning naslimizni qirma, quritma.

Yana ulkim ravon etib yo'lingni,
Haramim soriga chs'zma qo'lingni.

Ravshanak qizim bor, nozigim manim,
Mehr bog'ida guldek o'stirganim.

Hamxonang etib, aylagil sarbaland,
Sufra noziklardin bo'lur arjmand.

2595 Ravshan diling Ravshanakka ber shu tob,
Ravshan nuri ila azizdir oftob.

Iskandar barini ijobat etdi,
Shahanshoh abadiy uyquga ketdi.

Falak sori zulmat yo'l topdi takror,
Bag'dodni qurshadi magar chang-g'ubor.

Kayoniy Chinori quladi tubdan,
Isfandiyor zuryodi kiydi kafan.

Jahondin quyoshdek ayrildi, ketdi,
Shabah paydo, yoqut ko`rinmas endi.⁷⁸

2600 Sikandarkim, ul shohi farruxnajod,
Yig`ladi shomdin to yetguncha bomdod.

O`ziga ham erdi o`shal hasrati,
Ki uni ham kutar ajal sharbati.

Kunduz oti ola-chipor sahardan
Chiqib, ko`m-ko`k yaylov sari yurarkan,

Motamzada Sikandar berdi farmon,
Doroni o`z joyiga elting debon.

Gunbazi toshdanu marqadi tillo,
Etdilar marhunga maskan muhayyo.

2605 Xilvatgohini onchunon qurdilar,
Bu zaxmatdanam o`zni qutqardilar.

Bahodirning qadri chandon bo`lgusi,
Toki tan qolipida jon bo`lgusi.

Jon javhari tanni tark etgan zamon,
Undan ayoli ham yuz burar hamon.

Nogahon shamoldin so`narkan charog`,
Farqi ne, maskani ayvonmi, tuproq.

⁷⁸ Shabah – oddiy toshmunchoq.

Osmondami yoxud g'orda o'larsan,
Tuproqsan, oqibat tuproq bo'larsan.

- 2610 Dengizdan qirg'oqqa tusharkan baliq,
Chumoliga yemish bo'lmagi aniq.

Shundoq yashaydi bu dunyo, rahguzar,
Kelding, ketajaksan bir kun muqarrar.

Birovga deydi: kel, davrani yashat,
Birovga der: yetar, davrani bo'shat!

Lojuvard ko'k ostida mol jamlama,
Kahrabo qal'ada nishot aylama.

Yuzingni kahrabodek zard aylagay,⁷⁹
To'ningni dag'i lojuvard aylagay.

- 2615 Sherlar vodiysida yashagan jayron,
O'limini kutib yashar har zamon.

Qush kabi kech bundan qanoting qoqib,
Mast bo'lma bu manzil ayshiga botib.

Chaqindek o't sochib, shu dargohni yoq,
Jahondin hamisha o'zni tut yiroq.

Samandar parvonadek otashsevar,
Biri uchar bo'lsa, biri o'rmalar.

Agar shohi mulk ersayu mulki shoh,
Barcha ranju zahmat shu yo'lda paydo.

⁷⁹ Zard – sariq.

2620 Ko'p qadimdir sen tuproq deb bosganing,
Bilmaysan, ostida nelar bor uning.

Bir eski hamyondir shu tuproq, qaro,
Ganji ovozi chiqarmas aslo.

Zar yangi hamyonda jaranglar shitob,
Sado bergay yangi ko'zadin sharob.

Kim bilar, bu qalam aytib falondin,
Ne tarixlar yozar yaxshi-yomondin.

Ne xiradmandlarga nayrang etar, dov,
Ne qaysar boshlarni kesar beayov.

2625 Dema: falak do'sti anisim mening,
Bergan to'ni ikki ranglidir uning.

Goh malakdek ko'kka ko'targay seni,
Goh tutgay-da, devlarga bergay seni.

Kechalar aylama gar rizqingni yod,
Ammo kulcha berar yetganda bomdod.

Etti toshli tegirmon uzra nechun
Bir hovuch arpa deb xorsan, bag'ri xun?

Xizrdek bu kuning tark ayla zinhor,
Sut, xurmo ne hojat, obi hayot bor.

2630 Yiroq tur ulardin, ulfatim dema,
Inson shaklidagi Shaytondir hama.

Qara, dashtu biyobon ichra har on
Qochar insonlarning dastidin jayron.

Marol ham jabrni his etib jondin,
Dashtu tog' oralab qochar insondin.

Arslon ham o'rmonni maskan tutib,
Yashar insonlardin yomonlik kutib.

Insonlik gavhari kamaydimikin?
Insonlik yo'qoldi inson zotidin.

2635 Gar inson zotini o'qisang, inon,
Derki, inson zoti bo'yladir hamon.

Ko'z mardumi gavharga boq, ko'z aro
Mardumligi o'lib, tortmishdir qaro.

Nizomiy, sukutni amr et dilingga,
Aytilmas gaplarni olma tilingga.

Uxlaganlar kabi aylagil sukut,
Uxla, qulog'ingga paxta tiq yoxud.

Ibrat ol, lojuvard samoni ko'rgil,
Sariqqa sariqdir, qizilga qizil.

2640 Kechalar yuz rangda tovlanur takror,
Chiroy ochgan kabi gulshanda bahor.

Sahargoh bir chashma ko'ringan zamon,
O'shal chashma rangida bo'lgay ayon.

Iskandar Doroning taxtiga o'tirgani
Soqiynoma

Ketur, soqiy, tokning qizil qonini,
Ber menga ul sarxushlik imkonini.

Mayingni xush ko'rib simirsam nahor,
Subhidamda mast aylagay ikki bor.

Pandu hikmat

Qaydasan, ey davlat,davlati surur,
Mahdiy dargohiga taxtingni qo'ndir.

2645 Mahdiy dargohida tutganda maqom,
Mahdiydin Mahdumga yetkazgil salom.

Senga nasib etdi bu davlatni baxt,
Ki oroyishi toj o'zing, zebi taxt.

Sendin odamiyning ruhida ziyo.
Jahon sendek to'nni tikmamiSh aslo.

Tangri nomi ila ravshan paykaring,
Gavharlar ichida tanho gavharing.

Ilkingga jilovni beribdir, shoyad
Sendan mardonalik, bizdan himoyat.

2650 Ko'rsat ko'cha-ko'ytng, bozoring menga,
Tok o'zim bo'lay talabgor senga.

Menga har diyordin ko'rinar nuqul,
Eshiging Shahriyor eshigidir ul.

Har joydaki, balandda yo pastdamen,
Xizimatingga doim kamarbastamen.

Ne xush demish andoq xiradmandi xush:
Bor bo'lsin ul davlati gavharfurush!

Balli, ul gavharki, taratgay shu'la,
Etishmoq mumkin anga davlat ila.

2655 Sikandarkim sohibi tadbir edi,
Davlati kuchidin jahongir edi.

Gar davlati bo'lmasaydi rahnamoy,
Dushmanlarin yengolmasdi, hoynahoy.

Doston

Ul roviyki, donoyu afsonabaxsh,
Davlat ta'rifiga andoq chekdi naqsh.

Doroning quyoshi bo'larkan nibon,
Sikandarga qoldi shu butkul jahon.

Doroga ne xazina ersa, to'liq,
Ki boshi paydomas, oxiri ham yo'q.

2660 Sikandar ganjiga eltib, qo'shdilar,
Daryoni daryoga qovushtirdilar.

Sariru saropadayu toju taxt,
Qancha molu bisotkim erdi behad,

Qancha javohirot noyob, misosiz,
Sanab tugatishga ko'z edi ojiz.

Billurin tabaqlar, xonlar, zarru zeb,⁸⁰
Otlar tashiyverib qoldilar horib.

Arabiy tulporlar, jabduqlari zar.
Xitoylik chokarlarki, zarrin kamar,

2665 Ganji zaxiralar undan-da ortiq,
Ganj ortgan tevalar mingdan-da ortiq.

Yarog' u libosga qiyos yo'q edi,
Har ne sonu sanoqdin ortiq cdi.

Yana qancha ashyolar erdi, ajib,
Sikandar maxzaniga etdi nasib.

Yana qancha oltin, kunush erdi ul,
Jahondor nomiga urdilar muhr.

Jahondor ul ganjdin ko'ngilni xushlab,
Gavhardek nur sochdi yarqirab, yashnab.

2670 Gavhardin ochilur ko'ngilning ko'rki,
Andin shabchiroq deb atalur balki.

Qorong'udir garchi xazina maskan,
Va lekin ganj o'shal ranjila ravshan.

Nechun bir kishi ganj topar bo'lsa, hay,
Sevinchdin yuzi oflobdek porlagay?

Tuproqsan, bag'ringda bisot bo'lsin, bas,
Bisotsiz tuproqni kishi istamas.

⁸⁰ Xon -xontaxta.

Bisoti bor esa, o'nglanur ishi,
Ne-ne yumushlarni bazarar kishi.

2675 Zar andoq narsaki, sochar za'faron.
Za'farondin bo'lur ko'ngillar shodon.

Mag'rib qoralari, zangivash ular,
Za'faron safrosi ila xush ular.

Sikandar ko'rdi ul hama koni ganj,
Ilkiga kirmishdi chekmay dastranj.

Darborini yig'ib, tushdi berishga,
Hama muhtashamu hama darvishga.

Ganji orastadin ulush berdi to,
Xayru saxo etdi bo'yla jahonshoh.

2680 Eron botirlarin da'vat etdi xush.
Ki bizning eshikdin kishi qaytmamish.

Kelib, bizning ostonaga bosh uring.
Halokat domidin boshni qutqaring.

Shafqat, marhamatlar bari bizga xos.
Navozishlar kutar sizni beqiyos...

Eron ulug'lari bari, jamuljam.
Lutfu marhamatdin bo'ldilar xurram.

Eshitgan erdilarki, ul Shahriyor,
Ahdu paymonida turar ustuvor.

2685 Guruh-guruh bo'lib yo'lda yeldilar,
Shohning anjumangohiga keldilar.

Ular tashrifidin xursand bo'ldi shoh,
Necha pahlavonlarki, lashkarpanoh,

Sikandar ayru-ayru ahd boyladi,
Rutbangiz qolur deb va'da ayladi.

Keyin xazina eshigin ochdi ul,
Har kimsaga durru gavhar sochdi ul.

Har kimsaning ishin oshkor etdi so'ng,
Uxlagan baxtini bedor etdi so'ng.

2690 Bor edi ularning mulki, sarvati,
Ikki karra ortdi endi davlati.

Eroniyalar bu in'omga yetdilar,
Shoh hukmiga o'zni taslim etdilar.

Erga bosh qo'ydilar barcha shu asno,
Kulohlari yetdi osmonga go'yo.

Shahriyorga ofarin aytib dildan,
"Yoring bo'lsin, dedilar, charxi baland!

Va Jamshid taxti joying bo'lsin mudom,
Saroyi xoki poying bo'lsin mudom!

2695 Eski ketdi, yangi panohimizsan,
Xusrav emas, Kayxusrav shohimizsan.

Bo'yin tovlamaymiz amringdin sira,
Oyog'ing hamisha boshimiz uzra!"

Shoh ko'rdiki, yetishgach farxundalik,
Eroniyalarga farz bo'ldi bandalik.

Ul anjumanda shodlik erdi, shukuh,
Etti mamlakatdin kelmishdi guruh.

Buyurdi so'ng, ikki qotilni hamon
Keltiring deb taxt oldiga shu zamon.

2700 Ikki botir sarhang keltirsin surib,
Ularning bo'yniga zanjir-g'ul urib.

Qoniga bo'yasin ularni andoq,
Kiyin bo'yinlarga solinsin sirtmoq.

Boshda va'da aylamishdi Sikandar
Ularga duru gavharu siymu zar.

Borib o'shal ahdu paymon royiga,
To'kdirdi uni qotillar poyiga.

Amr ayladi, siymu zarni ortdilar,
Keyin har ikkisin dorga tortdilar.

2705 Jarchi chiqib, jar soldi mardum aro:
"Shohni o'ldirganlarga andoq jazo!

Ular qilmishidin sitam topdi nom,
Ummi etdilar shu taxlit tamom.

O'z shohini o'ldirganlarni aslo
Xush ko'rmagay, muruvvat etnas Xudo!"

Ko'rib bu ishni shahriyu lashkari,
Nechukdir ul insofi Iskandariy,

Ul insofga ofarinxon bo'ldilar,
Jahongirga bandafarmon bo'ldilar.

2710 Xiradmandlar-la shoh davrada shu chog',
O'ltirardi yomon ko'zlardin yiroq.

Ikki taraf bunda ro'baro' bo'lib,
O'tirganlari bari oyoqqa turib,

Kamarbastalar shay edi hammadan,
Kamarlari bir zumra, bir halqadan.

Qo'l-oyoqqa zanjir solib siyosat,
Ruh ketmishdi, surat qolmishdi faqat.

A'yonlarmas, erdi munaqqash devor,
Go'yo qator jonsiz jasad erdilar.

2715 Sikandar Doroni mag'lub aylagan
Shoh edi, shu damda sham'i anjuman.

Majlis ahli sari nazar aylagach,
Har kimga bir munosib so'z so'ylagach,

Zanganing zuryodini chorlab keyin,
Lutфу navozishlar ko'rsatib shirin,

Dedi: "Ey pahlavon, ey keksa qoya,
Boshing oyog'ingga solmishdir soya.

Jahonda yashading yillarcha bisyor,
Jahon asroridin ogohliging bor.

2720 Doro sitampesha bo'ldi ne sabab?
Menga badandisha bo'ldi ne sabab?

Senga ayon edi rozi dahri dun,
Bas, unga nasihat etmadning nechun?

Yoshlik yoqar ekan jonni misli o't,
Gunohkordir keksa saqlasa sukut".

Rum shohi so'zini keksa tinglabon,
So'z ochdi shu onda ohista. ravon.

Kamon yanglig' bukib keksa qaddini,
Jonu dildan tuyib holu haddini,

2725 Silohi so'z to'la tirkashni ochdi,
Go'yoki tirkashi orashni ochdi.⁸¹

Avval jahondorga so'ylabon sano,
Dedi ul: "Yor bo'lsin saodatga shoh!

No'shiravon bo'lsin, Doroyi jahon,
Fathu zafar hamroh bo'sin har qachon.

Sevinch qanot yozsin boshi ustida,
Dushmanlari yotsin oyoq ostida!

Nasihati ayladim unga qanchalar,
Nasihatimdin hech bo'lmadi samar.

2730 Yorug' shamlar yoqdim Doroga qancha,
Vale hech ko'rmadim undan natija.

Sikandar nasibi ersa taxtu jom,
Doro ishi xatolik erdi tamom.

Kim bo'yinin ko'tarsa gardunga baland,
Gardun solur uning bo'yniga kamand.

⁸¹ Orash – kamondan o'qni eng uzoqqa otgan afsonaviy qahramon.

Bir keksa eshakdin yiqilsa Hindda,
O'lgan ota ho'kiz tug'armish Chinda.

Sel toshib, ariqni aylasa xarob,
Suv boshqa ariqqa yo'l topar shu tob.

2735 Tangri etdi senga davlatni taqdir,
Dushmaning ranjitma xor etib, faqir.

Yoshlik podsholik-la xush kechir daming,
Soz ila bodani etgil hamdaming.

Yoshlikda gul ochar baxting gulshani,
Qarilikda makon tut bir go'shani.

Zahhoku Jamshidga charxi lojuvard
Qariganda etdi qanchalar zahmat!

Gar podsho qarisa, buni uqib ol,
Ahli a'yoniga kelgay ul malol.

2740 Sababki, ayirar mag'zni po'stdan,
Yaxshini yomondan, dushmanni do'stdan.

Undan har ko'ngilda hadikdir, haros,⁸²
Negaki, ko'rgaylar, u mardumshunos.

Axtarurlar uni yiqmoqqa chora,
Eltib, bir burchakka tiqmoqqa chora.

Yosh bir shahzodani ko'targaylar shoh,
Uni yo'lga solmoq qulaydir zero.

⁸² Haros - qo'rquv.

Shu vajdin ham Kayxusravu Kayqubod
Qarilik tog'ida etilmadi yod.

2745 Jahonni boshqa shohga mulk etdilar,
Makon tutgali Alburzga ketdilar.

Hayot kechirdilar unda benuqson,
Shamshiru zahardin qoldilar omon”.

Sikandar ko'rdi, Kayon yodgori ul
Hama sudu ziyondin ogoh erur.

Unga ayon hama yaxshiyu yomon,
Harbu zarb bobida yana bilimdon.

So'rdi shu boisdin: “Ne tufayli, hay,
Maydonda g'alaba muyassar bo'lgay?”

2750 Ne tadbir kerakdir, sipoh hamisha
Jangda matonatni aylasin pesha?”.

Dedi jahon ko'rib, jangda pishgan er:
“Zafar qozonajak maydon aro sher,

Boshida sen kabi podshohi bo'lsa,
O'zini sen bilan bitta deb bilsa.

Magar farmon bersang, ul xoku g'ubor
Sen uchun bir qal'a etgay ustuvor.

O'tgan jangchilardin kelur hikoyat,
Tan quvvati berar jonga jasorat.

2755 Lashkar uchun jangda jasorat kerak,
Jasoratli bo'lsin yigitda yurak.

Maydonga tushganda sinchiklab qara,
Lashkaringdin madad kutmagil sira.

Sabrli bo'l, so'rgil Xudodin madad,
Lashkaring o'z ishin bajarur albat.

G'alaba qozonsang, boshlarni kesma,
Dushmaning qocharkan, yo'lini to'sma.

Gar noumid qolsang, yurakdin chalish,
Mardning qulog'ini kimsa cho'zmamish:

2760 Foling bo'lsa fathu zafardin nishon,
Yurakka qo'rquvni yo'latma bir on.

Ne demishdi Rustam Faromurzga ul,
Ko'ngilni sindirma, Alburzni sindir!

Isfandiyor Bahmanga aytmish ani:
Sinmagan botirning sinar dushmani!

Doro shikastadil kirdi savashga,
Qo'rquvdin qonlari to'kildi toshga.

Maydonga tusharkan, ko'ksida hadik,
Mag'lub etdi shunda loChinni kaklik.

2765 Dilida dil ravshanligi yo'q edi,
Sen bois maskani tuproqdir endi".

Yana savol so'rdi Sikandar: "Ayo,
Oqibatli kekxa, oqilu dono!

Eshitdimki, Rustam qo'lda buyuk tig',
Maydonda ot surib, arslon yanglig',

Qilich sirmaganda o'ngu so'l taraf,
Dushman qochar emish har yon tirqirab.

Hayronman, u tanho o'zi jang etib,
Behisob lashkarni qochirgay netib?"

2770 Javob berdi yana keksa pahlavon:
"So'z ayturda til aylanur har zamon.

Rustam maydo aro jang qilib har gal,
Lashkarboshilarni qirardi avval.

Lashkarboshilari yiqildimi, bas,
Lashkar qochar qo'rquv ichra, to'xtamas.

Shu yanglig' maydonda ot surib mag'rur,
Lashkarga bir kishi bas kela olur.

Yo'qsa, rosti, xayolga sig'mas ishi,
Lashkarni qochirur nechuk bir kishi?"

2775 Yana savol so'rdi: "Ayt menga, nechun,
Bahmanning qo'li bo'ldi andoq uzun?"

Faromarzni nega o'ldirdi Bahman,⁸³
Qonini tuproqqa qordi tamoman?"

Javob berdi aqlu xiradga molik:
"Bahmanki ayladi ul ajdaholik,

Keyin omad yo'li yopildi unga,
Dami ajdar vatangoh bo'ldi unga.

⁸³ Faromarz – Rustamning o'g'li. Bahman – Isfandiyorning o'g'li

2780 Baski, boltasidan yiqildi daraxt,
Qolmadi unda so'ng davlat, toju taxt.

Baski qo'llarini botirdi qonga,
Tole kulib boqmas bo'yla insonga".

Sikandar tinglabon firoqqa tushdi,
Bargi xazon kabi titroqqa tushdi.

Doroning qonini esladi shu on,
"Bu ko'prikdin o'tish bo'lmagay oson".

Yana bir bor so'rdiki, ul hushmand
Gavhar qutichasin ochsin yangidan.

2785 Aytsin, aylanarkan gardishi ro'zgor,
Jahongir nimalar etmog'i darkor?

Avval ofarin aytib ul nekbaxt,
So'ngra dedi: "Ey sohibi toju taxt!

Garchi mulki jahon sen bilan yorug',
Uning butog'ini ushlama qattiq.

Ul qadim davrondin shu kunga qadar,
Kim qoldiki, bergay bizga bir xabar?

Qayda Rustamu Zolu Simurg'u Som?
Fariduni farhangu Jamshidu jom?

2790 Zamin barin yamlab, ayladi yemish,
Shunchalar yesa ham hamon to'ymamish.

O'tdilar, ortidin o'tarmiz biz ham,
Zanjir halqasidek birgamiz, hamdam.

Besh karra bong urma yangratib chortoq.
Olti eshiklidir bu to'qqiz ravoq.

Jahonda yashagil jahondor bo'lib,
Dushmanlaring yotsa, sen bedor bo'lib.

Qo'rqinch bu olamdin boshingni qo'ru
Qo'rq u kimsadanki, bilmagay qo'rquv.

2795 Yurma u yo'lgakim, ziyon keltirur,
Yomon yo'l ko'ngilga gumon keltirur.

Teskari kiyilsa kimning ko'ylagi,
Lozimdir ko'ylakni qayta kiymagi.

Yo'ling safaringga ters esa, saqat.⁸⁴
Xudodin hojating so'ra, ortga qayt.

Ko'nglingni ko'p band etmasin mulku mol,
Kam esa ranj erur, ko'p esa iqbol.

Ilmni senga rahnamun etdilar,
Molingni tomiringda xun etdilar.

2800 Qirilur tomoq magar bexun esa,
Bo'g'ilur tomoq qoni afzun esa.

Har yerda bir ganji nihon yotgusi,
Ustida bir qora ilon yotgusi.

Shu gunbaz ne orastadir, ko'r uni,
Molu sarvatdir xolidir ustuni.

⁸⁴ Saqat – behuda, befoyda.

Shu gunbaz ostida yotmog'ing-ku bor,
Qora ilon bilan yotish ne darkor?

Dilni behuda banddin ozod qil,
Sitamgar bo'lma, dod qil, dod qil!⁸⁵

2805 Yaxshidir, gar shoh bedodin kecharsan,
Chunki u Dorodir, sen Iskandarsan.

Ko'rgil, kelar etdi Doroga jahon,
Hazir bo'l, senga ham etmagay hamon.

Ne aylading, jahon berdi toju taxt,
Ani aylaki, andin yuzlandi baxt".

Shoh keksaning javobini tingladi,
Muborak fol debon qabul ayladi.

Navozish ko'rsatdi cholga onchunon,
Base oltin, kumush ayladi ehson.

2810 Eron ulug'lari kelib qoshiga,
Tarozu qurdilar uning toshiga.

Dargohga kelganlar hama shu asno
Shoh bazmi sha'niga aytdilar sano.

"Chiroq so'ngan esa bunda, ne ajab,
Quyosh nur taratdi yarqirab, yashnab.

Kecha ketgan esa, yorishdi kunduz,
Gul ketsa-da, yetishdi gulshanafruz.

⁸⁵ Dod qil – adolat qil

Kishi gar zig'ircha oltin yo'qotdi,
Izladi. ajabki, xizina topdi.

- 2815 Sikandardin, chu erdi daryoshukuh.
Navozishlar ko'rdi rosa ul guruh.

Ko'rdilar, Shoh erdi raiyatnavoz,
Doro bedodidin so'yladilar roz.

Uning davri edi munchalar mash'um,
Ki biror yorug' kun ko'rmadi mardum.

Mardumning boshiga soldi muncha g'am,
Egasin topolmay, adashdi it ham.

Yaxshilar qalbiga qo'rquv soldi ul,
Molu jonga tahdid, g'uluv soldi ul.

- 2820 Mazlumlar bosh olib ketdilar shunda,
"Muruvvat Yunonda, matonat Rumda".

Kimsalarkim nazdida chun tosh edi,
Ikki sarhang qo'shinlarga bosh edi.

Ikki badgavharni yuksaltirdi, bas,
Ki gavhari ulardin topdi shikast.

Olchoqlarga berdi mukofot, maqom,
O'zi olchoq bo'lib topdi saranjom.

Podsho deb ul ikmsa atalgaymidir,
Xudoning xalqiga aylasa jabr?

- 2825 Ulug'larga aylab tahdid, siyosat,
Nokaslarga bersa mansab, rayosat?

U xusrav emasdir, xasparvar erur,
Xusravlik boshqayu xaslik boshqadir.

Mulk aro baxshoyiSh sira qolmadi,
Shahraro osoyish sira qolmadi.

Kiynalardin majruh bo'ldi siynalar,
Talon-taroj etildi ganjinalar.

Xor bo'ldi ma'rifat, buzildi san'at,
Bundan ortiq bormi yana falokat?

2830 Hunarin tark aylab ketdi hunarmand,
Boshqa bir yumushga etdi o'zni band.

Cho'ponlar kelib pahlavon bo'ldilar,
Malikzodalar qo'ychibon bo'ldilar.

Dehqon kelib sipohlik odat etdi,
Sipohiyalar dehqonchilikka o'tdi.

Oqibat ne bo'lur dunyoning ishi,
O'z kasbin etmasa magar har kishi?

Bo'yla bir qabohat etmishdi Doro,
Jahonning kunduzi kiymishdi qaro.

2835 Endi shohimiz bor chun odil maqom,
Bo'yla zulmu zalolat etmas davom".

Shahriyor bu so'zlardin bo'ldi xushhol,
O'lkalarga jarchi jo'natdi darhol.

"Har hunarmand endi o'z ishin qilsin,
Yaxshidir, yomondir, yumushin qilsin.

Dehqon dalasida kechirsin hayot,
Ho'kizdin, omochdin izlasin murod.

Sipohiy etsin o'z sazovorini,
Shahriylar aylasin kasbi korini.

2840 Bir kimsa o'z hunaridin kechmasin,
Mahkam tutsin avvalgi ish rejasin".

Kasbidin kechganlarni chorlab keyin,
Ilkin ish-amallarni etdi tayin.

Amal ahliga e'tibor ayladi,
Olam ishini barqaror ayladi.

Jahonni chun vayronalikdin xalos
Aylab, obod etdi tag'in beqiyos.

Yana yashnatishga hozir edi, shay,
Jahondorlik oqillarga yarashgay.

Iskandar Ajam otashkadalarini vayron etgani Soqiynoma

2845 Ketur, soqiy, yana etay no'shu noz,
Bir kosa sharbat tutgil oshiqnavoz.

Uzat sharobingni, o'shal rohatim,
Tashnaman, kutishga yo'qdir toqatim.

Pandu hikmat

Isiriq keltir, ey jahondiyda pir,
Shohona bazmning o'tida yondir.

Ko'zlar sari boqib oldu orqa men,
Yomon ko'zlar tegmasin deb qo'rqamen.

Isiriq yoqolsam ko'ngildin hamon,
Yomon ko'zlar menga etolmas ziyon.

2850 Yo'l to'sardin yo'lda vahim, vasvasa,
Baxtiyordir kishi buni bilmasa.

Bu ne umr emishki. har yon xatar,
Afsungarlik ila kunlaring o'tar.

Bas, bundan ketishning chorasin topay,
Qon to'la qozonning qopqog'in yopay...

O'tmish dostonlarin aytguvchi oqil
O'tmishdoshlardin etdi andoq naql.

Ki dehqon dini tutdi otashni, bas,
So'ndi otashu kuydi otashparast.

2855 Sikandar amr etdi: eroniy bari
Otashparastlikni otsinlar nari.

Alvido aytib ul olov diniga,
Assalom desinlar xusrav diniga.

Mug'lar bisoti, bas, otashda yonsin,
Otashkada borki, bitsin, tugansin.

Bu bir odat edi o'sha pallada,
Olimlar maskaniydi otashkada.

Unda ganju bisot yig'ilgandi mo'l,
Vale cho'zolmasdi birov unga qo'l.

2860 Davlatmandlarki, bir merosxo'ri yo'q,
Davlatni shu joyga etardi tortiq.

Agarchi dunyoga andin ranj edi,
Har otashkada xonayi ganj edi.

Sikandar ularni ayladi vayron,
Ganjini daryodek oqizdi ravon.

U har otashgohga aylasa guzar,
Binosin buzardi, olar edi zar.

Otashparastlarda odat erdi boz,
Yangi kelinchaklar ila ayshu noz.

2865 Jamshid navro'ziyu Sada bayrami,
Otashkada ahlining xurram dami,

Er yuzin ko'rmagan kelinlar chandon,
Kelishardi kulib, xursandu xandon.

Yuz orasta, qo'llarda naqshu nigor,
Kelishardi yelib, har yoqtin qator.

Mug'onlar qo'llarda mayi la'l tutib,
O'tgan mug'onlarni bir-bir yod etib,

Dehqon dalasiyu zand afsunidan
Aytib, olov-tutunni aylab baland.

2870 Hama ishlari sho'xlik erdi magar,
Afsonalar so'ylab, afsun aylashar.

Charog' yo'q, afsona, afsundan o'zga
Bazmgohda o'rin yo'q erdi so'zga.

Sollanardi jingalak kokullari,
Er tepardi, chapak chalardi bari.

Qo'llarda lolayu rayhon erdi, bas,
Hama sarvi zebo, hama gulparast.

Yil boshida osmon shu'la socharkan,
Jahon yangi kun hisobin ocharkan,

2875 Qizlar har tarafdin kelishib chunon,
Ochilardi ayshu ishratga maydon.

Har joyda bir bazm bo'lardi shunda,
Necha fitna-fasod bo'lardi unda...

Sikandarning bitta farmoni birlan
Fitna bozoridin qutuldi olam.

Baland bo'lsin shohning taxti har qachon,
Pasaysa, mulkiga yetishgay ziyon.

Yuz podshodin bitta Shahriyor afzal,
Yomg'ir ko'p yog'sa, yerga etgay zarar.

2880 Farmon berib, shoh joriy etdi rasm,
Ki mug'lar rasmiga kimsa yurmasin!

Kelinlar yashnasin uforlar sochib,
Onasi yoki eriga yuz ochib...

Xullas, mug'lar makri chilpora bo'ldi,
Mayxonasiz qolib ovora bo'ldi.

Yo'q bo'ldi ularning rasmi. oyini,
Joriy bo'ldi Haqning haqiqiy dini.

Va Eronzaminda o'shandan beri
Zardusht otashining tugadi umri.

2885 Boylar ham tark etib ul rasmi ayanch,
Otashkadalarga keltirmadi ganj.

Va zebo sanamlar, go'zallar butkul
Otash gulzoridin uzdilar ko'ngil.

Poklandi ul otash dinidan jahon,
Ahli otashparast chekdilar fig'on.

Shoh buyurdi yangi oyinu odat,
Xaloyiq aylasin Haqqa ibodat.

Hanafiy dinini tutsinlar panoh,
Demasinlar oyu quyoshni Xudo.

2890 Sikandar zafarning totib totini,
Yangi maydonlarga surdi otini.

Fath aylagan yana fath aylasam der,
Na go'zal so'ylamish dunyo ko'rgan er:

Yangi hukm kelguncha to, anglagil,
Boshqa ramz aytaman senga, tinglagil.

Qulog'ingdin chiqar paxtani hamon,
Janda etarni hech atlasni inson?

Shu tariyq men tinglab donolarni xo'p,
EShitdim pand ila hikmatlarni ko'p.

2895 Necha tarixlarga bo'ldim oshno,
Bir harfin ham qo'ymay o'qidim raso.

Parokanda varaqlarni jamladim,
Parishon erdi ganj, yaxlit ayladim.

O'shal kimyolarni bir-birga payvand
Etib, yaratdim chun ganjina, maxzan".

O'shal forsiyzabon, jahoniyda pir,
Hikoyat so'yladi yana dilpazir.

Ki shoh aylab takabbur Doroni mot,
Mavsil sarhadidin nari surdi ot.

2900 Zuhrodek Bobulga kirib avvalo,
Horutiyydin etdi u joyni safo.

Buyurdi, mo'badiy o'tin shu zahot
O'chirsinlar aqlu tadbir etib bot.

"Zand" fusunnomasin suvga otsinlar,
Yo daftarga tirkab, mahbus etsinlar!

Bundan ham haq yo'lga xalqni yo'llabon,
Olovdan, tutundan pokladi hamon.

Keyin donolari maslahat ko'rdi,
Shu yerdan shoh Ozarbayjonga yurdi.

2905 Har yerda bir olov ko'rar ekan, zud
O'chirdi, Zandni ham ayladi nobud.

Bir joyda o't ko'rdi ul toshga payvast,
"O'zi yonar o't" derdi otashparast.

Yuzlarcha xizmatkor, qalpoqlari zar,
Xizmat etishardi, bellarda kamar.

O'tni o'chirmoqqa farmon berdi ul,
Dedi: qolsin bunda kul bilan ko'mir.

Tuproqqa to'ldirgach ul otashgohni,
Isfahonga qarab surdi sipohni.

2910 Nozaning bir shahar edi, orasta.
Ko'rib jonu dildan bo'ldi payvasta.

Jahongirning ko'ngli quvonchga to'ldi,
Ko'nglidin g'ubori g'ami to'kildi.

Necha hirbud otashin so'ndirdi shoh,⁸⁶
Necha hirbud qaddini etdi duto.

Unda bir saroy erdi Chinniynigor,
Go'zallikda chun gulshani lolazor.

Zardusht dini rasmu odatda erdi,
Necha kelinchaklar xizmatda erdi.

2915 Hama ofati jonu oshubi dil.
Oshufta bo'lardi ko'rgan har ko'ngil.

Bir jodu qiz unda zuryodi somiy,
Otasidin ozarhumoyun nomi.

⁸⁶ Hirburd – zardushtiylar peshvosi.

Bir afsun aylasa o'shal benazir,
Dildan hush olardi, donodin sabr.

Horutdek Zuhrodan dil olgan edi,
Yuzlab horut oldida o'lgan edi.

Sikandar buyurdi: Shitob aylangiz,
Munaqqash saroyin xarob aylangiz.

2920 Shunda ul parivash nogoh evrilib,
Ko'rindi anjumanga ajdar bo'lib.

Xaloyiq ko'rib otashin ajdaho,
Qoldilar barcha vahmu qo'rquv aro.

So'ng qochib, yiqilsa-qo'pa yeldilar.
Sikandar qoshiga yetib keldilar.

Dedilar: u yoqda bir ajdar, ajab,
O't-qoruda otar mardunga qarab.

Yonidan bir kimsa o'tar bo'lsa, hay,
Hamon o'ldirar-da, hamon yamlagay.

2925 Shoh bu sirri nihon nadir, o'yladi,
Maslahat so'rdi, vaziri so'yladi:

Bu ishning aslini Balinos bilur,
Tilsimlar asrorin bilguvchidir ul.

Balinosdin so'rdi Iskandar shu chog':
Bizga nechuk o'zni ko'rsatur andoq?

Balinos dediki: "Shohim, har safar
Afsungar sirrini afsungar ochar.

Magar amr etsangiz, shitob aylabon.
Afsungar boshini keltirgum hamon”.

2930 Shoh dedi: “Ajabdir bu sehru afsun,
Borgil-da, hamono ko’rgil chorasin”.

Otashkada sari yurdi xiradmand,
Bir ajdaho ko’rdi, siyohrang, baland.

Ajdaho bildiki, Balinos erdi,
Shishani kesguvchi olmosni ko’rdi.

Necha sirru sinoat etdi shunda,
Necha sehru amal ko’rsatdi shunda.

Har neki qildi, bo’lmadi chorasoz,
Eski sehru jodusiga qaytdi boz.

2935 Aylagan jodusi bermasa samar,
Afsungar avvalgi afsunga qaytar.

Ko’rib chorasin ziyraku hushmand,
Fusuni fasoyandani etdi band.

Ul zamonki tole kulib boqdi, bas,
Sehrgarning sehriga berdi shikast.

Buyurdi, oting deb ustiga sudob,⁸⁷
Go’yo suv sepiShdi otashga shu tob.

Boyladi o’yinni bir nayrang ila,
Qolmadi ul nayrang, tugadi hiyla.

⁸⁷ Sudob – badbo’y, za’faron gul.

2940 Qiz koʻrdiki, dono hunarin sochdi,
Tukkan sehru amal bandini ochdi.

Yiqildi oyogʻigayu yigʻladi,
Podshodin joniga omon tiladi.

Balinos koʻraokan oy kabi yuzni,
Bir zum unga oshufta koʻrdi oʻzni.

Ammo ixtiyorin qoʻliga oldi,
Qizning jodusidin salomat qoldi.

Buyurdi, chorasin hamon koʻrdilar,
Otashgohni otashda yondirdilar.

2945 Parivshni keltirdi soʻng, dedi: "Shoh,
Ana shu oy erdi qora ajdaho.

Aqli ayoldir, har ishga hozir,
Falakning qulogʻin choʻzmoqqa qodir.

Suv chiqarsa olur yerning qaʻridin,
Oyni uza olur samo bagʻridin.

Zuhalning yuzidin aritib gʻubor,
Har tola moʻyidin tiklagay hisor.

BaShar koʻrganmi chun paripaykarni?
Parilar koʻrmamish boʻyla dilbarni!

2950 Qaro zulfin anbar etmish mushki nob,
Asir boʻlmish uning domiga oftob.

Shohning baxtini deb yoʻlini toʻsdim,
Sindirdim sehriyu nomu nomusin.

Engildi, shohimdin so'radi omon,
Shohim, uni menga in'om et hamon.

Shohim rozi ersa, bo'lib otinim,
Ham ulfatim bo'lsin, hamda xotinim".

Shoh hayron qoldi ul ruxsomi ko'rib,
To'lin oydek edi, tamom zarru zeb.

2955 Balinosga dedi: "Ol, koming sening,
Jufting bo'lsib sipqorsin joming sening.

Lekin boxabar bo'l har ne rangidin.
G'ofil qolma hiylayu nayrangidin.

Garchi dumi kahrabo bo'lgay, ayon..
Lekin ne bo'lsa ham chayondir chayon".

Balinos chun shukri taslim ayladi,
Er o'pib, podshoga ta'zim ayladi.

Parivashni charog'i xona qildi,
Pari ko'plarni so'ng devona qildi.

2960 Eridin jodu o'rgandi tamomi,
Balinos jodu deb tarqaldi nomi.

Sehrgarsan magar yo yulduzshunos,
Maholdir o'lindin topmog'ing xalos...

Iskandar Ravshanakka sovchi yuborgani
Soqiynoma

Ketur, soqiy, obi ziloli bihisht,
Qo'ygil o'shal jomgaki. otashsirisht.⁸⁸

Gar suv ila otashdin bo'yla xushman,
Men dag'i suvmanu yana otashman.

Orzu

Baxtiyor ul kimsaki, qish fasli, day,
Oldida o't bo'lsayu qush bo'lsa, may.

2965 Va norpiston parivash bo'lsa ulfat,⁸⁹
Ki bo'ston norini etsa xijolat.

Va o'shal butoqdin to fasli bahor,
Gahi nor izlasa, goh sharbati nor.

Bir mahal ko'z solib uy kunjidin ul,
Ko'rsa har novdada chaman-chaman gul.

Jahon xurram bihisht bo'lganin ko'rsa,
Sahro maysalarga to'lganin ko'rsa.

Ul sanamning soChin silab har zamon,
Uydan chiqib, yursa so'yi guliston.

2970 Chashmadin ichib, yoriga ichirsa,
Necha bir damlarni shodon kechirsa...

⁸⁸ Otashsirisht – olovsifat.

⁸⁹ Norpiston – mammasi anordek.

Doston

Podsholar tarixin etguvchi hayon,
Tarix beshigini tebratdi chunon.

Ki kamar boyladi Isfahonda shoh,
Boshi samolarga yuksaldi go'yo.

Necha kun aysh etib so'ngra sarbasar,
Doro haramidin izladi xabar.

Etti xazina eshigin ochdi ul,
Kayoniy rasmi-la xil'at sochdi ul.

2975 Rumiya misriyu Chiniy hunardan
Zebu ziynat yig'di noyob, arjmand.

Shohona liboslarki, kiysa ani,
Dilni xushnud etib, yayratar tanni.

Yana zarbof to'nlar, po'stinlar qat-qat,
Kiyganlar joniga rohat, harorat.

Bari gavhar ila orasta erdi,
Bari ipak ila payvasta erdi.

Ajab mushku atru ufor erdi boz,
Matohtar yana ko'rkamu dilnavoz.

2980 Ularni haramga jo'natib har gal,
Qaroni qizilga etdi mubaddal.

Feruzadin marjonga berdi oro,
Lojuvard ustiga qo'ndirdi tillo.

Qaro tosh ustiga qizil zar surdi,
Zarni mahaktoshdin bilmoqchi erdi.

Doro motamidin qaroni yuvib,
Binafsha o'rniga qizil gul unib,

Sarkashning bog'ini yashnatdi butkul,
Dilorom chehrasi yorishdi gul-gul.

2985 Yana uch-to'rt kun etdi sabru qaror,
Ochilsin, dedi g'unchayi navbahor.

Kelinlar zeb ila oro aylasin,
Boshdin oyoq o'zni ra'no aylasin.

Tamannoyi dildan xush aylab dimog',
Nazar solsinlar so'yi ravshan charog'.

Chu bildiki, bitdi motam qolmadi,
O'shal rasmu rusumdin g'am qolmadi.

Vaziriga dedi: "Shitob aylabon,
Tilu qadamni ishga solgin hamon.

2990 Doro haramiga borib, ber xabar,
Ki bu joyni ko'rmoqchidir Iskandar.

Borib, o'shal oy yuzli, doronajod
Sinamni bir ko'rmoqni etdim murod.

Hisor tortayin tun-shabistoniga,
Chiroy beray gullardin bo'stoniga.

Sanamga ziynati tamom la'lu dur
Bitta zarrin taxti ravonni yetkur.

Ki o'shal nozanin o'ltirib unda,
Oydek sayr aylasin ro'yi zaminda.

2995 Zar jabduqli tulporlardin nehasin,
Tortiq ayla, xizmatkorlari minsin".

Amr etib Sikandar shuni so'yladi,
Vazir shoh amrini bajo ayladi.

Doroning xonayi xosiga yurdi,
Yurmak ne emishki, yeldi, yugurdi.

Mushkinsirisht haramga kirdi hamon,
Jannatga kirgan kabi obi ravon.

Jannat aro huri zebanda ko'rdi,
Ularga o'zni tutqun, banda ko'rdi.

3000 Olma yuzli sanamni ko'rdi unda,
Qizil olma otib o'ynardi shunda.

Avvalin so'zki, tilga keldi kalom.
Shu bo'ldi: sizga shohingizdan salom!

Shoh harami shohdin nur olib porloq,
Orangizdin ikkilik bo'lsin yiroq!

Bir xatokim, charxi davron ayladi,
Bu xonadonni imtihon ayladi.

Sizga necha ziyonlar yetdi so'ngra,
Unda shohning gunohi yo'qdir sira.

3005 Umidim uldirki, saranjomi kor
Umidsizlar bo'lgay yana umidvor.

Shoh bu xonadonga davom keltirur,
Toji davlatidin maqom keltirur.

Doro amri va o'z xohishi-la u
Kuyov bo'lmoqlikni ayladi orzu.

Ul shohi jahonning bo'yla komi bor,
Bu ismatsaroykim yaxshi nomi bor.

Bunda chiroy ochib yashnagan guldek,
Durrat-ut toj bo'lsin unga Ravshanak.

3010 Ravshan yuzi ko'zni ravsan aylasin,
Qizil gul bu joyni gulshan aylasin.

Doro bilan etmishdi ahdu paymon,
Ul boisdin yubordi taxti ravon.

Bo'yla tamanno Shahriyor ayladi,
Amal aylamoqqa qaror ayladi.

Gap-so'zlarni kesdi andoq bir yo'la,
Keldi qarorga ixtiyori bila.

Qizni taxti ravoniga mindiring,
Bu tadbir shitobin aylang, tez bo'ling!

3015 Elchiga shundoq dedi so'ng tarjimon:
"Shohning soyasida doim bo'l omon!

Bu uy obod erur podsho er bilan,
El bilan kelganlar ketar yel bilan.

Joizdir shuni zar ila yozsalar:
"Xarbanda ekkanni tevachi o'rar!"⁹⁰

Mahdi kamargo'shasidir tojimiz,
Taxti poyin o'pmoqdir me'rojimiz.

Cho'rilikka olsa gar, omadamiz,
Jufti halolikka olsa, andamiz.

3020 Amridin kim bo'yin toblar, ey habib,
Uning amri har joyda oltin kalit.

Agar shoh shu ahdda sobit erur,
Ravshanak boshini ko'kka yetkazur.

Shoh anriga hoziru omadamiz,
Shohlar zuryodimiz, xusravzodamiz.

Qay kunni xohish aylasa Shahriyor,
Yuritsin amrini, unda ixtiyor.

Shohning dargohiga xirom etarmiz,
Mehrimiz-la ko'nglini roin etarmiz".

3025 Bu go'zal javobni elchi tinglabon,
Shod bo'ldi va shohga ayladi bayon.

Shod bo'ldi eshitib shoh ham shul dami,
Ki yaxshi javobdin xushdir odamiy.

Javobki ul quloqqa noxush erur,
Eshitguvchi ko'ngliga dard keltirur.

⁹⁰ Xarbanda – eshak egasi.

Keldi bir ayyomki, tole yor edi,
Ko'ngillar qovushmoqqa tayyor edi.

Ko'kka uchib to'yu tamosho sasi,
Shoh etdi parivashni hamxonasi.

3030 Kayon rasmi-la ahdu paymon fuzib,
Dildan vafo, jondin mehr ko'rgizib.

Bay'at qilib, shoh berdi imkon anga,
Etdi Ajam mulkini ehson anga.⁹¹

Buyurdi, baski andoq shohona to'y,
Bezansin shahru bozoru ko'cha-ko'y.

Xorazm qumoshi va rumiy inatoh
Aylasin har yonni go'zal, jilvagoh.

Shohning amri ila shahri Isfahon
Shohi, atlas kiyib, bezandi chandon.

3035 Tomlar, devorlarga baxsh etib husn,
Osildi gilamlar qirmiz, lolagun.

Bayroqlarni ko'kka yuksaltirdilar,
Jahonga yangi oroyish berdilar.

Ko'cha-ko'yda chodir tikildi base,
Boshlandi shohona to'y tantanasi.

Sozu sado sochib olamga shodlik,
Hofizlar etdilar ashulaxonlik.

⁹¹ Bu erda kobin, nikoh o'qilishi oldidan er tomonidan ayolga beriladigan molu mulk ko'zda tutilmoqda.

Ud navosin ko'kka yetkazib ular,
G'animlarni ud, shakarda yoqdilar.

3040 Xezon tarafdin tolabi zindarud,
Har yonni chulg'adi navoyu surud.

Xezon anhorida oqardi sharob,
Romishon ichardi andin mayi nob.

Isfahon gulobi va mushki Taroz
Edi dudoqlaru dillarga hamroz.

Shoh to'yi shafaqdin muzayyan bo'lib,
Tabaqlar oy ila oftobga to'lib.

Gulshakardin osmon yasab koshona,
Gunbaz yuksaltirib gullardin yana,

3045 Mamlakat dengizu shodlik mavj edi,
Mug'anniylar cholg'usida avj edi.

Tun qushi yetishdi moviy saroydin,
Yuzu zulf rang oldi mushk ila oydin.

Samoda sadafdek tovlanardi oy,
Attor aro bermish unga, hoynahoy.

Shoh uchun o'shal oy, ul mushkin kamand
Ko'zu lablardin yasab bodomu qand.

Yubordi ularni shoh saroyiga,
Loyiq ko'rib shuni mushku oyiga.

3050 Ertasi kuni quyosh bezatib o'zni,
Kelindek pardadin ko'rsatdi yuzni.

Shohning dili kelin ishqida hamon
Sho'rishga tushdi rusu zanjisimon.

Andoq majlis tuzdi, bazmi sozu may,
Xijolatdin minu ter chiqardi, xay.⁹²

Ustozlar ila may ichib basma-bas,
O'zi mast erdi-ku, sog'ari ham mast.

Baxsh ayladi ul behisob molu ganj,
Ul hisobdin tushdi zamanga ham ranj.

3055 Kecha quyosh marjonin uzdi aniq,
Shafaqdin qo'liga kiritdi aqiq.

Keyin Bo'shoni ul feruza etdi,
Buni ko'rgilki, so'z Bo'shoqqa yetdi.⁹³

Shoh komi diliga yetmoq bo'lib, bas,
Yubordi ul zebo, parivashga kas.

Ki Ravshanak porlab chu ravshan charog',
Kelib ravshan etsin bu bo'stonu bog'.

Dedi Ravshanakka onasi hamon:
"Iskandar yoniga bor ravshan ravn.

3060 Yoquti yaktosan Iskandar uchun,
Gavharga durdona qo'shilsin bugun.

Bizga andin davlatpanohlik yana,
Amirlik etarmiz, podsholik yana.

⁹² Minu - may shishasi.

⁹³ Bo'shoq - Nishopur yaqinidagi feruza koni.

Hukmidin bo'yin tovlama. bo'l daqiq,
U senga munosib, sen unga loyiq.

Kamar boylab zulfingdin, et bandalik,
Uning shodligi senga farxundalik.

Kim seni istasa o'shandin boshqa,
Zulfing deb boshini uradi toshga.

3065 Qulog'ingda gar halqayi zar erur,
Iskandarsiz eshik halqasi bo'lur.

U birlan bizga yana Doro yetar,
Chu bizga Dorodek madoro etar".

Qabul etdi bu taklifni dilnavoz,
Rozi bo'ldi, gar etsa-da sharmu noz.

Parizodani aylab gulgun chiroy,
Taxti ravonga o'tqazib misli oy,

Podshoningxos xobgohiga eltdilar,
Atrofiga zarrin parda tortdilar.

3070 Iskandar saxovat eshigin ochdi,
Sovg'alar ulashdi, siymu zar sochdi.

Shohning haramgohiga yurdi ona,
Gavharni dengizga topshirdi ona.

Dedi: "Buyuk shohlar naslidin chunon
Yagona nishondir bu sarvi ravon.

Bebaho gavhardir qizim men uchun,
Topshirdim uni shoh kuyovga bugun.

Etimdir, otasin qizim yo'qotmish,
Mulku viloyati qo'lidin ketmish.

3075 Olgin, panohingga topShirdim uni,
Hukmi adolatingga berdim uni".

Shahanshoh qabul ayladi onadin.
Bezatdi tojini ul durdonadin.

Savsan manziliga yetishdi shamshod,
Chamandin joy oldi ul sarvi ozod.

Ajab yoqut edi, la'luyi shahvor,
Gavhar olardi nozidin Shahriyor.

Parichehra chehra edi Ajam dilbari.
Chiroyiga parvona erdi pari.

3080 Sarv ibrat olardi raftoridin,
Shakar sharbat so'rardi guftoridin.

Ohu ko'zi jafochi erdi har dam,
Yana dardga davo aylaguvchi ham.

Tirsagi qisqayu soch, bo'yni uzun,
Labi shakar, qaro xolida fusun.

Zanax soddayu bejirim g'abg'abi,
Shahlo ko'zi gulob chashmasi kabi.

Jigardek xunobga g'arq edi o'shal,
Qoshlar go'zal edi, kipriklar go'zal.

3085 Lablaridin goho to'kar edi tuz,
Xastalar tuzalib, bo'lardi durust.

Har xandasi labdin shakar sochardi,
Shakarkandalarga maydon ochardi.

Yuzi gul edi, gul suviga yuviq,
Beli ingichkayu ko'ksi qabariq.

Jingalak sochlari sochib mushki nob,
Soyasida ul chashmayi oftob.

Sikandar ko'rib chashmayu soyani,
Ko'ngil manzilgohi deb bildi ani.

3090 Mehrligohi xush keldi unga.
Yuragi o'ynadi, bosdi bag'riga.

Zulfi zanjirini bo'yniga soldi,
Baxti. komi dilin qo'yniga oldi.

Ravshanakdin ravshan bo'lib joni ul.
Jannatdin ravshan edi ayvoni ul.

Jahonbonu deya unga qo'ydi nom,
Etardi har lahza izzat, ehtirom.

Uni sharmu hayo ila sevardi,
Aytilmas so'zlardin tilni tiyardi.

3095 Saltanatning barcha kelitin unga
Berib, yetgan edi toji gardunga.

Bir soat ko'rmasa, sog'inib hamon,
Sabri tugab, oshiqardi ul tomon.

Jannatdek bir diyord qo'ynida sokin,
Jannat huri bilan surdi rohatin.

Subhidam kunduzning chehrasin ochib,
Xutan Habash xati uzra xat chekib,

Ko'zalarda sharob qaynab shasht ila,
Bir sado uchardi: "Simir, no'sh ayla!"

3100 Ko'zalarki, xo'rozmand, tovsudum,
Jomlarni to'ldirar edi limmo-lim.

Shoh bazmida may birla ohangi chang
Dunyoga baxsh aylardi o'zga bir rang.

Etti o'lka shohi kayon rasmi-la.
Etti ko'zli kamar boylab beliga,

Quyoshdek taxtiga chiqib o'ltirdi,
Falak ham bel boylab xizmatda erdi.

Chiqdi avjiga bazm, sozu nozu no'sh,
Ko'rganning boshidin uchar edi hush.

3105 Munosib kishilar, ul majlis oroy,
Qadri hunariga ko'ra olib joy,

Mutrib soz yangratib, to'kardi shakar,
Soqiy qadah tutib, jonni yayratar.

Jaranglab rud ila rubob unlari,
Barcha havaslarni surardi nari.

Sikandar saxovat ko'rsatib yalang,
Xazina eshigin yana ochdi lang

Eroniy sipohiylarni ganj ila
Etagin to'ldirdi, kulohin yana.

3110 Go'yoki jahonni yashnatib butun,
Shohona to'nlardan taraldi husn.

Quyosh ko'k toqiga chiqarkan baland,
Bo'lurlar nuridin barcha bahramand.

Baland oftob bo'lar ekan ganjbaxsh.
Bitmas bir lahzada chaqinga o'xshash.

Jahondor saxovatli bo'lsin faqat,
Saxodir podshoga yarashiq xislat.

Iskandarning podsholik taxtiga o'ltirgani Soqiynoma

Ketur, soqiy, mug'larning shabcharog'in,
Daf ayla ko'ngilning ohi-firog'in.

3115 Charog'ki, ko'zlar andin ravshan erur,
Ko'ngilning uning nuri-la gulshan erur.

Pandu hikmat

So'yla, ey so'z, bu kimiyoying nadir?
YaratguvChing kimdir, nechuk kimsadir?

Sendin necha naqshu nigor yaralmish,
Lekin hanuz bir harfing eskirmamish.

Agar turar esang, qayda qaroring?
Magar yurar esang, qayda diyoring?

Bizdan chiqib, bizga hamroh emassan,
Suvrat ko'rsatarsan, paydo emassan.

3120 Ko'ngil farmoningga hoziru nozir,
Til esa devoning amaldoridir.

Bilmadim, nechuk bir qushsan, go'zalsan,
Bizdan yodgor bo'lib qolguvchi sensan.

Ha, so'zdir bu, yuksak dunyosi uning,
Kasodga uchramas ashyosi uning.

Qimmatbaho matohga yo'vdir kasob,
Kelsa, faqat hasaddin kelgay fasod.

Ketur, ey suxanvar, tarat atru bo'y,
So'zning bisotini joy-joyiga qo'y.

3125 O'tgan buyuklardin so'z ochib bugun,
Oshuftalarga sochgil sehru fusun.

Doston

O'tmishni naql etguvchi ul nuktadon,
Yaxshi andisha, xush rag'bat aylabon.

Bo'yla xushxabar berdiki, Shahriyor
Isfahon shahrida bo'lib baxti yor,

Feruza charx omad aylagach tortiq,
Isfahon shahrida turmadi ortiq.

Qayumarsu Kayqubodning manzili,
Istaxra sari yurdi toj kiygali.

3130 Eron mulki orasta bo'ldi andin,
Bahodirlar qudratiga to'ldi andin.

Ulug'lar olqishlab tabrik etdilar,
Yana yangi yuksaklarga yetdilar.

Soqchilar sohdilar taxtiga loyiq,
Har biri shohona baxtiga loyiq.

Nil ibtidosidin nahri Gang qadar,
Chin Shurobidin Talxobi Zang qadar.

Ellardin elchilar keltirdilar boj,
Muborak, dedilar shohga taxtu toj.

3135 Shoh zarrin taxtiga chiqqani zahot,
So'z ganjiddin qo'rg'on ayladi bunyod.

Dedi: "Yaratganga shukronu ixlos,
O'zi shukr etguvchi etdi, haqshunos.

Mendek bir bandani, bolishimdir xok,
Falakka ko'tardi misli nuri pok.

Eronga keltirdi, yurtim erdi Rum,
Farmonimdin toshlar erib bo'ldi mum.

Andoq bir maqomga yetkazdi osmon,
Kajavanni tashiydi charxi davron.

3140 Saboq oldim Yaratgandin, marhamat,
Adolat yo'lida bo'lurman faqat.

Sitamdiydalarni xursand aylagum,
Qorong'u tunlarni ravshan aylagum.

Gar aqlu vafo rahnamoyim mening,
Salohi jahon muddaoyim mening.

To'g'ri yo'lni bugun aylasam shior,
Ertasi kunimdin ogohligim bor.

Hisob kuni qo'rquvi ko'nglimdakim,
Parhezkorlik ila etarmen hukm.

3145 Quدراتli fildin to chumoli qadar,
Bir kimsa ilkimdin ko'rmagay zarar.

Birovning moliga ko'z tikmam aslo,
Har necha istasam, izmimda tillo.

Garchi xalqdin ozor chekarmen base.
Ammo mendin ozor chekmasin kase.

Shahru qishloqlardin olmasmen xiroj,
Viloyatlardanam so'ramasmen boj.

Agar yig'sam jahondin oltin, kumush,
Har kimsaga berarmen andin ulush.

3150 Berarmen har kimga davlatdin kalit,
Har kimga mashg'ulot berib shu taxlit.

Hunarmandning boshin ko'targum baland,
Devonaning poyiga solgum kamand.

Ayamasman tekinxo'rlarni hecham,
Qashshoqlarga etgayman lutfu karam.

Tani salomatlar yurmasin bekor,
Qo'li ishda bo'lsin har joyda zinhor.

Ko'rsam, birov duchor turmush ranjiga,
Topgani yetmagay etgan xarjiga.

- 3155 Lutfimdin umidvor qilurman albat,
Xazinamdin unga bergaymen madad.

Dinu donish ila yozib xatimni,
Bozorda ko'rsatgum adolatimni.

Hech kimsadin qo'rquv bilmasmen, biroq,
Bu dunyoda meni qo'rqitar qo'rqoq.

Yalqovlarga shafqat etmasmen aslo,
Afv aylagum gunohkorlarni hatto.

Jahonni saxodin etib orasta,
Go'zal so'zga tutgum go'zal guldasta.

- 3160 Sitamni arodin ko'targum tamom,
Bechoraparastmen davomdin-davom.

Nogahon bir yomonlik etsam o'zim,
Evaziga yuz yaxshilik aylagum.

Jazosin bergayman xalq etsa gunoh,
Navozish etarman bo'lsa uzrxoh.

Bosh ko'tarsa dushman, urgum bo'yniga,
Bo'ysunsa, tahammul etgaymen unga.

Yaxshilik har nafasda mandin kelur,
Yomonlik hamisha dushmandin kelur.

- 3165 Men bir g'alvir bo'lib elarman donni,
Saralab, xaltaga solarman donni.

Chig'irman, quduqdan suv tortib chunon,
U yoqdin olarman, to'karman bu yon.

Har neki tig'imdan bo'lmishdir baland,
Uni savalayman qamChinim bilan.

Qilichim jahonni amriga olur,
QamChinim dag'i o'z izmiga solur.

Etdim toju taxtni o'zimga suyanch,
Toki mazlumlarga bo'lgaymen tayanch.

3170 Tanim bulutdandir, quyoshdan, yohu,
Bir qo'limda olov, bir qo'limda suv.

Tosh uchrasa, ushatgayman beomon,
Ekin uchrasa, suv taratgum hamon.

O'zimcha kelmadim Rumdin bu yerga,
Xudoyim jo'natdi meni bu elga.

To botilni haqdin ayirgum aniq,
Solgaymen har nechuk qulfga ham kalit.

Haqshunoslarga baxsh etib nuri pok,
Botilparastlarni etgaymen halok.

3175 Dunyoning husniga husn qo'shgayman,
Charog'ni yel bilan yarashtirgayman.

Devni farishta aylab har xonadin,
Xazina chiqargum har vayronadin.

Qayda adolatim bo'y cho'zsa chun sarv,
U yerda loChindan qo'rqmagay tazarv.⁹⁴

Unda bo'ri bo'lur qo'ylarga cho'pon,
Ohuga hech xatar solmas arslon.

Yomonga yaxshilikdin aylab saboq,
Yaxshidin yomonlikni tutgum yiroq.

3180 Kimning boshin magar ko'tarsam baland,
Oyoq ostiga so'ng uni tashlamam.

O'zim tilka-pora etsam kimsani,
Keyin yirtqichlarga bermasman uni.

Zahar berib, o'ldirmagaymen nihon,
Tig' chekib o'ldirgaymen oshkor, ayon.

Jahonso'zlikka yo'q sira toqatim,
Sababsiz bir xirmonni hech yoqmagum.

Bir kimsaga shikast aylamam zinhor.
Agar shikast etsam, mo'miyoim bor.

3185 Biror ko'zga mendin yetishsa zaxmat,
To'tiyo tutarman o'shanga albat.

Bu ishda Xudoyim yor bo'lsin mudom,
Yomon ko'zdin o'zi asrasin mudom".

Shoh dasturin bayon etarkan bir-bir,
Eshitganlar bari aytdilar takbir.

⁹⁴ Tazarv – tustovuq.

O'shal anjumanda erdi necha kas,
Shohni mulzam etmoqqa shay har nafas.

Necha bilfuzul erdi, behudago'y,
Necha bulhakim erdi, devonaxo'y.

3190 Biri fitnagar erdi shaytondanam,
Shohni sinov etmoqchi bo'ldi shu dam.

Dedi: "Shohim, bir diram bergil. o'shal
Bir mamlakat bergandan ortiq bo'lar".

Jahondor dediki: "Hay, bundan ko'ra,
Shohning qadriga loyiq ne'mat so'ra".

So'rguvchi dedi: "Bermoqqa bir diram
Xijolat chekar shoh, degay muncha kam.

Mulki olamni baxsh aylasin menga,
Boshim osmonga yetdi, derman anga".

3195 Yana shoh dediki: "Ey aftodahol,
O'zingga yarashiq bermading savol.

Ikki hojat so'rding o'y-lamasdan xo'p,
Biri menga kamdir, biri senga ko'p.

Har so'zning bir tayin andozasi bor,
Behuda so'zlarni so'ylash ne darkor?

Qoshga tugun solsa aytganing agar,
Ofarin bo'lsa ham aytmagan afzal".

Yana savol so'rdi o'sha besabr:
"Nechun sen balanddayu xalq pastdadir?

3200 Barobarmiz, dersan, hama do'stu yor,
Nega o'zing balandda tutding qaror?"

Shoh dedi: "Men boshman, izmimda guruh,
Bosh pastda bo'lsa gar, bo'lmagay shukuh.

O'simlik boshi past bo'lgani ma'qul,
Odamiyning boshi baland bo'lsin ul.

Kerakdir shoh maqomi bo'lsin baland,
Toki ko'zlar bo'lsin andin bahramand".

Boshqa bir donosi dedi: "Shahriyor,
Xiradmandga zebu oro ne darkor?"

3205 Ko'nglingda ersa ul ilohiy ziynat,
Shu tuproq taningga ziynat ne hojat?"

Shoh dedi: "Shahriyor yasansa har gal,
Ko'rguvchi ko'zlarga rohat bag'ishlar.

Men o'zimni bezab, gulshan etarman,
Andin ko'zingizni ravshan etarman.

Ko'rmaysizmi, gul ochsa gar navbahor,
Nazdingizda ravshan tortar ro'zg'or".

Bundoq javoblardin anjuman ahli
Ko'ngilga gavharu injular oldi.

3210 Duolar etdilar shohning joniga,
Jonlarni boylab yana paymoniga.

Ajab bahralarkim andin topdilar,
Amrin ado aylamoqqa chopdilar.

Subhidam jamshid oyini birla shoh
Tuxtiga o'ltirar edi doimo.

O'tganlar rasmiga aylab rioyat,
Navozish etardi xalqqa bag'oyat.

Maktub yo'llar edi necha diyorga,
Necha hukmdorga, necha sardorga.

3215 Maktubda adlini naqsh aylar edi,
Tinchlik va omonlik baxsh aylar edi.

Jahonni amriga etar edi rom,
Rom etarkan, sira bilmasdi orom.

Iskandar Ravshanakni Runga jo'natgani Soqiynoma

Ketur, soqiy, ul bodayi la'lrang,
Yo'lim toshloq kelib, holim bo'ldi tang.

Bir toshloqqa, madad yetishsa sendin,
Yoqutdek tovlanib o'tardim andin...

Pandu hikmat

Falak tevasini surar jadallab,
Har kuni bir o'yin ko'rsatur ajab.

3220 Ki har lahza bir sulhu jang aylagay,
Xayolini bir o'zga rang aylagay.

Barcha mavjudotga ko'z solsang agar,
Avvalgilarga hech o'xshamas ular.

Bas, parvarish etarkan Parvardigor,
O'zga surat olur bunda har nigor.

O'ylama, biz uyquga ketgan kezi,
Bu xona buzilib, xarob bo'lgusi.

Garchi kechagilar bugun kam erur,
Olam o'sha muayyan olam erur.

3225 Ne qilaylik, do'stlar nihon bo'ldilar,
Yoronlar uqboga ravon bo'ldilar.

Sen ham tadoriging ko'rmasang, bo'lmas,
Do'st degan do'stlardin orqada qolmas.

Garchi yo'lda yomon yursa ham, beshak,
Etgay oxuriga har oqsoq eshak...

Doston

Naql ayladi ul arbobi aqlu hush,
Ki shohlar taxtidin zulm kelmamish.

Sikandar jahonni musallam etdi,
Ayshu farog'atin ammo kam etdi.

3230 Salohi jahonni o'yladi yakka,
Jahon ham ul sabab keldi ko'makka.

Sen ham jahonga shoh esang, qil davom,
Iskandarning etganin et, vassalom.

Jahon mulkini mulk etib nomiga,
Falak aylanardi uning komiga.

Habashdin Xuroson, Chindan toki G'ur,
Kuch ishlatmay, amriga olmishdi ul.

Elchilar har o'lkaga yetmishdilar,
Noh nomiga tanga zarb etmishdilar.

3235 Jahondor sher bo'lsa hamki aslida,
Jahonni tutardi qilich ostida.

Eronga e'timod etmasdi bir zum,
Derdi: Rumda rohat yashar ahli Rum...

Bir kecha osmondin iqbolin so'rab,
Iqbolidin ishorat oldi ajab.

Vazirini chorlab, ayladi bayon,
Etdi o'shal sirri nihonin ayon:

"Garchi Eron mulki erur davlatim,
Bu yerda qolishga yo'qdir rag'batim.

3240 Ko'nglim jahon sayrini aylar havas,
Jahon sayridin o'zgani istamas.

Ko'rsam deyman toki shu dunyo nadir?
Mendan-da qudratli kimsa bormidir?

Ko'rgaymen yana shu amalda savob,
Dunyoni kezmakka aylarkan shitob,

Zaru zavarimni Rumga jo'natsam,
Qudratimni unda ustuvor etsam.

Kim bilar, kelgaymu kelmagay omad,
Ko`za chiqavermas suvdin salomat.

3245 Balki bir nobakor olar taxtimni,
G`anim toroj etar ganju raxtimni.

Jahonda bo`yla dardisar kam emas,
Yo`llarda xavf ila xatar kam emas.

Sen Yunonga borib, qoyimmaqom bo`l,
Menga ma`qul erur bu royish, bu yo`l.

Tutgil mulkimizni fitnadin yiroq,
Oy degan quyoshdin nur olur porloq.

Olib ket Ravshanak dildorimni ul,
Davlat ishlarida madadkor bo`lur.

3250 Aqlga suyanib ish ko`rganing dam,
Yaxshini unutma, yomonlarni ham.

Noibsan, o`rniga qo`ygil dinu dod,
Meni yaxshilik-la faqat ayla yod.

Ulug`lar ichida seni sayladim,
Munosib ko`rdimu noib ayladim`.

Vazir ishga solib so`z san`atini,
Namoyish ayladi mahoratini.

Dediki: "Omon bo`lsin Shohi jahon,
Farmoni vajahidin yo`llar charog`on.

3255 Qadri zamon ichra ziyoda bo`lsin!
Baxti xizmatiga omoda bo`lsin!

Ne yaxshi tadbirga shohim etdi ra'y,
Ertani ko'rganlar ziyon ko'rماغay.

Har neki buyurdi shohim menga ul,
Kamar boylab belga, bo'lurman mashg'ul.

Shohim, alohida aytaman shuni,
Hisob-kitob ayla hamma narsani.

Uzoq manzillarga ketar ekan shoh,
Yana qaytib, yurtga yetar ekan shoh,

3260 Amru farmon etish qiyinmas unga,
Topshirsin jahonni vafo abliga.

Jahonga bir kishi ega bo'lolmas,
Uni bir kishiga ishonib bo'lmas.

Jahonda kam emas mulk ila davlat,
Unda har kimsaga tayin bir qismat.

Xudo bergan qismatingni ayla rom,
O'shal qismatdadir senga yaxshi nom.

Tarafdor bo'larkan farmoningga ul,
Taraf-taraf kirgay imkoningga ul.

3265 Tuprog'ing dushmanlar uyi bo'lsa ham,
Jilovni qo'lingdin bo'shatma bir dam.

Begona tuproqni makon aylama,
O'zingni u yurtga ortiq boylama.

Uni qo'lda tutib turolmagaysan,
Vorislaringga ham berolmagaysan.

U mulkning g'alvasi, g'alvosi ko'pdir,
Dalil, hujjati bor, da'vosi ko'pdir.

Sen u yurtda andoq tortib aylakim,
Bo'lmasin rumiydin o'zgasi hokim.

3270 Kayon mozoridir Ajam tuprog'i,
Uzoq bosolmagay yotlar oyog'i.

Necha yillar omon-omon ichrasan,
Jahonda nomingni ko'targil baland.

Hamon qaytar esang ona tuproqqa,
Ishni shitob ayla, cho'zma uzoqqa.

Malikzodalarning yorit chebrasin,
Falak aylanarkan, seni asrasin.

Har o'lkaga o'zing podsho tayin et,
Talabgora tayin ma'vo tayin et.

3275 Har o'lkani shohga giriftor ayla,
Har yerni o'zingga tarafdor ayla.

Qo'rqaman, eroniy oyoqqa turib,
Doroning qonini so'rmasaydi deb.

Lashkar tortmasa deb Yunonu Rumga,
Duchor bo'lmasaydik yana hujumga.

Har biri ayricha aylasa shohlik,
Bir-biriga etar kiyna, badxohlik.

Har biri o'z mulkiga mashg'ul bo'lur,
Bizga ziyon etmagi mushkul bo'lur.

3280 Dushman bizga cho'zarkan toroj qo'lin,
Shu tadbir ila biz to'sarmiz yo'lin.

Kiyna solma biror mulku mardumga,
Kiynaxohlarga hech yo'l berma Rumga.

Shohlar qon to'kmasin, qo'ymagil zinhor,
Aroga tushmasin fitmayi xunxor.

Yovuzlarning to'kkan qonidin, ishon,
Siyovush qonidek qolmagay nishon.

Behuda qon to'kib, aylama jabr,
Senda gar qon esa, falakda shamshir.

3285 Bobolar na go'zal so'ylamishlar, hay,
"Ziyon etmaganga ziyon yetmagay".

Kamozor bo'l, andin hama dog'u dard,
Kamozor bo'lsa, ozor chekmagay mard.

Birovni kamsitma, kamsitmas o'sha,
Boshqalarni yashat, o'zing ham yana!"

Vaziri so'yladi andoq xayrixoh,
So'zi ma'qul bo'ldi, qabul etdi shoh...

Kumush tos og'zini ocharkan gardun,
Qora qarg'a tuxum tug'di tillodin.⁹⁵

3290 Magar mo'bad'i pir necha bir davron,
Shu tosu tuxumdin aytmishdi doston.

⁹⁵ Ya'ni tong oldi.

Jahondor buyurdi: zud kelsin vazir,
Safar jabdug'ini aylangiz hozir.

Porsiy kutubxonada har neki bor,
Ishorat ayladi. Oling deb zinhor.

Har ilmdan tizib dur ila gavhar,
Har hikmatdin tuzib necha bir daftar.

Yunonga jo'natsin tarjimon ila,
Desin: tilimizga tarjima ayla!

3295 Yana shohdin dastur yetishdi qo'lga,
Ki qo'sh otda chiqsin Rum sari yo'lga.

Ravshanakni yo'lga boshlasin shu dam,
Olsin gavharlaru daftarlarni ham.

Shoh amrini aylarga bosh qo'shdilar,
Yunon zamin sari yo'lga tushdilar.

Ravshanak bo'yida yuki bor edi,
Chun sadaf ichra durri shahvor edi.

Karvon Yunonzaminga yurgan sayin,
Yuki og'irlashdi zebo sanamning.

3300 To'qqiz oy kechdi, yetdi muddat magar,
Jahon ko'rdi gavhardin yangi gavhar.

Nomini qo'ydilar etib madhbo's,
Iskandar farmoni-la Iskandarus.

Arastu ul dasturi dargoh edi,
Yunonzaminda noibi shoh edi.

Malikzodani asrabon yozu qish,
Etar edi jonu dildan parvarish.

Safoli ruhini nozu no'Sh ila,
Navoli dilin ilmu doniSh ila.

- 3305 Tasavvur et, ne barnolar keldi chun,
Bari tuproq ostida topdi yakun.

**Iskandar mag'rib sari yurib,
Ka'bani ziyorat etgani
Soqiynoma**

Ketur, soqiy, mayingni, mehnatdamen,
Menga tutgil uni, mashaqqatdamen.

Maying bir dam huzuri jonim berar,
Mehnat, maShaqqatdin omonim berar...

Pandu hikmat

Yaxshidir har folni xayrga burmoq,
O'yinda ruxnimas, shahruxni urmoq.

Yiqilganda baland ko'rsatmoq o'zni,
Sochilganda yig'ib, jam etmoq o'zni.

- 3310 Sham kabi ich-ichdan jigarni yoqmoq,
Zohirda sevinib, shodlanib boqmoq...

Ojiz qolar ekan birbechorahol,
Folchiga yugurar ochdirgali fol.

Ba'zan kalit izlar toshu tuproqdin,
Bilar, temir unar toshu tuproqdin.

G'ayb eshigin ochmoqqa etgil umid,
G'aybdin xabardor anga solgay kalit.

Folni xayrga bur, ishongil anga,
Yaxshi fol yaxshilik keltirar senga.

3315 Oriqman demagil, to'lishar taning,
Yaxshiman deganing yaxshi bo'lganing.

Bizdan – qur'a tashlab, umid boylamak,
Yaratgandan – kuru amal aylamak.

Bu pardada insof madadkoring ul,
Hazir bo'l, pardani qiyshiq tortmagil.

Ko'nglim, parda tor keldi, yor bo'l menga,
Pardamni yirtma, pardador bo'l menga.

Doston

Go'zal baytlarimni ravon so'ylagan,
Ziynatimdin zebu oro aylagan.

3320 Habar berdikim, ul saodatli shoh
Chodir tikib, yetkazdi gardunga to.

Har o'lkani xiroj unga jo'natdi,
Bahodirlar ila Runga jo'natdi.

Jahon makridin bexavotir bo'lib,
Yashardi sayohat zavqiga to'lib.

Jahonni adliga makon etdi u,
Uni yod mayin ichmasdilar suv.

Sikandarkim farrux jahondor edi,
Tunu kunlar o`rnida bedor edi.

- 3325 Jahon sozida etdi sozandalik,
Navosi jahonga navozandalik.

Jahon hukmida erdi gar erta-kech,
Ko`ngilga nopisand ish etmadi hech.

Yaxshilarga sira bermadi ozor,
Tinchlik. omonlikni ayladi shior.

Agar bir yomonni yo`qotar bo`lsa,
O`rniga tanladi yaxshiroq kimsa.

Agar bir shaharni aylasa vayron.
O`rniga tiklardi yangi bir qo`rg`on.

- 3330 Zamona ko`rdi necha shohu ravish,
Uni obod, buni xarob aylamish.

Iskandarkim etdi imorat bari,
Ko`r, qaydin qayga saddi iskandariy.

Chinning sarhadidin to haddi Qirvon,
Dargohiga elchilar erdi ravon.

Podsholar vasiqa olardi andin,
Haqtalablar kelardi har o`lkadin.

Ne-ne o`lkalardin uzoq yo`l bosib,
Tuhfalar kelardi unga munosib.

3335 Mirzolari chekib shunda mushki nob,
O'sha o'lkalarga yozardi javob.

So'ng oradan zamon kechdi bir qadar,
Zaminga bosh urdi osmon qanchalar.

Sikandar amr etib ahli a'yonga,
Tadorik boshladi sayri jahonga.

O'qigandi arab hunarnomasin,
Yurakka to'kkandi orzu-havasin.

Ajamdin so'ngra orzu etmishdi ul,
Avval arab, keyin hinda sari yo'l.

3340 Ka'bani ko'rishni etgandi xayol,
Xayolida edi ul oftobjamol.

Chu mulki Ajam shohni rom ayladi,
Tulporini arab sari haydadi.

Xirvor-xirvor tilloni yuklab shu dam,
Yurdi, biyobon sari qo'ydi qadam.

Arab peshvolarin chorlab yoniga,
Zar berib, bo'ysundirdi farmoniga.

Ko'rib lashkarini maydonda hozir,
Arablar bari bo'ldi farmonpazir.

3345 Toziylar yurtida ot surdi chunon,
Andin toziylarga yetmadi ziyon.

Har manzilda qo'nim topgani mahal,
Nozu ne'mat to'kib, mehmon qildilar.

Taomlar ustiga taom keltirib,
Suruv-suruv qo'y-qo'zilar berib,

Har kimsa holiga yarasha ani,
Tutdilar shohga molu ganjinani.

Arabiy otlarni peshkash etdilar,
Necha og'uli shamshir baxsh etdilar.

3350 Nayzalar ham ehson etdilar shu tob,
Ki ularga qondin berilmishdi tob.

Yana nortuyalar, teva, butaloq,
Sahroda yugurik bari, yeloyoq,

Charmlar, matohlar necha g'aroyib.
Ham jinsi javhar edi, ham jinsi tib,

Oqib kelar edi shoh dargohiga,
Qo'shildirdi ulush bo'lib johiga.

Jahondor ham shunda xazina ochdi.
Xirvor-xirvor ganju guharlar sochdi.

3355 To'ldirdi biyobonni atlasga ul,
Zamin yoqut ila qoplendi butkul.

Keyin Ka'ba sari yuzlandi hamon,
Hajning amalini o'rganib o'bdon,

Olam markaziga qo'ydi ul qadam,
Kashf etdi andin necha markazni ham.

Gardun pargoridek o'sha dargohda
Yurib, qadam-qadam bordi piyoda.

Tavof aylamaklik rasmiga o'tdi,
Etib, baytul haram halqasin tutdi.

3360 Ka'ba eshigini o'pib shu zahot,
Yaratgan Allohni avval etdi yod.

Boshin urib so'ngra ul ostonaga,
Zar berdi yo'qsul, zoru giryonaga.

Ganji sarvatini ayladi ravon,
Tevalar ham berib chun karvon-karvon,

Solihlar uyida makon tutdi ul,
Xudovandga ibodatlar etdi ul.

Xonayi Ka'bani gavharga ko'mdi,
Ziyoratgohni mushk, anbarga ko'mdi.

3365 Bas, ziyorat rasmin bajo ayladi,
Yamar terisin zeri po ayladi.

Yamanni yashnatdi aylab mehru mayl.
Yaman terisin iylagandek Suxayl.

Yo'l bosib bordi so'ngra mulki Iroq,
So'ng yurtga qaytishga etdi ishtiyoq.

Shunda elchi yetishdi bir sultondin.
Maktub keltirmishdi Ozarbayjondin.

Ki "Ey shohim, jahonni rom aylading,
Zulmu sitam borin tamom aylading.

3370 Etding o'lkalarni xursand, baxtiyor,
Armanga etmading nechun e'tibor?

Sendin yiroq bo'lmagan bir sarhadda,
Nechun yashar qorong'uda, zulmatda?

Armada xalq otashparastlik etar,
Bosh egib boshqa shohga, pastlik etar.

Abxozda bor Od naslidin pahlavon,
Qudrati Rustamni eslatur hamon.

Ismi Davolidir, javlon ursa, hay,
Arslon tanidin tasmalar olgay.

3375 Arman botirlari unga tarafdor,
Bel boylab, hamisha xizmatga tayyor.

Uning hurmatiga icharlar boda,
Viloyat boji ham unga omoda.

Gar hujum etmasang, shohim, tuyqusdan,
Bu o'lkani tortib olishar bizdan".

Jahondor angladi, ahvol ne erdi,
Qo'shinni Bobuldan Armanga surdi.

Yuvdi o'shal yurtning chang-g'uborini.
Armanga qaratdi e'tiborini.

3380 Yomon rasmu odatlarga chekdi band,
Otashparastlikni otdi o'rtadan.

Abxozga ul Shabexun urdi keyin,
Zarb ila ochdi abxoziy eshigin.

Ulkan nog'oralar qoqildi yana.
Nayzalar osmonga otildi yana.

Har qal'a ko'karkan boshida bulut,
Qal'a kalitini taqdim etdi zud.

Davoli – sipohdori abxozbum⁹⁰
Bildiki, kelmishdi Shahanshoi Rum.

3385 Xizmat kamarini belga boyladi,
Shohga sadoqatin ayon ayladi.

Sikandar qo'lini o'pmoqqa shu on,
Karvoni xos tuzib, yo'l oldi ravon.

Keltirdi ganju mol shohi jahonga,
Topshirdi ularni xazinabonga.

Dargohga kirdiyu hamon o'pdi xok,
Ko'nglin kiynu adovatdin etdi pok.

Sikandar ham unga boyladi ko'ngil,
Ko'rdiki, mardi ozodmard erdi ul.

3390 Navozish aylabon dedi: ofarin!
Taxtining yonidin ko'rsatdi o'rin.

Yumshoq ovoz ila so'rdi holini,
Shirin so'zlab oldi yana ko'nglini.

Buyurdi, to xazinaboni jadal,
Unga deb bir fil uzra ortsin guhar.

Keltirsin dag'i xil'ati Shahvor,
Bo'yniga munosib tavqi shu'lavor.

⁹⁰ Abxozbum – abxaz yeri.

Hariru la'lu yoqut, shamshiru jom,
Keltirsin ziynati podshohiy tamom.

3395 Shoh har ne buyurdi, uni birma-bir
Xazinabon yelib, ayladi hozir.

Duvolining kulsin deb baxt yulduzi,
Shohi to'n kiydirdi Sikandar o'zi.

Tavqi zar ila toji gavharnishon
Ehson etdi yana ul shohi jahon.

Duvoli qo'lini ochdi duoga.
Shohni alqab, shukur dedi Xudoga.

Dediki, shohimga sodiq bandaman,
Bo'yin egib, boshin ko'tardi baland.

3400 Shohning xizmatini ayladi pesha,
Shohning xizmatida bo'ldi hamisha.

Podshoparastlikda xos bo'ldi chunon,
Jumla xossalardanam o'zdi tamom.

U joylar ko'rindi podshoga bog'dek,
Ko'zlari porladi ravshan charog'dek.

Dunyoga ul mamnun nazarin soldi,
Tinchligu rohatdin bahralar oldi.

Chunon so'ylamishdi bir dehqoni pir:
Tiflisni shoh qayta ayladi ta'mir.

3405 Ko'rdiki, bu tuproq bihishtdek edi,
Tunu kun yaxshilik urug'in ekdi.

Buyurdi, qurganda imorati xos,
Rum oyini ila qo'ysinlar asos.

So'ng o'shal manzildin o'tib ma'voga,
Shikor aylagali yurdi sahroga.

Ikki hafta yurdi kezib tog'u dasht,
Ov ovlab, yo'l o'lchab, base etdi gasht.

Shikor aylamoqdin to'ydi, hoynahoy,
Barda No'shobasi sari etdi roy.

3410 Uning ta'zimidin xabardor edi,
Molu mulki, davlati bisyor edi,

Bahra olib ko'klam nabototidin,
Keldi bir chamanga, tushdi otidin.

Barda podshosi no'shoba dostoni Soqiynoma

Ketur, soqiy, mayingni, jonparvar ul,
Tashnaga ziloldek durru gavhar ul.

Chanqog'imdin bitdi sabru toqatim.
Ber menga, may ichish bo'ldi odatim...

Pandu hikmat

Xusho mulki Barda, go'zal, gul inakon,
Yozida savsandir, qishda ham rayhon.

3415 Saraton payti tog' lolasi o'ssar,
Zimistonda bahor nasimi esar.

Bog'u bog'chalari bihishtga o'xshash,
Etaklari obi kavsarga tutash.

Atroflari ko'klam, yashnagan chaman,
Bog'i Iram deysan, bog'i yosuman.

Tustovuq, kakligu durroj har zamon
Sarvu tol soyasin tutmishlar makon.

Osuda tuprog'i ajab tozadir,
Sarrin havolari ko'ngil yozadir.

3420 Har yili bo'stonida rayhoni mo'l.
Sufrada nozu ne'mati mo'lu ko'l.

Qushlar sayrgohi shu zamindadir,
Magar qush suti bo'lsa ham shundadir.

Zarga omuxtadir tuprog'i chunon,
Go'yoki ekmishlar bunda za'faron.

Kishi sayr etgisi kelarkan kunda,
Sevinchdin o'zgani bilmagay bunda.

Ammo bu go'shaning davroni kechdi,
Ipak, shohilari shamolga uchdi.

3425 U toza gullarni qurshadi xazon,
U noru nargisdin qolmadi nishon."

Qolgani xoru xas, sellar o'zani,
Kishi ko'rolmagay bundan o'zgani.

O'shal anvo chamanki, erdi yashnoq,
Adaolatdin unib o'sgandi andoq.

Gar yana parvarish topsa begumon,
Ajab gulshan bo'lur, bog' bo'lur, bo'ston.

Mayl etsayu fursat topsa mabodo,
Yana u doylarda ziynat berur shoh.

3430 Harum edi nomi, laqabi avval,
Keyinroq Barda deb ataldi o'shal.

O'shal tuproq aro, chun erdi obod,
Zamona yashirmish kshp ganju bisot.

O'shal xurram guliston qayda endi?
Javohir asragan kon qayda endi?

Doston

Yana shundoq so'zida etdi davom
U so'z xazinaboni, sohib kalom.

Ki hokim erdi, No'shoba nom anga,
Muyassar ishratu no'shi jom anga.

3435 Nar tovusdek gar yaxshilik emagi,
Urg'ochi kiyik erdi. yo'q erkagi.

Qat'iyatli, ravshandilu shirin so'z,
Malaksuratu farzona, ohu ko'z.

Minglab bokira qiz yashnab misli moh,
Hizmatiga hozir edi doimo.

Tag'in qancha kanizak, chobuksuvor,
Qilichboz navkarlari uch mingga bor.

Qanchalar qadrdon, yaqin ersa-da,
Eshigidin erkak kirmasdi sira.

3440 Bitardi xotinlar ila har ishi,
Erkaklarga tushmas edi tashvishi.

Kayvoni xotinlar bor edi, aqil,
Ish tutiShar edi saroyda ahil.

Qullari bor edi sodiq yurakdan,
Etmishdilar yaqin bir joyni maskan.

Malika qahridin qo`rqishib har dam,
G`ech biri shaharga qo`ymasdi qadam.

No`shobadan farmon bo`lsa agarda,
Ular jondin kechib kirardi jangga.

3445 Xush keldi iskandarga bu go`sha, ko`y,
Saropardasi cho`zdi osmonga bo`y.

Xurramobod edi bu yashil diyor,
Har yon chaman erdi, tutash ekinzor.

So`rdi: yashnagan bu tuproq kimga tan?
Podshosi kim uning, qaysi taham-tan?⁹⁷

Dedilar: "Bu tuproq, bu bog`i bihisht,
Bir oqilu dono ayolga tegish.

Ayoldir, erkakdin epchilroq erur,
Dengizdagi gavhardin porloq eurur.

⁹⁷ Taham-tan – pahlavon.

3450 Qat'iyatli, ravshandilu sarafroz,
Mashaqqat ayyomi raiyatnavoz.

Beliga kamar boylar mardonavor,
Kayon nasliman deb etar iftixor.

Podsho bo'lsa hamki yurar bekuloh,
Sipahdordir, yuzini ko'rmas sipoh.

Navkarlari bordir pahlavon jussa,
Lek ayol yuzini ko'rmamish kimsa.

Oq siynali, go'zal ayollar har chog'
Har ishda unga hamdamdir, ittifoq.

3455 Barisi ko'kragi qabariq, dilbar,
Oppoq mammasidin Shakar sut emar.

Har nafis atlasu harir ham albat,
Ularning husnidin chekar xijolat.

Farishta boqishga botinolmas, hay,
Botinsa, osmondin yerga yiqilgay.

Ulardin nurafshondir ayvonu bog',
Kunduz quyosh ular, tunlari charog'.

Yaqinu yiroqdin boqqanda ham, nur
Socharlar andoqki, ko'zlar qamashur.

3460 Quloqqa chalinib sho'x ovozlari,
Dilni maftun etar ishva-nozlari.

Quloq, bo'yinlarda gavhar yagoan.
Dudoqlar yoqitu tishlar durdona.

Bilmadim, ne sehr etmişlar andoq,
Gahvat balosidin qolmişlar yiroq.

Ufatlari yolg'iz may, ohangi soz,
Bilmaslar o'zga bir hamdamu hamroz.

O'shal farmonravo, pokiza xotin
Keltirmas ularga erkakni yaqin.

3465 Sanamxonalar bor saroyda ortiq,
Sanamlarga mudom eshigi ochiq.

Agarchi o'ltirar parda ortida,
Yashar yurti obodligi dardida.

Saroyi mulukonasi bor baland,
Bisotlar jami etmiş unda arjmand.

Billurdin taxt qurmish, ne taxti ajab,
Gavhardin zeb bermish, yonar yarqirab.

Taxt emas, mukammal husndir, chiroy,
Tunlari charog'dir yo raxshanda oy.

3470 Taxt uzra o'ltirib ul har bomdod,
Shukr ila aylagay Yaratganni yod.

Taxtida kelinchak yanglig' o'ltirar,
O'zga kelinchaklar xizmatda turar.

Kunu tunlar sharobu ohangi soz,
Moviyo ko'k ostida ishi no'shu noz.

Haqqa toat-ibodatdin tashqari,
Maishatdin bo'lak yo'qdir ishlari.

Ajabki, ul parivash, sohibi ganj
Berar taniga mundoq toat-la ranj.

3475 Parhezkorligi bois ul dilrabo,
Jannatdek ko'shkida uxlamas aslo.

Marmardin yasalgan boshqa ko'shki bor,
Tunlari ctar ul ko'shkni ixtiyor.

O'shal joyda shamdek o'tirib yolg'iz,
Ibodat aylar to yetguncha kunduz.

Istasa, ko'z yumar bir lahzaga tek,
Uyqusi magarki qush uyqusidek.

Ko'z ochib, paripaykarlar birla boz
Yana ishrat edi va ohangi soz.

3480 Kunu tunlar birdek kechardi shundoq,
Kechalar andog'u kunduzi bundoq.

Na kecha dil uzar Haqqi rahmondin,
Na kunduz qo'l chekar rohati jondin.

Ishu tashvishni ko'p o'ylamas pari,
Bajarur xodimu xizmatkorlari".

Dostoni yetarkan inti hosiga,
Shoh tushdi bir ko'rish tamannosisiga.

Ko'rdi oqar suvli, yam-yashil ma'vo,
Gavhardanam toza, ajab kimiyo.

3485 O'sha joyni maskan tutdi ul, maqom,
Keyin ishrat etdi necha subhu shom.

No'shobi eshitdi, ulug' Shahriyor
Yo'l usti shu manzilda tutmish qaror.

Ehtirom ko'rsatishga ahd ayladi,
Xizmatin etmoqqa belni boyladi.

Ko'rsatdi sidq ila e'tiborini,
Yubordi har neki sazovorini.

Qo'y-qo'zi yubordi, necha bir bedov,
Biri taom ersa, ul biri ulov.

3490 Yana shirin-shakar mevalar necha,
Rangi, tarovati tamom ayricha.

Shohona nozu ne'matlar ham talay,
Qo'l yuvishga mushku anbar bir talay.

Lazzatli yemaklar yubordi bisyor,
Yana Shahdu Shakardin xarvor-xarvor.

Tag'in mayu rayhoni majlisafruz,
TaShidilar paydar-pay, kecha-kunduz.

Mehtarlarga atab yana subhu shom
Jo'natardi o'zgacha totli taom.

3495 Andoq mehmondo'stlik ko'rsatdi ayol,
Ta'rif-tavsifiga tillar edi lol.

Uni bir ko'rishga shoh edi mushtoq,
Har kun oshar edi unda ishtiyoq.

Xabar topsam derdi uning rozidin
Mamlakatda joriy etgan sozidin

Qadamgohin ko'rsam, chun orastmidir?
Hikoyati yolg'onmidir, rostmidir?

Tun otiga zarrin na'l urdi kunduz,
Mindi tulporiga shoh, olamafruz.

3500 Elchi suratiga solib o'zni ul,
Nozanin saroyi tomon oldi yo'l.

Shoh saroy sahniga qo'yarkan qadam,
To'xtadi, nafasin rostladi bir dam.

Boshi ko'kka yetgan imorat edi,
Ham chiroy edi, ham salobat edi.

Soqchilar mehmondin xabar topdilar,
Bonuga yetkazmoq uchun chopdilar.

Dedilarki, shu onda Rum shohidin,
Bizda qo'nim topgan shoh dargohidin.

3505 Elchi yetib keldi, xujastasurush.
Ajab xushsurat, sohibi aqlu hush.

Bir so'z bilan aytsak, nodiri davron,
Osmoniy bir shukuh unda namoyon...

No'shoba eshitib buni shu zahot,
Zebu oro berdi saroyga ziyod.

Buyurdi, sarofda saf chekdi bari,
Bir-biridin zebo kanizaklari.

Harirga o'ranib, gavharga monand,
Tizildilar andoqki, mushkin kamand.

3510 No'shoba eshitib buni shu zahot.
Kirib keldi go'yoki ravshan charog'.

O'ltirdi ul Shahanshohlik taxtiga,
Muattar bir turunj erdi ilkida.

Amr etdi, tartibga rioyat etib,
ElChini kiriting huzurimga deb.

Xodimlar yugurib-elib shu asno,
Uning farmonini etdilar bajo.

Pinhon boqib qasri zeboni ko'rdi,
Ajab ko'shki bihishtosoni ko'rdi.

Huru parilardan orast bihisht
Yanglig' tuprog'i erdi anbarsirisht.

Go'zallar qulog'ida gavhar edi,
Qamashtirib ko'zlarni, chaqnar edi.

Yoqut tovlanardi, porlar edi la'l,
Ko'rguvchi erdi andin hayronu lol.

3520 Uning nazdida konu daryo baham
Hama gavharin etmishdi shunda jam...

Ko'rib, elchi o'zni tutganin botir,
No'shoba ko'ngliga tushdi xavotir.

Nechun, Rum shohidin elchi bo'lsa gar,
Elchilik, rasmiga etmagay amal?

Bu sirning tagiga yetmoq kerak, bas,
Nega bizni nazar pisand aylamas?

No'shobaning ortib shubha-gumoni,
Urdu mahatoshga sara tilloni.

3525 Sinchiklab ko'z solib u gulgun chiroy,
Tanidi, taxtidan berdi unga joy.

Bildiki, Rum shohi Iskandar erur,
Taxtga o'tirnoqlik unga yarashur.

Etti moviy osmon shukuhin tilab,
Salomu durudga sanam ochdi lab.

Boshqa bir so'z demay, ko'z tashlab qiyo,
Qizardi, ayon etdi sharmu hayo.

Bilganing ul bildirmadi shu taxlit,
Degandek, qulfingga toparmiz kalit.

3530 Iskandar ham endi erinmay bu gal,
Elchilik rasmiga ayladi amal.

Shahanshohdin unga yetkazib salom,
Keltirdi tilga necha shirin kalom.

So'ngra yana arzu bayon ayladi,
Shoh nomidin shu so'zlarni so'yladi.

Dediki, "Ey bonuyi xurshidliqo,
Jahonning shohiga boqmading qiyo.

Ne bo'ldi, aroda ne kechdi alam,
Biz sari bir bora bosmading qadam?

3535 Ne sitam ko'rdingki, tavsanim bo'lding?¹⁸
Ne zulm etdimki, dushmanim bo'lding?

Tig'imdek jahonda tig' bormi keskir,
Men otgan o'q kabi olov bormidir?

Ki andin o'zingga panoh izlasang,
Yaxshidir ul men sari roh izlasang.

Kelgil dargohimga, doim kelib ket,
G'azabim qo'zg'itma, andin hazar et.

Men shu mamlakating sari yo'l oldim,
Davlatim soyasin boshingga soldim.

3540 Ne erdi ul bizdan yuzni burganing,
Kamarbasta bo'lmay, yiroq turganing?

May ila mevayi alvon berarsen,
Nozu ne'mat ila rayhon berarsen.

Qabul bo'ldi har neki aylading ul,
Ne erdi, o'zing ham bo'lsayding qabul?

Seni ko'rmak menga tuhfadir, tortiq,
O'shal humo qo'shin ko'rmakdin ortiq.

Erta tongda turib, xullasi kalom,
Shahanshoh dargohi sari et xirom".

3545 Shahriyor payg'omin tugatib shunda,
Javob umidida ko'z tikdi unga.

¹⁸ Tavsani – sarkash, o'jar, bo'ysunmas ma'nosida.

Parivash kulimsab lutfini sochdi,
Yoqut dudog'ini javobga ochdi.

Dedi: "Yuz ofarin, ey Shohi ofoq,
Payg'omingni o'zing yetkazding mundoq.

Ko'nglinga kelnishdi, ayo pahlavon,
Saru savlatingni ko'rganim zamon.

Miyonchi emassen, Rum Shunqorisen
Elchimas, elChining Shahriyori-
sien.

3550 Kaloming olmosdek omomsiz magar,
Sendin bo'lak kim ham andoq dam urar?

QiliChin o'ynatsa shohi qilichboz,
Qilichi aylagay uni sarafroz.

Sikandar tig'idin so'z ochma, qo'ygil,
Sikandar o'zingsan, chorangni ko'rgil.

Meni chorlab, o'zing bo'lding bandi dom,
Puxta deb o'ylagan ishing chiqdi xom.

Seni yubormishdir menga iqbolim,
Shukrona aytaman senga, iqbolim!"

3555 Jahondor dediki, "Buyursin taxting,
Farmoningdin ortiq izlama baxting.

Sikandar dengizdir, men bitta irmoq,
Soyani quyoShga tenglama mundoq.

Meni Shahanshohga aylama qiyos,
Ki mendek navkarlar unda beqiyos.

Ko'ngildin har turli gumoning hayda,
Shohni baland deya tasavvur ayla.

Sikandar shu qadar bekasmidir ul,
O'zi payg'omiga elchilik qilur?

3560 Dargohida ko'pdir bahodirlar, bas,
Shoh o'zi o'ziga elchilik etmas".

Yana bir bor No'shobayi xushmand
So'zga og'iz ochdi tabassum bilan.

Dediki, "Sen meni aldayman dema,
Podshosan, yolg'onning otiga minma.

Oyoq tirab bo'yla aylama inod,
Axir, mardlik ila chiqargansan ot.

Jahon ko'rganmidir sen kabi emi?
Bo'ri terisiga burkama sherni.

3565 Elchida qaydanam shuncha jasorat,
Bizga tik boqishga etarmi jur'at?

Na o'zni elchidek sipo aylamish,
Na bizga bir ta'zim bajo aylamish.

Kirmish savlat to'kib, dadil, shiddatkor,
Shohdin bo'lak kimda shunday yurak bor?

Bular asroringga nishon bo'lgusi,
Ki andin yolg'onning ayon bo'lgusi".

Podsho dedi: "senga javobim shulki,
Sherning payomini keltirmas tulki.

3570 Agarda nazdingda nomdor yo'lchimani,
Sikandar emasman, undan elchimani.

Podshoning payg'omi andoq bo'lsa, bas,
Uni o'zgartirish qo'limdin kelmas.

Agar ustun esa payg'omda shiddat,
Buni sen bilarsan, u bilan faqat.

Huzuringga dadil kirgan esam men,
Sababki, tulkimas, sher vakiliman.

Shohu kayonlarda rasmdir yo'riq,
Payg'om keltirganga zaxmu ziyon yo'q.

3575 Shohning payg'omini ayladim ayon,
Qulfga kalit solma gumon aylabon.

To'g'ri bir javob ber, yo'linga qaytay,
Aytganlaring borib shohingga aytay.

No'shoba erk berdi qahriga endi,
Quyoshni tuproqqa qormagil, dedi.

Takallufni qo'yib chetga bir yo'la,
Shohga javob berdi jasorat ila.

Dedi: "Ne naf senga bu turganingdin,
Quyoshning betiga loy surganingdin!"

3580 Buyurdi kanizga: "Yugur, shu zamon,
Suratli harimi keltirgil hamon!"

So'ng shohga yuzlanib dediki unga:
"Mana bu harimi olgin qo'lingga.

Ko'rgil, unda kimning surati bordir?
Va bizning saroyda ne e'tibordir?

Gar surating esa, bas, gapni cho'zma,
Qosh-qovog'ing uyib, osmonni to'sma!"

Sikandar yetay deb tagiga sirni,
Qo'liga oldi-da, ochdi harimi.

3585 Ajabki, unda o'z suratini ko'rdi,
Xijolatdin qoni yuziga urdi.

Qahru itob etmoqqa yo'qdi o'rin,
Gangib qoldi bilolmay ne aylarin.

Rangi ro'yi bo'zdek oqardi go'yo,
Ko'nglida Xudodin so'radi panoh.

No'shoba ko'rdiki, otash arslon
Ne holu holatga tushdi shu zamon.

Dediki, "Ey Rumning shavkatli shohi,
Zamona o'yinlar ko'rsatur gohi.

3590 Tashvish chekma, mehrimiz etgil qabul,
Begonamas, bu uyni o'z uying bil.

Men senga bir kanizi dilbandamen,
U yoqda ham, bu yoqda ham bandamen.

Suratingni senga ko'rsatdim hamon,
Ki mening suratimni ham ko'r debon.

Agarchi ayolman, siyratim erdir,
Jahonning holidin xabarim bordir.

Sen narra sher esang, men bir moda sher,
Narmi, modami, bilinar jangda sher.

3595 Gar g'azabga minsam, bulutga o'xshash
Qilichimdin suvga yog'ilur otash.

Bosarman arslonning sag'risiga dog',
Nahanglar yog'idin yoqarman charog'.

Mehrimni adovat tarafga burma,
Ayollik sha'nimni sen yerga urma.

Xor etma, xorlikka yo'liqarsan bot,
Najot baxsh aylasang, toparsan najot.

Gar menga ustunlik aylasang, u kun
Bir beva xotinga kelarsan ustun.

3600 Gar men ustun kelsam senga, ul zamon
Butun yer yuziga bo'lgum hukmron.

Bo'riyu tulkidek aylasak savash,
Sen kichik bosh olursen, men buyuk bosh.

Ne ajab demishdir bir pari dono:
"Yo'qsil bilan tushma maydonga aslo.

Jahd etar bir nima olay deb faqir,
Kurashar va seni yiqitar oxir".

Garchi yashasam-da bir ovloqda men,
Dunyo Shohlaridin g'ofil emasmen.

3605 Hindistondin Rungacha shahru kishvar,
Vayronadin obod zaminga qadar,

Yubordim xor o'lkaga bir kimsani,
Suratgaru zehni o'tkir kimsani.

Ki fotih shohlarning suratini o'bdon
Harirga tushir deb ayladim farmon.

Dedim: "Hukmdorlar suvratin bir-bir
Mening huzurimda aylangiz hozir.

Qachonkim keltirib etdilar taqdim,
Nozik nazar bilan ularga boqdim.

3610 Chindan o'shal shohmi, bilmoq-chun tayin,
Uni boshqalarga ko'rsatdim keyin.

Desalar, bu shohdir o'shal, boshqamas,
Surat rostligiga bovar etdim, bas.

Har gal tirmog'idin boshiga qadar,
Suratga sinchiklab tashladim nazar.

Yoshmi, keksadirmi sohib aqlu hush,
O'rganib, o'zimga oldim bir ulush.

Yaxshi, yomonligin suratdin qiyos
Ayladim jilla men farosatshunos.

3615 Kunu tun chorasozlik fikru o'yim,
Parda ichra o'zim-la etmam o'yin.

Himmat tarozisin hozir aylabon,
Podsholar toshini tortdim har zamon.

Har suratki qarshimda erdi mening,
Ko'nglimga xush yoqdi surating sening.

Ki mehri joni unda balqib turar,
Podsholik ruhidin guvohlik berar⁹⁹.

Shu so'zlarni podshoga so'ylab, endi
Baland taxtidin qiz quyiga indi.

3620 Qoldi taxt ustida Sikandar tanho,
Ki bir taxt uzra o'ltirmas ikki shoh.

Ko'rmasanmi, shatranjda shohlar necha,
Ziyon yetkazurlar bir-birga qancha.

Parichehra taxtini tark ayladi,
Tushdi pastga, xizmatga bel boyladi.

Kelinchakday o'ltirdi zar kursiga,
Shohim deb qo'lini qo'ydi ko'ksiga.

Shoh bu holdin xijolat chekdi qattiq,
Rangdin rangga kirdi zarrofa yanglig⁹⁹.

3625 Dedi ko'nglida, bu ayol ersa-da,
Mardlik bobida tengsizdir aslida.

Ayolki shuncha ish-amal aylagay,
Farishta unga ofarin so'ylagay.

Vale ayol degan bo'lmasin jasur,
Moda sherning kiynasi qattiq bo'lur.

Tarozu bosmas xotinlar toshi gar,
Erkaklar toshidin tarozu sinar.

⁹⁹ Zarrofa – jirafa.

Yaxshi ayol pardada pinhon erur,
Beparda ohang ohu afg'on erur.

- 3630 Jamshid aytgan so'z ning shu erur naqshi:
"Ayol pardada yo qabrda yaxshi.

Ayolga suyannma porso bo'lsa ham,
O'g'riga ishonma oshno bo'lsa ham".

Yana o'yladi: "Bu ne xo'rlik erur?"
Shafoat bu pardada behudadir.

Bu achchiq holingni andisha ayla,
Yiqilding, taningni unut bir yo'la.

Agarda bo'yla dilbari mehribon,
Ki zebosirishdir ham shirin zabon,

- 3635 O'rmda bo'lsaydi dushman kiynavar,
Boshingdin ayrilar eding muqarrar.

Agarda shu joydin chiqolsam omon,
Qadamimni bilib bosardim hamon.

Yuzimni birovdin bekitmas edim,
Devonalar yo'lini tutmas edim.

Echay ko'ngliundagi tugunni bugun,
Tugunni tugunga boylamak nechun?

Ko'rsang, bir chumoli tos ichradir, bas,
Qutqar chora bilan, zo'rlik bilanmas.

- 3640 Sabrdir chorasi ranju alamning,
Xayol bu yo tushdir uyqumda mening?

Eshitgandim, birov bo'ynida sirtmoq,
Dor sari borarmish xursand, vaqti chog'.

Undar so'ramishlar: "so'yla, ey odam,
Umring oz qoldi-ku, sen muncha xurram?".

Demishki, "Umrimdin oz qolmishki chun,
Uni anduh ila o'tkazay nechun?".

Qutqardi Allohi, qo'lladi uni,
Zulmatdin ziyoga yo'lladi uni.

3645 Qulflar borki, kalit topilmas aslo,
Bir kishi kelgay-da, ochgay banogoh...

Shu yanglig' o'ziga berdi u ta'lim,
Chorasiz tanini ayladi taslim.

Pahlavon bir o'zi etsa turktoz,
Devlarning qo'liga tushmoqligi rost.

lug'anniy beparda kuylasa, udam
Aytgan qo'shig'iga kular sozi ham.

Shu yanglig' ul yana o'ylarga hotdi,
O'ziga dashnomu ta'nalar otdi.

3650 Darmon bildi dardiga bardoshini,
Haqiqat oldida egdi boshini.

No'shoba xizmatga belni boylabon,
Pariruxsarlarga ayladi farmon.

Dediki, "Tez bo'ling, dasturxon tuzing,
Oro berib, ne'mati alvon tizing".

Kanizaklar shamdek hamon turdilar,
Sohona bir sufra yasantirdilar.

Avvalo sufraga tortdilar davom
Qo'chqorning etidin necha bir taom.

3655 Yupqa lochiralar, yog'li patirlar,
Saropardadin to eshikka qadar.

Nonlarki, shakarga qoriq barchasi,
Kunjutli kulchayu shirmoy anchasi.

Sharbatlarki atr taratur, anbar,
Jannat havosidin berurlar xabar.

Tog' kabi uyulib ho'kiz va baliq,¹⁰⁰
Ho'kiz ila baliqni egmish aniq.

Qush va qo'zi etidin rangin bisot,
Baxsh etardi ko'ngilga shavqu nishot.

3660 Totli murabbolar bor edi yana,
Bodomu pista bisyor erdi yana.

Muattar halvolarki, poluda nom,
Mag'zli erdi, totu lazzat tamom.

Quruq lavzina, yana halvoyi tar,
Qopu xaltalarga sig'masdi shakar.

Gulobu gulshakkar ichimlik dag'i,
Novotga omuxta, atirlik dag'i.

¹⁰⁰ Bu erda pishirilgan ho'kiz va baliq eti deyilmoqchi.

Yana ul shavkatli Shahriyorga xos,
Zar matoh yozdilar taxt ustiga boz.

3665 Xontaxta qo'ydilar misoli ofto'v,
Unda to'rt kosani shay etib shu tob.

Birida zar edi, biri la'l ila,
Biri yoqut, biri dur bilan to'la.

Qo'llar dasturxonga cho'zilib shu on,
Emakka ishtaha ochilgan zamon,

No'shoba lutf etdi shohga: "Marhabo,
Taomga mayl eting, saodatli shoh!".

Shoh dedi No'Shobaga: "Ey soddadil,
O'zingni behuda aylama xijil.

3670 Oldimda la'lu zar, yoqut ko'rgaymen,
Barchasi toSh esa, nechuk yegaymen?

ToShni nechuk yesin, axir, axir, odamiy,
Tabiat bunga imkon aylaganmi?

Taom keltir, taom deyishga loyiq,
Base rag'bat ila yeyishga loyiq".

Shohga boqib kuldi No'shoba shunda,
Dedi: "Bu tomoqdin o'tmasa, unda

Eyishga noravo shundoq tosh uchun
Nojoiz hukmlar etarsen nechun?

3675 Eyishga noraso shu narsa bilan
Nega sen boshingni tutasan baland?

Eyishga noravo esa, har mahal
Nega shu toshlarga cho'zamiz changal.

Yo'llardin toshlarni nari surmay, biz
Nega tosh ustiga toshlar uyamiz?

Har kimsa bu toshdin olgancha oldi,
Emadi, tosh yana o'rni qoldi.

Sen dag'i bo'lmasang toshparast, g'ofil,
Toshingni yengil et, joyingda qolgil".

3680 Chun bo'ldi No'shoba so'zidin ogoh,
Eyilmas sufradin qo'lni yuvdi shoh.

Dedi: "Ey bonular podshosi, go'zal,
Necha sheri marddin o'zingsan afzal.

To'g'ri deding, sarrofi gavharparast
Gavhar deb qo'lga tosh olgay, xolos.

To'g'ri bo'lur edi aytganing mutloq,
O'zing bo'lsang edi gavhardin yiroq.

Gavharlidir, deysan, boshimda kuloh,
Tojini gavharsiz kiyarmidi shoh?

3685 Yozgan dasturxonning to'la la'li, dur,
Aytgan malomating kimga yarashur?

Dasturxonga gavharni to'kkaning ne?
Uni sevinagil deb o'rgatganing ne?

Gavhariy ko`ziga socharsen tuproq,¹⁰¹
Garchi barcha uying gavharin, porloq!

Va lekin sidq ila o`ylasam takror,
Behudamas, aytgan so`zingda jon bor.

Ming ofarin sendek ayolga, illo,
Mardonalikda sen bizga rahnamo!

3690 Pandu hikmating deb, ey bonuyi jon,
Tilloni tuproqqa otarmen hamon”.

No`shobi tingladi shohdin bu izhor,
O`pib tuproqni etdi yoqutnigor.

Buyurdi, keltirib dasturxonlarni,
Tizing, dedi, hama nuqli jonlarni.

Barchasidin bir-bir tatib ko`rdi so`ng,
Podsho sur`atiga lol qoldi uning.

Garchi ko`rsa hamki lutfi shohona,
Eb-ichib, bo`ldi ul yo`lga ravona.

3695 Ketarkan, No`shoba so`radi paymon,
Ki shoh unga sira etmagay ziyon.

Buyurdi shoh bir vasiqa yozishni,
Imzo chekib, tark etdi ul bihishtni.

Sikandar u joydin chekarkan qadam,
Falakdin firib ko`rdi, Haqdin karam.

¹⁰¹ Gavhariy – sarrof.

Xavfdan xalos bo'lib iziga qaytdi,
Qutqargan Tangriga Shukrona aytdi.

Tun kunduz to'pini nariga surdi,
Charog'in porlatib, shamni so'ndirdi.

3700 Kunduzning zar to'pi dumalab, so'ngra
Kumush koptok ko'kda ocharkan chehra,

Shoh uyqu istabon osoyish topdi,
To'rt devorning ikki eshigin yopdi.

Uyqusi xush kechdi orom olgudek,
Qorong'ulikni so'ng bosdi yorug'lik.

Uyqudin boshini ko'tarib shu dam,
Majlis tuzdi shoh, majlisi subhidam.

Xurshid zarrin norinji-la shu nafas
Falak norinjiga berganda shikast.

3705 Parichehra No'shoba oyni yiqdi,
Qutlug' niyat ila shahardin chiqdi.

Yangi oydek edi, ulkim vaqti shom
Chiqib mashriqdin, so'ng to'lishar tamom.

Kanizaklar ko'kda Surayyo misol,
Zebolanib, tovlanib, farxundahol.

Borishardi unga ergashib shunda,
Yuz Nohid yonardi bir uzugida.

Parirux ko'rdi lashkari shohni,
Jahon ichra jahon xaylu xirgohni.¹⁰²

3710 Bari shohi, ipakdin, zarrinavash.
Havo muattar edi, sahro bunafsh.

Shohning eshigiga tutashguncha yo'l,
Har qadamda posbon edi, qarovul.

Etishdilar Shahanshoh dargohiga,
Go'yo oy qo'ndi podsho xirgohiga.

Ipakdin bir ajib chodir tikilmish,
Ustuni tillodan, mixlari kumush.

Shunda paripaykar otidin indi,
Jahondor oldida yer o'pgum, dedi.

3715 Posbonlar ijozat etdilar hamon,
Kirdi oliy saroyga sarvi ravon.

Jahon shohlarini ko'rdi shu mahal,
Bari taxt o'ngida bosh egmishdilar.

Kamar-barkamar erdilar, saf-qator,
Shahanshoh oldida xizmatga tayyor.

Liboslarda gavharu olmos edi,
Qarashga ham yurak betlamas edi.

Hama surat bo'lib qotmishdi go'yo,
Na harakat, na bir so'z erdi, sado.

¹⁰² Xirgoh – chodir.

3720 Ko'rib ul davrani hisoriy kelin,
Savlatu salohat titratdi dilin.

O'farinlar aytdi yer o'pib darhol,
Sheri mardlar boqib unga qoldi lol.

Shoh xizmat ahli buyurdi shitob:
"Bir kursi keltiring misoli o'fob!"

Kelinchakdek o'tqazdi so'ng qoshiga,
O'zga kelinchaklar turdi boshida.

Shoh sanamga shirin so'zlar so'yladi,
Kelganiga shodmonlik ayladi.

3725 No'shoba o'ltirgach rostlab nafasin,
Shahriyordin ishorat bo'ldi tag'in.

Ki dasturxonni xos paydo eting,
Unda nozu ne'mat muhayyo eting...

Avvalo sharbatlar bezadi xonni,¹⁰³
Go'yo Kavsar suvi tutdi har yonni.

Bir havzasi gulob erdi, nobi no'sh,
Xusrav, Shirin tushida ham ko'rnamish.

Emaklar tizildi lazzatli, anvo,
Hidlari taralib bulutgacha to.

3730 Har ne'matki qo'yilmishdi bunda ul,
Har biridin uyulmishdi mo'lu ko'l.

¹⁰³ Xon – bu erda dasturxon ma'nosida.

Qatlamalar harirdek yupqayu shan,
Tovlanardi to'lin oy kabi ravshan.

Shirmoy kulchalar gar ipakdek yumshoq,
Patirlar edi undan-da yaxshiroq.

Bir-biridin totli yuz turli taom
To'ldirmishdi zarrin sufrani tamom.

Jahonda bir yemish yo'q edi magar,
Ki ushbu sufrada bo'lnasa o'shal.

3735 Emishlar baxsh etib jonlarga rohat.
Gulgun qadahlarga yetishdi navbat.

Mayi nob ichdilar tushgacha beg'ash,
Tanu jonlarga ul o't soldi, otash.

Chehralar gul kabi ochildi maydin,
Tabassumlar guldek sochildi maydin.

Go'zal kanizaklar oqshom-kechgacha,
Go'zal taronalar tinglashdi necha.

Ten yetib, har yonga yoydi qorong'u,
Ko'zlarga to'rini tashladi uyqu.

3740 Shoh dedi: "Bu kecha qaytmang shaharga,
Qorong'u tun aro chiqmang safarga.

Bir bazm tuzaylik ertaga andoq,
Shu'lasi samoga taralsin porloq.

Faridun oyini, rasmi Kay ila,
Ko'ngillarni siylab sozu may ila.

Alanga boshini ko`tarsin jomdin,
Ishlarimiz pishsin ul xuni xomdin.

Dunyo tashvishidin kechib bir zamon,
Parvarda marjon-la bezataylik jon.

3745 Guldek ochilaylik simirganda may,
Gul bargini shabnam tushib yuvganday.

Tuproqni etaylik maydin muattar,
Ko`ngilni etaylik andin munavvar”.

Parivashlar yer o`pdilar bosh egib,
Xursandlikda sharmu hayo ham etib.

Parichehra No`shoba shoh baznida
Tongotarda Zuhro edi aslida.

Taqib yana necha zaru zevarin,
Sochardi tun aro mushku anbarin.

3750 Shoh sanamning mushkin zulfidin hamon.
Kamand boyladi mushkin, anbarfishon.

Keyin otdi uni samoga dadil,
Oy ila mushtariyni etdi asir.

O`shal kecha bayram edi. dilnavoz,
Parivashlar edi bari jilvasoz.

La`li, guhardin o`t yoqib ayricha,
Shohni yoqsam derdi har parichehra.

Shoh buyurdi. katta gulxan cho`zdi bo`y,
Mug`oniy rasmi-la sochildi xushbo`y.

3755 May jonlarni yoqib, yondirgan shu on,
Mayxo'rlarni otash o'rtadi chunon.

Mayu sozu navo aylab sarbasar,
Tunni sevinch ila etdilar sabar.

Lojuvard ustiga yoyildi qirmiz,
Ko'rindi ufuqdin bir za'faron yuz.

Yana avjga chiqdi bazmda nishot,
Yana chiroy ochdi shohona bisot.

Chamanni yashnatdi shamshod ila sarv,
Xiromon bo'ldilar kakligu tazarv.

3760 Parivashlar navo tuzdilar xandon:
"Mehrigonda quyosh bo'lur mehribon..."¹⁰⁴

Qirmizi bodadin jonlar olib o't,
Kunduzning yuziga sochdilar yoqut.

Iskandarning No'shoba ila bazm etgani Soqiynoma

Ayo soqiy, bizga mayi jom ketur,
Qizil guldin ko'ngilga payg'om ketur.

Yuzimni bodadin bodaga o'xshat,
Qizil maydin qirmiz la'l kabi yashnat...

¹⁰⁴ Mehriyon – kuz faslining dastlabki o'n oltinchi kuni nishonlanadigan hosil bayrami.

Doston

Faridun bazmiyu Jamshid navro'zi
Zavqu shafqi ila to'ldi yer yuzi.

3765 Jahondor taxtiga o'ltirib shunda,
Podsholar turdilar taxti o'ngida.

Sozandalar sozi ila no'shi jom
Majlis aqlini sarxush etdi tamom.

No'shi maydin no'shoba erdi shakar,
Kanizlari turardi boylab kamar.

Majlis aro Iskandari Faylaqus
Iltilot etmadi ularga durust.

Sababki, o'zini tiyar erdi ul,
Haramda ov ovlash emasdi ma'qul.

3770 A'yonlar ham sharmu hayo etdilar,
Shohga boqib, o'zni sipo tutdilar.

Havo salqin, quyosh chodiri yashnoq,
Tuproq quruq, jamshid yostig'i yumshoq.

Dalv chohidin chiqib o'ftob hamon,
Borardi baliq tutgali suv tomon.

Baliq orqasidek tog' etaklari,
Tang-tanga bo'lib muz qotmish bari.

Muzdek qamchisini ayoz o'ynatib,
Po'stindo'zlar ishi boshidin ortib,

3775 Marol quymichiyu qulonning to'shi
Bo'lib shu damlarda yo'lbars yemishi,

Nar ohuning sonidin namchil kabob
Hozirlamishdi muzli suvlar shu tob.

Bulutlar kofurin sochib damba-dam,
Chinor shoxlarida o'smishdi sumon.

Binafsha g'unchasin ochmagan mahal
Bahor yaprog'idek ko'kdan qor inar.

Eldan homiladorni gul qanchasi,
Qornida yetishardi gul g'unchasi.

3780 Hovuzlar og'izni hali ochmayin,
Ufurmishdi sabzaga sutning hidin.

Sabo bulbul torin uzmishdi butkul,
Begonalardin yuz bekitmishdi gul.

Qadahlar bulbuldek sayrab davrada,
Og'zida kaklikdek erdi qahqaha.

Mayxo'rlar ruxsori kabi may bu dam
Gullarning yuzida chiqarmishdi nam.

Tun ila xo'shlashib Iskandar endi
Gulxan yoqishlikka amrini berdi.

3785 Bazmgohga yana zeb berdi, oro,
Majlis tuzdi bog'i Eramdek go'yo.

O'rtada bir gulxan gurillab yonur,
Rashkidin gulistonda gul o'rtanur.

Gul ilkida otash erdi shu nafas,
Tutmamih uni Zardusht otashparast.

Mushkin ko'mir erdi o'ti lolarang,
Tosh bag'rida gavharga ul hamohang.

Qora ko'mir ichra olovni hamon
Ganj ustida yotgan ilon et gumon.

3790 Buyruq bermish rahmsiz piri majus,
Habash mulkini toroj aylamish rus.

Hindistondin kelib jodugar boqmish,
Bir arpa donidin xirmonni yoqmish.

Mug' arpa o'rniga ermish arg'uvon,
Keyin binafshadin ko'tarmish xirmon.

Mozandaronga ul mushk eltib qaro,
Evaziga olmish sap-sariq tillo.

Uy hindu ayoldin purxundir shu tob,
Hama yog'ochidin yog'ilur unnob.

3795 Chinga saqlab yurish yasab, turktoz,¹⁰⁵
Samur meva uchun tutmish erdi tos.¹⁰⁶

Bilol azon aytib baland tovushda,
Rumda sado berar, o'zi habashda.

Ovozin eshitib zanjiiyi qirgun,
Dilidan qon sizar, ko'zidin tutun.

¹⁰⁵ Saqlab – slavyan.

¹⁰⁶ Samur– tulkisimon, mo'ynasi qimmatbaho hayvon.

Bir qalam sohibi kelib ortidin,
Ne ma'nolar chiqar xati ostidin.

O'ttirar bir javonmard atlasfurosh,
Egniga kampirning kiyimin kiyimish.

3800 Ip yigirmish bunyod etganil palos,
Palos deb ajabki to'qimish atlas.

Olov ko'rasida kimyogar-asl
Temirni eritib, zar etar hosil.

Olovdin yaratur oltin iksirin,
Ki andin zar to'kar etakka keyin.

Olovdin taralgan tutun, bug' o'shal
Nilufar gulining rangiga o'xshar.

Rayhondin yaralgandek erdi safol,
Rayhoniyy erdi unda naqshu nigor.

3805 Olovmas, bog'i Jamshid nori erdi,
Quyosh sufrasining nonvoyi erdi.

Oq-qora gavharga tushib tal'ati,
Mug'ning do'sti edi, hirbud ulfati.

Ochilgan gul edi, taomi tikan,
Yuzi toza, ammo zoti eskigan.

Yo'qsillarga qo'shiq tarannum etar,
Qo'shni qozonidin unga osh yetar.

Jarang-juring etarkan sozi aning,
Zurdusht "Jand" idin xub ovozi aning.

3810 Olov yoqib, olovkim erdi Zardso‘z,¹⁰⁷
Gurillatdi uni shoh olamafruz.

Qizil gul erdi sarv shoxida go‘yo,
Oldida goh durroj, tazarv erdi goh.

Qirmizi marjondek tovlanib Chinor,
BoShida qumridek kaklik chekar zor.

O‘rdak maskan etsa Chinor boshini,
Ko‘zdin tiyolmasdi aslo yoshini.

O‘rdak tani suzar suv ichra ravon.
Olovga tushganda ko‘tarar fig‘on.

3815 O‘shal bog‘ qo‘ynida qushlar sayrashar,
Bir-biridin o‘zib, suron aylashar.

Setor jo‘rligida aytilsa qo‘shiq,
Undan-da go‘zalroq sozu navo yo‘q.

Jigar tuz yeganda qon tomar andin,
Tuzning ham o‘rtanur bag‘ri alamdin.

Shakarsomsa so‘ylar tishlaringga roz
Ishtaha ochilur shu asnoda boz.

Barra kaboblarki, usti ziravor,
Halvolarki, andin taralur ufor.

3820 Murabbolarki, ul shirindan shirin,
Turunju behi, noru noranj tag‘in.

¹⁰⁷Zardso‘z – Zandni yoquvchi. Zand – otashparastlar kitobi Avestoning tafsiri.

Mug'anniy Zuhrodek soz chalib, yashnab,
Ko'zalar Mushtariy yanglig' yarqirab.

U gulgun bodakim, jomni to'ldirmish.
Dunyodan dunyocha qayg'uni surmish.

Hama sozlar edi ohangda yumshoq,
Yolg'iz bir soz edi ohangi yangroq.

Hama may kayfidin pishgandi tamom,
O'rtada yolg'iz bir boda erdi xom.

3825 Sikandar mast, holi yarim uyqudek,
Chang sadosi yangrab, oqardi suvdek.

Mayu qush eti. rayhonu savti xush,
Qiyg'och ko'zli sanam, safoli og'ush,

Kimga bu murodi muyassar bo'lur,
Kim bo'lmasin o'shal. Iskandar bo'lur.

Parivashlar shohni olqishlab davom,
Daf'a-daf'a quyib, bo'shatdilar jom.

Kunduz o'z yo'lining yarmiga yetdi,
Eru ko'k ham yo'lining yarmini o'tdi.

3830 Shoh buyurdi siylang mehmonlarni deb.
Ko'ringiz himmatu saxovatni ep.

Xarvor etib zaru zavar keltiring,
Tevalarga atlas, shohilar orting.

Yana xabash xizmatkorlardin necha,
Xushro'yu kelishgan, bo'ylari novcha.

Yana mushku anbaru debo-harir,
Ko'rganni lol etib, hushdin og'dirar.

Yana zumrad uzuklarki, besanoq,
Ko'zlari yoqutdin, yulduzdek porloq.

3835 Yana bir zarrin toj, zumradnigor,
Zebu ziynatlari la'luyi shahvor.

Ipakli matohlar, bezaklari dur,
Kiyimlar, kashtasi kofuriy, billur.

Tuyalar jabdug'u jilovlari zar,
Tuyakashlar, belida zarrin kamar.

Bari shohning mehridin erdi nishon,
No'shobaga tortiq etildi hamon.

Yarashdi No'shobaga shoh atlasi,
Oyni ravshan etdi quyosh shu'las.

3840 Bering deb yana shoh buyurdi atay,
Kanizlarga durru javohir talay.

Har kimga munosib etildi tortiq,
Kiyishdi va qo'lga olishdi ortiq.

No'shoba ul parivashlari ila
G'arq bo'ldi zaru zevarga bir yo'la.

So'ng yer o'pib, shohni duo etdilar,
Shodu xurram bo'lib uyga qaytdilar.

Javohir konidin gavhar jamlabon,
Qaytdilar izga misli ganji ravon.

**Iskandarning Alburz tog'iga chiqqani
Soqiynoma**

3845 Ketur, soqiy, ul sharobi lolagun,
 Ki aksi tushib, etgay siymobni xun.

 Ber menga, o'sha qonu siymob o'zim,
 Tirnoq ila rishtaga tortay so'zim.

Pandu hikmat

 Men uldirman, ey himmati tongda avj,
 Oqizgayman so'z gavharim mavj-mavj.

 Olib zarrin so'zga olmos, gavharim,
 Zo'raonlar boshin toshlarga urgum.

 Bormidir zarda andoq qudrat magar,
 Ki doroyi dinning boshini egar?¹⁰⁸

3850 Zar degan zeb ila zevardir senga,
 Zarrin zanjir solur egilsang anga.

 Davlatmand zarrini tuproqqa ko'mib,
 Tunu kun yashaydi o'g'ridin qo'rqib.

 Kambag'al xayolni zarga band etar,
 Zar orzusi uni davlatmand etar.

 Zar orzusi zardan ustunroq erur,
 Davlatmanddir kishi yo'qsil ersa ul.

¹⁰⁸ Doroyi din – din peshvolari.

Bu dunyo yo'qsilga do'st erur, hamdam,
O'zi baxtiyordir, qarindoshi ham.

3855 Tunu kun yeb-ichib, xotirjam yashar,
Mirshabdin hadik yo'q, o'g'ridin xatar.

Davlatmand boshida ming bitta g'amdir,
Davlati kamlarning qayg'usi kamdir.

Doston

Gavhar donalardin tuzguvchi marjon,
Xabar berdi o'shal gavhardin chunon.

Ki ul podsho, solori jamshidmaqom
No'shoba yodi-la necha ichdi jom.

Rayhonu rayhoni may ila mashg'ul,
Necha kun shohlar-la ishrat etdi ul.

3860 Bir kuni yana aylab azmu qaror,
Bisotni yoydi o'ylakim navbahor.

Bir anjuman tuzdi qal'adek baland,
Yulduzlar to'sildi samoda undan.

Jumla lashkarboshilarni chorladi,
Har biriga lutfu karam ayladi.

Arbobu a'yonu kirom bo'lib jam,
Barcha shoh amrini kutdilar shu dam.

Sikandar orzusini aylab bayon,
Necha ravshan so'z ila etdi ayon.

3865 Dedi: "Kecha ko'nglimga tushdi havas,
Kengashsam deyman uni siz bilan shu nafas.

Sizdek bilimdonlar aylasa madad,
Qadam-qadam kezsam jahonni minba'd.

Muddaoyim edi Rum sari yurmoq,
Ammo falak jilov tutqazdi mundoq.

Azm ayladim, to dunyoni ko'rmasam,
Running tuprog'iga qo'ymagum qadam.

Har obodu vayronadin o'tib ul.
Fath aylasam deyman olamni butkul.

3870 Sanjob o'lkasining ustiga yursam,
Saqlobiy siymiga sikkamni ursam.

Har kishvarga yetib borganim dami,
Ko'rsam, baxtiyordir qay bir odamiy'?

Bahra olsam uning baxtidin, magar
Temirga ham temirdin yetgay asar.

Avvalin qadamda tikib nazarni,
Alburz tog'i sari etsam safarni.

Keyin undan nari sahroga o'tsam,
Keyin sahro oSha dengizga yetsam.

3875 Xazron bahrini so'ng aylab tamosho,
Jomimdin qatralar to'ksam hamono,

Sohilida bir hafta tutsam kanor,
Baliq ovlasamu qush etsam shikor,

Ko'ray-chi, qaygacha yetar qadamim,
Qanchalar qo'llagay iqbolim manim?

Aytingiz har nechuk maslahatni, hay,
Davlat bilimdonlar yo'liga yurgay".

Er o'pib dedilar ko'pchilik sipoh:
"Biz uchun muddaodir tadbiri shoh!

3880 Qayga oyoq bossa, biz qo'yarmiz bosh,
Uning amri boshimiz uzra quyosh.

Agar farmon bersa podshohi olam,
Kirmoqqa hozirmiz o'tga, suvga ham.

Agar tog'din bizni qulatsa yerga,
Yiqilgaymiz, tashvish tushmagay dilga.

Shohdin – yo'lga yo'llab, nido aylamak,
Bizdin – shoh amrini ado aylamak".

Shoh bu javoblardin shod bo'ldi, xurram,
Ko'rsatdi ko'plarga navozish, karam.

3885 Yo'lga shaylanarkan, saxovat sochdi,
Bekik xazinaning eshigin ochdi.

Sarkashlarga muncha ehson etdi ganj,
Gavhar tashimoqlik zahmat erdi, ranj.

Shoh ko'rdikim, ular bo'ynida toshi,
G'animatni tashib egilmish boshi.

Oldinni ko'rishga aylab ishtiyoq,
Yomon ko'zlardin etdi o'zni yiroq.

Chun ganju gavhardin yuki bor edi,
Qay tarafga yursa, yo'l dushvor edi.

3890 Tog'u sahrolarda chekib necha ranj,
Sipohi gardunga tashir erdi ganj.

Xotiriga keldi jahonjo'yni chun,
Ki ul yer kurrasini chanbarga tortsin.

Er yuzin o'rganib chun manzilshunos,
Quruqlik, suvlikni aylasin qiyos.

Bilsin, pastu balandlik bordir necha,
Uzunligi qancha, kengligi qancha.

Har dodu bedoddin ogoh bo'lsin ul,
Yo'ldin adashganni yo'lga solsin ul.

3895 Zulmu istibdodni yuvsin zamondin,
Xalos etsin xalqni qilichdin, qondin.

Har qo'rqinch yerda bir tiklasin hisor,
Har joyda ezigulik etsin oshkor...

Yo'l yiroqdir deya o'yga toldi xo'p,
Yiroq yo'lda xavfu xatar erdi ko'p.

O'ylardi ul, zoe ketmagay ranji,
Dushmanlarga nasib etmagay ganji.

Sipohning ko'p g'animati bor edi,
Qo'rqardi, chun boyligi bisyor edi.

3900 To'qlar jangu jadal aylamas chunon,
Qo'rqar boyligimdin ayrilgum debon.

Och kimsa maydonga tushar bo'lsa gar,
G'animga ikki qo'llab shamshir urar.

Ahli farzonadin davlat panohi,
Bir yuz o'n uch kishi erdi hamrohi.

Hama anjumansozu anjumshunos,
Har sohada tadbirli, sohib qiyos.

Har nechakim chorayu tabdir edi,
Barchasiga Balinos hozir edi.

3905 Shoh mushkulga chora so'rardi andin
Va zarur chorasin ko'rardi andin.

Bu gal ham so'rdi andin iltifotin,
Yo'lning mashaqqati ganj mushkuloti.

Donishmandning javobi keldi shundoq,
Ki ganju gavharning joyidir tuproq.

Shahriyor sipohga farmon aylasin,
Ki vayronada ganj nihon aylasin.

Ko'milgan xazina ustida hamon,
Tilsim etib qo'ysin o'zidin nishon.

3910 To uzoq safardin qaytarkan, u dam
Topsin nishonani, xazinani ham.

Qo'ygan belgisini izlab, topolsin,
Ko'mgan boyligini qo'liga olsin.

Shoh bu maslahatni qabul ayladi,
Lashkarini shu tadbirga yo'lladi.

Ganjinani ko'mib barcha tuproqqa,
Nishona qo'ydilar uni topmoqqa.

Baski, har kimsa ul ko'mdi ganjini,
Yo'llarda chekmagay endi ranjini.

3915 Xullas, lashkar yurib tog'u dasht aro,
G'animatni ayladi tuproqqa jo.

Har kimsa bir joyga uni joy etib,
Nishona ham qo'ydi huvaydo etib.

Chunon kelmish edi davrondin o'yin,
Shoh boshqa bir tomonga yurdi keyin.

Boshqa bir tarafdin Rumga yo'l oldi,
Xazinalar yiroq manzilda qoldi.

Lashkar yo'lda topdi muncha molu ganj,
Nihon xazinaga yo'qdi ehtiyoj.

3920 Keldi g'animatdin muncha omadi,
Ko'milgan xazina sari boqmadi.

Kelib, yana Rumni etdilar manzil.
Jahon tashvishidin uzdilar ko'ngil.

Toshlar yo'nib, ma'bad etdilar barpo,
Barchaga toatgoh bo'ldi u ma'vo.

Har kimsada xati ganjnoma erdi,
Ehson etib, dayr piriga berdi.

Ki xat xudojo'yni boshlasin yo'lga,
Borsin ul, bisotni kiritsin qo'lga.

3925 Hanuz o'shal dayri ko'landa bisyor,
O'shal molu ganjdin ganjnomalar bor.

Har kimsakim borib o'shal xonaga,
Xizmatkorlik etsa sanamxonaga,

O'shal ganjnomadin birini berib,
Degaylar, bor, uni topgil axtarib.

Izlab, xazinani topolsa magar,
Oyoq ranji debon ulushin olar.

Baxtim bermish menga oyoq ranjini,
Oyog'im botib, topgakmen ganjini.

**Iskandar zohid duosi ila Darband
qal'asini ochgani
Soqiynoma**

3930 Ketur, soqiy, ul mayki noz keltirur,
Yoshlik, umr ko'rkini boz keltirur.

Tutgil menga, ul ikkisin yo'qotdim.
Xunning sharobiga qanoat etdim.

Pandu hikmat

Kim yaxshilik uchun eshik qoqsa gar,
O'shal eshikka banda bo'lsin o'shal.

Qozonsin yaxshilik etib, yaxshi nom,
Umrini aylasin andoq saranjom.

Yaxshilikdin sovut kiysin har kuni,
Balolardin o'sha asragay uni.

3935 Senga yaxshi nomdin yaxshiroq nom yo'q,
Insonga undan-da xayrli kom yo'q.

Yaxshilik ayla, ey mardi dilpisand,
Yaxshilik-la nomingni yuksalt baland.

Yaxshilik libosin kiygil har zamon,
Boshqa to'nlariningni et unga qurbon.

Savdogar sotishni etarkan pesha,
Mushkini harirga o'rar hamisha.

Afsona

Go'zal hikoyatlar so'ylaguvchi zot,
So'ylardi yaxshi nomlarni etib yod.

3940 Yaxshi nom qozondi Sikandar, ajab,
Sudu samar ko'rdi keyin ul sabab.

Yaxshilarni ulfat etdi joniga,
Yomonlarni yo'latmadi yoniga.

Ba'zan boqsa hamki shahzodalarga,
Lutf ayladi ko'proq aftodalarga.

Goho bir zobidni xilvatda ko'rdi,
Uning huzuriga yeldi, yugurdi.

Har joyda jang boshlar esa u, albat,
Zohidlardin duo istadi, madad.

3945 Ul sabab dushmanni g'arq aylar edi,
Feruzani toshdin farq aylar edi.

U boshliq jangchilar kirdilar jangga,
Hayratlarga tushib dedilar unga:

“Ey dunyoni fath aylagan pahlavon,
Bu ravish-rafloring bizga et ayon.

Senga g'alabani lashkar keltirur,
Zohidga bosh urmoq joizmidir ul?

Olursen jahonni shamshiring ila,
Zohidlardin madad so'rgaysen nega?

3950 Zohidlar yoqarsa zafar charog'in,
Bizga ham o'shaning o'rgat sabog'in.

Kuch olib, maydonga qo'ygali qadam,
Ular eshigini qoqaylik biz ham”.

Jahondor savolni eshitdi, tuydi,
Lekin javobidin o'zini tiydi.

Kelavermas badiha so'z din savob,
Yaxshidir vaqtida berilsa javob.

Lashkarin boshladi Alburz tarafga,
Noib tayin etdi har nohiyatga.

3955 Mashaqqatli yo'lda jahd etib jondin,
Er arslon kabi kechdi shirvondin.

Bu yo'ldin o'tishga orzumand edi,
Yo'l ustida ul shahri Darband edi.

Orasta emasdi shahar aytgudak,
Ustida bir qal'a bor edi, yuksak.

Qal'ada necha yuz qaroqchi erdi,
Yo'ldin o'tganlarning yo'lin to'sardi.

Shoh saropardasin tikdilar shunda,
Raqiblar ham chodir tikib balandda,

3960 Qal'a darvozasin yopdilar mahkam,
Parvo etmay qilichga, lashkarga ham.

Andoq bir, xatarli o'yin qurdilar,
Shohning xizmatidin bo'yin burdilar.

O'zlari bosh egib kelmadi, illo,
Yana kelmadilar chaqirsa ham shoh.

Gar elchi yuborsa uzatib qo'lin,
Uning ham har safar to'sdilar yo'lin.

Xiradmand shoh shunda chora aylabon,
Yo'ldin bu to'siqni ko'taring debon,

3965 Amr ayladi yuz ming askar, cherikka:
"Qal'aga bostirib boringiz tikka!

Manjanaqlar otib, xarob aylangiz,
Qonini to'kishga shitob aylangiz!"

Lashkar qirq kun bosib, hujumlar etdi,
Lekin hujumlari behuda ketdi.

Qal'aga yetmasdi otilgan o'q,
Kamand otganda ham, yana foйда yo'q.

Qal'aga yetolmay minglab jangari,
Bir yerda deysinib qoldilar bari.

3970 Na hisor aroba yo'l topa olur,
Na tosh otar devorga raxna solur.

Barcha ojiz qoldi charchab bu ishdan,
Ul gunbaz ustiga yong'oq sochishdan.

Sikandar bir majlis qurib ayni hol,
Sarkardalarni yig'ib, so'rdi savol:

“Nima deysiz, ayting, eshitay sizni,
Bu ish andishasi charchatdi bizni”.

O'lkalarni fath aylagan botirlar
Shoh oldida ta'zim bajo etdilar.

3975 Dedilar: “Xizmatga kamarbastamiz,
Hujumga safarbar har nafasda biz.

Qirq kundirki, tinim bilmay bir yo'la,
Jang qilarmiz bulut va oftob ila.

Quyosh va bulutdin nariga yo'l yo'q,
Na bir qilich yetgay, na bir nayza, o'q.

Devlardek izlabon necha bir chora.
Devlar makonida qoldik bechora.

Yaxshisi, to'xtatib jang aylamoqni,
Tark etaylik ushbu toshu tuproqni”.

3980 Shahanshoh ko'rdiki, sardorlar ojiz,
Bu ishda qolmiShlar tamom chorasiz.

Quyosh ko'zlariga surma chekdi, mil, gavharga
makon bo'ldi daryoyi Nil

Shoh aylab necha ganju gavhar nisor,
Yana majlis tuzdi misli navbahor.

Davra tutib, hozir bo'lgach anjuman,
So'rdi jumda botir, lashkarboshidan:

“Bu manzilda bormi go'shanishin pir,
Tarki dunyo etgan darvesh bormidir?”

3985 Biri dedi: “Ey Shohi donishparast,
Falon g'orda bordir devona bir kas.

Yuzini birovga ko'rsatmas faqat,
Bir hovuch ko'katga qilur qanoat”.

Shahanshoh oyoqqa qalqdi shu zamon,
Majlis ahli dag'i turdilar hamon.

Necha bir mahramin ayladi hamroh,
So'rab-surishtirib yo'lga tushdi shoh.

Yo'l ravon emasdi, qorong'u kecha,
Oldinda sham yoqib bordilar necha.

3990 Sinchiklab bordilar yo'l uzra borni,
Shamlarning shu'lasi yoritdi g'orni.

Zohid nogoh shamning shu'lasin ko'rib,
Qorong'u g'oridin chiqdi yugurib.

Ko'rdi, qarshisida quyoshdek diydor,
Iqboli uyqudin bo'lmishdi bedor.

Boqdi, qarshisida jahondor edi,
Jahondorligin nuridin payqadi.

Dedi ul: "Charaqlab aytadir ko'zing,
Gumonim bo'ylaki, Iskandar o'zing".

3995 Podsho qo'l uzatdi unga bosh egib,
Kirib g'orga, o'ltirdi so'ng tiz cho'kib.

So'rdi andin: "Do'stu yoring bormidir?
Bu yerda yemagu ichmaging nadir?"

Nechuk bilding hali aytmay turib men,
Iskandarligimni, shu g'oringda sen?

Duo qildi zohid: "Dilshod bo'l mudom,
G'amu tashvishlardin ozod bo'l mudom!

Yulduzing iqbolga bo'lib payvasta,
Iqboling hamisha bo'lsin orasta.

4000 Nechuk tanimayin sendek chiroyni,
Kechasi har kimsa tanigay oyni.

Qo'lingda oyinang ersa, Shahriyor,
Mening yuragimda dag'i ko'zgu bor.

Yuz yildirki ranju riyozat chekur,
Menga bir suratni ko'rsatmasmi ul?

So'rading sen dag'i, ey olamga zeb,
Nechuk yashaysan bu tor maskanda deb?

Lutfing sabab, ko'rgil, qad-qomatim tik,
Avvalgidan-da tandurustman, tetik.

4005 Yo'qdir mehru g'azab etgudek kishim,
Insonlar bila yo'q sira tashvishim.

Jahonda ko'rmadim vafoli bir jon,
Vafosizdin madad so'rarmi inson?

Holimni andisha aylabon necha,
Shu joyni xushladim, sevdim ayricha.

Do'stu yordin kechdim, izi yo'q uning,
Do'stu yorim yolg'iz Xudoyim mening!

To'yib yemaslikni ayladim odat,
To'yib yemishlikda oz emas ofat.

4010 To'shagim giyohdir, taomim giyoh.
Toshni ham zar etar bo'yla kimiyo.

O'tdi yillar, kechdi shohlar qanchasi.
Lekin men ko'rmadim sendin boshqasin.

Boisi ne, bu kecha bu so'yi g'or,
Iqboli yor bo'lib keldi Shahriyor?

Xizmating etmoqqa. ey Shohi nodir,
Bir hindudek kamarbastamen, hozir".

Sikandar dediki: "Ey piri zamon,
Chorasiz qoldimki, men keldim bu yon.

4015 Tangri bir temirni bo'lib ikkiga,
Birin senga berdi, birini menga.

Andoq bir taqsimot yuz berdi Chindan,
Qilich menga tegdi, kalit senga tan.

Men chekay qilichim kun o'rtasida,
Adlu adolatga ko'mak qasdida.

Sen dag'i ustuvor aylab umidni,
Yarim tunda qulfga solgin kalitni.

Mening tig'im, sening kaliting zora,
Bu mushkul savdoga aylasa chora.

4020 Tog' boshida qurib mustahkam qo'rg'on,
Qaroqchilar unda tutmishlar makon.

O'tgan karvonlarni talon qilurlar,
Begunoh jonlarni qiron qilurlar.

Istarmen, ularni etib toru mor,
Adolatu insofga bersam qaror.

Sen ham himmatingni ayama, ko'rsat,
Iloho, bu yo'lda yor bo'lsin omad.

Shoyad ul yovuzlar yo'q, badar bo'lgay,
Bu yo'l karvonlarga bexatar bo'lgay.

4025 Chu ogoh bo'ldi mardi ezidshunos,
Qal'ada in qurmish o'g'rilar, xolos.

Bir o'tli oh chekdi shunda nogahon,
Go'yo qal'a uzra yiqildi osmon.

Yana bir oh chekkan edi kuchliroq,
Dengizga quladi sohildagi tog'.

Shohga dedi: "Qo'zg'ol, yo'lga qo'y qadam,
Ko'zdin yiroq etdim baland tog'ni ham".

Shahanshoh hamono qaytdi bazmiga
Majlis ahli peshvoz chiqdilar unga.

4030 Yana dasturxonga oro berdilar,
Taronalar tinglab, may simirdilar.

Xabar bo'ldi: "Qal'a begi kelib ul,
Shahanshohdin istar shu onda qabul".

Buyurdi shoh, hozir etdilar hamon,
Qal'a begi ta'zim bajo aylabon,

Shohga shukron aytib, duolar ila,
Qal'a kalitini uzatdi so'ngra.

Dediki: "Bu kecha qudratingdin, shoh,
Qal'aga bir balo yoprildi nogoh.

4035 Ikki burj havoga sovrulib noxos,
Qal'a darvozasiga yetdi shikast.

Etdi bir manjaniq Xudodin shu on,
Qal'ani ayladi yer ila yakson.

Sening manjaniqing etmadi xarob,
Quyoshga bir zarra ne qilur shu tob?

Sening lashkaringdin emasdi, zotan,
Manjaniq kelmiShdi boshqa qal'adan.

Hukmini bermishdi ul osmoning,
Endi qal'a sening, farmon ham sening".

4040 Lashkarboshilarga boqib shunda shoh,
Dedi: "Bildingizmi, ne ermish duo?"

Jang qildingiz qirq kun betinim bir dam,
Qilich sirmab, nayza, tosh otib har dam.

Nayzaning olmosdek ersa-da uchi,
Bir zarra toshga ham yetmadi kuchi.

Ammo bir oh ila zohidi kirom
Ostin-ustun etdi qal'ani tamom.

O'zingiz ko'rdingiz, bo'ldingiz guvoh,
Dunyo avliyosiz bo'lmagay aslo!"

4045 Lashkar boshliqlari shunda birma-bir,
Pushaymonlik chekib, aytdilar uzr.

Er o'pib dedilar: "Ayo Shahriyor,
Taxtu tojing bo'lsin mangu barqaror!

Bilaging hamisha qudratga to'lsin,
Adolating mudom ustuvor bo'lsin!

Bu so'zlarni senga Tangri o'rgatmish,
O'zining soyasi qilib yaratmish.

Biz ham bu pardadin xabardor bo'lib,
To'g'ri yo'lga tushdik tole yor bo'lib".

4050 Barcha qal'a sari yurdilar shunda,
Qaroqchidan nishon qolmadi unda.

So'ng qal'a yerida etdilar tartib,
Asl mulkdoriga berdilar qaytib.

Qayrona qal'ani qildilar ta'mir,
Obod ayladilar, etdilar ma'mur.

Zulm qal'asini shu tadbir ila
Adolat uyi etdilar bir yo'la.

Ul ko'hsor ahli kelib, bag'oyat
Zulmdin etdilar arzu shikoyat.

4055 Ki vahshiy qipchoqlar dastidin, evoh,
Ekin ekolmaymiz bu yerda aslo!

Har safar yoprilib, talon qilurlar,
Ekin-tikinlarni payhon qilurlar.

Har safar ulardin ziyonlar kelur,
Bog'lar xazon bo'lib, jonlar toptalur.

Shohimiz bu yo'lda baxshoyish etsin,
Yurtimizni tinchu osoyish etsin.

Bu yo'lda necha bir rahmolarki bor,
Bekitsin ularni, ko'tarsin devor.

4060 Sahroyi qipchoqning yetmasin qo'li,
Rohatda yashasin hazroniy eli.¹⁰⁹

Shoh buyurdi: "O'sha yo'llarni hamon
Hazroniylar ila bekiting tamom.

Po'lat va qalayi, qoyatoshlardan
Ko'taring tor yo'lda bir saddi baland".

Yig'ildi sangtarosh ustalar qancha,
Ishbilarmon imoratosozlar necha.

¹⁰⁹ Hazroniy eli – hazarlar, Hazar dengizining shimoli yoki g'arbida, Volga daryosining ikki sohilida yashagan turkiy qavm.

Yig'ildi xaloyiq, yirik jamoat,
Ko'rsatdilar yo'lni to'smoqqa g'ayrat.

4065 Kecha-kunduz ishlab, shitob etdilar,
Tog' bahrida raxnani berkitdilar.

Qal'a muammosini aylab ado,
Tark etdi ul tog'u o'rmonlarni shoh.

Tulporin jilovin sahroga burdi,
Manzildin manzilga jadallab yurdi.

Chaqmoqdek otini uchirib g'oyat,
Baxsh etdi har joyga baxtu saodat.

Kecha zulfi muattar kimyosidan
Moviy ko'k toqiga to'kkanda suman,

4070 Horidilar, yo'l charchog'i bilindi,
To'xtadilar orom olmoqqa endi.

Necha bir kimsani chorlab Sikandar,
Ma'lumot istadi ulardin, xabar.

Ne erdi bu manzil, ko'rib holini.
Savollar berdi, bildi ahvolini.

Bu nechuk ma'vodir, nechuk bir diyor,
Etdilar podshoni andin xabardor.

Dedilar: "Bu yerda qal'a bor andoq,
Janub yellaridin chetdadir, ovloq.

4075 Toshleri ko'k shishadin, miynusirishit,¹¹⁰
Go'zallik, zebolikda misli bihisht.

Sarir qal'asi deb baland nomi bor,
Unda Kayxusravning taxti, jomi bor.

Kayxusrav bu yurtdan ko'targanda raxt,
Shu manzilda qolmish o'shal jomu taxt.

Mozori qo'rqinch bir g'or ichradir, hay,
Unda olov yonar, kirib bo'lmagay.

Olovli shu daxma oldida tag'in
Bir shahzoda turar uning naslidin.

4080 Ki bobosiga mehribonlik etar,
Taxtiga, jomiga posbonlik etar".

Shoh tingladi qissani, shu nafasda
Yondi bir ayricha orzu-havasda.

Qayda bir qal'ani cho'ktirarkan tiz,
Qal'adori qudratlidirmi, ojiz,

Gohida oshkor, gohida nihon,
Kirardi qal'aga ul shohi jahon.

Aylanib qal'ani, bir-bir ko'rardi,
Qal'a posboniga ehson berardi.

4085 Ko'rmagan narsasin bir ko'rmoqqa shoh
Ishtiyoqmand edi, havasli har goh.

¹¹⁰ Miynusirishit – ko'kimtir.

O'shal kecha kechdi andoq suhbati,
Qal'ani ko'rishga oshdi rag'bati.

Kayxusrav ko'hna jomidin Shahriyor,
Bir majlis tuzmoqqa ayladi qaror.

*Iskandarning Sarir qal'asiga borgani
Soqiynoma*

Ketur, soqiy, maydin dilim ayla shod,
Bu yo'lda sabrga bermagil sabot.

Charog'im xira tortdi moyi bitib,
Uni ravshan ayla menga may tubib.

Afsona

4090 Kunduz chiqib keldi tun, qaro rangdin,
Kofur chiqqan kabi aqsoyi Zangdin.

Olamni yashnatdi nur sohib quyosh,
Ko'tardi tuproqdin Qorun ganji bor.

Havoda tutun yo'q, ko'rinmaydi gard,
Falak yuvilgandek toza, lojuvard.

Uzlatga chekinmish ul bodi xazon,
Bahorning nasimi ufurar har yon.

Hama tog'lar – gulshan, hama dasht – bog',
Jahon ko'zin yoritmiSh zarrin charog'.

4095 Zamona ijod aylab bog'i bihisht,
Zamin gulu sabzadin miynusirisht.

Saodatdi podsho shaylanib xurram,
Taxti ravoniga o'ltirdi shu dam.

Tojini yuksaltdi samolarga to,
Jadal yo'lga tushdi, ortida sipoh.

Tevalar tuyog'i qo'zg'atib to'zon,
G'ubori tog'larni qopladi hamon.

Ot surdi qayda deb ul taxti sarir,
Taxtni ko'rmoq bo'ldi buyuk taxtgir.¹¹¹

4100 Saririy xabar topdiki, tojdor
Taxtu jom ko'rmakni etmish ixtiyor.

Shohning farhangidin ul ogoh edi,
Bilardi, Sikandar jahonshoh edi.

Kayoniy nasliga etmamish ziyon,
Haq ahliga suyanch erur har zamon.

Qo'ndirmish yana necha boshlarga toj,
Xarj aylamish, ammo olmamish xiroj.

Kutib ikki manzil berida shu dam,
Shohning yo'llariga to'shadi gilam.

4105 Himmatu saxovat eshigin ochdi,
Shahriyor poyiga sochqilar sochdi.

¹¹¹ Taxtgir – taxt oluvchi.

Atlasu shohilar, mo'yna yumshog'i,
Nodir matohlarning yo'qdi sanog'i.

Qora samur, qizil tulkidin qancha,¹¹²
Sara qoqum, asl qunduzdin necha,

Vashaq terisi misli bargi bahor,¹¹³
Binafshadin sochilmish atru ufor.

Yana qullar, adil qomat, bahodir,
Hamisha maydonga tushishga hozir.

4110 Yana kanizaklarki, kaklik qadam.
Xush chehrayu qaddu qomati ko'rkam.

Shirinliklar, turfa taomlar yana,
Hozirlab, shoh sari bo'ldi ravona.

Dargohga yetdi ul, azizu laziz
Sanog'iga yetmay qoldilar ojiz.

Saririy dargohga qadam bosdi to,
Egildi, qomatin ayladi duto.

Jahonshoh unga xush ishorat etdi,
Kelib o'ltir deya ijozat etdi.

4115 Tugatgach saririy duo hissasin,
So'radi undan taxtu toj qissasin.

Ki jomi jahonbinu taxti kayon
Nechuk zayli zamondin ko'rdi ziyon?

¹¹² Samur – tulkiga o'xshash, qora mo'ynali hayvon.

¹¹³ Vashaq – terisidan po'stin tikiladigan hayvon.

Saririy bu savolga aylab javob,
Dedi: "Ey jahonshoh, ey davlatmaob!

Qayumars xayling ichra chokar senga,
Faridun mulking ichra navkar senga.

Yulduz kamoningga o'q bo'lib atay,
Kamoning sipehri jahongir bo'lgay!

4120 Kayxusrav sirrini bilmogchiman, hay,
Sen o'ltir, men o'zim ul taraf boray.

Egasiz taxtiga ko'z yoshim to'kib,
Bodasiz qolgan ul jomini o'pib,

Ko'ray, to menga ul taxti muzaffar
Shohning vafotidin nimalar so'ylar?

ESHitsam ul jonsiz jomidin salom,
Ki jonimga jondir o'shal bir kalom.

Ko'nglim oyinasin qoplanish g'ubor,
Istarmen, aylasam poku beg'ubor.

4135 Ko'zim birlan ko'nglimni giryon etay,
Keyin barcha mushkulim oson etay".

Saririy Sikandar so'zin tinglabon,
Uning farmoniga bosh egdi hamon.

Qal'a begiga ul amrini berdi,
"Izzat-ikrom ila peshvoz chiq, dedi.

O'zingni shoh xizmatiga shaylagil,
Mehr ko'rsat, mehmondo'stlik aylagil.

Farmoyish ber, taxtu jom posbonlari
Shoh oldida xizmatda bo'lsin bari.

- 4140 Taxt sari borarkan, yo'l bersin ular,
May ichsa, qadahni to'ldirsin ular.

Kayxusrav taxtiga o'tqizib uni,
Boshiga sochsinlar oltin, kumushni.

To'ldirib feruza jomga boda, may,
Tutsinlar shavkatli shohga payopay.

Har neki xush ko'rsa, etsinlar ado,
Bo'yin burmasinlar amridin aslo".

Qal'a begiga chun farmoyish berib,
Yuzlandi shohga, Shohim, marhabo, deb.

- 4145 "Shohning amri ila qolurmen bunda,
Shoh qaytsalar, men ham qaytaman unda".

Azmi safar etmoqqa shaylandi Shoh,
Balinosni qilib o'ziga hamroh.

Yana to'rt-beshovni yo'ldosh etdi ul,
Erdilar xos a'yon, sadoqatli qul.

Taxtxona sari yurdi yeldek uchib,
Baland ko'tarilib, osmondan kechib.

Tin olmadi bir lahza, orom-qaror,
Falakdek aylanib, evrilib yuz bor.

- 4150 Qal'a ko'rdi azim, samoviy jussa,
Jazm etib nomini aytmamish kimsa.

Qal'a go'zallari tayyorlab sharbat,
Lablaridin unga shakar to'kib, shahd.

Shohona, zarnigor sufra tuzdilar,
Turfa ne'matlarni unga tizdilar.

Parichehralar oy kabi yarqirab,
Saf chekdilar shohning atrofin o'rab.

Hayronu lol qoldi boqib Iskandar,
Davlat siymosi ham dilni jazb etar.

4155 Shoh yemakdin yedi, ichdi sharbatin,
Yo'l oldi Kayxusrav taxtiga keyin.

Boshdin tojin olib, boshin etib xam,
Qo'ydi so'ng taxtgo'h sahniga qadam.

Eshigu devorlar go'yo silkindi,
Uxlagan Kayxusrav hushiga keldi.

Farmon bermiShdi andoq farmonguzar,¹¹⁴
Ki taxtga o'ltirsin deya tojdor.

Kayxusrav taxtiga chiqdi Shahanshoh,
Simurg' edi zarrin daraxtda go'yo.

4160 Zar ustunli taxtning posboni hamon.
So'z konidin gavharin sochdi chunon.

Ki "Shohning bu taxtga o'ltirmagi ul,
Ochar buyuk baxtu saodatga yo'l.

¹¹⁴ Farmonguzar – farmon beruvchi.

Ul gavharin jomki, o'Ichagay yoqut,
Xazinalar qulfiga solgay kalit.

Muyassardir senga taxtu jom bu dam,
Yana taxtu jomlar bo'lur musallam".

Boshqa posbon dedi: "Ayo Shahriyor,
Sendek shohni ko'rmishni shahru diyor.

4165 Kayxusrav taxtiga o'ltirib, andin
Ko'tarding boshingni falak taxtidin.

Dedi yana boshqa bir shirin zabon:
"Kayxusrav ila Kayqubod ne zamon.

Shu taxt uzra etmishlar sen-da ortiq
Etarsan Kayxusravu Kayqubodlig".

Shunday deb Shahanshoh folin ochdilar,
Folida iqbol erdiyu quvonchlar.

Shon baxsh etdi Kayxusrav taxtiga shoh,
O'lgan Kayxusravga jon berdi go'yo.

4170 Bir lahza o'ltirdi, faqat bir zamon,
O'pdi taxtniyu tushdi andin hamon.

Durru gavhar sochdi keyin taxt uza,
Gavharxonalar ham tortdilar xira.

Buyurdi: "Zar kursi ildam keltiring,
O'shal jomi farruxni ham keltiring".

Kursi keltirdilar, o'ltirdi unga,
Jahonnamo jomni ham oldi qo'lga.

Soqiy chun ko'rdi ul go'zal payg'omni,
Bodadin to'ldirdi gavharin jonni.

4175 Shohga boqib, dilda surur tuydi ul,
Dedi: "Kayxusrav yodi-la simirgil.

Sipqor, baxt yulduzing senga yor bo'lsin,
Lablaring shu jomga sazovor bo'lsin!"

Shoh jomda may ko'rib, oyoqqa turdi
Va bir ko'tarishda mayni simirdi.

Va jomga tashlabon bir shoda gavhar,
Oldiga qo'ydi-da, boqdi Iskandar.

Bir lahza bodasiz ul jomga boqdi,
O'shal jomga uning ko'z yoshi oqdi.

4180 Goh shohsizlik, sharobsizlikdin gohi,
O'shal taxtu jonning yuksaldi ohi.

Ki "Shohsiz hech taxti zarrin bo'lmasin!
Maysiz jomi jahonbin ham bo'lmasin!

May ila ravshandir mudom jomi baxt,
Shoh ila yuksakdir mudom toju taxt.

Shoh ketsa, taxtini sindirgil tamom,
Maysiz esa, qorishsin tuproqqa jom.

Shohga toju taxtdin tashvisdir, xolos,
Ki maynu taxt uzra osuda yotmas.

4185 Kishikim, miynuga chekar raxtini,
Zindon hisoblaydi o'shal taxtini.

Qush ayro tusharkan bog'u chechakdin,
Qafasi oj bo'lur, to'ri ipakdin.¹¹⁵

Bo'ston novdasini ul etsa tavqu toj,
Tushmaydi yodiga ipak birla oj.

Toju taxt ko'yida kezib erta-kech,
Nogahon o'limni eslamaymiz hech.

Bahoriy chaman shox yozib shox uza,
Xazon shamshirini eslarmi sira?

4190 O'zni semirtirar yaylovda qulon.
Bilmaski, yo'lini poylar arslon.

Marollar o'ynashar sakrab o'tloqda.
Yo'lbars yo'q emishmi o'sha ovloqda?

Ohular o'ynashar har yon mushk tarab.
Bo'rining tishlari sinmishmi, ajab?

Bo'yla g'aflat erur bizda doimo,
Olov boshimizga chiqmaguncha to.

Befoyda shu taxtni yasaymiz nechun,
Boshqalarni unga o'ltirsin uchun?

4195 O'zgalarga shaylaymiz issiq o'rin,
Ammo o'ylamaymiz uning oxirin.

Taxt deya unrimiz mashaqqatdadir,
Holbuki joyimiz quruq taxtadir.

¹¹⁵ Oj – fil suyagi.

Zarrin taxt demagil ardog'imizda,
Temir kundadir ul oyog'imizda.

Taxt uzra abadiy emassan magar,
Uni sindirmog'ing emasmi afzal?

Kayxusrav jomida nam qolmamish ul,
Bas endi, unga may quymagan ma'qul".

Iskandarning Kayxusrav g'origa kirgani
Soqiynoma

4200 Ketur, soqiy, ul jomi kayxusraviy,
Ko'zlarga nur bersin nuri, partavi.

Labolab to'ldirib tutgil menga jom,
Kayxusrav davronni ayla ehtirom.

Pandu hikmat

Shoho, Shahriyoro, jahondovaro,¹¹⁶
Samo ziynati, mushtariypaykaro!

Qayda qoldi Kayxusrav, raxti aning?
Iskandar qani, qayda taxti aning?

Ular ko'k burjini tark etdi tamom.
Bugun senga qoldi u yuksak maqom.

4205 Jahon sohibi, farmon berguvchi sen,
Jahonga amr emas, jon berguvchi sen.

¹¹⁶ Jahondovar – jahon hukmdori.

Samo ziynatlidir gar nomiylg ila,
Zamin izzatlidir oroming ila.

Berma dil bu ikki dilfiribga mehr,
Ki mehribonga mehribonmas sipehr.

Jahonni ko`r, kim mehribon ersa gar,
Unga oxir nomehribonlik etar.

Hiyla, nayrang ila taxt yasab nuqul,
Ne o`yinlar ko`rsatnadi so`ngra ul.

4210 Jom tutib gar bir mastni shod ayladi,
Jom sohibiga ne bedod ayladi!

Etti yurt egasi Kayxusrav o`zing,
Iskandari zamonman deydi yuzing.

Ikki shohdin oyina ol, jom hamon,
Ikki yo`lning yaxshisiga bo`l ravon.

Har ishgakim bugun etsang azmu roy,
Ertasi kun kelur andin bir chiroy.

Toj baxshida etguvchi tojdor o`zing,
Chunki ota taxtida yodgor o`zing.

4215 Ular kechdi shodon, sendadir quvonch,
Tojdorlar ketib, senga qoldi toj.

Bu rangin bog` o`ylaki parri tazary,
Na gul qolgay chamanda, na qaddi sarv.

Agar ketdi chamandin shohaxsaton,
Sen yasha bu gulshanaro bexazon.

Gar ul ne'matimdin bo'lib bahramand,
Hurmatim ko'klarga ko'tardi baland,

Sen himmat aylading undan-da ortiq,
Bog' eshiging menga hamisha ochiq.

4220 Falak solar ekan yerga naqshini,
Hamisha siylasin sendek yaxshini.

Men uchun valiyne'mat, sohibzamon,
O'zing qolding faqat, yasha, bo'l omon!

Nelar so'yladim men, nima arz etdim,
Qaydin ot surdimu qaylarga yetdim...

Doston

Chu Iskandar ko'rdi o'shal taxtu jom,
Na bir rohat tuydi andin, na orom.

Toju taxtkim, ul osmoniy emas,
Zindoniy erur, zindagoniy emas.

4225 Balinosni chaqirdi ul yoniga,
Kayxusrav jomini qo'ydi oldiga.

Nazar tashlagil, dedi, jomga hamon,
Har nechuk asrorini etgil ayon.

Donishmand shu onda nazarin qadab,
Raqamlar o'qidi unda harfima-harf.

Harflari ulanib o'shal jom ichra,
Qunt ila bitilmish xat edi necha.

Xullas, ul yozuvga nazar soldilar,
Yashirin hisobin bilib oldilar.

4230 Ham shohjahonu har farzona ustod
Xotirida xatlar bari bo'ldi yod.

Shoh saranjom topib andin, oldi tin,
Yana Rum mulkiga qaytish oldidin,

Suturlab yasadi unga farzona,
O'shal jomga monand edi, shohona.

Chun shohga bir muncha oshno bo'ldi jom,
Taxt uzra oldi ul bir qadar orom.

Farzonaga dedi: "Istarmanki, hay,
Bu taxt uzra biror kimsa chiqmagay".

4235 Bir tilsim yasadi farzona shunda,
Kimki chiqar bo'lsa taxt uzra, unda.

Bir lahza o'tmayin, tebranib yomon,
Taxt uni ustidan otar beomon.

Eshitdimki, hamon shu holatda ul,
Birov chiqar bo'lsa, hamon tebranur...

Shoh Xusrav rasmiga ayladi taqlid,
Yurdi darvozaga Kayxusrav yanglig'.

Uning taxtu jomiga solgach nazar,
Kayxusrav g'origa yurdi Iskandar.

4240 Qal'a begi kamoli izzat ila,
Boshlab borid shohni mashaqqat ila.

Ul tangu tor g'orga yaqinlashdi shoh,
Otlar toshloq yo'lda toliqdi raso.

Yo'l andoqkim, unda ko'rinmasdi iz,
Tikon birlan xarsangtosh erdi yolg'iz.

Yo'lboshlovchi dedi: "Kayxusrav, ana,
Shu g'orda topmishdir so'nggi poshpana.

Bu yo'lda chaqmoqlar chaqilmish necha,
Qoyalar qulamish qanchadan-qancha.

4245 Bu g'orning sirriga yetishdan oldin,
Tin olib, bir nafas andisha qilgin.

Bu yo'lda changlarga botishing o'yla,
Kayxusrav singari yotishing o'yla.

Parda ortidin kim izlar ersa roz.
Sarson bo'lib, tashvishga botgay, xolos.

Tulporing jilovin ortga bur, ey shoh,
Bu g'orni qo'riqlar yovuz ajdaho!"

Sikandar bu gapga ko'nmadi, hamon
Yayov yurdi Kayxusrav g'ori tomon.

4250 Shoh oldinda edi, Balinos ortda,
Ikki navkar soqchi – ikki tarafda.

Ehtiyot-la yurib, yo'l bosib og'ir,
G'orning dahliziga yetdilar oxir.

Ko'rib unda g'orning xazinasin, bas,
Qo'rquvda qoldi mardi yazdonparast.

Oldinda bir raxna, yorilmish devor,
Ul sari yo'l qorong'u erdi ham tor.

Shag'riyor mashaqqat-la o'tdi shu on,
Topmoqchi erdi yori g'ordin nishon.

4255 Bir nafas kechmadi, ko'rindi olov,
Yaqin borguvchiga qo'rqinch, beayov.

Balinosdin so'rdi: "Qaydin bu sharor?
G'or sahnida qayoqdin bug'u buxor?"

Donishmand ko'z soldi atrofga tutash,
Qoyatosh bag'ridin chiqardi otash.

Ko'z tashlab, u yerda choh ko'rdi chuqur,
O'shal choh tubidin taralardi nur.

Andin ravshan edi g'or ichi, yorug',
Ammo ul tarafga boriShga yo'l yo'q.

4260 Izladi, kelmadi vale omadi,
O'shal yoqqa borishga yo'l topmadi.

Shunda ip-arqonni beliga boylab,
Tushdi choh tubiga jasorat aylab.

Olovning boisin izladi shu dam,
Ne sabab g'or ichi yorug'ligin ham.

O't-olov tutashib yorandi nuqul,
G'or emasdi, oltingugurt koni ul.

Xabar berdi, tortib oldilar chohdin,
Duo aylab, tahsin eshitdi shohdin.

4265

Dedi: "Bu manzildin ketayli shu tob,
Olovda har lahza shiddatu shitob.

Kayxusrav bu sirni bilgan chamamda,
Oltinugurtga dafn etilmish bunda.

Marhunga chtiromin aylab bajo,
Olovlar ustiga atir sepdı shoh.

Tashqari chiqiboq axtardi yo'lni,
Topolmayin darhol, o'ksindi ko'ngli.

Banogoh dengizdin yuksalib buxor,
Bulutga aylandi, yog'ib berdi qor.

4270

Qor edi, qor faqat, boqsang qayoqqa,
Daralar, tepalar belandi oqqa.

Sikandar toliqdi qor kechib yurib,
Kipriklaridin qor oqardi erib...

Qal'a posbonlari xabar topdilar,
Shahanshohga yordam uchun chopdilar.

Qordin xalos etib o'ng ila so'lni,
Sikandarga ravon etdilar yo'lni.

Qildilar har nechuk chorayu tadbir
Podsho g'or bandidin qutuldi oxir.

4275

Yashil tusli tovus ko'rsatib chiroy,
Qanotin olam uzra yozdi humoy.

Humoyun ravishli tojdor endi
O'rnidan qo'zg'olib, taxtidin indi.

Kirdi ul hashamdor chodirga yana,
Yana baxti bo'ldi unga parvona.

Tin oldi har taraf yugurmog'idin.
G'orning vahimasi, yo'l charchog'idin.

Tanin uqalatib, oromish etdi,
Osoyish istadi, uyquga ketdi.

4280 Osuda bir rohat og'ushida shoh
Uxladi subhi sodiq yetguncha to.

Subhidam yetishdi, samo yuz ochdi,
Shafaq gulgun mayin tuproqqa sochdi.

Lojuvard ko'k o'zi berdi shu fursat
Rayg'oniy rang ila zaminga ziynat.

Sikandar bazmga mayl etib shu dam,
Buyurdi: taomu may tizing ildam!

Saririy shohni ham chorladi hamon,
Izzatiga loyiq ko'rsatdi maqom.

4285 Mayi la'l oldilar qo'lga hasma-bas,
Chunonki bo'ldilar ul bodadin mast.

Shoh bazm ahliga saxovat sochdi,
Mezbonga xazina eshigin ochdi.

Baxshoyish ayladi unga tavqu toj,
Zarrin toj berdi ul, yana taxti oj.

To'n berdi bir ajib, gavharin naqshi,
Parvinga o'xshardi yonib, chaqnashi.

Yana bir jom berdi turunj rangida,
Ki yarimta norinj sig'ardi unga.

4290 Yana bir la'l berdi, yarini erdi zar,
Ki yoqut donali anorga o'xshar.

Yana zumrad taxtanard etdi tortiq,
Toshlari la'lu zar, qizil va sariq.

Yana bir billurin xontaxta berdi,
Ustida nasrindan guldasta erdi.

Yana irg'ishlagan o'n asl tulpor,
Egar-jabdug'i erdi gavharnigor.

Yuz azamat teva ham erdi birga,
Yuklari tufayli botmishdi terga.

4295 Yuklar tuguk-tuguk, zil-zalvor edi,
Javohir necha pud, zar xarvor edi.

Har kimsaga zarrin libos berdi ul,
Shaxsiga mos libosi xos berdi ul.

To'hfalar to'planib, jambasta bo'ldi,
Sariri Saririy orasta bo'ldi.¹¹⁷

Shoh qo'lini o'pib sadoqat bilan
Manzili sori ul yo'l oldi xursand.

Sikandar qo'zg'olib oyoqqa tikka,
Yana bayrog'ini ko'tardi ko'kka.

¹¹⁷ Sariri Saririy – Saririyning taxti.

4300 Yuksak tog' oralab daSht sari yurdi,
Chodirin dengiz bo'yiga qurdi.

Dasht bag'rida bir hafta aylab shikor,
Yana azmi safar etdi ixtiyor...

*Iskandarning Ray ila Xurosonga borgani
Soqiynoma*

Ketur, soqiy, ul jomi zarrinnigor,
Faridunu Jamdin o'shal yolgor.

Sen oshig'i sodiqqa tutgil uni,
Ki mastlikda kechirsin bu uyquni...

Pandu hikmat

Ey ko'ngil, shy o'yin kerakmi senga?
Har gal ko'rinishing bir o'zga rangda.

4305 Nafs og'ochi ochmish eshigingda gul.
Nari sur, boshingni band etmasin ul.

Mayi nob ichmayin mastlik aylama,
Ichar bo'lsang, butparastlik aylama.

Za'faron yemasdin yuribsan xandon,
Gar za'faron yesang, bo'lursen xazon.

Etma podsholardek ko'p xushxoralik,¹¹⁸
Oldinda bir kuning bor, bechoralik.

¹¹⁸ Xushxoralik – mazali taomlarni ko'p eyish.

Jahondin jonini qutqarur faqat,
Kimda g'ayrat bo'lsa, azmu shijoat.

- 4310 Zafarga mehnatu mashaqqat garov,
Neftu go'gurt bo'lsa, o'chmagay olov...

Doston

Ko'ring surat solguvchi ul yaxshini,
Chekdi tuxta uzra andoq naqshini.

Ki xusrav Kayxusrav taxtida erdi,
Keyin shitob aylab lashkarga bordi.

Faqat bir kun o'ltirdi taxt ustida,
Yuk boyladi yana ko'chish qasdida.

Bir xabarchi kirib shamoldek nogoh,
Er o'pib, ehtirom ayladi bajo.

- 4315 Eshitsin deb shu topda shohi jahon,
Xabar keltirmishdi oshkoru nihon.

Ki "Sitaxr yoqdin yugurdim-eldim,
Qutlug' ostonani o'pishga keldim.

Umr ko'rsinlar deb shohimiz uzoq,
Noibingiz sizga arz etar shundoq:

Shoh meni bu yurtga etdilar noib,
Bajardim bu ishni jonimdan suyib.

Yurtning oldi-ortin o'ngladim chunon,
Kimsadan kimsaga yetmadi ziyon.

4320 Ahdimga hamisha vafo ayladim,
Shohimga xizmatim bajo ayladim.

Bihamdulloh, magar balanddirmi, past,
Bu yurtda birovg'a yetmadi shikast.

Valekin, na iloj, aylanur sipchr,
Jahonning matohi emish kiynu mehr.

Zamon yaxshi, yomonga payvand erur,
Falak goh do'st esa, goh dushman erur.

Ekilmagan og'ochni o'stirdi Ray,
Ajdodimdir, deydi, ul Kovusu Kay.

4325 Ifritdir, ofatdir, bir devi balo,
Halok aylaguvchi yovuz ajdaho.

U bois cho'ldagi cho'pondir, cho'liq,
Tayog'ini qo'yib, olmiSh qo'lga o'q.

Dalada belkurak ko'targan dehqon.
Belkurakni tashlab, mashq qilur kamon.

Boshini ko'tarmish ahriman kushod,
Har shaharda andin fitnayu faoyod.

Bo'ylakim toju taxt da'vosin qilur.
O'zini nomusli etib ko'rsatur.

4330 Atrofiga yig'ilmish xaloyiqni ko'p,
Kechar bo'lsa, daryo ham qolgay qurib.

Kuchiga ishonchi baland shu qadar,
O'zini yagona hukmron sanar.

Kim o'z xo'jasiga urar bo'lsa dam,
Boshidin ayrilur, bisotidin ham.

Jilovini tutib ahli Xuroson,
Shaydir shohga qarshi etmoqqa isyon.

Nishopurdin Balx tuprog'iga dovr,
Bizga qarshi nuqul g'avg'oyu g'uvur.

4335 Fitnakor hujumga shay etib o'zni,
Taxtgohing sari burmoqchi yuzni.

Fitnakim kiynali erur har dama,
Sen uni kichik deb sira o'ylama.

Katta ofatga eltar goho kichik,
Kichik tikan yarosi goho yirik.

Fitnakor tor-mor etilmasa ul,
Muqarrarkim cho'zar shoh tomonga qo'l.

Shoh uni etmasa gumdon bir yo'la
Toju taxtga chovut solgay tig' ila.

4340 LoChin oshiyondin uchgani zamon,
Kaklikning qanoti qayrilar hamon.

Mening lashkarim oz, yetmaydi kuchim,
Nobakorning ko'zin ko'r qilmoq uchun.

Lashkarning sarasi viloyatda kam,
Ki ul shohi jahon dargohida jam.

Kun o'tarkan, yashab azozil o'g'li,
Quvvatga to'lgay o'sha, qursin qo'li!

Nobakorga faqat shoh berar barham,
Boshqalar bu ishga ojizdir bu dam”.

4345 Xabarchi bo‘ylakim jo‘shib so‘yladi,
Nomaga qalbini qo‘shib so‘yladi.

Har yaxshi-yomonkim nomada nihon,
Oshkor etdi ul, ayladi ayon...

Shohi sherdil, ul xisravi piltan
Dedi o‘z-o‘ziga taassuf bilan.

“Men bunda Kayxusrav taxti uzra, bas,
U yoqda taxtim uzra begona kas.

Nc ajab azaldin maqol bor shunday,
Hinduning mol-bisotin hindu shilgay...”

4350 Savob andin kelurki, etsam shitob,
Dushmanga sustkashlik crur nosavob...”

Magar shoh maskani ersa-da osmon,
Osuda yotolmas unda bir zamon.

Jahon karvon esa, shoh misli solor,
O‘shal karvon yuki hamisha bisyor.

Har go‘shaning tashvishin tortar edi,
Ish ustiga ish yana ortar edi.

Har mushkulga chora topar erdi shoh,
Har mazlumning dardu g‘amin yerdi shoh.

4355 Jahongardlikni etmish tole nasib,
O‘ltirgaymi oyoqqa kunda osib?

Qo'zg'oldi o'shal manzildin Shahriyor,
Sohil bo'ylab yurdi kanor-barkanor.

Lashkari bayrog'in ko'tardi baland,
Besutun tog'idin ko'tardi baland,

To'xtab ov ham ovladilar goh mahal,
Ov-ovlamoq xush edi, ovloq go'zal.

O't-o'lan gurkirab, boshi xam edi,
Ohularga yemish g'ami kam edi.

4360 Bulutlar sel quyib, bulutni quvib,
Olamning yuzidin g'uborin yuvib.

Chaqmoq chaqib havoda asri nayson,
Guldirak solardi har lahza suron.

Ko'katlar tovlanib, yashnardi yerda,
Daraxt yaproqlari o'ynardi yelda.

Bulbullar fig'oni ko'kka uchib goh,
Gulning yaqosini chok aylab sabo,

Guli la'l ul guli nor uzra xandon,
Qizil na'lli otin surardi shu on.

4365 Ikki ne'mat tut birla tut bargi ul,
Halvo bo'lur andin, ipak ham bo'lur.

Zamin zardir, suv unda moviy tariyq,
Harirdir ul, nimyashildir, nimsariq.

To'rg'aylar xonishi cho'lda har mahal
Cho'l ahliga sozu sadodin afzal.

Arpa boshog tortib, chayqalur xushhol,
Dehqonga deydiki. qani, o'roq sol!

Qorin solmish jayron yaylovda yurib,
Bo'ri tish qayraydi unga, yutunib.

4370 Qulon ham et boylab, rosa semirmish,
Maro cho'lni qo'yib, tog' sari yurmish.

Ohuchalar bunda tug'ilmish andoq,
Jahonni to'ldirmish ohu qo'zichoq.

Jahondor ov ovlab, goh simirdi jom.
Manzildin manzilga ayladi xirrom.

Gulpechdek erdi ko'kda bir kunlik oy,
Bir haftada Xallolda ochdi chiroy.

Chiqib ul halqadin Shahanshoh yurdi,
U joy Xalxoli zar atalur endi.

4375 Bulutdek yoprildi Gelonga hamon,
Go'yoki o'rmonga kirdi arslon.

Har otashkadaga qadam qo'yib ul,
Undagi o'choqni muzlatdi butkul.

Sindirib hirbadning belin, o'rtadin
Ko'tardi zardushtiy rasmu odatin.

So'ng Gelondin chiqib, Ray tomon yurdi,
Dushmanning payini qirqmoqchi erdi.

Otashparastlarga zug'um etdi chun.
Ularning ohidin yuksaldi tutun.

4380 Yo'lbars keldi deya eshitdi dushman,
Teshik izlab cho'loq tulkiga monand,

Xurosonga qochdi bo'lib sarsari,
Ray qoyimmaqomi ko'zidin nari.

Podsho eshitdiki, u g'addor g'anim,
Qochmish uning salobati vahmidin.

Qochganni quvladi, yetishdi o'zdi,
Shabexun urdiyu yo'lini to'sdi.

Shitob etib, jangu jadal aylabon,
Boshini tuproqqa qordi beomon.

4385 Jasadini tuproq ila siyladi,
Lashkarini parokanda ayladi.

O'shal joykim, boshdin ayrildi dushman,
Bir tema bor edi, ko'klamzor baland.

Shukronayi davlat uchun Shahanshoh
O'shal yerda bunyod etdi bir bino.

Ziynat berib so'ngra tillodin tamom,
Pahlaviy tilida "Hari" qo'ydi nom.¹¹⁹

Imorat ishini bitirgach, keyin
Shahri Nishoburga surdi lashkarin.

4390 Ikkiga bo'linib ul ahli diyor,
Yarmisi erdilar unga tarafdor.

¹¹⁹ Hari – Hiri, Hirot.

Yarmisi tarafdori Doro edi,
Doroga sidqi oshkoro edi.

Biyroq qoldirmishdi bu yerga Doro,
O'zi o'ltirmishdi ostida go'yo.

O'shal bayroqni maydonda tikdilar,
Nomusimiz deya ta'rif etdilar.

Sikandar nechakim qahr ayladi, kiyn,
Tark etmadi ular Doro rag'batin.

4395 So'ng qarorga keldi, yaxshidir albat,
Tarafdorlariga aylasa madad.

Qudratini ayon etib shu onda
U ham bayrog'ini tiksa maydonda.

Maqsadi podshoning bo'yla erdi, bas,
Bayrog'i hilpirab tursin qasdma-qasd.

Angladi, bu shahar Doroga sodiq,
Iskandar amriga yurmagay ortiq.

Qiyomatga qadar xusumat, kiyndan
Yo'zig'i bor emish, qutulmas undan.

4400 Xusumatchilar butkul tuproqdadir,
Lek xusumat hamon ul tuproqdadir.

Sikandar qo'shinni ilgari surdi,
Nishoburdin chiqib, Marvga yurdi.

So'ndirdi otashi hirbadxonani,¹²⁰
Olovdin nari quvdi parvonani.

Balxga borib, Zardusht otashin hamon
Shamshir to'foniga botirdi tamom.

Balxda bahor edi uforu atir,
Ki andin tozagulning og'zi taxir.

4405 Paripaykarlari edi xushnigor,
Sanamxonalari chun xurrambahor.

Hisobdin ortiq necha dinoru ganj
Qo'ymishlar har yerga beozoru ranj.

Zardan taqalanib mo'badning oti,
Ozargo'shasb edi u joyning oti.

Sikandar ul xazinaga urdi dast,
Mug'larni jomi bodadin ko'rdi mast.

Sanamxonalarda qolmadi pari,
Do'zaxparastlarni haydadi nari.

4410 Necha xazinani yig'ib, etdi jam.
Necha siyalarga ayladi malham.

Xurosonni kezib, navbatma-navbat,
Kirib har shaharga, turdi bir muddat.

Aqlini kirgizdi xurosoniyning,
Qulog'ini cho'zdi xurosoniyning.

¹²⁰ Hirbad – otashparastlar peshvosi.

Har nohiya sari ot surdi ravon,
Iqboli madadkor bo'ldi har zamon.

Xurosonu Kirmonu G'azninu G'ur
Bo'ylab qadam-qadam ot surdi mag'rur.

4415 Va har shaharga ul yetishga zahot,
Shahar darvozasin ochdilar kushod.

Gar jahon kezmagi base ranj edi,
Va lekin yo'li ganj uza ganj edi.

Har manzilga qo'nib, toparkan qaror,
Xazinasi ortar edi necha bor.

Bo'y cho'zarkan ul siymu zar xirmani,
Qo'ymasdi, tuproqqa ko'mardi ani.

Oltinki, odamiyni qo'rqqoq qilur,
O'tda yonsin, ko'milsin tuproqqa ul.

4420 Xaloyiq zar ko'mib tuproq ostiga,
Temirdin qulfu band urar ustiga.

Shamol esib, sovursa tuproqni gar,
Temir qulfu banddin unga ne samar?

*Iskandarning Hindistonga borgani
Soqiynoma*

Ketur, soqiy, ulkim eritilmish zar,
Qizil gugurt andin yasalmish magar.

Ichib, dardinga men davo aylayin,
Misni zar etib, kimiyo aylayin.

Pandu hikmat

Otingni surma ko'p, sahro xush erur,
Jilovni bo'sh qo'ygil, yo'l dilkash erur.

4425 Bu joydin yaxshiroq qaysi joy emish,
Bo'lsa, ehtimolki, u bog'i bihisht.

Ko'ngil berma tuproqqa, ko'p chekma xun,
Ganj ila tuproqqa jo bo'ldi Qorun.

Najot yo'li xorligu afgandalik,
Quyoshda bo'lmagay parokandalik.

Yurar yo'li mashaqqatli ersa gar,
Savdogarlar ko'rar ko'p sudu samar.

Yo'lda yo'q esa yo'lto'sar vahmasi,
Savdogarning kamroq bo'lur foydasi.

4430 Magar ganjxona ichra zar ko'p bo'lur,
Yo'lda ajdahodin xatar ko'p bo'lur.

Doston

O'shal muloyim so'zli, shirin guzor
Yana hikoyatin ayladi izhor.

Ki shoh so'ng G'aznidin o'tib, yurdi Balx,
Qoldi bir chetda suv, u daryoyi talx.

Yo'li sarhadiga borib yetdi, bas,
Hindiston safarin ayladi havas.

Donolarga aytdi ul ishtiyog'in:
"Davlat o'payotir, dedi, oyog'im.

4435 Hama mulki Eron meningdir tamom,
Hindiston sari endi bursam lijom.

Bosh urib borsam Kaydi hindu taraf,¹²¹
Kiynayu nayrangni etsam bartaraf.

Boshqalarga o'xshab etsa xizmatim,
Undan ayamasman lutfu himmatim.

Agar qasd etib, men bilan urushgay.
Olmosdek shanshirim bo'yniga tushgay.

Ost-ust etarman borini shunda,
Men ko'rsatgan joyda o'ltirar unda.

4440 Agarchi yiroqdin borgum ot surib,
Manglayin yorarmen shamshirini urib.

Furlar furi boshidin olgum kuloh,
Xonlar xoni sari chekarman sipoh.

U yerdin borgum keyin Chochu Taroz,
Jahonni kezarmen etib turktoz".

Lashkar boshliqlari, a'yonlar butkul,
Bu azmu qarorni etdilar qabul.

¹²¹ Kaydi – Qinnuj podshosi, Iskandar uning qiziga uylangan.

O'shal kun yulduzi yor edi,
Yana davlat qushi madakkor edi.

4445 Sikandar lashkarin saflab, qatorlab,
Yo'lga tushdi so'ngra quyoshdek porlab.

G'aznidin chiqib, Hindistonga kirdi,
Tutash yo'li yashnagan bo'ston edi.

Avval dedi qahru itob aylasam,
Kaydi hindu sari shitob aylasam.

Bulutdek yoprilib borsam nogahon.
Tig' chekib, mulkini aylasam talon...

Qilma bu ishni, dedi farzonalar,
Magarki andoq qilur devonalar.

4450 Sikandar shunda elchi shaylab hamon.
Hinduga bir maktub jo'natdi, payom.

Ki jang qilish istasang, tizgil sipoh,
Boshingga yoprilgan bulutmen, qaro.

Xizmatimga omoda ersang magar,
Qilichim boshingga solmagay xatar.

Tinglab shirin so'zing ul, jonparvaring,
Podsho edim, bo'ldim bugun chokaring.

4535 Bir so'z ila ko'ngilni band aylading,
Jodu tiling ila tugun boylading.

Shundoq qilki, shu ahdu paymonimiz
Naslimizga bo'lsin armug'onimiz.

Agar to'rt gavharing yuborsang menga,
Anjumanda paymon berarmen senga.

Magar yetti iqlim bo'lsa hamki yov,
Mulkingdin bir tukni uzolmas biro.

Yaxshi-yomon kuningda yoring o'zim,
Ahdu paymonda ustuvoring o'zim".

4540 Elchi o'qib nomani, aylab tamom,
Noma yuborguvchidin aytdi salom.

Bu so'zlar Kaydiga sehrini sochdi,
Sehru jodularning eshigin ochdi.

Sezib jonida chun sehr ila jodu,
Kaydi tuydi o'zni bir yo'la hindu.

Hindu jodusini bilar edim, bas.
Bilmasdim, hinduni jodu etar kas.

Elchi yana shirin so'zlar so'yladi.
Keltirgan tuhfasin taqdim ayladi.

4545 Kaydi dili qinidin chiqdi go'yo,
Jahongir sha'niga aytdi tasanno.

O'qib Shahriyorga necha ofarin,
Dedi: Shoh bo'lsinu zaminu zamin!

Elchiga ham aytib yurakdin rahmat,
Hozirlikka so'rdi bir hafta muhlat.

Oradan bir hafta vaqt o'tib tamom,
Barcha hozirliklar bo'lgach saranjom,

Shohning farmoniga bosh egib butkul,
Elchiga topshirdi ehsonlarni ul.

4550 O'shal to'rt narsakim, erdi arjmand,
Yana qancha boylik-bisot dilpisand.

Ganj erdi, zaru zevaru la'lu dur,
Fillarga ortildi bari badastur.

Hindiy po'lat erdi behisob, bisyor,
Udu anbardanam xarvor-xarvor.

Xuddi tog'dek qirq azamat janda pil,
Beliga chiqmasdi magar kechasi Nil.

Uchta oq fil, tashimoqqa taxti shoh,
Dushmani kuni tortgaydi andin qaro.

4555 Ehson etdi Balinosga ham necha,
Pishgan mushku xomchil uddan boricha.

Pariga maskan aylab taxti ravon,
Ki sajda etardi unga osmon,

Ravon ayladi yo'lga chun ganj ila,
Har biri topilmishdi yuz ranj ila.

Balinos bo'yla zar-zevarni tortib,
Har biri erdi bir o'lkadin ortiq,

Keltirib, jahongir oldiga qo'ydi,
Shohim, ne tuhfadir, nazal sol, dedi.

4560 Shoh ko'rdi chun ganji guharzotni ul,
Yana to'rt orzuyi Xudododni ul,¹²²

Bo'ldi ganji guhardin muncha xushnud,
Rumdagi ganjinasin etdi unut.

Keyin to'rt paykarga nazarin soldi,
Bariga tan berdi, hayratda qoldi.

Ko'rdi o'shal jomi jahontobni,
Unda hech tunganmas mayi nobni.

Faylasuf-la suhbat qurib Shahriyor,
O'tmish ayyomlardin bo'ldi xabardor.

4565 Hakimi hoziq chun ufurdi nafas.
Tandan xastalik ketdi, dildan havas.

So'ngra ganji nihoniyga yetdi gal,
Ko'rindi Hindistondin Chiniy go'zal.

Har ne go'zaldan-da go'zal erdi ul,
Malohatda qandu asal erdi ul.

Gul erdi, xushbo'y edi ul, beg'ubor,
Sovuq yel zahrin tortmagan navbahor.

Pariipaykar, ajab orasta erdi,
Husn bobida bir guldasta erdi.

4570 Og'zi tor, yuzi oq, qoshi qalamdi,
Yashil butoq uzra bir yosumandi.

¹²² Xudoydod – Xudo bergan.

Shirin edi, gulshakar andin yiroq,
Og'ushi gul og'ushidin yaxshiroq.

Tugun-tugun zulfi tuzoq erdi, dom,
Hama Chiniylar anga tutqun, g'ulom.

Ohu kabi Chinda mushk etib hosil,
Qaranful yemishdi Hindistonda ul.¹²³

Kokil emas, zanjir edi, Chinu tob,
Yuzi – bulut og'ushida oftob.

4575 Mushkin bulut chamanda gul ochardi,
Oy sunbula erdi, sunbul sochardi.

Bug'doyrang, nozanin bir dildor edi,
Betida arpadek xoli bor edi.

Bug'doy ichra arpa edi, mushksoy,¹²⁴
Bug'doy ko'rsatib, rapa sotmasdi oy.

Oy edi, turkchehrali, hindusirisht,
Shohga Hindiston aro misli bihisht.

Hindu dema, turku xitoy unga nom.
Ko'ngil ovlashda erdi hindu tamom.

4580 Rumi yuzli, hindiy so'zlini ko'rib,
Rumi shoh qoldi shunda hindu bo'lib.

Shakarxandasi erdi chun nayshakar,
Latifu xushu nozliyu jilvagar.

¹²³ Qaranful – qalampir.

¹²⁴ Mushsoy – mushk surib qoraytirilgan.

Ajab ofati jon, parivash edi,
Gavhar edi, suv edi, otash edi.

Shoh ko'rdi chun sohibi noz kelganin,
Gulg'uncha yanglig' dilnavoz kelganin.

Aylab ul ishoqiy rasmini ado,
Ki aql ko'zi andin topmish ziyo,

- 4585 Qizni kelinchakdek ayladi qabul,
Maylu xohishiga keyin berdi yo'l.

Kelinchak otasi, mulki Hindiston
Shohiga olanni etdi guliston.

Javohiru ipak matoh raxt-raxt,
Harir chodiru unda zarrina taxt,

Oltin toj berdi, toshi yoqutu la'l,
Necha bedov ot berdi, po'lodna'l.

Necha Chiniy g'ulom, burgut qiyosli,
Rumiy kanizaklar, zarrin libosli.

- 4590 Xayolga ham sig'mas bisot necha bir,
Jo'natdi shoh, Kayd bo'ldi minnatpazir.

Jahonxusrav, Iskandari Faylaqus
Ul mohipaykar yuziga surdi yuz.

Sanam edi qiz, buti tannoz edi,
Halvo edi, poludayi mag'z edi.¹²⁵

¹²⁵ Poludayi mag'z – hodom mag'zli halvo.

Poludaga botirdi barmog'ini,
Bilmadi andin nechuk olmog'ini.

Teshilmamish duru ochilmamish gul,
Humo erdi anga devona bulbul.

4595 Ochildi gul, teshildi dur nash'ali,
So'zni ko'rgil, aytildi chun pardali.

Yorga yetib, jahondin kom topdi shoh,
Davlat tashvishidin orom topdi shoh.

Istaxruga yubordi bir kimsani,
Xabar berdi xabarchi aylab ani.

Yozdi bir so'zlarkim, murodi erdi,
"Zafar quchdim mushkin o'lkada, dedi.

Ishlarim yurishdi Hindistonda, bas,
Arziydi birovlar aylasa havas.

4600 Kiynaxoh edi Kayd, chunon siyladim,
G'anim edi, jonimga do'st ayladim.

Qinnujga yurgaymen endi, Fur tomon,¹²⁶
Yiroq yo'lda Xudo bo'lgay mehribon.

Ko'rgaymen, qarshimda ne chiqar unda,
Niyatga yetgaymen necha bir kunda.

Noibimsan, ilkingda har marzu bum,
Bahri Chindan tortib toki bahri Rum.

¹²⁶ Qinnuj – Hindistonning bir mintaqasi, Fur – o'sha joyning hokimi.

Jahonga nido sol shodon, muzaffar,
Fathu zufarimdin bergil xushxabar.

4605 Askarmi, shaharlikini ul yoshu pir,
Bizning mehrimizni aytib, sevintir.

Har kimsaning ko'nglini shod aylagil,
Duo ista, donish ber, dod aylagil".¹²⁷

Shundoq maktub yozib, xos elchi ila
Junatdi uni har o'lkaga so'ngra.

Ko'rib har ne hozirliklar borini,
Yunonga yo'lladi go'zal yorini.

Sadoqatli lashkar qo'shdi yoniga,
Ki ziyon etmagay kimsa joniga.

4610 Jonidin e'zozlab hindu qallig'in.
Necha tuya siymu zar berdi tag'in.

Qolgan xazinasin tuproqqa uydi,
Ko'mib, ustiga bir nishona qo'ydi.

Dono dasturi-la yozdi vasiqat,
So'zi ilmu adolat erdi faqat.

Xabar berar edi yaxshi, yomondin,
O'ziga xayrixoh necha insondin.

Ko'ngli tinchib, bir oz orom oldi shoh,
Fur mulkiga yetib, tikladi borgoh.

¹²⁷ Dod aylagil – bu erda adolat qil ma'nosida.

4615 Shohlar rasmi raviShin toza qildi,
O'zni Hindistonda ovoza qildi.

Adl aylab, baxshoyish etdi har gal,
Jahonda shu yo'sin bo'ldi muzaffar.

Kayni yod aylabon may ichardi. chun
Uni yod etib may icharlar bugun...

*Iskandarning Hindistondan Chinga borgani
Soqiynoma*

Ketur, soqiy, menga mayi arg'uvon,
Ki ojiz keksani etar navqiron.

Ber menga, o'zni navqiron aylayin,
Gulimni rangi arg'uvon aylayin.

Pandu hikmat

4620 Saodat yuz ochdi yetib bizga boz,
Navozanda kelib, yana chaldi soz.

Suxan, so'z aytilib, yorlikka yetdi,
Suxango'y boz umidvorlikka yetdi.

Ma'nisin bayon et ul hangomani,
Bayon ayla o'shal yaxshi nomani.

Jahondori farrux jang qilib u payt,
Furlar Furi boshiga ne soldi. ayt.

Doston

So'ylaguvchi so'ylab ushbu hasbi hol,
Pardadin ko'rsatdi andoq bir xayol.

4625 Ki shoh forig' bo'lib Kayd koridin ul,
Gahi may ichardi. goh ovga mashg'ul.

Furning torojiga yubordi lashkar,
Buyurdi: taxtidin etingiz badar!

Shoh shamshirin chekdi g'ilofdin chunon,
Badandeshning bo'yniga tushdi arqon.

Hama molu mulkin ayladi toroj,
Shamshiridin boshiga qo'ndirdi toj.

Furni mag'lub etib, yiqib poyiga,
Shoh boshqani qo'ydi uning joyiga.

4630 Jo'nadi u yerdin ko'tarib bayroq,
Otlarga ziyondi u yerda turmoq.

Uch narsa bordirki, uch manzil aro
Umri zavol topar, kunluzi qaro.

Hindistonda otu Fors yurtida fil,
Chinda mushuk bo'lgay zabunu zalil.

Jahondor ko'rdiki, o'shal obu xok
Uchqur bedovlarni aylagay halok.

Hindistondin yurdi to Tibbat zamin,
So'ng Tibbat zamindin to aqsoyi Chin.

4635 Tibbatga yetarkan toji, afsari,
Kulishga boshladi jumla lashkari.

So'rdi: "Bu kulgiga bois nedir, hay,
Yig'lamoq joiz erdi-ku har qalay".

Dedilar: "Sababki, shu sariq tuproq
Bizga ta'sir etib, kuldirar andoq".

Shoh hayronlar qoldi, shu tuproq, ajab,
Kulgu qo'zg'ar ekan andoq besabab.

Tog'u daryo oshib misoli dolg'a,
Manzil osha manzil yurdilar olg'a.

4640 Shoh sabroni mushkdin muattar ko'rdi,
Yo'lni ov qoniga musaxxar ko'rdi.

Dasht aro bir ohu ko'rdi, nofador,
Buyurdi, bir kimsa aylasin shikor.

Har manzildin yurib o'tarkan lashkar,
Xarvor-xarvor nofa yig'dilar har gal.¹²⁸

Chin biyobonlari ortda qolib bot,
Manzillar ko'rindi oldinda obod.

Yashil maysazorlar ko'rindi shunda,
Ko'katlar barq urib o'sardi unda.

4645 Har qadamda zilol suvlar yarqirab,
Chashmalar oqardi ravon, sharqirab.

¹²⁸ No'la – kindik, kiyik unda mushk yig'adi.

Havo xush erdiyu o'rmonlar quyuq,
Daraxtlarda yashil novdalar o'siq.

Suvlar moviy edi, lojuvard rangda,
Siyobdek tovlanar edi chamanda.

Navrasta giyohlar ham yashnoq crur,
Yaprog'ida shabnam – qatra-qatra dur.

Ohu chashmadin suv simirmish magar,
Nafasi bu joyni etmish muattar.

4650 Marolning tuyog'i maysani ezmish,
Yashil lavha uzra yozuvlar yozmish.

Bir diyor erdikim, yo'qdi qarolik,
Magar bo'lsa hamki, aslida oqlik.

Sikandar ko'rdi, ne ravshan erdi, hol,
Hindiston shavqini tark etdi darhol.

Havas ila ko'z yugurtib har yoqqa,
Dedi: tevalarni yoying o'tloqqa.

Bir hafta yashadi rohatda beg'ash,
Pahlavonlarini yig'ib, etdi aysh.

4655 Bir hafta so'ng xayrli kun sayladi,
Omadi yor bo'lajagin angladi.

Buyurdi, qo's nog'orani urdilar,
Chinning ichkarisiga yuz burdilar.

Dovulchi dovulni qoqib zarb ila,
Ellarning ko'ksidin qo'pordi nola.

Yorishdi Chiniy oyina, osmon,
Sikandar lashkarin chekdi Chin tomon.

Uchardi yelqanot otlarda barcha,
Qurol taqib, musallah erdi barcha.

4660 Havo xush, yo'l tikansiz, bexor edi,
Gar tikan uchrasa, boli bor edi.

Shirin giyohli erdi tog'u dara,
Shiraga to'lmishdi yeb ohu bara.¹²⁹

Kezib saydgohdin o'tar ekan shoh,¹³⁰
Anbar taralardi gardidin go'yo.

Shoh o'qidin olib ohu tamg'asin,
O'sha yerga tashlar edi nofasin.

Marol yiqilarkan o'qiga uchib,
Ko'rardi dunyoni taryakdek kichik.

4665 Jahongir o'kirib bamisoli sher,
Sakragan qoplanni tishlatardi yer.

Ovchilar sahroda ot surib har yon,
Ohu, marollarga otardi kamon.

Er uchqur otlarning tuyuq izidin
Quloqko'z bo'lmishdi qulon ko'zidin.

Ohuni qulatib ovchi nayzasi,
Sochalardi yerga mushki nofasi.

¹²⁹ Ohu bara – ohu qo'zichoq.

¹³⁰ Saydgoh – ov qilinadigan maydon.

Marol tani boshdin oyoqqa qadar,
Zar o'qlar sanchilib, go'yo koni zar.

4670 Shoh kamoni berib zaxmu zavolni,
Qulatardi har o'q ila marolni.

Naqshlar chekib o'q, har tiri xadang,
Chiniy sahrosida qoldirmadi rang.

Ovchilar bilmadi bir lahza orom,
To oqshomga qadar ov etdi davom.

Ufuqqa bosh qo'ydi quyosh, ko'k turki,
Ko'kda balqidi oy, jahonning ko'rki.

Uning savdosida tun, hindu xotin
Yoydi ko'k sahniga bezak, bisotin.

4675 Shahanshoh bedovdin tusharkan endi,
Butun lashkar dag'i otidin indi.

Rohat istadilar tinchib shu kecha,
Qush ham tin oldi inida tonggacha.

Zarrin xallol taqqan yag'mochi sanam
Xallux xirgohidin bosh chiqargan dam,

Tutundan hindudek qoraygay jahon
Yag'movu Xalluxdin yorishgan zamon.

Qoqildi Shahanshoh bongi jahd ila,
Yag'movu Xalluxga tushdi g'ulg'ula.

4680 Shahanshoh shu joyni xushladi bisyor,
Bir oycha turishga ayladi qaror.

Qo'raxona tikib, oxur har yonga,
Otlarni qo'ydilar o'tu o'langa.

Xabar yetdi hoqonga: "Sahroyu tog'
Otlar tuyog'idin toptaldi andoq!

Sel bosdi, yog'dirdi ul Eron zamin,
Na Chin omon qolgay, na hoqoni Chin.

Tog'u sahrolardin oshib kelar, bas,
Avvalgi to'fonlar bunga pisandmas!

4685 Do'l yerni surayyo qilib begumon,
Dengizga nahangga keltirar qiron.

Qora ajdahoki, chun shiddat ila
Rum tarafdin bizga kelmamish sira.

Habashni kiritmish o'z farmoniga,
Qora zanjiylarni qormish qoniga.

Doroga ham solmish ul torojini,
Hindu shohlarining yulmish tojini.

Furiylarni g'orat etib sarbasar,
Fag'furlar qasdiga boylamish kamar.

4690 Bir dengizki, gar joyidin qo'zg'olur,
Oldida tog'lar ham chorasiz qolur".

Eshitdi chun, bosdi hoqonni qo'rquv,
Bo'yla bir g'animdin qo'rqmay bo'lurmu?

Qon ila yozdi ul noiblarga xat,
Yopildi bizga deb ofat, falokat.

Xito shohidin toki xoni Xutan,
Yig'ib, tartib etdi ulug' anjuman.

Sipohi Sipanjobu Farg'onadin,
Yana o'zga noibu farzonadin,

4695 Yana ahli Xarxez, Chochu Koshg'ar,
Bahodirlar kelishdi, zarrin kamar.

Qo'shinlar jamlanib, omuda bo'ldi,¹³¹
Xonlar xoni tinchib, osuda bo'ldi.

Tog'dek qo'shiniga amr ayladi xon,
O'midan qo'zg'oldi qo'shin tog'simon.

Shohdin ikki manzil berida turdi,
Lashkargoh yasadi, chodirin qurdi.

Shahriyordin so'rdi necha bor magar
Ne yo'sin jang etmoqni ma'qul ko'rar?

4700 Josuslar yubordi necha bor nihon,
Raqibning holini bilgali ayon.

Josuslar hoqonga keltirdi xabar:
"Shavkatli, shukuhli shohdir Iskandar.

Himnat, marhamati ko'p yuksak erur,
Ki odam suvratli farishtadir ul.

Xiradmandu bosiq, o'tkir aqlu hush,
Xilvatda so'zamol, zahmatda xomush.

¹³¹ Omuda – omoda, tayyor.

Chun olur sabotu tamkin-la nafas,
Birovning qonini sira istamas.

4705 Zulmga yo'l bermas, adolatpesha,
Xudo roziyu xalq xushnud hamisha.

Insonni yaxshilik ila etar yod,
Bo'lmagay birovning anduhidin shod.

Bormi pahlavonkim, qo'rqmas zaxmidin,
Bahodirlar o'lur uning vahmidin.

O'qi orash tirdonadandir faqat,
Gar tegsa, toshga ham solur jarohat.

Sirmasa shamshirin, sochilur otash,
May olsa ilkiga, ganj aylagay baxsh.

4710 Har so'zki so'zlagay, xosdir hikmati,
Har ishki aylagay, bordir ibrati.

Nojoiz so'zni ul tinglamas aslo,
So'z bersa, so'zida sobit doimo.

Shiddat-la kirishar har ishga, lekin
Majlis, mashvaratda sovuqqon, vazmin.

Ov ovlashga tushsa, qizg'in, g'ayratli,
Ammo jang mahali sabru toqatli.

Jahon guvohtir donishu dodiga,
Malik-barmalik. zod-barzodiga.

4715 Maydonda qo'shin oldida shahsuvor,
Zohirda mast esa, aslida hushyor.

Kular bo'lsa, gul ochilur zavqidin,
Hazil qilsa, nur sochilur shavqidin.

Kamsuxandir kamsuxanlar ichra ul,
To'g'ridir hamisha, sarvdek adil.

Siyosat aylagay ersa kiynavar,
Saxovat aylagay qozonsa zafar.

So'zi lablarida goh misli to'fon,
Faylasuflar ila kengashur har on.

4720 Joriy qilur pirlar sabog'in ishga,
Yigitlarni da'vat etar kurashga.

Tangriga ibodat etar erta-kech,
Tangrini tanigan yiqilgaymi-hech?

Har safar egarga o'zni olsa gar,
Uchqur oti ila filni ag'darar.

Qarshisiga chiqar bo'lsa zinda pil,
Qatradir ul, shoh misoli nahri Nil.

Tulpori sarkashlik aylar esa, hay,
Charm qamchisi-la qonga botirgay.

4725 Oldi-ortin o'rab ul mardonavor,
O'ngu so'lga tig'dan o'turgay, sharor.

Podsholarkim sohibi toj bo'ldilar,
Lashkar tortish ila jahon oldilar.

Yo'q andoq qilich urguvchi pahlavon.
Lashkar qurib, lashkarga solgan qiron.

Hayiqmas hech zolimu xunxoradin.
Hayiqar lek ojizu bechoradin.

Borgohida mo'ldir uning mol-bisot,
Meyorida kular aylasa nishot.

4730 Istamas ul ta'zim etsa bir kase,
Ta'zim etsa, navozish aylar base.

Javohir baxsh etar ochib xazina,
Otxonasi bilan ot bergay yana.

Gar unga bir kimsa ganji zar berar,
Evaziga ul shahru kishvar berar.

Niyat tugsa ko'nqliga andoq kishi,
Davron madad etib, o'nqlanur ishi".

Hoqon shoh shaxsining xabarin oldi,
Salobati uni qo'rquvga soldi.

4735 Himmatin eshitib, yumshadi dili.
Diydorin ko'rishga talpindi ko'nqli.

Jang qilish fikridin qaytdi bir yo'la,
Sulh tuzmoq istadi endi shoh ila...

Jahongirga xabar berdilar chunon,
Chin turklari yo'ling to'sdilar debon.

Shahanshoh dedi: "Yaxshi ov-o'ljadur,
O'z oyog'i bilan kelsa to'rga ul.

Magar jang qilish-chun maydonga kirgay,
Nomardlik aylamas, mardona turgay.

4740 Murodingizni chun hosil qilgusi,
Uzoq yo'llar bizga yaqin bo'lgusi.

Andoq jang qilarman bag'rin etib xun,
Chinning toshlari ham yig'lar Chin uchun!"

Moviy falak tongdan oqarib tamom,
Quyosh Iskandarga berarkan salom,

Kotibni chaqirdi, qalam sursa gar,
Mushtariyga Zuhrodan sayqal berar.

Buyurdi, bir maktub yozsin daf'atan,
Ki bo'lsin ko'kdagi oy kabi ravshan.

4745 Yozarkan, ikkiga bo'lsin so'zni u,
Yarmida ummidu yarmida qo'rquv.

Iskandarning Chin hoqoniga maktubi

Qalamkash qo'liga qalam ushlabon,
So'zni Haqqa ofarindin boshlabon,

Jahon yaratguvChini chun etdi yod,
Usiz bo'lgaymidi borliq, koinot?

Xudodir ul ummidu orom berar,
Hojatmand ko'ngilga O'zi kom berar.

Bechora qolsak, chorayi korimiz.
Suv ila otashda nigohdorimiz.

4750 Ehson etib, yo'limiz rost aylagay,
Najot berib, g'amdin xalos aylagay.

Jahondin bir nishon yo'q edi aslo,
Uning amri ila yaraldi zebo.

Asl inson ado aylagay amrin,
Ofarin ungakim, aytur ofarin.

Qalam so'zga berib andoq bir marom,
Shahanshoh tilidin etdirdi davom:

“Bu – hoqonga Sikandar shohdin erur,
Shoyadki, Sikandarparast bo'lsa ul.

4755 Amr aylamish bizga shu charli kabud,
Hoqonga yo'llaymiz duoyu durud.

Ki bilsin ul podshohi ehsonu dod,
Biz bu tuproq sari surgan esak ot,

Kelmadik jang etmoqqa chaqqon bo'lib,
Keldik hoqoni Chinga mehmon bo'lib.

Mezbonlik rasmiga itoat ila,
Mehmonga sen mehmonnavozlik ayla.

Gar shahringdin chiqar ko'kka oftob,
Va mag'rib sari so'ng etgaydir shitob,

4760 Men ham quyoshdirman, sayr etib dunyo,
Mag'ribdin mashriq sari chekdim sipoh.

Oqdin to qarodir amrimda davlat,
Hojatnandlarga ko'rsatdim saxovat.

Habash sarhadidin to Chinga yurdim,
Mag'ribdin shu Mashriq zaminga yurdim.

O'shal quyosh borib hotguvchi yerdan
Kunchiqar joygacha men surdim samand.

Anbarin qaro tol ko'kartdim Hindda,
Endi oq yosuman ekarnan Chinda.

4765 G'azabim o'tini yoqib, kovlama,
Amru farmonimdin bo'yin tovlama.

Magar bo'yin tovlar esang, begumon,
Qulog'ingdin cho'zar shu charxi davron.

Arslonni yaqin keltirmakim, ul
Qulonlar ustiga dadil tashlanur.

Shurni boqqa yo'llab, baloga qolma,
Filning yodiga Hindistonni solma.

O'z boshiga balo orttirar kishi,
Gar mastlar yodidin ersa xonishi.

4770 Ko'rgil qilichimning zarbi, shashtini,
Qon daryosi etdi zanjiy gashtini.

Doroning g'ururin sindirdim nechuk,
Furumoya Furni tindirdim nechuk.¹³²

Necha podsholarni yana baxtidin
Ayirdim, mosuvo etib taxtidin.

Faridun gar chiqsa qarshimga shu dam,
Asir etar edim Faridunni ham.

¹³² Furumoya – past tabiatli.

Qaysi manzilgakim tashladim odim,
Ul manzilni begonadin pokladim.

4775 Har kimki yaxshilik ayladi menga,
Mendin bir yomonlik yetmadi unga.

So'z bersam, so'zimda turdim ustuvor,
Aytganim so'zimdin qaytmadim zinhor.

Tilim paymonimga bo'ldi rahnamun,
Ahdu paymonimdin burmadim bo'yin.

Qadam bosdim shu Yag'movu Chinga, bas,
Chiniy parivashlar maqsadim emas.

Mening o'z gavhari daryolarim bor,
Kanizak Chiniyu yag'molarim bor.

4780 Eron zaminidin Chinga kelganim,
Mening-chun osmondin yerga inganim.

Ey turki Chin, muncha ko'tarding dimog',
Hozir bo'l, shamolga tutmagil charog'.

Joiz erdi-ku ganju mol bermaging,
Ne endi bu sher yo'lida turmaging?

Yo'lim ustida ne aylab muddao,
Saddi Iskandardek saflading sipoh?

Men bilan jang qilmoqqa etdingmi qasd,
Olovga bug' urishdir bu, boshqamas.

4785 Chiqmaysanmi baxtu iqbolga peshvoz,
Uzring qani, ma'zur esang, uzrsoz?

Xabar ber, nimadir savatingdagi,
Ilonmidir yoxud ilon suyagi?¹³³

Lashkarim charchadi sabr etib chunon,
Mening sabrim ko'rib, etarlar isyon.

Arslonlarim ohuyi Chin ko'rdilar,
Semiz ohularni shirin ko'rdilar.

Necha bir sherlarim zanjirni uzmish,
Qon to'kishga zo'rdir ularda xohish.

4790 Kamon o'qi o'tkir uchli bo'lsa gar,
Tirkashni tilka-pora etgay o'shal.

Ko'zimiz dushmanning yo'lidir, bas,
Qo'lda gurzim yuz botmondin kam emas.

Turklarim qo'lga olarkan kamon,
Nishonga olurlar ersang-da hoqon.

O'shalkim tutuninga duch kelgusi,
Naqshi Chin bo'lsa ham tutdi bo'lgusi.

4795 Kim bo'ldim, insonga shafqat etmasam,
Qurisin suvim, unga suv bermasam.

Nayzam tuproqqa qorgay ajdahoni,
To'fonim otashi yamlar giyohni.

O'q uzsam, maydonga g'ulg'ula solur,
Necha arslonni nishonga olur.

¹³³ Qadim eroniylarda ilon suyagi do'stlik ramzi sanalgan.

Yo'limda gar daryo uchrasa, albat,
Shamshirim daryodin chiqargusi gard.

Agar tog' uchrasa, etarmen yakson,
Changu to'zon bo'lib sochilur har yon.

4800 Filjussa podshoman, filni yiqarman,
Panjasin burdalab, yerga tiqarman.

Tish botirmoq marol yoki jayronga,
Ish emishmi mendek sheri jayonga?

Dengiz loChini ko'kda ov etgusi,
Qushlardin baliqlarga yem yetgusi.

Siz baliqsiz, qo'lsiz-oyoqsiz go'yo,
Biz nahangmiz, og'zimizda ajdaho.

Itlarki, suyak-ustuxon yeydilar,
Tig'dek tish ila gohi non yeydilar.

4805 Qay joygakim yetishdim, qo'ydim qadam,
Fathu zafar menga yor bo'ldi, hamdam.

●●● Kiyi aylasang, men ham bo'lgum beomon,
Mehribon bo'lsang gar, bo'lgum mehribon.

Gavharmi istarsen yoki nahangmi,
Mening dengizimdin olgin ularni.

Ko'rmadingmi tig'im-la yo'l ochganim,
Nahanglar ustiga gavhar sochganim.

Men ul ganju ajdahopaykar, qaviy,
Zahar bor sog'arimda, pozahr dag'i.¹³⁴

4810 Mening izmimdadir ganju ajdaho,
Xabar ber, sen uchun qay biri avlo?

Kelsang, taning bezay ipaklar bilan,
Kelmasang, bo'yningga solurmen kamand.

Senga ham dag'al, ham yumshoq so'yladim,
Har ikkisi ila sinov ayladim.

Sulh deya eshigimga kelsang yetib,
Quyoshdek ketarmen Chinni tark etib.

Yo'qsa, men boqmasmen yuzu ko'ziga,
Chinni cho'ktirgaymen Chin dengiziga.

4815 Maktubimni o'qi, aylama nayrang,
Aytgil, istaging sulhmidir yoki dang?

Tag'ofil aylama, nogoh esib yel,
Sharros quymoqqa ham hozir erur sel".

C'haqirdi, keldi mardi mardumshunos,
Hech kimsadin qo'rquv bilmagan shahboz.¹³⁵

Shohning muhri ila noma shay edi,
Hamon eltib uni hoqonga berdi.

Chin hoqoni o'qib maktubni unda,
Oz qoldi taxtidin yiqilsa shunda.

¹³⁴ Qaviy – qudratli. Pozahr – zaharni kesuvchi dori, taryak.

¹³⁵ Shahboz – lochin.

4820 Haybatidin tushdi ko'ngliga haros,¹³⁶
Ki ziyrakmanish erdi, ziyrakshunos.

Qoldi ikki andisha ichra shu dam,
Sulh etsammikin yoki jang aylasam?

Ikkilanish berar insonga azob,
Uyquga cho'mar ul berolmasdin tob.

Hoqonning Iskandarga javobi
Soqiynoma

Ketur, soqiy, gulobdek ul bodani,
Yuzimga soch, uyqudin uyg'ot meni.

Gulobdir, ko'ngillar safosidir ul,
Hama dardisarlal davosidir ul.

Pandu hikmat

4825 Raqibim eshikni bekit orqadin,
Bor endi, qolma tashvishing ortidin.

Meni tashvishingdin xalos aylagil,
O'z andisham sari meni yo'llagil.

Suhbatimda hojati yo'q kimsaning,
O'z-o'zimga aytar so'zim ko'p mening.

Gar yiroqdin kelar bo'lsa xaridor,
Gavhar koni uzra turib intizor.

¹³⁶ Haros – qo'rquv, vahim.

Nizomiy ganjiga nazarin solsa,
So'zinning bazmidin bahralar olsa,

4830 Degilki, uyning xojasi uydamas,
Bo'lsa ham, begonaga muhtoj emas...

Xato aytdim, ey payxujasta raqib,¹³⁷
G'aribga dushmanlik emasmi g'arib?

Eshigim bekitma, yo'lni etma band,
Eshik yopiq esa, kim aylar pisand?

So'z bois daryo deb nom oldim ajib,
Eshigimni daryodek qo'ygil ochib.

Eshigim lang ochib, oldiga suv ur,
Chodiring oy etib xarobotda qur.

4835 Istaganlar kelsin, bermagil xalal,
Bu so'z sultoniga etsinlar nazar.

Ertaga yuzingga chekarmen niqob,
Geldin Gelon sari borurman shitob.¹³⁸

Base kelgaylar xaridorim mening,
Vale ko'rolmaslar diydorim mening.

Ko'rguvchi ko'rgay bir suratni tanho,
Suratgar kilki solmish daftar aro.

¹³⁷ Ma'nosi berilmagan

¹³⁸ Gel, Gelon – Eron Tabaristoniga mansub viloyat. Misraning ma'nosi: tuproqdan chiqib, tuproqqa boraman.

So'zimni ko'rgilki, uzoqqa ketdim.
Qaydin ot surdimu qaylarga yetdim...

Doston

4840 Bayon etguvchi ul ganji g'aroyib,
Javohirlar sochdi yana ajoyib.

Ki ul vorisi mulki Afrosiyob,
Chindan bosh ko'tarib misoli oftob.

Xabar topdi, kechib necha marzu bum,
Kelmish bir ajdahoki, ul shohi Rum.

Nomasin o'qib ul hayrona qoldi,
Ne qilarin bilmay, o'ylarga toldi.

Yaxshi niyat ila aylab murosa,
Ishning sarrishtasin izladi rosa.

4845 Oxir bir nuqtada ko'rdi ul savob,
Shohning maktubiga yozgaydir javob.

Buyurdi, kog'azin shay etib shu dam,
Kotibi Chiniy olsin qo'lga qalam.

Javob yozsin, buyuk shohga sazovor,
So'zida rutbaga etsin e'tibor.

Sohib qalam chekib so'zning adosin,
Harir uzra to'ksin mushki qarosin.

So'zlarkim, dilpazir bo'lsin, xushkalom,
Eshitgan kimsaga baxsh etsin orom.

4850 Xitob o'lsin, umid bunyod aylagich,
Itob o'lsin, sulhga imdod aylagich.

Fusun o'lsin, jangni yo'ldin aritsin,
Firib o'lsin, toshni mumdek eritsin.

Har jumla nayzadek sabr eshigin
Ochsinu bekitsin qahr eshigin.

Xullas, nomaning ziynati avvalam
Nom bo'ldi ul nomlar aro mukarram.

"Xudovandi beyoru yor hammaga,
O'zi zindayu zindador hammaga!

4855 Jahonni yaratgan ezidi korsoz,
Tavono etguvchi, notavonnavez.

Ko'k ravsanlariga bayroq berguvchi,
Devlarning yuziga qaro surguvchi.

Pargoriga ravish baxsh aylab tayin,
Nuqtaga sukunat berguvchi keyin.

Ayon bo'lguvChini ayon aylagan,
Har ne yetishganni ravon aylagan.

Tili go'yomi, xomush, xushyoru mast,
Uning asroriga urolmagay dast.

4860 Bizga bandalikdin bo'lak yo'q kalom,
Xudovandi mutlaqdir ul, vassalom.

Uning hukmidadir abad ham azal,
Osmonu zaminni yaratmish o'shal..."

So'ng tilga keltirib madhi Shahriyor,
Dedi: "Mudom Tangri bo'lsin senga yor!

Har shohdinki keldi jahonga bir ish,
Ularning kalitin har senga bermish!

Dengiz osha o'zni yo'llading yo'lga,
Eronu Turonni kiritding qo'lga.

4865 Mag'ribda pargoring yuritib andoq,
Mashriq sarhadida ko'tarding bayroq.

Jahonni zabt etding sira bilmay tin,
To'ymadingmi magar jangu jadaldin?

Jilovni tort, yo'l uzradir ajdaho,
Tun qisqadir, afsona beintiho.

Iskandarsanki, shohi Eronu Rum,
Amrindadir mening ham shu marzu bum.

Men kabi qullaring izmingda ancha,
Men boshqa kimsaman, qizishma muncha.

4870 Menu siz tuproqmiz, xok ko'pu kamiy,
Yaxshidir xokisor bo'lsa odamiy.

Shohliging tuproqqa kirgunchadir, bas,
Tuproqda kimsadin kimsa ayrumas!

Magar bir qatrani daryoga otib,
Boshqa qatralardin bo'lmas ajratib.

Bu yurtga kelishni aylab iroda,
Diyorim ne'matin etding ziyoda.

Bergan ne'matiga har ezidshunos,
Tangriga har necha shukur aytsa, oz.

4875 Baski, ne'matimni oshirdi chunon,
Shukrona aytaman haqqiga har on.

Tirikman. Tangriga etaman qulluq.
Xiradmandga bundan yaxshi amal yo'q.

Eshitdim, necha bor berdilar xabar,
Chekar bo'lsang biror o'lkaga lashkar,

Savdogarlar ila necha ahli Rum
Borishi bir odat, dedilar, udum.

Eb-icharlar unda har neki taom,
Taomga qorinni to'ydirgach, mudom.

4880 Qolganin otarlar chohga bir yo'la,
Ne'matga shukrona etmaslar sira.

Ul shaharda zaxira bo'lgach ado,
Sen bosh ko'tarasan misli ajdaho.

O'lkaga ochlikdin solarsen talov,
Mumni yoqib, taslim etgandek olov...

Men sening qarshingga chiqdimki, maqsad
Shahrimga tushmagay bo'yla falokat.

Hiyla, afsun bunda bo'lmagay tadbir,
Chindan yemish kutmoqlik behudadir.

4885 Sulh yaxshidir, nainki maydoni jang,
Biri dard keltirar, biri obu rang.

Chiniylar kemasin aylama g'orat,
Sening kemangga ham suv tushar albat.

Toshko'ngil bo'lma, gar qudratlisan chun,
Xudo hukmi shohlar hukmidan ustun.

Xiradmand xiradmand erur erta-kech,
Qudrat solibi-la o'chakishmas hech.

Jahonda o'zingsan oqil, bilimdon.
Hukmingdadir har ishda yaxshi-yomon.

4890 Kishi gar kimsaga etmasa imdod,
Yaxshilar qatori etilmagay yod.

Haqiqatdir shohi jahon erkaning,
Ki farmoni farri ilohiy sening.

Har narsaning asosi bo'lsin durust,
Binolar qulaydi tamal ersa sust.

Kumushdin zar bo'lmas, billurdin aqiq,
Zo'rlik ila meva yetishgaymu? yo'q!

Birov yetishtirsa uyda olmani,
Tishni qamashtirar, yemaslar ani.

4895 Seni adolat-chun yaratmish Egam,
Odil shohdin kelgaymu zulmu sitam?

Zulmu sitam ahliga etma ko'mak,
Bir kuni bu ishdan so'rov bo'lajak.

Kishi yaxshi nomin yomon aylagay,
Obod manzilini vayron aylagay.

Jahon aylanur ul ho'lmidir, quruq,
Issiqda issiqdir, sovuqda sovuq.

Issiq-sovug'idin izlama sog'liq,
AylaniShi raviSh, royiga bog'liq.

4900 Yaxshidir har fasl, qishmidir, bahor,
O'z xosiyatini etsa oshkor.

Bahor ko'rsatsin o'z bahorligini,
Saraton otashin raftorligini.

Har narsa yuz o'girsas o'z aslidin,
Qutulmagay charxi davron qasdidin.

Iskandar insofda nom olmish aziz,
Yo'qsa, har birimiz bir Iskandarmiz.

O'ylamaki, men jang etolman, nabard.
Tog'ni ham etarmen magar gard-gard.

4905 Filning yelkasiga qo'yib taxti oj,
Hindistondin talab etarmen xiroj.

Arslonni tiqib yerning ostiga,
Tuproq uyib, chiqarman so'ng ustiga.

Vale sen Shohdirsan, buyuk, zabardast,
Sen ila talashmoq menga xush emas.

Ne niyatda kelding, iqbol arshingda,
Quldek bosh egaman sening qarshingda.

Qarshingda bosh egib, o'parmiz zamin,
Yolg'iz men emas, jumla a'yonni Chin.

4910 Ne istaging ersa, aylagil bayon,
Amringga hozirman Shukur aylabon.

Gapimda riyo yo'q yo hiylasozlik,
Mehmonsan, ko'rsatay mehmonnavozlik".

Shundoq javob ila ehtirom etib,
EiChini jo'natdi, topshirdi yetib.

Hoqon maktubini o'qib Shahriyor,
Marol ovlamoqqa bo'ldi intizor.

Shohning hujumini kutib shu kecha,
Hoqon xavotirda yotdi tonggacha.

4915 Tong otib, quyoshdin taralib yog'du,
Jilvagar bo'lganda tuproq ila suv,

Tugadi sabri, bir ttxtamga yetdi,
Donolarin yig'ib, maslahat etdi.

Jahondiyda bir vaziri bor edi,
Ravshan taqlu tafakkurga yor edi.

Har nechuk mushkulga dus kelcha hoqon,
Mushohada etib, yetardi oson.

Hal etmishdi necha muammoyini,
Bu ishda ham so'rdi uning royini.

4920 Dediki: "Bilmasman, tushib qiynoqqa,
Bu charxi davronni buray qayoqqa?"

Modomiki tushdi bu ahvolga Chin.
Mehr ko'rsataymi, etay qahru kiyn?

Magar jang aylasam, dushmanim qaviy,¹³⁹
Boshida toji bordir kayxusraviy.

Agarda aylasam sulhu madoro,
Ojiz sanalarman odamlar aro.

Bilmasmen, ne maqsad ila Shahriyor,
Bu yurtga kelmoqni etdi ixtiyor?”.

4925 Dedi Chin hoqoniga farrux vazir:
“Senga yo‘l ko‘rsatmoq oson emasdir.

Qo‘rqaman, ne bo‘larkin roying sening,
G‘azab ichra amru farmoying sening?”

Ganju lashkaring-la g‘urur aylama,
Behuda xayolga o‘zni boylama.

Yurtingga jahongir kelmish zo‘rmand,
Do‘stlik eshigini yopib, etma band.

Har joyga bordi ul, oldi viloyat,
Taajjub aylama, etgil ijobat.

4930 O‘yin deb o‘ylama buni, hukmdor,
Bu ishda necha bir nozik nuqta bor.

Bu savdo kelmishdir Xudodin yetib,
Xudoni sinama dushmanlik etib.

Osmonga o‘q uzma, balanddir oftob,
Tig‘ chekib Alburzga kim etar xarob?”

¹³⁹ Qaviy – kuchli, qudratli.

Qabul etgil, yo'qsa, yuksak osmon
Mulku davlatingga yetkazur ziyon.

Baxtu iqbolingni yiqitma tag'in,
Baxtiyor insonga bo'lmagil g'anim.

4935 Baxtiyorga g'animliging behda,
Baxtiyorni yengish mushkuldir juda.

Baxtiyor chorlasa, yo'lga tush hamon.
Nishtarga shapati urarmi inson?

Bir oycha bo'l unga do'stu muvofiq,
Begona bu joyda turmagay ortiq.

Shishaga tosh otma turib qasdma-qasd,
Sinarkan, so'ng uni tuzatib bo'lmas.

Har nechuk jarohat bo'lsa-da tuzuk,
Tuzalgan joyidin chiqarmaydi tuk.

4940 Andoq aylagilki, yurtimizni to,
Yaxshilik-la tark aylasin ajdaho.

O'shal kun Chiniyga marhamat bo'lmish,
Ki Chin eshigiga ajdaho kelmish.

Shu falak omading berarkan sening,
Ko'kka bo'yamasdan uzatmas to'ning.

Jahon ingrar, vale chiqarmaydi sas,
Nuqson ipakdadir, chalg'uchidamas.

Sozparada sozligin istar esang ul,
Hamohang bo'l unga, madad aylagil".

4945 Chiniy hukmdor bu mushkulot aro
Falakdin bir ko'mak ko'rmadi aslo.

Necha bir chorani aylab ixtiyor,
Itoat etmoqqa ayladi qaror.

Yo'lga tushmoqni ul tugdi ko'ngliga,
Elchi bo'lib borgay shohning oldiga.

Toki ko'rgay ul jahondor shohni,
Sarafrozlari ila dargohni...

Quyosh qayiqchisi saharda alvon
Qayig'ini suvga tuShirgan zamon.

4950 Chinning sipahdori, podshohi Xutan
O'zini elchidek yasatib Chindan,

Bordi shoh dargohi sari oshiqib,
Bir kimsa bu sirdan bo'lmadi voqif.

Etishdi Shahanshoh dargohiga to,
Uning tashrifidin shoh bo'ldi ogoh.

Xabar berdilar unga: hoqoni Chin
Payg'om ila yubormish o'z elchisin.

Buyurdi Sikandar: elchilarga xos
NavoziSh ko'rsating, izzatu e'zoz.

4955 Kirdi shoh dargohiga elchi hamon,
Er o'pdi bosh egib, ta'zim aylabon.

Shoh yana, o'mniga o'ltirib endi.
Elchi payg'omini so'ylasin, dedi.

Shohning ijozati ila o'ltirib,
Bosh egdi boz ta'zim bajo keltirib.

Zamon kechdi, sado chiqmadi andin,
So'z ochmadi biror yaxshi-yomondin.

Parkor halqasida madhush qoldi ul,
Halqada nuqtadek xomush qoldi ul.

4960 Ishorat bo'ldi Shahriyordin tag'in,
Aytar so'zingni ayt, bayon aylagin.

Bulut ostidagi oy yurak yutib,
So'z boshladi so'zini olmos etib:

"Kelding bizga, ey shohi Eronu Rum,
Saodatga to'ldi hama marzu hum!

Chindan Mochingacha tuproq beadam,
Uning farmonida bo'lsin toabad!

Borgohidin jahon judo bo'lmasin,
Jahonning taxti hepanoh bo'lmasin.

4965 Maxfiy aytar so'zim bor podshoga ul,
Boshqalar oldida aytmagim mushkul.

Hoqonim buyurdi: "Sen so'zlaganda
Shohdin bo'lak kimsa bo'lmasin unda.

Shohning oldida bo'lmasin ahli xos,
Yolg'iz Shahanshohga bayon ayla roz.

Biror kimsa atrofda bo'lsa hamon,
Maxfiy so'zing aytma, uni tut nihon".

Shoh o'zni eltiyot etdi bu ishdin,
Xilvatda bo'ylakim yolg'iz qolishdin.

4970 Buyurdi, tillodin shay erdi, hozir,
Elchi oyog'iga urdilar zanjir.

Zarrin bir kamarni keltirib shu dam,
Boyladilar uning qo'llarini ham.

Saroy xoli qoldi xalqdin shu zamon,
Ahli xos yurdilar eshikka tomon.

Shoh yolg'iz qolarkan, o'zni avaylab,
Olmos qilich qo'ydi oldiga shaylab.

"Gapir, – deb elchiga yuzlandi shunda, –
Menu sendin bo'lak kishi yo'q bunda".

4975 Shohnin amri bilan elchi shu mahal
Asror tugunini yechdi galma-gal.

Chekdi so'z yuzidin pardayi niqob,
Shohga duo aytib, ayladi xitob.

Dedi: "To gul ochib, yashnar ekan bog',
Qizil gul unda misli ravshan charog'.

Yuzing guldek bo'lsin, nilufaroyin,
Jahon sendin olsin husnu chiroyin.

Dunyo muhri sening nomingda bo'lsin,
Hama kori davlat komingda bo'lsin!

4980 O'ylaymanki, meni tanir Shahriyor,
Tanisa, so'ylamoq yana ne darkor?

Magar tanimasa, bu ishda ortiq
Rost gapni aytishdin bo'lak chora yo'q.

Keldim o'z nomimdin elchi bo'lib men,
Aslida asiring bo'lib kelibmen.

Men hoqonman, o'shal sipahdori Chin,
Shohning xizmatida o'paman zamin".

Sikandar gustohlik bilib korini,
Xushlamadi uning bu bozorini.

4985 Unga qahr ila qichqirdi shu on:
"To'ning astaridin avrasi ayon!

Lochindan taniyman chumchuq g'alvasin,
Jigardan bilaman mushuk nafasini.

Va lekin menda bor andisha, odob,
Yashirin yuzlardin yechmasman niqob.

Ne sabab erdikim, tushuntir ani,
Yuzingdin bu yanglig' ochding pardani?

Qo'rqmading, ulki Rum shohi edim men,
Po'latni mum deya o'yladingmi sen?

4990 Mening kuch-qudratim o'ylamay andoq,
Nega taroziga tashlading tuproq?¹⁴⁰

Marol har nechakim ersa-da jasur,
Yo'lni arslondin burgani ma'qul!"

¹⁴⁰ Taroziga tuproq tashlamoq – bironvni ojiz. notavon deb bilishni anglatadi.

Shoh javobin tinglab ul hoqoni Chin,
Dedi: "Shavkatingga ming bor ofarin!

Dargohing sari keldim istab panoh,
Shohdin bir yomonlik kutmadim aslo.

O'zim shu eshikdin kirib kelsam gar,
Kim meni yomon deb boshimni kesa?

4995 Tishini yiroqdin ko'rsatsa qobon,
Qahrga minadi qora arslon.

Tishini ko'rsatib, egsa bo'ynini,
Arslon ul mahal ayaydi uni.

Shohga yetdimi mendin ranju alam?
Shering javonmardligi bor shohda ham.

Nechun shamshir sololgay menga tahdid.
Shamshir-la etmadim kimsaga tahdid?

Sikandarga yo'qdir ko'nnglimda g'araz,
Nechun olmos tig'i meni ayamas?

5000 Xiyonat etmadim unga zarra ham,
Ki menga aylagay ul jabru sitam?

Kelib men tarafga bedod etmading,
Kufrdir senga qahru kiyn etmagim.

Qahru xusumatni otdim yiroqqa,
Shu e'timod ila keldim bu yoqqa.

Chun men mehribonlik ko'rsatgum base,
Mehribon boshini kesgaymu kase?

Gunohim buyuk ersa, sen tut kichik,
G'ariblik ul uzrxohlikdir buyuk.

5005 Shohning adlu insof gavharlari mo'l,
Rahmu shafqat etar begunohga ul

Panoh so'raganni zanjirga solmas,
Omon istaganga jabr aylamas.

Magarki men bugun dargohga keldim,
Adolat dastur etgan shohga keldim.

Ki shohi jahondir, adl yor anga,
Xudo bo'lsin doim madadkor anga".

Hoqonning tilidin so'z keldi shirin,
Shahanshoh dilidin yechildi tugun.

5010 Dedi unga: "Xush kelibsan, shod bo'l,
Tashvishu xavotirdin ozod bo'l!

Aytgil, bu kelishdin maqsading nima?
Ayon et, niyating nihon aylama".

Hoqon dediki: "Ey panohi jahon,
Niyatimni sendin tutmasmen nihon.

Keldim panoh istab panohingga men,
Etgaymen deb rizoyu rohingga men.

Kelishimdin Shahanshohga kom ne?
Bu amaldin og'ozu anjom ne?

5015 Qo'llasa, qo'liindin tutsaydi ro'zgor,
Qahrim-la etardim shohni baxtiyor.

Baski qismat bermas menga bo'yla kom,
Otgan o'qim nishonga tegmas tamom,

Oldingda bosh egib turmog'im kerak,
Magar Shoh aylasin dushmanlikni tark.

Joninni atadin Shohimga butkul,
Qilichga qo'l cho'zma ne hojat erur?

Gavhar osonlikcha topilur bugun,
Toshni tarashlamoq senga ne uchun?

5020 Sulh ila murodin hosil bo'lur, yor,
Jilovni jang sari burmoq ne darkor?

Agar Chin taxtin istarsen, toji Tur,
Buyur, amringga men hoziru nozir.

Agar dushman deya o'ylasang meni,
Baxsh etmasang bobolarim yurtini,

Men sadqayi ul muhri noming bo'lay,
Sotib olinmagan g'uloming bo'lay.

Ziyon etmas, ulug' dargohingda, Shoh.
Bo'lsa yana bir bandayi xayrixoh.

5025 Chinga qarshi dilingda kiyn bo'lmasin,
To'ning bo'lsin, chokida Chin bo'lmasin.

Qimmatbaho qullaring qimmatbaho
Sochidin menga ham tuk etgil ato.

Oy yuziga ajin yarashgay qandoq?
Shohning qoshidin ham Chin bo'lsin yiroq".

Shahanshoh dedi: "Ey pisandidaroy,
Har neki istading, etgum jobajoy.

Qo'shin tortib keldim to aqsoyi Chin,¹⁴¹
Fath etmoq istadim shu Turon zamin.

5030 Yomonlar boshini etib zeri xok,
Dunyoni aylagum begonadin pok.

Chu amrimda bo'lsin deb har kishvarim,
Qo'yarmen ayru-ayru farmonbarim.

Shabexun urmayin shamshirimni men,
Boshing egib kelding huzurimga sen.

Boshingga taxtingdin balandlik beray,
Tojingdin senga bahramandlik beray.

Sendin na toj olarmen, na mulku taxt,
Boshingga solmagum ranju mashaqqat.

5035 Faqat shartim shuki, mulkingga iloj,
To'laysen menga yetti yilliku xiroj.

Etti yil solig'in bergaysen menga,
Boshqa har ne soliq haloldir senga".

Tinglovchi ko'nglini chaman ayladi,
Javobin yana dilpisand ayladi.

Dedi: "So'rar mendin xudovandi toj¹⁴²
Shuncha umr berib, bir muncha xiroj.

¹⁴¹ Aqsoyi Chin – Chin mamlakatining bir chekkasi.

¹⁴² Xudovandi toj – toj egasi.

Umrimni yetti yil etarsen ta'min,
Etti yil xirojin nega bermayin?"

5040 Shahanshohga xush keldi andoq javob,
Chehrasi yorishdi misoli oftob.

Dedi: "Olti yillik xiroj ne miqdor,
Senga bag'ishladim, dono hukmdor!

Ko'rdimki, oqilu donosan g'oyat,
Bir yilning xiroji menga kifoyat".

Turklarning solori shohi jahondin
Bag'oyat shod bo'lib, chbuqur oldi tin.

Kipriklari ila yerni supurdi,
So'ngra tilini shu kalomga burdi.

5045 Dedi: "Shoh garchi ul aytganin ado
Aylagay, barorini bersin Xudo,

Menga ushbu ahdini aylab ayon,
Xat bersin o'z qo'li-la Shohi jahon.

Bir yilning xirojin to'lay-da tayin,
O'z taxtimda tinchib o'ltiray keyin.

Tumor bo'lur bo'yninga ul xatti shoh,
Etarmen uni boshim uzra panoh.

Men ham o'z qonim-la bergum shohga xat,
So'zimga ctarman sidqu sadoqat".

5050 Andoq ahdu paymon etdilar ikov,
To ahdga xiyonat etmagay birov.

Tok aylanarkan shu charxi sipehr,
Yo'qolsin qahru kiyn, yashasin mehr...

Buyurdi Shoh, chorlab ahli a'yonni,
Banddin bo'shating deb Chiniy hoqonni.

Oyog'idin yechib zanjiri zarin,
Boshiga qo'ydilar toji gavharin.

Rum qaysari ila ishni etib soz,
O'z lashkargohiga hoqon qaytdi boz.

5055 Tun sultoni qaro chodirin tikdi,
Jahon uzra anbar rangini chekdi.

Yulduzlar siymu zar to'kdilar hamon,
Er surdi ho'kizni xazina tomon.

Sikandar mayl etib shu fursat ichra,
Mayi yoqut simirdi qatra-qatra.

O'ltirdi ul shomdin toki subhidam,
Bo'shatdi Jam yodi birla jomi Jam.

Uyquning yo'liga tikan sochdi ul,
Tashkish, xavotirni unutdi butkul.

5060 Dushman tahdididin ul forig' erdi,
Na posbon nidosi, na urush dardi.

Shohona sabuhiy etib tonggacha,
O'ltirdi kayf ila, oqardi kecha.

Charx la'li yoqutin sochgani zamon,
Juft bo'ldi ul yoqut toj ila jahon.

Eshikbon eshikdin kirib banogoh,
Nechun g'aflatdadir, dedi, Shahanshoh.

Etishdi yiroqdin ul hoqoni Chin,
Oyog'i ostida titraydi zamin.

5065 Bir jahon lashkarin saflarga tizib,
Bong urib kelmoqda, quyundek bosib.

Fillar oyog'idin yuksalib shu on,
Quyosh yuzini ham qopladi to'zon.

Munchalar sipohni bir qo'shinda jam
Bo'lganin hech qachon ko'rmamish odam.

Barchasi tig', qalqon ila musallah,
Daryodek bostirib kelar, shasht ila.

Zindapil ustida hoqon zabardast,
Masofa ikki mildan ortiq emas...

5070 Nogahon bu gapdin bo'larkan ogoh,
Qo'zg'alldi, taxtidin hamon tushdi Shoh.

Jangovar otiga minib Iskandar,
Jang rusumi birlan shayladi lashkar.

Hoqonning qasdiga kamar boyladi,
O'z ahdini buzmish deya o'yladi.

Buyurdi, to dovul qoqing, bong uring,
Chiniylarni hayronu lol qoldiring!

Lashkari saf chekdi tog' kabi baland,
Qo'llarda tig', gurzi, kamonu kamand.

5075 Boshdin oyoq qilich, qalqonu sovut,
Daryo oqizgandek tog'lardin bulut.

Xabar topdi hoqon ne ahvol turur,
Sikandar jang qilmoqqa tayyor erur.

Ulovini surdi maydonga nogoh,
Ovoz berdi: "Ayting, qay biringiz Shoh?"

Ayting, jilovini bersin men tomon,
Yuzini ko'zimdin tutmasin nihon!"

Iskandar Chiniyni eshitdi, ko'rdi,
Qad rostlab, etagin belga bar urdi.

5080 Filyiqar tulporin maydonga surib,
Bordi fil ustiga tikka bostirib.

Hayqirdi qoralabqahri jonidin:
"Fitnasiz tug'ilmaydi turk onadin!"

Chiniyga g'azabga to'lib boq faqat
Ahdiga aylamas Chiniy rioyat!

Bobolaridin kelmish necha bir karra,
Chiniylar ahdida vafo yo'q zarra!

Ko'zi qisiqlarni etgaylar pisand,
Ko'zi ochiqlarga ular nopisand.

5085 Nega kecha menga sulhdin urib dam,
Bugun bu qo'rqinch yo'lga qo'yding qadam?

Ne erdi boshda do'stman deb aytganing,
Oxirda bo'yla dushmanlik etganing?

Ahdu paymonimda sobitman o'zim,
Himmatim ziyoda, kamroqdir so'zim.

Bildim, mehringiz aslida kiyn emish,
Chiniylarning ko'ngli ming tugun emish.

Agar Chiniy turklarda ersa vafo,
Ularning izmida yashardi dunyo.

5090 Meni ahding ila boylab turib sen,
Nega chun sho'rishu g'avg'o qilursen?

Agar po'latdin ersa-da paykaring,
Magar xayli Ya'juj esa lashkaring,

Saddi Iskandardek turib poyida,
Iskandar ustuvor erur joyida.

Tustovuuq ajali yetishgan zamon,
Lochinni ovlashga intilar hamon.

Chigirtka qanoti qizil tortsa gar,
Chumchuqqa xat ila ishorat aylar.

5095 Sarkashlik aylasang, olgum kulohing,
Do'stlikni tanlasang, kechgum gunohing.

Bir asalaridek bolu parim bor,
Bolim bor dema yolg'iz, nashtarim bor".

Sipahdori Chin dedi: "Ey Shahriyor,
Ahdu paymonimdin kechmadim zinhor.

Senga xayrixohman avvalu oxir,
Xizimating etmoqqa hamisha hozir.

Amru farmoningsiz qo'ymasman qadam,
Ahdu paymonimsiz kamar boylamam.

5100 Istadim, etarkan andoq bir amal,
Udim majmaringni etsin muattar.

Bilgin dedim, men bo'ylagim dastgoh
Birlan to anjumga chekarman sipoh.

Emasmen unchakim ojiz, notavon,
Ki jangdin yuz o'girsam, istab omon.

LaShkarimni ko'rgil, misoli tog'dek,
Dolg'ali dengiz ham sololmas hadik.

Va lekin baxt-iqbol mudom yor senga,
Zamin chokaru ko'k xizmatkor senga.

5105 Kim baxt sohibiga aylar esa kiyn,
Boshida dor og'ochi turgay keyin.

Senga osmon O'zi aylagay madad,
Yo'q menda ko'k ila talashmoqqa had''.

Aytdi shu so'zlarniyu fildan tushib,
Yurdi Shahanshoh sari hoqon shoshib.

Shoh ko'rdiki, uzriga aylab dalil,
Piyoda kelur bu tomonga dadil.

Jo'natdi unga bir tulpor shu onda,
Zar kashtali yopinchiq erdi unda.

5110 Shoh ot berib, komron etdi hoqonni,
Yoniga o'tqizdi bir pahlavonni.

Yana in'om-ehson etdi mo'l-ko'l,
Bir yillik xirojdin dag'i kechdi ul.

Do'st tutindi Shoh birla hoqoni Chin,
Xusumat aridi xonadonlardin.

Ikki lashkar do'st-inoq bo'ldi, ajab,
Ikki sarkardaga bir bo'ldi matlab.

Askarlar ham yakdil bo'lib ayricha,
Sovg'a berib, sovg'a oldilar necha.

5115 Chin hoqoni ehson aylabon har kun,
Nozu ne'mat yuboraradi shoh uchun.

Shohning ahli dargohiga ul taom
Bir kecha-kunduzga yetardi, tamom.

Bazmda may gashtin surardi ikov,
Birga o'ltirardi, turardi ikov.

Shikorga chiqishar edi ikovlon,
Ov ovlashar edi yurib yonma-yon.

Ular bir-birisiz ichmasdi boda,
Ozod yashar edi ikki ozoda.

Rum va Chin naqqoshlari munozarasi Soqiynoma

5120 Ketur, soqiy, mayi jonparvarni ul,
Baxsh aylasin jonimga kavsarni ul.

Sarg'aygan tanimga bersin jiloni,
Sovigan qonimga ursin olovni...

Doston

Bir kuni xurramlikda chun navbahor,
Ajoyib kun baxsh ayladi ro'zgor.

Shohning mehmoni erdi hoqoni Chin,
Ikki quyosh hamdam edi, hamnishin.

Qo'noqlar Rumu Zang, Eronu Chindan,
Tutdilar davrin har ikki yondan.

5125 Ichib may, barcha yuzlar bo'ldi maygun,
Jahonning chehrasi ham erdi gulgun.

Shu xursandlik aro yetdi bir mahal,
Lablardan quloqlarga mavji guhar,

Andoq bir savolki, ajab dilpazir:
Jahonning eng hunarmand qavmi qimdir?

Ular yetishganlar qaysi tuproqdin?
Mukammal san'ati kelmish qayoqdin?

Biri derdi: "Nayrangu afsun bari,
Hindiston tarafdin kelur aksari.

5130 Biri derdi: "Bechora mardunga ul
Sehru jodu faqat Bobildin kelur".

Biri derdi: "Kelur ulfatu inoq
Xuroson savti birlan sozi Iroq".

Biri derdi: "Naqqoshlikda ahli Rum
Tanholigin bilur hama marzu bum".

Biri derdi: "Boq, necha koshonadir,
Jahon aro Chin naqshi afsonadir".

Ustunlik da'vosida g'ash etdilar,
Rumiyu Chiniylar talash etdilar.

5135 Har taraf so'ziga keltirib dalil,
Naqshlar ko'rsatdi necha xilma-xil.

Nihoyat dedilar aylab ittifoq:
"Qurilsin qosh kamondek toqi ravoq.

Ikki yoqda ishlab ahli naqshband,
O'rtada bir parda tutilsin baland.

Bir tarafda rumiylar cheksin bahor,
Bir tarafda Chiniylar naqshu nigor.

Birining san'atin biri ko'rmasin,
Toki bir-biriga aksi urmasin.

5140 Ish qachon poyoniga yetsa, shu tob
O'rtadan olinsin pardayi hijob.

Ko'rsinlar ziynati hunar kimdadir,
Kimning san'ati eng mukammal erur?".

Suratgarlar jadal tushdilar ishga,
Naqshlar chekishga, surat chizishga.

Ko'p muddat o'tmadi, aylab saranjom,
O'rtadin pardani surdilar tamom.

Bitta "Arjang" edi ikki tarafda,¹⁴³
Tafovut yo'q edi sira o'rtada.

5145 Ko'rganlar bir yo'la hayron qoldilar,
Tagiga yetolmay, o'yga toldilar.

Chekilmishdi ikki "Arjang" tasviri,
Farq etilmas edi biridan biri.

O'ltirib ul ikki surat aro shoh,
Dam unga, dam bunga solardi nigoh.

Na ajrata bildi rang-pardozini,
Va na payqadi pardayi rozini.

Har nechakim izlab, nazar etmadi,
Bu ishning sirriga borib yetmadi.

5150 O'rtada yolg'iz bir farq edi magar,
Biri surat edi, biri aks etar.

Balinos ham boqib, hayratga tushdi,
Taajjub etgudek holatga tushdi.

Jamladi boshiga bor diqqatini.
Izladi suratning haqiqatini.

Va so'ngra buyurdi o'shal farzona,
O'rtağa torting deb pardani yana.

O'rtağa tortilgach pardayi hijob,
Biri yaShnab, biri qoraydi shu tob.

¹⁴³ "Arjang" yoki "Artang" – rassom Moniyning mashhur asari.

5155 Rumiylar naqshida porlab husnu rang,
Chiniylar ko'zgusi aro tushdi zang.

Chiniy taraf qoldi benaqshu nigor,
Boqib. hayratga tushdi boz Shahriyor.

Ko'tardilar tag'in pardani, hamon
Yana avvalgi surat bo'ldi ayon.

Bildiki, u yoqda tovlanur surat,
Bu yoqda yarqirab aks etar faqat...

Ul zamonki, har ikki ahli hunar,
To'sib o'rtani, so'ng ishga tushdilar.

5160 Rumiylar devorga surat chizarkan,
Chiniylar bo'ldilar sayqal bilan band.

Rumiylar yaratgan surat manzara,
Chiniylar lavhida aks etdi so'ngra.

Shundoq hukm bo'ldi oxir bilasos,
Ikki tarafda ham san'at beqiyos.

Rumiylar naqshidek yuksak sharaf yo'q,
Sayqal berishda Chiniyga taraf yo'q.

Suratgar Moniy afsonasi

Deydilar, bir kuni suratgar Moniy
Raydan Chinga yurdi elchi misoli.

5165 Chiniylar eshitgach, yelib har yoqqa,
Hozirlik ko'rdilar qarshi olmoqqa.

Yo'li uzra suvli hovuzdek go'yo
Billurin bir havza etdilar barpo.

Tasvirchi ko'rsatib hunar avjini,
Chizdi ul havzada suvning mavjini.

El esib, havzaga solarkan g'uluv,
Mavjlanib, sohilni o'par edi suv.

Yon-atrofdan o'sgan ko'katlar bilan
Hovuz qirg'og'ini etdilar chaman...

5170 Moniy yiroq dashtu dovonlar bosib,
Kelardi, chanqovi haddidin oshib.

Oxir yetib kelib o'shal hovuzga,
To'ldirmoqchi bo'ldi ko'zasin suvga.

Botirgan edi ko'zasin shasht ila,
Sopol toshga tegib sindi bir yo'la.

Moniy angladi, mot etmoqqa ani,
Chiniylar aylamish andoq hiylani.

Qo'liga qalamini oldi-da shu dam,
Moyiy oyina uzra chekdi raqam.

5175 Qalamini yugurtgan edi har tomon,
O'lik it surati bo'ldi namoyon.

Atrofdan g'ij-g'ij qurt edi tag'in,
Tashnalar bu suvga kelmasdi yaqin.

Qochardi bir kimsa kelmasdi magar,
O'lik itli suvdan etardi hazar...

Bu xabar Chin bo'ylab tarqaldi hamon,
Ki Moniy bir san'at ko'rsatdi chunon.

Lol qoldi barcha ilmu farhangiga,
Bosh egdilar o'zi va "Arjang"iga.

5180 Ko'rgilki, xayolni qayoqqa eltdim,
So'z tulporin qistab, qaylarga yetdim...

Shahanshoh ulfati hoqon bilan ul,
Necha kun bo'ldilar ishratga mashg'ul.

Mehru oqibatlar oshib har zamon,
Uni ham, buni ham alqadi jahon.

Shoh dedi: "Gar yo'lim bersa ro'zgor,
Azmi safar aylarga etdim qaror.

Mehrnining havosi chekar yurtimga,
Safarim qaridi, qaytaman Rumba".

5185 Dedi Shohga javoban hoqoni Chin:
"Mulkingdir yetti iqlim, kishvar zamin.

Iqboldir, har joyga xirom aylasang,
Qibladir, har joyni maqom aylasang.

Qayga borsang, arzandalikdir senga,
Biz bandalardin bandalikdir senga".

Shoh bo'lib hoqon ilmining maftuni,
Vafodorligi mast etmishdi uni.

Chin solori ila Shoh bizmi har gal
Oyu quyoshdanam erdi munavvar.

5190 Hoqon kamar boylab, oyoqqa qalqib,
Qulog'iga qullik halqasin taqib,

Shohga jo'natardi nozu ne'matin,
Oyga yetkazardi uning izzatin.

Shoh dag'i etarkan izzatu e'zoz,
Shohga sadoqati oshar edi boz.

Har kimga martaba bersa Shahriyor,
Kamtarin maqomda turmog'i darkor.

Agarchi nechakim balandda tursin,
O'zini balandmas, past tutib yursin.

5195 Etishdi Chiniylarga Shohdin sharaf,
Nayson yomg'irin chun simirgay sadaf.

Liboslarki, makoni Bag'dodu Rum,
Ki ularni e'zoz etar marzu bum.

Shoh Chin hoqoniga ayladi tortiq,
Ki dunyo ko'rmamishdi andin ortiq.

Yana to'kdi Chinga necha ganjini,
Chinning peshonasidin ketdi Chini.¹⁴⁴

Xaloyiq ichra qolmadi bir kase,
Ki Shohi kiymamishdi yo atlase.

5200 Sikandar chun lufu chiroy ayladi,
Qisiq ko'zlilar qoShin yoy ayladi.

¹⁴⁴ Chin- bu erda ujin ma'nosida.

Shohning qoshi kabi bo'ldilar payvast,
Ont ichdilar sodiqmiz deb har nafas.

Chin hoqoni Iskandarni mehmon qilgani Soqiynoma

Ketur, soqiy, ko'tar g'arib boshini,
Etagimga oqiz qadah yoshini.

Qadah yoshi olmish qarorim mening,
Yuvsin etagimdin g'uborim mening.

Pandu hikmat

Qo'y turkliging, ey turki Chinniynigor,
Kel, desam, qoshingni chimirma zinhor.

5205 Dildorlik ila ko'nglim shod aylagil,
Meni g'am domidin ozod aylagil.

Hoqonning in'oni shod etsa seni,
Yomg'ir bil, sel kabi sarflama uni.

Ozroq yegil, qanoat qil, ber chidam,
Nasiba ajratgil boshqalarga ham.

Barini yemagil, qoldirgil hamon,
Qarilik chog'ida yo'qchilik yomon.

Ammo yemay-ichmay qiynama o'zing,
Xastalik yopiar, so'nar yulduzing.

5210 Behuda sovurma vale molu ganj,
Base yeb-ichishdin yetar senga ranj.

Me'yorida yegil, yema hammasin,
Ki ko'p ham bo'lmasin, kam ham bo'lmasin.

Ipni etar bo'lsang ignadin yo'g'on,
Ignaning ko'zidin o'tmog'i gumon.

Doston

Suxanvar so'z aro tanlab yaxshini,
Chekdi Chiniy harirga so'z naqshini:

Ovoza tarqaldi jahonga yaksar,
Chinning etagiga to'kildi deb zar.

5215 Hoqon sarf qilardi uni kunu tun,
Shohning poyqadamin etmoqqa gulgun.

Istadi Shohni ul mehmon aylasa,
Tulpori tuyog'iga zar boylasa.

Shohona tuhfarlar etsa shohga to,
sha'niga yarashiq bo'lsa ul ato...

Xullas, bir kunni ul etdi ixtiyor,
Ki Shahriyor yanglig' erdi baxtiyor.

Bazm barpo etdi chun ravshan bihisht,
Sufraga to'kdi yuz bir anvo yemish.

5220 Mayu meva erdi ajab xushgavor,
Ziyofat shayladi andoq ulug'vor.

Ne nozu ne'matki jahonda nodir,
Dasturxonga tizilmish erdi bir-bir.

Chiniysiriisht taomlar erdi chunon,
Ko'rmamish ularni jannatda rizvon.

Zuvasi shakarli halvoyi lavz,
Shirin bodomdin anga jo erdi mag'z.

Va boylik-bisotlar tugun-tuguni,
Dunyoparast izlab, topolmas uni.

5225 Javohirni hisoblab javharshunos,
Bir yilda yarmiga yetardi, xolos.

Shahanshohni andoq mehmon etgani
Hoqon sarflamishdi bor xazinani.

Hamroh etib necha arkoni davlat,
Bordi Shahriyorni etgali da'vat.

Egildi manglayi yerga tekkuncha,
Er o'pib, qadrini oshirdi necha.

Dedi: "Shohim, agar munosib ko'rsa,
Borib, taxtinga bir nafas o'tirsa

5230 Va boshiga qo'ndirsa tojimini ham,
Toju taxt bo'lurdi andir mukarram".

Shoh hoqon taklifin ayladi qabul,
Ki unga hurmatin izhor etdi ul.

Shoh ila lashkari hamon turdilar,
Hoqon ziyofati tomon yurdilar.

Zamin xazinaning eshigin ochdi,
“Yurho-yur!” sadosi ko‘kka tutashdi.

Sikandar yetdi ul manzil, makonga,
Xizrga ergashib, obi hayvonga.

5235 Quyosh yanglih zarrin taxtni ko‘rdi ul,
Daryoda dur sochgan chashma erdi ul.

Taxt uzra o‘ltirdi, qalbida sevinch,
Kofuru anbardin ilkida turunj.

O‘ng qo‘lida uning jahonjo‘y fag‘fur,¹⁴⁵
Kamar boylab, xizmatga erdi hozir.

Shahanshoh ko‘rsatdi unga lutfini,
Shohona kursiga o‘tqizdi uni.

O‘zga tojdorlar esa tiz cho‘kib,
O‘ltirdilar to‘rda boshlarin egib.

5240 Hoqon amr ayladi: “Keltiring hamon!”
Zarrin sufralarga tizildi taom.

Shohona og‘ochlar silkinib shu chog‘,
Oltin butoqlardin sochildi yaproq.

Bamisli Farxordek, kishi ne orzu
Aylasa, shu onda hozir edi u.

Kishi gar istasa, bamisli bihisht,
Sufrada muhayyo bo‘lardi yernish.

¹⁴⁵ Fag‘fur – Xitoy podsholarining umumiy nomi.

Shirin taomlardan etib tanovul,
Hujum ayladilar musallasga ul.

5245 Qirmizi may ichib, etdilar nishot,
Bazmgobni bosdi qirmizi bisot.

Necha yurtdin kelgan hoʻfiz, nagʻmasoz,
Har biri savt ila navoda ustoz,

Sozlarni yangratib, sado chekdilar,
Dillarni yayratib, navo chekdilar.

Sugʻdiy sozandalar chertib sozini,
Falakka yuksaltdi rud ovozini.

Pahlaviy navoxonlar ayru havo,
Oʻzga bir usulda tuzdilar navo.

5250 Kashmiriy raqqoslar yeldek uchdilar,
Goʻyoki havoda raqs tushdilar.

Yunoniyalar chalib base argʻanun,
Eshitgan kimsani etdilar maftun.

Rumiy, Chiniy boʻlib boʻylakim oʻrtoq,
Ham Rumu ham Chindan yuksaldi bayroq.

Ochdi xazinasini hoqoni Chin,
Qorunning ganjiga koʻmildi zamin.

Avvalo javohirdin boshlandi gal,
Liboslar tarqatdi, kashtasi zarhal.

5255 Billurdek poku oftobdek yarqiroq,
Nafislikda suvdek mayin va yumshoq.

Chiniy harirlardin xarvor-xarvor,
Chiniy mushku anbardin necha ombor.

Kumush tabaqlar berdi mushkka qoriq,
Ho'l kofurdan-da ko'p ud berdi quruq.

Chotiy shoh kamonlarki, Chiniy o'qi,
Qimmatbaho qilichlar berdi dag'i.

Samand otlar berdi sevib mangulik,
Bari toza, durkun, yeldek yugurik.

5260 Va yana bir karvon burgutu lochin,
Osmonni qoplardi yozsa qulochin.

Yana qirqta fil berdi, ustida taxt,
Qudratli, jussador, baland, bahaybat.

G'ulomlar berdi, jabhada beshikast.
Kanizlarki, o'likda qo'zg'ar havas.

Bo'yla bisot chekdi mehmonga hoqon,
Necha baxshoyishlar yana, farovon.

Bir soat so'ng yangi xazina ochdi,
Shoh poyiga yangi tuhfalalar sochdi.

5265 Bir tulpor berdi ul, tim-qaro dumlig',
Yurishi tonglarda sabodek silliq.

Go'yoki bir taxt erdi shoh ostida.
Suvoriy qimirlamasdi ustida.

Yugursa, ortida qolardi ohu,
Issiqlikda olov, yumsboqlikda suv.

Sahroda quShlardin o'zardi shitob,
Daryoda baliqlar berolmasdi tob.

Ki chopqirlikda devzod oti aning,
Aslida ham dev erdi zoti aning.

5270 Sur'atda osmondin kam emas edi,
Shamollar unga teng kelolmas edi.

Borib-qaytishida yengib shamolni,
Yarim yo'lda qoldirardi xayolni.

"Ot"ni "rux" ila ag'darar erdi ul,
"Fil"ni "ot" bila so'ng surar erdi ul.

Qo'rqinch edi uning yurish sur'ati,
Yurishida aks etardi haybati.

Samand dema, samardarsoiq edi,¹⁴⁶
Sikandar minishiga loyiq edi.

5275 Hoqon shohga ovchi qush berdi dag'i,
Bosiriq tush kabi qo'rqinch, vahmali.

Qanot yozsa, o'zar uchqur xayoldin,
Janubga yo'l olsa, qaytar shimoldin.

Changalida po'lat lochin ham ado,
Jafosidin burgutlar kiymish qaro.

Ne-ne qushlardin aning bo'ynida qon,
Lochinga ofat edi, burgutqiron.

¹⁴⁶ Samandar – olovda yashovchi afsonaviy jonivor. Samandarsoiq – samandarlikni ko'z- ko'z qiluvchi.

Ko'rganda simurg' ham qaqshar edi zor,
Hatto karkidonna etardi shikor.

5280 G'azabnoku qonxo'r, ko'zida tutun,
Yaratilmishdi qahru bedod uchun.

Qushlaga to'g'onshoh, Tug'ral unga nom,
Sultonlikda chu Tug'ral erdi tamom.¹⁴⁷

Kanizak berdi yana pokizaro'y,
Gulandomu Shakkarlabu mushkbo'y.

Jannatda yetishgan bir huru pari,
Yuz ko'ngilga orzu edi lablari.

Xirom aylar esa ul sarvi baland,
Qo'sh kokili belida mushkin kamand.

5285 Tomib yer g'abg'abidin lahza-lahza,
Suv ichra olovni ko'rardi kimsa.

Yuzi chun bunafsha gul erdi xandon,
Bunafsha erdi ul yuzga nigahbon.

Sarvi chaman erdi gadosi uning,
Shakar bandayu shahd adosi uning.

Zulfiga kamarbasta ul mushki nob,
Ikki zulfi aro yuzi oftob.

So'zlaganda so'zi shakarbor edi,
Ham shirin edi, ham sitamkor edi.

¹⁴⁷ Tug'ral – saljuqiylar saltanati asoschisi. 1037-1047 yillar podsholik qilgan

5290 Bilurin tanu guldek yashnoq yana,
Barmog'i qoqum dkmidek oq yana.

Tomog'i ostida kumush g'abg'abi
Ko'rinardi bir tavqi zebo kabi.

Tavqu koptok o'ynashga ul joni pok
Oydan tavq olmishu quyoshdin koptok.

Qoshi kamonidin o'qlar otardi,
Necha yuz ko'ngilni asir etardi.

Magar may icharkan, ajab ko'rani,
Tomog'idin ko'rinardi yutgani.

5295 Ming ofarin o'shal doyagakim, ul
O'stirmish insondin andoq atirgul.

Tor ko'zi birovga solmamish nazar,
Og'zi ko'zidan-da uning tor magar.

Sezilmas bormidir yoki yo'q dahon,
Qiyosin ko'rmamish shu mulki jahon.

Tuhfa beruvchikim hamon so'yladi,
Bergan tuhfasini ta'rif ayladi:

"Bu ot, bu ovchi qush, bu ra'no kaniz
Azizdirkim, bo'lsin Shohga ham aziz.

5300 Biror kimsa mundoq tulpor minmagan,
Biror qo'lga andoq qush ham qo'nmagan.

Aytishga ne hojat, yetarkan fursat,
Har biri hunarin ko'rsatur albat.

Va bu kanizakday sanam qayonda?
Husniga teng husn yo'qdir jahonda.

Onadin tug'ma uch fazilati bor,
To'rtinchi xislatni izlash ne darkor?

Biri - u go'zaldir, zebodir ajab,
Nozu karaShmada unga yo'q taraf.

5305 Yana bir – zo'rdir, quchlidir Chindan,
Maydonda jang qilur botirlar bilan.

Yana – u soz chalib, xoniSh etsa, bas,
Osmonda Zuhro ham andin bo'lur mast.

Ovozi nogahon taralsa magar,
Qush uxlab, ilonlar uyquga ketar".

Bu ta'rif, tavsifdin xursand bo'ldi Shoh,
Husni, ovoziga bo'ldi mahliyo.

Faqat xuSh ko'rmadi jasurligini,
Qizning maydon aro botirligini.

5310 Dediki, temir deb bilsa ham zotin,
Er emas, bari bir xotindir xotin.

Gul nozik, tikanda qattiq tan bo'lur,
Ayolda botirlik, mardlik kam bo'lur.

Baliq toshdin esa, bo'lur kimga em?
Bo'lardi dengizda baliqlarga yem.

Hech mahal qog'ozdin bo'lurmu qalqon?
Suvga oqizishar uni shu zamon...

Xullas, xush ko'rsa-da qizni Shahriyor,
Mardlikda ko'rmadi uni ustuvor.

5315 Garchi tuhfalarni Shoh etdi qabul,
Dam o'tmay, ularni unutdi butkul.

So'ng hoqon qasridin chiqib shu asno,
Xobgohi tomonga yurdi Shahanshoh.

Tong tovusi aylab mashriqdin xirom,
Ko'k toqidin boshin ko'targan zamon.

Shoh ishrat jomini qo'lga oldi boz,
Mashshoqlar yangratdi yana savti soz.

Ikki kun kechdi andoq ishrat aro,
Keyin uchqur tulporin shaylab raso,

5320 Qaytish orzusiga tushdi Shahriyor,
Qaytishin anr aylamishdi ro'zgor.

Turki parichehraki, hoqoni Chin
Tuhfa etmishdi, ul ajib nozanin.

Jahongir ko'ngliga o'tirmadi lek,
Qoldi parda ortida bir soyadek.

O'rlandi o'shal oy misli o'flob,
Oqizdi gul yuzga nargisdin gulob.

Garchi u shoh saroyida yashardi,
Vale choh tubida soyadek erdi...

5325 Kunduz yetib, ravshan etib jahonni,
Kechaning qo'lidin oldi chavgonni.

Shohlarni chavgonda yutgan hukmron
Jilovni o'z yo'liga burdi hamon.

Tulporini surdi so'ng shiddat bilan,
Oti fildek edi, ham o'zi filtan.

Bayroq ko'tardilar necha pahlavon,
Qiyomatdin go'yo ko'rindi nishon.

Lashkar saf-qatori bir farsang edi,
Sahro ohularga toru tang edi.

5330 Egnida yashnatib atlas qumoshin,
Chindan Chand tomonga borardi qo'shin.

Ne qadar erdi bu qo'shinda askar?
Sarhisob etildi, besh yuz ming nafar?

Old-ortda turklar edi, tovusrang,
O'ngu so'lda sherlar edi, po'lodchang.¹⁴⁸

Qo'shin qalbida shonu shavkatli Shoh,
Atrofida lashkar tog' edi go'yo.

Temir tanli pahlavonlar ostida,
Qirq jangovar fil ham oldu ortida.

5335 Sikandar boshida bayrog'i erdi,
Yana ming yigitda sanjog'i erdi.

Zarrin kamar taqqan necha ahli xos
Borardi, kiygani kumush. zar, xolos.

¹⁴⁸ Po'lodchang – po'lat panjali.

Yigitlar har yondan toshib misli sel,
Borishar, qalqonlar qo'lda xilma-xil.

Xos a'yonlar borar podshoni o'rab,
Yo'ning zahmatidin asrab-avaylab.

Shahanshoh ostida uchqur tulpori,
Rikobida erdi Chin hukmdori.

5340 Yo'l bosib borishgach necha bir muddat,
Sikandar hoqonga etdi ishorat.

Ki yetar, ortiga bursin otini,
O'z manzili sari sursin otini.

Shohga xayr debon turk egdi boshin,
Kiprigidin seldek oqizdi yoshin.

Shahanshoh ot surib, masofa o'tdi,
Dashtu sahro osha Jayxunga yetdi.

Azim daryoga yetgach ul Shohi Rum
Buyurdi: Shu yerda topingiz qo'nim!

5345 Ko'rdi ko'z o'ngida go'zal bir diyor,
Shu yerda istadi oromu qaror.

Ko'tarib shohona saropardani,
Mustahkam ustunga tortdilar uni.

Tikildi chodirlarki, gavharnigor,
Ki bog'i Iram bo'ldi jayxunkanor.

Movaronnahr erdi, chun ko'rdi Shoh,
Mamlakat erdi ul jahonga oro.

Necha molu bisot yig'mishdi Chinda,
Saxovat ko'rsatib, sarf etdi bunda.

5350 Buzg'un binolarni obod ayladi,
Va yangi shaharlar bunyod ayladi.

Samarqandki, andin jahon ahli shod,
Deydilar, Iskandar aylamish bunyod.

Xurosonu Rumga tarqaldi xabar,
Shahanshoh qaytmoqda g'olib, muzaffar.

Jahongir qaytarkan Rumga sarafroz,
Xaloyiq har yerda chiqdilar peshvoz.

Bayroqlarni havoga yuksaltdilar,
Barcha Shodiyona, bayram etdilar.

5355 Ehson etdi har kim yurakdan, beranj,
Shohnig qaytishiga atab molu ganj.

Iskandarning ravsiylar hujumidan xabar topgani Soqiynoma

Ketur, soqiy, to'ldir qadah, tut shitob,
Ki boshog'riqqa vojib o'ldi sharob.

May berki, ul ko'ngilni yuksaltirur,
Na ul mayki, boshga xumor keltirur...

Pandu hikmat

Jahongir jahon bo'ylab sayr etsa gar,
Xush erur safar uzra etsa safar.

Har mamlakatga bersa oroyish ul,
Har manzilda aylasa osoyish ul.

5360 Bilar bo'lsa avval bilmaganlarin,
Ko'rar bo'lsa avval ko'rmaganlarin...

Vale bir nuqta borki, Shoyon erur,
Har kimsa o'z yurtida sulton erur.

Shoh bo'lgandan begona yurtda, tojvar,
O'z yurtida gado bo'lganing afzal.

Doston

Sikandarkim, zafar yor edi unga,
O'z shahri sog'inchi tushdi ko'ngliga.

Qo'l ostida edi kishvar qanchasi,
Tortardi endi o'z yurti, go'shasi.

5365 Bir kecha qarorga keldi: Tong bilan
Otlanib, yel kabi qo'zg'alur bundan.

Ki sog'inch dardiga u darmon qilur,
Eldek uchib, azmi Xuroson qilur.

Ajam tuprog'ini kechib shasht ila,
Istaxr mulkiga yuzlanur so'ngra.

Jahonga mash'ala aylab baxtini,
Yana-da ko'targay baland taxtini.

Keyin mulki no'shofaringa borgay,
Har nechuk yaxshiyu yomonni ko'rgay.

5370 Yangi rusumlarni aylagay tartib,
Xaloyiq minnatdor bo'lur yer o'pib.

Navozish ko'rsatgay mardunga base,
Ki marhamat ko'rgay undan har kase.

Istaganlarga armug'on baxsh etur,
Jahon jismiga yangi jon baxsh etur...

Shu taxlit erdi fikru andishasi,
Shohlarning bo'lmagay o'zga peshasi.

Duvolinkim erdi Abxoz solori,
Sikandar noibi, farmonbardori,

5375 Hamisha shay edi shohning amriga,
Yarim dunyoni kezmish erdi birga,

Kirib shoh oldiga oshig'ach g'oyat,
Ayladi ko'p achchiq arzu shikoyat.

Dedi: "Faryod, Shohim. ravslar shu on"¹⁴⁹
Abxoz tuprog'ini toptar beomon!

Xabarchidan menga xabar yetdi to,
Talandik, dedi. qolmadi hech vaqo.

¹⁴⁹ Shoir va tarjimon Abdulla Shoir "Sharafnoma" ning ozariycha tarjimasida "ravs"ni "rus" deb ogirgan.

Ravsiylar, yana ahli olonu ark,
Shabexun urmishlar misli qunyodak.

5380 Darband ahliga tun etib kunduzni,
Keyin dengiz tomon urmishlar o'zni.

Xuruj etmishlar yangidan onchunon,
Eski kiynani boshidin boshlabon.

Talon aylamishlar yurtni shu ko'yi,
Iloho, qirqilsin ularning payi!

Ularning dastidin o'lganlar qancha,
Toroj etib, olib ketmishlar necha.

Omborlarda dondan g'ubor qolmamish,
Xazina ham bo'm-bo'sh, dinor qolmamish.

5385 Zar qolmamish unda qo'lga olgudak,
Sandiqdin dur, taxtdin olinmish ipak.

Keyin aylamishlar Bardani vayron,
Orasta shahardin qolmamish nishon.

Va asirga olmishlar no'shobani,
Urrib sindirmishlar jom, qarrobani.

Qizlar, kelinchaklarni bir-bir tutib,
Haydamishlar bandi, asira etib.

Xarob aylab shahru kentlarni davom,
Manzilgohlarga o't qo'ymishlar tamom.

5390 Koshkiydi yurtimda bo'lsaydim, unda
O'lsam mayli edi jadalda.

Men bunda xizmatda, farog'atda chun,
Bola-chaqam unda zindonda tutqun.

Agar dodimizga yetmas esa shoh,
Tangri O'zi bo'lsin bizga dodxoh!

Ko'rarsen, ravsiylar o'tmay ko'p zamon.
Rumu Armanga ham yetkazar ziyon.

Topdilar talon-la muncha xazina,
Topmoqlikka shitob eturlar yana.

5395 Shaharlarga kirib, vayron qilurlar,
Nafs bandasi, dunyo pastkashi ular!

Qaroqchidirlar, bo'ri yanglig' yutoq,
Nonni xushlamaslar, lek qonga chanqoq.

Ravsiylardin insof izlama ortiq,
Chunki gavharida odamiylik yo'q.

Gavharni eshakka ortsang ham necha,
Eshak qolur yana eshshakligicha.

Talon-taroj etib, to'pladilar ganj,
Necha o'lkalarga yetkazdilar ranj.

5400 Zulmu bedodlari boradi ortib,
Savdogarlar molin olurlar tortib.

Shuncha yig'salar-da tiymaslar o'zni,
Xurosonu Runga tikarlar ko'zni".

Shohning g'azabini qo'zg'atdi bu gap,
Kuydi uning ahli ayolin o'ylab.

No'shoba uchun ham g'am chekdi, afsus,
Shoh uchun ul viloyat erdi aziz.

Boshin egib qahru alamga botdi,
Keyin bosh ko'tarib, noibga boqdi.

5405 Dedi: "Men hoziroq etarman farmon,
Aytganlaring jonimni yoqdi chunon.

Gapni aytding, bir chetda turgil endi,
Qolgan ishni menga topshirgil endi.

Ko'arsen to men azmi roh aylagum,
Yovuzlarga manzilni choh aylagum.

Botirlar boshidin ko'targaymen hush,
Azmindin sherlarim qoni urar jo'sh.

Itlarga solaman itlarning kunin,
Arslon panjasi-la to'kaman xunin.

5410 Qiraman ravs ila burtosni birga,¹⁵⁰
Har ikkisin boshin tiqaman go'rga.

Gar Misr bo'lsa ravs, Nilman ul zamon,
Tanini toptovchi filman beomon.

Taxtimni ko'tarib tog'lar boshiga,
O't qo'yarman yovning tog'u toshiga.

G'orida moru ajdaho qo'ymagum,
Ki doru bo'lgudek giyoh qo'ymagum.

¹⁵⁰ Burtos – Rum sarhadlari yaqinida yashagan bir qavm.

Ravsdin qasosim olmasam, pastman,
Itman Faylaqusning o'g'li emasman.

5415 Burtos bo'risiga urmasam tayoq,
Burtos tulkisidan battarman, olchoq.

Bersa charxi davron azmimga imkon.
Qasosim olurman yovdan begumon.

Talanganlarni jobajo aylagum,
Talonchilarni zeri po aylagum.¹⁵¹

No'shobani ozod etgum muqarrar,
Vaqt kelur, qamishdin chiqargum shakar.

Toshga jo etilgan bo'lsa hamki ul,
Chiqargum xamirdin sug'urgandek qil.

5420 Har mushkulning tayin bir chorasi bor.
Daraxtda gul ochar yetishsa bahor.

Har ishga bir chorayi tadbir kerak,
Zamondin zamonga aylanar falak.

Bu yo'lda tadorik erur qo'l-qanot,
Sabr ila hosil bo'lgusi murod.

Haybatli tog'lardin dengizga qadar,
Ohistalik ila yo'l bosgan yetar...

Mulki Ajam sari ot surib hamon,
Unda tutmoqchiydim bir muddat makon.

¹⁵¹ Zeri po – oyoq osti.

5425 Bu savdo boshingga tushdi to'satdin,
Bundan yaxshiroqdi ayrilsam taxtdin.

Junbushga keldi baski raxtim mening,
Ot ustida bo'lgaydir taxtim mening.

Dushmandin qasosim olmaguncha to,
Tinib-tinchimasman bu yo'lda aslo".

Duvoliy eshitdi, to eshitguncha
Alam hovuridin tushdi bir muncha.

Er o'pib, tuproqni anbar ayladi,
Yuz surib so'ng zaminni zar ayladi.

Iskandar dashti qipchoqqa yetgani Soqiyнома

5430 Ketur, soqiy, kosani bergil to'liq,
Ki uni ichmakdin bo'lak chora yo'q.

U boda emasdir, quyosh yallug'i,
Gavharida suv bor, olov bor dag'i...

Pandu hikmat

Ikki parvona ko'rgaymen doimo,
Birisi oq esa, birisi qaro.

Parvona emaslar kimsa sham'iga,
Yurmaslar birovning azmu amriga.

Charog'ing yoq, yoritgil bu xonani,
Ki kabob etsin ikki parvonani.

Doston

5435 Ul kimsaki yasatdi bu sabza bog',
Bo'yla ravshan etdi charog'din – charog':

Xabar topgach Iskandari Faylaqus,
Ki ravslar etmish yurtga tajovuz.

Uxlamadi qahru g'azab dastidin,
Yovga bo'lgan cheksiz alam, qasdidin.

O'yladi, mushkulga ne tadbir etay,
Bu ishning poyoniga qandoq yetay?

Ertasi kun tong yorishib lolarang,
Tunning qaro ahvoli bo'lganda tang,

5440 Sikandar tulporiga mindi hamon,
Eldi dema, sachradi chaqmoqsimon.

Ayqirgan Jayxundan sakrab o'tdi ul,
Xorazm tuprog'i sari tutdi yo'l.

Ortidin ergashgan sipohi – daryo,
Tuyoqlar zarbidin titradi sabro.

Jayxundanam nari Omuldin o'tdi,
Ot surib Xorazm dashtiga yetdi.

Olamni ravsdin etmaguncha pok,
Qo'nglida dard edi, joni alamnok.

5445 Uyqusini qurbon etib shashtiga,
Shu sur'at-la yetdi Saqlob dashtiga.¹⁵²

Biyobon ichra ko'rdi xayli qipchoq,
Go'zallari sumanso erdi, oppoq.

Olovtan erdilar, suvdek sho'xu shan,
Oydan-da yorug'roq, quyoshdan ravshan.

Qiyg'och ko'zlarida sehr bor edi,
Farishta ham bir ko'rishga zor edi.

Yuzlari beniqob edi yozu qish,
Yo'q edi erkak zotidin tortinish.

5450 Sipohiy hama tashna erdi shu tob,
Chu ko'rdilar yuzlarni ul beniqob.

Suqlanib boqarkan ular har onda,
Yigitlik qoni jo'sh urardi tanda.

Lek o'zni tiydilar daxl etmoqdin,
Sababki, xavfsirar edilar Shohdin.

Beniqob erdilar ul husni tal'at,
Shohga xush kelmadi bu rasmu odat.

Bu yerda xavotir bor edi ko'proq,
Ki andoq suvga lashkar erdi chanqoq.

5455 Lashkar ehtiyoji ayondir beshak,
Ayol ayol esa, erkakdir erkak...

¹⁵² Saqlob yoki saqlab – slavyan.

Bir kuni Shahanshoh himmat ayladi,
Qipchoq ulug'larin chorlab, siyladi.

Ehtirom ko'rsatib, shafqat ayricha.
Ularni sarafroz ayladi necha.

Chollarga pinhona dedi shu so'zni:
"Yaxshidir ayollar bekitsa yuzni.

Begonaga yuzni ko'rsatsa ayol,
O'ziga ziyondir, eriga malol.

5460 Gar ayol temirdin, toshdin bo'lsa ham,
Yo'q, erkak emas ul, ayoldir har dam".

Ul biyobon ahli, ul qavmi sahro
Tingladilar bir-bir, ne demishdi shoh.

Vale Shoh hukmidin bo'yin burdilar,
O'z odatlariga yuz o'girdilar.

Dedilar bosh egib: "Senga bandamiz,
shohning xizmatiga kamarbandamiz.

Lek yuz bekitishga el mushtoq emas,
Ki bu xislat oyini qipchoq emas.

5465 Sening oyiningda yuz bekitmoq ul,
Bizning rasmimizda ko'z bekitmoqdir.

Begonaga boqmoq ayb esa bo'yla,
Yuzni jazolama, ko'zni jazola.

Bu so'zlar podshoga og'ir kelsa gar,
Nega oldi-ortiga solgay nazar?

Bizning kelinlarga basdir shu hisor,¹⁵³
Kirmaslar birovning uyiga zinhor.

Bu xalqning yuziga niqob tortmagil,
Yaxshisi, niqobni ko'zingga tortgil.

5470 Kishikim ul ko'ziga tortar niqob,
Oy ko'rinmas unga, ko'rinmas oftob.

Jahondor agar amru farmon berar,
Uning farmoniga hama jon berar.

Amr shohdin erur, adosi bizdin,
Vale kechmagaymiz odatimizdin".

Bo'yla so'z amollikni chun ko'rdi shoh,
Bir lahza jim qoldi jamoataro.

Ko'rdi ul shu onda haqiqat qayda,
Bu xalqqa nasihat etmoq befoyda.

5475 So'yladi farzonaga bu gapni boz,
Ki bir chora ko'rsin o'shal chorasoz.

Dedi: "Bu parichehralar ming afsus,
Begona kishidin bekitmaslar yuz.

Bu ko'zlar kuydirurlar begonani,
Sham' o'ti kuydirgandek parvonani.

Ne qilaylik, insofga kelsin ular,
Begonaga yuzni ko'rsatmasinlar?"

¹⁵³ Hisor – qu'rg'on, qal'a.

Javob berdi andoq farosatshunos:
“Shohning farmonini etarmen e’zoz.

5480 Bir tilsim yaratgum dasht ichra chunon,
Afsona taralgay undan har zamon.

Har ayolki unga tashlagay nazar,
Yuzin bekitmasdin o’tmas hech mahal.

Shart shuki. Shoh shunda o’ltirib kutsin,
Har neki istasam, omoda etsin”.

Shahanshoh sabr ila o’ltirib, kutdi,
Farzona istagin omoda etdi.

Donishmand sarf etib kuchi, g’ayratin,
Tadbir ila ko’rsatdi o’z san’atin.

5485 Ajib bir kelinchak haykalin dono
Qora qoyatoshdin tikladi zebo.

Oq marmardin niqob ko’zu qoshida,
Suman bargidek mushkin tol boshida.

Har ayolki kechib o’tarkan shundan,
Bekitardi uyalib yuzni undan.

Uyatdin chodirin yuzga tutardi,
Yuzini, sochini nihon etardi.

O’shal kunki haykal tikladi qomat,
Qipchoqqa yuz bekitmoq bo’ldi odat.

5490 Donodin so’rdi Shoh: “Aygil, bu nigor
Bu toshko’ngil qavmga chun etdi kor?”

Bizning farmonimiz etmadi ta'sir,
Vale tosh sanamga bo'ldilar asir?"

Xabar berdi dono: "Hikmat bu turur,
Qipchoqning qalbi toshdek qattiq erur.

Tanlari kumushdir, toshdir ko'ngillar,
Shuning-chun tosh ko'ngilga moyil ular.

Tosh sanam yonidin o'tarkan nari,
Muloyim tortadi tosh yuraklari.

5495 Ko'rarlar boqqanda toshsanam har gal,
Uyalib, yotlardin yuzin berkitar.

Derki, ravo erur yuz bekitmoqlik,
Erni yoqlab, yotni yiroq tutmoqlik...

Tag'in bir sir borkim, osmoniydir ul,
Oshkor etolmasman, nihoniydir ul".

O'sha tilsim qomat rostlagan yerda,
Necha bir yuzlarga tortildi parda.

Hamon o'sha tilsim go'zal, xushnigor,
Biyobon bag'rida turar purviqor.

5500 Atrofi o'qlardin o'rmondir go'yo,
Suv bo'yida unib o'sgandek giyoh.

Burgutlar to'kkan par o'qlardanam ko'p,
Burgutlar, kalxatlar o'ltirar to'p-to'p.

Hama ahli qipchoq, o'tar bo'lsa gar,
Sanamga ta'zimu tavozu etar.

Gar ot minib o'tar, magar piyoda,
Ehtiromin izhor etar ziyoda.

Suvoriy otini surib o'tgan on,
Kamonidin bir o'q etar armug'on.

5505 Cho'pon haydab o'tar ekan suruvni,
Qurbonlik etadi unga bir qo'yni.

Burgutlar yoprilib falakdin inar,
Qo'yning bir tukin ham qoldirmas ular.

Kalxatlar xavf solib turar har lahza,
Qoyatoshga yaqin borolmas kimsa.

Sanamni ko'r, naqqosh naqsh aylamish chun,
Goh tugun boylar ul, goh yechar tugun...

Iskandar ravs o'lkasiga yetgani Soqiynoma

Ketur, soqiy, ul bokira bodani,
Erkakka oohno etay men uni.

5510 Avval qo'lim yuvay, toza bo'lsin ul,
Keyin cho'zsam bo'lur bokiraga qo'l...

Pandu hikmat

Bulbul yana gulzoru boqqa kelmish,
Pari yana ravshan chiroqqa kelmish.

Bir pari paykarki, ko'nglimdin o'tar,
Paridek xayoli meni mast etar.

Keyin ul koni tiyra ahramandin
Guhar olgum, yorug'dir baski jondin.

Ming ofarin oqilu donoga ul,
Qorong'u kondin yarqiroq zar olur...

Doston

Bu qissani bayon etguvchi elga,
Andoq hikoyani keltirdi tilga.

Ki Shahanshoh Rum donosin chorlabon,
Toshni mum etishga ayladi farmon.

Bir haykal yaratib shunda donishmand,
Feruza toshlardin etdi muzayyan.

Chunon ziynat berdi, naqshin ayladi,
Turkona naqshga ipak boyladi.

Chu paykar erdikim ul paykarnamoy,
Ki Shoh o'trusida erdi unga joy.

5520 Shoh har qayga borsa to'kar erdi ganj,
Rohat ummidida chekar erdi ranj.

Xullas, manzil osha manzil yurdi ul,
Har manzilda necha hafta turdi ul.

Nihoyat keldilar dushmanga yaqin,
Arslonlar yozdi po'lat panjasin.

Suv bo'yiga yetib, tutdilar maqom,
Oldilar shu yerda uyqu va orom.

Chamanzor qo'ynida tin olib necha,
Shoh va sipoh charchoq yozdilar picha.

5525 Shu yerda lashkargoh etdilar hozir,
Ko'kdap yulduzlardek tikdilar chodir.

Saroparda ochdi jahon husnini,
Ravsga qaratib qurdilar uni.

Ravslarga xabar yetdi... Shohi Rum
Shitob ila sarhaddin o'tdi shu zum.

Andoq sipoh ila keldi ul atay,
Gar ursa, tog'ni ham talqon aylagay.

Qilichboz bahodirlari behisob,
Qilich ursa, jonlarga yetgay azob.

5530 Kamand otguvchilar misli arslon,
Etar fillarni ham yer ila yakson.

Chiniy navkarlari bordir, kamonchi,
O'q uzishga mohir, shohning tayanchi.

Sikandar demagil, tund ajdahodir,
Jahonga yoprilgan qo'rqinch balodir.

Qo'shin dema, tog'dir yurguvchi ravon,
Qadami ostida yer ham notavon.

Po'lat yopinchiqli ikki yuzta fil,
Zaminga zilzila solur muttasil.

5535 Sahroni to'ldirdi fil ila filtan.
Lashkariga lashkar emasdir pisand".

Qantoli ul ravsga solor edi,
Xabardor bo'ldikim, nechuk kor edi.

Etti viloyatdin jam etdi lashkar,
Har biridin oldi behisob askar.

Bartosdin, Olondin, Xazrondin chunon,
Seldek oqib kelib, tutdilar maydon.

Isu zamindin Dashti Qipchoqqacha,
Erni qilich, qalqon qopladi necha.

5540 Adadi necha erdi, lashkarshunos
Etolmasdi sanab, andoq beqiyos.

Hisoblab chiqdilar so'ngra bir muddat,
To'qqiz yuz mingdin ortiq erdi adad.

Shohning lashkari sori yurdilar so'ng,
Ikki farsang berida turdilar so'ng.

Lashkariga dedi ul Qantoli ravsga:
"Bu qo'shin biz bilan jang qila olmas!

Jang qilib, maydonda chekmamishlar ranj,
Karvonlari ortmish bisot, molu ganj.

5545 Ularga biz ila jang qilmoq qayon?
Ravsiyda har jangchi botir, pahlavon.

Ular hama hashamdor, zarrin lijom,
Billuriy tabaqlaru bejoda jom.¹⁵⁴

Ishlari ishratdir, farog'at bari,
Yurishlari jangu jadaldin nari.

Tunlari gul hidlab, etarlar rohat,
Saharda icharlar sharobu sharbat.

Qon kechib, qon ichmak – ravslar ishi,
Sharobxo'rlik – rumiy tovuslar ishi.

5550 Ular maydonda jang qilolmas ortiq,
To'nlari ipakdin, qizildir, sariq.

Xudo berdi bizga bu yanglig' dastgoh,
Xudo berganga yo'l ochiqdir, illo.

Tushimda ko'rsaydim bo'yla g'animat,
Tamshanib yotardim necha bir muddat.

Yolg'iz bitta emas ul toji zarlar,
Dengizda topilmas bo'yla guharlar.

Qo'lga kiritsak ul g'animatni, bas,
Jahon iqlimiga bergaymiz shikast.

5555 Bo'larmiz shu jahon hukmdori, Shoh,
Jahon boricha Shohi sohibkuloh.

Aytib shu so'zlarni ot surdi ildam,
Necha ahli a'yoni erdi hamdam.

¹⁵⁴ Bejoda – qirmiz.

Tog' boshida turib, etdi ishorat:
"Qarang, qarshingizda bir jahon davlat.

Bu dargoh yaxlit gavhari ganj erur,
Sovut qalqon emas, hama la'lu dur.

Egarlar dag'i zarrinu zarnigor,
Otlar yopinchig'i ham gavharnigor.

5560 Kulohlar murossa', yo'l-yo'l zarhali,
Qabolar oyoqqacha zar kashtali.

Oyoq ostida ham ipaklar quyuq,
Qo'llarda nayza yo'q, o'qdonlarga o'q.

Hama atir sepib, tarovat ichra,
Zulflarining uchi quloqlar uzra.

Shohona zar ila zevalari mo'l,
Na yugurik oyoq, na qudratli qo'l.

Sikandar shu ojiz lashkar bilan, hay,
Qaysi bir qo'shinga shikast berolgay?

5565 Boshlarga bir nina tushar bo'lsa lek,
Og'izni ocharlar misli darchadek.

Tarixu taqvim-la jangga kirurlar,
Hisobda bir oyga kechikar ular.

Bu lashkar maydonda etolmagay jang,
Hatto kesakdanam chiqarolmas chang.

Hamla etarmiz bir tanu jon bo'lib,
Bir hamlamiz ila etarmiz mag'lub".

Ravsiylar edilar go'lu soddadil,
Bu aldov so'zlarga uchdilar butkul.

5570 Dedilar hayqirib: "Hozirmiz hama,
Ahdu paymoni Chin, botirmiz hama!

Maydonga tusharmiz misoli nahang,
Qolmas bu guliston aro bo'yu rang.

Yovni yo'q etarmiz urib Shabexun,
Hatto toShlardanam oqizarmiz xun.

Nayzani qo'yarmiz, olarmiz xanjar,
Dushmanning boshini kecharmiz yaksar!"

Chu ravsiy ko'rarkan lashkarin andoq,
Tog' ham qarshisida tuyuldi yumshoq.

5575 Qaytdi lashkargohga shior etib jang,
Dilidin g'ash ketdi, shamshiridin zang.

Narigi yoqda ham shohi jahongir
Bo'lgusi janglarga tuzardi tadbir.

Lashkarboshilarni majlisga yig'di,
Yulduzlar ichida o'zi oy edi.

Qadarxon Chindanu Go'rxon Xo'tandin,
Dabis Madoindan, Valid Yamandin.

Duvoliy Abxozdan, Hindiy Raydin,
Qubodi Sitahriy avlodi Kaydin.

5580 Zarivandi geliy Mozandarondin,
Niyoliyal esa mashriq makondin,

Bishak Xurosondin, Vorum Iroqdin,
Barishod Armaniy do'st-ittifoqdin,

Yunonu Afranja va Misru Shomdin
Bahodirlar yig'ildi har tomondin.

Jahongir ularga umid berdi bot,
G'amu tashvishlardin ayladi ozod.

Dediki: "Ul ravsiylarkim jangari,
Arslonlar jangin ko'rmamish hali.

5585 O'g'rilik, makkorlik, qaroqchilik-la
Ko'rsaturlar o'zni mard etib bo'yla!

Ikki qo'lda qilich ko'rmamishlar ul,
Qurollari nayza, boltadir nuqul.

Qurol-yarog'i soz bo'lmasa magar,
Nechuk maydonda u dushmanni yengar?

Yalang'och yovga tig' sirmab har qalay,
Tikka chopib tashlash jangchiga qulay.

Qo'lga qilich olsam, hammaga oydin,
Qo'zg'atarmen Alburz tog'ini joydin.

5590 Men ul hukmdorki, Doroyi davron
Jonim olmoqchiydi, taslim etdi jon.

Kayd kamand tashlabon, istadi bandim,
Vale asir etdi uni kamandim.

Lashkarimga qarshi lashkar chekdi Fur,
Uni mag'lub etib, yedirdim kofur.

Kamonim qoshiga solarkan tugun,
Hoqonning kamoni uzildi u kun.

Solurman ravslarga qonu qiron,
Tog'din sel oqishi barchaga ayon.

5595 Hazar tog'idin Chin dengizigacha,
Turklarni tor-mor etdimmen necha.

Turklar Runga sira bo'lmamish rafiq,
Kiynasi ravslar qahridin ortiq.

Tark kamon otarkan, adashmaydi ul,
Ravs oyog'iga jarohat solur.

Ne zaharlar borki, insonga ofat,
Boshqa zahar bilan kesilar faqat.

Tamsil

Qari tulki bo'ri dastidin bir kez
Qutuldi ularning ak-aki bois.

5600 Ikki yosh bo'rida ortib qahrukiyn,
Tushdilar ortidin qari tulkinging.

Qishloqda ko'ppaklar ko'p edi andoq,
Bo'ri bilan tulki qoniga chanqoq.

O'shal qari tulki dod soldi tunda,
Ki itlarning og'zi ochildi shunda.

Qishloq ko'ppaklari suron qildilar,
Tulkini bo'ri deb gumon qildilar.

Itlar shovqinidin natija shulki,
Bo'rilar qochdilar, qutuldi tulki...

5605 Andoq etar o'zni oqil, chorasoz,
Dushman qo'li bilan dushmanin xalos.

Mening chun qudratu shijoatim bor,
Boshqalar madadi menga ne darkor?

Eshik chorasozga yopiq emasdir,
Hama ish qilichga bog'liq emasdir".

Sikandarlar indo chekdilar shu on:
"Senga qonimiz u jonimiz qurbon!

Ilgari ham sira bo'lmadik sustkash,
Endi o't bo'lurmiz har lahza, otash!

5610 Murod aylab zafar, maqsad etib mol,
Urgaymiz maydon aro jahdu jidol!"

Shoh lashkarga yurak berdi, alqissa,
Bahrasiz qolmadi andin bir kimsa.

Hama andisha ichra erdi tamom,
Ki ertaga ne keltirar tig'u jom.

Tun bostirib keldi, chekindi kunduz,
Askar tashqari chiqdi, yotdi josus.

Lashkarning ilg'ori ilgari yurib,
Turdilar yo'llarda nigahbon bo'lib.

5615 Nigahbonlik qilib tiyra tun ichi,
Tonggacha bo'ldilar posbon, qo'riqchi.

Iskandarning ravsiylar bilan birinchi jangi
Soqiynoma

Ketur, soqiy, siymobi nobing menga,
Ki Shingarfdin jilo bergaylar anga.

Ketur, to ayvoniga eltay uni,
Qizil rangin berib, no'sh etay uni...

Doston

Jahondiyda dehqon, gapir, keldi payt,
Ko'ngilga xush yoqar so'zlaringni ayt.

Sikandar Chin mulkidin chiqdi hamon,
Qaylarga boshladi so'ng charxi davron?

5620 Falak qimorbozlik ayladi anga.
Jahon nayrangsozlik ayladi anga.

Hikoyatchi, sarrofi gavharfurush,
So'zini gavharga etdi hamog'ush.

Ki rumiy o'trusida ravs ko'rdi ul
Jahonni tullagan tovus ko'rdi ul.

Tunni uyg'oq kechirdi, yumjadi ko'z,
Toleini izlab, sanadi yulduz.

Zamin ipak farshini yiqqan mahal,
Tosu shamshir ila ko'rindi sahar.

5625 O'shal tig' birlaki, shay erdi shu tob
Kesildi, boshidin ayrildi oftob.

Qaro parda ostidin chiqdi tuman,
Tig' tumandek, tuman edi tig'monand.

Ikki lashkar edi qo'sh daryoyi xun,
Suvlari har nechuk daryodini fuzun.

Qon to'kishni maqsad etib chopdilar,
Bir-birlariga nayza, o'q otdilar.

Ikki maydon aro tor joyda, ajab,
Tog' kabi turdilar, oyoqni tirab.

5630 O'shal ma'rakada, ul maydon aro,
Sarflaning, deb amrini bermishdi Shoh.

Po'lat sovut, olmos tig'li erdilar,
Quyoshni bulutdin qaro qildilar.

Ayru-ayru turib necha bir guruh,
Misli tog' edilar, dushmanga o'tru.

Duvoliyu ul ahli Eronzamin
So'l qanotda oshirdilar qahru kiyn.

Qadarxonu tag'furiylar – ittifoq,
O'ng qanot ustida ko'tardi bayroq.

5635 Xos g'ulomlar o'q yog'dirib beomon,
Intiqom olovin yoqardi har on.

O'zi yovqur fil ustida o'ttirib,
Ortida bahodirlari hayqirib.

Kelardi Shoh yovuz dushman qasdida,
Oq fil bo'kirar edi astida....

Ul tarafdin ravsiy qizil yuzlilar,
Ki majusiyga qiblagoh erdilar.

Xazroniylardin o'ng qanot shaylabon,
Patrosiylami so'l qanot aylabon.

5640 Aysaviy oldinda, ortda Aloniy,
Bosh kesishga hozir edi shu oni.

Sarkarda ravs erdi qo'shin qalbida,
Shohga qarshi g'azab qaynardi unda.

Sipoh har ikki tarafdin xezlanib,
Zamin gardi samolarga yuksalib.

Ravsiylar bongidin taralib g'uvur,
Bemor hindu kabi g'uldirardi ul.

Rumiylar bongi ham gardunni yorib,
Zaminni titratib, qo'rquvga qorib,

5645 Turkiy kamaylarning suroni tutash,
Turklarga kuch-g'ayrat etar erdi baxsh.

Tuyoqlar toptardi yerni beomon,
Erdin baliqqacha yetardi ziyon.

Temir gurzilarning tovush tahdidi
Yuksalib, samoga yetardi xuddi.

Balorak qilichki, dami puqragun,¹⁵⁵
Kumushdek tanlardin oqizardi xun.

¹⁵⁵ Ta'rif berilmagan

Qalqonlarni teshib o'tarkan o'qlar,
Chaman uzra uchgan qushlarga o'xshar.

5650 Nayzadin yer yuzi erdi qamishzor,
Gurzilar zarbidin tog' o'mida g'or.

Qilichlar boshlarga tushib ustma-ust,
Dushman o'z qonidin yuvar erdi yuz.

Bo'ri terisidin yasalgan dovul,
Gumburlab, qizitar maydonni nuqul.

Nayza qoya toshdin oqizardi qon.
Sanchilgan o'qlardin o'sardi o'rmon.

O'q hama qizil gul bo'lib kulardi,
Uning tikonidin qon tomchilardi.

5655 Qilichlar ajdaho edi, tinmayin
Bo'ynini cho'zardi, uzardi bo'yin.

Tog' bag'ridin chiqib bug' lahza-lahza,
Solardi zaminning taniga larza.

Ravsiylar Shavqini ko'kka yetardi,
Otardi arslonlar bosib o'tardi.

Rumiylar havoga ko'tarib bayroq,
Suvga qilichlardin otash solaroq,

Havoning tomog'i bo'g'ilib, ajab,
Nafas olar edi og'ir, qaltirab.

5660 Na oyoq qo'ygali ma'voda bir joy,
Na qushga uchgali havoda bir joy...

Shu dam ravslardin qo'rqinch siyoqli,
Chiqdi Partosiy ul, tulki qalpoqli.

Tushdi maydonga ul shamoldek uchib,
Va turdi yel uzra jonidin kechib.

Maydon talab qildi, javlon ayladi,
O'z ta'rifin bo'yla bayon ayladi.

Ki "Men ot o'ynatib shu maydon aro,
Partosiy'larga bo'lgum pushtu panoh.

5665 G'azab etsam, g'azabdin yangrar so'zim,
Jang aylasam, ajdahopaykar o'zim.

Yo'lbarsni yiqarman tog'lar boshida,
Nahang yerman dengizlar yonboshida.

Yovga tashlanarman sher kabi yovuz,
Tulkidek dumbaga tikmagayman ko'z.

Temir panjaliman, uchragan oni,
Bir urib, ag'dargum erkak qulonni.

Qon icharman, qondir suyganim mening,
Hamisha xom charm kiyganim mening.

5670 Otgan nayzam etar dushmanni yakson,
Ishonmasang, tushgil, qarshingda maydon.

Tushingiz maydonga, ahli Chinu Rum,
Toki erib bitsin shu otashda mum.

Yazdon aziz etsin uning jonini,
Kim menga baxshoyish etsa qonini".

Shohning lashkaridin jasur, g'azabkor,
TuShdi maydonga bir yigit, nayzador.

Boshladi yov holin aylamoqqa tang,
Va lekin uzoqqa cho'zilmadi jang.

5675 Partosiy qilich soldi ust-ustiga,
Rumiy pahlavonni qulatdi yerga.

Chiqdi boshqa rumlik, quchdi halokat,
Partosiyga yana yuz ochdi omad.

Malikzoda chiqdi, Hindiy unga nom,
Qo'lida shamshir edi, hindiy husom.

U yirtqich bo'riga mast arslondek
Otildi, olishdi dadil, tikma-tik.

Omonsiz jang ketdi o'rtada base,
Dam ul kimsa ustundi, dam bul kase.

5680 Malikzoda Hindiy kuchanib ortiq,
Hindiy shamshirini sirmadi qattiq.

Olmosdek tig'ini dushmanga soldi,
Partosni qulatdi, tuproqqa qordi.

Boshqa ravsiy tushdi, sher bo'lib shu on,
Bir qo'lda qilichi, bir qo'lda qalqon.

Hindiyning qonini to'ksam derdi ul,
Muxolif qoniga tashna erdi ul.

Hindiy qilichidin to'kildi qoni,
Ravsiydin ayrildi qilich, qalqoni.

5685 Yana o'zga ravsiy maydonga tushdi,
U ham mag'lub bo'ldi, nafasi o'chdi.

Er tishlatdi yana boshqalarni ham,
Tozi ovlagandek ovni damba-dam.

Ravisylar safiga soldi talvasa,
Maydonga tushmadi o'zga bir kimsa.

Keyin oromgohga yo'lni burdi ul,
Tani qonu terga botgandi butkul.

Podsho qarshi olib, ko'nglin xushladi,
Elkasiga shohona to'n tashladi.

5690 Qaytdi manziliga har ikki lashkar,
Yo'llarga qo'riqchi, posbon qo'ydilar.

Iskandarnin ravsiylar bilan ikkinchi jangi

Ertasi kun soqiy uyg'onib tongda,
Yoqut mayin tuproqqa sochgan onda,

Ikki lashkar oyoqqa qalqib hamon,
Pistirmadan turib otdilar kamon.

Maydon aro dov dovlashga tushdilar,
Bir-birlarini ovlashga tushdilar.

Dovullar etarkan quloqni batang,
Boshdin hush uchardi, chehralardin rang.

5695 Bo'ri terisidin bong, nog'oralar,
Ko'ngil emas, po'latni ham poralar.

Zaminga zilzila tushganda tutosh,
Ko'k ingrar, humrayib boqardi quyosh.

Ot surgan bir iloqiy sarkash edi,
Ostida tulpori naq otash edi.

Boshdin-oyoq temirdan erdi to'ni,
Bilishardi temir yurak deb uni.

Maydon talab qildi o'shal pili mast,
Duch kelgan kimsani etgum deb abas.

5700 Ul sher panjasiga urmoqqa panja,
Botir topilmadi necha damgacha.

Bir soatcha o'tib, yovqur arslon
Maydonga ot surdi taraf aylabon.

Buxoriy tulpori misoli fildek,
G'azabi ko'ksida ko'pribi Nildek,

Iloqiy ahrimanga qildi xitob:
"Qara, hey, ufuqdin chiqdi oftob!

Manam bir soqiyman, qadah qo'limda,
May emas, iloqiy qonidir unda!"

5705 Shu so'zlarni aytib, tulporin surdi,
Temir gurzisini tikka ko'tardi.

Tushirdi zarb ila dushmaniga to,
Bo'ldi ul ahriman boshidin judo.

Tani gurzi zarbidin tuproqqa past,
Qoni to'fonidin zamin bo'ldi mast.

Boshqa bir suvoriy lekin shu zamon
Tog'dek savlat ila talashdi maydon.

G'olib bo'lolmadi u ham jang qilib,
Boshqa shovvozlar ham bo'ldilar mag'lub.

5710 Xullas, necha botirlar dov qildilar,
Qilich sirmab, boshlardin ayrildilar.

Po'lat sovut, olmos shamshir bilan ham
Adamga ravona bo'ldilar shu dam.

Da'vogar bo'lmadi so'ngra ayricha,
Shundan keyin namozi asrgacha,

Yana tomirlarda qaynadi qonlar,
Qazoyu qadarga tikildi jonlar.

Bir ravsiy ot surdi maydonga chun fil,
Yuzi qizg'ish, vale ko'zi erdi Nil.

5715 Rumiylardin talab qildi pahlavon,
Necha bir boshlarni uzdi beomon.

Necha bir jonlarning to'kdi qonini,
Necha bir tanlarning oldi jonini.

U bilan maydonda surmoqqa navbat,
Bir kimsa chiqmadi, etmadi jur'at.

Ravsiy andoq ortga surdi rumlini,
Gurzisi yiqitdi necha bir filni.

Hindiycha shamshirin sirmab g'azabnok,
Necha rumiy, chiniyni etdi halok.

5720 Nayzadek uzunlik, g'ozlik ayladi,
Ma'arakada nayzabozlik ayladi.

Shahriyor lashkargohidin bir mahal
Bir suvoriy chiqdi ot surib jadal.

Ot emasdi, osmonda burgut edi,
Tig' emas, ilkida olov, o't edi.

Za'faron ipakdin to'n kiymishdi mard,
Dubulg'asi po'lat edi, lojuvard.

Bir ifriti mastdek maydonga tushdi,
Qo'lida to'rt qirra nayza tutmashdi.

5725 Ravsga hayqirdi: "Ey kibri baland!
Tuproqqa jo bo'lishni istarmisan?"

Zarivandman, makonim Mozandaron,
Ahriman bo'lsa ham bermasman omon!"

Ravsiy ko'rar ekan tog'dek jussani,
Rangi bo'zardiyu titradi tani.

Angladi, ul odatiy bir jangchimas,
Jang qilib, bu qudratga teng kelolmas.

Ot boshini burdi lashkargohiga.
Eldek uchdi qamchi bosib otiga.

5730 Ortidin nayzasin otdi Zarivand,
Bor kuchi, shiddati, zalvori bilan.

Nayzasi to'rt qirrali olmos edi,
Beliga sanchilib, ko'ksidan chiqdi.

Yugurik ot yo'lda to'xtamay bir on,
Yaradorni ravsiyga eltdi hamon.

Safdoshlar kelishdi uni ko'rgani,
Ko'rdilar salibiy bo'lgan murdani.

Ko'rdilar, zarivandda ne erdi kuch,
Salibiy aylagay ul kelganni duch.

5735 Barchasi bir yo'la jilovni tortdi,
Partos lashkarlari go'yo tosh qotdi.

Sabru toqatlari tugagan onda,
Lashkardan bittasi tushdi maydonga.

Ki Qantoli Kupol edi unga nom,
Ko'rdi Zarivand ham, yurdi ul tomon.

Ikki pahlavon yuzma-yuz turdilar,
Jang boshlab, shamshirga shamshir urdilar.

Oqibat nogahon fursat kelib o'ng,
Zarivand sher oldi jonini uning.

5740 Yana navbat berib po'lat shamshirga,
Etmishta ravsiyni qulatdi yerga.

Qantolning ko'ksida bo'g'ildi nafas,
Ko'rdiki, lashkari jur'at etolmas.

Sovut kiydi, qo'lda qurol-yarog'i,
Go'yoki sarv erdi, tig'dan butog'i.

Ot surdi, haybati qo'rqinch ajdaho,
Dilovni bo'sh qo'yib ul maydon aro.

Zarevand ko'rdiki, kelur asrlon.
O'kirdi ul taraf arslonmonand.

5745 Qilichlar to'qnashdi chaqnab uehdi o't,
Andoqki, samolarga ham tushdi o't.

Pargor o'qlaridek bir-birin surib,
Biri sekin yursa, biri tez yurib.

Ikkis maydonga gird aylandilar,
O'tlar yoqib, o'zlari ham yondilar.

Ikkisidan biri kelmadi g'olib,
Kun peshindan og'di, oqshom qorayib.

Bir shamshir urdi nogahon Shohi ravs,
Mozandaronlik joniga yetdi qasd.

5750 Otidin yiqildi botir alamnok,
Bir shamshir zarbi birlan bo'ldi halok.

Qotili bu holni ko'rib, shu zahot
Shodlanib, lashkari tomon surdi ot.

Iskandar bu holdin o'rtandi qattiq,
Geliy sarkardasi yo'q erdi ortiq.

Buyurdi, marhumga vafo ko'rsatib,
Izzat-eh-tirom-la dafn eting deb...

Iskandarning ravsiylar bilan uchinchi jangi

Ertasi kun ul turkiy sulton, quyosh,
Chin bahri ortidin ko'targanda bosh,

5755 Ikki lashkar yana to'kmoq bo'lib xun,
Bayroq ko'tardilar misli Besutun.

O'shal dengiz yoqdin ko'rindi bulut,
Ajdaho purkadi har tarafdin o't.

Sherlar o'kirigi jahonni tutdi,
Qonlar daryo bo'lib, har yonni tutdi.

Fil jussali rumlik jangchi, davongir,
Qo'lida cho'qmoru belida shamshir.

Hayqirdi bormi deb bir mardi maydon,
Chiqdi sariq kaftan kiygan qahramon.

5760 Rumlik cho'qmor ila urdi daf'atan,
Ravsiydan na bosh qoldi, na qoldi tan.

Boshqasi shu zamon maydonga tushdi,
U ham mag'lub bo'ldi, yerga qorishdi.

Aloniy Falanja degan chavandoz,
Savashlarda dong taratgan qilichboz,

Gurzisin ko'tarib maydonga tushdi,
Ko'rganning boshidin uchardi hushi.

Rumiy gurzisini otdi ul taraf,
U ham gurzisini otdi bul taraf.

5765 Ikki gurzi havoda charx urarkan.
Shiddat-la surardi dushmanga dushman.

Aloniy savashga kirishgan mahal,
Bildiki, dushmani zaif bir qadar.

Gurzini havodin ilib shu zamon,
Raqibning boshiga urdi beomon.

Dushmanning boshini etarkan tilka,
G'urur-la boshini ko'tardi tikka.

Armani qavmidin bitta pahlavon,
Jang qilishga mohir, chin mardi maydon,

5770 Ismi Sharva edi pastu balandda,
Arslondin saboq olmishdi jangda.

Qo'lda ikki shamshiri, chun ajdaho,
Boshlarni tanlardan etardi judo.

Aloniy tarafga ot surdi ildam,
Shamshiridin chaqmoq chaqib damba-dam.

Faranja ko'rdikim, pahlavon kelur,
To'sdi ko'kragini qalqon bilan ul.

Ammo Sharva oldi botirlar qasdin,
Faranja jon qushi uchdi qafasdin.

5775 Aysudan bir kamarbasta bahodir
Maydonga ot surdi shunda misli sher.

Jangda mardonalik ko'rsatdi har chand,
Sharvaga ul raqib emasdi pisand.

Chunki kuchli edi undan, qaviydi,
Uning ham boshini tuproqqa qo'ydi.

Lazgilar tog'idin Jiram ismli
Bir pahlavon tushdi maydonga, kinli.

Temir dubulg'a kiymishdi boshiga,
Kimsa borolmasdi uning qoshiga.

5780 Sovutga o'ralmishdi boshdin-oyoq,
Simobdek ravshanu kumushdek porloq.

Sharvaga sher kabi tashlandi hamon,
Nafas rostlamoqqa bermadi imkon.

Shamshirini urdi unga sherimand,
Sharvaning tanidin ko'kka uchdi gard.

Dushmanin ko'rarkan oyoq ostida,
Otini o'ynatdi uning ustida.

Necha botirlarni oyoqdin chaldi,
Necha jasurlarning jonini oldi.

5785 Duvoliy chun ko'rdi zo'ravonni ul,
Maydonda kuchidan mast erdi mag'rur.

Jang qilmoqqa yaroq, aslaha so'rdi,
Maydonga tushmoqqa tadorik ko'rdi.

Boshiga qo'ndirdi og'ir dubulg'a,
Chinning po'latidin erdi sidirg'a.

Shamshir taqdi, zahar singdirilgan tig',
Kamand osdi, sanamlar zulfi yanglig'.

Otiga ham sovut yopinchiq yopib,
So'ng maydonga tushdi qilich o'ynatib.

5790 Dushman sari yurdi shodon, behadik,
Maktabidin uyga qaytgan boladek.

Jiram ko'rdiki, mardi maydon kelur
Dang qilishga tashna arslon kelur.

Orqaga qaytishlikka yo'l yo'q edi,
Chor-nochor o'limga ro'baro' bo'ldi.

Duvoliy sari yurdi qilmoqqa jang,
Arslonga etmoqchi bo'ldi nayrang.

Duvoliy ko'rarkan g'anim hiylasin,
Shamshir ila to'sdi hamon tegrasin.

5795 Necha bir so'z kechdi aroda jonso'z ,
Va lekin xayrdin aytilmadi so'z.

Duvoliy payt poylab, yig'ib bor kuchin,
Dushmanning beliga urdi qilichin.

Bir zarb ila halok ayladi uni,
Ikki nimta qildi po'lat gavdani...

Bir do'sti bor edi azamat, norg'ul.
Jiramning qasosin olmoq bo'ldi ul.

Duvoliy harbidin u ham yiqildi,
Do'stining yoniga ravona bo'ldi.

5800 Yana qilich sirmab andoq pahlavon,
Necha lashkarboshiga soldi qiron.

Bor edi yana ravs, ismi Chudara,
Necha botirni etmishdi dabdala.

Jussador erdi ham zo'ru zabardast,
Tanho o'zi kelgaydi lashkarga bas.

Ne-ne bahodirga shamshirin chekmish,
Ne-ne jasurlarning qonini to'kmish.

Duvoliy qasdiga kamar boyladi,
Duvoliy jangiga o'zni shayladi.

5805 Bir-birlarga qilich sirmadilar tez,
Har ikkisi chekinmoqqa chorasiz.

Qilich sirmab, hamla etdilar necha,
Va lekin chiqmadi biror natija.

Nihoyat ravsiyga qulay keldi on,
Duvoliyga qilich soldi beomon.

Dubulg'asin yorib, yetdi nishonga,
Palhavonning tani g'arq bo'ldi qonga.

Shu alpozda maydonni tark ayladi,
Manzilga qaytarkan, boshin boyladi.

5810 Shoh ko'rdi jangchining ne erdi holi,
Achindi boshiga, ezildi ko'ngli.

Hamon farzonaga buyruq berdi to,
No'shdori tayyorlab, aylasin davo.

Navozish qil, dedi, ohistalikdin,
Duvoliy qutilsin bu xastalikdin...

Tun boshiga chekdi qaro pardani,
Taraldi samoga oyning ravshani.

Hirgoh atrofida posbonlar shu dam
Turdilar, kelolmas yaqin pashsha ham.

Iskandarning ravsiylar bilan to'rtinchi jangi

5815 Quyosh boz ko'tardi ufuqdin boshin,
Nil suyiga chaydi tunning libosin.

Yana arslonlar ko'tardi g'avg'o,
Qulonlar qabriga aylandi sahro.

Yana nog'oralar soldi suronlar,
Karnaylar hayqirib, ko'pirdi qonlar.

Shaypurlar faryodi uchib ustna-ust,
Qizil guldin unar edi sandarus.¹⁵⁶

Dov etib maydonga tushdi Judara,
O'zida horg'inlik sezmasdi sira.

5820 Yana bir bor qara sher kabi xuddi,
Maydonga ot surdi pahlavon Handiy.

Necha hamla qildi yovga chun ajal,
Avvaliga ketdi bari besamar.

Nihoyat, tig' soldi tugib qoshini,
Egariga ildi kesib boshini.

¹⁵⁶ Sandarus – elim.

Erda ham xor etib o'lik dushmanin,
Oti tuyog'i-la toptadi tanin.

Maydon talab qildi g'azabga to'lib,
Necha tarafkashni ayladi mag'lub.

5825 Bor edi bir Tartus degan pahlavon,
Ravsiylar ichida qozongandi nom.

Qizil ajdaho deb atashar ani,
Halok etardi uchragan kimsani.

Toshqin sel tog'lardin kelgayday toshib,
Hindiga tashlandi g'azabi jo'shib.

Oshkor etib qo'rquvga begonalik,
Ikkisi ham ko'rsatdi mardonalik.

Oqibat ravsiy chun ayladi hamla,
Hindiy vidolashdi shirin jon ila.

5830 Yov uning qonini yuziga chekdi,
Jomini sindirdi, bodasin to'kdi.

Dubulg'asin otib qichqirdi: "Erman,
Arslonlarni mavh etguvchi sherman!

Onam Tartus deya nom bermish chunon,
Ravsiylar tilida Rustamdir hamon.

Har kimsakim menga chimirgay qoshin.
Bolish qila bersin qabrning toshin!

Maydonda birovga bo'shatmasman joy,
Lashkar kelsa hamki holi bo'lur voy!"

5835 Hindiyning halokin ko`rib Shahriyor,
To`lg`andi dard ila besabru qaror.

Maydonga ot surmoqchi bo`ldi, va lek
Sabr ayladi, bermadi azmiga erk.

O`ngu so`lga boqdi, sipohdin birov
Maydon aro talab aylarmi deb dov?

Birov maydon sari ot surdi noxos,
Qo`lida Chin shamshiri erdi olmos.

Humoyunsavor erdi, g`urranda sher,
Kuchu qudratga to`lgan navqiron er.

5840 Boshdin-oyoq sovut libosda pinhon,
Yolg`iz nafas olgani erdi ayon.

Jahru javlon urdi maydonda botir,
Chaqmoq chaqar erdi qo`lida shamshir.

Shamshir urar ekan shig`ab, ustma-ust,
Dushmanning hamlasin aylar edi sust.

Bir gal ravsiy surib ul tarafga ot,
Qilich ko`targanda kerib qo`l-qanot.

Chunonam tig` soldibo`yniga uning,
Boshi etagiga tushdi g`animning.

5845 Undan-da jasoratli bir mardi ravs
Ot surib maydonga tushdi shu nafas.

Uning ham tig` ila bitdi taloshi.
Uning ham shu zamon uzildi boshi.

Qirqdan ortiq ravsiyni ul zabardast
Osonlik bila etdi tuproqqa past.

Har taraf ot surib, shamshirin chekib,
Toshni la'l aylardi andoq qon to'kib.

Har hamlada yovqur edi, battarin,
Tutday to'kar edi ravsiy lashkarin.

5850 Baski kimlar o'lib, kimlar o'lmadi,
So'ng bir kimsa unga yaqin kelmadi.

Yurakda zafarning sururin tuyib,
Ot surdi jilovni yelvagay qo'yib.

Uning hamlasidin qisqa nafasda,
Yuz o'lib, yuz qulab, yuz bo'ldi xasta.

Uning mardligiga qoyil qoldi Shoh,
Ofarinlar aytib, maqtadi raso.

Yana ul bahodir jang qildi necha,
Changal-tikanlarni yondirdi qancha.

5855 Falak boshi uzra qoraygan mahal
Qaytdi manziliga g'olib, muzaffar.

Tog' ortiga oftob berkinib butkul,
Yorug' kunduz uyquga tolganda ul.

Qora ajdar kabi qorong'u kecha,
Baliqdin ko'tardi boshin oygacha.

Yo'lichilar yo'lini etdi qorong'u,
Oyni ajdahodek yamlab yutdi u.

Suvoriy yo'lida to'xtatdi otin,
Yotib, tun qo'ynida orom oldi, tin.

5860 Tunning zulmatida bo'ldi chun nihon,
Taniy olmas edi bir ahli jahon.

Shahanshoh ko'rib chun mardlikni undan,
Dediki, Sheryurak mangudir chindan.

Yana o'yga tolib dedi Shahriyor:
"U bo'yla jasorat etdi oshkor.

Darig'o, yuzini ko'rsaydim agar,
Shu onda boshidin sochar edim zar.

Dushmanimni halokatga yo'lladi,
Xuddi shu qo'limdek meni qo'lladi.

5865 Odamiy emasdir ul Sheri arin,¹⁵⁷
Andoq arslonga bo'lsin ofarin!"

Iskandarning ravsiylar bilan beshinchi jangi

Ertasi kun moviy, zangori osmon
Yana toshdin yoqut chiqardi, raxshon.

Aloniy bir yigit ko'pirdi, toshdi,
Qora ajdahodek maydonga tushdi.

Qoyadek bir gurzi ilkida hozir,
Alburzni ham yakson etishga qodir.

¹⁵⁷ Sheri arin – o'rmon arsloni.

Raqib talab aylab, tarafkash edi,
Botir bo'lsa, maydonga tushsin, dedi.

5870 Ot o'ynatib, tikka boqdi g'animga,
Bong urib barchani soldi vahimga.

Shunda bir bahodir chiqdi ot surib,
Ravsiylar tomonga sherdek o'kirib.

Kamonini otmoq uchun shayladi,
O'qdonidin olib, o'qni joyladi.

Bor shiddati bilan tortdi kamonni,
Bir o'q ila halok etdi alonni.

Ichi kovak edi chun hindiy qamish,
O'q naridan kirib, beridan chiqmish.

5875 Mushuk ko'zli bir ravsiy keldi yetib,
G'azabdin qoshini sher kabi chatib.

Halqa-halqa sovut kiyib ustiga,
Kamonchi hotirning tushib qasdigga,

Shamshirin o'ynatib, chaqmoqdek yonib,
G'azabdin tutoqib, balki o'rnatib.

Totmoqchi erdi zud jangning totini,
Qamchilardi qora to'riq otini.

Yuragi toshdanam tosh edi magar,
Vale jang sinoatidin bexabar.

5880 Garchi jang qilishga tashna edi, o'ch,
Dushman shamshiriga kelmagandi duch.

Kamonchi bahodir uni ko'rdi chun,
Bildiki, bir qulay o'ljadir, zabun.

Ustida silohi ko'p edi andoq,
Julu jomasi otidin yaxshiroq.

Bir zarb ila holin xarob ayladi,
Julini yuziga niqob ayladi.

Bel bog'lab boshqasi yetishdi yana,
U ham bo'ldi o'shal yoqqa ravona.

5885 So'ng boshqasi kelib, savashga tushdi,
U ham o'shal kamon o'qiga uchdi.

Har o'qi kamondin ucharkan ravn,
Jon taslim etardi bitta pahlavn.

Kamondin o'q uzib qisqa bir onda,
O'nta pahlavonni yiqdi maydonda.

Pinhona qaytdi ul tushganida kech,
O'zidan nishona ko'rsatmadi hech.

Necha kun ko'rsatmay yuzni u shunqor,
Harbu zarb ayladi andoq oshkor.

5890 Kimsa jazm etmadi unga yetmoqqa,
U bilan maydonda savash etmoqqa.

Oz qoldiki uning dastidin hamon,
Bulutdek tarqalib ketsalar har yon.

Vale nomus bilib, bardosh etib bot,
Qildilar hiyla-nayrangga e'timod.

Iskandarning ravsiylar bilan oltinchi jangi

Bir kun amal yetib ul charxi pirdan,
Gavhar ayon bo'ldi daryoyi sirdan.

Yana jang maydoni orasta bo'ldi,
Yana ul hayqiriq, na'raga to'ldi.

5895 Ravsiylar bongidin taralgan sado,
Avji Ayyuqqacha yetaredi to.

Maydonda saf chekdi ravsiy qo'shini,
"Qalb" yasab, o'rtaga oldilar uni.

Bir eski po'stinli boshlab berdi jang,
Go'yoki dengizdin chiqmishdi nahang.

Piyoda edi, go'yo tog' parchasi,
Besh yuz suvoriydin ziyod zarbasi.

Bahaybat panjasi har yoqqa yetar,
Siqsa, olmosni ham muloyim etar.

5900 Dev edi, ifrit, maqsadi xun edi,
Jahannamdin chiqib kelmishdi xuddi.

Uzun zanjir boylamishdi poyiga,
Va bir uchi tugilmishdi bo'yniga.

Zanjirini sudrab vahshiy shersimon,
Solardi jahonga vahima, suron.

Qay tarafga qadam bosmasin nogoh,
Er o'pirilar, paydo bo'lar erdi choh.

Qo'lida ayribosh cho'qmori erdi,
Ursa gar, tog'ni ham talqon etardi.

5905 Temir cho'qmor ila o'shal ahriman
Ko'plarni o'ldirib, shod bo'ldi, xursand.

Yaratgan ko'p qattiq yaratmish tanin,
Terisi tosh qotib, tortgandi qalin.

Har gal jang qilarkan qo'rqinch, hazabkor,
Taniga shamshirlar etmas edi kor.

Maydonga tushardi shiddatga to'lib,
Farishtakush bo'lib, odamxo'r bo'lib.

Uchragan kimsani ayamay ortiq,
Boshini uzardi chumoli yanglig'.

5910 Bilgani shu mudhish bir hunar edi,
Tandin oyoq uzar, bosh uzar edi.

Shohning lashkargohi sari cho'zib qo'l,
Necha bir jonlarga shikast berdi ul.

Nogoh bir suvoriy yel kabi tanho
Savash istab, ot surdi maydon aro.

Ot surdi, to maydonni bo'sh qo'ymagay,
O'shal otash ila o'yin o'ynagay.

Ko'rdi yiroqdin u nahangi damon,¹⁵⁸
Tutdi hamon, boshini uzdi hamon.

¹⁵⁸ Ta'rif berilmagan.

5915 O'zga bir pahlavon dov etib bordi,
Uni ham ajdaho tuproqqa qordi.

Navbat bermadi bir qilichboz erga,
Ellik bahodirni qadadi yerga.

Hamlasidin chekinib har lahzada,
Lashkar botirlari bo'ldilar zada.

Anga hayron edi har sohibxirad,
Na odamiy edi va na devu dad.

Qorong'u tun bosib, chekindi kunduz,
Falakdin ketdi mehri olamafruz.

5920 Shoh hayratga tushib, o'shal ahrimay
Mahviga bag'ishlab tuzdi anjuman.

Dedi: "Bu ne odamkush, xunxoradir,
Aning-la jang qilib, xalq bechoradir?"

Silohsiz ersa-da, uning dastidin
Silohlilar qochar qo'rqib qasdidin.

O'ylaymanki, ul odamiyzod emas,
Makoni ham bu manzilobod emas.

Vayrona bir joyda yetiShmish bu zot,
Shakli odam, o'zi odamlikka yot".

5925 Uning makonidin xabardor kimsa
Bor edi davrada, kirishdi so'zga.

Dedi: "Shohim izn bersalar hamon,
Uning holini men aylagum bayon.

Bir tog' bordir zulmat yonida tikka,
Borar yo'li tordir, qildan ingichka.

Odamsimonlardir unda turguvchi,
Tarkibi tuproqdin, temirdan kuchi.

Bir kimsa bilmaydi ular aslini,
Ilk bora yetishgan zoti, naslini.

5930 Bari qizil yuzdiru feruza ko'z,
Sherlar ila olishurlar yuzma-yuz.

Boshqalar zo'r esa, ular zabardast,
Bittasi kengaydir bir lashkarga bas.

Qavmida erkakmi, ayolmidir ul,
G'azab chog'i qiyomat qoyim qilur.

Har jangda chalinib turarlar ko'zga,
Mazhablari yo'qdir urushdin o'zga.

Kimsa ko'rmamish hech, o'lmishmi ular,
Ko'zga ko'ringani faqat tiriklar.

5935 Qo'y boqib qilurlar ular tiriklik,
Qo'ydandir ularga har ne keraklik.

Sudu savdolari qo'yning yungidin,
Har ne matohlari qo'yning yungidin.

Ularda simu zar yo'q, ganju sarvat,
Boylklari qora mo'ynadir faqat.

Qora mo'yna bo'lur ularda yolg'iz,
Boshqa yerda bo'lmas shunchalar nafis.

Har erkak-ayolning manglayida ul,
Karkidon singari muguzi bo'lur.

5940 Manglayda muguzi bo'lmasa hamon,
Qavmi nazdida ul ravsiydir yomon.

Uyqu bosar esa maxluqni magar,
Xuddi burgut kabi daraxtga chiqar.

Baland bir butoqqa sanchar muguzni,
Osilib, uyquga g'arq etar o'zni.

Yo'ling tushar bo'lsa, ko'rarsen nogoh,
Daraxtga osilib yotar ajdaho.

U bir kecha-kunduz uxlaydi, ajab,
Uyqu bo'lur aqlsizlikka sabab.

5945 Ravsiy qo'yoqarlar o'tib shu yerdan,
Ko'rarlar, osilib uxlar ahriman.

Pinhona kelishib qoshiga uning,
Jam bo'lurlar so'ngra boshida uning.

Arqonlar keltirib, boylashib mahkam,
Temir zanjirlardin solurlar kamand.

Boylangach baski qo'l-oyog'i, tani,
Ellik yigit pastga tortarlar uni.

Shunda uyqudan ul nogoh ko'z ochar,
Quturar, og'zidin olovlar sochar.

5950 Agar uza bilsa arqonu zanjir,
Qo'ymaydi, barchani o'ldirar bir-bir.

Yo'qsa, keltirishar uni bir yo'la,
Ravsiylar yurtiga chtiyot ila.

Bandu bog'in yana mahkam boylabon,
Uni ko'z-ko'z qilib, yig'ishadi non.

Eltishar so'ng har ko'yu har xonaga,
Etak ochishadi donu donaga.

Jang tashvishi boshga tushgani zamon,
Uni etishadi jonlarga qalqon.

5955 Maydonga solishar misli ajdaho,
Zanjir, kishanlarni yechmaslar aslo.

U har gal maydonga tusharkan atay,
Ko'rganlar tanida darmon qolmagay".

Iskandar tingladi, o'ylarga toldi,
Bu qissa fikriga g'alayon soldi.

Dedi: "So'zim qo'rquv, gumondin emas,
Hama nayza-o'q bir o'rmondin emas.

Gar iqbolim esa yo'ldoshim mening,
O'ynar nayzam uchida boshi aning".

Iskandarning ravsiylar ila yettinchi jangi

5960 Yorug'lik mashriqdin ko'tardi boshin,
Qorong'ulik chekdi mag'ribga loshin.

Mashriq Shohi sovut kiydi ustiga,
U mardum balosi devning qasdiga.

O'ng qanotda rumiy ila barbariy,
Ya'jujga qarshi saddi iskandariy.

So'l qanotda qiyg'och ko'zli ahli Chin,
Ularning soniga tor edi zamin.

Qo'shin qalbidin joy olib Shahriyor,
Tog' kabi tulporida erdi savor.

5965 Boshqa yoqda Alonu Bartosu Ravs,
O'tlanib, jangga shay edi har nafas.

Boshlandi ko's nog'oralar gumburi,
Karnaylar go'yoki qiyomat suri.

Dovullar suroni edi ul qadar,
Simurg' deb ko'kka uchardi faryod.

Ikki yoqda turardi qo'shin hamon,
Bugun kimga omad yor bo'lur debon.

5970 Bahaybat fil kabi maxluq, qaro rang,
Kirib keldi yana qilmoq uchun jang.

Necha bir jonlarga yetkazdi shikast,
Jang qilib, bir kimsa kelolmadi bas.

Sovut kiygan birov shaylanib jangga,
Shohning guruhidin tushdi maydonga.

Qo'lida yarqirab qilichi shu tob,
Xira tortgan edi andin oftob.

Shoh ko'ngluda sezdi, o'shal shermard
Erdikim, ko'rsatgan edi jasorat.

5975 Chu ortidin boqib, tashvishga tushdi,
U ajdaho ila ne bo'lgay ishi?

Axir, ayrilgay andoq pahlavondin,
Agar yengilsa jangda ahrimandin.

Suvoriy jangchi ul kuchi boricha,
Ahrimanga nayzalar urdi necha.

Aylanardi atrofida behalak,
Er boshida charx urgan kabi falak.

Birinchi jangida shu bo'ldi tadbir,
O'q yog'dirdi unga misoli yomg'ir.

5980 O'qlari maxluqqa asar etmadi,
Yigitga bir sudu samar yetmadi.

Olmosrang po'lat g'isht olib pahlavon,
Otdi ahrimanning boshiga hamon.

O'shal g'isht tevaga tegsaydi magar,
Teshib o'tar edi uni muqarrar.

Ahriman ul g'ishtni havoda ilib,
Ezib tashladi kaftida un qilib.

Yana bir g'isht otgan edi daf'atan,
Uni ham ushatdi maxluq, temirtan.

5985 Uchinchi g'ishtdin ham chiqmadi foyda,
G'isht bilan to'silmas suv yo'li soyda.

Bildiki, bu ahriman andoq emish,
Nayza-o'q sanchilmas, zoe ketar g'isht.

Ajdaho ustiga bordi bostirib,
Olmos shamshirini qinidin olib,

Urdu yelkasiga chunonam qattiq.
Oyoqda turolmay, yiqildi maxluq.

Va lekin o'rnidan turdi ul hamon.
Jang ketdi aroda dahshat, beomon.

5990 Omadi o'ng kelib, hujumga o'tdi,
Ayi temir ila botirni tutdi.

Egardin ag'dardi, yiqitdi yerga,
Jangchining qalpog'i uchdi nariga.

Go'yo qor ostidin ko'rindi bahor,
Bir ajab lolagul bo'ldi oshkor.

Boshini shart uzishga hozir edi,
Ko'rib ul ruxsorin, o'zini tiydi.

Sochi tushgan edi etakka yetib,
Bo'yniga ul sochini arqon etib,

5995 Sudradi dev, go'yoki ganj o'mardi,
Rumlikdin o'marib, ravsiyga berdi.

Farpishtani etdi devlarga tortiq,
Ravsiylar ko'tardi shodon qayqiriq.

Yaxshi o'lja qo'lga tushdi deb shu tob,
Yana ovlamoqqa etdilar shitob.

Ko'rib bu ahvolni Rumning sarvari
Uf tortdi alamdin, ezildi bag'ri.

Qora filni suring maydonga hamon,
Dahshat solsin deya ayladi farmon.

6000 Filbon qora filga minib, bong urib,
Bordi dev ustiga nogoh hostirib.

Nayzalar otdi ko'ksiga sarbasar,
Qorura, olovdin berdi zarbalar.

Qorurasi toqqa ta'sir etmadi,
Nayzasi daryodin nari o'tmadi.

Ajdaho ko'rdiki, fil to'smish yo'lin,
Cho'zdi ul tarafga temirdek qo'lin.

Bilardiki, har jangari filni ul
Xartumidin tutib qulatsa bo'lur.

6005 Filning xartumidin tutdi ul chunon,
Filga zindon bo'ldi shu yorug' jahon

Sho'rlik fil xartumin uzdi ahriman,
Fil ingrab, tog' kabi quladi shu dam.

Shoh ko'rdi ne ahvol erdi vahmiok,
Qo'rqdi ul lashkarim bo'lur deb halok.

Qo'rquv ichra yuzlandi farzonaga,
Ki "davlat orqasin o'girdi menga.

Baxtim yuz o'girdi, ketdi omadim,
Bilsaydim, bu yo'lda otnasdim odam.

6010 Yomonlikni ravo aylasa osmon,
Bermas nozaninlar noziga imkon.

Podsholar davroni uzoqqa bormas,
Atslon bir yilda bir bor bo'lur mast.

Elib-yugurishdin yo'q menda orom,
Shu yo'sin umrimni etgayman tamom".

Farzona dediki.. "Ayo Shahriyor,
Bu ishda bizga sabr aylamak darkor.

G'alaba qilursen, bo'lmagil notinch,
Izmingda tadbir bor, qo'lingda qilich.

6015 Agar chora ersa tosh ichra nihon,
Tadbiru qilich-la etilur ayon.

Toleing yor bo'lib, qo'llasa seni,
Zanjirga solursen yuz bir fitnani.

Shohimning bir tola tuki ham mahal
Menga yuz askardin azizu afzal.

Yulduzlar asrori ayondir menga,
Ki Shohi jahonim kirarkan jangga.

O'zi unga madadkor bo'lgay,
Bu bahaybat maxluq tuproqqa kirgay.

6020 Garchi tog'dek erur turqi, siyog'i,
Gavdasi qoyadir, toshdir oyog'i,

Garchi zalvorlidir, og'ir temirtan,
Qimirlatib bo'lmas uni joyidan,

Tig' ta'sir etolmas o'sha vujudga,
Po'lat kor etarmi magar bulutga?

Anmo uning bo'yniga solsang kamand,
Uzvi-uzvini etsang zanjirga band,

Baski qilich uni kesolmas ortiq,
Chunki juni qalin, terisi qattiq,

6025 Zanjirband aylasang, keyin har lahza.
Istasang qilich ur, istasang nayza".

Shoh tahsinlar aytib mardi donoga.
Shukronalar etdi keyin Xudoga.

Unga Haq lutfidin zafar ko'rindi,
Bordi shitob aylab, otiga mindi.

Chin shohidin armug'on erdi oti,
Chiniylarning asl otidin zoti.

Kamand qilich shaylab, jilovni burdi,
Uchqur tulporini maydonga surdi.

6030 Devi ahrimanga yetishdi o'tdek,
Tog' uzra yoprilgan qora bulutdek.

Qimirlay olmadi joyidin nahang,
Ulgurmadi Shoh ila etmoqqa jang.

Shoh kamandni otdi u dev bo'yliga,
Ajal sirtmog'ini soldi bo'yniga.

Chun g'anim bo'yniga solganda arqon,
Shohning izzatiga egildi osmon.

Dev bo'yniga kamand soldi-da, shu tob
Qolgan ishni podsho bajardi shitob.

6035 Dev boshiga chandib tugdi kamandni,
Keyin lashkar sari sudradi uni.

O'shal devkim, yo'q erdi jabriga chek,
Yiqildi poyiga ohu barradek.

Go'yoki ovlanib yovvoyi qulon,
Karaxt, harakatsiz qoldi shu zamon.

Shohning lashkarlari shodlanib rosa,
Eru ko'kka suron soldilar, larza.

Nog'oralar sasi falakka uchdi,
Falak raqs aylabi zaminga tushdi.

6040 Shoh ko'rdikim yetdi dushman zavoli,
Bu ishda yor bo'ldi unda iqboli.

Devni jo'natdi so'ng devlar tomonga,
Ahrimanni soldi qora zindonga.

Baski ustun keldi rumliklar qo'li.
Chil-chil bo'lib sindi ravsiylar dili.

Shohi ravsiy ezildi andoqki mum,
Shodiyona qildi Shahanshoi Rum.

Bazm tuzib, istadi sozi jarang,
Jahonga nishot eshigin ochdi lang.

6045 Navo tingladi nolayi chang ila,
Ilkida boda, jomi gulrang ila.

Yor bo'gan baxtini etar edi yod,
Va gulgun bodasin ichar edi shod.

Tan zafar ganjiga qulfini urdi,
Mushku anbarga ham tarozi qurdi.

Hamon mushkin boda ichar erdi shoh,
Hamon mutrib sozida erdi sado.

Gahi paymonadin ichar suyuq la'l,
Goh lahlin sadoni ko'rardi afzal.

6050 Icharkan, ko'nglidin tarqalardi ranj,
Istaganga berardi debovu ganj.¹⁵⁹

Qissalar so'ylanardi majlis aro,
Har qissadin bir hissa izardi Shoh.

Jasorat ko'rsatgan ul chobuksuvor
Jangchini esladi shunda Shahriyor.

Dediki, "g'animlar aylashib tahqir,
O'ldirdimi uni yo etdi asir?"

Agar asir esa, sog' esa, hayot,
Nayza, qilich ila bergaymiz najot.

6055 Agar o'lgan esa, xayrini tilab,
May icharmiz uni yod etib, eslab".

May ichib, kayfini yana xushladi,
Zindoniylar sari ko'ngli yumshadi.

Buyurdi: keltirib tilsiz bandini,
Bizning bazmgohiga o'tqizing uni...

¹⁵⁹ Debo – hurir atlas.

Keltirdilar uni Shoh amri birlan,
Kirib keldi maxluq qoyadek baland.

Shohning zarbasidin tani shikasta,
O'ltirdi majlisda nolonu xasta.

6060 Tilsiz holida ul ingrardi har dam,
Dardiga bir davo tilardi har dam.

U tilsiz damba-dam ingrar ekan zor,
Achindi holiga unnig Shahriyor.

Rahmu shafqatini ko'rdi unga ep,
Buyurdi bandidin ozod eting deb.

Ozodmardlik etdi shahi mehribon,¹⁶⁰
Ozodmardlik etib kim ko'rmish ziyon?

O'tqizib, necha bir taom berdilar,
Egulik, ichkulik tamom berdilar.

6065 Shoh necha qadahga yor etdi uni,
May tutib, oshkor etdi ko'nglini.

Mast bo'ldi mahluq, gar edi qoyadek,
Yiqildi u taxt poyiga soyadek.

Birovga shafqati yo'q edi aslo,
Unga rahm etganni tanidi ammo.

U yerdin o'zini tashqari otdi,
Bir kimsa ko'rmadi, qayoqqa ketdi.

¹⁶⁰ Ozodmardlik – javonmardlik, jo'mardlik, himmat, marhamat.

Shahanshoh bu ishdin tashvishga tushdi,
Maslahat so'radi, taftishga tushdi.

6070 So'rdi: "Ul bandi bodadin shod edi,
Nechuk qochdi bizdan, chun ozod edi?"

Tingladilar arkoni davlat shu tob,
Va berdilar savolga andoq javob.

Biri dedi: "Sahroyidir sho'rbaxt,
Ozod bo'lgach, sahroni istar faqat".

Biri dedi: "Mayning ta'siri bilan
Uyiga yugurdi sho'rlik daf'atan" –

Shoh arkoni davlat aytganin yolg'iz
Eshitardi, ammo demasdi bir so'z .

6075 Derdi: "Tunaro pardayi nilgun
Nelar oshkor etar ko'rsatib o'yin?"

Ko'p fursat kechmadi, o'shal fili mast
Bir sanam keltirdi ko'targancha dast.

Keltirganin Shoh oldiga qo'ydiyu
Er o'pib, necha bor etdi tavozu.

Topshirib Shohga ovlagan o'ljasin,
Bazmgohdin tashqari chiqdi tag'in.

Shahanshoh hayrat ichra ko'rdi chunon,
Ilonda muhramas, muhrada ilon.¹⁶¹

¹⁶¹ Muhra – o'ziga xos modda, go'yo ilonning boshida bo'larmish, ilon chaq-qanda davo emish.

6080 Uyalibmi, ul lo'batl nozanin
Podshodin bekitib turardi yuzin.

Chu shoh ko'rdi xirgohda ul mohni,
Boshqalardin bo'shatdi xirgohni.

Xirgoh boshqalardin bo'shalgach shitob,
Shoh ul parichehradin chekdi niqob.

Ko'rdi bir go'zal, jonga ofat erur,
Ham ofat erdi ul, ham oftobi nur.

Paripaykar edi, o'xshardi gulga,
Paridek tunda kirmish erdi qo'lga.

6085 Bihishtiy yuz bilan do'zaxda yurmish,
Posbonga chap berib, jannatga kirmish.

Sarvdek xush qomatu orasta ul,
Yanog'idin rang olmishdi qizil gul.

Qayga otar bo'lsa g'amzaning o'qin,
Ruhoniylar bo'lur domiga tutqun.

Lab dema, ul g'avg'oyi bozor edi,
Qandu shakar kam dema, xarvor edi.

Sumanga tamosho quchog'i uning,
Gulga orzu edi dudog'i uning.

6090 Podsho oyyuzlini ko'rarkan shunda,
Sanamxona jonlandi ko'z o'ngida.

Ko'rdiki, bir shakarxandali guldi,
Ozod edi, sanamga banda bo'ldi.

Kanizak chun qul sohibi ersa, hay,
Ne ko'ngillar uning domiga tushgay.

Shoh tanidi, bu turki Chiniynigor,
Chin hukmdoridin edi yodgor.

Uning jasoratini ko'rmishdi jangda,
G'animni qiyaratgan edi o'shanda.

6095 Bul ajabki, nogoh qo'lidin uchdi,
Yana ne ajabki, qo'liga tushdi...

Sanamga yuzlandi: holingni so'yla,
Dostoningni aytib, ko'ngilni ovla.

Navozish ko'rsatdi shunda dilrabo,
Shoh oldida ta'zim keltirib bajo,

Duo aylab dedi: "Ey Shohi jahon,
Toju taxting jahonda bo'lsin omon!

O'zingsan jahongiru kishvarkushoy,
Dodu dindan seni yaratmish Xudoy.¹⁶²

6100 Shukuhing quyoshdan-da ravshan erur,
Diling davlatingdan-da gulshan erur.

Umid ayyomida najot sen ila,
Quyoshning nuridin hayot sen ila.

Bu jahon sahnida podsho emas oz,
Biri tojdor esa, biri qilichboz.

¹⁶² Dod – bu erda insof, adolat ma'nosida.

Sen o'zgasan, ey oftobi zamona,
Qilichbozsan o'zing, tojdor ham yana.

Bazmlar turida sen Shohi jahon,
Maydonda bahodir, jahon pahlavon.

6105 Mendek xoku g'uborga qayda jur'at,
Ki bo'lgay ul obi hayotga ulfat?

So'zga lab ochishga yurak bor kimda,
Zuhro ham uyatdin suv bo'lur bunda.

Safolman, Shohimga loyiqmas aslo,
Ayt deya buyurding, aytaman, illo.

Men ul kanizakmanki, hoqoni Chin
Saylab olgan edi bokiralardin.

Senga topshirarkan meni hukmdor,
Demishdi: "Bu qutida durdona bor".

6110 Shohim, og'ir olding bu so'zni magar,
Sen sari bir noxush tashlading nazar.

Va qoldirding parda ortida xomush,
Unutding bir yo'la. etding faromush.

Men bu judolikdin tang bo'lib holim.
Oxir chidamadim, jangga yo'l oldim.

Birinchi bor jangda qozondim zafar,
Shoh baxtiga atab ko'rsatdim hunar.

Ikkinchi bor yana ko'tardim suron,
Ravsiy lashkariga keltirdim qiron.

6115 Uchinchi bor bo'ldi toleim taxir,
Jangda dushman meni ayladi asir.

Dushman emasdi, bir yovuz ajdaho,
Qahru g'azabidin yaratmish Xudo.

O'ldirmadi ul devi ajdar meni,
Lashkar sari eltdi sitangar meni.

Ravsiyga topshirdi u zolim hamon,
Dedi: "Bu gavharni etingiz pinhon!"

Yana maydon sari javlon ayladi,
Filni yiqitmoqqa o'zni shayladi.

6120 Filni ag'darishga da'vosi bordi,
Lekin Shohim uni tuproqqa qordi.

Zafar quchganingni ko'rib o'shal dam,
Boshim ko'kka yetdi, ey Shohi olam!

Ko'rdim ul yovuzning jidolu jahdin,
O'zni qutqarmoqchi bo'ldi kamanddin.

Ko'nglimni bir tashvish kemirardi to,
Axir, tirik edi hamon ajdaho.

Nihoyat bo'ldi u domingga tutqun,
Sevindim, ko'nglimdin tarqadi tutun.

6125 Ravsiylarni alam qaqshatdi shu on,
Qip-qizil gullari bo'ldi za'faron.

Tun qaro zulmatin yoydi har taraf,
Meni bir tarafga ketdilar sudrab.

Qo'l-oyog'im bog'lab, chandib ayovsiz,
Eltib bir xonaga. etdilar mahbus.

Bir necha askarni qo'ydilar posbon,
Bari xorijiyлару noxushzabon.

Tun yarmidin bir oz o'tganda nogoh,
Tashqarida qo'pti to'polon, g'avg'o.

6130 Kirdi qora bulutdek bir battarin,
Posbonlarga yog'dirdi tosh yomg'irin.

Vahimaga tushib ular shu zamon,
Qochdilar, urdilar o'zni har tomon.

Tutardi ularni, urardi toshga,
Bosh uzib, qo'l cho'zar yana bir boshga.

Bir yonda uyuldi toshlardin uyum,
Bir yonda uzilgan boshlardin uyum.

Bandu bog'ichlarim yechib bir onda,
Qushdek yelkasiga ko'tardi shunda.

6135 Keltirib, shu joyga o'tqazdi meni,
Er qa'ridin oyga yetkazdi meni.

Bir ganj kabi makonim erdi zindon,
Endi jon deb chaylani tutgum makon.

Ayol bo'lur ziynatli bo'lsa poyi,
Ayol ermas, zindonda ersa joyi.

Baxtim uchib keldi humo qushimday,
Bular bari o'ngim emas, tushimday".

Bayon etdi holin parichehra ul,
Podsho ko`ngli yashnab ochildi gul-gul.

- 6140 Bir bo'sa qo'ndirib dudog'iga, bas,
Qulog'iga Shu so'zlarni etdi arz.

Dedi: "Ey toza gulbargu beg'ubor,
Xudoyim mehridin yaralmish nigor!

Mehringni aylading yuragimga jo,
Bazmda debosan, janglarda zebo.

Maydonda ofati jon ko'rdim seni,
Zabardast, mardi maydon ko'rdim seni.

Xonishlaringga ham yog'ilgay sharaf,
Bu ikki hunarda senga yo`q taraf.

- 6145 Xumoringman, kuylab xush ovoz ila,
Ko'nglimni chaman et savti soz ila".

Parichehra chaldi Shahanshohga chang,
Kumush torlar titrab, taratdi jarang.

Yangratib yangi kuy, yangi bir sado,
Pahlaviy tilida boshladi navo.

Ki "Shoho, xidevo, jahondovaro,
Xiradmandu yo xiradyovaro!"¹⁶³

Yiroq bo'lsin yomindin boshing sening,
Nur chashmasi bo'lsin dili ravshaning.

¹⁶³ Ey shohim, sohibim, jahon hukmdorim, xirmandu aqlu xiradga madadkorim!

6150 Baxtiyor bo'l, yo'ling zafarlarga boy,
Tovonosan, donoyu kishvarkushoy!¹⁶⁴

Joningda qaror topsin osudalik,
To'ning ko'rmasin hech gard, oludalik.

Har yaxshi-yomonga duch kelsang, albat,
Panohing Haq bo'lsin, tayanching xirad.

Ko'kda yulduz yonib, kominrgda bo'lsin.
Hama mulki olam nomingda bo'lsin!"

Shunday boshladi ul ajab rozini,
Roziga hamovoz aylab sozini,

6155 Dediki, "Bir daraxt maskan etib bog',
Porladi unga misli ravshan charog'.

Hali ochilmagan o'ndan bir guli,
Nargis edi, ko'zi yarim uyquli.

Mayi la'l jomini ichmagandi ul,
Der edi, bir kishi tegizmagan qo'l.

Umid etar edi, bir kun kelib Shoh
Uni siylab, sevinch baxsh etar nogoh.

Unga boqib, avji bahorni ko'rgay,
Goh lola, gohida qizil gul tergay.

6160 Evoh, Shoh bosmadi bog' sari qadam,
Nazarida chetda qoldi charog' ham.

¹⁶⁴ Kishvarkushoy – o'lkalarni zabt etuvchi. fotih.

Hayf emasmi, bahor tark etib chaman,
Tuproqqa bosh qo'ysa o'sha yosuman?

Bodi xazon esib, xazon etsa bog',
Tuproqqa qorishsa gul bilan yaproq?"

Shoh chun eshitdi dilbar ovozi,
Angladi dildan nolayi rozini.

Roz aytardi ul nolayi changi ham.
Roz aytardi chehrayi gul rangi ham.

6165 Ki gulmanu bulbuli sho'rida men,
Uvol etma orzuyi jonimni sen...

Bas, ko'ngli bo'ldi bu nuqtadin ogoh,
O'shal orzudin orzuga tushdi Shoh.

Ammo yana sabru chidam ayladi,
Dushmanni mag'lub etmoqni o'yladi.

Soqiydin may talab ayladi tag'in,
Manzil sari istadi yo'l ozig'in.

Zarrin jomini mayga to'ldirdi chun,
Ichdi uni huru parizod uchun.

6170 Yana jom to'ldirdi ko'nglida sevinch,
O'shal shakarlabga tutib, dedi: "Ich".

Parivash bir o'pib, berdi qadahni.
Shahanshoh oldi, dag'i o'pdi uni.

Bir qo'lida gar mayi sog'ar edi,
Bir qo'lida kokili dilbar edi.

Gohi o'par ersa labi jomni.
Gohi o'par la'li diloromni.

Bazmda chun oyini dilkash erur,
Boda shirin luqma ila xush erur.

6175 Chun mayi gulgun edi, sipqordilar,
So'ngra farog'at uyiga kirdilar.

Barcha viroq turdilar uydin hamon.
Bo'saga band erdi o'shal ikki jon...

Iskandar ravsiylar ustidan zafar qozongani Soqiynoma

Ketur, soqiy, may menga, qirmiz atir,
Ki bermish qon rangini dehqoni pir.

Tut menga, shu lahzada ichgum ani.
Mayli, qizil rangiga solsin meni.

Doston

Subhidam lashkari ko'tardi alam,
Jahon tun harfi uzra chekdi qalam.

6180 Quyosh tafti tushib dumog'iga chun
Seskanib uyqudin uyg'ondi zamon.

Sahargoh qushlari ko'tardi fig'on,
Nurdin dard kelur deb, Shaytondin ziyon.

Shoh uyqudin turdi xursand, farahnok.
Dili pokni etib andishadin pok.

Duo qildi borib toatxonaga,
Tilini ravona etdi Shukronaga.

Xudodin lutfu marhamat istadi,
Gahi qudrat. gahi madad istadi.

6185 Tuproqqa bosh qo'yib, bir dam oldi tin,
Kamar boylab, ochdi sovut domanin.

Taxtini o'rmatdi fil yelkasiga,
Qilichbozlar tizildi tebrasiga.

Odatiy rasmu tartib birlan hamon
Lashkarni jamladi ul Shohi jahon.

Biyobon erdikim, cheksiz hududi,
Qo'shin qad rostladi tog' bo'lib xuddi.

O'ngu so'lni po'lat kabi ustuvor
Etdikim, o'tolmasdi gardu g'ubor.

6190 Ikkinchi yoqda ravsiylar bir yo'la
Lashkarin sarfladi shu tartib ila.

Nog'oralar solib olamga suron,
Ravsiylar maydonga yurdilar shu on.

Qilichlar olmosdi, nayzalar olov,
Boshlar karaxt, qo'llardin tushmish jilov.

Tarang edi qo'lda kamonlar bari,
O'qlar uchar erdi guruhlar sari.

Gurzilardin bo'yinlar erdi ado,
Og'izlardin miyalar kelgaydi goh.

6195 Ko`rib filag`darganlar hangomasin,
Falak nil xumiga solmamish jomasin.

Chumoli paridek tig`li qilichlar
Burgutlar qanotin kesardi har gal.

Nayzalar bayroqdorlarni sarnigun
Etib, bayroqlarga to`kar edi xun.

Otlarning tuyog`i qonlardin aqiq,
Tuyoqdin egargacha qonga qoriq.

Nayzalar uchrashib, yulduz yoqardi.
Qalqonlar to`qnashib, chaqmoq chaqardi.

6200 Temir g`ishtlar etib jonlarni halok,
O`lganlar qabriga edi g`isht xok.¹⁶⁵

Qilichlar qon to`kib har lahza xunxor,
Maydonni aylabon misli lolazor,

Nayzalar ignadek siyna tikardi,
Qaysilarga qirqishni o`rgatardi.

Xanjarlar etarkan har lahza talosh,
Ilondek qinidin chiqarardi bosh.

O`liklarga to`lib ketmishdi sahro,
Mahshar bozoriga o`xshardi jangob.

6205 Ravsiy ko`rsatardi shitobu shiddat,
Rumliklar boshiga solib qiyomat.

¹⁶⁵ G`ishti xok – qabr og`ziga qo`yiladigan g`isht.

Maydonda yuzma-yuz edi Rumu Ravs,
Oqu qizil to'qnash edi basma-bas.

Iskandar mast arslon kabi jangda,
Pahlaviy nayza shay edi ilkida.

Po'lat yopingan fil nechuk pahlavon,
Sheri jayon nechuk ko'tarar suron,

O'sha filu arslonga o'xshardi Shoh,
Filu arslon qo'lin to'sardi har goh.

6210 Har nechuk qilichboz kelar bo'lsa duch,
Qo'ymasdi, bo'yniga solardi qilich.

Abbosiydek unda qora usti-bosh,
Bartosiy boshiga irg'itardi tosh.

Qilich sirmaganda kuchi boricha,
O'ngu so'lda boshlar uzilar qancha.

Jang qilar lashkari, jang qilar o'zi,
Qachon porlagay deb yulduzi.

Balinos rost etib qo'lda usturlab,
Iqbolin ko'rishga etardi shitob.

6215 Iqbolida balqib zafardin umid,
Derdi: Shoh shamshiri jahonga kalit.

Shohga yuzlandi: "Bor, senga yor,
Maydonda bo'lursen g'olib, ustuvor!"

Junbushga tushdi Shoh chu daryoyi Nil,
Dushmanlar safini yorib misli fil,

Ravsiyning ustiga bordi bostirib,
Og'zi lang ochildi ajdaho, ko'rib.

Zafar bayrog'ini Shoh ko'tardi dast,
Ravsiy Qfantoliga yetishdi shikast.

6220 Zarbalar ustiga zarba berib to,
Bir hamlada yovni etdilar ado.

G'animlar qochdilar har tomon pisib,
Jahon Shahanshohga ayladi nasib.

Sikandar zarb ila otib daf'atan,
Qantoliyning bo'yniga soldi kamand.

Necha ravisylarni toptab, bosdilar,
Tutdilar, kездilar va yo osdilar.

Ravsiylar bo'ldilar oqibat sarson,
Qochdilar bor-budlarni tashlab hamon.

6225 Bartos botirlari bo'ldi samigun,
O'n ming sara askar etildi tutqun.

Qolganlari bo'ldi qilichlarga yem,
Fitnaga o'limdir yolg'iz davo, em.

Omon qolganlari mag'lub, besharaf,
Ketdilar ravsiylar tuprog'i taraf.

Ne chandon g'animat podshoga yetdi,
Sonu adadi yo'q, behisob edi.

Simu zar, qoqumu qunduz, la'lu dur,
Necha omborlarni ayladi ma'mur.

6230 Shoh dushman ustidan qozonib zafar,
Qalbi quvonchlarga to'ldi qanchalar!

Uchqur tulporidin indi ul hamon,
Murod-maqсадiga yetmishdi tamom.

Shukur deb tuproqqa bosh qo'ydi andoq,
Zafar Haqdin. dedi, men esam tuproq.

Yaratganga ofarinlar so'yladi,
Darveshlarga xayru ehson ayladi.

Jahonni g'animdin xalos etdi ul,
Oromishu romishga berdi ko'ngil.¹⁶⁶

No'shobaning asirlikdan qutulgani Soqiynoma

6235 Ketur, soqiy, ul jomi gavharfishon,
Mening jismimga ham sol andin nishon.

Quruq jonimni may ila namlagil,
Gavharimni toza gavhar aylagil...

Doston

Forig' bo'lgach urush-surish ranjidin,
Bartos yag'mosiyu ravs torojidin,

Shoh manzil tanladi turmoqqa, go'zal,
U joyning ahliga yetmasdi xalal.

¹⁶⁶ Oromish – orom, farog'at, romish – musiqa. ashula.

Og'ochi sarv ila tubodin ortiq,
Giyohi savsani zebodin ortiq.

6240 Oqar suvlari misli obi zilol,
Maydek totli edi, may esa halol.

Gird-atrofi qalin o'rmonzor tekis,
Butoqlari qalaShgan erdi, tig'iz.

Og'ochlari yuksalib ellik arish,¹⁶⁷
Obu havosidin edi parvarish.

Shu joyni tanlamishdi Shohi jahon,
Shu suluv manzilda tutmishdi makon.

Shu yerda yoymish edi runiy bisot,
Nozaninlar ila etardi nishot.

6245 Shohlar bir-bir kelib, yana bazmi Shoh
Boshlandi, orasta bo'ldi bazimgoh.

Shahanshoh buyurdi: dabirlar shu tob
O'lja, g'animatni qilchinlar hisob.

Xazinakim, uyulmish erdi andoq,
Ravsdin, Bartosdin O'lja tog'-tog'.

Sanab, adadini ayon aylabon,
Natijani, dedi, etsinlar bayon...

G'animat erdi ul haddin ziyoda,
Yig'dilar, bir xirmon bo'ldi aroda.

¹⁶⁷ Arish – quloch.

6250 Ochdilar tugilgan ganjinalarni,
Chaman aylab ulardin siynalarni.

Qimmatbaho molu bisot necha bor,
Uyuldi, adadi bo'ldi oshkor.

Uyulmishdi asl siymu zar base,
Oyni xira aylar edi shu'las.

Xarvor-xarvor zabarjadu yoqutlar,
Oltin qalqonlaru safin sovutlar.¹⁶⁸

Katonu mitqoldin qanchalar matoh,¹⁶⁹
Uyulmish o'rtada, tog' edi go'yo.

6255 Kaftanlar zarbofti, yonardi yashnab,
Qalqonlar yulduzdek turardi chaqnab.

Qunduzlar, belgisiz erdi adadi,
Qora samuray ham behisob edi.

Mo'ynalar tugun-tugunu band-band,
Haddi hisobiga yetgan bormikan?

Tulki terisiyu sanjomlar porloq,
Hali la'l ko'rmagan bir uyur toychoq.

Vashaq terilari yashnardi, undan
Kunduzning yuziga xol edi tundan.

6260 Bundan bo'lak yana qancha molu ganj,
Sanoqchi sanashda chekar erdi ranj.

¹⁶⁸ Safan sovut – baliq terisi bilan qoplangan sovut.

¹⁶⁹ Katon – kanop poyasidan to'qilgan surp.

O'shal g'animatlarga ko'z soldi Shoh,
Go'yo bohi Iram erdi bazmgoh.

Hukmdorga tanish edi har biri,
Ne bir ishga yarar edi qay biri.

Ko'rdi boylam-boylam sanjobu samur,
Bari asl, noyob, bebaho erur.

Hammadan balandda, yuksak, yuqori,
Osilmishdi necha tap-taqir teri.

6265 Tuksiz edi o'sha terilar butkul,
Bilmasdi, aslida nima erdi ul.

So'rdi Shoh: "Nima bu eski charmlar,
Nechuk zebu ziynat ulardin kelar?"

Bir ravs hozir edi, dedi: "Shahanshoh,
Bu teri sanalur baridin a'lo.

Taqir deb xor boqma, bordir qiymati,
Ki bu o'lkamizning asl sarvati.

Bizning nazdimizda shu tap-taqir charm,
Qimmatlidir jumla mo'ynalardin ham.

6270 Har mo'ynakim, tortar uni ko'ngil, did,
Shu eski charm-la etarlar xarid.

Boshqalarda sarvat erur simu zar,
Zamon o'tar ckan, ular o'zgarar.

Shu teri diramdir bizga doimo,
Vaqt o'tar, qiymati kamaymas aslo".

Shahanshoh hayratga tushdi javobdin.
Ki bo'yla farmoniga egmishlar bo'yin.

Farzonaga dedi: "Podsholikda, bas,
Siyosat aylagay Shohni zabardast.

6275 Siyosat, nazar sol, nelar aylamish,
Charmni kuushdin afzal aylamish.

Bu o'lkada har neki noxush erur,
Ammo shu ko'rganim menga xush erur.

Sarvati bo'lmasa, bir kimsa magar,
Birovning amriga boylarmi kamar?

Shohona hunarlar bunda shart emas,
Yolg'iz shu hanar bo'lsa, podshoga bas".

Shahanshoh g'alaba qozonib, albat,
G'animat shukrini bildi g'animat.

6280 Yaratganga Shukrona aytdi davom,
Yana bazm tuzib, qo'lga oldi jom.

Savti soz ila bodayi xushguvor
Shavqidin gupurdi chun abri bahor.

Sardoru sipohkim, jangda chekdi ranj,
Shoh in'om ayladi base molu ganj.

Zar olib, bo'ldilar boyu badavlat,
Kiydilar rango-rang yangi to'n, xil'at.

Lashkarda qolmadi askar bitta ham,
Ki unda bo'lmasin ipaklik gilam.

6285 Shoh talab ayladi u tilsiz jonni,
Biyobonda yurgan zoru sarsonni.

Kirdi ul sahroyi, ta'zim ayladi,
Shoh amriga o'zni taslim ayladi.

Shoh ko'rib maxluqning usti-boshini,
Tasavvuf ila chayqadi boshini.

Atlusu javohir etdi armug'on,
Yana siymu zardin ayladi ehson.

Qabul etmadi, ne kerak ganju noz?
Biyoboniy erur andin beniyoz.

6290 Shohga qo'y boshini ko'rsatdi shunda,
Ishorat etdiki, qo'y kerak menga.

Shahanshoh buyurdi, cho'llarda yurgan
Saralab boqilgan, yaxshi qo'ylardan.

Bir suruv berdilar, quvonchga to'lib,
Haydab ketdi maxluq minnatdor bo'lib.

Suruvni ravon etdi sahrosiga,
Xushnudlik ila yetdi ma'vosiga...

Shohga manzur edi o'shal dilkusho
Qo'ngan manzilikim, ajab xushhavo.

6295 May ichib, savti soz tinglardi har gal,
Falakdin kelardi unga mujdalar.

Ravsiylar Shohini chorladi bir kun,
Takalluf ko'rsatib, ayladi mamnun.

Oyoq-qo'llaridin yechdi zanjimi,
Zarbof to'nga noil ayladi uni.

Ravsiy Shoh sevindi, ko'ngli bo'ldi xush.
Kiyna, adovatni etdi faromush.

Boshqa asirlardin dag'i yechdi band,
To'n kiydirib bir-bir, etdi arjmand.

6300 Buyurdi keltiring deb No'shobani,
Usiz ixcham, dedi, mayu bodani.

Ravsiylar etdilar amrin jobajoy,
Quyoshning yonidin o'rin oldi oy.

Yana, sitamdiyda go'zallar keldi,
Kanizlar, lablari asallar keldi.

No'shoba erdi chun gul ochgan bahor,
Libosi gulgun edi, gavhamigor.

Shahanshoh o'ljadin ganj berdi unga,
Yana aylandi ul sho'x nozaninga.

6305 Necha tun u bilan sharob ichdi Shoh,
Baxtiyorlik gashkini surdi raso.

So'ng Duvoliy aqdiga berdi ani,
Nikoh-la boyladi ul ikki tanni.

Siyladi yana gavharu ganj bilan,
Eru xotin etib ikkisin shar'an,

Bardaga jo'natdi ularni dilshod.
Etsinlar deb o'shal o'lkani obod.

Berdi ul imorat etmoqqa alhol,
Yo'l ozuqasidin bo'lak qancha mol.

6310 Bu ishni tugatib bo'lgach, biloxir,
Lashkarboshilarni chaqirdi bir-bir.

Ravsiylar Shohiga tag'in berdi toj,
Ozod aylab, bo'yniga qo'ydi xiroj.

Quvondi ravsiylar Shohi baxtidin,
Yurtida tiklangan toju taxtidin.

Har gal may icharkan, Shohdin bo'lib shod,
Minnatdorlik ila aylar edi yod.

O'shal chamanzorda rumiy hukmdor
Gohi aysh etardi, gohida shikor.

6315 Boshi uzra soya solib sarvinoz,
Mayi la'l ichardi, tinglar edi soz.

Ko'nglini yayratib, xushlik etardi,
Farog'at birla dilxushlik etardi.

Yoshligu Shohligu iqbol bo'lsa ul,
Nechun quvonchlarga to'lmasin ko'ngil?

Iskandar Chiniy kanizak ila ko'ngilxushlik etgani Soqiynoma

Ketur, soqiy, ul obi otashxayol,
Labolab to'ldir andin jomi safol.

Shu tiyra tuproqdin sharobing ila
Qayg'u alamlarni yuvgil bir yo'la.

Pandu hikmat

6320 Tun ravshani kundan-da raxshandadir,
Oy quyoshdin porloq, duraxshandadir.

Tovlanib samodin to'kilgan nurda
Giyohlar zumurrad erdilar yerda.

Yulduz sochib o'shal lavh uzra yog'du,
Xat bitar, ma'nosi umid va qo'rquv.

Bu yozuv ma'nosin o'qigan inson
Bu tubsiz makonda tutolmas makon.

Jahon zahmatin chekishdin foyda yo'q,
Rizqing borichadir, bo'lmagay ortiq.

6325 Jahon g'am chekishga arzimaydi, hoy,
G'am uchun qurilgan emas bu saroy.

Jahon dilxushligu shodlik uchundir,
Nainki zulmu bedodlik uchundir.

Yashab, behuda bunda chekma ohni,
Yukingni orqalab, tark ayla chohni.

Sevinch kelsin senga yutgan mayingdin,
Quvonsin o'zgalar tutgan mayingdin.

Kecha o'tdi, erta ne hojat senga?
Sevinmoqqa shu dam g'animat senga.

6330 Bu oqshom ne ersa, etgil tamosho,
Ertaga ne kelsa, ko'rarsen, illo.

Qayg' u-g'am kelmasdin qayg' uli yurma,
Ajal kelmasidin qabrga kirma.

May simirsang, qo'y boshqa andishani,
Har bozorda muayyan et peshani.

Joizmi joningga sitam etganing,
Yillar bo'yi boshingga g'am ortganing?

Shu dunyoda parvonamiz erta-kech,
Vale andin sarmoyamiz hech-hech.

6335 Ketaylik "ket!" amri kelmasdan burun,
Fil oyoq ostiga olmasdan burun.

Eyaylik, o'zgalar yemasdin avval,
Bu seningmas, mening demasdin avval.

Agar naf istasang, chunon moya elt,
Avvalgilar eltmish uni ketma-ket.

Qo'rsang qaroqchiyu bojgirdin magar,
Ki yo'lda bor-yo'g'ingni shilgay ular,

Yo'qsilga ehson et topganingni, bas,
Yo'qsilning qulbasin kimsa kovlamas.

6340 Ko'rmadingmi, hatto ul ahli xiroj
Darvesh dahlizidin o'margaylar boj.

Nomardlar chun zulmu bedod aylagach,
Oqil vayronada nihon etar ganj.

Bir kunlik tarixga molikdir jahon,
Yuz yillik ganjni chun etarsen nihon?

Kel endi, o'ltirib, etaylik shodlik,
Bir oqshom shu jahonda kayqubodlik.

Bir oqshom davlatdin so'rabadlu dod,
Kechayu ertani aylamaylik yod.

6345 Qo'rqamiz andinki, andin sud emas,
Bu peshadin andisha xushnud emas.

Qo'lingda bor esa bir oz yiqqaning,
Shitob et, har lahza xush kechsin daming.

Chora-tadbir etib, ko'ngilni xushla,
Tanninga o't urma ta'magirlik-la.

Umr sarmoyasi erur har nafas,
Uni achchiq etmoq aqldin emas.

Chunon nafas olki, bergil dodini,
Yo'qsa, uning bergaysan barbodini.

6350 Ko'ngil ol birgina diram sarflabon,
Uni qimmat emas, olursan arzon.

Bir diramga qoshing chatib, chekma g'am,
Sen bor bo'l, mayliga, bo'lmasin diram.

Jahonning hisobin tutmagil qaltiq,
Jon berarda bo'lgay azobing ortiq.

Oddiy yashamoqni shior et, bashar,
Oddiy yashaganlar osuda yashar.

Farahli tun aro xayrli bir on
Quvonchli aylagay dilni charog'on...

Doston

6355 Chunon hikoyat ayladi javhariy,
Ta'rif etib yoquti iskandariy.

Iskandar mehrga to'lib ul oqshom,
Shirin lablarni deb to'ldirgandi jom.

Ichib, so'ngra o'shal lablarga tutdi,
Shirin lablar anga itoat etdi.

Shoh o'ttirib, yonida sarvi ravon
Goh lola to'kardi, gahi arg'uvon.

Guli anbar sochib, g'uncha ochardi,
Shoh yana gul uzra anbar sochardi.

6360 Ham dushmanni yengib, ko'ngli shod edi,
Ham uyi parivashdin obod edi.

Chorladi shoh yori diloromni ul,
Paripaykaru nozikandomni ul.

Chodirini o'zgadin etdi xoli,
Chodirda soz ila sozanda qoldi.

Ul sanam gul kabi soch yozib, gesu,
Oshufta jon uchun yuz karra orzu.

Labi nordoniga dil mushtoq edi,
Tili shakardin ham shirinroq edi.

6365 Ko'zlari qiyg'och erdiyu og'zi tor,
Ikkisi barobar ko'ngilni tortar.

Sunbul sochi, kokili anbartishon,
Tovonini o'par edi har zamon.

Erdi Shoh bazmining tarozandasi,¹⁷⁰
Yana Shoh sozining navozandasi.

Shoh amri-la chang sozini shayladi,
Lablarini gavharfishon ayladi.

Dedi: "Jahon shodlikka to'lmish base,
Hama shodlik Shoh davlati tuhfası.

6370 Xush erur gul ayyomida ro'zg'or,
Jahon kulib, tabassum etgay bahor.

Quyoshning ravshani olur ko'kda avj,
Jahon sahnida shu'lası mavj-mavj.

Sabo to'qiy boshlar ipak harirni,
Zamin oqlar, havo yuvgaydir uni.

Qizil gul husnidin yashnab chaman, bog',
Har g'unchadin porlaydi ravshan charog'.

Sikandar zafar quchdi etganda jang,
Ko'zgu zebo bo'lurmu bosganda zang?

6375 Kayxusrav jomi may olmishdi qo'lga,
Tixting uza joming bo'sh turar nega?

Shohim, agarchi sen jamshiddin baland,
Mening ruxim ko'kda xurshiddin baland.

¹⁷⁰ Tarozanda – husn, ziynat beruvchi.

Shohim Faridun esa, zarrin kamar,
Meni uning fathiga Kova chilangar.

Shohim Kayqubod ersa, toji quloch,
Mening mushku anbardin boshimda toj.

Shohim Kovus esa, toji feruza,¹⁷¹
Meni o'lturgum fil suyakdin taxt uza.

6380 Gar Sulaymon yanglig⁴ devband esa Shoh,
Meni deb necha jon majnuni shaydo.

Shohim jahon olib, jahongir erdi,
Men jahon olganni olgayman endi.

Agar Shoh tashlasa shijoat bilan
Oy ila quyoshning bo'yniga kamand.

Men zulfimni kamand aylab begumon,
Shohimning bo'yniga solurmen hamon.

Shohim kamand tashlab, olsa dunyoni,
Men kamand tashlabon olurmen Shohni.

6385 Magar kamonidin o'q yog'dirsa ul,
Men g'amza o'qlarin otarmen nuqul.

Agar Shoh nayzadin oqizsa qonlar,
Qon to'kar menda ham chashmu mujgonlar.

Qilich o'ynatmoqqa Shohim etsa qasd,
Mening tilim kelgay shamshiriga bas.

¹⁷¹ Kovus – Kaykovus

Gar gurzi ko'tarib chiqsa Shahriyor,
Mening ham muattar ikki zulfim bor.

Shohim tulporida bitta tavq erur,
Mening g'abg'abimda o'sha o'ntadir.¹⁷²

6390 Shohim huqqasida la'lu dur magar,
Mening ham huqqamda la'l ila gavhar.

Gar Shohimda gandi yoqutdir, ajab,
Yoquti rummoniy erur menda lab.

Agar Shohim ko'karo anjumshunos,
O'sha yulduzlar menga posboni xos.

Bir bayroq yuksalsa Shohim boshida,
Yuz bayroq yuksalur uyim qoshida.

Shohim – olam Shohi sarvarlik ila,
Men xublar Shohiman dilbarlik ila.

6395 Yuzimdin niqobimni yechsam hamon,
Bir tola sochimga qul bo'lur jahon.

Agarda erk bersam kokillaringa,
Osmondin oyni ham indirar yerga.

Shakar keltirurlar lablarim. aqiq.
Pistadin may suzib, tutgaymen, tiniq.

Sharobim raqsga tushirgay suvni,
Aqiqim faraxli etar uyquni.

¹⁷² G'abg'ab – bag'bag'a.

Oydan tavq istasang, g'abg'abimga boq,
Shakardin tuz berar bu shirin dudoq.

6400 Agarchi labim qand, shakarxandiydir,
Bo'saning eshigi samarqandiydir.¹⁷³

Agar kimiyo toshni ham zar qilur,
Nasimim ul toproqni anbar qilur.

Suhayl terini charm etsa gar,
Nasimni nafasim aylar muattar.

Bir boqish-la dilni biryon aylagum,
Bir boqish-la g'orati jon aylagum.

Bu yoqdin navozish etarmen uni,
U yoqdin daryoga otarmen uni.

6405 Jazb etib, yoqishdir shiorim manim,
Bir kimsa qilolmas mening qilganim.

Rohib ko'rar bo'lsa meni nogahon,
O'tga sig'ingandek bosh egar hamon.

Zohid qotgan bo'lsa hamki tosh bo'lib,
Raqsqa tushirgum uni chang chalib.

Simkorlik qilurmen man siymin pari,
Xazina qulfini buzmasmen vale.

Bog'im eshigini bog'bondin o'zga
Bilmagay, kalit ham sololmas unga.

¹⁷³ Ya'ni, bu eshik mustahkam, uni ochish osonmas.

6410 Bog'imda mevalar bisyor, biror kas
Ko'rmamish, ko'rgani faqat xoru xas.

Gulobmen, vale dardisar bergaymen,
Tuz istaganlarga jigar bergaymen.

Kecha turk ko'rib husni ro'yim mening,
Xolimdek bo'libdir hinduyim mening.

Yangi oy gar o'zni hiloldek tutar,
Men uchun ma'vosini xilvat etar.

Zulfim yellar ila o'ynashgan zamon,
Kakliklar domimga tushar begumon.

6415 El nogoh yuzimdin ko'tarsa niqob,
Qizil gul termulib, xo'rsinar shu tob.

Tomog'imni etsam zulfim ila band,
Muallaq suvga ham solurman kamand.

Oshkor etar bo'lsam lutfi gulandom.
Hasaddin o'zini sindirar bodom.

Oppoq bilagimni ko'rgani mahal,
Yosuman xijolat chekadi har gal.

Shakar toti doim dudog'imdadir,
Guhar halqa mudom qulog'imdadir.

6420 Og'zim garov boylab, Mushtariy suzuk
Yutqizdi, menga tegdi tillo uzuk.

Gul yuzimga qiyos aylasa o'zni,
Meni yod aylasin, unitsin o'zni.

Bir chashmam afsuni Bobilga yetmish,
Qaytmish-da, sehrini oshkor etmish.

Zulfimdin Chinga yetmish bir tola mo'y,
Ohular nafasini aylamish xushbo'y.

Magar sochim silab, bersam mehru tob,
Ko'ngillar sarxush bo'lur andin shu tob.

6425 Karashma aylasam, savdo solurmen,
Yuz qo'ldin ketganni qo'lga olurmen.

Ko'ngilni sehr etib, domimda tutgum,
Tomog'im ko'rsatib, chohga yiqitgum.

Sochimdin oshiqqa berib taxtu toj,
Atrimga Xullaxdin olurmen xiroj.

Ur ib Chin davlati uzra muhru mum,
Shior etarmen so'ngra tiroji Rum.

Chiniylarga jigargo'shaman, urug',
Rumiylarga charog'i dilman, yorug'.

6430 Tabar zad bergaymen uyg'onib hamon,
Tabar xun bergaymen g'amza aylabon.¹⁷⁴

Labimdin la'li, yoqut ham rang olur,
Xayolim oftob ila o'ynashur.

Dayr mug'i siymin sanam der meni,
Manzilimni bog'i Iram der meni.

¹⁷⁴ Tabar zad – navvot, tabar xun – unobi jiyda.

Qachonki anorim ko'ksimda qalqdi,
Bog'da anor dili suv bo'lib oqdi.

Norimdin ul norinji navro'zidir,
Kim uchun baxt esa, kinga ro'zidir.

6435 Muborak daraxtmen do'stga har qachon,
Anvoyi bir gulmen, pardada nihon.

Yolg'iz Shoh bo'lsinu may bo'lsin menga,
Dunyoni suv bossin keyin, mayliga.

Istarmen Shoh bilan bir doston bitay,
Sozimdek bag'ringa uni jo etay.

Goh bo'sa qo'ndiray chashmi mastiga,
Goh zulfimni beray uning dastiga.

Joyini etib men jonim joyidin,
Boshimni ko'tarmay uning poyidin.

6440 Keyin uxlay quchib o'shal quyoshim,
Faqat mahshar kuni ko'taray boshim.

Shoh suv esa, tiriklik bersin menga,
Soya esa, huzurlik bersin menga.

Vaslim uning umrini etsin daroz,
Navqironlik beray etib ishva-noz.

Ul obi hayot deb hamon ketgusi,
Men bundamen, Shohim qayon ketgusi?

Magar zulmat yo'lin istar ersa ul,
Ko'rsatur kokilim, shu qaro sunbul.

6445 Istasa. la'li may bo'lsin ulfati,
Uzoqqa borishning yo'qdir hojati.

La'olirang labim borki, tot undadir,
Chashmadirki, obi hayot undadir.

Podshohim, kel endi, sarkash bo'lmagil,
Bu obi hayotga otash urmagil.

Parichehramen, parda ichra pari,
Pariga dil bermay, ketmagil nari.

Hijron o'rtada bir nafas bo'lmasin,
Paymon bo'lsin, paymonshikast bo'lmasin.

6450 Etmasmi ko'ngilga toshlar otganing,
Ko'ngli noziklarga haqir boqqaning?

Shahanshohim, senga maylim bor mening,
Go'zalingman, balki qulingman sening.

Gar sen osmon esang, zaminning o'zim,
Agarchi Chiniyman, dardchining o'zim.¹⁷⁵

Gulman, lek guli soyaparvar emas,
Soya quyosh ila bor joyda turmas.

Mendek mevani tutmagil soyada,
Xush emas, totu ta'm buzilar unda.

6455 Meni rayhoni nozbo'y deb et qabul,
Rayhon uyda O'ssa, nozbo'y emas ul.

¹⁷⁵ Dardchin – dardni oluvchi.

Kaklikni ovlasin, uchirgil loshin,
Burgutlar unga chang solmog'i mumkin.

Xurmo og'ochida yetishgan kuni,
Terib ol, boshqalar termasin uni.

Topolmaysan mendek bir g'amxorani,
G'amxora ne emish, shakarborani.

Ne dillar xun bo'ldi xun ichganimda,
Ne xunlar qoldilar shu gardanimda.

6460 Shakarborlar ila bahs etdim base,
Menga ko'proq bo'ldi bozor foydasi.

Ovozu chehra bilan oy emishman,
Hamon xushman, yana xush uzra xushman.

Soqiy esam, boda sanalmas harom,
Agar mutrib esam, sharbat to'kar jom.

Sozim qo'lga olib, chertar esam tor,
Insonni mast etib, o'ldirmagim bor.

Gar yiroqdin etsam chun dilrabolik,
Og'ushda qilgaymen ne jonfazolik!

6465 Dilxushlik berarmen ko'zlarga ul dam,
Dilkashlik etarmen og'ushga kirsam.

Men bo'lsamu chang bo'lsayu bo'lsa may,
Oshiqdar dilida toqatmi qolgay?

Sendek Shahriyor ersa yorim mening,
Sevinchdin o'zga bo'lmas korim mening.

Jahonda kimsa topmas men kabi kom,
Jahon ichra topilmas menga bir nom!"

So'ng qo'l cho'zib changga, taratdi jarang,
Tugatdi so'zin la'li unnobrang.

6470 Kirdi shog' ko'ngliga mehri sarvinoz,
Go'yoki kaklikka tashlandi Shahboz.¹⁷⁶

Tazarvi bahoriyga duch keldi ganj,
Chiqdi pardasidin ul zarrin turanj.¹⁷⁷

Saroparda xoliyu ma'shuqa mast,
Ko'ngildin ixtiyor ketgan edi, bas.

Kecha xilvatu yor ajab bir sanam,
Andin ko'ngil uzib bo'lgaymi bir dam?

Yiqitdi yosh marolni sheri kabir,
G'orat aylamoqqa kirishdi dadil.

6475 Osmondin oqqushga otildi uqob,¹⁷⁸
Oyga mehmon bo'lib keldi oftob.

Bir dam uning shakkar labin so'rardi,
Yana bir dam payshakkarin so'rardi.

Quchog'iga oldi sumansiynani,
Muhrini ko'chirdi ul ganjinani.

¹⁷⁶ Shahboz – sarlochin.

¹⁷⁷ Turanj – turanj.

¹⁷⁸ Uqob – burgut.

May ichmasdi, chunki oldida tayyor
Bir bog' edi, to'la olmayu anor.

Aqiq edi, muhriga qo'l yetmagan,
Uzuk edi, olmosi darz ketmagan.

6480 Uzilmagan gul, girdida tikoni,
Yolg'iz bog'bon edi ko'rguvchi ani.

Xullas, ul ikki tan olov bo'lib, hay,
Yondilar, qonlari otilmoqqa shay.

Shirin tildan shahdu shakar to'kdilar,
Shiru shakarni omuxta etdilar.

Chirmishdilar ul ikki sarvi baland,
Sochdilar so'ng moyu bodom uzra qand.

Ikki juft oyoqlar alif, lom yasab,
Ikki harfdin bir jinsi andom yasab.

6485 Ham gavhar tinchidi, ham la'l oldi tin,
La'l teshdi ul teshilmagan gavharin.

Necha kun ko'nglini shodlikka berdi,
Bir yoqqa jilmadi, shu yerda turdi

Obi hayot afsonasi Soqiynoma

Ketur, soqiy, ul jomi ravshanda may,
Jo'r ayla unga nag'mayi noyu nay.

O'shal mayki, shukur deymiz boriga,
Damon bo'lsin bechoralar koriga...

Doston

6490 Xo'roz qichqirig'i taralib endi,
Posbon shaqildog'in sadosi tindi.

Bongu nog'oradin taraldi gumbur,
Qushlar ham havoda boshladi chug'ur.

Ibodat ahli ham turib oyoqqa,
Kirishdi Tangrini yod aylamoqqa.

Uyqudan uyg'onib dag'i Iskandar
Yaratgan Rabbiga etdi sajdalar.

Yaratgan ne'matlarin yod ayladi,
O'shalkim, olamni obod ayladi.

Toat-ibodatini ado etib ul,
Yana bo'ldi mayu majlisga mashg'ul.

Gahi may ichar, goh tinglardi maqom,
Goh niyoz ahliga yo'llardi salom.

Mayi gulgunki, toza, misli gulob,
Boshdin dard olardi, dimog'danam tob.

Ulfatlari ila vaqti chog' edi,
G'animlar g'avg'osi endi yo'q edi.

Majlisda gohi kuy, gohi tarona,
Gohi aytilardi ajib afsona.

6500 Biri Xurosonu G'urdin urib dam,
Derdi: "Oltini ko'p, pahlavoni ham".

Biri aylab Isfahonu Rayni yod,
Derdi: "Unda Faridun surmishdi ot".

Biri ta'rif etib Xorazmu Chin,
Derdi: "Mushki andoq, atlasi chunin".

Biri derdi: "Qaysur ajib bir diyor,
Ki kofuru sandal istagancha bor".

Biri derdi: "Hindiston afzal erur,
O'tini ud, tuprog'i anbar erur".

6505 Majlisdan bor edi kekxa bir dono,
So'z navbati unga yetishgan asno,

Ajib bir qissani bayon etdi chol,
Eshitgan hama qoldi hayratda lol.

Dedi ul: "Baridin zulmat yaxshidir,
Zilol obi hayot uning naqshidir.

Ummi ganj ila o'lchab, chekma ranj,
Axir, tuproq erur hama molu ganj.

Jahonda ziyoda istasang hayot,
Muyassar et o'zingga obi hayot".

6510 So'rdi ey dono deb shunda Iskandar:
"Zulmatda bo'lgaymu o'shal suv magar?"

Sinovdir ma'nosi qaro mavjining,
Jon baxsh etar ishorati bor uning.

Vale kimsa ko'rmishmi ul chashmani,
Ki zulmatda o'limdin asrar uni?"

Javob berdi yana donoyi jahon,
Yashirin ishoratni aylab ayon:

"Go'yoki bir hijobdir quti shimol,
Ostida ul chashma, chashmayi zilol.

6515 Hijobdir, zulmat asli nomi aning,
Oqizgay chashmani oromi aning.

Har kimsa ul hayot suvidin ichar,
Hayvonxo'rlar uning jonidin kechar.

Gar bovar etmasang so'zimga, ey Shoh,
So'rab ko'r, so'ylasin o'zga bir dono".

Tinglab, Shahanshohning yuragi jo'shdi,
Chashmani izlamoq fikriga tushdi.

So'rdi: "o'shal zulmat chashmasi qayda?"
Mo'ysafid dedi: "Shu manzildin o'ngda.

6520 Bu yerdan uncha ham uzoqmas yeri,
Shu bosgan yo'limizning o'ndan biri".

Shoh bildiki, ajab bir chashmadir ul,
Zulmatda subhidam yaqqlig' tovlanur.

O'shal zulmatga yuzni burdi hamon,
Lashkarga ham yurishga berdi farmon.

O'shal manzil sari jadal yurdi Shoh,
Vale ko'p lashkarin bemor ko'rdi Shoh.

Ortidin daryodek kelur lashkari,
Yonida a'yonu akobirlari.

6525 Ko'chgohdagi lashkar bozoridin ul,
Yaqin edi Mahshar bozoriga yo'l.

Lashkar bozorini izlasa har vaqt,
Topilardi tovuq suti ham albat.

Qay bir biyobonga qadam bossa Shoh,
Yong'ir yog'ar edi, unardi giyoh.

Yo'lda go'yo Xizr rahnamo edi,
Xizr boshlab, Shoh unga hamroh edi.

Lashkarim ko'p deya andisha qildi,
Vale sabr aylamoqni pasha qildi.

6530 Necha g'or uchradi yo'lda bir mahal,
G'orlar makonidin o'tarkan lashkar.

Og'ir yuklarini qoldirdi unda,
Base molu ashyo jam bo'ldi shunda.

Xarobotgoh edi, imorat bo'ldi,
Bunig'or nomi so'ng Bulg'orga do'ndi.

Bugun ul kishvarga kim solor erur,
Fotih Iskandarning zuryodidir ul.

Shoh ko'rdiki, ul lashkari beqiyos,
Emaslar bu yo'l uzra manzilshunos.

6535 Ayirdin lashkardin necha navkarni.
Necha mohir kamonchi, o'q otarni.

Jasuru tanumand, po'lat ustuxon,
Chidamliyu zabardastu navqiron

Yigitlarni oldi tanlab, kekxa, pir
Jangchilarga, dedi yo'l kelar og'ir.

Ular yurolmaslar yo'lda safbasta,
Horib-charchab, so'ngra bo'lurlar xasta.

Keksalar qoldi, yosh jangchilar yurdi,
Ammo yo'l boshlovchi kimsa yo'q erdi.

6540 Jahongir talab qildi bilgach buni,
Ul diyordin necha bushyor kimsani.

Yo'lni bilgach, surdi lashkarin olg'a,
Har ikki manzilda tutdi qo'nalg'a.

Hama yo'l ozig'in, shirinu nordon,
Tevalarga ortib, ayladi ravon.

Qo'sh otda yurishni oyin etdi ul,
Har qal'aga noib tayin etdi ul.

Lashkarini ogoh ayladi bir kez,
Ki bunda ko'z yumib, uxlamang hargiz.

6545 Bir oycha yo'l bosib, shimolga yetdi,
Quyosh chizig'idin nariga o'tdi.

Falak qutbidin ko'rinib yoruhlik,
Bir lahzadin keyin so'nar edi lek.

Ufuqqa bosh qo'yib xatti ustuvo,
Yo'l shimol qutbiga yetdi shu asno.

Quyoshdin bir darak izlabon unda,
Xayolda ko'rilardi yo uyquda.

Zamin chekkasiga qadam chekdilar,
Ul soyagoh yerda bayroq tikdilar.

6550 Havo ravshanligin yer yutib behad,
Qorong'ulik aylar edi siyosat.

Qorong'ulik esa bir yonda cheksiz,
Bir tarafda yo'lni kesgandi dengiz.

Shunda ahd etdilar yana yurmoqqa,
Falak pargoridin narigi yoqqa.

Qadam-qadam yurib pargordin uzoq,
Yorug'likdin yiroq ketdilar mutloq.

Andoq bir nuqtaga borib yetdi yo'l,
Yorug'lik ko'zlardin yo'qoldi butkul.

6555 Atrofni zulumot qurshadi, yohu,
Jahon xush emasdir, ersa qorong'u.

Iskandar chorasiz qoldi bir nafas,
Bornidir deb bir ko'rsatuvchi kas?

Javob berdilar necha bir bilimdon,
Ki bu qorong'ulik pardadir hamon.

Ilgari yurishlik mumkindir, ammo,
Izga qaytish bo'lur unda muammo.

Barcha chora izlab, bo'ldi besabr,
Vale topilmadi bir chora, tadbir.

6560 Tun hostirib kelgach, nimyorug' diyor
Ud o'miga mushkni etdi ixtiyor.¹⁷⁹

Falak go'yo jinni edi, zanjirli,
Zanjijning o'miga keldi kashmirli.¹⁸⁰

Yo'l tortdi tola mo'ydin ham ingichka,
Qaro Shomdin qorong'u erdi kecha.

Qaytdilar manzilga horg'inu yo'rg'in,
Chora izladilar mushkulga tag'in.

Lashkarda bir yigit bor edi chunon,
Ajab ravshan ko'ngil, ajab mehribon.

6565 Bor edi chun to'qson yoshli otasi,
Tani ranjiddin uchardi nolasi.

O'shal kunki, podsho amr aylamishdi,
Keksalar chiqmasin yo'lga demishdi.

Yigit otasiga achinib joni,
Ki tinmasdi uning zori, fig'oni,

Xastaga parvona bo'lib har zamon,
Boshqalar yoqutga parvonasimon.

Otasin sandiqqa berkitmish erdi,
O'zi bilan birga keltirmish erdi.

¹⁷⁹ Ud og'ochi yoqilganda oq tutun, mushk yoqilganda qorq tutun taraladi.
Ana shunga ishora.

¹⁸⁰ Ya'ni, havo yorishdi.

6570 O'shal tunki, yo'ldin ortga qaytdilar,
Chora izlab, o'y-xayolga botdilar.

Yigit ochib sandiqni, roz ayladi,
Otasin o'ziga hamroz ayladi.

Dedi: "Shoh chorasizdir, hayron erur,
Yo'lga chiqqanidin pushaymon erur.

Arosat ichra qolmish ul bo'ylakim,
Qorong'ulik solmish qalbiga vahim.

Ichkari yurilsa gar berahnamo,
Ortga qaytish bo'lur so'ngra muammo".

6575 Otasi yigitga so'yladi shu on:
"Bu parda ortida bor sirri nihon.

Kerakdirkim yo'lga tushmasdan oldin,
Shoh ortga qaytishni puxta o'ylasin.

Tanlasin yilqining tetik, sog'ini,
Ilk bor tuqqan bo'lsin ul toychoq'ini.

Andoq bir chorani qo'llasin hamon,
Toychoqning boshini kessin beomon.

Toychoqning boshini kesarkan unda,
Kessin onasining ko'zi o'ngida.

6580 Baytalning qalbiga solib ranj, alam,
Keyin yo'lga tushsin Shahanshoh ildam.

Qaytishda baytalni peshrov aylabon,
Qay tarafga yursa, yursin ul tomon.

Yugurar ot aziz toychog'i sari,
Yo'lni adashtirmay, chiqar tashqari.

Andoq bir choradin yetishgay omad,
Ortga qaytur barcha sog'u salomat".

Yigi otasini tinglab shu zamon,
Chora sarrishtasin topdi begumon.

6585 Mushkin atlasini tag'in subhidam,
Oppoq harir ila alishtirgan dam.

Shahanshoh mashvarat tuzdi Shohona,
Chorayu tadbirdin so'z ketdi yana.

Har kimsa bir chora taklif ayladi,
O'z tadbirin aytib, ta'rif ayladi.

Aytildi necha bir chora, tadbiri,
Shahanshohga ma'qul tushmadi biri.

Shunda o'shal yigit, oqilu dono,
So'zga izn so'rab ul majlis aro.

6590 So'yladi otasi so'ylaganni ul,
Shahanshohga bo'ldi taklifi ma'qul.

Shoh dedi: "Ey yigit, barno, navqiron,
Ajab bir chorani so'ylading hamon.

Bu narsa ko'nglingdin o'zi o'tdimi,
Yoki uni bir kimsa o'rgatdimi?

Rostin aytsang, mukofoting bo'lur ganj,
Gar yolg'on gapirsang, yetar zaxmu ranj)".

Yigit dedi: "Rostin aytaman zinhor,
Bir qoshiq qonimdin o'ting hukmdor.

6595 Shahanshohdin o'shal kun bo'ldi farmon,
Keksalar chiqmasin bu yo'lga debon.

Keksaygan otam bor, to'qsonga kirgan,
Falak bedodidin qaddi bukilgan.

Otamga mehrim bor mening ziyoda,
Yolg'iz suyanchiqman unga dunyoda.

Shuning-chun yashirin hamroh ayladim,
Bilmadim, yaxshimi, yomon ayladim.

Bor gapdin otamni etdim xabardor,
Yo'lning tashvishini ayladim izhor.

6600 Otam anglagandek bo'ldi bu simi,
Bayon ayladi so'ng ushbu tadbirni".

Shohga yigit aytgani manzur edi,
Mamnun bo'lib, oxirda bundoq dedi:

"Yigit gar ul sohibi toj bo'lgusi,
Keksalar pandiga muhtoj bo'lgusi.

Yosh novdalar ila o'ynasa qovoq,
Ko'tarmish uni bo'yla eski butoq.

Yigitning bo'lsa-da ilmu hikmati,
Keksalar pandiga bordir hojati".

6605 Shu so'zlarni aytarkan Shohi jahon,
Eshikdin kirdi ul maxluq nogahon.

Kirdiyu podShoga yaqinlashdi ul,
Elkasida necha qop-qora samur.

Kunduzdan-da porloq edi har biri,
Tovlanardi, yashnoq edi mavjlari.

Shoh boqib, ularga bo'ldi xaridor,
Dev shu onda ko'zdin yo'qoldi takror.

Qorong'ulikda bo'ldi ko'zdin nihon,
Uning bu holiga Shoh erdi hayron.

6610 Baski yigit so'zi bo'lmishdi ma'qul,
Qo'sh otida zulmat sari oldi yo'l.

Buyurmishdi: "Andoq yilqi topilsin,
Oyu kuni yaqin, yosh yilqi bo'lsin!"

Toychog'i tug'ilgach, kesilsin boshi,
Yilqining ko'zidin to'kilsin yoshi..."

Shoh farmonin bajo aylashib shunda,
Obi hayot sari tushdilar yo'lga.

Iskandarning zulmatga kirgani Soqiynoma

Kel, ey soqiy, borib ul zulmataro,
Obi hayot topib, menga et ravo.

6615 O'shal suvdin ko'zi yashnoq et meni,
Tirikmen garchi, tiriqroq et meni...

Doston

Bu sevinch faslida yangi va ko'hna
Dehqon tarixidin so'ylagum yana.

Andoq davom etdi dehqon qissasi:
Urdubihisht oyining ilk kechasi¹⁸¹

Sikandar qorong'ulikka etdi roy,
Ki qorong'ulikda xotir topar joy.

Qulfga zarrin kalit solganing zamon,
Qorong'ulikda gavhar bo'lgay ayon.

6620 Kishi, hayot suvi jazb etsa ani,
Ko'z o'ngidin sursin o'shal pardani.

Bu moviy havzadin suv olguvchi kas
Shu moviy pardadin nari o'tolmas.

Sikandar mayl etib zulumotni ul,
Tark ayladi jumla muhimotni ul.

Jilov burib, otini etdi ravon,
Ajdahō komida oy bo'ldi nihon.

Andoq farmon berdi ul yangi yo'lda,
Ki Xizr payg'ambar borur oldinda.

6625 Uchqur otin berdi unga Shahriyor,
Arslondek qudratli erdi tulpor.

¹⁸¹ Urdubihisht – avji bahor, 21 apreldan 21 maygacha bo'lgan muddat.

Ki Xizr shu otda yugursin, yelsin,
Hayot suvin topmoqni pasha qilsin.

Yana gavhar berdi, sochib yog'duni,
Har nechuk chuqurda yoritar suvni.

Shoh dedi: "Peshrovsan bu yo'lda beshak,
Kishi yo'qdir oldinda sendin bo'lak.

Tulpor surib, har yon guzar aylagil,
Hushyor turib, har yon nazar aylagil.

6630 Qayda hayot suvi taratsa yorug',
Shu raxshanda gavhar ko'rsatur aniq.

Olgin-da, tatib ko'r totini albat
Va bizga ko'rsatgil, ko'rarsen himmat".

Shoh amr etib, ul Xizri xizroxirom
Peshrov bo'lib oldinga tushdi hamon.

Lashkardin ayrilib, bir yoqqa ketdi,
Har taraf ko'z tashlab, nazzora etdi.

Qayga qadam bosib, qayga yetmadi,
Unga suvni ko'rish nasib etmadi.

6635 Bir mahal qo'lida porladi gavhar,
Ana suv, deb uni chorladi gavhar.

Ko'rindi nihoyat kumushdek chashma,
Toshdin sizib, etar edi karashma.

Yo'q, chashmamas, sashmayi billur edi,
Billurdanam ortiq, balki nur edi.

Yulduz tong otarda chaqnasa qandoq,
Chashma tovlanardi, yonardi shundoq.

Tunlarda to'lin oy nechuk ersa shan,
Shundoq edi, balki undanam ravshan.

6640 Titardi, tinim yo'q erdi raftada,
Chu siymob erdi keksaning kaftida.

Bilmam, qaydin emish poki paykari,
Ne qiyosdin ayon bo'lur gavhari?

Har nechuk gavhardin kelmas bu yog'du,
Ham otash erdi chashma, ham erdi suv.

Xizr ul chashmaga yaqinlab keldi,
Hamon ko'zlariga ravshanlik indi.

To'nin yechib, qo'yib bir chetga ani,
Pok chashmada yuvdi boshu badanni.

6645 Qonib-qonib ichdi Xizr, hayakbor
Abadiy hayotga bo'ldi sazovor.

Otini ham andin sug'ordi, yuvdi,
Chun kumush qadahga moyi nob quydi.

Otlandi, zavqlanib labida totdin,
Ko'zini uzmasdi obi hayotdin.

Shohga shodon bo'lib qaytmoqchi erdi,
Chashmani topdim deb aytmoqchi erdi.

Ammo yuz berdi bir holki, g'aroyib,
Kumush chashma bo'ldi nazardin g'oyib.

6650 Angladi bir sirdan ogoh bo'ldi u,
Podsho bu chashmadin icholmagay suv.

Xizr xijolat ichra qoldi shu on,
U ham chashmadek bo'ldi ko'zdin nihon...

Qadimgi rumliklar aytib hikoyat.
Bu to'g'nda derlar o'zga rivoyat.

Ki Ilyos ul Xizrga hamroh edi,¹⁸²
Ikkisi ul chashma boshiga keldi.

Otdan tushib, chashmaga yondoshdilar,
O'tirib, yemakka sufra ochdilar.

6655 Chashma davo edi, ochmidir, tashna,
Xushta'm etar edi yemakni chashma.

Sufrada non edi, muattar, mushkin,
Tuzlangan qoq baliq bor edi tag'in.

Shunda ul birining qo'lidin hamon,
Suvga tushib ketdi baliq nogahon.

Baliqni tushirgan suvga qo'l soldi,
Axtardi baliqni, izlab topoldi.

Baliq tirik edi, ajab erdi hol,
Izlovchiga ochildi farxunda fol.

6660 Bildiki, bu suvda bori najotdir,
Bu chashma izlangan obi hayotdir.

¹⁸² Ilyos – afsonaviy payg'ambar, olov vositasida osmonga uchgan, uni ibni Yusuf ham deyishgan.

To'yib-to'yib chidi, ayladi rohat,
Topdi ul chashmadin hayoti abad.

Hamon xabardor etdi hamrohini,
U ham ichdi, qondirdi chanqog'ini.

Ajab ermaski, ul chashmayi safo
Jonsiz baliqqa jon etmishdi ato.

Ul ajabki, o'lik baliq erdi ul,
Shu obi hayotga nechuk topdi yo'l?

6665 Ul jonsiz balig'u chashmani tag'in
Arablar etmishlar o'zgacha talqin.

Ki obi hayot erdi boshqa yerda.
Majusiyo rumlik adashdi yo'lda...

Yarqirab ko'rinar tuproq aro suv,
Uni izlaganlar hech adashgaymu?

Ilyos ila Xizr ichdilar chunon,
Lekin o'zgalardin tutdilar nihon.

Keyin sabab bo'lib o'sha sarguzasht,
Biri daryo bo'ldi, biri bo'ldi dasht.

6670 Shu suv bois bo'ldi donlari xirmon,
Keyin tortdi uni ikki tegirmon.

Sikandar toparman deb obi hayot,
Ko'nglida umid erdi, ranju sabot.

Hayot istar edi o'shal chashmadin,
Najot izlar edi o'shal chashmadin.

Rosa qirq izlab, charchadi, toldi,
Uni topolmadi, soyada qoldi.

Siqildi, chun tashnayi zor erdi ul,
Chashma deb soyaga duchor erdi ul.

6675 Chashmadin soyamas, nur chiqar porloq,
Vale chashma kamdir soyadin yiroq.

Chashmaga lozim ersa gar soyasi,
Soyasiz bo'lmadi quyosh chashmasi.

Chashmaning quyoshdin maza, toti bor,
Nechun soyadadir o'shal chashmasor?

Chashmaga yaxshidir soya g'ubordin,
U bois tiyradir, bu bois sarin.

O'shal soyagoh ostida qoldi Shoh,
Kunduzi soyadek bo'lmishdi qaro.

6680 Chun hayot suvini icharman debon,
Jon qayg'usin chekar har yerda inson.

Iskandar umidga alvido aytdi,
Navmid bo'lib oxir ortiga qaytdi.

Qayg'u chekdi, qani chora-tadbiri,
Ki uni soyadin eltsin tashqari?

Bir farishta peshvoz chiqib yo'liga,
Qo'lini qo'ydi ul Shohning qo'liga.

Dedi: "Nahot olib jahonni tamom,
Hoyu havaslardin to'yumading hamon?"

6685 Va qo'ydi kattiga mis chaqadek tosh,
Dedi: "Buni doim aziz tut, yo'ldosh.

Shu toshloq dunyoda shahd aylab, jidol,
Shu tosh miqdoriga kirit qo'lga mol.

To'yarsen o'sha miqdordin shu nafas,
Tark etar seni har ne hoyu havas..."

Tosh olib andin Shahriyori jahon,
Tosh bergan bo'ldi shunda ko'zdin nihon.

Har tomon yugurdi-eldi Iskandar,
Ko'zida zulmatu ko'nglida xatar.

6690 Nogahon hotifdin yetdi bir ovoz,
Ki "Har kimga qismat berar chorasoz.

Iskandar izladi, yetmadi suvga,
Xizr izlamadi, yetishdi unga.

Sikandar zulmatda yo'l bosdi nuqul,
Xizr yurganida ravshan erdi yo'l.

Yuz kishi o't yoqib, pishirar halvo,
Lekin bir og'izni chuchitar halvo".

Yana hotif dediki: "Ey ahli Rum,
Bu o'lkada bordir nur sochuvchi qum.

6695 Pushaymon bo'lgusi kim olar bo'lsa,
Ammo afsus chekar uni olmasa.

Olurlar u qumdin har kimsa magar,
Baxtu iqbolining miqdori qadar".

Shoh ko'rdi hayrat ichra muncha asror,
O'ndan birini ham soylamak dushvor.

Hadisi Isrofilu ovozi sur
Ne erdi. aytmain, gapim cho'zilur.

Bu konni bir shoir ochmishdi bir bor,
Yana kashf aylamak uni ne darkor?¹⁸³

6700 Shahanshoh chashmaga yetmadi shu tob,
Yorug' chashma sari yo'l oldi shitob.

Sipohga qayting deb farmon berdi Shoh,
Shu onda qaytishga yuz tutdi sipoh.

Lashkar sur'at ila ortga yurdi bot,
Yo'l boshlovchi o'sha qilqi erdi, ot.

Qirq kun yo'l oldilar tinim bilmayin,
Yorug'lik ko'rindi qirq kundan keyin.

Bulutlar ortidin ko'rindi oftob,
Suvsizlik dastidin Shoh erdi xunob.

6705 Qismat buyurmaganni etdi havas,
Qismat buyurmasa, yugurmoq abas.¹⁸⁴

Rizqi ro'z ortidin yugurma dilso'z,
Sen o'ltir, qoshingga kelar rizqiro'z.

Birov eksa, birov ko'tarar xirmon,
Baxtlidir bu so'zni anglagan inson!

¹⁸³ Bu erda yana shoir Abulqosim Firdavsiy nazarda tutilmoqda

¹⁸⁴ Abas – behuda, befoyda.

Faqat o'zing uchun ekmaganing xo'b,
Dunyoda rizqi ro'z istaganlar ko'p.

Avvalgilar ekib, javlon urdilar,
Keyingilar bog'da meva terdilar.

6710 Biz uchun boshqalar ekmishlar erdi,
Biz ham boshqalarga ekaylik endi.

Jahon bir ekinzor erur mukammal,
Hama dehqonlarmiz unda galma-gal...

Iskandarning zulmatdan chiqqani Soqiynoma

Ketur, soqiy, ul mayki dilkash erur,
Yigitlikda may ichmaklik xush erur.

Tutgil labimga ul no'shi zilolim,
Ki yashnab-yasharsin andin iqbolim.

Doston

Bu gal ham madadkor bo'ldi rang baxt,
Sikndar zulmatdin chiqdi salomat.

6715 Ona yilqi yo'lga yo'l boshlab chunon,
O'ngu so'lga boqmay, yo'l bosdi ravon.

O'shal chiziqdanki, yurmishdi avval,
Qaytdi pargor kabi ortiga haytal.

Iqbol Shahanshohni yana qo'lladi,
Yorug' jahon sari uni yo'lladi.

Jilovni burdi ul lashkar tomonga,
Murod talab aylab, yetmadi unga.

Ammo ranjimadi bu oqibatdin,
Axir rizqi ro'zi kelur qismatdin.

Garchi hayot suvi nasib bo'lmadi,
Bu yo'lda bir hayvon kabi o'lmadi.

6720 G'am bossa, yurmagil qo'rqib behuda,
G'am-unduh ziyoda bo'lur qo'rquvda.

Daryoda g'arq bo'lib o'lgandin o'shal,
Sahroda yalang'och yurganing afzal.

Boshog'riqdin boshing dard chekar, illo,
Qilichning zaxmidek og'irmas ammo.

Mushkuldin mushkul bor dunyoda beshak,
G'olib kelur kimda zo'r bo'lsa yurak!

Qumlikdin olgan ul toshlarni endi,
Navkarlar sovg'a deb podshoga, tizdi.

6725 Hama toshlar qirmizrang yoqut edi,
ko'zlarga nur, yuraklarga qut edi.

Biri yurak dardiga erdi davo,
Biri zotiljamni tuzatgay, shifo.

Kam olganlar hasratda erdi yolg'iz,
Olmaganlar ko'proq chekardi afsus.

Shoh ikki kundirki rohatda erdi,
Uyqu va taomning dodini berdi.

Mo'jaz tosh yodiga tushdi nogahon,
O'shal kun farishta bermishdi nihon.

6730 Tarozi talab qildi, o'Ichaguncha,
Toshcha og'ir keldi toshlardin necha.

Misqol og'ir keldi yana botmondin,
Tosh tashib keldilar tog'u dovondin.

Base tosh uyuldi bitta pallaga,
Mo'jaz tosh qo'yildi boshqa pallaga.

Yuz qoyatoshdin ham og'ir erdi ul,
Ko'rganlar hayratda qoldilar butkul.

Bir ovoz yetishdi Xizr din hamon,
Toshga hantosh eiting tuproqdin, debon.

6735 Pallaga bir hovuch tuproq soldilar,
Ikki palla keldi tengu barobar.

Shoh bu ishoratni angladi andoq,
Tuproqdin ul, uni to'ydirar tuproq.

Xos a'yonlarini chorlab shu asno,
Jannatdek bir majlis ayladi barpo.

Faridun tojini kiyib, yayradi,
Taxtini osmonga tutash ayladi.

Zarrinkamar shotirlari erdi shay,
Zar og'och oldida kumush ustunday.

6740 Jahon podsholari yer o'pib bari,
Qarshisida erdi soya singari.

Va har ne shevaki, ko'ngilga yaqin,
Aytib, etilardi ayricha talqin.

Zulmatdanu obi hayotdin base,
Maroq ila so'ylar erdi har kase.

Ki ul zulmat aro suv bo'lsa magar,
Nega izlaganga bo'lmas muyassar?

Qrong'ulik ichra yo'qsa tamomi,
Nega tomlar uza jaranglar nomi?

6745 So'ylanib necha bir ibratli so'zlar,
Ko'zlarga nur to'ldi, yorishdi yuzlar.

Bir keksa bor edi davrada shu dam,
Sikandarga dedi: "Ey Shohi olam!

Ey jahongir bo'lib zamonni kezgan,
Ey osmon bo'lib jahonni kezgan!

Agar istar istang ul obi hayot,
Gar muroding ersa o'limdin najot,

Bu o'lkada andoq shahar bor, aziz,
Ki unda bir kimsa o'lmagay hargiz.

6750 Shahar tepasida tog' bordir, baland.
Shahar ahli bo'lmish anga Shahrband.¹⁸⁵

¹⁸⁵ Shahrband – bu erda asir, tutqun ma'nosida.

Qay bir mahal tog'din kelur bir ovoz,
Eshitgan kimsaga ajab dilnavoz.

Birovning nomini aytib ul zamon,
Deydiki, ey falon, yugur biz tomon!

Eshitgan ul kimsa boshin egar, bas,
Bir nafas kutishga toqati yetmas.

Tog' sari oshiqib, etgaydir shitob,
Savol so'raganga bermaydi javob.

6755 Tog' ortida bo'lur nazardin nihon,
Sirriga yetolmay har kimsa hayron.

Gar o'limdin omon istar esa Shoh,
O'limsiz shaharda yashasin, illo'.

Donishmand so'yladi, ajab erdi sir,
Eshitib, bezovta bo'ldi jahongir.

Bu asrorni bilishga jazm ayladi,
Bir sinab ko'rmoqlikka azm ayladi.

Buyurdi, donolar sinov etgani,
Yo'lga shaylasinlar necha kimsani.

6760 Borib, unda makon tutsinlar ular,
Keyin keltirsinlar Shohga xushxabar...

Yana tayinladi: "Tog'din chaqirsa,
Jilmasin, ul tomon bormasin kimsa.

Hatto nomin aytib chaqirganda ham,
Tursin qimirlamay joyida mahkam.

Javob ololmagach, oqibat-oxir,
Oshkor bo'lur parda ortidagi sir".

Shohning o'gitlarin tinglashib shunda,
Necha kimsa hamon tushdilar yo'lga.

6765 Shaharga shod-xursand borib yetdilar,
Yaxshi bir oromgoh barpo etdilar.

Sirli hodisalar oshkoru nihon,
Ul keksa aytgandek bo'lardi ayon.

Har safar birovning nomini ro'y-rost
Aytib, chaqirardi u sirli ovoz.

Eshitgan kimsa ul turmasdi qarab,
Hamon yugurardi o'shal tog' taraf.

O'shal sirli ovoz jazb etardi chun,
Qilich to'solmasdi hattoki yo'lin.

6770 Amallar etdilar necha, bor-bor,
Ochilmadi o'shal pardayi asror.

Gardun aylanishda davomat etdi,
Falak ham necha bir manzilga yetdi.

Qismati shu bo'ldi Shoh odamlarin:
Charxi davron olmoq istadi birin.

O'shal guruh unda izlar ekan roz,
Banogoh birini chorladi ovoz.

Nomini eshitib kimsa daf'atan,
Ovoz kelgan yoqqa yugurdi xursand.

6775 Do'stlari yo'lini to'sdilar: "Shoshma!
Sabr qil, bu yo'lga yurma, adashma!

Sabru chidamingdin bizga foyda bor,
Pardaning asrori bo'lur oshkor".

Aytilgan so'zlardin sira yo'qdi naf,
Ul kimsa talpinar edi tog' taraf.

Yig'lardi, dod solardi beixtiyor,
Falak yanglig' charx urardi beqaror.

Nihoyat zo'rila qutqazdi o'zni,
Yugurdi, ovozga yetkazdi o'zni.

6780 Yoronlar hayratda qoldi bu ishdan,
Har kimsa bir ibrat oldi bu ishdan.

"Oqilu donomiz ul erdi, xolos,
Ketdi, voy ochilmay yana qoldi roz".

Shu zayl bir muddat o'tdi arodan,
Quyosh tog'u dashtni yoritdi ravshan.

Yana bir kishiga yetishdi navbat,
U ham g'oyib bo'ldi oxir-oqibat.

Qoldilar bir necha bechora, miskin,
Bir harf o'qiyolmay asror lavhidin.

6785 Qaytdilar yuraklar qo'rquvga to'lib,
Madadkor bo'lmadi bizga falak deb.

Yo'lsizlikdin kechib, yurib-eldilar,
Shohning huzuriga kirib keldilar.

Zorlanib dedilar: "Ketdilar necha,
Bir kimsa qaytmadi shu ketganicha.

Na ul ketishida ayladi bardosh,
Va na qaytishidin umid etdi fosh.

Bilolmadik o'shal nechuk pardakim?
Va ul soz pardaning sozandasi kim?

6790 Biz ul parda sari topolmadik yo'l,
Qaytdik huzuringga nochor. quruq yo'l.

Bizdan necha kishi ketdilar toqqa,
So'ng ovoz kelmadi biz turgan yoqqa.

Ko'rdik, ular tog'da tutdilar maskan,
Biz yurib dasharo qaytdik daf'atan.

Xullas, aylanarkan shu charxi davron,
Gahi toqqa eltar, gahi dasht tomon".

Sikandar tingladi, so'z kim bu turur,
Borsa-kelmas yo'lni etdi tasavvur.

6795 Agar ketganlarning qaytsaydi biri,
Balki ochilardi bu ishning siri.

Sargashta qoldi u hayratlar aro,
Kimsa o'qimamish bu xatni aslo.

Va bildiki, ketganlar ul nogahon,
Andoq kimsalarki, to'ydirmish jahon.

Dunyoda tug'ilgan borki, o'lar, bas,
Ajaj changalidin kimsa qutulmas.

Ovchiga hojatmas kuchi, zarbasi,
O'z oyog'i bilan kelar o'ljasi.

6800 O'q yegan lochin ham o'q bilan birga,
Qanotini yozib, yiqilar yerga...

Iskandarning Runga qaytgani Soqiynoma

Ketur, soqiy, bodayi jomingni zud,
Sevinch keltir, g'amimni aylay unut.

Bir yutum bodadin hayotimni ber,
Ajal changalidin najotimni ber...

Pandu hikmat

Bir kiprik qoqquncha shu charxi davron
Yuz bir yaxshi-yomonlik aylar ayon.

Qay bir boshni etar ul tuproqqa tan,
Qay bir boshni ko'kka ko'targay baland.

6805 Qay birovni eltar chuqur chohgacha,
Qay birovni – yerdan to'lin oygacha.

Necha bir o'yin ko'rsatur erta-kech,
O'yini tuganmas, tugamaydi hech.

Sarkashlikmas, bizga yuvoshlik najot,
Qamchi yegay magar asov bo'lsa ot.

Agar jilov yulqib qochar bo'lsa ul,
Misr eshshagidin qadri past bo'lur.

Jahon jahon ichra kimni ko'rmadi,
Bir kimsaga do'stu rafiq bo'lmadi.

- 6810 Jahon uningdirkim, haqiqatga yor
Donolar ishidin bo'lsa xabardor.

Doston

Rivoyat etilur, ul Shohi jahon
Bunyod etib o'shal g'or ichra qo'rg'on.

Base ganjini sarfi g'or ayladi.
O'shal g'orni shahri Bulg'or ayladi.

Bulg'ordin chiqib so'ng ravsga yurdi,
O'shanda shahri Bulg'or gulshan erdi.

U yerdan Rum bahriga chiqdi keyin,
O'z diyori sahniga chiqdi keyin.

- 6815 Xabar topib andin hama ahli xos,
Ul Shohi jahonga chiqdilar peshvoz.

Ezidga Shukrona aytdilar hamon,
Chu Rum hukmdorin ko'rdilar omon.

Rumda hama yo'llar obod erdi, shan,
ko'cha-ko'ylar charog'on erdi, ravshan.

O'shal iskandariy yoqutdan endi
Javhariylar yuzi yoqutrang erdi.¹⁸⁶

¹⁸⁶ Javlariy – gavhariy, gavhar sotuvchi.

Shahar boshdin-oyoq topdi oroyish,
Zamin ganju sarvat etdi namoyish.

6820 Qasrlarga bihisht husnin chekdilar,
Oltin, kumushlarni yerga to'kdilar.

Ochdilar base chashmayi ganjni,
Qafasga soldilar dardu ranjni.

O'z burjiga qaytdi parpiragan oy,
Boshida toj oftob edi, hoynahoy.

Shoh rundan ketganda ketdi yer bo'lib,
Rumga qaytdi osmon yanglig' er bo'lib.

Bulut ko'kka uchar yerdan olib suv,
Keyin dengiz uza inju sochar u.

6825 Shoh Yunon taxtiga o'tirib sokin,
Yo'lning zahmatidin olar edi tin.

Etti o'lka tashvish, ranjidan to'yib,
Har o'lkaga tayin etmishdi noib.

O'lkalar shay erdilar farmoniga,
Kamar boylashib ahdu paymoniga.

Shohning tashrifini keldilar qullab,
Qaytdilar yurtlarga uni ulug'lab.

Har biri yurtida erdi hukmron,
Sarkashlik etganga bermasdi omon.

6830 Barcha sohib edi ixtiyor, erkka,
Har kimsa boshini tutardi tikka.

Sikandar nomi-la ichilardi jom,
Tilga olinmasdi undan o'zga nom.

Shoh taxtga o'ltirib, bosh bo'lib elga,
Saodat kalitin olmishdi qo'lga.

Chun ilmu donishdin durdona sochdi,
Ilohiy hikmatlar eshigin ochdi.

Farmon yetib payg'ambarlikka keyin,
Ul amru farmondin burmadi bo'yin.

6835 Yana safarga ul o'zni shayladi,
Jahongashtalikni shior ayladi.

Ikki navbat kezdi jahonni tutash,
Biri shahru kishvar, biri tog'u dasht.

Obod joylarni ul birinchi payti
Birin-birin ko'rib, so'ng Rumga qaytdi.

Ikkinchi bor yo'lsiz yo'l yurib necha,
Bayrog'in ko'tardi oy, quyoshgacha...

Men bu bazmgohni aytib tugatdim,
O'zga bir bazmgoh orasta etdim.

6840 So'z bazmini tuzib, etarkan ado,
Musaffo fikrlar etdim unga jo.

Necha durdonalar boyladim unga,
Necha matla' payvast ayladim unga.

Bir ipga marjunday tizilarkan dur,
O'shal rishta ajab dur marjon bo'lur.

Har doston bir go'zal, paykarim mening,
Pandu hikmat to'la daftarim mening.

Ul jumla soqiylar, roviylarni-chi,
Har yerga o'tqizib, ayladim soqchi.

6845 O'ltirdilar ul pari posbon bo'lib,
Ganji gavharimga nigohbon bo'lib.

Kim ko'rmish munchalar naqshu nigorni?
Kim chekmish munchalar rang uforni?

Ipakdin tor etdim uning soziga,
Ki Zuhro rashk aylar xush ovoziga.

Qaydakim uydirma ko'rsam, har safar
Unga haqiqatni ayladim zavar.

So'zki ul haqiqat sari boshlamas,
Gar oyga yetsa ham olchoq erur, past.

6850 Qaydakim ul qadim ustoz kalom
So'z aytgan bo'lsalar g'alat, notamom.

Bartaraf ayladim ul sahf qusur,
Keyin ustozdanam so'radim uzr.¹⁸⁷

Bu bino yarmini bitirdim endi,
Go'yo yarim dun ilkinga kirdi.

Boshqa yarmini ham, mayl etsa davron,
Ta'bim gullaridin bezatgum chunon.

¹⁸⁷ Bu erda yana shoir Abulqosim Firdavsiy nazarda tutilmoqda.

O'qigan kimsani hushyor etar ul,
Suvda baliqlarni o'ynata olur.

6855 Zamona umrimga gar bersa omon,
Andoq bir andisha etarmen gumon,

Ki bu rumiyona yasalgan bog'da,
Qizil gul o'stirib sariq tuproqda,

Bir ganj yaratarmen yana, bori nur,
Firuzasi firuz, durdonasi dur.

Har bog'din bir chechak keltirib, nihol,
Har guldin bir gulob oqizgum, zilol.

Gar Shohim iqboli madad qilgusi,
So'zim ko'ngillarga ma'qul bo'lgusi.

Nusratuddin Atobek vasfida Soqiynoma

6860 Ketur, soqiy, sevintir joming tutib,
Ichay Shohimni yod etib, yer o'pib.

Maqomim yetkazib To Parvin qadar,
Shohim yodi-la sipqoray jomi zar.

Madh

Zamon fotihi Shohi olampanoh,
Faridunkamar, balki hoqonkuloh.

Malik Nusratuddinki, ahli jahon
May ichurlar unga sog'lik istabon.

Baski dinu donishda ul sarafroz,
Hama dinu donish elga qaytdi boz.

6865 Falakdir ul, sochar nuri axtarin,
Ummondir ul, berar tojga gavharin.

Uch dengizdek yuvdi, shu dunyoyi xok
Ul solisi salosadin bo'ldi pok.¹⁸⁸

Sayyorayi Mushtariydir, sarbaland,
Nazar solsa, bo'lur barcha bahramand.

To'rtligu uchlik aro gavharfishon,
To'rtlikda o'ltirar uchlik aylabon.

Jahon uning baxti ila baxtiyor,
Jahon Shohlaridin o'zi yodgor.

6870 Yulduzki, charx urar, samovotga zeb,
Eshigini qoqar, qulingdirman deb.

Ul bois yuz ochib jahon iqboli,
Ilmga to'ldi, g'amdin bo'ldi xoli.

Bazmda quyoshdir, taratguvchi nur,
Maydonda jahonso'z ajdaho erur.

¹⁸⁸ Uch dengiz – osmon, erdagi ummon va havo okeani. Solisi salosa – muqaddas uchlik, nasroniylar e'tiqodicha Xudo uchlikdan iborat: ota, o'g'il va ruhil-quda.

Yurar bo'lsa, suv kabi aylar shitob,
Ko'ziga nur olur andin oftob.

Shamshir urar bo'lsa, zarbasi tutash,
Toshdin suv chiqarur, ortidin otash.

6875 Kamondin o'q uzsa, arslon kuchidir,
Osmonni zaminga ag'darguchidir.

Farangi Falastinu ruhboni Rum
Farmoni muhriga musallamdir, mum.

Ko'rdim, taxti uzra quyoshga monand,
O'lirar baxtidin masrur, sarbaland.

Nisorim yo'q edi loyiq boriga,
Ki to'ksam uning taxti shahvoriga.

Ammo obi hayoti iskandariy
Zilolidek topdim ganji gavhariy.

6880 Anga sayqal berib, pardozi ayladim,
Shohimga tuhfayi e'zoz ayladim.

Topirdim, uzuk erdi gavharga ul,
Iskandardin edi Iskandarga ul.

Boqiy bo'lsin Shohimga iqbolu baxt,
Ilkida bardavom bo'lsin toju taxt.

Bulbulki kelmishdir gulistoniga,
Qutlug' nafas bo'lsin uning joniga!

Ajab tojdorsen, falak toji ham
Taxtingni boshiga ko'tarar har dam.

6885 Baxti uygʻoq Shohsan ushbu jahonda,
Sazovori taxtsan davru zamonda.

Bormi bu dunyoda birorta inson
Ki Shohga yuborgay loyiq armugʻon?

Bir sopol koʻzadin oqib qatra suv,
Daryoga tomarkan, koʻringaymi u?

Toshdin sizib chiqqan chashma tomchisi,
Tomchidir, daryoga qachon yetgusi?

Nizomiykim senga qulluq ayladi,
Soʻz aytib, nomingga uni boyladi.

6890 Va taxting poyiga keltirdi shu on,
Chumoli bergandek Sulaymonga don.

Xubdir tovus rangi, pardozi uning,
Xunukdir mushukdek ovozi uning.

Lekin mitti bulbul chekarkan navo,
Qushlar pastga unar tark etib havo.

Men oʻsha bulbulman, bogʻi Iramdin,
Bogʻingda bir nafas olmoqchiman tin.

Bir navo yangratay ayyomingda ul,
Ki qolgay yillar osha nomingda ul.

6895 Men nomingga bitdim ushbu nomani,
Ki zarrin aylasin naqshing xomani.¹⁸⁹

¹⁸⁹ Taʼrif berilmagan.

Zarri pilvor sendin hech maqsud emas,
Ki piling ham ul pili Mahmud emas.

Kimsaga nogahon ne'mati berursen,
Xazina berursen, xil'at berursen.

Nomadin murodim sarvat ersa ul,
Umrim gavhar yo'nib kechardi butkul.

Hamonoki ishqim bu ishga tushdi,
Jonim ishq o'tida yonishga tushdi.

6900 Menga so'z aytishni buyurdi Xudoy,
Senga berdi Shohligu farhangu roy.

Yana-da yuksakka yo'llasin taqdir,
Olampanoh bo'lginu ofoqgir.

Madadkoring bo'lsin sipehri baland,
Xalqingni quvontir zafarlar bilan.

Jahonda nasibang omoda bo'lsin.
Iqboling bundanam ziyoda bo'lsin!

Farzandga nasihat Soqiynoma

Ketur, soqiy, menga ul eski xumdan,
Olamda yaxshiroq ne emish undan?

6905 Simirsin tashna jonim, xush bo'lsin ul,
Menga sharbat, Shohimga no'sh bo'lsin ul.

Pandu hikmat

O'g'lim, xiramandu hushyor bo'l yana,
Hoyu havaslarga umring sarflama.

Ko'rgilki, avvalda sochgan edik don,
Ko'tardik oqibat qanchalar xirmon.

Tiksang, faqat balandda tikla bayroq,
Hushyor bo'lib tiksang, yana yaxshiroq.

Suyanchiq mendin o'zga yo'q men uchun,
Loaqal men borman, axir, sen uchun.

6910 Esla yetti yoshda o'yinlaringni,
Xayol ko'zglasida ko'rarmen uni.

Senga necha nasihatlar etganim,
Gavhardek bag'rimda asrab, tutganim.

O'n to'rt yoshga to'lib, bo'lding o'spirin,
O'n to'rt kunlik oydek kasb etding husn.

Yana senga izhori pand ayladim,
Sarvdek boshingni baland ayladim.

O'n yetti xislatga erishgach tayin,
Kishi o'n yettiga kiradi keyin.

6915 Har maqomki senga shoista erdi,
Xabar berdim, nechuk boista erdi.¹⁹⁰

¹⁹⁰ Boista – lozim' zarur.

Butoqlar havoga otdilar quloch,
Bo'y cho'zib ko'rindi yam-yashil og'och.

Senga yarashmas endi hoyu havo,
Mushkulingni oson aylasin Xudo!

Qo'lingda bebaho to'rt kitobing bor,
Har biri otangdin aziz yodgor.

To'rt birodaring bor, beshinchi o'zing,
To'rt ustun ustuvor, beshinchi o'zing.

6920 Nizoyu nifoqdin, bolam, yiroq tur,
To'rt dasturni o'zingga ayla dastur.

Kalit izlar esang nogoh bir kuni,
Shu noma nomidin toparsen uni.

Yarim nomani chun yozib bitirdim.
Bolishi ustiga taxtimni qurdim.

Yaratdim yodgorim sen uchun deb xos,
O'qib, tashvishlardin o'zni et xalos.

Ne ersa Shohligu nabiylik, bari
Shu yodgor ichradir so'zi, tasviri.

6925 Agar ul paradaga topa olsang yo'l,
Yuksak bir maqoming muyassar bo'lur.

Qayga qadam qo'ysang hamisha, har vaqt,
Mendin duo bo'lsin, baxtingdin madad.

Jahon vujudingdin bo'lib farxunda,
Nizomiy vujudi yashasin senda!..

(Shayx Nizomiy Ganjaviyning "Sharafnoma" asari tugadi)

II

IQBOLNOMA

“EMAS OSON BU MAYDON ICHRA TURMOQ, NIZOMIY PANJASIG‘A PANJA URMOQ...”

Milliy adabiyotlarning taraqqiyoti ma‘lum bir tadqiqot ob‘ekti sifatida ko‘zdan kechirilganda, kelib chiqish e‘tibori bilan bir-biriga yaqin, qardosh xalqlar o‘rtasida o‘zaro adabiy ta‘sir va aloqa muammolarining juda teran tarixiy ildizlarga molik ekanligi ayon bo‘ladi. Ozarbayjon xalqining turli xalqlar bilan adabiy aloqalar tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi.

Asrlar mobaynida davom etib kelgan urf-odat va an‘analari, adabiyoti, falsafasi, me‘morchiligi, musiqasi, san‘ati, madaniyati, tarixi va tili jihatidan ozarbayjonliklar o‘zbek xalqiga juda yaqindir. Ushbu xalqlarning bir-biriga yaqinlashtirgan umumiy va o‘xshash jihatlari ularning tili, adabiyoti, madaniyatida hamisha ko‘zga tashlanib turadi.

Nizomiy ijodi va adabiy ta‘siri masalasi bu fikrimizning isbotidir. Sharqshunos olim E.E.Bertels ta‘kidlaganidek, “Biz faqat Nizomiyga taqlid qilgan ijodkorlarning nomlarinigina sanasak ham, unda Yaqin Sharq xalqlarining butun tarixini sharh etishga to‘g‘ri keladi”¹⁹¹. Chindan ham Nizomiy ijodi uzoq vaqt o‘rta asr Sharq adabiyoti uchun namuna maktabi bo‘lib keldi.

Nizomiyning badiiy merosi bilan tanish bo‘lgan xalqlar orasida o‘zbek xalqining faxr etmoqqa haqqi bor. Chunki xalqimiz ilk dafa Qutbning tarjimai orqali Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostoni bilan tanish bo‘lgan. Bu esa o‘rta asrlardayoq xalqlarimizning madaniy hayoti uchun alohida bir hodisa edi. Qutb Xorazmiy Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostonining umumiy mazmuniga xalal etkazmasdan bir qator o‘zgartishlar kiritdi va 1342 yilda “Xusrav va Shirin”ning dastlabki o‘zbekcha vari-

¹⁹¹ Y.E.Bertels. Böyük Azərbaycan şairi Nizami: – Bakt, SSRİ EA Azərbaycan filialının nəşri, 1940, səh. 144.

antini yaratdi. U ushbu asarga o'zbek xalqining hayoti va turmush tarzi, urf-odat va an'analarini aks ettiruvchi lavhalar ilova qilgan edi. Nizomiyni hurmat va muhabbat bilan esga olgan Qutb asar muqaddimasida shunday yozadi: "Men Nizomiy kabi so'zlarni ipga tizdim, bu tarjimani qozon kabi qaynab nihoyasiga yetkazdim. Nizomiyning bolidan halvo pishirdim"¹⁹².

XIV asrning oxirlari va XV asrning boshlarida o'zbek shoirlaridan Haydar Xorazmiy Nizomiyning "Maxzanul-asror" asarini o'zbek tiliga tarjima etarkan, unga ijodiy yondashib, original bir asar yaratdi. O'zbek adabiyotshunoslari ushbu asarning 1409 – 1414 yillar oralig'ida tarjima qilinganini taxmin etganlar. Haydar Xorazmiy asar tarjimasiga mas'uliyat bilan yondashganini qayd etarkan, uning mazmuniga maftun bo'lib qolganini ta'kidlaydi. U asarning "Musannifning vasfil-holi" bobida bunday deb yozadi: "Men shayx Nizomiyning bolidan ushbu totli taomni tayyorladim. O'zimni uning yonida his etdim. Uning nafasi bilan nafas oldim, yuragi bilan his etdim, undan nur va ko'mak o'tindim, o'z xalqimga bilik bermak, la'l-javohirot sochmak uchun qo'llarimni ochdim"¹⁹³

Ozarbayjon – o'zbek adabiy aloqalari tarixida Nizomiy Ganjaviy ijodi alohida o'rin egallaydi. Sharq adabiyotida uning asarlariga yozilgan yuzlab naziralar orasida Alisher Navoiyning asarlari o'z originalligi bilan ajralib turadi. U Nizomiyning adabiy ta'sirida yuksalgan va shuhrat topgan san'atkordir. Shuning uchun ham Nizomiy va Navoiyning ijodi alohida tadqiqotni talab etadigan mavzudir.

Navoiyning

Men ul. menki, to turk bedodidur,

¹⁹² Ўзбек адабиёти. Биринчи том. ЎзССР Давлат бадний адабиёт нашриёти. Тошкент, 1959, 118-бет.

Бу ҳақда қаранг: G'ulom Husayn Alievning "Ozarbayjon – o'zbek adabiy aloqalari (1920 – 1960)" мавзусидаги диссертация. 10-20 бетлар.

¹⁹³ Бу ҳақда қаранг: G'ulom Husayn Alievning "Ozarbayjon – o'zbek adabiy aloqalari (1920 – 1960)" мавзусидаги диссертация. 12-25 бетлар.

*Bu til bila to nazm bunyodidur,
Falak ko'rmadi men kabi nodire,
Nizomiy kabi nazm aro qodire.
Ne nazme der ersam meni dardnok
Ki, har harfi bo'lg'ay aning durri pok.
yetar tangridin oncha quvvat menga
Ki, bo'lmas bitirig'a fursat menga.
deganida ayni haqiqatni yozgan edi.*

Ma'lumki, Nizomiyning asarlari Sharq adabiyoti rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Navoiy butun ijodi davomida Nizomiy san'atidan ilhom olganini, unga buyuk hurmat bilan qaraganini bayon etgan.

Navoiy "Farhod va Shirin" asarining muqaddimasida Nizomiydan atroflicha bahs etadi, uning dahosini olqishlaydi, u bilan yonma-yon turmoq g'oyat sharafli bir ish ekanligini ta'kidlaydi:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasig'a panja urmoq.

Tutayki qildi o'z changini ranja,
Nekim urdi aning panjasig'a panja.

Kerak sher ollida ham sher jangi,
Agar sher o'lmasa, bori palangi.

Albatta, Navoiy buyuk sher edi. U o'z "Xamsa"si bilan Nizomiyga munosib javob bera oldi. Navoiy o'zidan ilgari yozilgan "Xamsa"lar haqida so'z yuritarkan, Nizomiyning "Xamsa"sinini juda yuksak baholab, "Nizomiyning "Xamsa"si o'z mundarijasi va ma'nosiga ko'ra shu qadar buyuk va salmoqdorki, uni o'lehamoq uchun lozim bo'ladigan tarozining har bir pallasi osmon qadar va har bir toshining og'irligi er kurrasi kabi" salmoqli ekanligini tushunamiz.

Navoiyning Nizomiyning "Maxzan ul-asror" asari ta'sirida "Hayrat ul-abror" va keyingi dostonlari ta'sirida "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin", "Sab'ai sayyor" va "Saddi Iskandariy" asarlarini yaratgan. Navoiy Nizomiy "Xamsa"sining qurilishi va janrini aynan saqlab qolgan bo'lsa-da, dostonlarni o'z davrining muhim ijtimoiy muammolari bilan omuxtalashtirib yuborgan. Uning "Hayrat ul-abror" dostoni Nizomiyning "Maxzan ul-asror" asari kabi 20 ta maqolotdan (suhbatdan) iborat. U ham Nizomiy singari o'z asarini aruz vaznining "sari" bahrida yozgan. "Maxzan ul-asror"da "Birinchi xilvatning samarasi", "Ikkinchi xilvat" va "Ikkinchi xilvatning samarasi" shaklida uch xilvat bo'lgani holda, "Hayrat ul-abror"da ham uch hayrat mavjud. "Hayrat ul-abror"ning g'oyaviy mazmuni ham "Maxzan ul-asror"ga yaqin turadi. Nizomiyning asarida tasvirlangan hodisalarda o'z davrining axloqiy me'yorlari o'z aksini topgan. Nizomiy insonlarni o'z sha'nini qadrlashga, zulmdan nafratlanishga, yaltoqlik va riyokorlikdan olis yurishga, shohlarni adolatga da'vat etadi. Nizomiy uchun insonlarning qaysi millatga mansubligining, qaysi dinga sig'inishining ahamiyati yo'q. Uning uchun inson qanday amallar sohibi ekanligi, jamiyat va odamiylik uchun qanday ish tutishi muhimdir. Inson adolatli, aqlli, saxovatli va marhamatli bo'lsagina, qaysi millatga mansubligidan qat'i nazar, u yaxshi odamdир, aksincha, zolim, xasis va nomard bo'lsa, u, garchi tug'ma qarindosh bo'lsa ham, yomon odamdир... Nizomiy inson mas'uliyatini. uning hayotdagi vazifasini shunday tayin etadi:

*Senki humo qushisan, sharaflı ish qil albat,
Oz e, oz so'zla, herma hyech kimsaga aziyat.*

(“Maxzanul asror”dan)

Navoiy asarlarida ham ushbu masalalar o'z aksini topgan. U o'zi yashab turgan davrning o'ziga xos xususiyatlarini san'atkorona teran aks ettiradi. Navoiy ham Nizomiy kabi adolatsiz shohlarni, zulmkor siyosatchilarni, riyokorlarni tanqid qiladi, insonlarni mehnatsevarlikka, bilim egallashga, saxovatli bo'lishga chaqiradi.

Nizomiy Iskandarning ijtimoiy kelib chiqishi, tarbiyasi, tahsili, hukmdorligi, yurishlari, shon-shuhratga erishuvidan bahs etarkan, uni bir shoh, olim va payg'ambar kabi tasvirlayli.

Navoiy esa Iskandar haqida yaratilgan og'zaki va yozma adabiy rivoyatlarni ko'zdan kechirib chiqib, uning harbiy sarkardalik mahoratini qalamga oladi. U, Nizomiydan farqli o'laroq, Iskandarni fantastik olamdan ajratib olib, uni "payg'ambarlikdan xalos etadi", diniy mohiyat kasb etadigan jihatlarini tashlab, "ideal" afsonaviy obrazni bir qadar hayotiy lashtirib, faqatgina shoh va olim sifatida taqdim etadi.

Zero, Nizomiydan, Amir Xusravdan 200 – 300 yil keyin yashagan Navoiy, albatta, yangi davrning g'oyaviy turmushi va tarixiy sharoiti san'atkor oldiga qo'yadigan yangi vazifalarni nazarga olmog'i lozim edi. Shuning uchun ham u "Saddi Iskandariy"da bu masalalarga katta o'rin ajratadi. Navoiy ushbu asarida o'zining ijtimoiy-siyosiy fikrlarini, falsafiy va axloqiy qarashlarini singdirib yuboradi. U davrning siyosiy arboblari oldiga muhim talablar qo'yib, Nizomiy singari ularni ham Iskandardan o'rnak olishga chaqiradi. Navoiy hukmdor bilan xalqning, hukmdor bilan saroyning, hukmdor bilan qo'shinning, hukmdor bilan faylasuflarning aloqasini "hokimiyatning zaruriy shartlari" deb hisoblarkan, barcha o'rta asr gumanistlari, shu jumladan o'z ustози Nizomiy bilan yakdil fikrga keladi.

Nizomiy "Xamsa"sining beshinchi dostoni "Iskandarnoma" bo'lib, u "Sharafnoma" va "Iqbolnoma" nomli ikki dostonidan iborat. "Sharafnoma"da shoir Iskandarning tug'ilishidan to No'shobani asirlikdan ozod etib, obi hayotni qidirob zulmatga kirishigacha bo'lgan voqyealarni tasvirlaydi. "Iqbolnoma"da esa Iskandarning turli soha olimlari bilan inson va koinot, obektiv borliq, ijtimoiy hayot, ilohiyot xususidagi savol-javoblari batafsil yoritilgan.¹⁹⁴

¹⁹⁴ Бу ҳақда қаранг: Ҳомиджон Ҳомидий Ганжаллик Даҳо. "Иқболнома"нинг Жонибек Субҳон гаржимасига сўзбоши.Т. "ART FLEX" нашриёти, 2009 й. 3-8-бетлар.

“Iqbolnoma” “Ollohga munojot”, “Payg’ambari akram, sallallohu alayhi vassallam vafida” qismlaridan so’ng “Dostonning yozilish sababi va yori do’stlar yodi” bobida hayot va o’lim, yoshlik va qarilik, vaqt va mehnat, so’zning qadri va so’z mashaqqatlari, fikr keskirliigi haqida falsafiy mushohalar yuritadi. Dostonning yozilishi tafsilotlari haqida ogoh etadi:

*...Bu yangi sahfga so'z kerak andoq,
Ki bo'lsin pokiza dur kabi porloq.
Fikr o'tkir bo'lsin, uchqur mukammal,
Keskir qilichni ham sindirsin o'shal...
Shoir osonlikcha she'rga yetishmas,
Har gal tosh bag'ridin gavhar olur, bas...*

“Iqbolnoma” ni o’qish asnosida kitobxon toshlar bag’ridan so’z va hikmat gavharlarini terishi mumkin.

Shoh Iskandarning turli soha olimlari bilan inson va koinot, ob’ektiv borliq, ijtimoiy hayot, ilohiyot xususidagi savol-javoblari batafsil yoritilgan. Iskandar yetti faylasuf: Balinos, Suqrot, Arastu, Falotun, Volisu Farfuriyus, Ruhulqudus va Hirmisi valiylar ila olamning yaratilishi va turli mavzularda majlislar tuzadi. Albatta, haqiqiy olim va faylasuflar davrasi ilm nuri ila charog’on bo’ladi. Ularning davrasini adib shunday ta’riflaydi:

*yetti pargor edi shoh tegrasida,
Ul esa muqtadek, eng o'rtasida.
Ajab davra edi, shu kuchli, porloq,
Kibrdan xoliyu hodadin yiroq...*

Shuningdek, adib dostonning “Har ishda me’yorga rioya qilish zarurati” bobida obrazli tashbehdan foydalanganiki, Jamol Kamol tarjimasida ham bu nihoyatda o’miga tushgan:

*Yiroq bo'lsa aqlu donishdan saho,
Teshik tog'oradek chiqarar sado.
Kishi gar me'yorga amal etgusi,
Hisobda sanog'i mingga yetgusi...*

E'tiboringizga havola etilayotgan "Iqbolnoma" Shayx Nizomiy Ganjaviy "Xamsa"sining beshinchi dostoni bo'lmish "Iskandarnoma"ning ikkinchi kitobi, shoir ijodining durdonasidir.

"Iqbolnoma"da Jahongirning ulug' faylasuflar ila suhbatlari, payg'ambarlik maqomiga yetib, g'arbu sharq, janubu shimol mintaqalariga sayohatlari va kutilmaganda vafot etgani qalamga olinib, Nizomiy shular vositasida o'zining umr xulosalarini bayon etadi, hayot va mamot, aql va iymon, jamiyat va adolat kabi umumbashariy masalalar ustida muhokama, mus-hohada yuritadi.

Hikoyatu rivoyatlar zanjirdek tizib tashlangan bu kitob – noyob hikmatlar xazinasini, buyuk pandnomadir.

Bundan bir yarim yil oldin Toshkentda faoliyat ko'rsatayotgan Haydar Aliev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazi rahbari Samir Abbasov bilan shoir – tarjimon Jamol Kamol o'rtasida Nizomiy Ganjaviy "Xamsa"sini o'zbek tiliga o'girish hususida shartnoma imzolangan edi. Buning natijasi o'laroq, bultur "Maxzanul asror", bu yil "Layli va Majnun" dostonlari chop etildi. "Iqbolnoma" nashrga tayyor. "Sharafnoma" tarjima etilmoqda. Oldinda o'zbekcha jaranglashini kutayotgan "Xusrav va Shirin", "yetti go'zal" dostonlari...

Nizomiy "Xamsa"sining o'zbek tiliga tarjima etilayotgani Ozarbayjon adabiy jamoatchiligini behad quvontirdi. Haydar Aliev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazi va Ozarbayjon milliy majlisi Fan, ta'lim, iadaniyat va adabiyot qo'mitasining tashabbusi bilan tashkil etilgan "Ozarbayjon - o'zbek adabiy aloqalari" loyihasini amalga oshirish uchun shoirmi Bakuga, ijodiy safarga taklif etishdi. Jahon adabiyotining buyuk durdonasi sanalmish, Nizomiy qalamiga mansub "Xamsa"ning o'zbek tiliga o'girilishi Respublikamiz madaniy hayotida katta voqyea bo'lis-

hi shubhasiz. Qardosh Ozarbayjon diyorida o'zbek shoiriga ko'rsatilgan sevgi, ehtiromda ham ana shu shukuh yarqirab ko'zga tashlandi. Men ana shu mashaqqatli, ammo sharatli yo'lda shoir – tarjimonga mustahkam sog'lik, kuch – g'ayrat tilayman. Nizomiyning qutlug' ruhi madadkor bo'lib, "Xamsa" tarjimasi nihoyasiga yetsin! Xalqlarimiz o'rtasidagi azaliy qar-doshlik, do'stlik-birodarligimiz gullab yashnayversin!

Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, professor

Debocha

Yaratgan Rahmonu Rahim nomi ila

Aqlu xirad qayda ganj etsa padid¹⁹⁵
Uni Xudo nomi-la aylar kalit.

Xudoyi xiradbaxsh u oqilnavoz
Xiradsizlarga ham o'zi chorasoz.

Tili tugiklarni u go'yo qilur,
Notavon jonlarni tavono qilur.

Nihon-oshkoro, ichu tashda chun
Aqlga u rahbar erur, rahnamun.

5 Shu olam qasrini shaylagan o'sha,
Shiftini muzayyan aylagan o'sha.

Gar aqlga bilmoq uni noguzir,
Buyukligi, donoligi dilpazir.

Hukmi oshkoro, hikmati nihon,
Ta'rifini etmoqqa til notavon.

Bandasi toatin tamanno etar,
Tirik ham, o'lik ham tavallo etar.

Har neki bor ersa, borliq jumlası
Uning ipga tizgan gavhar donasi.

¹⁹⁵Padid etmak – oshkor, ayon aylamak.

10

Vujudi yakkadir, ikkilikdin pok,
Na obu otashdir, na havo, na xok.

Yaratmish yetti qat tilsimni butkul,
Ofarin Ungakim, yaratguvchi Ul!

Agarchi mavjudot muhtoji uning,
Yo'qdir kimsaga ehtiyoji uning.

Vale yetishmoqqa Unga roh emas,
Xiradmand bu shevadin ogoh emas.

Makonin ko'kda deb bilsang mabodo,
Uning ta'zimida yer qolur tanho.

15

Makonin yerda deb xayol aylasang,
Samo ahliga ul bo'lurmi pisand?

Zoti sifotidin so'ylagan zamon,
Pastu balandda deb aylama gumon.

Qudratin aytihga so'zu suxan yo'q,
Qudrati oldida pastu baland yo'q.

Har ne pastu baland bor esa tayin,
Uning farmoniga egishar bo'yin.

Biriga falakdin berur borgoh,
Biriga zaminda tayin etur Shoh.

20

Birining ko'ngliga yoqarkan chiroq,
Birining ko'ksiga chekar dardu dog'.

Har necha ziyod ham oldida andak,
Buyuklik, kichiklik nazdida birdak.

Nazdida tog' nima, ne emishdir xas,
Anrida tiriklik, o'lim har nafas.

Tuproqqa tilni kim baxsh eta olur?
Kim suv uzra chizib, naqsh eta olur?

Tuproqdin odamni yaratdi qandoq,
Suv uzra suratni kim solar mundoq?

25 U – qorong'u yo'lni etguvchi ravshan,
Yopiq eshiklarni lang ochguvchi ham.

Mavjud har narsaga o'zidir hokim,
Harakatdamidir u narsa, sokin.

U bois tanumand jumla koinot¹⁹⁶
Tirik mavjudotga U bermish hayot.

Butun borliq Undan nom olmish tamom,
U tugal, boshqalar esa notamom...

Munojot

Xudoyo, bandaga o'zing dastgir,
Bandasi Xudosiz qayga ham borur?

30 Ey borni yaratgan, bo'lguvchini ham,
Shu tuproqzodaga O'zing et karam!

Mehnat, mashaq qatimni oz aylagil,
Meni tashvishlardin xalos aylagil.

¹⁹⁶Tanumand – qudratli. azamat.

Har ne murodimdin o'zingsen murod,
Hamisha kutgaymen o'zingdin murod.

Ko'ngilki, safosi har lahza Sendin.
Vahmi yo'qdir uning charxu nujumdin.

Sen borsen, u charxu nujumdin ne bok,
Osmon ham zamindek huzuringda xok.

35 Jahonni yaratding chu xurram sirisht,
Nega yana havola etding bihisht?

Bundan-da yaxshi roq bo'lurmi manzar,
Yaxshiroq dedingki, yaxshidir o'shal.

O'shal ravzani aylagil joyimiz,
Yomonlikdin arit fikru ro'yimiz.

Bir chora bilmasmen, bilmagay bir kas,
Etgil choramizni, sen bilursen, bas.

Har kimsada umid o'zingdin, Xo'jam,
Qorong'ulikda ham, yorug'likda ham.

40 Bog'ingdin bir meva uzgali shu on
Tazarru aylagay eshikda inson.

Yo'q menda jasorat, yo'qdir majolim,
Uni ber, buni ber deyishga holim.

Agarchi kimsadin so'rarmen madad,
Sening berganingni olurmen faqat.

Mustag'niysen, har neki rohingdadir,
Niyozmandlik hama dargohingdadir.

Farishtamni devmardum aylama,
Charrishtamni yo'linda gum aylama.

45

Oshnolik eshigin ochding qarshima,
Begonalik kulin sochma boshima.

Ko'zimni nuringga to'ldir, Huvvu Hay,
To begona ko'zdin ziyon yetmagay.

Parvonayi nuri charog'ing o'zim,
Oshufta qush, bulbuli bog'ing o'zim.

Men sari kichik deb boqmagil zinhor,
Buyuk etgil, Xo'jam, buyukliging bor!

Zarramen, ko'zlarga ko'rinmasman hech,
Va lekin tal'ating bag'ishlaydi kuch.

50

Sening himmating-la padid o'lmisham¹⁹⁷
Ganjlar eshigiga kalit o'lmisham.

Eski hikoyatni yakun ayladim,
Yangi hikoyatga ko'ngil boyladim.

Avvalda qadamim qo'llading O'zing,
Oxirda qadamim yo'llagil O'zing.

Shu qaro tuproqqa bergil safolik,
Ko'ray yo'llarimda men ro'shnolik.

Tangu tor dunyodin kechib bebadal,
Rizoliging tilab yo'l bosay jadal.

¹⁹⁷Padid o'lmisham – paydo bo'ldim.

Ishim barorini bergil dam sayin,
Shukronamdin o'zing xushnud bo'l keyin.

To xushnudlik ila bosh urib senga,
Etay men itoat Payg'ambaringam...

**Payg'ambari akram,
sallallohu alayhi vassalam vasfida**

Muhammad etmayin da'vo taxtu toj,
Shamshir ila oldi shohlardın xiroj.

Yanglish aytdim, sohibi baxt erdi Ul,
Sohibi toj, sohibi taxt erdi Ul.

Tani – mahrami taxti aflok edi,
Boshi – sohibi toji lavlok edi.

Farishta siyrat edi, ezidshunos,
Har nechakim shukronasin etsa, oz.

Bihishti xurramga bizni yo'lladi,
Do'zax azobidin xalos ayladi.

Damidın yorishib jumla koinot,
O'zi u zulmat ichra obi hayot.

Ko'k toqidin oshib o'tmasa unda,
Kim parda ochardi ro'yi zaminda?

Ruhoniyat otin yeldirgan o'sha,
Bizga Arshdin sovg'a keltirgan o'sha.

65 Tuproqdir boshimiz ko'yida uning.
Arzinas boshida mo'yiga uning.

Bizdan javr chekdi, rohat etib baxsh,
Kechalar charog' u kunduzi Quyosh.

Siniq ko'ngillarga shifo ul faqat.
Gunohimiz aylaguvchi shafolat.

Jumla sarvarlarning sarvari erdi,
Barcha payg'ambarlar afzali erdi.

Jannatdin tuproqqa quvildi Odam,
U qo'ydi tuproqdin jannatga qadam.

70 Yusuf oydek to'lib Shohdin chiqdi gar,
U kelib, oyni ham etdi munavvar.

Xizr kechgan esa obi hayvondin,
Muhammad kecholdi chashmayi jondin.

Agar nahang baliq Yunusni yutmish,
Unga nahang, ilon sajdalar etmish.

Dovuddin qolmishdir bir sovut yodgor,
Muhammad yodgori yuz sovutcha bor.

Gar Sulaymon taxtin ko'tarmishdi yel,
Boshiga ko'tardi Muhammadni el.

75 Agar Muso torami Turdin edi¹⁹⁸,
Muhammadning chodiri nurdin edi.

¹⁹⁸Topam – shiypon.

Gar Iso beshigi uchmishdi tikka,
Muhammadning o'zi yuksaldi ko'kka.

Dunyoyoda har necha charog' ersa ul.
Ey Nabiy, nuringdin munavvar erur.

Ajab chashmadirsan, suvi toza, pok,
Yuvildi u suvdin tamom ro'yi xok.

Zamin xok edi, bo'yi tibi o'zing,
Jahon dardman edi, tabibi o'zing.

80 Tabibsanki, qo'lingda tashxis-bayon,
Hukmi Xudo erur ul dori-darmon.

Zamin ahli ko'z nurisen, xandasi,
Samo ahli joni, navozandasi.

Sururi suxan sikkayi noming ul,
Baqoyi abad jur'ayi joming ul.

Jomingdin bir yutum ichar bo'lsa mard,
Umrbod ko'rmas ul alam. dog'u dard.

Bir yutum menga ham nasib aylagil,
Shifoying jonga, ey tabib, aylagil...

**Dostonning yozilish sababi va
yoru do'stlar yodi**

85 Gardishi davronki tinmay aylanur,
Har gal yangi ustoz talab etar ul.

Eski ohanglarni istisno etar,
Yangi ohanglarni tamanno etar.

Qo'g'irchoqboz kabi aylab kirdikor,
Chiqarur pardadin yangi bir nigor.

Bir muddat ul paykar-la afsun qilur,
Xaloyiqni o'ziga maftun qilur.

Ul paykar keksayib, singan zamoni,
Qo'liga olgay ul yangi siymoni.

90 Xuddi shundoq so'z sohiblari yalang,
Eski ziynatlarga berar yangi rang.

Yangi zamon yetib, ul sohib qalam
O'zga bir chinorni o'stirar baland.

Gavhari qolarkan nur, tovlanishdan,
O'zga bir gavharni chiqarar toshdan.

Bizning sanamni ham har paykarshunos
Yangi parivashga aylagay qiyos.

Toza bo'lmasaydi tarovatda ul,
Yangi so'z deyishim bo'lardi mushkil.

95

Uchqur tulpor edim bir zamon men ham,
Mehnat-mashaqqatlar quritdi sillam.

Ganj yo'q ki, yo'qsa unda toshim mening,
Darig'o, qayda yashnoq yoshim mening.

Yoshlik – uchqur bedov, uchar havasda,
Qarilik – qari ot, horg'indir, xasta.

Ko'rada oyina etilsa ravshan,
Sinsa, sinig'idin yasalur javshan

Ko'ngilki, so'z san'atiga yor erur,
Turfa navolarni kuylaguvchi ul.

100

Ilgari men tushib, so'z ummonidin
Injular terardim yurak qonidin.

Bulbulim bor edi ko'ngilda pinhon,
Menga sirli so'zlar so'ylardi har on.

Bugun bulbulginam jim qoldi, xomush,
Sirli so'zlarini etdi faromush.

Meni tinglaguvchi, anglaguvchi ham
Qolmadi dunyoda, bo'ldilar adam.

Ul shoh arslonki tuproqqa kirdi,
So'zimni men kimga so'ylayin endi?

105

Agar shoh davlati etsaydi yorlik,
Etardi yana bir toza guftorlik.

Bo'lib holim dunyo zahmatidin tang,
Tanimdin kuch ketdi, yuzlarimdin rang.

Fikri andishalar tegranni oldi,
Tun yetib, ko'zindin uyqu yo'qoldi.

Kecham ko'nglim kabi nursiz, zimziyo,
Yo'lim qil singari ingichkadir, oh!

Tun aro yo'l bosib yurgaymen nechuk?
Yo'lim da Shoh ersa, ko'rgaymen nechuk?

110 Falak dunyo uzra base chekdi nil,
Posboning boshiga oyoq bosdi pil.

Falakda bir ohu zuhur etdi chun,
Shu zamin ustiga yog'dirdi mushkin.

Na sham parvonadin emishdi ayro,
Na parvona nurga etardi parvo.

Tun aro boshimga tutashib dardim,
Oq qog'oz betiga qaro chekardim.

G'avvosdek dengizga botar edim men,
Dur terib, qay birin otar edim men.

115 Tunning fursatidin o'tib birmuncha,
Hali oppoq tongda bor edi ancha.

Falak yo'l bosardi ohista, mudroq,
Saharhez xo'rozlar erdilar uxloq.

Tunning nafasini chekib har nafas,
Men unda to'qirdim yetti rang atlas.

Lojuvard ul xundin Masiho tariyq,
Goh moviy olardim, gohida sariq.

Boshimda bir madadkorim bor edi,
Valine'matim ul zamon yor edi.

120 Imodi Xo'yi xojayi arjmand
Tufayli qomatim edi sarbaland.

Jahonga teng edi unda saxovat,
Ki unga bermishdi dur ila ziynat.

Bu ko'hna dunyoda ko'rmadim andoq
Kishikim o'zi hani, so'zi ham porloq.

Mushtariyni ko'rib unda, alqissa,
Utorud olardi muhriga nusxa.

Toleim pastligi tufayli jahon
O'shal jannatimni ayladi pinhon.

125 Toleim tugunli, payopay g'anim,
Na bir munisim bor, na bir hamdamim.

Necha chaqaloqni yo'rgaklar momo,
Necha meva berar bir daraxt xurno'?

Men tun aro uyg'oq, tark etib rohat,
Suzardim, dengizim moviy, lojuvard.

Kecha kecha emas, Shohdir hoynahoy,
G'arq bo'lmish qa'riga Quyosh bilan Oy.

Kecha zulmatiga yo'qdi nihoya,
Nurga to'hmat etib turardi soya.

130 Shohning davlatidin qo'limda kamand,
Go'zal ohulami ovlar edim man.

To'rimni daryoga solib har daf'a,
Baliqlar ovlardim men turfa-turfa.

Shohning toleiga boylabon rasad,
So'z boshladim andoq xayrli fursat.

Keyin uni Shohga peshkash aylagum,
Tasvirini chinu habash aylagum.

Manzilga yetkazdim safar anjomim,
Garov aylab anga subh ila shomim.

135 O'sha vahshatobod, mashaqqat tuni
Shoh davlati tutdi qo'limdin meni.

Guhar izlardi tesha, konga yetdi,
Ko'ngil dardu g'ami poyonga yetdi.

Zarrin chodirini ko'tardi oftob,
Tog' u toshlar uzra tashladi tanob.

Mashaqqat ortidin o'shal tun aro
Bazm tuzdim o'zimga gulgun safo.

Bir go'sha tanladim, ko'ngil matlabi,
Taxt yasatdim unda sultonlar kabi.

140 Bisot tartibin yangi nav ayladim,
Fikru andishani peshrav ayladim.

Mayu nuqlu rayhon menga hamnafas,
Zabonu zamirim suxan erdi, bas.

May boshimni sarxush aylagan zamon,
So'zim saxovatga tutashdi hamon.

Bulut gurros solib boshimda baland,
Yog'dirdi gavharin saxovat bilan.

Dilim otash -u toleim sher edi,
Tilim shunda misoli shamshir edi.

145 Jasorat botirga yarashgay juda,
Olov oldida ham, arslon oldida.

Bir ildizdin kelur olov, arslon,
Domu daddin ne ersa, bermas omon.

Toleim yor bo'lib, ko'kdin bu safar
Zuhro soz tushirdi, Mushtariy daftar.

So'zdin zebu zavar sochgaymen yana,
Hikmatlar eshigin ochgaymen yana.

Gavharim jahonga aylagum nisor,
Ki unga shoh kabi xaridorim bor.

150 Kon izladim ko'ngil baland-pastidin,
Ganj-xazina topdim tuproq ostidin.

Uzoqqa bormagay uydirma, yolg'on,
Oltin ne, olov ne, bo'lgusi ayon.

Oq rangdin lojuvard yasab har dami.
Bitirdim naqd etib "Sharafnoma"ni.

Yana keldi ul nazmi chiniytaroz,
Qara, qaylargacha etar turktoz...

Nima ekkam edim, nimalar undi,
Siniq, shikastani tuzatgay endi.

155

Necha yillar kechdi, bir gavharparast,
Bu yanglig' gavharga urolmadi dast.

Gavharfurush keldi, ilkida gavhar,
Kim olgay deb anga xaridor izlar.

Shoh buyurdi: bunyod et bog'u chaman,
Sarv orasta ayla, yashnat yosuman.

Mayl etdi chun ul shohi ravshanzamir,
Bo'ldim uning amriga farmonpazir.

Sarv o'stirdim, o'ylaki sarvi chaman,
Boqib husniga may ichar anjuman.

160

Bu yangi safhaga so'z kerak andoq,
Ki bo'lsin pokiza dur kabi porloq.

Fikr o'tkir bo'lsin, uchqur, mukammal,
Keskir qilichni ham sindirsin o'shal.

Kimsaki aytgani quruq so'z durur,
Undaylarga she'r aytish oson erur.

Shoir osonlikcha she'rga yetishmas,
Har gal tosh bag'ridin gavhar olur, bas.

Tushdim shu xayollar ila taloshga,
Ko'nglimning otashi tutashdi boshga.

165

Andoqki boshimni chulg'adi tutun,
Tanimni ham chulg'ab oldi bus-butun.

Bu go'zal kelinni shaylashga faqat
Menga sabr bersin, podshoga toqat.

Sen so'zni ko'rgil, ne manzilga yetgay,
Men nelar deyman, ul qaylarga ketgay?

Bilmasmen, sehrlı so'zlarki, aniq,
Bobulchoq qa'ridin chiqar ne tariyyq?

Kim bermish Zuhroga chunon jodu, sir,
Chalg'usi Horutni aylamish asir?

So'zim sehri Etmish Zardushtni bandi,
Ki andin Zandning ham otashi so'ndi.

So'zim dur qatrasin daryoga eltsin,
Magar xurmo yig'ib, Basroga eltsin.

Bulutdurmen, serob bo'lib olti yoq,
Mening jigarimdin suv ichar ofoq.

Barcha maysa-giyoh suv ichar mendin,
Ko'katlar yashildir yomg'irlarimdin.

Ulki nurdan ko'rar soyadek ziyon,
O'zini bir chetga olar begumon.

175 Icharlar gar fayzim bulog'idin suv,
Men tufayli yo'qdir ko'zlarda uyqu.

Mening madadimdin surarlar xoma,
Mening so'zlarimdin bitarlar noma.

Men bu fayzga noil ayladim o'zni,
Ki boshqa chashmaga tikmagum ko'zni.

Xilvatda aritdim men po'latdin zang,
Dedim mino olsin base la'lirang.

Oyinani etdim chunon tobnok,
Yuzi pok bo'ldikim, o'zi bo'ldi pok.

180 Magar bilmasmisen, ey shirin nigor,
Netib rumiylardin olinur hisor?¹⁹⁹

Riyozat chekmayin yo'lda, ne tariyq
Ganju xazinaga toparsen kalit?

Masal bor azaldin insonlar aro,
Vayronadin tutun chiqmagay aslo.

Tunda uyquda gar alam, bedodlik,
Kunduzing xush kechar, yurakda shodlik.

Ne qo'rquvlar solar ruhingga tugun,
Sha'niga Shukrona aytasen bir kun.

185 Dunyo da'vo, dumoqqa ketdi to'lib,
Qo'rqaman maydonda qon to'karman deb.

Saratonda magar ko'p yog'sa yomg'ir,
Iqlim salqin tortib, havolar sovir.

Havo yomg'irlarga to'larkan shu tob,
Rutubatni yengib o'tolmas oftob.

Kuz kelgach, yaproqlar yotar sarg'ayib,
Ellar endi esma yoqimli, latif.

Namlilik, rutubatdin qo'zg'alur vabo,
Nafaslar bo'g'ilar, yetishmas havo.

¹⁹⁹Hisor – qal'a.

190

Shu onda dardingga davо bo' lur ul,
Gulxanda ud, sandal yoqilsa gur-gur.

Ud yoqarmen shohning bazmida men ham,
Negaki, boshqa ish kelmas qo'limdan.

Xudo bandalikka yaratmish meni,
Ado etolmasman bundan o'zgani.

Yaxshi -yomon kunda idrokli har kas,
Falakning amridin bo'yin tovlamas.

Murosa aylagan murodga yetar,
Bo'yin tovlaganni falak xor etar.

195

Jahon ko'tarmaydi bashar nozini,
Sozandalar kabi chalmas sozini.

Sozga ip taqqaning ko'rgani zamon,
Qo'l cho'zar toringni uzgali hamon.

Ikki xil qurt bordir, ishi, hunari
Suv ila olovdek tamom teskari.

Biri xirmon etsam deydi ipakni,
Biri qiyratadi, yeydi ipakni.

Ikki xil asal bor asalxonada,
Misolini ko'rsamu parvonada.

200

Biri asal tashar uyga har kuni,
Biri esa o'g'rincha yeydi uni.

Arikim uyiga asal keltirur,
Asalxo'rdin yuz bora afzal erur.

Ajal boshing uza kelmasdan burun,
Qirg'ovul singari qichqir jigarxun.

Ta'magir dunyodin ne tilarsen kom,
Goh kuydirar seni, gohi qo'yar xom.

Qiynasa, ko'ksingda dardlaring yoniq,
Magar qiynamasa, xomdirsan, sovuq.

205 Falak yetti boshli ajdaho, inon,
Panja urar bo'lsa, qutulmoq qayon?

Tosu g'alvir erur huzuringda rost,
Sen – bir g'alvir tuproq, falak – qonli tos.

Boshingga tosidin suv to'ksa ofoq,
Sen g'alvirdin sochgil ustiga tuproq.

Tuproq va suv bo'lgan joyda muqarrar,
Tos kerakdir, g'alvir-da lozim bo'lar.

Fusungar xumdir bu xumi nilgun,
Yuz turfa rang ila sehr aylar, fusun.

210 Bir jodugar xumga minib olsa gar,
Bir dema, bo'lur ul yuz ming jodugar.

Falak hisobiga uraverma dast,
Ki pasti balanddir, balandidir past.

Goh ostimiz, goho ustimizda ul,
Magar ostu ust deb atagan ma'qul.

Osmon-la talashmoq behuda, abas,
U bir kimsa ila hamohang emas.

Falak qo'g'irchoqboz, qara, tinmayin
Shu to'rt devor aro ko'rsatar o'yin.

215 Birovning boshini ko'tarar baland,
Keyin solar uning bo'yniga kamand.

Tulkidek qirmizi kuloh kiydirar,
Qora ko'ppaklarga so'ngra yedirar.

Shu yo'l to'rt ustida joylashib atay,
Moldek qorin solib yuramiz tokay?

To'rt bolish qayg'udın qutilgan zamon,
Dunyodan osuda bo'lurmiz tamom.²⁰⁰

Ikki eshiklidir bu ko'hna rabot,
Biri yerga, biri qabrga kushod.

220 Bu eshikdin kirib, chiqarlar undan,
Ketganlar hech biri qaytib kelmagan.

Badbaxtdir ul kimsa, qor kabi tushib,
So'ngra ul lahadda qolgay uvishib.

Baxtlidir jonini topshirgan kimsa,
Bir damda tug'ilib, bir damda o'lsa.

Ne yozuq insonga, nechuk matlabi,
Necha tunlar yonib, so'nsa sham kabi.

Kishi kim kemada sayrni istar,
Daryoda suzishni o'rgansin avval.

²⁰⁰To'rt bolish – to'rt unsur. Ya'ni tuproq, havo, suv va olov ma'nosida.

225

Ko'rmaysanmi, baliq dengizlar aro
Qoru yomg'irlarga aylamas parvo.

Sahroda yo'Ichiga ot kerak uchqur,
Yolg'iz yaroq ila qayga borar ul?

Jahon makru fandir, o'shal ko'rganing
Goh obro'ying to'kar, goh qonim mening.

Falak dardu dog'lar ila, vo darig',
Aylar rangimizni goh ko'k, goh sariq.

Bu yo'lda ko'p navolar chalgay kishi,
Magar pastu balandni bilgay kishi.

230

Yo'lda rahnamosiz yurmasman aslo,
Yo'l boshidadirman, qani rahnamo?

Magar hozir bo'lur boshimda ajal,
Dunyodin umidim uzganim mahal.

G'aflat sipoh tortib kelarkan ildam,
Boshimni bolishga qo'yarmen u dam.

Xayol badar bo'lib, uyqu qolur tek.
Hayotim ko'rinar bir afsonadek.

Bu qanot manzilga eltgaymikin, hay?
Bu oyoq eshikka yetgaymikin, hay?

235

Agar keksadirman, magar navqiron,
Bu chorsudin menga qutilmoq gumon.

Magar keksalikni solsam aroga.
Yos-yalanglar boqmasmen benavoga.

Agar navqironlik da'vo aylasam,
Meni uyaltirar egilgan jussam.

Yaxshisi keksami, yosimi, men ayab,
Muomala etay holiga qarab.

Men tugun yecharkan bu yo'lda, zinhor
Do'stu yoronlarga yetmagay ozor...

Har ishda me'yorga rioya qilish zarurati

240 Dengiz to'lqin uza to'lqin urib ul,
Sadafdin chiqarur toza-toza dur.

Bulut ko'k sahnida ko'zni yoshlagay,
Zamin oftobga soya tashlagay...

Yana davlat menga yetishdi bir bor,
Yana ko'ngil qushim bo'ldi so'zga yor.

Tunim o'tdi, ravshan kunduzim yetib.
Subhi sodiq keldi umidvor etib.

Saharlab yangidin uyg'ondi baxtim,
Ko'ngil shodligi-la so'z bo'ldi naqdim.

245 Magar davlat tutsa ilkingga kalit,
Qora toshdin gavhar chiqar, marvarid.

Ro'zgordir umringda barcha kunga nom,
Ul biri don esa, bul birisi dom.

Olam pargorini yuritguvchi Zot
So'z mulkini menga ayladi bisot.

Bir kun ketar bo'lsam shu jahondin zud,
Kimga qolgay unda bu kishvar, bu yurt?

Men shahar tiklasam, iqbol bo'lsa yor,
Kim bo'lur haharga sohib, Shahriyor?

250 Xirad deydiki, Shahriyor bo'lgusi,
Ulki, har diyorda baland obro'si.

Saxovat bobida ul yakto bo'lur,
Jahonbaxsh u odil, behamto bo'lur.

Chumoliga berur chumoli xosin,
Filga ehson etar filning g'izosin.

U hamkorlik etib, mastlik aylamas,
Qalam chekarda xomdastlik aylamas.

Filga qumursqa taomin bermagay,
Pashshaga Jabroil nomin bermagay.

255 Necha podsholarki, qator, bob-bob,
Me'yorni bilmasdan bo'ldilar xarob

Bosh-oyoq farqini bilmay o'tdilar,
Tojlarin mast-alast qo'yib ketdilar.

Buyuk ozroq olib, kichik oldi mo'l,
Buyuklar shu kuhin kamaytirdi bul.

Yiroq bo'lsa aqlu donishdin saxo,
Teshik tog'oradek chiqarur sado.

Kishi gar me'yorga amal etgusi,
Hisobda sanog'i mingga yetgusi.

260

Matoh tanlaganda shundoq tanlaki,
Tashigan hammolni ezmasin yuki.

Shahzodani ustun qo'ymagil shohdin,
Sheruya o'ldirdi Parvezni andin.

Arra solma kekxa daraxtni qiynab,
Toju taxtsiz qoldi Zahhok ul sabab.

Jahondor Quyoshdir, bulut har kuni,
Mc'yorida bersin olovni, suvni.

Dengizga yetganda socha olsin dur,
La'lu yoqut bersin tog'u toshga ul.

265

Har joyda aylasin himmatin baland,
Elni quvontirsin saxovat bilan.

Shu kurki, shohimiz dono ul qadar,
Ki har dam noz olib, navozish sotar.

Yuksak tog'din o'shal somon-cho'pgacha,
Qadrini bilar ul, qiymati necha.

Bilar har kimsada nechuk layoqat,
Layoqatin bilib, aylar saxovat.

Kamdir yuz karra ham tahsin o'qilsa,
Chunki teng bo'lolmas unga bir kimsa.

270

Mendin necha kimsa so'rdi nomani,
Lekin ado etdim nomiga ani.

Agarchi necha bir shohlarni ko'rdim,
Undan o'zgasini tortmadi ko'nglim.

Necha boshlar ko'rdim, aqlsiz, johil,
Begunoh boshlarni kesmishlar nuqul.

Eshikda da'voyu xona ship-shiydom,
Dasturxon yozig'liq, ko'rinmas taom.

Bari olib sotar, tujjor tabiat,
Zulukdek qon so'rib, etarlar rohat.

275 Bir shoda la'l ko'rdim vale, misli nur,
Dengiz aro durdek yarqirab turur.

Xaridori podsho esa, arjmand,
So'zinning bahosi bo'lmasmi baland?

Mahmud maqtovi

Eshitdim, shu yashil zamin ustida,
Bir oq xo'roz yasharmish arsh ostida.

U tongda qu-qulab qichqirgan asno,
Erdagi xo'rozlar berarmish sado.

O'sha arsh xo'rozi menman begumon,
Har sahar qichqirib, solurmen suron.

280 Mening ovozinga bo'lib jo'rovoz,
Shahar xo'rozlari berurlar ovoz.

Ey Nizomiy, ochgil xazinangni, hay,
Ganjaga yopishib yashaysan tokay?

Ovlagan ovingni chiqargil bu dam,
Ganj esa ilkingda, ko'rsat uni ham.

Magarki yor bo'lib baxting ul sabab,
Jahonni to'ldirsa nurga, ne ajab.

Urding oltiniga shohning sikkasin,
Chiqib minbar uza, o'qi xutbasin.

285 Bir shohdirki, davr ul ayyomidir,
Xutba-yu tangada uning nomidir.

G'olib shohlar aro g'olib har qachon,
Maliki Izzuddin, shavkatli sulton.

Farzonalik aro Mavsul xonidir,
Mardlikda shohlarning qadarxonidir.

Mahmud kabi farru farhang ichra ul,
Dovud kabi po'latni ham mum qilur.

Mahmudiylar tug'rosidin davlati,
Dovudiylar tavqidandir nisbati.

290 Bahordir ul, mevayu gul hamdami,
Sayraguvchi qumri, bulbul hamdami.

Bazm tuzar bo'lsa misli gulbahor,
Diram sochar, durdona aylar nisor.

Jomiga har safar may quygan mahal,
Bosqinlar yasaydi lojuvardga la'l.

Shamshir urib suvga, o't chiqargan ot,
Ko'kda bulut bo'lur Quyoshga qalqon.

Lochini o'ljaga chovut solgan dam,
Faryod solur falak lochinlari ham.

Burguti qanotin yozarkan, shu tob
Unga o'lja bo'lur oy bilan oftob.

Bir kimsa bormikin bu davronda chin,
Yuqtirgay o'ziga uning siyrating?

Bu ihga unnagan sharmandadir tek,
Oy nuridin chilvir eshgan kimsadek.

Magar bilmas esa suv nima, sarob,
Yo'lcini tahnalik aylagay xarob.

Oyni patir deya etganlar gumon
O'zni shoh tubida ko'rurlar hamon.

Garchi dev yiroqdin farishta ermish,
U zulmat, bu esa nurdan yaralmish.

Shohimiz mehribon va ezidparast,
Bisotida mehru vafo kam emas.

Yolg'iz menmas, ko'plar mushkulda qoldi,
Unga loyiq so'zni kim ayta oldi?

Nega "peshgin" derlar uni dunyoda²⁰¹,
Lutfu marhamati uning ziyoda.

Nomiga yarashmas "peshgin" degan so'z,
"Kaypashin" deb magar atalsa durust.²⁰²

²⁰¹Peshgin – qabri qattiq.

²⁰²Kaypashin – Eron Kayyoniytlar sulolasining birinchi shohi Kayqubodning o'g'li Kaykovusning ismidir.

305

Munosibdir anga desu Kaypashin,
Sababki, ul kaynishonu kaynishin.

Uning sarafiga tirildi dunyo,
Mening bu so'zinga kam emas guvoh.

Zilzila qo'zg'aldi, yorildi osmon,
Bir zunda shaharlar bo'ldilar vayron.

Larza ichra qoldi sahro, tog'u tosh.
Chang-to'zon o'rladi, urdi ko'kka bosh.

Zamin osmon kabi bo'ldi beqaror,
Sarosima etdi uni ro'zgor.

310

Sur sadosi uchdi borliq ustidan,
Baliq sakrab chiqdi ho'kiz ostidan.

Misli uzilgandek falakda zanjir,
Erning halqalari uzildi bir-bir.

Suvlar oqa ketdi har tomon to'lib,
Tinkasi quridi tog'lar tebranib.

Yusuflar ko'zini ko'rmas qildi mil,
Misrliklar uyin vayron etdi Nil.

Bir diyda qolmadi salomat, omon,
Motam surmasiga g'arq bo'ldi jahon.

315

Erni ezg'iladi ezib zilzila,
Tog'ni burda-burda etdi bir yo'la.

Na bir rishta qoldi yaroqli, butun,
Na bir dona qoldi u marjon uchun.

Shamolga sovrilib xazina necha,
Pinhon bo'ldi shanba shomida ganja.

Qancha erkak-ayol, keksa, navqiron
Falakka yuzlanib chekdilar fig'on...

Ammo bir qo'l yetib, yangidan tuzdi,
Yana gavhar yig'ib, rishtaga tizdi.

320 Shu marjon tufayli quchib farog'at,
Yiroq bo'ldi eldin ranja falokat.

Qisqa muddat aro u vayrona jam,
Bo'ldi obod hatto o'shal Rumdanam.

Boqmagil, zilzila etib pechu tob,
O'lkani ne yanglig' ayladi xarob.

Ko'rgil sen unikim, shohi adolat
Nechuk ma'mur etdi qurib imorat.

Qaydakim loyshuvoq bor esa, yiqib,
Devorlar tikladi zarnigor etib.

325 Sarv etdi necha bir vayronaga ganj,
Mamlakat ta'miri uchun chekdi ranj.

Har ganjiddin bunyod etib necha bog',
Yuzlab xonadonda porladi charog'.

Yurtni obod etdi, nur berdi, jamol,
Dargohi hech qachon ko'rmasin zavoll

Er o'pib, aytur...

Ey Quyosh, maftunimiz yiroqdin boqib,
Har narsa ko'rinur nuringda balqib.

Agarchi chirog' ham o'shal jinsi nur,
Shu'la sochmas esa, ko'rinmaydi ul.

330 Tojdorlik emas ulkim, podshoh
Izmida saqlasa yuzlab toj-kuloh.

Tojdorlik ulkim, himmatda rivoj
Ko'rsatib, har boshga kiydirolsa toj.

Boshlarda dimog'din g'urur ko'rsa gar,
Uni shamshir ila aylagay badar.

Himmatin ko'tarsa yuksaklarga Shoh,
Ham raiyat shodon bo'lur, hamsipoh.

Roying zafar ila mudom orasta,
Taraddud bo'lolmas unga payvasta.

335 Kayoniylar ketdi tark etib jahon,
Ularnin go'rnida o'zingsan sulton.

Fannon berguvchisan xalqqa har mahal,
Fitrating azaldin asldir, go'zal.

Jahonda o'zingsan podshohi olam,
Shohlarning boshiga toj berguvchi ham.

Sendin o'rganishsin nedir adlu dod,
O'shal Kovus, Kayxusravu Kaykubod.

Adolat aylading munchakim, hay-hay,
Kayoniylar ibrat olsa, arzigay.

340 Etti qat samoga ravish aylading,
Dunyoni basharga kengish aylading.

Bir qadah may tutdi senga Nizomiy,
Simirgil Kaykovus ichgandek oni.

Bu tusiy qadahni sipqorib, so'ngra
"Shohnoma" qiymatin Mahmuddin so'ra.

Ikki vorisdirmiz ko'hna kongra teng,
Saxovatda senu fasohatda men.

Gar hermamish esa qarzini hanuz,
Voris qarzin voris uzmagi durust.

345 Men so'z aytdim, kimsa aytmamish mundoq,
Sen ish etki, birov etmamish andoq.

Aytmog'imda tavfiq erdi menga yor,
O'qiganda tavfiq bo'lgay senga yor.

Ikki tavfiq agarda hamroh bo'lur,
So'z maqomi o'n karra a'lo bo'lur.

So'z dema, ul rayhoni bog'im mening,
Ayvoningda yongan charog'im mening.

Go'zal majlis tuzib, yurit unda jom,
Sharob pishitgaydir qoning ersa xom.

350 May sipqor labo-lab, qo'y bahonani,
Labim muhrlidir, ma'zur tut meni.

Ul jomki hushingga hush qo'shar talay,
Oyu yillar shirin bo'lsin senga may!

Diling toza bo'lsin, davlating osmon,
Jahon ichra bo'lgil jahon pahlavon.

Toleing esh bo'lib saodat bilan,
Hamisha ko'klarga yuksalsin baland.

Yuksalib to moviy samolar bo'yi,
Balanddin hech qachon tushmasin quyi.

355 Saboh shabnam idin shamshiring porloq,
Falak ham poyingda yer kabi yumshoq.

Durafshon shamshiring yovlarni yoqsin,
Bayrog'ing Kayoniy tug'idek balqsin!

Agarchi men buyuk amal ayladim,
Senga deb shu odgorimni shayladim.

Sen yodgorsen unda, o'zgalar unut,
Yodgorimdin shu so'zni yodingda tut...

Doston ibtidosi

Faylasuflar ustoz, yunon hakim,
Javohir chiqardi toshdin bo'ylakim:

360 Jahonni kezarkan ul Shohi jahon,
Yo'llarda falakka o'rladi to'zon.

So'ng yunonzaminga qaytdi haytovur,
O'z vatangohiga nisor etdi nur.

So'ng ilmu donishga mayl etdi roy,
Fikru andishani etdi rahnamoy.

Xayoli yuksalib, samoni quchdi,
Yopiq eshiklarning asrorin ochdi.

Izlarkan so'z -suxan erdi rahbari,
Yunoniy-u pahlaviy birlan daryi.

365 Xusravlarning porsiy daftarin tamom,
Yod olmish erdi ul chun obi ravon.

Boshqa tillardanam, boshqa marzu bum²⁰³,
Xoh jinsi Yunondir va yo jinsi Rum,

Buyurdi yig'ib faylasufni hama,
Ki har ne ilmdir, eting tarjima.

Donish -la dur yig'di har yoqdin chunon,
Shunda jumla olam bo'ldi namoyon.

Sadaflarki, koni gavhar edi ul,
Rum soridin oqdi daryo bo'libdur.

370 Ilk hikmatkim, yaratdi aylab qiyos,
Kitob erdi, kitobi dunyoshunos.

So'ng ruhoniylar ramzining daftari,
Uning hirla tirik yunoniy bari.

So'ngra lavhi Iskandariy, ahli Rum
Ilkida ul bois temir erdi mum.

²⁰³ Marzu bum – mamlakatlar.

Xabar topdilar ne erdi kiynu mehr,
Etti gumbaz aro ne saqlar sipehr.

O'shal sadaflardanki, gavharfishon,
Qoldi Intiyoxis, o'zga yo'q nishon²⁰⁴.

375 Bo'yla necha armuq'oni aqlu roy,
Zohir etdi ul shohi kishvar kushoy.

Etib andoq ilmu amal biltiga,
O'ltirdi so'ng shahanshohlik taxtiga.

Ishorat etdi minib taxti baland,
Bizning nazdimizda dono – arjumand.

Kimsalar aro kimsa ustur bo'lar,
Ersa o'shal sohibi ilmu hunar.

Har kimsaga bir o'rin beshak erur,
Hunarmandning maqomi yuksak erur.

380 Qaror bo'ldi, shoh oldida hardavom,
Ilmi ila har kimsa tutgay maqom.

Ilmga zo'r berdi sohibi davlat,
Olimlar etdilar ilmu fanga jahd.

Yuzlarni ilm-la ravshan etdilar,
Dillarni ilm-la gulshan etdilar.

Ul shohi donishyor himmati bilan
Yunonning shuhrati yuksaldi baland.

²⁰⁴Intiyoxis – Iskandardan keyin Eronda hukm surgan podsho va uning nomiga bitilgan kitob.

Garchi toju taxti cho'kdi, yo'q oldi,
Nomi ma'rifatda, ilmida qoldi.

385 Qasriga ko'k magar erdi oshiyon,
Haqqa bosh egardi, toat aylabon.

Quruq po'stak uzra tiz cho'kdi doim,
O'ltirar, xonada na zar erdi, siym.

Majnuntol shoxidin yasalgan hujra,
Sahnida yo'q edi tuproqdin o'zga .

Ko'ngli bu dunyodin to'yib ketgan dam
Shu xilvatxonada olardi orom.

Boshidin tojini olib har safar,
Haqning xizmatiga boylardi kamar.

390 Sajdagoh bo'lardi unga xoki pok,
Dildan oh chekardi, ohi alamnok.

Kechmish kunlariga shukur qilardi,
Kelajak baxtiga rivoj tilardi.

Har ne fathu zafar qozonmishdi chin,
O'zidanmas, ko'rar edi Xudodin.

Duo aylar esa, hojati ravo,
Ma'lum bo'lur edi: Shoh etmish duo.

Duoda ersa kirlik, oludalik,
Kelgaymu sira poku poludalik?

395 Duo aylaguvchi esa pok ravon,
Duosi ijobat bo'lur begumon.

Sikandarkim, shohi jahon bo'ldi ul,
Jahonni yaxshilik ila oldi ul.

G'ofil Shoh bo'lmadi ulkim ichib may,
Yaxshiy-u yomonni ajrim etmagay.

Joriy etdi andoq jahonda mezon,
Ki unda kimsaga yetmadi ziyon.

Keksa ayoldirmi, boladirmi, bas,
Kelib eshigiga etar edi arz.

400 Rostlik edi ahd ila paymonida,
Etti kishvar amr ila farmonida.

Ishbilarmonlardin so'rardi tadbir,
O'zi ishbilarmon edi benazir.

Yo'qsa, nechuk bir turtki rumiykuloh
Ham Hindu ham Chinni qilur iltijo?

Eshitdim, qaydakim makon tutsa u,
Hozir edi oldida olti guruh.

Qaysi bir manzilga qo'ymasin qadam,
Olti guruh erdi hamisha hamdam.

405 Necha ming qilichboz jasur, dilovar
Hozir edi amriga, boylab kamar.

Necha bir afsungar dag'i bor edi,
Amali oldida Horut lol edi.

Notiqlar bor edi, so'zlasa, yakkash
So'ziga Quyoshdin olardi otash.

Hakimi hoziqlar bor edi tengsiz,
Ta'rifin etmoqqa qalamlar o'jiz.

Yana zohidlarning necha jumardi
Tunlari podshoni duo etardi.

410 So'rardilar payg'ambarlardin duo,
Bu jumladin xoli emasdi sipoh.

Ishiga bir tugun tushgani zamon
Shoh madad so'rardi ulardin hamon.

Shu olti yulduz-la majlis qurardi,
Shu olti yulduzdin ko'mak so'rardi.

Ilmi, imkoniga yarasha har kim,
Shohga madadkorlik qilardi doim.

Shunday madadkorlik so'nggida har gal
Echilardi ne-ne mushkulot. chigal

Donishmand keksalar tadbiri ila,
Tole yulduzining dasturi ila.

415 Zafarga yor edi, sharafga vosil,
Hamisha bo'lardi murodi hosil.

Dushmani ko'rsatib janglarda sabot,
Yo'lida uchrasa og'ir mushkulot,

Hamon siymu zarni ishga solardi,
O'nnglanmas ishni ham o'nglay olardi.

Agarda oltinga boqinasa Dushman,
Uni qaytarardi shamshiri bilan.

Shamshiri dushmanni etmasa pora,
Unda afsungarlar etardi chora.

420 Afsun yaramasa magar yumushga,
Otash zabolarni solardi ishga.

Otash zabolardin kelmasa samar,
Yordamga kelardi hoziq hakimlar.

Magar hakimlar ham notavon edi,
Zuhdu duo ila ish oson edi.

Zuhdu duolar ham ersa foydasiz,
Payg'ambarlar sari burar edi yuz.

Natija chiqmasa bundanam, yohu,
Haqning panohiga sig'inardi u.

425 Haqning panohida topar edi jon,
Baxti yor bo'lardi, mushkuli oson.

Har ishga aylabon ayricha diqqat,
O'tgan kunlaridan olardi ibrat.

Bazmu ziyofatdin to sayru shikor,
Bariga boqardi jiddiy va hushyor.

Bir kuni mayxo'rlik og'oz ayladi,
Jahon zavqu shafqini boz ayladi.

Sozandalar sozin chalib damba-dam,
Shohona bir bazm erdi muhtasham.

430 Xonanda kuylardi o'shal bazm aro,
Boqib, undan sira ko'z uzmasdi shoh.

Egnida libosi erdi yetti rang,
Jilosidin erdi ko'zning holi tang.

Guldin edi erish - arqog'i tamom,
Podshoning ko'nglini etmish edi rom.

Agarchi avrasi gul erdi bari,
Va lekin xom bo'zdin edi astari.

Gulgun qabo kiyib u gulgun nigor,
Bir muddat qozondi obro', e'tibor.

435 Zamon kechar ekan, hukmini berdi,
Xonandaning gulrang to'ni eskirdi.

To'zidi, uniqdi rangi, jilosi,
Sohibining tindi qo'shiq, navosi.

To'zigan to'nini aylab himoyat,
Astarini avra etdi nihoyat.

Ki shohning ko'ziga kelmadi bu xush,
Dedi unga: ey badbaxtu bad sirisht,

Nega qizil guling to'kib, bulq'ading,
Xori muq'aylonga o'zni chulg'ading?

440 Hariringni yechib, kiyibsan palos,
Toshmunchoq'ing xushlarmi gavharshunos?

Bosh egib, yer o'pib xonanda shu dam,
Shohning jonu taniga ichdi qasam.

Dedi: o'shal to'nimdir bu, hukmdor,
Tark etdi uni rangi, naqsh u nigor.

O'shal to'ndir, xiyla amal ayladim.
Ichini tashiga badal ayladim.

Kiyganga bo'lar deb shohimga manzur,
Avrasin astarga yashirdim oxir...

445 Bu javob podshoga xush keldi g'oyat.
Hayratlanib boqdi unga bir muddat.

So'ng shohona lutfu karam aylabon.
Unga ipak libos etdi armuq'on.

So'ng yig'ladi, dedi yana yig'larak:
Yaxshidir rozimiz yashira bilsak.

Agarda rozimiz oshkor bo'lsa ul.
Qo'lansa hid tutgay jahonni butkul.

Bu gulgun to'n, deboyi rumiytiroz
Sirri aybimizni bekitmoqqa mos.

450 Bu dunyo sabnikim, kiyimi kumush.
Unda qora uddek sasimaslik xush²⁰⁵.

Yo'qsa, tish oqartib kuldand, muqarrar
Bizning holimizga kulgay sanamlar...

²⁰⁵Qora ud yonganda qo'lansa hid tarqata.

Nega Iskandarni Zulqarnayn deyishgan?
Muq'anniyнома

Muq'anniy, navo tuz ajab dilpisand,
Tarat arg'anundin sadoe baland.

To ko'ngilni g'amidin ozod aylasin,
Tunimiz yoritsin, obod aylasin...

Doston

Ul kimsakim so'z bobida erdi toq,
Sikandar nomidin sharhladi shundoq.

455 Zulqarnayn degan nomi bor edi,
Mag'ribu Mashriqqa hukmdor edi.²⁰⁶

Yana biri derki, jomi Jamga ul
Ikki qo'llab shamshir urmishdi dadil.

Yana biri derki, ma'nosi buning,
Ikki o'rim sochi bor edi uning.

Yana biri derki, tushida boshdin,
Olgan edi g'arbu sharqni Quyoshdin.

Yana biri sharhu izohin etdi:
Ikki qarn yashab, dunyodin o'tdi.

460 Yana biri, ulkim jahonfaylasuf,
Abu Ma'shar yozib kitobi "Uluf",

²⁰⁶Zulqarnayn – ikki qarn sohibi. Arab tilida "qarn" g'arbu sharq ma'nolarini anglatadi. Ikki qarn sohibi – g'arbu sharqni fath etgan fotih demak.

Dedikim, Sikandar vafot etgan dam,
Yunonlar g'ami yutib, tutdilar motam.

Unga mehrlari balanddi juda,
Qog'ozga suratin chekdilar shunda.

Shohning suratini chizgan musavvir
Zebu oro berib ayladi tasvir.

Va ilova etdi tasvirga shu dam,
O'ng yoqda bir sanam, chapda bir sanam.

465 Sanamlar boshiga ikki shox qadab,
Oltin, lojuvarddin rang berdi ajab.

Ularni ko'rarkan bir suratshunos,
Ikki farishtaga ayladi qiyos.

Alloh xalqni bunyod aylar chog'ida
Qo'sh farishta qo'ygan ikki yog'ida.

Sikandar husnda edi yagona,
Bu shakllar uni yashnatdi yana.

Yunondin jahonga ketdi shuhrati,
O'lkadin o'lkaga o'tdi ibrati.

470 Bu tasvir dunyoni sayron kezarkan,
Rumning san'atiga aytdilar ahsan.

Arablar tomosha etib rasmini,
Boshqacha ko'rishdi uning aslini.

Shoxli farishtaga ko'z solib har gal,
Dedilar: Shu erur buyuk Iskandar.

Shu yo'sin gumonni chinga yo'ydilar,
Shoxli Iskandar deb ism qo'ydilar.

Boshqa biri izoh aylamishdi chun:
Quloqlari erdi bag'oyat uzun.

475 Zarrin matoblardan xaltacha tikib,
Quloqlarin unga qo'ymishdi tiqib.

Quloq dema uni, bir xazinadon,
Misli xazinadek tutardi nihon.

Bu sirni sartarosh bilardi yolg'iz,
O'zgarlar xabardor emasdi hargiz.

Sartarosh jahondin ayladi guzar,
Boshqa sartaroshga tegdi bu amal.

Shoh boshiga keldi yangi sartarosh,
Sochlarini yozdi, boshladi tarosh.

480 Sartarosh sochini yozarkan shu tob,
Shoh yumshoq ovoz-la ayladi xitob:

Qulog'im sirrini bekit har mahal,
Birovga aytganing eshitsam agar,

Quloqsiz etarmen seni shu zamon,
Kimsaga so'ylama uni, tut nihon...

Sartarosh bu so'zni quloqqa ildi,
Bergan va'dasiga rioya qildi.

Kimsaga aytmadi aylab sadoqat,
Ko'nglida kufardek asradi faqat.

485 Tortdi shu tufayli chehrasi sariq,
Ne qilsin, ko'ksida dard erdi, og'riq ...

Saroydin yashirin chiqdi bir kecha,
Sahroga yuz burib, yo'l yurdi necha.

Uchradi bir quduq, Shoh erdi chuqur,
Sirrini o'shanga izhor etdi ul.

Dediki, podshoning qulog'i uzun,
Ajab, yengil tortdi yuragi shu zum.

So'ng iziga qaytdi ohista, sirli,
Tili tuguk edi, og'zi muhrli.

490 Lekin shamol esib uzoq-yovuqdin,
Qamish o'sib chiqdi o'sha quduqdin.

Boshini quduqdin chiqardi qamish,
Qamishki, ul bir gapdin ogoh emish.

Tasodifan o'tib shu joydin cho'pon,
Ko'zi ul qamishga tushdi nogahon.

Cho'ponlik odatin ayladi shu dam,
Kesib, nay yasadi, chaldi damba-dam.

Qaydanam ko'ngliga gumon yetardi?
Nay chalib, o'zini shod on etardi.

495 Bir kuni sahroda sayr etarkan Shoh,
Yiroqdin nay sasi taraldi nogoh.

Ko'rdiki, yiroqda nay chalar cho'pon,
Joni xalqumiga tiqildi shu on.

Sababki, nay yangrab, chekar ekan un.
Derdi: Sikandarning qulog'i uzun...

Shoh bir nafas tinglab, sabr etib turdi,
Keyin o'sha sado, nay sari yurdi.

Cho'ponni chaqirib, ayladi so'roq,
Cho'pon nay sirini so'yladi shundoq.

500 Dedi: Shoh tubidin o'smishdi qamish,
Sadosi ko'nglimni asir aylamish.

O'rtadim, ko'ksini chok etdim necha,
Chunki o'rtamaydi o'rtanmaguncha.

Shu jonsiz nayda ishqi jonim mening,
Shu tilsiz qamishda zabonim mening...

Soldi hayratlarga shohni bu doston,
Ot boshini burdi manzilga tomon.

Xilvatda o'ltirdi parishon, behud,
Dedi: sartaroshni keltiringiz zud.

505 Sartarosh kelarkan, ko'z tikib unga,
Dedi: ochig'ini so'ylagil menga.

Aytmas sirmi kimga ayon aylading,
Qaysi bir quloqqa bayon aylading?

Gar rostini aytsang, qolursen tirik,
Aldasang, boshingni uzgum sapchadek.

Podshodin bu so'zni eshitgan zamon,
Sartarosh rost so'zga juftladi dahon.

Er o'pib, podshoni duo ayladi,
So'ngra shu nuqtani unga so'yladi.

510 Dediki, so'zimga sadoqatim bor,
Kimsaga u sirni etmadim oshkor.

Ko'nglimga u sirdan tushib mashaqqat.
Men uni quduqqa so'yladim faqat.

Birovga aytmadim. sultonim manim,
Agar aytgan esam, Xudo dushmanim!

Shoh ko'rdi, sartarosh rost so'ylar hamon,
Vale tekshirmoqni istadi o'bdon.

Amr etdi. sahroga quli yugurdi,
O'sha chohdin qamish kesib keltirdi.

515 Qamishni nay qilib puflagan asno,
O'sha aytimas sir taraldi nogoh.

Shoh shuni bildiki, hukmidir, nohaq,
Ochilmas sir yo'qdir jahonda mutlaq.

Shunga qat'iy ishonch keltirgan zamon,
Sartaroshga berdi qilichdin omon.

Sadaf g'unchasiga to'lar bo'lsa dur,
Bir kuni tovlanib, ko'zga tashlanur.

Qoyatosh bag'rida yotgan bug', buxor
Bir kuni o'zini etgay oshkor...

Iskandar va dono cho'pon hikoyati
Mug'anniynoma

520 Muq'anniy, chiroy ochdi subhi jahon,
Shoh yodi-la sozingni yangrat hamon.

Jarangi ko'ngillarni yoz aylasin,
G'aflat uyqusidin xalos aylasin...

Doston

Shundoq so'ylamishdi bir donoyi pir,
Faylasuflar ichra, ajab benazir:

Bir kuni taxtida o'tirmishdi Shoh,
Rumiykamar erdi va chinniy kuloh.

Qoshini chatmishdi chekib g'ussa, g'ami,
Ko'ziga ko'rinmas erdi jomi Jam.

525 Suyukli yorikim, misli oftob,
Isitma ranjidan chekardi azob.

Jahon sindirmishdi ko'nglini tamom,
Umidsizlik edi hosili hamon.

Shohning ko'ngli misli o'ynayi pok,
U dardmand tufayli erdi alamnok.

Amr etdi, a'yonlar kezib mulki Rum,
Izlasinlar tabib, ustodi ulum.

Ular parivashga imdod aylasin,
Shohning ma'yus ko'nglini shod aylasin.

530

Hakim borki, ustodi sobit qadam,
Shohning saroyida bari bo'ldi jam.

Hakimlar har neki chora qilmadi,
Bemor isitmadin forig' bo'lmadi.

Na qo'ndi sanamning labiga kulgu,
Na shohning yuzidin aridi qayg'u.

Ul shohki sanamga dilbasta erdi,
Uning dardi ila dilxasta erdi.

Bir kuni nogahon tomga chiqdi, bas,
Va unda bir nafas rostladi nafas.

535

Keyin tevarakka qayray boshladi,
Olis tog'u dashtga nazar tashladi.

Ko'z solib, dasht aro Shoh ko'rdi shunda
Bir cho'pon qo'y boqib yurardi unda.

Keksa bir chol edi, nuroniy andoq,
Soch-soqoli qordek, kiyim-boshi oq.

Sahroda betashvish kezar edi u,
Poyida maysayu oldida suruv.

Shohning ko'ngli unga mayl etdi bot.
Ki zebomanish erdi, ziyraknihod.

540

Buyurdi, hoziroq, etmay taraddud,
Cho'ponni saroyga keltiring deb zud.

Shotirlar bordilar, chu farmonpazir,
Cho'ponni keltirib, etdilar hozir.

Cho'pon shoh qasriga qo'yarkan qadam,
Saroparda ko'rdi oydek muhtasham.

Bilardiki, u Saddi Iskandariy,
Balanddir baxtining yulduz, axtari.

Er o'pib, ayladi izhor hurmatin,
Etmishda o'zga shohlarning xizmatin.

545 Shoh uni yoniga da'vat ayladi,
E'tibor ko'rsatib, suhbat ayladi.

Dediki, kezarsen base tog'u dasht,
O'shal tog'u dashtdin so'yla sarguzasht.

Falak gardishidin xotirfa noxush,
Go'zal bir so'z aylab, meni ayla xush...

Cho'pon dedi: "Ey xusravi jonajon,
Musallamdir amringga ahli jahon.

Taxting el-ulusni obod aylagay,
Tojingni Haq yomon ko'zdin asragay.

550 Avval menga aytgil, ayo Shahriyor,
Ne boisdin ko'nglingga qo'ydi g'ubor'?

So'z boisi ma'lum bo'lgandan keyin,
O'shanga mos qilib so'zim aytayin".

Shohga ma'qul bo'ldi uning kalomi,
Oqilona erdi so'zda maromi.

So'zlamasdi sahroyi ovsar kabi,
So'z aytardi dono, dinparvar kabi.

Parivash holini bayon etdi Shoh,
Yashirin asrordin ayladi ogoh.

555 Cho'pon yana ta'zim bajo ayladi,
Shoh haqqiga xayru duo ayladi...

Cho'pon hikoyati

Dediki, yosh edim, yigit, navqiron.
Shohlar xizmatida yurdim bir zamon.

Bazmlar bo'larkan, men ham bor edim.
Bazmdoshlarim-la baxtiyor edim.

Malikzoda erdi o'shal husni Marv,
Xirom etsa, andin xijil erdi sarv.

Bo'yi oldida sarv qadi past edi,
Yuzi oldida gul hama mast edi.

560 Ajab yori bor edi, jonon edi,
Husnidin saroyi charog'on edi.

Ko'z tegdi ul nozaninga daf'atan,
Harorati oshib, bo'ldi dardmand.

Olov bor, tutundin asar yo'q edi,
Doru bor, davodin samar yo'q edi.

Tani tol bargidek titrab ketma-ket,
Sihhat tomog'iga yo'q edi umid.

Malikzoda ko'rdiki, ul naqdi jon
Qaytmas ajal ila yuzlashdi hamon.

Ajal sharbatini ichmasidin ul,
Uzdi o'shal sevar yoridin ko'ngil.

Umizsizlik ila bechora bo'ldi,
Yo'l bosib, dasht aro ovora bo'ldi.

Biyobon erdi ul go'shayi firoq,
Qaqragan cho'l, tog'u o'rmondin yiroq.

Mag'oralar necha, xaroba, vayron,
Isg'ir edi bo'ri, yo'lbars arslon.

Na giyoh o'sardi, na bir bargi tar,
O'lim biyoboni edi ul magar.

Noumid shahzoda kechib necha qum,
O'shal zahmadobodda topdi qo'nim.

Yo'lini ortiga sira burmadi,
U yerdin qaytganin birov ko'rmadi.

Shahzoda g'ami chekib, o'rtanar ekan.
Shu joyni ayladi o'ziga maskan.

Uning bir mehribon do'sti bor edi,
G'oyat sadoqatli, vafodor edi.

Eshitdi Shahzoda hasbi holini,
Halokatda ko'rdi uning folini.

Niqob tortib yuziga tadbir ila,
Yaqinlashdi, ilkida shamshir ila.

Hayqirib, to'satdin hamla aylabon,
Shahzodani yerga qulatdi hamon.

Qulatib, o'ziga taslim ayladi,
Ko'zlarini bog'ich ila boyladi.

Ko'zi boyliq holda savor etdi bot,
Keyin o'z manzili sari surdi ot.

Sno'rluk Shahzodani hamon eltiboq,
Bir xilvat xonaga ayladi qamoq.

580 Bir qorovul qo'ydi eshikka so'ngra,
Sirni Shahzodaga ochmadi sira.

Non ila suv berdi yemishga faqat,
Boshqa bir taomga etmadi ruxsat.

Malikzoda mahbus, yuragi dog'li,
Yana ko'zi ila qo'llari bog'li,

Lolu hayron edi, chekar edi oh,
Boshimga tushdi deb nechuk bu savdo?

Uning mushkuliga do'sti bebadal
Chora izlab, ctardi jahdu jadal.

585 Istab ul sanamning sog'liq rivojin,
Yuz bir sharbat ila etdi ilojin.

Tabib topdi, hoziqu illatshunos,
Ki etdi ul xastani darddin xalos.

Pariruh xastahol erdi yonishdin,
Qutildi bir yo'la ul o'rtanishdin.

Yuziga nur inib, ranglari kirdi,
Turdi, sayr etgali chamanga yurdi.

Salomat jismiga xush yoqdi havo,
Endi istar edi ko'ngliga davo.

590 Javonmard ko'rdiki, ul shirin nigor
Malikzodasiga erdi intizor.

Bir oqshom ud yoqib bazmgoh aro,
Tuzdi unda shohona bazmi safo.

Bir chekkada o'tqizdi dilbarni ul,
Orasta aylabon misli qizil gul.

Keltirdi ko'zi bog'li shahzodani,
Ajdaho og'zidin qutilgan jonni.

Ko'zidin bog'ichin olib, siyladi,
Bazmgohga uni taklif ayladi.

595 Ne ko'rdi Shahzoda? Bazmgoh edi,
Bazmgohda ul gulira'no edi.

Yo'q erdi ul maskan, jahaunam sirisht,
Hozir edi o'ngida huru bihisht...

Ne derdim, shodlikka to'lmishdi havo,
Bundan ortiq sharh aylamak noravo...

Shahanshoh cho'ponni tingladi xurram,
Va xo'rsinib, yengil tin oldi shu dam.

Ranju alamlari topmishdi orom,
Mo'yasfid ilkidin simirmishdi jom.

600 Cho'ponni tinglarkan shahi dilnavoz,
Etishdi "tuzaldi!" degan bir ovoz.

Ki ul mehribon yori, xusravparast,
Bir askirish ila sog'aymishdi, bas.

Cho'pon yaxshilikka yetkazdi Shohni,
Yaxshilik marhamat etkazdi Shohni,

Kinning tiynatida poklik ersa gar,
Undan paydo bo'lur shundoq qissalar.

Insonni yoritur ko'ngil gavhari,
Ko'kda porlagandek oyu Mushtariy.

605 Kishi gar tanlasa yaxshi maromni,
Ko'nglidin chiqarib aytur kalomni.

Sarofida aqlu hush botil esa, past,
Aslni soxtadin ajrata olmas...

Birov so'zlar esa xunuk, nosavob,
Anga sukut ila aylagil javob.

Arshimedis ila chinniy kanizak hikoyati **Muq'anniyoma**

Muq'anniy, bir nag'manavo ayla zud,
Andishadin chulg'adi boshimni dud.

Andoq bir navo tuz jarangos ila,
Ki yig'ay hushimni boshga bir yo'la...

Doston

610 Faylasuf erdi bir daryoyi ulum,
Hikoyat aylamishdi ul piri Rum.

Ki shohning nadimi bor edi ajab,
Arshimedis edi o`shanga laqab.

Yunoniy edi, muhtashamzoda ul,
Tengi yo`q jumard erdi dunyoda ul.

Badavlat erdiyu saxovatli, bas,
Yunonda yo`q erdi undan yaxshi kas.

Xiradmand edi ul, ilmga chanqoq,
Donolar so`ziga solardi quloq.

615 Arastu o`g`lim deb necha bir kuni,
O`qitmishdi xos bir xonada uni.

Sikandar ko`rarkan sidqu ixlosin,
Unga topshirmishdi devoni xosin.

Ruslar bilan jangdan qaytarkan hoqon,
Unga bir kanizak etdi armuq`on.

Gulni taqdim etdi hunarpehaga,
Soldi hunarpehani andishaga.

Sayyodning qo`liga tushgandi ohu,
Termulib ohuga to`yalmasdi u.

620 Ki turkiy chiniy ko`nglin oldi chunon,
Hinduyi g`ami ketdi tamom benishon.

Bir yo'la g'arq bo'lib ishqu havasga,
Tark etdi ta'limni, kelmadi darsga.

Dars berguvchi ustod tashvishga tushdi,
Sababin izladi, so'rashga tushdi.

Ne erdi, chalg'itib hunarpehani,
Boshiga yukladi bu andishani?

Yuz shogirdga ustod edi muallim,
Yaxshi-yu yomondin berardi ta'lim.

625 Arshidemis darsga kelmasa agar,
To'qson to'qqiziga solmasdi nazar.

Dars berishga rag'bat etmasdi ustod,
Darsida bo'lmasa o'sha iste'dod.

Yolg'iz uning o'zi bo'lsaydi darsda,
Ustod dars berardi shavqu havasda.

Gap uqmas, yuz nodon kimsadin magar,
Bir oqil, xiradmand hamisha afzal.

Ustod shogirdini chaqirdi bir kun,
So'rdi: Aytgil, bizni unutding nechun?

630 Ne edi, ilmdin ayladi ayro?
Ilmsiz yashamoq senga noravo!

Tashna edim, dedi, shogirdi xush hol,
Yo'limda uchradi chashmayi zilol.

Shoh menga iltifot ko'rsatib ortiq,
Bir chiniiy kanizak ayladi tortiq.

Navqiron yigitman, yonimda jonon,
Nechun men bo'lmayin unga mehribon?

Shu bois ilmdin sovudim albat,
Bir ko'ngilga sig'mas ikki muhabbat...

635 Ustod angladiki, shogird bardavom
Shahvatparastlikka berilmish tamom.

Dedikim, menga ham ko'rsatgil ani,
Huzurimga keltir parichehrani.

Magar bilmoqchimen nechuk u dilbar
Ilmdin sovutmish seni shu qadar?

Ustodi amriga qulluq aylabon,
Shogirdi sanamni yubordi hamon.

Ustod yasamishdi yangi bir doru,
Qondin ayirguvchi edi xiltni u.

640 Xilt demakim, jonning g'izosi erdi,
Qonni ko'paytguvchi, safosi erdi.

Chu qondin ayirdi o'shal moyani,
Sarvgul boshiga soldi soyani.

Xiltni qusa berdi har kun parizod,
Uni tosga yig'ib, asradi ustod.

Tosni to'ldirarkan xilt aralash xun,
Sanam guldek so'lib, yo'q otdi husnin.

Yuzidin tarovat, jilo yo'qoldi,
Rangi sovuq toshdek bo'zarib qoldi.

645 Chorlab shogirdini ustod shu zamon,
Kanizakni unga topshirdi hamon.

Dediki, ol, mana, o'shal sehri noz,
Uyingga elt, ayshu farog' ayla boz.

Javonmard ko'rarkan parivashni ul,
Dediki, hay, bu bedavo kim erur?

Qayda o'shal suyakli yorim mening,
Asiru zor etgan nigorim mening?...

Tosni keltiring deb buyurdi ustod,
Xizmatkorlar toshi keltirdilar bot.

650 Tos ustidin oldi ustoz matohni,
Magar lolu hayron etdi dunyoni.

Dedi: o'shal diloroming shul erur,
Suyukli mashg'uli koming erdi ul.

Shu xiltga to'lmishdi paykari aning,
Pari paykar edi nazdingda sening.

Jismida bu moya qolmagach endi,
Xunuk surat ila senga ko'rindi.

Qondin xilt ayrilsa, qara, ne ishi,
Qonu xiltga oshiq bo'lurmi kishi?

655 To'kma o'z suvingni tuproqqa har dam,
Ki o'shal qatradin yaraldi odam.

Agarda asrasang ul qatra suvni,
Tark etmagay ko'ngil xushliging seni.

Ko'ngilni har nechuk kanizga berma,
Umring xirmonini yelga sovurma.

Bir jufti haloling senga bas erur,
Kishi bundan oshirsa, bekas erur.

Dunyoni ko'r, muxtalif rangdir nechun,
Kelmish yetti otayu to'rt onadin.

660 O'g'lingga istasang bitta rangni tek,
Bir onayu bir ota bo'l ko'ngildek.

Ko'rdi Arshidemis, hunar ne erdi,
Ustodi asaldin mumni ayirdi...

Poyiga bosh qo'yib, chekdi nadomat,
Yana ilm sari ayladi rag'bat .

Va lekin ko'ngli bir alamda edi,
O'sha nozli nigor, sanamda edi.

Yana sarv shoxi gul ochdi, yaproq,
Yana gullar ila bezandi butoq.

665 Binafsha yana sochdi atru ufor,
Kuldi nargis, o'shal ko'zlari xumor.

Yana turki chiniy yashnab ochdi gul,
El keltirdi xabar mayxonadin ul.

Arshimedis ko'ngli yana urdi jo'sh,
O'ylakim, butoqda sayroq edi qush.

Ilm o'rganishdin tovladi bo'yin,
Yana maskan etdi parivash ko'yin.

Parichehra bilan boshladi ishrat,
Yomonmi pari-la aylasa xilvat?

670 Ustod buni ko'rib, itob etmadi,
Ilmga qaytgil deb xitob etmadi.

Bir-ikki yil kechdi aroding qator,
Ul o'hu ko'zlarda qolmadi xumor.

Qizil gul sarg'ayib, yerga to'kildi,
Bulbul tark ayladi bo'stonni endi.

Yutdi tuproq o'shal parizodani,
Parilar simirgan kabi bodani.

Menga ham bermishdi shu qodir falak,
O'shandanam go'zal, zebo bir malak.

675 Mehru muruvvatli sanam erdi ul,
Aqlu andishada baland erdi ul.

Ruhi aylamishdi oyni piyoda,
"Ot"i mot etmishdi "shoh"ni dunyoda.

Magar jon o'rvida ko'rardim ani,
U ham jonu dildin sevardi meni.

Ko'zimni chashmayi nur aylamishdi,
Yomon ko'z, o'ylakim, aroga tushdi .

Charxi zolim andin ayladi ayru,
Go'yoki azaldin bor emasdi u.

680 Jahonda shodligim ul erdi, evoh,
Uni bandam desin, siylasin Xudo.

Menga nasib etmish so'zning jarangi,
Ko'hna dostonlarni aylagum yangi.

Dedimki, so'zim shakkarafshon etay,
Kelinchakni tasvirda jonon etay.

“Shirin” halvosini pishirganim on²⁰⁷
Shirin halvoyimdin ayrildim hamon.

“Layli” ganji uzra tiklabon hisor,
O'zga bir gavharim ayladim nisor.

685 To'y-nikoh rasmini ado aylabon,
Kelinchakni jannatga etdim ravon.

Bilmasmen, siynamda erur shuncha yuk,
Rumu Rus dostonin yozarmen nechun?

Behuda g'ami chekib endi naylayin,
Doston bitib, ko'ngilni xush aylayin...

Moriyayi qibtiya rivoyati Mutribnoma

Muq'anniy, chal qadim navolarniboz,
Muq'oniy ohangni ayla nag'masoz.

G'arib, benavomen, chalib bir navo,
Shu bedavo dardimga etgil davo...

²⁰⁷Shoir shirin halvoyim deganda birinchi xotini. o'zga bir gavharim deganda Gavhar ismli ikkinchi xotini vafotiga ishora etmoqda.

Doston

Qadim bir faylasuf, bilim ichra toq,
So'z betidin ochdi pardani shundoq:

Bir qibtiy ayolga vatan erdi Shom,
Mirzoda erdi, Moriya unga nom.

Izmida qal'alar bor edi necha,
Dushmanlar olmishdi uni boricha.

Jang qilib, maydonda qo'li keldi past,
Dunyo berdi uning koriga shikast.

Boshiga yog'ilgach zulm beaded,
Keldi, Iskandardin istadi madad.

695 To shohi jahon imdod aylagay,
U vayrona mulkin obod aylagay.

Xullas, shu dargohdin izladi panoh,
Shoh vaziri bo'ldi anga dodgoh.

Ko'rdiki, ul vazir, ma'rifatparast.
Bir guruh shogirdga berar edi dars.

Arzi dod etishdin sovudi hamon,
Unga ilm olish ko'rindi oson.

Qissayi dodu bedod tark ayladi,
Ta'lim olmoqlikka kamar boyladi.

700 Donishmand oldida turdi xizmatda,
Mutavoze bo'lib mudom hurmatda.

Tolibalar aro olinga munis,
Hamdamu hamnafas ul erdi yolg'iz.

Ustod ko'p parhezkor tutardi o'zni,
Moriya yuz ochsa, yumardi ko'zni.

Qo'liga suv qo'ysa, boqmasdi unga,
Boqardi kaftiga to'kilgan suvga.

Ustodni ko'rarkan shu holatda qiz,
Havoyi ko'ngildin ayladi parhez.

705

Ko'rdiki, erkakning yo'q edi mayli,
U ham kesdi maylini shu tufayli.

Ilmga yopishdi, ilmga tanho,
Ilmga yetmoqni etdi muddao.

Arastuyi dono o'shal dilnavoz,
Aqliga ilmdin eshik ochdi boz.

Base durru gavhar nisor ayladi,
Necha aytilmagan sirni so'yladi.

Bilimlarki, oson kirmagay qo'lga,
Birma-bir musallam ayladi unga.

710

Toliba qiz andoq ilmparastdi,
Barchasin xotira lavhiga yozdi.

So'ngra o'z yurtiga tomon olib yo'l,
Tiklamoqchi bo'ldi saltanatni ul.

Lek ortida himoyasi yo'q edi,
Ilkida bir sarmoyasi yo'q edi.

Arastu koʻrdiki, yurishmagay kor,
Ganjsiz boʻlarmidi kishi Shahriyor?

Oltin iksiriga oʻrgatdi uni,
Taʼlim berdi, iksirchi etdi uni.

715 Moriya oʻrganib andoq kimiyo,
Ilmi iksir bobida boʻldi raso.

Arastu oʻrgatib chun ilmu amal,
Shohona ganj berdi unga bebadal.

Yurtiga joʻnatdi soʻngra, bir yoʻla
Behisob xazina va lashkar ila.

Moriya yoʻl bosib, yurtiga yetdi,
Uni qadam-qadam qoʻlga kiritdi.

Uning amri ila bekor boʻldi boj,
Ahli diyorida olmadi xiroj.

720 Yuksalmishdi ilmi iksirda, illo,
Ki ul xom kumushdin yasardi tillo.

Siymtan boʻlib, elga zar sochdi ul,
Raiyatga ganj eshigin ochdi ul.

Kishida gar oltin uyum ersa chosh,
Tafovut aylamas oltinidir, tosh.

Lashkargohida har suvoriy askar,
Otining toqasi oltin edi zar.

Dargohida necha xizmatkorki bor,
Eshagin toʻqimi erdi zamigor.

725

Har narsa zarrini zebodin erdi,
Itlari zanjiri tillodin erdi.

Bir guruh hakimlarki, donishparast,
Faqirlikka tushib, bo'lib tangdast.

Ul ganji pihondin xabar topdilar,
Va o'shal ganjina tomon chopdilar.

Dedilar mayl etib o'shal koni ganj,
Faqirlik vajhidin chekdik dardu ranj.

Yo'qdir boshqalardek bizning peshamiz,
Yolg'iz jahon bilmoqdir andishamiz.

730

Bir kunlik nonga ham zoriqib andoq,
Biz jahondin etak silkidik mutloq.

Istardikki, bonuyi sohib karam
Xazina eshigin ochsa bizga ham.

Ishi, tadbirini ko'rsatsa andak,
Va iksir ilmini o'rgatsa jindak.

Jahonga ul sarvat kifoyat etar,
Xazina kaliti barchaga yetar.

Bizni ham bo'yla chorasoz aylagil,
Jahon xalqidin beniyoz aylagil...

735

Malika tinglabon ular nolishin,
Qabul etdi arzi niyoz, xohishin.

Chamanzor bog' edi, ustida Quyosh.
O'rtasida munaqqash bir qoyatosh.

Chiqdi qoya uzra o'shal oyjamol,
Tegrasin bulut qoplagan oy misol.

Taqmishdi ul qaro zulfiga hamon
Oppoq gavharlarni ziynat aylabon.

Ikki o'rim sochini, mushkin kamand,
Gavhar munchoq ila edi pechu band.

740 Dedi donishlarga: "Sochimga qarang,
Kamondek egilgan qoshimga qarang.

Iksirimning siri peshonamdadir,
Peshonamda nihon nishonamdadir".

Donishmandlar bir dam hayrat ichra, hay,
Qoldilar, tillari so'zga kelishmay.

Biri dedi: ishorat ul muhradir²⁰⁸
Shaffofligu porloqlikda Zuhradir.

Biri dedi: iksir sochida magar,
Sochida ko'rmishdi gavharni avval.

745 Taxminlar tasmollar aytili bir-bir,
Lekin iksir siri qola berdi sir.

Oqibat qissadin shu bo'ldi hissa,
Olima asrorin topmadi kimsa...

Donishlar yig'ilib keldilar takror,
Bilmoq istadilar ne erdi asror.

²⁰⁸ Muhra – bu erda gavhar munchoq ma'nosida.

Malika chiqdi boz o'shal balandga,
Yuzlandi poyida yig'ilganlarga.

Ganju xazinadin boshladi suxan,
So'ziga rang berib, etdi muzayyan.

750 Dediki, ul tog'u ul mardumgiyo,
Ki andin donolar yasar kimiyo,

Ham shu qoyatosh kim, koni zar erur,
Naqlidir, nechuk ul kimiyo bo'lur?

So'ng andin bir ramzu ishora keldi,
Temir qulf urdiyu zar kalit berdi...

Dono bu so'zlardın topdi koni ganj,
Nodonga nasiba bo'ldi dardu ranj.

Magar kimiyodir gavhari giyoh,
Qalamdir vale gavhari kimiyo.

755 O'shal kimiyodin ne-ne zabardast,
Insonlar bahramand bo'lmadi, afsus.

Asl kimiyoni istasa bashar,
Soxta kimiyoga solmasin nazar...

Xurosoniy va uning xalifaga firib bergani hikoyati

Eshitdim, bir xurosoniy ustamon,
Bag'dodga keldi rizqiro'z istabon.

Necha kun ishladi, charchadi magar,
O'zga yo'l tanladi, o'zga bir hunar.

Bilasiz, bir xurosonlik har qalay,
Necha Bag`dodiyini oson aldagay.

760 Ming misrosi tillosi bor edi uning,
Rumda ham ularga topilmasdi teng.

O'sha tillolarni olib daf`atan,
Suvadi qizil loy, gilmoya bilan.

Xullaski, ulardan yasadi soqqa.
Aylantirib ko`rdi u yoq-bu yoqqa.

Keyin har biriga muhrin urdi ul,
So`ngra eltib, attorga topshirdi ul.

Dedi: olgil, ehtiyot ayla bir oz,
(Ajab soqqalaru ajab soqqaboz)

765 Senga bir donaga sotamen buni,
Ko`p foyda ko`rsen sotganda uni.

Fursati yetganda qaytib olurman,
O`n karra ziyoda qiymati bilan.

Attor so`rdi shunda: otine demak?
Dediki, otini derlar tabaryak²⁰⁹.

Attor do`konidin qaytib shu zamon,
Afsungarlikka ruju etdi hamon.

Shahri Bag`dod aro yoydi sarbasar,
Iksiriy bir ustod keldi deb xabar.

²⁰⁹Tabayak – o`ndan bir hissa.

770

Kimiyo ilmida kubroman, dedi,
Gavharhunoslukda tanhoman, dedi.

Amallarim bordir, aylasam magar,
Birni o'n yuzni ming qilurmen tugal.

Yuz dinor pul bering menga avvalin,
O'rniga yuz emas, ming tillo oling.

Bir kishi kelsinu munda o'ltirib,
Ishimni kuzatsin boshimda turib.

Hunarimni tasdiq aylasa ro'y-rost,
Hech kimsa etmasin keyin e'tiroz.

775

Aldasam, mayliga, to'kingiz qonim,
Sizdan tosu shamshir, mendan shu jonim...

Oxir xalifaga yetishdi bu gap,
Ko'nglida tamahga yo'l berdi, ajab.

Aldoqchi aldashda etardi shitob,
Sotardi tilloga achigan sharob.

O'g dinorcha puli qolganda arang,
Boshladi yangicha hiylayu nayrang.

Ko'ra sotib oldi zargarlarsimon,
Qorishtirdi unda doruyu darmon.

780

Shaharga jo'natdi necha kimsani,
Toping deb tabaryak degan narsani.

Uni do'konlardin izlab birma-bir,
Attor do'konidin topdilar oxir.

Dinor herib sotib oldilar shu dam,
Keltirdilar xurosoniyga ildam.

Oldi soqqalarni bitta-bittalab,
Barchaning ko'zi oldida maydalab.

So'ng yig'ib, olovli ko'raga soldi,
Suvoq kuyib bitdi, faqat zar qoldi.

785 Ko'rani ohista ag'dargan asno,
Qolipga to'kildi qip-qizil tillo.

Xalifaga borib yetdi bu xabar,
Eski kondin kelmish yangi bir samar.

Xayolda u oltin ko'rib yayradi,
Birim o'n bo'lur deb taxmin ayladi.

Shu umidda izzat etib namoyish,
Ko'rsatdi necha bir lufu navozish.

Mag'ribzaru misriyyordin ajratib,
Jo'natdi kazzobga o'n ming naqd etib.

790 Dedi: ishlat buni, ayoxush qiliq,
Haqqingni jobajo olursen to'liq.

Senga hech kimsaning sig'magay haddi,
Bizga musohibsen, yaqinsan endi.

Baski ul sinovda o'zni oqlading,
Haqligingni isbot etding, yoqlading...

Xurosoniy olib ganjni noz ila,
Uni o'marishga tushdi bir yo'la.

Omillar ila xilvat aylab atay,
Necha bir tun ishrat etib, ichdi may.

795 Boshlarin qo'ydilar ular tuproqqa,
Bu esa sakrabon turdi oyoqqa.

Qullari qarashdi, yuklarni hamon,
Chopqir tuyalarga ortishdi chaqqon.

Jo'nadi, yo'lda bir inson ko'rmadi.
Ahli jahon andin nishon ko'rmadi.

Biloxir xalifa eshitdi buni,
Xurosoniy aldab ketgandi uni.

"Tabaryak" degani yodiga tushdi,
Har ne eshitgani yolg'on emishdi.

800 Tabaryak furushdin surishtgan dam,
Kuldi bu hiylani eshitib u ham.

Birov tabaryak deb bersa bir nima,
Taftish et avvalo, ma'nosin angla.

Afsungarki afsun etar erta-kech,
Uning afsuniga ishonmagil hech.

Dunyoda bir kimsa ko'rmadim hamon.
Kimjo dastidin chekmamish ziyon...

Rivoyatga qaytish

Sikandarga yetdi ovoza, mish - mish.
Moriya ganj uzra go'yo mor emish²¹⁰.

805 Yana ovozakim, o'shal moda sher,
Qilich sirmashda ham botir, misli sher.

Epchil, uddaburon ayoldir base,
Molu dunyosining yo'qdir qiyosi.

Qayda ganji nihon ersa, xabardor,
Dunyoda yetgulik xazinasini bor.

Afsungarlik etib, toshni zar qilur,
Sadafrezani durru gavhar qilur.

Bo'ylakim zar yasab, to'plamish muncha,
Qorunning bisoti unga urvoqcha.

810 Olgay jahonni ham omon qo'ysa shoh,
Negaki izmida ganj ila sipoh.

Sipohdin dushmanga talofotu ranj,
Sipohni jazb aylamasmu koni ganj?

Cikandar eshitib, g'azabga mindi,
Men uni muqarrar mavh etgum dedi.

Halok etgum dedi va tuzdi shu dam,
Haloq aylamoqlik chorasini ham.

²¹⁰Mor – ilon, bu erda ajdaho ma'nosida.

G'azab otashida yonar ekan shoh,
Bundan xabar topdi vaziri dono.

815 Shohning huzurida bosh egib takror,
Dediki, sabr eting, ayo Shahriyor,

Pokiza bir ayol, toza gavhar ul,
Janobingizga kamtarin chokar ul.

Agarchi manzili erur mulki Shom,
Xizimatingizda bir cho'ridir mudom.

Necha yil yonimda yurib ham mahal,
Menga shogird tushib, o'rgandi hunar.

Men uni ilmga dalolat etdim.
Necha bir nihoniy sirni o'rgatdim.

820 Dedimki ilmni kasb etib biroz,
Shu jahon ahlidin bo'lsin beniyoz.

Toleini baland ko'rib, siyladim,
Koni ganj topmoqqa mohir ayladim.

Undan o'zga kimsa bunga yetolmas,
Bu san'atdin istifoda etolmas.

Xushbaxt Moriyadin o'zga bir inson
Koni ganj ustida bo'lmadi ilon.

Moli dunyo yig'ib necha bir tugun,
O'z yurtida o'zi hokimdir bugun...

825 Sikandar bu so'zni eshitmoq ila
Etgan niyatidin qaytdi biryo'la.

Vazir buni ko'rib ortdi sevinchi,
Hamon Moriyaga jo'natdi elchi.

Dediki, podshoga elchi yubor zud,
Hukmdor ko'nglidin arisin bulut...

Moriya eshitib bu gapni xush hol,
Ochdi xazinasini eshigin darhol.

Sanoch-sanoch ortib tevalarga zar,
Hamon Shahriyorga jo'natdi jadal.

830 Necha bir taroziki, ganjigasanj²¹¹,
Bir joyda ko'nmamish edi bo'yla ganj.

Ganj ila tugadi shohning kiynasi,
Erkin nafas oldi ayol siynasi.

G'azab otashin so'ndirar siymu zar,
Ko'ngilni kiynadin ham forig' etar...

Faqir, benavo nonvoy hikoyati **Muq'anniynoma**

Muq'anniy, ul navoni bergil chalib,
Hechdir oldida nolayi andalib.

Navoki, xos erur navolik anga,
Yarashmas zoru benavolik anga...

²¹¹Ganjisanj – boylik o'Ichovi.

Doston

835 Ovoza bo'ldikim, shahri Runiga ul
Kelgan emish begona yurtli yo'qsil.

Oz muddat ichida o'shal benavo
Bo'ldi molu sarvat sohibi, doro.

Bir kimsa bilmasdi, bu davlat hama
Tog'din kelmishmi yo daryodi anga?

Birov derdi: topmish magar koni zar,
Birov derdi: qaroqchidir, yo'lto'sar...

Oxir arz etdilar podshoga borib,
G'iybat etishardi tinmay, zo'r berib.

840 Ki o'zga bir yurt din kelmish, anaqa,
Yo'qdi cho'ntagida siniq bir chaqa.

Bir yil o'tar-o'tmas, qarang, u yo'qsil
Orqa-o'ngi to'ldi sarvatga butkul.

Podsho o'n hisobdon yuborsa hamki,
Sanab, sanog'iga yetolmas balki.

Faqir nonvoy edi, G'arib, benavo,
Bir burda nonga ham zor edi hatto.

Endi bo'lsa, gavharfurushtlik qilur,
Aqlga sig'maydi, andoq ish qilur!

845 Na tijorat unda, na bir ziroat,
Qaydin kelmish shuncha bisotu davlat?

Yaxshi bo'lur edi gar shohi jahon
Uning sirrin tahqiq etsalar nihon...

Jahondor amr etdi: chorlangiz uni,
Yuvsin etagidin gumon gardini.

Xilvatda qo'limiz o'pib, so'ylasin,
Xushlik-la sirrini ayon aylasin...

Davlatmand kimsaga yetishgach farmon,
Podsho saroyiga yo'l oldi hamon.

850 Ichkari kirdiy-u yer o'pdi keyin,
O'qidi podshoga olqish, ofarin.

Shohi jahon tinglab yigitni andoq,
Chorladi taxtiga uni yaqinroq.

Necha pastu baland so'z aytib ajab,
Ganju xazinadin so'ngra ochdi gap.

Xush chehrasan, dedi, xushvaqtsan magar,
Falak solmish senga xushnud bir nazar.

Kelib yurtimizga, tutganda vatan,
Eshitdimki, hech vaqoying yo'q ekan.

855 Endi-chi sarvating qaylarga yetmish,
Tashimoqqa karvonlar ojiz emish.

Davlat zahmat ila topilur albat,
Podshoga tegishdir topilgan davlat.

Agar rost gapirsang, senga yo'q ziyon,
Joning salomatdir, moling ham omon.

Yolg'on so'zlar esang menga mabodo,
Molu joningdanam bo'lursen judo...

Eshitguvchi ko'rdi, rost so'zdin o'zga
Panoh yo'q, o'rin yo'q boshqa bir so'zla.

860 Er o'pib, podshoga ta'zim etdi boz,
Dedi so'ngra: "Ey shohi ojiznavoz"²¹²,

Ko'rmamish shu jahon bedoding sening,
Etilgay yaxshilik-la yoding sening.

Raiyat xursanddir adolatingdin,
Jon desang, jonni ham ayamasi sendin.

Sening tuprog'ingda topdim ne'matim,
Sening adling ila keldi davlatim.

Agar kerak esa, davlatimni ul
Oyog'ing ostiga sochaman butkul.

865 Kamtarin g'uloming bo'lay har nafas,
Shu xoki dargohing o'psam, menga bas.

Shohim buyursaki, ahvolingni ayt,
Ne bo'ldi, ne kechmishdi, holingni ayt.

Aytamen, bu yurtga qo'yarkan qadam,
Yo'q edi yonimda mening bir diram.

Benavolik ichra endi netay men,
Nonvoy bo'lib, dedim, nonga yetay men.

²¹²Ojiznavoz – ojizlarni qo'llovchi.

Ammo bu ishimdin navo ko`rmadim,
Bu kasbu korimdin vafo ko`rmadim.

870 Shohi saxovatli shaharda, illo,
Kishi nonvoy bo`lib, boyimas aslo.

G`ami-u tashvish aro yana chopdim men,
Rizqi ro`zimni ham arang topdim men.

Ayolim, munisam, o`shal yori jon
Homilador bo`ldi shunda nogahon.

Yana mashaqqatda yurdim, jonhalak,
Quyoshini bizdan qizg`andi falak.

Ayolim bag`oyat sabrli edi,
Bir burda nonga ham qanoat etdi.

875 Ko`zi yorimoqqa yetarkan fursat,
Ozroqqina kuymoq istadi faqat.

Va lekin suframiz qup-quruq edi,
Dil xunidin o`zga yemish yo`q edi.

Uyda eru xotin tanho edik, bas.
Dediki, ey erim, ey faryodas!²¹³

Ozroqqina sho`rva ichmasam agar,
Chora yo`q, o`larmen endi muqarrar.

Muqarrarki, menga ajal yetgusi,
Ajal shamolidin kemam botgusi...

²¹³Faryodas – himoyachi, birovning arzi-odidiga etuvchi.

880

Yorimdin bu gapni eshitgan zamon
Uyimdin chiqdimu chopdim har tomon.

Egulik topmoq-chun yugurdim necha,
Qolmadi biror ko'y, qolmadi ko'cha.

Ochilgan bir eshik ko'rmadim aslo,
Yo'qchilik ko'yida edim men gado.

Yiroq bir go'shaga yetishdim oxir,
Daru darichasi cho'kmishdi og'ir.

Aylanib, o'rgilib ayladim tavof,
Devdek har teshikka suqildim shitob.

885

Kuhna saroy, to'zib nuramish edi,
Eshigi tutundan qoraymish edi.

Unda olov yoqib, tutun, gard aro,
O'zi ham misoli tutundek qaro.

O'ltirardi zanjij, bir otashparast,
Ilkida may ko'za, o'zi mast-alast.

O'choqqa osmishdi kattakon qozon,
Ostiga o't qalar edi har zamon.

Menga ko'zi tushgach, sakrabon turdi,
Tutundek buralib, qattiq o'kirdi.

890

Dedi: nega kelding bu yerga, devzod,
Meni tunamamoqni o'ylading nahot?

Agar o'g'ri esang, javob ber to'g'ri,
Hech qachon o'g'rini tunarmi o'g'ri?..

Men esam qo'rquvdin titrabon dir-dir,
Tilim kalimaga keltirdim oxir.

Zanjiy shevasida hamon so'yladim,
Qo'limni ko'tarib. duo ayladim.

Dedimki, G'aribmen. yo'qsil, benavo,
Sening panohingdin izladim panoh.

895 Eshitdim necha bor javonmardliging,
Tillarda dostonidir sening mardliging.

Da'vatsiz mehmoning bo'lib, adoying,
Turibmen shu onda, boshim fidoying.

Shoyadki dardimga davo yetgusi,
G'arib, benavoga navo yetgusi...

Zanjiy tinglab shirin zabonimni ul,
Shirin zabon ichra fig'onimni ul.

Yumshadi, bir qadar tushdi hovurdan,
Shirin so'z dushmani chalg'itar chindan.

900 So'rdi: may icharsen, kuylarsen surud?²¹⁴
Dedim: balli, keltirdi, tutqazdi rud²¹⁵.

Qo'limda erdi rudi oshiqnavoz,
Qo'rquv, hadik ichra chala ketdim soz.

Soz uzra bosh egib bir hofizdayin,
Yolg'ondakam qo'shiq so'yladim keyin.

²¹⁴Surud – ashula.

²¹⁵Rud – chalg'u asbobi.

Sozim tinglab zavqu sururi oshdi,
Qaynar qozon kabi qaynadi, toshdi.

Goho may ichardi etib taralla,
Goho yer tepardi bir umid ila.

905 Soz ila zanjiyning jonini oldim,
Ixtiyorin olib, yo'limga soldim.

Ulfat bo'ldi menga u beixtiyor,
Mast bo'lib, sirrini ayladi oshkor.

Dedi: bu qasri vayrona ichra, hay,
Bu kecha talay mol qo'limga kirgay.

Bir o'zga zanjiy bor, hamzodim manim,
Mensiz may ichmagay, yaqin hamdamim.

Bir xazina topdik tasodif ila,
Ustida ajdaho yotmamish sira.

910 O'shal xazina uzra biz ajdaho,
Uni hech kimsaga ko'rmasmiz ravo.

Bir yildirki bizda o'shal koni ganj,
Eb-ichib yashaymiz osuda, beranj.

Men bunda o'ltirib kutarmen, hali
Sherigim jo'natdi mol keltirgali.

Bir yilda xazina ancha kamaymish,
Oxiri bir xalta simu zar qolmish.

Sen kelib, bu kecha mehmonsan menga,
Ko'nglimga xush, ulfati jonsan menga.

915

Uqib ol, sherigim ortmoqlab hamon.
Qopda yoqutu zar keltirgan zamon,

Sen borib, bekinib bir burchakda tur,
O'likdek nafasing chiqarmay o'tir.

Men esam niyatga hamon yetarman,
O'shal ajdahoni nobud etarman.

Xazina menimdir degaymen u payt,
O'zim olib, o'zim yegaymen u payt.

Senga ham berurmen tongda bir qadar,
Mendin shod bo'lursen unda muqarrar.

920

Menu zanjijy shundoq suhbat etarkan,
Eshitildi oyoq sharpasi birdan.

Sakrabon o'zimni bir chetga oldim,
Goh qo'rquv, goh umid ichra xayolim.

Qop ortmoqlab kirdi bir zanjijy qaro,
Qaroligi andoq, ko'mirdek qaro.

Yukni yelkasidin yerga qo'ydi ul,
Xuddi sherdek baquvvat erdi, norg'ul.

O'shal qop og'zini bo'shatmay, oldin
Bir oz sho'rva ichib, et yedi keyin.

925

Ko'rdiki, sherigi yotmishdi shunda,
Uning aytganini etdi bir zunda.

Po'lat shamshirini sirmadi nogoh,
Boshini tanidin ayladi judo.

Men esam vahimdin dir-dir titradim,
Sal qoldi, o'zimni zo'rg'a o'ngladim.

Sherigi boshini shart uzgan edi,
Endi tanini ham ikkiga bo'ldi.

Tashqariga chiqdi ko'tarib yarmin,
Shu onda go'yoki hushsiz edim men.

930 Oradan necha bir daqiqa o'tdi,
Ketgay zanjij yana ortiga qaytdi.

Yarim jasadni ham ko'tarib yana,
Chiqdi, tashqariga bo'ldi ravona.

Ko'rdim shunda mendin yiroq edi u,
Fursat g'animatu kecha qorong'u.

Xuddi bir lochindek tashlanib shu tob,
O'shal xazinaga qo'l cho'zdim shitob .

Simu zarli qopni yelkamga oldim,
Bir idishga issiq sho'rva ham soldim.

935 Yo'lga tushdim so'ngra, yugurdim chunon,
Etdim manzilinga salomat, omon.

Meni yo'lda ko'rgan kimsa bo'lmadi.
Baxtim edi ogoh, o'zga bo'lmadi.

Kirib bordim uyga baxtiyor, xursand,
Yukimm-la g'anim ham tushdi yelkamdan.

Etdi qulog'imga chaqaloq sasi,
Ortdi andin yana ko'nglim nash'asi.

Xotiningga tutdim sho'rvani, picha,
Ho'plabon, shukrona ayladi necha.

940 Shunda berdim anga farzanddin xabar,
O'g'il ko'rding, dedim, bizga toji sar.

Keyin o'shal qopning og'zini ochdim.
Topdim xasta ko'nglim malham, ilojin.

Simu zardin magar kon erdi unda,
La'lu yoqut farovon erdi unda.

Shu kecha yayradim, yashnadim, undim,
Gavhar oqizguvchi daryoga do'ndim.

Farrux farzandimdin shod erdi ko'nglim,
Gavharu ganjga hamzod erdi ko'nglim.

945 Davlatu sarvatga yetdim shu tariyq.
Ganji guhar topdim, guhar-la kalit...

Sarguzashtin Shohga shundoq so'yladi,
So'zini tugatdi, sukut ayladi.

Shoh so'z ochib mavludi farzandidin,
Xabar istab u jonga payvandidin,

So'rdikim, tug'ildi o'g'ling qay kuni?
Bordi uyga, keltirdi qaydnomani.

Qaydnomani jo'natdi volisga Shoh,
Dedi, ey munajjim, sa'y aylagil to,

950 Bu go'dak tolei yulduzin ayon,
Etgilu borini bizga qil bayon.

Yaxshidir, yomondir, toleida bor,
Daqiq et, so'ng bizga aylagil oshkor.

Shoh farmoni qo'liga tekkan mahal
Yulduzlar sori volis soldi nazar.

Nazar soldi yana, nazar soldi boz,
Yashirin ul asror ko'rindi ro'y-rost.

Keyin ko'rganlarin qog'ozga bitdi,
Har kimsa ham buni ko'rolmas edi.

955 Shoh ko'z tashlab munajjim bitgan xatga,
Taajjubda qolib, tushdi hayratga.

Munajjim yozmishdi xatida butkul,
Parda ostidagi sinoatni ul.

Ki ul go'dak magar nonvoygardadir,
Nuri davlatga sohib, ozodadir.

Yo'qsil tug'ilgaydir onadin garchand,
Lekin falak etgay risqini baland.

Otasi ul bois xushbaxt bo'lgusi,
Badavlat, sohibi sarvat bo'lgusi.

960 Tug'ilgan ondayoq shu bo'lur peshar,
Qadamin ganj uzra bosar hamisha ...

Shoh buni eshitgach, himmati ortib,
Lutfu marhamatlar ko'rsatdi ortiq.

Gavharfurushni ul rosa siyladi,
O'ziga eng yaqin nadim ayladi.

Etmish hakim Hirmis soʻzini inkor etib,
halok boʻlishgani hikoyati
Muqʼanniyoma

Muqʼanniy, yana bir navo aylagil,
Goʻzal ohanglardin sado aylagil.

Oʻksik kuylaringni bizga chalma, bas.
Yuksak navodin oʻzgasi xush emas...

Hikoyat

965 Rumda faylasuflar har yoqdin kelib,
Majlis qurishardi goho jam boʻlib.

Shunda aytilardi ne farhangu roy,
Suxanlarki, dilparvaru jonfazoy.

Har kimsaning dalili ustun esa,
Olimlarning olimi erdi oʻsha.

Hirmis degan olim unda hammadan
Haq gapni aytishda edi peshqadam.

Bahs etarkan, dalili ustun edi,
Soʻzlari jarangdor edi va keskin edi.

970 Fosh aylabon necha ruhoniylarni,
Hasadin qoʻzgʻotdi yunoniylarni.

Etmish tasi shunda jam boʻlib, yaktan,
Uning qasdiga tuzdilar anjuman.

Ki u har ne so'zlasa, inkor etib,
Haq so'zining tersini takror etib,

So'z ochsa, og'ziga uraylik hamon,
So'z aytishga ojiz qolsin, notavon.

Chunon ahdu paymon etdilar jadal:
Hirmis so'z gavharin chiqargan mahal.

975 Aytamiz asl qiymatin aksini,
Tuproqqa qo'shamiz xazinasini.

Uning har so'zini yolg'on degaymiz,
Aytgan haq kalomin eshitmagaymiz...

Chu Hirmis so'z aytib, guhar sochdi boz,
Ilmi ilohiy eshigin ochdi hoz.

Va har aytganiga keltirdi dalil.
Nurga to'ldi andin ko'z ila ko'ngil.

Raqiblar u so'zlarni xor etdilar,
Shovqin-suron solib, inkor etdilar.

980 Yangi xazinasin ochdi ul hamon.
So'ziga yangicha asos aylabon,

Bayon etdi uni ravshan, dilpazir,
Dil emas, toshga ham etardi ta'sir.

Ko'rmay ul kalomda ma'no ham shukuh,
E'tiroz etdilar yana ul guruh.

Uchinchi bor turib qat'iy, ustuvor,
Haqiqat so'zini ayladi oshkor.

Haqiqatkim, zebandayu dilnavoz.
Aytildi batafsil, daqiq, ro'y-rost.

985 Aytilmagan biror nuqta qolmadi,
Shunda ham hech biri parvo qilmadi.

Shunda ul bechora ojiz qoldi, lol,
Tomog'i qaqradi, tani bemajol.

Bildiki, qasd etib ular atayin,
Ilohiy dalilga egmaslar bo'yin.

Asir etmishdilar yolg'onga o'zni,
Ul turib, ulardin o'girdi yuzni.

Va bong urdi: hoy, siz, ahli besamar,
Qoting joyingizda qiyomat qadar!

990 U yetmish riyokor mazallot totib,
Qoldilar joylarda hamon muz qotib.

Rostni yolg'on deya shovqin soldilar,
O'zlari malomat ichra qoldilar

Boshlari egikdi, tanlar notavon,
Qotib turardilar tosh haykalsimon.

Sikandar bu holatdin ogoh bo'lib,
Yulduzdek porladi nash'aga to'lib.

Sarvlarning yashil tortib bittasi,
Quruq, qovjiroq erdi yetmishtasi.

995 So'rdi, Hirmis etdi bor gapni bayon,
Ki himmat eshigin ochdi osmon...

Shahanshoh tingladi, ofarin aytdi,
Keyin xayrlashdi, dargohga qaytdi.

Xilvatda har kimsa birla o'ltirib,
Bu qissani hikoyat aylardi ko'p.

To'fondek bosganda yetmishta nokas,
Hirmis etdi ularni yetmishta xas...

Guruhki, haq so'zga osmamish quloq,
Shamolda sovrilib, bo'ldilar tuproq.

1000 Ustod darsini kim aylar esa xor,
Unga shundoq kafan kiydirar ro'zgor.

Bayonda mustahkam ersa-da dalil,
Tinglamas kimsa ul, tolei zalil.

Gavharki, tosh uzra yonar yolqini,
Gunohdir tuproqqa qorishlik uni.

Hunarnas hunardin yuzni o'girmoq,
Haqman deb nohaqning yonida turmoq.

Hunarmandni suyab, qo'lla har zamon,
Sening ham hunaring bo'lgusi ayon...-

**Aflotun Arastuga tanbeh qilib,
cholg'u -soz yaratgani Muq'anniynoma**

1005 Muq'anniy sozing-la sado tuz yana,
Shirin ovoz ila navo tuz yana.

Magar shirin esa alyorim mening,
Kasodga uchramas bozorim mening...

Doston

Nog'orachi urib nog'oraga cho'pgacha,
Qizitdi kechanning havosini xo'p.

Qora qarg'a shunda shashtidin tushdi,
Oq xo'roz qichqirib, so'zga kirishdi...

Sikandar taxtiga o'ltirdi hamon,
Tili otash edi, aqli mumsimon²¹⁶.

1010 Jumla faylasuflar, sohib e'tibor,
Chekdilar ul taxt poyida saf-qator.

Har ilm ustida ular besh - u kam,
Suhbat etardilar saroyda shu dam.

Biri tabiiy ilmdin bahs etar,
Biri ilohiy nuqtadin dars etar.

Biri riyoziyotdin aylar savol,
Biri handasidin keltirgay misol.

Birida naqd donishu farhang edi,
Birida lof nomusu nayrang edi.

1015 Har biri donishmandu dono edi,
Uo'z ilmida ustozni tanho edi.

Arastu podshoga uqtirib so'zni,
Barchadin ziyoda ko'rardi o'zni.

²¹⁶ Aqli mumsimon – aqli muloyim, ya'ni haq so'zni qabul qilisha moyil.

Derdi: olimlarga o'zim chorasoz,
O'zgalar ilmidin butkul beniyoz.

Hama naqdi hikmat mengadir ravo,
Ki hikmat bobida o'zim rahnamo.

Falon ilmu donish mendin keldi toq,
Falonchi ham olmishdi mendin saboq.

1020 So'zimda yolg'on yo'q, bari haqiqat,
Hujjat, dalil ila so'ylarmen faqat...

Shoh ila orasi yaqinligidin,
Olimlar tortinib turardi andin.

Falotunga xush kelmadi bu sifot,
Jumla olimlarga ul erdi ustod.

Har ilmu donishki, etdilar hosil,
Avvalin varaqni yozmish edi ul.

Chiqdi anjumanddin, ko'zdin yo'q oldi.
Anqodek bazm aro ko'rinnmay qoldi.

1025 Sababki, kunu tun izlandi ustoz,
Yaratdi ag'oniy, ya'ni ajib soz.

Bir xum ichra kirib yotarkan kunda,
Etti xum ovgozin eshitdi unda²¹⁷.

Birovki, ovozi dilni g'ash qilur,
Xum sasi ul ovozni dilkash qilur.

²¹⁷ Yetti xum – yetti osmon ma'nosida.

Shundan ibrat olib o'shal xum aro,
Falotun yaratdi ajib bir navo.

Makon aylab bir kattakon xumni ul,
Sayr ayladi charx ila anjumni ul.

1030 Tingladi xum ichra ohangni nola,
So'ngra dil soziga etdi havola.

O'sha ohang ila aytib surudni,
O'sha pardalarga yasadi rudni.

Shirin xonish qilib, sozini ustoz
Ichi bo'sh qovoqdin ayladi bunyod.

Surdi ohu charmiga mushk u ufor,
Sozlanib jaranglab sado berdi tor.

Soz uzra o'ylandi yana necha kun,
Yasadi yangi soz, oti arg'unun.

Kumushdin torlardin taralib jarang,
Yoniq nola chekib, yangradi ohang.

Zuru bamda edi nolasi albat,
Gohi sokin esa, gohida shiddat.

Ohangni goh andoq yangratardi er.
O'kirgandek edi buqa yoki sher.

Chunonchi ul nola shrini totib,
Ho'kiz ham, arslon ham qolardi qotib.

Xullas odamiydin to hayvongacha,
Tushdilar shrining domiga necha.

1040 Chunonchi, tinglab ul ohangni odam,
Shodlanib, raqsga tushardi har dam.

Ul sadolar jonu jonzotga yetib,
Keyin uyg'otardi, avval uxlatib.

Sozidin ucharkan andoq jarangos,
Har ko'ngil mayliga monand edi, mos.

Ustodning sozida bo'yla sas edi,
Sirrini undan o'zga bilmas edi.

Shundoq bir ashobni yasay oldi ul,
Ohangidin jonlarga o't soldi ul.

1045 Tabib tinglar esa uni. begumon,
Xastaning dardiga topardi darmon.

O'shal kuy sehridin aqlu xush nogoh
Har nechuk illatdin bo'lardi ogoh.

Shundoq takmil topdi arg'unun tamom,
Pishiq ud edi ul. emas udi xom.

Ustod keyin dasht u sahroga bordi,
Sozini imtihon etmoqchi erdi.

O'ltirdiyu atrofiga chizdi xat,
Jaranglatdi sozin, shunda domu dad²¹⁸.

1050 Gohi yakka-yakka, gohi bir suruv,
Tog'u dashtdin keldilar guruh-guruh.

²¹⁸ Domu dad – yovvoyi hayvonlar.

Xati chizig'iga qo'ydilar boshni,
Sozining sehdridin to'kdilar yoshni.

Keyin biror-biror hushdin ketib tek,
Cho'zildilar tuproq uza murdadedek.

Na bo'ri qo'y sari parvo ayladi,
Na ohuga arslon jafo ayladi.

Ustod yana jaranglatib qo'lda soz,
O'zga bir navoni etdi nag'masoz.

1055 O'shal xush navoni, yetishdi payti,
Hushdin ayrilganlar bushiga qaytdi.

Tarqalib ketishdi hamon ahli dasht,
Kim ko'rmish bo'yla bir ajib sarguzasht?

Jahonga taraldi bu xabar, mish - mish,
Ki yoqut konidin yoqut sochilmish.

Falotun yaratmish andoq pardani,
Undan o'zga kimsa etolmas ani.

Magar o'sha sozdin taralsa sado,
Arshdin falak ham qulaydi hatto.

1060 Qo'lini band etsa bir dam cholg'uga,
Har nechuk hayvon ham ketar uyquga.

Torini yana bir titragan zamon,
Uyquga cho'mganlar uyg'onur hamon...

Shohning saroyiga xabar yetdi tez,
Horut bo'lmish Zuhro ila hamsitez²¹⁹.

Arastu eshitdi, ul ustodi fan
Andoq bir kashfiyot aylamish baland.

Ma'yus tortib, bo'ldi bir oz tangdil,
Raqib goho raqibni etgay xijil.

1065 Xilvat chekib, ayladi fikru ravish,
Ko'ngil tangiga maydon ochdi kengish.

Ustodning andoq ishida, shubhasiz,
Nashi ajab erdi va naqdi nafis.

Bilmoqqa qasd etib ne emishdi sir,
Kunu tun izlandi, yuritdi fikr.

Necha zahmat chekib, ranju mashaq qat,
Sarrishtayi simi topdi nihoyat.

Nazari o'ngida oshkor bo'ldi roz,
Ki ne tariyq ohang ado etsa soz,

1070 Ta'sir etib jonga bir afsun qadar,
Hushidin ayirib, hushga keltirar.

Bari ayon bo'lgach unga beshu kam,
Jarangos sozini yaratdi ul ham.

So'ng sahroga bordi o'shal soz ila,
Behushlik navosin chaldi baralla.

²¹⁹ Aflotun go'yo Horutga o'xshab falak sozandasi Zuhro bilan bahsga kirishdi.

Hayvon borki unda, uxladi alhol,
So'ng chaidi hushyorlik kuyini xush hol.

Omadi kelmadi, kun tortdi qaro,
Uxlaganlar hushga kelmadi aslo.

1075 Necha bor sozini chalsa-da chunon,
Hayvonlar dong qotib uxlardi hamon.

Qaysi parda edi, bilmay, dovdirab,
Arosatda qoldi Arastu, ajab!

Bir chorayi tadbir kelmadi ko'zga,
Ustodga iltijo etmoqdin o'zga.

Bordi u, talabi ta'lim ayladi,
Ustodga o'zini taslim ayladi.

So'rdi, ne chora bor andoq ravishga,
Uxlaganlarni ne keltirar hushga?

1080 Bilolmadim ne ovoz erdi o'shal,
Ne pardada navosoz erdi o'shal?

Aflotun ko'rdiki, ul sohib g'urur
Uning ta'limiga hojatmand erur.

Chiqdi tashqari, doira chizdi, xat,
Yangratdi soz, hozir bo'ldi domu dad.

Sahrodagi sheru marol qanchasi,
Kelib, xat uzra turdilar barchasi.

Behushlik kuyini chalgani mahal,
Bosh qo'ydilar xati mandalga avval.

1085 Ikkinchi bor sozin yangratganda u,
Hushidin ayrildi dono Arastu.

Aflotun sozini chalganda takror,
Hayvonlar uyg'onib, tortdilar hushyor.

Yana bir bor sozin yangratgan erdi,
Arastu sakrabon oyoqqa turdi.

Nechuk uyg'onganin bilmadi shu dam,
Ne sabab hayvonlar uyg'oganin ham.

Ne bois bo'ldiki, hushga keldilar,
Ne sababdin yana hushyor erdilar?

1090 Va shunda bildikim, ustodi beshak
Undan yashirgandi sirrini andak.

Hamon tahsin aytib, uzrlar qildi,
Ne erdi uyg'onish asrori, bildi.

Bilganini yozdi daftar uzra ul,
Avval yozganlarin o'chirdi butkul.

Iqror bo'ldi, Aflotun erdi ulug',
Unga har daqiqa ayladi qulluq.

Sikandar ham bildi, mulki Rumda bot
Aflotundir ilmu donishda ustod.

1095 So'ngra necha lutfu navozish bilan
Saroyda maqomin ko'tardi baland.

Uzuk va cho'pon hikoyati
Muq'anniyoma

Muq'anniy, kel, chang sozini soz etib,
Shirin kuyla o'zni xushovoz etib.

Navozish ayla nag'mayi chang ila,
Sevintir ko'ngilni xush ohang ila...

Doston

Ertasi tong otar, firuza sahar
Kun lashkarin etdi tunga muxaffar.

Quyosh shashmasidin gul ochdi chiroy,
O'zini baliqdek urdi suvga oy.

1100 Taxtiga o'ltirdi shahi tojvar,
Beliga boylabon gavharin kamar.

Taxt poyida tutdi olimlar makon,
Eng balandda Aflotun oldi maqom.

Shoh ustoz yaratgan cholg'u pardasin
Eshitib, hayratga tushmishdi andin.

So'rdi: ey bilguvchi asrori jahon,
Bizga g'ayb asrorin etguvchi ayon.

Ilmu donish qulfdir, kalitidirsiz,
Siz tufayli donish bizga ochdi yuz.

1105 Bilimdonlar aro donishda ustod
Sizdan-da buyukroq o'tganmi bir zot?

Ular xayol etgan marra bormi ul,
Ki undan-da o'tish siz uchun mushkul?

Falotun duo aylab shohni hamon,
Dediki, charx, shuniliygun osmon

Shunchalar sehru fan yaratmish so'ngsiz,
Uni anglamoqqa aqlimiz ojiz.

O'tmish olimlari, ilmda ustod
Necha sehru amal etdilar ijod.

- 1110 Ularning bilganin yuzdan birin ham
Bilguvchi, ishoning, bugun yo'q desam.

Shohim amr etsalar, aytay qissasin,
O'ndan birinimas, yuzdan bittasin.

Ijozat berdi shunda shohi jahon,
Ki donoyi zamon boshladi doston.

Jahondiyda, allomayi mo'tabar
Dedi shunda: "Ey shohi donishsevar,

Eshitdim, yel ila olov, bug', buxor
Zaminni silkitib, aylab beqaror,

- 1115 Zilziladin etib yer qa'rini fosh,
Otmish yer yuziga sehrli bir tosh.

Misu qalayilin ichi, siyrati,
Misoli ot edi ammo suvrati.

Otning ko'kragida bor edi teshik,
Andoqki, suv oqadigan rahnadek.

Quyosh nuri raxnaga tushgan zamon,
Ichkarida ne bor, bo'lardi ayon.

Bir cho'pon u yerdan o'tarkan nogoh,
Bo'ldi u g'ordagi tilsimdin ogoh.

1120 Yarqirab bir narsa chaqardi chaqin,
Cho'pon bordi o'shal chaqinga yaqin.

Ko'rdiki, mis tulpor turardi unda,
Bir raxna, bir tuynuk edi ko'ksida.

Quyosh yoritardi uni shu mahal,
Cho'pon ichkariga tashladi nazar.

Va unda eski bir mayitni ko'rdi,
Tanidin bir tuki tushmagan edi.

Barmog'ida uzuk bor edi andoq,
Mushtariy yulduzdek yonardi porloq...

1125 Cho'pon hamon qo'lin tuynukka soldi,
Mayit barmog'idin uzukni oldi.

Kaftida salmoqlab boqdi uzukni,
Keyin barmog'iga taqdi uzukni.

Boshqa arzigulik narsa yo'q edi,
G'orni tark ayladi, tashqari chiqdi.

So'ngra suruvini haydab ketdi shod,
Yo'l bosdi tun o'tib, yetguncha bomdod.

Ana bomdod yetib, tong otdi oppoq,
Quyosh sharq ufqidin ko'tardi bayroq.

1130 Cho'pon qo'y-qo'zini yoydi-da shu on,
Yo'l oldi suruvning sohibi tomon.

Valine'matini ko'rmoqchi erdi,
Uzuk qiymatini so'rmoqchi erdi.

Suruv sohibi ham ko'rdi cho'ponni,
Shirin so'zga ko'chdi nutqi zaboni.

So'rdi qo'y-qo'zining ahvolini ul,
Cho'ponning javobi xush keldi, ma'qul.

Cho'ponning holati erdi g'aroyib,
Gohida u ko'zdin bo'lardi g'oyib,

1135 Avval g'oyib, so'ngra bo'larkan paydo,
Xo'jayini dedi: astag'furulloh!

So'rdi: nechun ko'zdin bo'lursen nihon,
Va paydo bo'lursen yana nogahon?

Bu sehru afsunni qayoqdin olding?
Shrgarlik to'nin yelkangga solding?

Cho'pon tinglab, avval hayratga tushdi,
Gapning ma'nosiga keyin yetishdi.

Payqadi, so'z aro o'ziham bilmay,
Qo'lida uzukni o'ynardi tinmay.

1140 Uzuk qoshini u tutib har nafas,
Goh baland etardi, gohi etar past.

Uzukning qoshini ko'targan zamon,
Hamsuhbat o'ngida cdi namoyon.

Magar uzuk qoshi yana past edi,
Hamsuhbat o'ngida ko'rinmas edi.

Uzukning qoshida sir erdi chunon,
Egasin pardada tutardi har on.

Cho'pon ogoh bo'lib sirdan bir yo'la,
Uni tog'u dashtda sinadi so'ngra.

1145 Keyin uzuk ila o'yinlar qildi,
Yulduzni o'ynagan falakdek xuddi.

U ko'rinmas edi istagan asno,
Uzukni qo'lidan qo'ymasdi aslo.

Ko'tarib uzukning qoshini hamon,
Yana ko'rinardi ko'zlarga ayon.

Shaharni oshkora nihon kezib ul,
Barcha orzusiga yetishdi butkul.

Bir kuni havosi haddiga yetib,
Sehrlil uzukni kaftida tutib,

1150 Hindiy shamshir ila saroyga kirdi,
Podsho qarshisiga borib o'ltirdi.

Saroy a'yonlardin bo'shagan zamon,
Shohning ko'z o'ngida bo'ldi namoyon.

Podshoni qo'rqitib, vahim ayladi,
O'ziga bir yo'la taslim ayladi.

Podsho so'rdi shunda: "Menga ayt qani,
Niyating ne, kimlar yubornish seni?"

Cho'pon dedi: "Payg'ambarmen begumon,
Murodga yetarsen keltirsang imon!

- 1155 Bir kimsa ko'rolmas meni, istasam.
Mana nabiyligim senga, mo'jizam..."

Podsho qo'rquv ichra imon keltirdi,
Keyin shahar ahli bosh egib turdi.

Cho'ponning dourug'i yuksaldi davom,
Podsholikni oldi. xullasi kalom.

Uzukning muhrida ne erdi andoq,
Ki payg'ambarlikka yetkazdi mundoq?

Uzuk yasashganda hakimlar, ajab,
Nechuk bir hikmatni qo'ydilar joylab?

- 1160 Chunon hikmatki ul va nayrangi soz,
Ochilmas pardadin hamon bizga roz.

Aqlimni qanchalar etdim rahnamun,
Hamon yechilmadi, tugikdir tugun..."

Podsho tahsin aytdi ustodga shu dam,
Uzukni yasagan donishmandga ham.

Hozir bo'lgan hama arkoni davlat
Bu ajib qissadin oldilar ibrat.

— — — — —

Suqrot va Iskandar ahvoli hikoyati
Muq'anniynoma

Muq'anniy, kel, sozing ila g'amini yoq,
Ko'nglim aro surur o'tli shamni yoq.

1165 Ipakdek navo tuzsang, ey dilnavoz,
Ipak tortayin Rumdin toki Taroz...

Doston

Hikoyat aylamishdi bir faylasuf,
Jahon sirriga erdi sohib vuquf.

Ki ahli yunonlar u vaqti zamon
Urdilar taqvoga o'zni on chunon.

Izlamay zarra dunyo osoyish in,
Rad etib hirsu shahvat oloyishin.

Yo'q erdi riyozat chekib, g'ami yemak,
Shior ko'p bilmak erdiyu kam yemak.

1170 Hattoki sohibi davlatlari ham
Nafsi havosini tiyardi har dam.

Ayoni xush ko'rmas, ichmasdi sharob,
Ikkisi aqlni etgay deb xarob.

Oqibat bir ofat yuzlanib chunon,
Ularning naslini qirdi beomon.

Tutdilar andoq bir tariyq, rasmu roy,
Dunyodin kechdilar ular hoynahoy.

Ayol ila yaqin bo'lmoqdin kechib,
Quruqdin dengizga o'tdilar ko'chib.

- 1175 Xotinlarga boshqa, erlarga boshqa,
Kemalar qurdilar bir boshqa-boshqa.

Goho tomirlardin qon olib andoq,
Xotinlardin o'zni tutdilar yiroq.

Bu ishning oqibat shu bo'ldi kasri,
Quridi ularning nasabi, nasli...

Bir kuni uyg'onib xursand sahargoh.
Olimlarni yig'ib, bazm tuzdi Shoh.

Eshik og'osiga amr ayladi chun,
Tinchimni bir kimsa buzmasin bugun!

- 1180 Suqrotni chaqiring, etgaymen qabul,
Tarkibu axlotning, ustodidir ul²²⁰.

Suqrot eshigiga kelib shu zamon,
Dedilar: Shoh yo'qlar, yo'lga tush hamon.

Yangi to'ningni kiy, o't-betingga boq,
Dargohi oliyga yuraqol tezroq...

Suqrot bu taklifni qabul qilmadi.
Podshoning amrini ko'zga ilmadi.

Dedi: "Iskandarga borib aytki, ul
Bu yo'lda bir nima topmog'i mushkul.

²²⁰ Axlot – xiltning ko'pligi, xilt – qon, safro, savdo va balg'am.

Noz etsa-da ustodi turkonavash,
Iskandarning ko'ngli tortmas edi g'ash.

1210 Shoh a'yonlar ichra sohib e'tibor
Bir xos mahramini chorladi takror.

Yubordi donishmand Suqrot oldiga,
Unga yetkaz dedi savolim: nega

Javobsiz qoldirding necha da'vatim?
Sen ila bor edi nihon suhbatim.

Necha bor chaqirdim, nechun kelmading?
Hurmatim qadrini nega bilmading?

Ne bois qochmog'ing bizdan ayni payt?
Kel o'zing yoki bir dalilingni ayt.

1215 Daliling ko'rsatib, bizga et ayon,
Daliling yo'q esa, yo'lga tush hamon...

Suqrot sari jadal tashlabon odim,
Shohning savolini yetkazdi xodim.

Jahondiyda, donoyi hozirjavob
Berdi Shoh payg'omiga shu nday javob:

"Garchi shoh necha bor chorladi meni,
Aqlim bor, ajratur yaxshi, yomonni.

Aqlim derki, senga maylu roy yo'q,
Shohning ko'nglida mehringga joy yo'q.

1220 Bornasligimga bor yana ko'p dalil,
Kishi o'ynamas kelsa gar Jabroil.

Bornoqqa rag'batim bo'lur ul mahal,
So'zida bir mehr to'ysaydim agar.

Ohu kindigining mushk ersa bori,
Atrofga taralgay atri, ufori.

Ko'ngilki ul do'stlikka rahbar erur,
Tildan tashqari ham guvohlik berur.

Ko'ngilda muhabbat qursa oshiyon,
Zohirda ham uni aylagay ayon.

1225 Insonlarki, podshoga mahram ular,
Bazmda ham anisu hamdam ular.

Ne qilay, yo'limda to'siq tosh esa,
Otim oqsoqlanur u yerdin o'tsa.

Andoq tuyularki, bazm ichra aslo
Meni yaxshilik-la yod aylamas Shoh.

Ham ul a'yonlarki, xizmatdadirlar,
Men sari do'stona solmaslar nazar.

Shohning ko'nglini mardı mardumshunos
Uning ahli xosidin aylar qiyos.

1230 Shirin tilli ersa ahli xosi ul,
Shohdin ham bir umid aylasa bo'lur.

Agar ahli a'yon so'ylasa sovuq,
Shohning g'azabi ham yiroqmas, yovuq.

Bazmgoh gumbazi bo'lsa sarbaland,
Sozanmagan soz ham jaranglar baland.

Gumbazning shiftiga yetsa gar shikast,
Sozlangan rubob ham jaranglaydi past.

Har yaxshi -yomonki eshikdin kelur,
Unga uy sohibi sababchi erur.

1235 Garchi sen chorlaysan meni: kel beri,
Vale ahli ayon deydi: ket nari!

Unda talashurlar kattayu kichik,
Men o'sha girdobga kirgaymen nechuk?

Misol andoqdirki, to'liqinli dengiz
Durru gavhar sochar misoli yulduz.

Nahanglar yutarlar uni har mahal,
Kim nahang og'zidin izlaydi gavhar?

Men o'shal dargohga borgaymen netib,
Barcha tahdid etib tursa kelma deb.

1240 Meni Shoh nazdida etganlar yomon,
Mengamas, o'ziga aylagay ziyon.

Menga xaloyiqdin ne sudu samar,
Haq boylaganman belimga kamar.

Bandalikda men xojatosh man senga,
Gar borsam, bandayi adoshman senga.

Iskandar, boq, nechuk nuqta maromi,
Nechuk bir yuksakdin kelur maqomi?..

Shohga bu gaplarni yetkazdilar, bas,
Shahriyor ulardin uqib, oldi dars.

1245 Mulozim javohir keltirib unga,
To'kdi, etagini to'ldirdi durga.

Gavhar sochar ekan o'shal koni ganj,
Podsho saralashdin charchab, chekdi ranj.

Keskin bo'lsa hamki, rost so'zlardi ul,
Aytganlari keldi podshoga ma'qul.

Bildiki, xilvatgohda tutmish makon
Yo'l oldi piyoda xilvatgoh tomon.

Jahondin ko'nglini kesmishdi mutloh,
Va uzlatga o'zin chekmishdi mundoq.

1250 Shoh ko'rdi, yashar ul shundoq go'shada,
Faqir ersa-da, fikru andishada.

Bu holi shoh ko'ngliga kor ayladi,
Turtdi oyog'i-la, hushyor ayladi.

Dediki, turgilu suhbat ayla boz,
Jahon tashvishidin etay beniyoz.

Dono yashirmadi undan kulgusin,
Dedi: ololmaysan meni bu yo'sin.

Ulki burda nonga qanoatlidir,
Sening atrofingda charx urgaymidir?

1255 Arpa nonim menga shirindir, suchuk,
Bug'doy non g'amiini yegayman nechuk?

Nim arpa yukidin xolidir kimsa.
Uyida bir dona arpa bo'lmasa.

Bir somon cho'pgachadin charchagum, tolgum,
Tog'dek yukni nechuk yelkamga olgum?

So'radi Suqrot din yana Shahriyor:
Molu johga nechuk ehtiyojing bor?

Suqrot dedi: meni qiynama muncha,
Ki sendin himmatim balanddir necha.

1260 Tafovut bor o'rtada, chin degayman,
Sen ko'p yeguvchisan, men kam yegayman.

Jahon oldingda shay misoli surfa,
Har qancha yesang-da, to'y maysan sira.

Bir eski jandam bor egnimda nuqul,
Issiqda ham o'shal, sovuqda ham ul.

Sening to'nlarining bor, qavat-qavat yuk,
Menga talabgorlik etmog'ing nechuk?

Yana bir bor so'rdi Iskandar shu tob:
Sen kimu men kimman, ayla sarhisob.

1265 Javob berdi unga donishmandi pir:
Men farmon berguvchi, sen farmonpazir!

Bu ta'bir yoqmadi podshoga albat,
Dediki bu so'zning ma'nosin anglat.

Xiradmand podshoga javob berdi boz,
Dediki, javobin aytaman ro'y-rost.

Mening bir qulim bor, ismidir Havo,
Havoyi havas, menga farmonravo.

Xizmatimda turib, kutadi buyruq,
Sen o'sha qulimga etasan qulluq...

1270 Donishmandning so'zi nishonga tegdi,
Podsho xijolatdin boshini egdi.

Dediki, ey nuri siymoyim mening,
Pokdir, pokizadir shu royim mening.

Sen poksan, o'zingni pokdin ayirma,
Hali o'lmay turib, tuproqqa kirma.

Ustod yana bir bor javob berdi: hay,
Siymobni quloqqa quyib bo'lmagay.

Nega pokman deya so'zlahon, ajab,
O'zingni tutasan hayvonga o'xshab ?

1275 Hayvon yugurarkan gohida shitob,
Insonni uyqudin uyg'otar shu tob.

Men uxloq bandani ey sen, uyg'oq Shoh,
Uyg'otinog'ing bo'yla emasdi ravo.

Garchi sen uyqudin meni uyg'otding,
O'zing vale o'shal g'aflatga botding.

Quyvon uyqusidek uyqungni buzgil,
Uyg'oq arslondin qo'lingni uzgil.

Boshqa o'lja izla, bo'lma xomtama,
Mendek arslonni ov qilgum dema...

1280 Bu so'zlar ta`siri andoq keldi nek,
Podshoning yuragi cridi mumdek.

So'ngra arzi niyoz aylabon behad,
Istadi ustozin o'git, nasihat.

Donishmand achchiq so'z aytmadi o'zga,
Shirin so'zlik ila kirishdi so'zga.

Donishmandlik ila aytdi shohga pand,
Bari ibrat edi, hikmatga payvand.

Dediki, qo'lingda mum esa temir,
Sababi g'azabmas, aql va tadbir.

1285 Hamisha ravshan tut ko'ngil, siynani,
G'ubordin asragil ul oyinani.

Qo'ndirmasang temir sirti uzra zang,
Ko'rarsen unda necha bir naqsh u rang.

Ko'ngilni zangdin pok, safo aylagil,
Ruhoniylar rozini jo aylagil.

Ko'ngli qarolarga omon berma hech,
Ko'nglingga qarolikni keltirma hech.

Ko'ngli qaroning tili rost til emas,
Har nechuk zanjij Xo'ja Muqbil emas.²²¹

1290 Zanjinyning surati qarodir, biroq,
Sen og'zidin chiqqan toza so'zga boq.

Qarolik etsang, yon kuyib toldayin,
Zanjiylar tishlarin oqartsin keyin.²²²

²²¹Xo'ja Muqbil - "Siyosatnoma" kitobining muallifi Nizomulmulk, saljuq sultoni Malikshohning vaziri.

²²²Zanjiylar tol ko'miri bilan tishlarini oqartirishgan.

Oyina zangi gar temirdan erur,
Qachon qarolik ila ravshandir ul?

Necha ahli xirad ketmishlar bitib,
Tirik suvini zulmat ichra deb.

Kumushdek tark ayla oludalikni²²³,
Kumushdin ibrat ol pokizalikni.

1295 Idrokning g'ubordin toza bo'larkan,
Yuksalur tutunli falakdin baland.

Tonglarga ul nihoniy dargoh bo'lur.
Ilohiy sirlarga haramgoh bo'lur.

Magar darichadin ko'tarsang niqob,
Ichkariga kirgay shu zamon oftob.

Quyosh nurida ham charog' yoqsang gar,
Charog'ing o'chirgay ul bodi sahar.

Quyosh nurin uyingga boshla, kirit,
Magar tark etsa, bo'lmagil noumid.

1300 Eshiging toza tut har laylu nahor,
Sultonni mehmonga chaqirma zinhor.

Sulton ov qilgali o'tarkan o'zi,
Top-toza eshikka tushgaydir ko'zi.

Va mehmoning bo'lib o'zi kelgan payt,
Aziz mehmoningga bizdin salom ayt.

²²³Oludalik – kirlik, chirkınlik.

Eshigingga kelsa, o'zni unutma,
O'zingni past emas, baland ham tutma.

Jon ila qabul et tuzsa bazmi xos,
Yo'qsa, eshikbondin senga yo'q xalos.

1305 Loyli kovushing-la borma taxt sari,
Kovushingni yechib kirgil ichkari.

Shoh ila sufraga o'ltirmay, oldin
Tirmog'ingni olib, qo'lingni yuvgin.

Kimda had, narra sher bo'lsa hamki ul,
Sulton taxti sari borolgay dadil?

Sher taxting oldida baxta bo'lgusi²²⁴.
Taxting haybatidin taxta bo'lgusi.

Sening dargohingga kiruvchi kimsa,
Shatta yeydi magar yo'lni yitarsa.

1310 Endi ko'rgil o'zing, ne dargohdasen,
Qalbing ila nechuk nazargohdasen?

Bu eshikda sen sohibi janda bo'l,
Boshi egik, bir xokisor banda bo'l.

Agarde sen shoh bo'l sangu Shahriyor,
Posbonlar iti birla ne ishing bor?

Achchiqlanina, magar gapirdim achchiq,
Aytarimni shirin aytnadim ortiq.

²²⁴ Baxta – uch yoki to'rt yashar shunqor.

Kuyik qalbim meni tark etmish edi,
Sayr etgali samoga ketmish edi.

1315 Osmondin zaminga qaytdi bu ko'ngil,
U yoqdin senga deb keltirgani shul...

Shu so'zlarni aytdi donishmandi haq,
So'zi Shoh ko'ngliga jo bo'ldi mutlaq.

Yuzlari yorishib misoli oftob,
Saroyiga hamon yo'l oldi shitob.

Buyurdi, kotibi yozdi daf'atan,
O'sha nuqtalarni oltin harf bilan...

Iskandarning hind donishmandi ila suhbat qurgani Muq'anniyнома

Muq'anniy, yana bir navo aylakim,
Gulshan aro bulbulga bormu tinim?

1320 Sozingdin sadolar tarat, chunki ul
Men tilsiz bandani tilga keltirur...

Doston

O'shal faylasuf, ustodi ilmu fan,
Dedikim, ilm ayladi podshoni band.

Shu bo'ldi, og'ziga mayni olmadi,
Ma'nosiz shodlikka mayli qolmadi.

Bir kuni tong otib ul zarrin niqob,
Shu borliq jahonga yuz ochdi oftob.

Bilim oyini-la Iskandar turdi,
Shohona taxtiga kelib o'ltirdi.

1325 Xos mahrami kirib, ayladi xabar,
Ki, bir hindu kelib ijozat so'rar.

Deydikim, izn etsalar Shahriyor,
Podshoga munosib aytar so'zim bor

Podsho buyuodiki, keltirding shitob,
Muq'ni oftobiga yetkazing shu tob²²⁵.

Mahramlar yugurib-elib shu zamon,
Muq'ni shoh oldiga etdilar ravon.

Muq' rasmi ehtirom etib kirdi-da,
Muq'ona bosh egdi olov oldida.

1330 Ko'rdi, ko'z o'ngida quyosh porladi,
Muq'ona ta'zimin bajo ayladi.

Shoh shunda ishorat aylab, etdi roy,
O'ltir, deb hinduga ko'rsatdilar joy.

Majlisda so'z ketdi necha dilpisand,
Shu xoki zamindan to charxi baland.

Har kimsa ko'rsatib hunar, san'atin,
So'z birla oshirar erdi qiymatin.

²²⁵ Mug' – otashparast, oftob – podshoga ishora.

So'z gali hinduga yetishgan paytda,
Toza gul yuz ochdi eski daraxtda.

- 1335 Sirli nuqtalardin so'z ochdi hindu,
Sochdi sochilmamish necha bir inju.

Falakni jom etib tutdi dudoqqa,
Jahonni dur etib taqdi quloqqa.

Jahondor sha'niga so'ylarkan sano,
Shunday so'yladiki, yorishdi borgoh²²⁶.

Shohga hamdu aytib, biloxir
So'z niqobin yechdi u donoyi pir.

Dedi: qorong'u din keldim bu yoqqa,
Xuddi parvonadek ravshan chiroqqa.

- 1340 Ul chiroq oshnolik qilgaymu, dedim,
Tiyramen, ro'shnolik qilgaymu, dedim.

Hama hindularga peshvoman hamon,
Fikrda keksayu kuchda navqiron.

Tugik-tugik so'zlarim bordir base,
Echolmas ul tugunlarni har kese.

Eshitdimki.nodiri davron o'zing,
Bilimdonlar aro bilimdon o'zing.

Aqling asl gavhar, behamto erur,
Har ne tugun ersa, ochguvchidir ul.

²²⁶ Borgoh – saroy, podshoning qasri.

1345 Xudovand bermishdir toju taxt senga,
Yana ilmu donishdanam baxt senga.

Agar savolimga ololsam javob,
Yuz o'girgum, menga tangrimas oftob.

Savolimga javob olomasam gar,
Yurtimga qaytishim bo'lur muqarrar.

Faqat Shahriyordin eshitay so'zni,
O'zgalar suhbatga qo'shmasin o'zni.

Mendan savol, shohdin javobi bo'lgay,
Sevinch ila kelgan savobi bo'lgay...

1350 Jahondor dediki: "Qo'y bahonani,
Har nihon so'zing ersa, aytgil uni!"

Jahondiyda hindu yer o'pib hamon,
Tilini shamshiri hindiy aylabon,

Ofarinni etib sazovori shoh,
Allohning ishidin so'z ochdi nogoh.

So'rdi: ruh tanimdin uchsa, qo'yib yuk,
Alloh huzuriga borgaymen nechuk?

Tangri yagonadir, bilarmen buni.
Ammo qaydin izlab, toparmen uni?

1355 O'zi noayondir, nishoni paydo,
Bu yopiq eshikning kaliti qayda?

Vujudiki, sohibmaoniy erur,
Zaminiymi yo osmoniy erur?

Xayolda izlaymi, amalda magar.
Ne deyman joyini mendan so'rsalar?

Erdami, ko'kdami? Istarmen shu tob
Hujjat, dilil ila berilsa javob...

Jahondorning javobi bo'ldi chunin,
Dedi: so'z qisqadir bunga ham uzun.

1360 O'zingdin yuz burib, odim otganing,
Alloh huzuriga yo'lni topganing.

Joyini izlashga kimsa royi yo'q,
Ki ul joy yaratguvchining joyi yo'q.

Na kimsa yetolgay sinoatiga,
Na fikru andisha Uning zotiga.

Andisha baholab, beradi qiymat
Ko'zi bilan ko'rgan narsaga faqat.

Xudoni xayoldan izlamoq, xato.
Xayolda shaytonu dev bo'lur tanho.

1365 Bir narsaga borib yetarkan xayol,
Uni yaratmog'lik emasdir mahol.

Ylki, yo'qdir unga andishada joy,
Olamni yaratgan Allohdir, Xudoy

Bu yo'lda adashma, aylama unut,
To oyni to'smagay ko'zingdin bulut.

Tangrining nishoni senga kifoyat.
Shu yerga yetdingmi, ayla qanoat.

Allohni tanishga shuning o'zi bas,
Allohni tanigan nariga o'tmas...

- 1370 Shohning javobini tingladi hindu,
Va kirishdi boshqa savollarga u.

Dediki: "Zamin bor, bordir osmon,
Chegarasi bordir ularning ayon.

Aytgil, bundan nari, tashqariga ul,
Borni bir arsaga yoki yo'qmi yo'l?

Bor esa, kimsa nega ogoh emas?
Yo'q esa, yo'l yo'qlikka paydo emas...

Jahongir dediki: "Bu ko'hna gapdan
So'zing bo'lsa yangiroq, ayt daf'atan.

- 1375 Eru ko'kdin nari oshiqmagil to,
Sarrishtani qo'ldin chiqarma nogoh.

Falak chiziq tortmish yetti doira,
Chiziqdin nariga o'tmagil sira.

O'tsang, to'kilgaydir qoning unda, hay,
Falak shamshir tutib, qarshingda turgay.

Bu borgoh bir buyuk qal'adir, baland,
Fikrimiz to'silgay shu devor bilan.

Inson shu devordin osholmasa ul,
Ortidagi sirni qayoqdin bilur?

- 1380 Izlamas o'zga pardayi rozni ul,
Xabar ichra anjomu og'ozni ul.

Kelur hundan dastur, bo'yla bir yo'riq,
Ko'rinmas esa, o'ylashga o'rin yo'q.

Ko'rinmas uza o'ylasang mabodo,
Yaxshi ko'rolsang-da, ko'rgaysen xato.

Necha bir odamni hali ko'rmayin,
Xayolda tasavvur etgandim tayin.

Oqibat bir kuni ko'rib, bildim lek,
Emasdi ul tasavvur etganimdek.

1385 Boshqa bir jahon bor, ko'rmaslar uni,
U yerda izlamak ravodir buni...

Hindu yana savol ayladi chunon:
Ne uchun bir emas, ikkidir jahon?

Jahonki, berilmish zeb ila ziynat,
O'zga bir jahonga yana ne hojat?

Bu yerda shunchalar yashamoq mumkin,
U yoqqa borishlik yana ne uchun?

Gar o'shal makonda yashashdir go'zal,
Nega bu go'zalga kelurmiz avval?..

1390 Xiradmand shoh dedi: "Ayo sadomard,
Ko'ngildin g'uborni shu hikmat-la art.

Haqdin ikki jahon keldi shu taxlit,
U yerda ganj esa, bu yerda kalit.

Bu yerda har nechuk ekarsen ekin,
U yerda hosilin yig'arsen keyin.

Bu yerda har narsa o'zgarur har vaqt.
U yerda o'zgarmas, boqiydir abad.

Ikki pargor chekmish amalda Xudo,
Bu yerda yaratish, u yerda duo.

1395 Bu dunyo bir ko'prik, o'tolmog'i shart.
Sel oqib, daryoga qo'shilmog'i shart.

Tog'lardin oquvchi chashma ham ravon,
Oqibat daryoda tutgaydir makon..."

Hindu berdi yana savolin mushkul:
Nimadir tanga jon baxsh etguvchi ul?

Mening nazarimda olovdir faqat
Tanga baxsh etguvchi rohat, harorat.

Jon chiqarkan, so'nar tanda o't hamon.
Bu narsaga kimsa keltirmas gumon...

1400 Bu gapdin bo'yla otashin bo'ldi Shoh,
Otdi hindu sari qahrli nigoh,

Dedi: "Shaytoniydir bayoning sening,
Agar jon otash esa, joning sening!

Bilmaysanmi magar, jon aylab safar,
Yana o'shal kelgan joyiga qaytar?

Otashdin bo'lsaydi ilkin junbushi,
Jonni so'ng do'zaxdin izlardi kishi.

Dedingki, boshiga ajal yetgan chog'
Jon so'nar, ohista so'ngandek charog'.

1405 Aytganing g'alatdir, ilohiydir jon,
Qaytar dargohiga, o'lmas hech qachon.

Jon berdi, deydilar kishi jon bersa,
Uning joni o'ldi, degaymi kimsa?

Jon berdi. deyilsa, bo'lmagay xato,
"Berish"ning "o'lish"din farqi bu dunyo.

Kech shirin joningdin, o'shal nuri pok.
Nuri ilohiydir, na suvdir, na xok..."

Yana hindu jamlab boshiga hushni,
Bu safar so'radi uyquni, tushni:

1410 Kishi uyquga ketganda, shul zahot
Qaysi bir kuch unga baxsh etar qanot?

Kezar qadam-qadam necha tog'u dasht.
Kechar boshidin bir jahon sarguzasht.

Ko'rguvchi ul esa, uxlagan kimdir?
Musavvir ul esa, bu surat nadir?

Shoh dedi: "So'rading, aytamen, qaydin.
Tush xayoldin kelur, xayol badandin.

Tushlaring manzili taningdir, aniq,
Bunda oshnolik bor, begonalik yo'q .

1415 O'lik yo tirikni ko'rsang uyquda,
O'z sha'ing shu'lasini aks etar unda.

Aks etar andishayi poking sening,
Ko'rsatur maqsadi idroking sening.

Gar bilmoq istasang, ne uchun uxloq
Kimsada ul asror yuz ochar mundoq?

Yolg'iz, nazoratsiz qolganda xayol
Unga bor holicha ayon bo'lur hol.

Riyozat chekkanlar, ne asrori bor,
Garchi uyg'oqdirlar, ammo xabardor.

1420 Boshqalar uyquda ko'rganni hamon
Bedor aql ila ko'rgaylar ayon..."

Yana savol berdi hindu tinmagur,
Magar olmos ila tag'in teshdi dur.

Dediki, ilmingdin samar ber menga,
Yomon ko'z nimadir, xabar ber menga.

Bir narsani xush ko'rsa gar badnazar,
Nega ul narsaga ziyon keltirar?

Vale tajribali, o'tkir bilimdon
Kishi kim, birovg'a aylamas ziyon.

1425 Xush ko'rib narsaga boqqanda har gal,
Nazari narsaga rivoj keltirar.

Yomon ko'z narsaga bermagay omon,
Natija kelgaydir undan ko'p yomon.

So'zi, amalini ayladik tadqiq,
Unda to'g'rilikdin nomu nishon yo'q.

Ammo kamon tortib o'tsa doimo,
O'qini nishonga urar bexato.

Ayt, qaydin olur ul quvvatu quchin,
Bu ofatga chora topgaymiz nechuk?

1430 Men qandoq bilurmen duch kelsa magar,
Yomon nazarmi ul yoki xush nazar?

Jahondor dediki: "Keltirib qiyos,
Donishmandlar bunga topmishlar asos.

Nazar to nishonga yetguncha chunon,
Havodin o'tadi o'sha begumon.

O'tarkan, u havo ila birlashar,
Shu boisdin kuchi, ta'siri oshar.

Ko'zning kasofati solar ekan iz,
Ortidin haqo ham urar shubhasiz.

1435 Havo sog'lom esa toza, muattar,
Narsaga nazardin yetmagay asar.

Havo badbo'y esa, zaharli bo'g'iq,
Narsani qulatar, andin omon yo'q.

Yomon havo etar yomonlik pesha,
Badnazarga sherik bo'lur hamisha.

Va lein nazdimda, shu ishga tegish
Boshqa bir sabab bor, kimsa aytmamish.

Sabahkor ul yomon nazarmas yolg'iz,
Qarshisida turgan narsa ham bois.

1440 Ko'z o'ngida narsa ocharkan jamol,
Yomon ko'z jazoga tortadi darhol.

Hazir bo'lib doim unga erta-kech,
Ko'rinish bermamish go'zal kimsa hech.

Go'zal paykar ko'rib qarshisida, bas,
Yomon ko'z suqlanib boqar, tinchimas.

Xush qiyofa kimsa ko'rinsa, albat,
Amalga kirishar hamon kasofat.

Kishi kim, ko'z tegsa unga nogahon,
Ketma-ket esnashga tushar shu zamon.

1445 Ko'zi yomon, kasofatli bo'lsa kim,
Peshonasi terlab turar betinim.

Ko'rsatur senga shu ikki nishoni,
Ko'z tekkan kimsani, ko'zi yomonni.

Isiriq yoqarlar tutun taratib,
Ki ofat otashda yonib bitsin deb.

Afsungardin kelur yana bir izoh,
Ichiriq yonarkan falakkacha to.

Yuksalib u tutun, yoyilib davom,
Baloning yo'lini to'sar batanom.

1450 Eshitdi chun hinduyi rumiyparast,
Hindiy shamshiriga yana urdi dast.

Ki, yaxshi -yomondin fol ochib har gal,
Munajjim ne tariyq beradi xabar?

Bir amalki, hali yuz bermamish ul,
Yaxshi-yomonligin qayoqdin bilur?

Shundoq javob keldi shohi jahondin:
"Har narsaki kelur yaxshi, yomondin,

Shu gunbaz shiftiga bitilmish ayon,
Yaxshi gar yaxshidir, yomondir yomon.

1455 Munajjim fol ochib, bilgaydir uni,
Tole daftaridin o'qib yozuvni.

O'qirkan, munajjim ayon bilgusi,
Ul urug'din nechuk hosil kelgusi.

Parvardigor o'zi, ul olampanoh
Arzi niyozimiz tinglab doimo.

Ko'rib hojatimiz ko'pu ozini,
Ochar gohida bizga dil rozini.

Tushirgay bir farishta birlan kalit,
Va oshkor aylagay rozin shul tariyq".

1460 Hindu mast bo'ldi bu bodayi guldin,
Hindiy shamshirini tushirdi qo'ldin.

Yana so'rdi: Ne sababdin Chinu Zang
Ikki xos suratda keldi, ikki rang?

Bu dunyoda, axir, rang bittadir, toq,
Nechun bu qaro bo'ldi, u bo'ldi oq?..

Jahondor dediki: "Ayo, har nafas
Ikki rangni ko'rgil, bir rangni emas.

Ikki yuzlidir quyosh oyinavash,
Bir yuzi Chin taraf, bir yuzi Habash.

1465 Bir yuzi yuzlarni oy etar go'yo,
Boshqasi yuzlarni aylagay qaro..."

Ul hinduyi dono yog'dirib savol,
Sikandar ilmi oldida qoldi lol.

Unga taslim bo'lib, yer o'pdi hamon,
Shohning boshi ko'kka yetdi ul zamon.

Olimu fuzalo shodlanib barcha,
Allohga shukrona aytdilar necha...

Iskandar yetti hakim ila xilvatga chekingani Muq'anniynoma

Muq'anniy, chal taronayi boston²²⁷,
Ko'mak ber, yetsin haddiga doston.

1470 Qutqaray jonimni shu doston ila,
Yo'lim poyoniga yetsin bir yo'la...

Doston

Faylasufdin keldi tag'in shu bayon:
Shohga ko'p shu kuhli ko'rindi davron.

Bir kuni uyg'onib u farhundahol,
Ulashdi elga necha ganj, mulku mol.

Uning ehsonidin boy bo'ldi mardum,
Faqirlikdin xalos bo'ldi ahli Rum.

²²⁷ Taronayi bo'ston – qadimiy tarona.

Podsholar kelishdi bosh egib bir-bir,
Turdilar xizmatda hoziru nozir.

- 1475 Farxundalik aro ul shohi jahon
Taxtiga o'ltirib bir kun shodmon.

So'z ochdi, sharh etib insof, dinu dod.
So'zidin gavharlar sochdi bot-bot.

Keyin nuqta qo'yib shirin suhbatga,
Mayl etdi, chekindi o'zi xilvatga.

Barchaga mehru iltifot ayladi,
Keyin yetti faylasufni sayladi.

Balinosi barnovu Suqroti pir,
Arastu, ya'ni ul podshoga vazir.

- 1480 Falotunu Volisu Farfuriyus,
Ularga qoyil edi Ruhulqudus.

Ettinchisi erdi Hirmisi valiy,
Ettinchi osmonda edi manzili.

Etti pargor edi shoh tegrasida,
Ul esa nuqtadek eng o'rtasida.

Ajab davra edi, shu kuhli, porloq,
Kibrdin xoliyu bodadin yiroq.

Ochiq chehra bilan ul majlis aro,
Boqib jamotga, ko'nglin ochdi Shoh.

- 1485 Dedi chin yurakdin xitob aylabon:
"Qachongacha sirmi tutarmiz nihon?"

Kechirdik tunlarni necha mast-alast,
Bo'lsin bir kunimiz aqlga payvast.

Oy ila oftobga termulib bir kun,
Falak asroridin ochaylik tugun.

Bilaylik, yer uzra shu baland chodir
Ne tayanch ustida yuksalib turur?

Shu yeru samoga birinchi dalil
Ne edi avvalda, aytilsin dadil.

1490 Magar vojib erur aytilsa avval,
Eng birinchi tarkib ne edi o'shal ?

Bu ko'payish ila kamayishki bor,
Ne yo'sin yo'qlikdin bo'ldi oshkor?

Ne edi borliqqa birinchi sabab,
Ko'kda yulduzlardin ko'raylik izlab.

Olimlar majlisin bu yanglig' tag'in,
Yillar o'tsa hamki, to'plamoq qiyin.

Bilmaymiz, bu yo'lda chekib bori ranj,
Kimga nasib etar o'shal koni ganj?

1495 Aylasin har kimsa izhori donish,
Bu dunyo azaldin qanday yaralmish?

Hukmini berganda jahonofarin²²⁸,
Osmon yaralganmi avval yo zamin?

²²⁸Jahonofarin – jahonni yaratgah, ya'ni Alloh.

Keling, nechuk bo'ldi, etaylik izhor,
Jahonning bahori gul ochdi ilk bor?

Nechuk bunyod etdi binokor bino,
Va sozdin yangrab uchdi avvalg'ino?..²²⁹

Shoh majlis ahliga durdonga sochdi,
Fikr xazinasi eshigin ochdi.

1500 Buyurdi, hakimlar yuritsin suxan
Qadimiy dunyoning tub tarixidan.

Majlis ahli dedi: bu ayni savob,
Faqat loyiq bo'lsin savolga javob.

Barcha bilganini aytsin galma-gal,
So'zini Arastu so'ylasin avval...

Ilk yaratilish xususida Arastuning aytganlari

Arastu ravshandil, ajab xushmand,
Podshoga maqtoqlar yog'dirdi baland.

Dedi: donish durin sochguvchidirsen,
Ilmlar eshigin ochguvchidirsen.

1505 Tangri panohida doim shod yasha,
Mehnat-mashaqqatlardan ozod yasha!

Buyurding aytishni, ayo Shahriyor,
Borliq o'zi nechuk yuz berdi ilk bor?

²²⁹Avvalg'ino – ilk ohang.

Yolg'iz bir harakat edi avvalin,
Tebranib, ikkiga bo'lindi keyin.

Ul ikki harakat so'ng birlashdi-da,
Yangi bir harakat yuz berdi shunda.

Avvalgi harakat yagona edi,
Uch harakat kelib, qo'shildi endi.

1510 Uch chiziq chizilib, ko'rindi ayon,
Uch doira bo'ldi ravshan namoyon.

Markazdin ayrilgach ul doiralar,
Yarqirab o'rtada ko'rindi javhar.

Javhar chiqdi, aql ko'rib zotini,
Harakatchan jism qo'ydi otini.

Harakatchan jism bilmasdi tinim,
Nuqul harakatda edi, betinim.

Jism parchalari ul besabru tob,
Markazga intilib, etardi shitob.

1515 Tepaga chiqqanlar bo'lib beorom,
Pastga tushganlari topardi orom.

Jism charx urarkan yarqirab chunon,
Undan paydo bo'ldi tiniq osmon.

Osmon ham intilib o'z markaziga,
Harakatda bo'ldi aylanasiga.

Keyin shu maylini sira qo'ymadi,
O'shal aylanishdin sira to'ymadi.

Pargor chizgan o'shal ilk doiradan
Bunyod bo'ldi shundoq sipehri baland.

- 1520 So'ng otash ko'rinib bo'ldi huvaydo,
Ko'kning gardishidin bo'lmishdi paydo.

Otash quvvatidin havo yaraldi
Va undan bag'riga harorat oldi.

Havo rutubatli, juda nam edi,
Sababki, harakat unda kam edi.

Tarovat o'laroq tomchiladi u,
Shu yo'sin yaraldi zilol, toza suv.

Suv g'ubori cho'kdi, jamlanib andoq,
Hosil bo'ldi undan ko'rganing tuproq.

- 1525 To'rt javhar yaratdi chun amri Xudoy,
Har biri o'z maqomida oldi joy.

To'rt javhar etarkan bir-birini jalb,
Nabotot yaraldi ulardin, ajab.

O'shal o'simliklar tufayli endi
Har turli hayvonot maydonga keldi...

Shunday deb talqin etar aqli kamol,
Uning bundan nari o'tmog'i mahol.

Ilk yaratilish xususida Volisning aytganlari

So'z boshladi Volisi dono suxan:
Shohimizdin jahon bo'lsin bahramand.

1530 Ta'limi donishda pahlavon bo'lsin,
Ma'rifat izlashda qahramon bo'lsin!

Chu farmon yetishdi shohdin barchaga,
Har kim bilganini qo'ysin o'rtaga...

Mening bu borada nazarim boshqa,
Dunyoning javhari suv edi boshda!

Suvning harakati bir joyga yetdi,
Oqibat sachragan olov kasb etdi.

Chaqmoq chaqib, bug'din ayirdi o'tni,
Tushirdi ul namchil havo, bulutni.

1535 Suvning tarkibida g'ubor edi mo'l,
G'ubor qotib, undan yer bo'ldi hosil.

Har javhar o'z o'rni, ma'vosin oldi,
Jahon tabiatdin navosin oldi.

Jumla boshidagi lutfi birla chun
Yaraldi va tushdi junbushga gardun.

Ammo tinglaguvchi buni tinglamas,
Suvdin yaralganin iqror aylamas.

Nutfaning misoil dalildir aniq,
Mening aytganimni etadi tasdiq....

Ilk yaratilish xususida Balinosning aytganlari

1540 Balinosi dono tiz cho'kib hamon,
yer o'pib dedikim: ey shohi jahon,

Dunyo turguncha tur sobit, ustuvor,
Alloh marhamati bo'lsin senga yor!

Shoh dili tushmasin ilmdin yiroq,
Etsin ko'zimizni nur bilan porloq.

Endi amringiz-la, podshohi olam,
Men ham yaratilish asrorin aytsam.

Ki birinchi tilsim yer edi, tuproq,
O'shandin tarkiblar yaraldi mundoq.

1545 Harakat quvvati etdi unga kor,
Eridi, bag'ridin bug' uchdi, buxor.

Zarralar bor edi unda nurli, pok,
Yuksalib, bo'ldilar anjumi aflok²³⁰.

Boshqa bir zarralar ucholmay baland,
O'zga markazlarda tutdilar maskan.

Bir zarrasi otashi ravshan edi,
Biland gunbaz ostida gulshan edi.

Bir zarrasi uchqur yel edi chunon,
Toki tebranmasa, bo'lmagay ayon.

²³⁰ Anjumi aflok – osmon yulduzlari.

1550 Uchinchisi suvdir, hayot baxsh etar,
Har narsaga undan tarovat yetar.

To'rtinchisi sho'rlik shu tuproq crur,
Toptalib, shamolda changi sovrilur...

Ilk yaratilish xususida Suqrotning aytganlari

So'z navbati Suqrotga yetdi keyin,
So'z yog'dirdi duoda xurmodayin:

Umring uzoq bo'lsin, baxting mo'lu ko'l,
Dinu donishga doim dilbasta bo'l.

Barcha orzularni shikor aylagil,
Jahon asrorini oshkor aylagil!

1555 Savolkim so'rdi Shahriyori jahon,
Bu pinhon nuqtani kim aylar ayon?

Vale fikru andisha aylab necha,
Har kimsa sharh etar o'z bilganicha.

Hali ilk sahifa yaralmagandi,
Bor vujud ul yakka Xudovand edi.

Azmidin bir bulut yaralib nogoh,
Etdi chaqmoq ila bulutni paydo.

Yong'irdin yaraldi osmon shu tob,
Chaqmog'idin ko'kda oy ila oftob

1560 Keyin bug' - buxorning g'ubori indi,
Erni bunyod etib, o'rniqa qo'ydi.

Bundan nari yo'lehi boshlamaydi, bas,
Ulki men so'ykladim, behuda emas...

Ilk yaratilish xususida Farfuriusning aytganlari

Ta'zim bajo etib, yer o'pib, so'ngra
Dono Farfurius kirishdi so'zga.

Dedi: Shu dunyoda turguncha davron,
O'zing bo'l saodatli shohi jahon!

Adolating dunyoni shod aylasin,
Zulmu sitamlarga bedod aylasin!

1565 Savol berding, ey shohi ezidshunos,
Keldi mening ko'nglimga andoq qiyos.

Yaratarkan borliq jahonni, avval
Yaratuvchi Tangrim yaratdi javhar.

Azmi ilohiyning fayzi bilan ul,
Erib, o'sha javhar suv bo'ldi butkul.

Ikkiga bo'linib, joy oldi asta,
Birisi balandda, birisi pastda.

Kofuru mushk kabi olarkan yo'riq,
Birisi ho'l erdi, birisi quruq.

1570 Yarmisi ho'lligi sabab beorom,
Yarmida quruqlik tufayli orom.

Beorom suvlardin samo taraldi,
Osuda suvlardin zamin yaraldi.

Xirad shu nuqtaga yetib keldi, hay,
Bundan nari yo`qdir andishaga joy...

Ilk yaratilish xususida Hirmisning aytganlari

Gal Hirmisga yetdi, shay edi, hozir,
Qulfga kalit solib, bo'shatdi zanjir.

Aqlning arqonin uzatib uzun,
Shohni duo aylab, boshladi so'zin.

1575 Dediki, shohimiz salomat bo'lgay,
Muammoni yechib, quvonchga to'lgay.

Falak shod kom etib uning komini,
Falakka ko'tarsin aziz nomini!

Podshohim etdilar maylu ixtiyor,
Bersin har og'och unda ne meva bor.

Shohim farmoniga bosh egib men ham,
Istarmen savolga javob aylasam.

Aqlimni tanigan kundan doimo
Shu niliy gunbazga tikarman nigoh.

1580 Nazdimda shu ganbazki, andoq baland,
Tog' uzra muallaq tutunga monand.

Shu qo'rqinch tutunning ustida biroq,
Yarqiragan nur bor, musaffo, porloq.

Numi parda bo'lib to'sgaydir tutun,
Darichalar bordir, darichalardin.

Nur tushib turadi bizga bir qadar
Tutundin yo‘l topib, yerga taralar.

Oy ila oftob, yulduzlar hamon
O‘sha yorug‘likdin aniq bir nishon.

- 1585 Yaratuvchi ma‘lum, bilmasman biroq,
Ne uchun boshda u yaratdi shundoq?..

Ilk yaratilish xususida Aflotunning aytganlari

Faluotunki barchaga ustod edi,
Ko‘ngil daryosidin dur sochib, dedi.

Ki andoq ravshanxirad shohi jahon
Ko‘nglidin bir asror qolurmu nihon?

Davlatu saltanat yor bo‘lsin anga,
Tangri o‘zi madadkor bo‘lsin anga!

Aytamiz, ne so‘rdi dili pokidin,
Lekin hadikimiz bor idrokidin.

- 1590 Yanglish so‘ylamakdin qo‘rqmasmiz, biroq
Ko‘rmagan narsani aytamiz qandoq?

Mening nazarimda, sohibi azal
Borliqni yo‘qlikdin yaratdi avval.

Borliqni borliqdin yaratsaydi U,
Moya o‘zgarmasdan qolardi mang²³¹.

²³¹ Moya – narsaning asl gavhari.

Moyadin tug'ilur har narsa, ammo,
Kadxudo boshqadir, boshqadir Xudo.

Ulki xirad aytur otini Ahad,
Yaratish bobida chekinas mashaqqat.

1595 Ayricha yaratdi har gavharni Ul,
O'rtada o'rtachi yo'q edi butkul.

Har gavharni bezab, etdi muzayyan,
Ixtilof o'rtadin ketdi tamoman.

Qo'shib-qorishtirdi muxolifatni,
Yaratdi Odamdek mukammal zotni.

Birgina chumoli qanoti chunon,
Tangri qudratini qilur namoyon...

Ilk yaratilish xususida Iskandarning aytganlari

Majlisga xotima fursati yetdi,
Podsho so'z qadrini oyga yuksaltirdi.

1600 Iskandarki xurshidi ofoq edi,
Ravshan dillikda dahr aro toq edi.

Uning nuri bois ahli munavvar,
Bir majlis tuzdilar bo'ylakim go'zal.

Podsho dono esa har ne tavrída,
Donolar ko'payur uning davrida.

Donolar so'yladi, go'sh ayladi Shoh²³²,
Har jomni ayricha no'sh ayladi Shoh.

Faylasuf so'zin tinglab bag'oyat,
Ularga so'radi Haqdin inoyat.

1605 Va so'ngra dedikim: ahli fuzalo,
Xayolda yulduzlar ko'rdim men raso.

Men bildimki, surat kelmish avvali,
Ortida bir suratchi bordir vale.

Garchi bildim, suratchi bordir nihon,
Nechuk surat chekar, bilmasma hamon.

Bilsaydim suratchi sirrini magar,
Uning hunariga etardim amal.

Agarchi ko'ngilda surat etar aks,
Amaliy etmoqqa qurbing yetishmas.

1610 Xilqat siri bizga noayon joyda,
Uning tadqiqini aylamak qayda?

Osmonni varaqdek berdingiz o'qib,
Ammo so'zlaringiz bo'ldi muxtalif.

Bundan ortiq so'zga bormi e'tibor,
Ki jahon naqshining naqshbandi bor...

²³² Gosh aylamoq – eshitmoq, tinglamoq.

Ilk yaratilish xususida Hakim Nizomiyning aytganlari

Nizomiy, bu eshikka solma kalit,
Bir kimsa ko'rmamish, keldi ne tariyq.

Buyuk parvardigor yaratmish ani,
Yaratmish har nechuk pastu balandni.

1615 Avval boshlab aqlni bor ayladi,
Nur berdi, diydani bedor ayladi.

Qudrat qalami-la yaratib har on,
Aql nazaridin tutmadi pinhon.

Birinchi naqshini chekar pallasi,
Aqlning ko'ziga tortdi pardasin.

Qachonki ilk naqshi, suratin soldi,
Aqlning ko'zidin pardani oldi.

Yashirin ganj oshkor bo'lgach shu taxlit,
Aqlning qo'liga topshirdi kalit.

1620 Avvalgi hisobni so'rash befoyda,
Aql ko'zi bog'liq edi u joyda.

Boshqa joyda aql nazar tashlagay,
O'zi rahbar bo'lib, yo'lga boshlagay.

Ul joydakim ko'zi bog'liqdi g'oyat,
Hikoyat aylama, so'nma hikoyat.

Vale har qaydakim rahnamo erur,
U yetgan manzilga kim yeta olur?

G'ayb yo'li undanam yiroqdir rosa,
Aqlu xirad ila yetarmi kimsa?

- 1625 Xiradmand deb kishi aytilur chindan,
Ko'rinmasga boqmay, ko'z yumsa undan.

San`at san'atkorning yoniga eltar,
Bu to'g'rida aytgan ashulang yetar.

So'zni ko'r, agarchi ulovi oqsoq,
Tor yo'lakdin chiqib kelmoqda qandoq?

Hamono bir hotif, Xizr unga nom,
Qoyalarni ezib, ko'klarda xirom.

Etguvchi zot yelib, yonimga keldi,
Falakdin ko'shku ayvonimga keldi.

- 1630 Shirin so'zi ko'nglimni shod ayladi,
U yunshoq ovozda menga so'yladi.

Dediki, yashirin so'zlaring bugun
Necha tilsizlarga aytasan nechun?

Bir sarvi chamanni aylab parvarish,
Faylasuflarga bermaging ne emish?

Nafis so'zlaringni nechuk bedavo,
Chirik suyarlarga ko'rgaysen ravo?

Begona sufrada yegaysen noning,
O'zing parda tutib, to'smagil xoning²³³.

²³³ Xoning – dasturxonning ma'nosida.

1635 Zamon ahlini ko'r, johil qanchalar,
Ilmgamas, fitnaga mashg'ul ular.

Shu qaro tuproqni sevarlar ko'proq,
Tuproqtan insonga boqmaslar biroq.

Bu tuproqni hiylagar deb aytsa. oz,
Muhra o'g'irlaydi, o'zi muhraboz.

Muhrani ul kaftida tutgay nihon,
Og'zidin chiqarar keyin nogahon.

Yutganda zarnixi sariq erar, zard²³⁴,
Chiqarganda niliy erur, lojuvard.

1640 Xazonda u quruq ud yeydi, ajab,
Bahorda o'ltirar atri mushk tarab.

Odamiyning tani chiriydi andoq,
Bilmasmen, u yana qaytadi qandoq?

Tanimizki o'shal xok maskandadir,
Yo'q olmas, va lekin parokandadir.

Parokanda esa bo'laklar o'shal,
Bir joyga yig'ilsa, bo'lur mukammal.

Tuproqqa sochilgan edi har yona,
Turar shovqin solib o'rnidan yana.

1645 Oltin zarralarni, qarang, har safar
Nechuk siymob ila yig'adi zargar.

²³⁴ Zarnix – margumushga qorishtirilgan gugurt.

Parokanda zarralarni chorasoz
O`zga bir siymob-la yig`ar bo`lsa boz,

Ne ajab, tuproqda sochilgan joyda
Bir kuni tanimiz tirilsa qayta...

Iskandarning Payg`ambarlik maqomiga yetgani Muq`anniyoma

Muq`anniy, sahar yangratib bongi rud,
Jo`r ayla anga "Pahlavoniy" surud.

Nishoti soz ila quvontir meni,
Eshitmay bema`ni, quruq nag`mani...

Doston

1650 Hamon ul faylasuf, muhandisnihod²³⁵,
Rum tarixidin etdi bir lavha yod.

Donishmandlar ustoz, ul nuqtadon,
Sikandar jahondoru sohibqiron,

Ilmu donishda yuksalib shu tariyq,
Aqli har ne mushkulga bo`ldi kalit.

Ne-ne raxnalarni boyladi, yopdi,
Ne-ne tugunlarni yechdi, yo`qotdi.

Jahonda ne bilimlar erdi nihon,
Ularga bo`ldi ul yakka bilimdon.

²³⁵ Muhandisnihod – oqilu dono.

1655 Olimlarki ahli Yunon, ahli Rum,
O'rgandi o'shandin, kasb etdi ulum²³⁶.

Ko'kda yulduzlarning tasnifin etdi,
Erda ham har nechuk maqsadga yetdi.

Boshidin tojini irg'itdi, ammo
Ilohiy tojdin kiydi amoma²³⁷.

Yaratilish ne deb o'zni qistadi,
Tangrining zotini bilmoq istadi.

Dediki, koinot aslini ko'rsam,
Etti qat surmarang pardani sursam,

1660 Va unda ko'rolsam o'zim boricha,
U qo'lga kirmasni bor miqdoricha...

Kunu tunlar kechirdi jahd aylabon,
Tole tuni bo'ldi oxir charog'on.

Farishta keldi yoniga bir mahal,
U behushga Xudodin berdi xabar.

Farishtakim, porlar edi Quyoshdak,
Shaytoni g'addordin yiroq bir malak.

Pinhon tutib bag'rida gavhar kabi,
Xudovanda pokdin yetkazdi vahiy.

1665 Dediki: "Baxsh etib chun oliy maqom,
Parvardigor senga yo'lladi salom.

²³⁶ Ulum – ilmlar.

²³⁷ Amoma – dastor.

Jahonhonlikni bermish erdi ajib,
Endi payg'ambarlikni etdi nasib.

Alloh azmiila erding Shahriyor,
Endi senga amr etdi Parvardigor,

Ki turgil oyoqqa, tark ayla orom,
O'zingni shu ishga bag'ishla tamom.

Jahonga quyoshdek qadaming tashla,
Vahshiy qavmlarni iymonga boshla.

1670 Qaytsin yomon yo'ldin, yuzni o'girsin,
 Yaratgan Xudoning yo'liga yursin.

Eski imoratni yangidan qurgil,
Dunyoni g'aflatdin pok etib, yuvgil.

Qoldirma jahonda zulm ila bedod,
Har yerda adolat aylagil bunyod.

Uyqusidin uyg'ot uxlaganlarni,
Aqlning yuzidin ko'tar pardani.

Sen rahmat ganjisan Yazdoni pokning,
Yo'qsillarga najot qadaming sening.

1675 Shu ko'hna dunyoni charx urib, aylan,
 Xokiylar bo'lishsin sendan bahramand²³⁸

Bu dunyo seningdir, senga baxshidir,
U dunyoga yetsang, yana yaxshidir.

²³⁸ Xokiylar – tuproqdan yaralganlar, insonlar.

Adolatpeshalik yo'lini tutgil,
Rizoni Haqni so'r, o'zni unutgil.

Jonliga baxshoyish, muruvvat ayla,
Jonsizga behuda vaqting sarflama.

Jonlidan gar senga yetishsa ziyon,
O'ldir yo bandi qil, bermagil omon..."

1680 Sikandar angladi ne erdi ma'no,
Dediki: "Eh hotif, oqilu dono,

Baski andoq amr etdi Parvardigor,
Tark ayla deb menga bu mulku diyor,

Mashriqdin Mag'ribga yurgaymen endi,
Necha xalq boshida turgaymen endi.

Ammo qay o'lkaga qo'yarkan qadam,
Ne deyman, xalqining tilin bilmasam?

Ularning so'zini anglarmen nechuk?
Yana mushkulotim bor andoq buyuk.

1685 Biri ul, bo'ylakim safarni balkim
Eshitib, qo'shinda qo'zg'alur vahim.

Yovga qarshi qo'shin tortamen qandoq,
Poyimda dasht ersa, ro'paramda tog'?

Raqiblarim qumdan ziyoda bo'lgach,
Nechuk har biriga etgaymen shikanj?

Ko'zi ko'rlar menga solmasa quloq,
Karlari eshitmasa so'zimni mutloq,

Ul begona yurtda nechuk bo'lurmen,
Ko'ru karlarga ne chora qilurmen?

- 1690 Payg'ambarlik da'vosin etsam, ani
Isbot aylamoqqa hujjatim qani?

Borni bir mo'jiza, suyansam anga,
Ko'rganlar ul zamon ishonsa menga.

Yo'l yurish rasmini o'rgatgil avval,
Keyin amr aylasang, yurgaymen jadal.

Bilimdonlar borki, sohibi g'urur,
O'zlarini dur to'la daryo bilur.

Ularga kor etur nechuk bir chora,
Kibru havolari kamaysa zora..."

- 1695 Farishta so'z, amalga mohir edi,
Sikandarga andoq javobin dedi.

Ki, hukmingda sening to'rt haddi jahon.
Ravodir senga har oshkoru nihon.

Mag'ribda bir guruh bor sahroxirom,
Dinu diyonatsiz, nosik unga nom.

Mashriqda guruh bor farishtasirisht,
Nomlari mansakdir, o'zga bo'lmamish.

Janubda bir guruh misoli daryo,
Ularga Hobil-shon erur rahnamo.

- 1700 Shimoliy iqlimda bir guruh erur,
Ularning boshida Qobilxon turur.

Qachonkim yo'l bosib, etgaysen safar,
Oqdin qarogacha qilgaysen guzar,

Nosikdin mansakka tortasen sipoh,
Yo'l yurib Hobildin Qobilgacha to,

Farmoningga barcha musallam bo'lur,
Bosh tortgan kimsa boshidin ayrilur.

Raqiblar poyingdin sira chalolmas,
Jahonda bir kimsa joying ololmas.

1705 Sen chiroqsen, nuring – nuri gavhariy,
Tunlarni yoritgan Oysen, Mushtariy.

Har joyda tobishing tovlanib chunon,
Xazinalar qulfini ochgay hamon.

Shundoq qilki, yo'lga chiqqanda har goh,
Tangri panohidin izlagil panoh.

Har manzil soriga olar esang yo'l,
Odillarga suyan, adolatli bo'l.

Ki ziyon bo'lmagay senga bir qadar,
O'zing ham lashkaringga yetmas xatar.

1710 Yangi yo'llar bosib o'tganingda, hay,
Oldi-ortingda tut navkaringni shay.

Har joyki istarsen, imkoningda ul,
Nuru zulmat bari farmoningda ul.

Oldingda nur bo'lur, ortingda zulmat,
Sen ko'arsen, seni ko'rmaslar faqat.

Har kimsa gar senga sadoqatlidur,
Sen unga nurindin nisor ayla nur.

Har kishi kim istaydir senga jafu,
Sen o'shanga zulmatni ko'rgil ravo.

1715 Soyadir ul, qorong'ulik, tiyralik,
Nasibasi xorlik erur, xiyralik.

Tulporingni yo'lga ravon aylabon,
Qo'shin tortib borsang sarhadlar tomon,

Bir toifa kelur senga yuzma-yuz,
Ki yot-begona tilda so'zlaydi so'z .

Tangri taoloning himmati bilan
Sen ular tilida aytursen suxan.

Til bilish bobida bo'lursen ustun,
Tushuniksiz so'z bo'lmagay sen uchun.

1720 So'zlaganda tiling gar rumiy zabon,
Tinglaguvchi anglaydi, betarjimon.

Bu – ilohiy mo'jizaning belgisi,
Sen foyda, dushmaning ziyon ko'rgusi...

Shoh ko'rdiki, bu so'zlar bejiz emas,
Tangri farmoniga bo'yin egdi, bas.

Dediki, qabuldir bu qutlug' payom,
Ul Xudodir, biz bandamiz vassalom...

Shu kundan tadorik ko'rdi safarga,
Qo'l cho'zmadi boshqa biror amalga.

- 1725 Har ne zarur edi yo'lga, g'amladi,
Safar jabdug'ini yig'di, jamladi.
- Farishta keltirdi tag'in xushxabar,
Senga yor bo'lur deb g'alaba, zafar.
- Har donishdin izladi Shoh choraboz,
Etar maqsadga mardumi chorasoz.
- Safarda foydali bo'lgan har nima,
Har ne ashyo borki, o'rgandi yana.
- Allohning kalomi bo'lmish muborak
Sifri A'zamni hamda undan bo'lak.
- 1730 Uch xiradnomakim, hikmat etar baxsh,
Qaro mushk ila harirga chekdi naqsh²³⁹.
- Ilk varaqni Arastu bitmish edi,
Yaxshi, yomon sharhini etmish edi.
- Falotun bo'lak nomaga urdi qo'l,
Necha bir donishni bayon etdi ul.
- Uchinchi varaqni Suqrot qildi band,
Javohirlar to'kdi necha dilpisand.
- Uch nasihatnoma orasta erdi,
So'zlari bir-birga payvasta erdi.
- 1735 Shoh ularga muhrin bosib shu zahot,
Bir bog'ichga boylab, etdi chtiyot.

²³⁹ Sifri A'zam – ya'ni Kitobi A'zam – Muso alayhissaomga nozil etilgan besh jildli Tavrotning ehg katta kitobi.

Ehtiyoj havosi bosganda uni,
Ochib, varaqlardi pandnomalarni.

Ganjinalar erdi ularda qoyim,
Shoh ulardin chora izlardi doim.

Chorasiz qolarkan goho bag'oyat,
Fayzi ilohiydin so'rardi madad.

Birinchi kun Shoh minib taxti oj²⁴⁰,
Va qo'ndirib boshiga feruza toj.

1740 Amr ayladi, oldida farrux vazir
Hoziru nozir edi, farmonpazir.

Shoh dediki, yoz nomayi sudmand,
Aqli salim, ilmu zakovat bilan.

Bir nasihat yozgil, samimiy, to'g'ri,
Tinglasa do'st bo'lsin qo'y bilan bo'ri.

Shahriyor amrini vazir tinglabon,
Chiqdi, yo'lga ravona bo'ldi hamon.

Aqlni tadbirga etib rahnamun,
Koni dildan gavhar chiqarmoq uchun,

1745 Olmosdek qalam birla xat chekdi ul,
Qamishdin qog'ozga shakar to'kdi ul.

²⁴⁰ Taxti oj – fil suyagidan yasalgan taxt.

Yozdi ilk nomasin andoq rahnamoy,
Avval aylab madhu sanoyi Xudoy,

Ki: "Shohim donish-la dilobod bo'l,
Bedonishlarga begona, yot bo'l.

Yopiq eshiklar ochilur ne tariyq,
Donolar bilur, anga topgay kalit.

Har nechuk davlatga yetishsang agar,
Ayt ko'ngildin Allohga Shukronalar.

1750 G'oliblik uzra tosh ko'ngil bo'lmagil,
Xudoning qahridin g'ofil bo'lmagil.

Xudodin qo'rqanlar baxtiyor bo'lur,
Xudodin qo'rqmagan badbaxt, xor bo'lur.

Salomat esang har yerda, shodmon,
Olov yoqib, isiriq tutatgil hamon.

Yomon ko'zlardin o'zingni asragil,
O'zingga tikma ko'zingni, asragil.

Nasihah aylamish bir piri ustod,
Go'zal esang, o'zingdin ch chtiyot.

1755 Daraxt chekmas edi shamoldin sitam,
Bosbini tuproqdin chekmasa baland.

Ovchilar ohuga o'q otsa har gal,
O'qi tikka boshli serkaga tegar.

²⁴¹ Xiradnoma – hikmatnoma, hayot dasturi

So'zingni tamkin ila ohista qil,
Hasadga yo'l berma, nari haydagil.

Hasad yigit joniga dard keltirur,
Musaffo ko'ngillarga gard keltirur.

Birovni g'azab-la quvma joyidin.
Haydasang, yiqitgil chalib poyidin.

1760 Qahru g'azab etsang birovga illo,
Naslini tubidin qo'porma aslo.

Do'stlashib, o'zingga yaqin tut uni.
O'g'ildin olmagil ota qasdini.

Quyoshdin to soya, bir qilcha aro,
Bir ravshan erur, biri yuz qaro.

Xurmoga yondashib tikan ham o'sar,
Birida shakar bor, birida zahar.

Sadafning yonida hamisha nahang,
Unda dur esa, bunda shamshiri jang²⁴².

1765 Og'a aybin iniga ortma zinhor,
Qon ila sut birmas, magar farqi bor.

Birov deb birovni qiynamoq bo'lmas.
Har qo'yni uning o'z oyog'idin os.

Allohdin istasang lutfu inoyat,
Yomonlik zotiga barham ber faqat.

²⁴² Nahangning belida qilichga o'xshash suzg'ichlari bo'ladi, shunga ishora.

Falak yomonlarga yomonlik berib,
Yaxshiga yaxshilikni etgay nasib.

Yaxshilik odatin aziz tut, aziz,
Dunyoda yaxshilik qoladi yolg'iz.

Yaxshilar ko'ngliga cho'ktirma g'ubor,
Oqibat bo'lursen badnom, sharmsor,

Zoti pastlami sen tutmagil baland,
Bo'ri bo'ri bo'lur boqqaning bilan.

Badgavhar bilan hech hamdam bo'lmagil,
Asl kimiyoni kulga qormagil.

Badgovhar ishni ne tariyq etgusi,
Qizil gavharni ul sariq etgusi.

Ahli farhang ila suhbat ayla roy,
Aqlu donish bo'lsin senga rahnamoy.

1775 Desang bisotimda ko'paysin diram,
Bediramga solma maslahat hecham.

Yalqovga so'z ochma xizmat, yumushdin,
Javohir kim so'rar arpafurushdin?

Hayvon borki, ho'kiz, qulon, arslon,
Hamjinsini ko'rib sevinar hamon.

Yoningda bir nojins bor esa, illo,
Boshingga yog'ilur necha bir ig'vo.

Ikki oyinani yuzma-yuz qo'ysang,
Ularda bir nima ko'rolmagaysan.

1780 Zolimlar oldida turmagil qotib,
Yo'qsa, g'ami-g'ussaga qolursen botib.

Arslon rom esa odamiyga ul,
Buni insofdanmas, qo'rquvdin qilur.

Hayosiz esa gar qarshingda kishi,
Unga achchiq, dag'al bo'lganing yaxshi.

Raqibni shirin so'z ila xushlagil,
Yumshoq talab qilib, qattiq ushlagil.

Boshiga fitnalar qo'ygan bo'lsain,
Aldab-suldab tutib, boshini kesgin.

1785 Ikki badxoh olsa o'rtaga seni,
Parokanda ayla, ayir ularni.

Bo'rini yo'lbarsning ustiga bostir,
Ikki tosh orasi uningni undir.

Kishi kim bo'lmasin, dehqonmidir, Shoh,
Maqomiga loyiq maqom et ato.

Tavono qoshiga tavono jo'nat²⁴³,
Donoga xiradmandu dono jo'nat.

Jo'natganing kishi ersa chorasoz,
O'git nasihatdin bo'lur beniyoz.

1790 Qiliching zang bosib, kesmasa agar,
Oltin berib, toshdin temirmi chiqar.

²⁴³ Tavono – qo'lidan ish keladigan, qobiliyatli.

Xazina – gar oltin jamlamoq uchun,
Dushmanni to‘zitmoq uchundir oltin.

Tulki qo‘lga tushgay quyruqqa bo‘la,
Bolani aldashar shirinlik ila.

Birovning to‘yida mutribdek shod bo‘l,
Sarv esang gar, kibrdin ozod bo‘l.

Jahonga oro ber misli subhidam,
O‘zing ham orasta bo‘lursen u dam.

1795 O‘zingni bezatma rayhoni bog‘dek,
Insonlar yo‘lini yorit charog‘dek.

Xazina yelkangda yuk crur, xalos,
Boshqalarga bersang, bo‘lursen xalos.

Zar otash emasdir, turishga qodir,
Uchqundir, har taraf uchishga hozir.

Zar yaxshimi yoki sohibi andin,
Tugun banddin yomon, bandi tugundin.

Demish bir kun otashga otashparast:
Men yaxshimi, senmi, so‘yla shu nafas?

1800 Otash demish unga: yaxshidir albat.
Men kuydirib, sening o‘lganing faqat...

Sermeva daraxt bo‘l, butoqlaringdin
Mevalar kaftlarga to‘kilib tursin.

Ortiqcha yemakdin mamnun bo‘lma, hay,
Ortiqcha qatradin jom ham to‘kilgay.

Muflis ganjinaga yo'l topib erdi,
Quvonchdin yiqildi, jonini berdi.

Issiqdin o`rtanib, qolib tashna-zor,
Oshiqib sovuq suv ichmagil zinhor.

1805 Lashkaring ot solgan manzilga hech vaqt
Qo'nib, uxlamoqni aylama odat.

Sinalmagan suvni ichma hech mahal,
Ichib, sinov qilsin boshqalar avval.

G'alati bir meva uchrab qolsa ul,
O'zingni tiy, darhol etma tanovul.

Har kimsa o'ziga tabib ersa gar,
Turfa yemishlardin nafsini tiyar.

Odam yurmas yo'lga yurmagil aslo,
Garchi bo'lsa hamki necha bir hamroh.

1810 Xatarsiz ersa yo'l, agarchi yiroq,
Xatarli qisqa yo'ldin ul yaxshiroq.

Yig'ma, ortiqcha yuk bo'lmasin senda,
Lashkaringda gap-so'z ko'payar unda.

Qo'lingga mol kirsamagar beshu kam,
Boridin ehson et darveshlarga ham.

Nihoniy ulush ber yo'qsilga har gal,
Haqning xushnudligi narsadin afzal.

Kishi kim nihoniy ehson qilgusi,
Ehsoni baloga qalqon bo'lgusi.

1815 Me'yorida bergil sipohga so'ngra,
Yo'l xarjidan ortiq bermagil sira.

Qorin bandalari, qorni to'ysa, bas,
Yomon qilg'ulikdin o'zini tiymas.

Chunon berki, to'yib, etmasin mastlik,
Vale yeb-ichishda bo'lmasin pastlik.

Shundoq tutki, lashkar har holatda ham
Senga jonu dildan bo'lsin musallam.

Bir kunda ikki bor sufra yoz taqat,
Lashkarboshilarni aylagil da'vat.

1820 Begona yurtlarda boda ichma hech,
Rumga qaytmaguncha maishatdin kech.

Omonating topshir halolga zinhor,
Magar tiniq suvda bo'lmagay g'ubor.

Quyosh ravshan erur, topshirdi andoq
Sirri omonatin unga bahru tog'.

Xushbaxt esang, tani xushbaxt kimsani,
Xushbaxt kimsa xushbaxt aylagay seni.

Badbaxt kimsalardin yiroq tut o'zing,
Chirigan uzumdin chirigay uzum.

1825 Tug'ma xislatindingdir sadoqat, vafo,
Tug'ma siyratingni tark etma aslo.

Tark etsa inson rasmu oyinu hol,
Tark etar uni ham shundoq mulku mol.

Asl atvoringni tark etmakim ul,
Boshqa bir atvorni tutmaging mushkul.

Qo'yma aslingni, tavri farzonani,
Payraviy etma rasmi begonani.

Piyoda taxtada to'g'ri yo'l tutgay,
Farzin bo'lgach, turli yo'llarga o'tgay.

1830 Sohibiqbol kimsa uchrasa senga,
So'zu suhbatingni xush ayla unga.

Har nechuk tur ila boshingda osmon
Aylansa, tortishma, ko'rasen ziyon.

Boshingga kelgandin etma shikoyat,
Donishmand pandiga ayla rioyat.

Davlatning noz aylab, etarkan o'yin,
Nozuk ishvasidin tovlama bo'yin .

Davlatim noz etgay deya chekma ranj,
Davlatning nozidir senga koni ganj.

1835 Sen bugun nozini chekarsen magar,
Bir kuni davlat ham nozingni chekar.

Yomon kun kelganda bo'lib badgumon,
Yulduzdan ranjima, xush kelur davron.

Ko'kdin o'pkalanma, bo'lgin sabrli,
Ishning oqibati bo'lur xayrli.

1840 Ishing yurishmasa, ranjima qattiq,
Ishing yurishganda quvonma ortiq.

Toshingni baland ot havolarga ul,
To yerga tushguncha ishing o'nnglanur.

Ko'nglingni qoraytir dilozorliging,
Umringni kamaytir zulmkorliging.

Shoh gar adolatni etmasa shior,
Yurti xarob aylar, raiyatni xor.

Seni adolatga yaratmish Xudo,
Podshohi odildin kelmagay jafu.

1845 Yomonlik aylarni yaxshi hech qachon,
Aylasa, o'ziga aylar begumon.

Jahon gardishiga sira tinim yo'q,
Gohida issiqdir, gohida sovuq.

Bu issiq-sovuqda xushlama uni,
Fe'lu atvorin tark etgan kimsani.

Ul yaxshi erurkim, yilda har fasl
Kechsa xosiyati ila muttasil.

Bahor ayon etibyu gulistonligin,
Yoz oshkor aylasin saratonligin.

1850 Bu tartibni buzgan topmagay omon,
Undan yuz o'girgay gardishi davron.

Bir yomonlik etsa senga nokase,
Birovga yaxshilik aylasang base,

Uni ham, buni ham faromush ayla,
Yaxshi, yomon dema, tiling avayla.

Kipriging olmos et, chaqnasin ko'zing,
Hushyor boq, dunyoga posbon bo'l o'zing.

Shul erur masalda hikmatning zo'ri:
Cho'pon hushyor esa, yo'qlamas bo'ri...

1855 Garchi tavonosan, qudratlisan, bas,
Kulma har joydakim, mavridi emas.

Gar notavon qolsang, alamga duchor,
Etma ojizliging birovga oshkor.

Labing tabassumdin uzmagil bir dam,
G'amiingni pinhon tut kulib damba-dam.

Hujum qilmoq esang yovga har safar,
Askarga chtiyojning bo'lsa magar,

Dushman yoqdan kelgan qochoqni, illo,
Lashkaring safiga qo'shmagil aslo.

1860 Qochoqman deb qulay fursat poylagay,
Nogahon ortingdin qilich sirmagay.

Zafar bo'lsin desang lashkaringga yor,
Zafardiyda bo'lsin jangda sipahdor.

Jasur sarkardalar tadbiri bilan
Obro'-e'tiboring ko'targil baland.

Har ne yomonliging o'zingdin erur,
Yaxshiliging bari Xudodin kelur..."

Arastu nomasi bitgach nihoyat,
Jo'natdi, Shoh o'qib, sevindi g'oyat.

Aflotun xiradnomasi

- 1865 Ertasi kun Quyosh porladi tag'in,
Qaro mushk uzra to'kdi oq kofurin.
- Shoh mulozim yo'llab, buyurdi shu dam,
Ki Falotun cheksin harirga qalam.
- To bitsin bizga nomayi dilnavoz,
O'qiganlarga bo'lsin ul chorasoz...
- Surdi xomasin piri daryo shukuh,
Sochdi tog' konidin javohirni u.
- Tizildi rishtaga ko'ngil gavhari,
Boshlandi shu bitik ila daftari:
- 1870 Bizni Yaratganga osmonu zamin
Qadar Shukrona aytib, deymiz ofarin!
- Yana tahsin aytib Allohga takror,
So'z bisoti ayladi gavharnigor.
- Ki, Shohimiz jahondin afzal erur,
Jahon koni ganjdir, shoh gavhar erur.
- U gavharnihodu va gavharnajod,
Gavharga xatar borligin ayla yod.
- Kimyodin yaxshimi, yomon kelgusi,
Gavhari andozasida qilgusi.
- 1875 O'g'rilarga makon erur bu dunyo,
Uni nazoratsiz qoldirma aslo!

Posbonki o'z o'rni bedor emas,
Jahonbonlikka u sazovor emas.

Jahongir bir yo'la olur jahonni,
Gar tig'u tadbir-la olur jahonni.

Magar botir tig'i o'tkir bo'lgusi,
Oqil tadbiri-la keskir bo'lgusi.

Shohning har nechakim bazmi kamoli
Olimu donodin bo'lmasin xoli.

1880 Shoh ilmu donishga o'zni boylasin,
Eb-ichishga sira ruju qo'ymasin.

Ikki ofat erur Shohga hamnafas,
Ki ularning qo'li yo'qsilga yetmas.

Biri oshpaz, tayyorlab shirin taom,
Shirin parast etar shohni bardavom.

Bir ofati bo'lmish zebo erur,
Andin shohga ortiqcha savdo erur.

Ikkisining bordir shohga ta'siri,
Biri tanni to'ldirar, so'rgay bari.

1885 Ko'p yeguvchi bo'lma va ma'shuqparast,
Biri sust aylasa, biri etar past.

Dunyoni ko'rarsen, qizildir sariq,
Makru firib aylar senga har tariyq.

Jahon ajdahodir, ma'shuq unga nom,
Joningga kom bermas, komdin olur jon.

Demasmen: bizga yot dunyo-dahrimiz,
Dunyo – shahrimizdir va hamshahrimiz.

Dunyoparast bo'lmoqqa hojat qani,
Qon bilan bezarmiz nechun sufrani?

1900 Qonu jigar ila tan chora aylar
Jigarsiz qolsa gar, ne chora aylar?

To'rt tarkib birlasib, orasta bo'lmish.
To'rt gavhar yondashib, payvasta bo'lmish.

Gar ularni mahkam tutmasak, inon,
Har biri o'zicha ketar bir tomon.

Agar suv duruv tuproq anbar bo'lur,
Yana qaytar asliga, gavhar bo'lur.

Suv tashirkan, meshni ag'dardi eshshak ,
Kirakash g'am yesa, qochardi eshshak.

1905 Dunyo tikanlidir, biz kirpi monand.
Unda ham tikandir, bizda ham tikan.

Ikki beva bir payt boshladi janjal,
Dunyoni boshlarga ko'tarib magar.

Biri der: ne balot xunuksan, ajab,
Biror er olmaydi seni shul sabab...

Biri der: yaxshiki, esimga solding,
Yaxshiliging sabab uyingga qolding...

Munchalar uxlaymiz biz bu dunyoda,
Uyqu ham o'linga o'xshaydi juda.

1910 Har safar uyquga kishi ketarkan.
Bilmas, uyg'onarmi o'sha uyqudan.

Shuning-chun uyqudin hazar etsin u,
Ki uyqu o'limdir, o'limdir uyqu.

Bu dunyoda quyon uyqusidir xush,
O'lim uyqusida bo'lmas aqlu hush.

Koshkiydi, ul uyquki ziyrakfirib,
Bosganda ko'z boqsaydi hushyor turib.

Ko'rgay edi ahvoli nodiydani,
Pisandiydayu nopisandiydani.

1915 Tiyilib behuda yugur-yugurdan,
Bir zum tin olardi g'ala-g'ovurdan.

Nechun bir to'yimlik non uchun har chog'
Inson har tarafga bosh urar mundoq?

Bir burda nonni deb kezar tog'u dasht,
Topmasa burda non, ko'ngli bo'lur g'ash.

Ulki sohib ko'ngil, ahli ma'rifat
Osoyish manzilni istarlar faqat.

O'tarlar shu butkul dunyoni toptab,
Borarlar osoyish manzilni istab.

1920 Oldinni ko'rguvchi, yo'lovchi erlar,
Manzilga yetganda ofarin derlar.

Manzil senga iqlimi osudadir,
Kech bu yerdan, ki bori behudadir.

Shu yetti o't-olov, qo'rqing alanga
Ichra kabob bo'lish hojatmi senga?

Shunchalar tashvishu talvasa nechun?
Bari yeb-ichmagu kiyinmoq uchun.

Mayli, yeb-ichgilu kiyingil, biroq
Boshqa bir hisob bor, o'zga bir so'roq.

1925 Ul kimsaki dengizda jondin kechar,
Ul kimsaki tog' bag'rida kon ochar.

Birovning risqiga tikmagaydir ko'z,
Boriga yarasha aylar risqi ro'z.

Vale odamiy bor yana ne adad,
Tillosi tuproqda, jonida hasad.

Zarrin deya qo'shar oshiga tuproq,
Tuproq yer va sochar boshiga tuproq.

Jahon sohibidir jahonda inson,
Hamrohlari ila baham ko'rsa non.

1930 Hamyonini ochib, xarj etsa pulin,
Hal etsa necha bir yo'qsil mushkulin.

Gavharning arpacha ersa-da vazni,
Qimmatbaho tosh deb atashar uni.

Yo'l yiroq, yegulik biror narsa yo'q,
Manzil poyonidin ogoh kimsa yo'q .

Muncha ham bexabar yotmagil, inson.
Sel kelib, boshingdin oshar nogahon.

Taomsiz, uyqusiz etmagil safar,
Taning ojiz qolib, yuzing sarg'ayar.

1935 Yo'lga chiqdingmi, bas, shoshmay qadam bos,
Yugurma har taraf misoli vasvos.

Soqchi borsin oldingda sur'at bilan,
Hushyor yurib o'tsin guzargohlardan.

Kecha-kunduz bo'lsin hamisha bedor,
Uxlaganni yo'ldin urar ro'zgor.

Nazar solsin oldi-ortiga uyg'oq,
Begonalarga hech solmasin quloq.

Lashkarboshi bo'lsa agar yo'lshunos,
Zahmat, mashaqqatlar yo'lda bo'lur oz.

1940 Magar qirda yurar yoki qiyoda,
Lashkarda intizom bo'lur ziyoda.

Qoru yomg'irlarda shiddati bo'lsin,
To'xtasa, dengizdek haybati bo'lsin.

Har joyda bir yoki ikki kimsani
Qo'lga olib, boqib, siylasin uni.

Ulardan bundagi ahvolni so'rsin,
Suv ichmasa, urug' qayoqdin unsin?

To osonlik ila etsin ishni hal,
Qattiqqo'llik tadbir emas har mahal.

1945 Kelsa bir kimsadin sulhu salomat,
Necha bosh kesmoqlik unda ne hojat?

Yo'linda yov qo'li kelarkan baland,
Hujum etmoq tengdir halokat bilan.

Kerak tadbir ila ish tutmoq, ayo,
Mashaqqatga solma qo'shinni aslo.

Magarki Ishingga tushibdir tugun,
Sabr qil, behuda chiranmoq nechun?

Hama ish, gar mushkul, muammoli ul.
Ohistalik ila yechilar butkul.

1950 Yo'lda bir mushkulot yuz bersa, inon,
Echimi topilar uning nogahon.

Garchi so'z aytildi o'mida, ajab,
Shohning suxandonligiga yo'q taraf.

Niyat qilib, ot surmasin qay tomon,
O'z aqli rahbardir shohga har zamon.

Kimga Haqdin nasib etsa rohi rost,
Ul odamu odamiydin beniyoz.

Gar salom keltirsa farishta dilga,
Odamiyning fikri ne kerak unga?

1955 Men faqat shohimning farmoni bilan
Misollar so'zladim ahli donishdan.

Izzat-ehitromim ayladim bajo,
Shohimning iqboli unga rahnamo.

Shohimning birovga chtiyoji yo'q,
Xudoy xiraddir unga yo'l -yo'riq.

Aqlu xirad bo'lsin doim yor anga,
Xudoyim hamisha madadkor anga!..”

Xiradmand bu nomanikim etdi soz,
Shohga jo'natdiyu boshladi namoz.

1960 O'qib ushbu nomani shod bo'ldi Shoh,
G'amiu tashvishdanam ozod bo'ldi Shoh...

Suqrot xiradnomasi

Uchinchi kun shu toqi feruzarang
Chiqardi qo'g'irchoq ikki – rumu zang.

Buyurdi Suqrotga u donoyi Rum,
Ki muhringni bosgil, mana, senga mum.

Yozgil bir xiradnomayi arjmand,
Har nav'i donishdin odamiyga pand...

Xiradmand bu taklifni etdi qabul,
Dur axtarib, sho'ng'idi dengizga ul.

1965 Kumushdek qog'ozga qaro xat ila
Yozdi ul farhangu zakovat ila.

Ki, jadvalga naqshini har naqshband
Chekib Xudo nomi-la, etgay baland.

Jahonofarin, Ezidi korsiz,
Shu jumla olamdin Ungadir niyoz.

Sharaf aytib Alloh nomiga, so'ngra
Shoh sha'niga tizdi necha ibora,

“Podshohim, martabang yuksak. arjmand.
O‘ltir unda donish, aqlu xush bilan:

1970 Seni bir gavhardin etdilar paydo,
Kelding, o‘yin uchun kelmading ammo.

Yo‘linda yo‘lbars bor nihon, aytamen,
Kuchingga ishonma debon aytamen.

Jang ichra yoki to‘y bazmida har chog‘
Asl do‘stlaringdin turmagil yiroq.

Ayshu ishrat aro o‘ltirgan daming
Sho‘xu shodon yoring bo‘lsin hamdaming.

Ma‘yuslanib, g‘amigin tashlama nigoh,
Shodlik, xurramliging bo‘lmasin ado.

1975 Majlisda siyosat maqomida bo‘l ,
Bermagil xashaki kimsalarga yo‘l.

Bo‘lmasin behuda, gustoh guftugo‘y,
Ul sabab sendanam to‘kilar obro‘y.

Emaging dengizdek yemagil tanho,
Achchiq erur dengiz yemagi, illo.

Buloqdek barchani ayla bahravar,
Ko‘zadek qarshingda egilsin ular.

Uyingda taoming tutsang yashirib,
Etmish uyga yetar badbo‘yi borib.

1980 Tashqari chiqarsang. yesa ko‘cha-ko‘y,
Daru dargohingni etar mushkbo‘y.

Gul yonida bunafsha ochmayfdi gul,
Sochgani xush emas, ufunat bo'lur.

Vale zulfin tarab, soch yoygan zamon,
Muattar hidlari taralar har yon.

Ochko'zlik qilma, bu dunyo seningmas,
Har joyda bitta non nasibingdir, bas.

Bitta kulcha nonga qanoat ayla,
Quyoshdanam afzal emassan, o'yla.

1985 Insonliging shudir, kam yesang taom,
Ho'kizlar, eshaklar, gush nadir mudom.

Kisi hayvon kabi yeb-ichsa agar,
Hayvon suratida qabrdin chiqar.

Qiyomatda qo'lda tarozu bilan
O'tirar ho'kizu eshakka monand.

Kam yeganlar dardu firoq bilmagay,
Ko'p yeganing umri uzoq bo'lmagay.

Eb to'ymasning tani dardga to'lgusi,
Nafasi hamisha badbo'y bo'lgusi.

1990 Arslondek kam yeyishni pasha qil,
Qo'rqoq ho'kiz ko'p yeydi, andisha qil.

Urrib haydaganlar yalqov eshakni,
Eshak kanda qilmas yulqib yemakni.

Bulutdek dengizdin suv ol qatralab,
Keyin yog'dir sharros yomg'irga o'xshab.

Mashkob to'ldiradi suvga mahkini,
Sotib bo'lgach, yana to'ldirgay uni.

Har kuni yegaysen ho'l-quruq taom,
Ta'bing holatidin ogoh bo'l mudom.

1995 Baxsh ayla, oz yegil, ozroq qo'y keyin,
Chunki har birining o'rni bor tayin.

Bersangu yesangu yana qo'ysang, hoy,
O'zingsan dunyoda aziz kadxudoy.

Joningni jon kirar yeyish - ichish-la,
Lazzatidin avval foydasin o'yla.

Sirka yeganingda sut ichishdan kech,
Chunki ul ikkisi kelisholmas hech.

Taningni avaylab, asrama ko'pam,
Safarga chiq, mardona bosgil qadam.

2000 Bu ne tanballikdir? Qimirla hamon,
So'nib, ado bo'lur bekorchi inson.

Birovning qo'li birla kon kovlama,
Tirixsan-ku, ishdan bo'yin tovlama.

Qo'l - oyog'ing senga xizmatda har dam,
Sen kechmasang, sendan kechmas ular ham.

Garchi xizmatkoring bo'lsa hamki yuz,
Qo'l - oyog'ing ishsiz qoldirma hargiz.

Qo'l - oyoq xizmatin bugun bebadal
Boshqalar bo'yniga yuklasang agar.

2005 Boshqalar tark etib ketsalar bir payt,
Unda qo'l-oyoqsiz qolmasmisan, ayt?

Shirin so'z bir xodim qo'lingga kirsa,
Undan yaxshisini izlama sira.

Mehri kam, shirin so'z, ranjitmas seni.
Badfe'l mehribondin afzal bil uni.

Shirin so'zdin mehr topgaydir vujud,
Achchiq tilli mehribonlikdin ne sud?

Sen shirin so'zlagil, kishi tinglabon,
Senga jonu dildan boylansin hamon.

2010 Shirin so'zli bo'lish farzonalikdir,
Achchiq tilli bo'lish devonalikdir.

Aytuvchi so'zini yomon aytsa ul,
Yaxshilik bo'lsa-da, yomonlik erur.

Yomon so'zdin sukut saqlagan avlo,
Sukutdan pushaymon bo'lmaysan aslo.

Rasvo amal oxir sharmsor etar,
Amal aylagan kimsani xor etar.

Ishing yurishmasa, sabr aylagil,
O'zingni bir ummid ila aldagil.

2015 Emishdin yaxshidir umidi yemish,
Zira va'da ila topar parvarish²⁴⁴.

²⁴⁴ Rivoyatga ko'ra, odatda ziraga suv berilmaydi. Dehqon suv berishni va'da qilib, uni aldaydi.

Zirani ul Quyosh qizdirgan nafas,
Zira suvidin o'zgasi berilmas²⁴⁵.

Zira yolg'on suvni ichib, o'sarkan,
Sen har zira kabi sabringga suyan.

Yomg'ir yoqqanda gar uxlar esa gul,
Sel quyganda suvga g'arq bo'lar butkul.

Sitamkorlarga hech aylama madad,
Hisob kuni sendan so'ralgay albat.

2020 Qon to'kishga kamroq ruju aylagil,
Bir kun oyog'ingdin olur, o'ylagil.

Bosh kesish odati tark ayla tag'in,
Bir to'p ila tokay etarsen o'yin?

Buluting yosh to'kar tinmay, bas endi,
Qiliching qon to'kar, hay-hay, bas endi!

Qo'rqmaysanmi, tig'ing bosh kesgan zamon,
Qonini bo'yningga olursen hamon?

Yo'lda ehtiyotlab hayda tevani,
Filning oyog'iga otmasin seni.

2025 Boshlarni tanlardin aylabon judo,
Qanchalar qon to'kding shu olam aro!

Necha mamlakatni aylading xarob,
So'ralsa, nima deb berasan javob?

²⁴⁵ Zira suvi – aldov, yolg'on demak.

Hay, nechuk gul ochib, yashnasin bu bog',
Necha bir gullarni toptading andoq?

Ko'ngil berma bu sarkash otga, illo,
Suratda kelindir, o'zi ajdaho.

Ko'nglida mehribonlikdin yo'q asar,
Ko'ngil ne, tanidini hatto bexabar.

2030 Tuproqdek sukut et, kamarbasta yur,
Falak shitob etsa, sen ohista yur.

Sen sohsen, lochindek tez uchma har yon,
Viqor-la qadam bos, narra shersimon.

Jilovin tort telba ot, andishani,
Nayzalar shay erur yo'ling to'sgani.

Agarki dardlarga istarsen davo,
Shitob et qadaming bosma beparvo.

Talashmoq istasang begunoh ila,
Oshiqib-toshiqma, bir oz sabar ayla.

2035 Qotilga, o'g'riga aylama shafqat,
Boshqa gunohlarni kechirgil albat.

Tuban kimsalarning suhbatidin kech,
Avbosh, bezoriga omon berma hech.

Gar Shoh raiyatga adolat qilur,
Raiyat ham uni rioyat qilur.

Tobein-la yumshoq aylama guftor²⁴⁶,
Olmosni qalayi sindirmog'i bor.

O'zgalar gilamin aylama pisand,
Sherdek o'z gilaming ustiga yastan.

2040 Ipak qurti jonni fido ayladi,
O'ziga to'n bichib, kafan shayladi.

Nomahram insonga siring so'ylama,
Tinglama so'ylasa, parvo aylama.

Umringni kechirma nadomat bilan,
Ojizlarning umri nadomatga band.

Aytgulik so'zlarim kam emas, biroq,
Boshqalar ayturlar balki yaxshiroq.

Senga asrorini so'ylar osmon,
Bundan ortiq aytsam, keltirar ziyon.

2045 So'zlarim ersa gar tig' kabi keskir,
Ranjima, shamshirni kesadi shamshir.

Ilkida olmosdek qilichi bor Shoh
G'olib bo'lsin har qayga cheksa sipoh!..”

Donishmand to'ldirdi durga nomani,
Shoh qabul ayladi xiradnomani.

²⁴⁶ Tobein – bo'ysunuvchilar.

Iskandar payg'ambarlik da'vosida jahonni kezgani
(Nizomiyning qarilik mavsumidan shikoyati)

Uyqudan ko'z ochib, turdim subhidam,
Chehranni Quyoshdek ayladim ravshan.

So'zim maqomini aylabon ulug',
Yuragimdin sochdim o'tga isiriq.

2050 Bu xusravnomani yozmoqqa ravon
Qarigan og'ochni etdim arg'uvon.

Suxan ganjiga andoq urdim muhr,
Qolmadi unda bir teshilmagan dur.

Keldi qalamimdin munchakim guhar,
Qolmadi falakda guhardin asar.

Xiromon kirdi bir sumansiynae,
Uzatdi menga ravshan oyinae.

Dedikim, bir boqib, ko'rgil yuzingni,
O'zingni ko'r, faqat ko'rma o'zingni.

2055 Nazar soldim o'shal ko'zguga shunda,
Ko'rdim suratimni, o'zimni unda.

O'zgacha ko'rindi menga chaman bog',
Qarg'a o'ltirardi butoqda oppoq.

Nargisda yo'q edi uyqudin nishon,
Sarvin egilmishdi horg'in, bedarmon.

2535 Binalsha ustini qoplamish suman,
Qizil gulim sarg'aymishdi tamoman...

Holimni chun notavon ko'rdim, ajab,
O'z holimga hayron edim, mo'ltirab.

2060 Na oyoq erdikim, yugurik o'sha,
Na qo'l erdi, cheksam yangidan naqsha.

Xijil bo'ldim ko'rib o'zimda rangni,
Navo tuzdim chekib o'zga ohangni.

Qo'rqdim, ajal yetib boshimga hamon,
Boshlagan shu naqshim qolur notamom,

Meni so'ngsiz uyqu g'arq etmay burun.
Shu uyning bunyodin etay bus-butun.

Shu oromgohimni tiklasam agar,
Unda tin olardim qiyomat qadar...

Doston

2065 Xiradmand tikib yana davronga ko'z,
Oyu yillar gardishidin ochdi so'z .

Dedi: Iskandarga Xudoyi habib,
Payg'ambarlik maqomin etdi nasib.

Yuvdi devonidin ganj unvonini,
Naqd etdi nomiga ranj devonini²⁴⁷.

Buyurdikim, boj to'larkan Rumu Rus,
Shoh nomini bitsinlar Iskandarus²⁴⁸.

²⁴⁷ Ya'ni Iskandar podsholikdan payg'ambarlikku o'tdi.

²⁴⁸ Iskandarus – Iskandarning o'g'li.

O'g'liga toj-taxtin berib bir yo'la,
Uni onasiga topshirdi so'ngra.

- 2070 Aytib necha bir so'z vasiyat yo'sin,
Onayi zoriga yuzlandi keyin.

Men ketarmen, dedi, ona. har mahal
Shundoq qilki, barcha desinlar: go'zal!

Otadek raiyatni et tarbiyat.
Onasen, onalik mehringni ko'rsat.

Dinu adolatni etgil ustuvor,
Allohning amrin unutmaz zinhor.

Farmonga bo'ysunib, amal etsang ul,
Amru farmon berishdin afzal erur.

- 2075 Zarurat tufayli safarda yurgum,
O'zingga omonat toju taxt, yurtim.

Shaylandim ko'p yiroq yo'llar bosgali,
Qachon qaytishimni bilmasman vale.

Qaytsam, shundoq qilki, yomon ko'z hamon
Na menga, na senga etmasin ziyon.

Qaytishning iloji bo'lmas esa, hay,
Omon bo'l. oqibat demak shu bo'lgay.

Shundoq qilki, erta so'ralsa hisob,
Uzrxohlik ila bermagil javob...

- 2080 So'zini tugatib, ko'tardi raxtin.
Onaga topshirdi toj ila taxtin.

Amr ayladi, to lashkari Rumu Shom
Uning huzurida yig'ilsin tamom.

Va o'sha lashkardin azamat, yovqir
Yuz ming pahlavonni ayirdi bir-bir.

Har kishvarning asl jangchisi, mardi
Buyuk bir qo'shinga yig'ilmish erdi.

To'rt ming tuya ustida yuk ne miqdor,
Lashkar oldi, ortida erdi qator.

2085 Ulardin mingtasi beysurok edi²⁴⁹,
Yugursa, yo'lida tog'lar xok edi.

Boshqa mingta teva buxtiyn borkash²⁵⁰,
Yuklari xilma-xil yemak edi xush .

Yana bir mingtasi noqalar erdi²⁵¹,
Yuklari zar-zevar, qizil, sariqdi.

Tag'in bir mingtasi tevayi najib,
Ohudek yugurik edi, ko'p ajib.

Yana har sohadin sohibi tadbir,
Necha yuz hunarmand erdilar hozir.

2090 Andoq tadorik ila shavkatli Shoh
Yoritdi yo'llarni Quyoshdek go'yo.

Gar Makduniyadin azmi roh etdi,
Iskandariyani guzargoh etdi.

²⁴⁹ Beysurok – yugurik tuya.

²⁵⁰ Buxtiyn borkash – yuk tashuvchi tuya.

²⁵¹ Noqa – urg'ochi tuya.

Jahondorlik taxtini qurdi unda,
Necha kun shodmon o'ltirdi shunda.

Kayxusrav oyiniga taqlid etdi,
Taxti jahonini Sarirga eltdi.

Buyurdi, sohilda mil bunyod etib²⁵²,
Qo'yishdi bir ravshan ko'zgu o'rnatib.

2095 Ko'zguda bir oylik masofadin ham
Kemalar ko'rinib turardi har dam.

Taxtni qo'rimoq-chun shu yerda chog'
Soqchilar shay bo'lib turardi, uyg'oq.

Ko'rinsa ko'zguda bir sirri nihon,
Xabar berishardi podshoga hamon.

Magar dushmanlar aylasa turktoz,
Posbonlar anga erdilar chorasoz.

Ko'ngli poytaxtdin tinchlanib shu tob,
Iskandar yana yo'lga tushdi shitob.

2100 Avval tulporini Mag'ribga burdi,
So'ng Misrga kelib, ikki kun turdi.

U yerdin chiqib, yana azm ayladi,
Haq amri-la belga kamar boyladi.

Yo'li necha tog'u daraga tushdi ,
Vodiylardin o'tdi, dashtga tutashdi.

²⁵² Mil – mayoq.

Quddus yoqdin yetib necha bir kishi,
Hokim zulmidin kohishu tashvishi,

Yo'lbo'yi saf chekib, qator turdilar,
Shohdin marhamatu madad so'rdilar.

2105 Ki, pok bo'ldi sharofating birla xok,
Kel endi, shu pok uyimiz ayla pok.

Bayrog'ingni yetkaz Quddusgacha to,
Daf ayla, yo'qolsin hokim, bedavo.

U poklar yurtida zolim Ahriman,
Xudo do'stlariga g'animdir, dushman.

Xalq garchi yuvoshdir ham itoatkor,
Undan nuqul ziyon ko'rurlar, ozor.

Garchi xizmatimiz ravo aylagay,
Xizmat etganlarga jafu aylagay.

2110 Jabru jafu etib, qon to'kdi qancha,
Bosh kesdi nohaqdin qanchadin-qancha.

Boshimizdin ul devzodni badar et.
Ayo devband, arzi dodimizga yet!..

Iskandar eshitib xalqning zorini,
Bildi yurtning zolim sitamkorini.

Sitamdiydalarning faryodi alhol
Shohning xotiriga kelmadi malol.

Tinglab qudsiylarning hikoyatini²⁵³,
Baytul-muqaddasdin uni boshladi.

Rumdin to Quddusga keldi Iskandar,
Bunda qolmasin deb fitnadin asar.

Xabar topdi bundan Quddusda dushman,
Adolat ovozi yetmishdi zotan.

Shohga qarshi maydonda qoqdi dovul,
Shohning baxti yorligin bilmasdi ul.

Hujum boshlabon Shabexun urdi shoh,
Qaroqchi dev yo'lni to'sganda nogoh,

2120 Qonin tukib, tuproqqa qordi loshin,
Quddus darvozasiga osdi boshin.

Jarchilar jar solib, yelib har tomon,
Shohning farmoyishinin etdilar bayon.

Ki har kimsa bunda bedod aylagay,
Oqibat baxtini barbod aylagay.

Iskandar chun ul xonayi pokni,
Pok aylab, anbarin etdi xokni.

Osudalar uyiga berdi orom,
Gardu g'uborini supurdi tamom.

2125 Kesdi qilich ila istibdod qo'lin,
Taqvogarga berdi toat manzilin.

²⁵³ Qudsiylar – Quddus sharif aholisi.

Quddus mushkulotin yechib bir yo'la,
Mulki Mag'rib sari yo'l oldi so'ngra.

Sipoh tortib Afranjaga yetdi bot,
Afranjadin Andalusga surdi ot.

Da'vat etardiyu aylardi hukm,
Ilmu donish taqvo ila bo'ylakim.

Ko'rsatgan yo'lining ravshanligidin,
Bo'yin tovlamasdi bir kimsa andin.

2130 Har kimsani dinu dodga burdi ul,
Har manzilda bir sajdagoh qurdi ul.

Yana lashkar tortdi, yo'l bosib yiroq,
Dunyoning fathiga ko'tardi bayroq.

Daryo kechib, tog'lardin u oshdi ravon,
Qayda bir chaman ko'rsa, tutdi makon.

Hordig'ini yozib, dam olib yana,
Ot surib, bo'lardi yo'lga ravona.

Biyobondin dengizga yurdi shitob,
Dengizga kemalar tushirdi shitob.

2135 To'lqin kechib, suzdi dengizda uch oy,
O'ljalari kiritdi qo'lga bir talay.

Suzardi kunbotarga, mag'rib sari,
Yonida qo'shini, xos hamrohlari.

Jaziralar ko'rdi, yo'q erdi odam,
Chiqib, unda orom olardi bir dam.

Uchradi necha jonu jonzot chunon,
Qay biri odamiy, qay biri hayvon.

Yaqin kelmas edi, yiroqdin bari
Boqardi. tirqirab qochardi nari.

2140 Yo'l bosib goh yengil, gohida og'ir,
Andoq bir zaminga yetishdi oxir.

Biyobon edi ul, qumi sap-sariq,
Chang-g'ubor qo'zg'alib, cho'kmasdi ortiq.

Ot solsang, izingda har safar lov-lov,
Changu g'ubor emas, chaqnardi olov.

Bilimdonlar bu dashtning tasvirida,
Demishlar: gugurt bordir tarkibida.

Bir oycha ul qumlikda ot surdilar,
Nihoyat undan kechib ulgurdilar.

2145 Bir vodiy ko'rindi oldinda ko'rkam,
Undan nari ajab daryoyi a'zam.

Hayratga solardi so'ngsiz to'lqini,
Yunonlar uqyonus demishlar uni.

Muhiti jahon chun haybatlig' edi,
Undan nari yurmoqqa yo'l yo'q edi.

Quyosh ketsa hamki tark etib jahon,
Buyuk uqyonusda bo'lmasdi nihon.

Hijobi muq'oniyy edi suv uzra,
Andoq bir shu'lakim, so'nmasdi sira.

2150 Falak kecha-kunduz, garchi yiroqdir,
Chashmadin dengizga sochar edi nur.

Bizga, ul qachonkim oftob botar,
Chashmayu dengizdin ishorat etar.

O'shal o'tli chashmadir joyi uning,
Va dengizdir so'ng rahnamoyi uning.

Suv oqib, bir joyda muhayyo bo'lur,
O'shal havzada so'ngra daryo bo'lur.

Muayyib atalur chuqurga to'lsa,
Muallaq deyilur yer uzra bo'lsa.

2155 Ul buyuk dengizkim, muhit unga nom,
Suvlari yer uzra muallaq mudom.

Quyosh tark etarkan har safar jahon,
O'shal suv ortida bo'lgaydir nihon.

Yana suv ortidin yuksalur baland,
Moviy to'lqinlarni qilur muzayyan.

Bayrog'i yarqirab osmon avjida,
Aks etar suvlarning o'ynoq mavjida.

Bir pas turib yana o'ranur hijob,
Zamin pardasini yopinur shu tob.

2160 Ahli donish andin etarlar qiyos,
Ki bir rahbar bordir, ajab ruhshunos...

Olovli chashmani andoq ko'rdi Shoh,
Ko'zlariga uyqu qo'nimadi aslo.

Donishmanddin so'rdi: u chashma nadir,
Qo'riqchisi bormi, bo'lsa, qaydadir?

Donishmand dediki, rostini aytsam,
Ko'plar bu nuqtada bo'ldilar mulzam.

Ko'plar bu chashmaning sirrin izlabon,
Sarrishtani topmay, qoldilar hayron.

2165 Necha donishmanddin so'radim buni.
Muyassar bo'lmadi aniq talqini.

O'sha porloq nurni sharhlab necha er,
Markaz tegrasi yo yer ostida der.

Kimsa bilmas magar tark etib bu joy,
Qaylarda sayr etar Quyosh bilan Oy?

Sikandar sohilda bir oz oldi dam,
So'ngra dengiz sari tashladi qadam.

Simobdek tovlanardi dengizda suv,
Va lekin yo'llarda bulutlar – suruv.

2170 Bunday suvda kemka suzmagay oson,
Yo'lshunos yo'l ko'rsatmasa har zamon.

Necha yo'lshunosdin kengash so'rdi Shoh,
Ishning tartibidin eting deb ogoh.

Qay nishabdin kema tushirsa bo'lur?
Yuk bilan o'tishlik mumkinmidir ul?

Rost gapdin o'zgasin ko'rmadilar ep,
Kemani tushirmoq bunda mahol deb.

Shohga dedilarki, yuzlab rahnamun
Kemasi bu suvdin chiqmamish butun.

- 2175 Yana bir xatar bor, dahshatdir rosa,
Nahang, ajdaho ul, nomi Qasosa.

Qoradir, yovuzdir, vahima bilan
Tutunday yoprilar dengiz qa'ridan.

Shundoq maxluqdirki, qo`rqinch shu qadar,
Ko`rguvchi bir bora tashlasa nazar,

Joyida jon berib, holi erur voy,
Kim ham bundoq yo`lda bo`lur rahnamoy?

Bundan battari: uzoqdan qarab,
Ko`arsen, bir sohil ko`rinar yashnah.

- 2180 Yarqirab nur sochar ul sohil aro
Toshlar ko`k u sariq, qizil va qaro.

Har birining vazni bir botmon kelur,
Gavhardek tovlanib, taratadi nur.

Ko`ziga chalingach ul ajib toshlar,
Inson qah-qah urib, kulishga boshlar.

Sevinchdan jon taslim etar shu zamon,
Toshlarni ko`rmagu jon bernak hamon!

Bir misqol kam esa toshlarda vazn,
Qo`zg`atolmas ular inson kulgusin.

- 2185 Alqissa, bag`oyat xatarli u joy,
Jonning kushandasi, dedi rahnamoy.

Aytdilar, Shahriyor buni tingladi,
Bir kema jo'natib, sinov ayladi.

Yo'lshunos aytgandek bo'ldi barchasi,
Toshlarga yem bo'ldi necha kimsasi.

Buyurdi shunda shoh, tevalar ila
Borsinlar u toshloq sohilga, so'ngra

Ehtiyot yuzidin ko'zlarni boylab,
Toshlarni topsinlar, asta, avaylab,

2190 Tevalarga bir-bir ortsinlar tayin,
Ularning ustiga tortsinlar keyin.

Qalin bo'z matohlar, ular uzra ham
Yopsinlar yo namat, va yoxud gilam.

So'ng ortga qaytsinlar barcha, alqissa,
Toshloqda qolmasin birorta kimsa...

Askarlar jabborga berib jonini,
Bajo ayladilar Shoh farmonini...

Shohu askar qo'rquvdin ranglar o'chib,
So'ngra sariq qumdan o'tdilar kechib.

2195 Qumdan yuz tuyaga orting deb hamon,
Podshodin lashkarga yetishdi farmon.

Bir joyga yetdilar, suvlik soy edi,
Imorat qurishga qulay joy edi.

Toshlarni Shoh amri ila to'kdilar,
Bir imorat unda bunyod etdilar.

Toshlarni bo'z yopinchiq birlan davom,
Davorlarga bir-bir bosdilar tamom.

Va o'sha toshlardin afsona monand,
Eshiksiz bir qal'a qurdilar baland.

2200 Bir qasrkim: rangi bodommag'z edi,
Termulib husniga ko'z to'ymas edi...

O'shal sariq qumdan loy qurib andoq,
Tashqari devorin etdilar suvoq.

Ichkaridan esa suvoqsiz butkul,
Yashirin bir simi saqlar edi ul.

Eshitganlar etmish bo'yla hikoyat,
Oradan bir muddat o'tib nihoyat.

Bo'z matohlar chirib, tushib birma-bir,
Etti rangli toshlar bo'lmishdi zohir.

2205 Bino tashqarisi qolmish aslicha,
Suvog'iga ziyon yetmanish uncha.

Ichkarisi esa po'st tashlab chunon,
Aylamish necha bir jonlarni qurbon.

Har o'tkinchi o'tsa, yagona dardi,
Qasr ichkarisin ko'rmoq bo'lardi.

Eshigin topmasdi, keyin tirmashib,
Qasrga kirardi devordan oshib.

Ra'no-rang toshlarni ko'rgani zamon
Beixtiyor taslim etar erdi jon.

2210 Bir botmoni yetsa joning olgani,
Nelar qilur olar tog'dek ulxani?

Eshitdimki, bir shohi zarrin kamar
Eshitmish bu so'zni, etmamish bovar.

Bir kimsani yo'llab, sinov aylamish,
So'ngra inonmishki, qasr bo'ylamish.

Iskandar bino aylab qasri xusus,
Dengizdin biyobon sari burdi yuz.

Olti oycha tinimsiz yo'l bosdilar,
Yo'l yurishdin horib, charchadi lashkar.

2215 Shabanshoh tog' oshib, cho'lga yetishdi,
Fil minib, daryoyi Nilga yetishdi.

Nilning manbaiga ayladi rag'bat,
Avval ko'rmamishdi bu joyni albat.

Qo'sh otga tin bermay, kezib kunu tun,
Tog'u daralarni sayr etdi butun.

Ko'rdi, yurib necha yo'l u so'qmoqlar,
Daryodin qayoqdin kelur irmoqlar...

Tog'u dashtlar o'tdi bir birga tutash,
Nihoyat, oxirga yetdi tog'u dasht.

2220 Bir qumlik etagi ko'rindi oxir,
Unda bir tepalik muattar, yashil.

Tepalik atrofi tog' edi yalang,
Toshlari zangori edi, moviyrang.

Yo'lni to'sishgandi toshlar qalashib,
Yo'lovchi qolardi yo'ldan adashib.

Moviy tog'dan inib pastga har nafas,
Kumushdek shalola oqardi sharros .

Qirrali toshlarga to'lmishdi har yon,
Yo'l topa bilmasdi tepaga inson.

2225 Kirpidek tikanli u yo'ldin magar
Tepaga chiqishga bo'lsa muyassar.

Qahqaha urardi va farxundahol,
O'zni o'sha yoqqa otardi darhol.

Birmi, ming kishimi, borgan bir yo'la
Qushdek uchar edi u chaman uzra.

Necha bir insonlar bordilar, ammo,
U yoqdin bir kimsa qaytmadi aslo.

Har kimsaki borsa, omad erdi naqd,
Go'yoki kutardi uni toju taxt.

2230 Unutib, yodiga olmasdi qavmin,
Nomu nishoni ham qolmasdi keyin.

Sikandar oqilu dononi yig'di,
Bu ishning chorasi ne bo'lur, dedi.

Dedilarki, tanho bormasin kishi,
Ikki kimsa hamroh borgani yaxshi.

Borganda ham ohista bormoq kerak,
O'n qadamda to'xtab, tin olmoq kerak.

Chiqib tepaga ham, dam olib chunon,
Bir tadbirni ishga solsinlar hamon.

2235 Ko'z solib, oz-ozdin boqsinlar faqat,
Bir yo'la boqqanda bosadi hayrat!..

Bu ishdan bir samar chiqmadi ammo,
Oqilu dononi yana yig'di Shoh.

Dedilar ul donishmandu rahnamoy:
Bir mard kerak, hunarmand, pokizaroy,

Yozuvchi bo'lsin ul, jahondiyda mard²⁵⁴,
Qog'ozu qalam doim ilkida taxt.

Yaxshi bir farzandi bo'lsin bosafu,
Unga dardu g'amini ko'rmasin ravo.

2240 Kishi u tepaga chiqarkan yolg'iz,
Bolasi ortidan chiqsin izma-iz.

U balandda esa, farzand pastdadir,
Arslon bolasi – arslonga zanjir.

Kishi borgan joydan magar qaytmasa,
Farzandiga aytsin buni baralla.

Tili tutilsayu aytolmasa gar,
Ko'rganlarin yozsin qog'ozga tugal.

Maktubini uzatsin farzandidan,
Uzolmas mehrini dil payvandidan...

²⁵⁴ Jahondiyda mard – dunyo ko'rgan kishi.

2245 Bir kimsa topdilar izlab shu sifat,
Jamuljam erdi unda chun xosiyat.

Ota bilan o'g'il tog' sari hamon
Yurdilar sher ila sherbachchasimon.

Ikkinchi kun jasur o'g'lon tush payti
Qo'lda qog'oz ila ortiga qaytdi.

Bukilgan nomani kaftida tutib,
Podshoga uzatdi o'zni unutilib.

Podsho olib xatni o'qidi shu dam:
Unda deyilmishdi: podshohi olam,

2250 Men bu yo'lda yetdim jonimga, xolos,
O'zimni naq do'zaxda etdim qiyos.

Xuddi qil singari ingichkadir yo'l,
Bu yo'lda yurganlar jondin yuvar qo'l.

Oyoq ostida yo'l misli tola soch,
Orqaga qaytishga sira yo'q iloj.

Xarsangtosh ortiga o'toldim arang,
Bu tor yo'ldin jonu tanim bo'ldi tang.

Boqib, ko'rganimdin dil pora bo'ldi,
Aql xavf-xatardin bechora bo'ldi.

2255 Bir oz yurgach yana, ko'rdim har tomon
Gullagan, yashnagan bog' erdi bo'ston.

Suv erdi, sabza erdiyu meva, gul,
Sayrardi turfa qush, qumriyu bulbul.

Havosida mushk u anbar, latofat,
Tuprog'ida yashil maysa, tarovat.

Har qadamda zilol suvli chashmasor,
Har ikki chashmadin bir tiniq anhor.

Bu yoqda hama baxtu ozodalik,
U yoqda hama dardu aftodalik.

2260 Bu bihishtu ul esa do'zaxsirisht,
Kim do'zaxga borgay tark etib bihisht?

Men mashaq qat chekib yetdim bu boqqa,
Qarang, qayda edim, keldim qayoqqa?

Etib bu jannatga, qaysi bir odam
Yana o'shal do'zaxga qo'ygay qadam?

Xayr, dardu g'amiga yot bo'ling, Shohim,
Men shodmen, siz dag'i shod bo'ling, Shohim!

Sikandar bo'ldi bu sirdin ogoh,
Tog'din dasht u sahroga surdi sipoh.

2265 So'z ochmadi andin bir kimsaga, bas,
Qo'zg'atmasin dedi dillarda havas.

Bildiki, bu yerda turmoq xatodir,
O'ng tomon yuring deb amr ayladi ul.

Garchi ko'rinmasdi o'shal yo'lga had,
Yurish edi ammo podshoga maqsad...

Biyobon qumidek sarf aylabon ganj,
Chiqdi biyobondin chekib necha ranj.

Yo'li qumloq, g'ami qumdin ham ziyod,
Yurak ohi bodi samumdin ziyod.

2270 Yo'lni ne yirtqichlar etmish edi band,
Yana har go'shada shay edi dushman.

Lek ular Shoh sari tashlangan zamon,
Yo'lni qorong'ulik bosardi hamon.

Bir kimsa, Shoh izn bermasa chindan,
Chiqa olmas edi qorong'ulikdan.

Har kimsaki bo'yin sunmasa bunga,
Turgan yeri zindon bo'lardi unga.

Shoh yaxshi bilardi tillarni hama,
Kerakmasdi unga tilmoch, tarjima.

2275 So'zni ular lafzida aytar edi,
Javobi so'ng mukammal qaytar edi.

Shul yo'sin yo'l bosib borar edi mard,
Zamon osmon osti, yer ustida gard.

Yo'l bosib borarkan adolat shior,
Eldek supurardi dillardin g'ubor.

Oshnolari ko'nglin etardi ravshan,
Begonalarga o'rgatib dinu fan²⁵⁵.

Qo'rqinch masofadin shamoldek o'tib,
Devlar makoniga so'ng keldi yetib.

²⁵⁵ Fan – bu erda ilm ma'nosida.

2280 Biyobon edikim, otashda butkul,
Shohning qulog'iga shivirladi ul:

Yaratgan zar sochmish bunda onchunon,
O'simlik zotidin sira yo'q nishon...

Jahongir bu zarrin sahroga qarab,
Zar topgan boladek kuldi qahqahlab.

O'shal dasht oralab keyin yurdi shoh,
Topdi bog'i Eram yanglig' oromgoh.

Ko'rindi ajab bog'ki, Zarrin daraxt,
Shaddod yasamishdi undan toju taxt.

2285 Bir-bir qadam bosib, ichkari kirdi,
Erni ham daraxtdek sap-sariq ko'rdi.

Daraxtlari shoxin egib, sollanur,
Mevalari to'lmishdi edi, la'lu dur.

Har butoqda g'ij-g'ij olinayu anor,
Anori yoqitu yoqut erdi nor.

Norinji oltinu turunji kumush,
Termulganning boshdin uchar aqlu xush.

Bahori javohir, yeri kimiyo,
Oltin gulchechagu zumurrad giyoh.

2290 Boylik-bisot ila to'lmishdi u bog',
Har burchakda gavhardin yongan charog'.

Odam shaklida ikki haykal edi,
Boshdin-oyoq oltin edi, hal edi.

Ko'rib oltinligin yiroq-yaqindan,
Bilmasaydi, kishi qo'rqardi chindan.

Unda billur hovuz edi bo'ylakim,
Kumush poralarga to'lmish edi lim.

Sof aqiqdin erdi baliqlar unda.
Baliqlar suzgandek tiniq to'lqinda.

2295 Qasr ajabtovur bunyod etilmish,
Bir g'ishti oltinu bir g'ishti kumush.

Shoh ko'rdikim, g'ishti siymu zar nuqul,
Xayolga berdikim, jannat qasri bul...

Bir lahza tin olmay hayror kezardin.
Etagi yirtildi ul ganji zardin.

Ravoqlar ko'rdi Shoh, devori aqiq,
Peshtoqlari gavhardin erdi, yoniq.

Gunbازلarning sirti edi zarri nob,
Nur sochib turardi go'yoki oftob.

2300 Ularga ko'nmamish sira chang-g'ubor,
Faqat mushkgardi edi, atru ufor.

Ko'k gunbazin kezgan malakdek xuddi,
Sikandar qasmi xush hol kezardi.

Bir aqiq maqbara ko'rdi nogahon,
Kofuriy hidlarga g'arq edi hamon.

Zangor bo'yoqlardin ziynat etilmish,
Yoqut lavhida moviy xat bitilmish.

Unda deyilmish: "Ey qudratli odam,
Bilib qo'y, bu dargohga qo'ysang qadam,

2305 Yotar bu daxma ichra Shaddodi Od,
Shu atrof zaminni u etdi obod.

Odob ila kelgin qoshimizga, bas,
Pardamiz ochmoqqa vale etma qasd.

Sirrimizni ochma, dunyoda hargiz
Birovning sirrini hech ochmadik biz.

Izzatimizni qil, xirom ayla chun,
Sen ham shu tuproqda yotarsen bir kun.

Bunda yotgan jonsiz jasad ustida
Qora toshdin gunbaz ko'tiarsalar-da,

2310 Oqibat shu falak, aylanguvchi toq
Buzib, ul gunbazni aylagay tuproq.

Tanasin qurt-qumursqa yer, hoynahoy,
Boshi oyoq osti bo'lur, xoki poy.

Har ikmsa bir munaqqas hayvon uchun
Qabrining boshida tiklasa sutun,

Oqibat har neki mavjud ersa, bor,
Ellarda sovrilib bo'lur chang-g'ubor.

Shaddodning qo'l -oyog'i ham, tong emas,
Qay bir ot tuyog'idin topgay shikast.

2315 G'ubori qabrdin bo'lmasin yiroq,
Qo'y uni, tuproqqa qo'shilsin tuproq.

Tani zorimni ham yel sochdi har yon,
Shu gunbazdin o'zga qolmadi nishon.

Ayo sen, ochguvchi asror, qulfi roz,
Bosar qadamingni o'ylab, bilib bos.

Bo'lma mag'rur baxtliyu ozodasen,
Sen ham bir bashar, odamiyzodasen.

Ol boylik-bisotim, ul yoningdadir,
Bosh u tojim dag'i farmoningdadir.

2320 Ochildi xazinam senga, koni ganj,
Ravodir, lashkaring necha chekdi ranj.

Olgin olganingcha, davlatu sarvat
Senga bo'lsin, bizni tinch qo'ygil faqat!.."

Sikandar lavh uzra yozuvni o'qib,
Hayratlarga cho'mib, ma'nosin chaqib,

Necha andishada egdi-da boshin,
Ko'zidin marjondek oqizdi yoshin.

O'sha ko'z yoshlarkim, tiniq, beg'ubor,
Sochilib, qabrga bo'ldilar nisor.

2325 Chiqdiyu safarga otladi so'ngra,
Durru javohirdin olmadi zarra.

Kecharkan o'ziga musallam bog'din.
Bir meva uzmadi novda, butog'din.

Bildiki, bu dargoh zarrindir ziyod,
Uzoq umr bo'yi etilmish bunyod.

O'zi-ku olmadi undan bir diram,
Olishga qo'ymadi boshqalarni ham.

Bosgan yo'li bog'da andoq yo'l edi,
O'ngu so'lda oltin, kumush mo'l edi.

2330 Yodiga tushgandi qadrdon yurti,
Shuning-chun otini sahroga burdi.

Sahroning yarmiga borib yetarkan,
Vahshiy guruh ko'rdi, odamga monand.

Tanlari misoli ko'mirdek qora,
Yashash joylari g'or edi, inag'ora.

So'rdi, hilurmisiz, ayting, ahli dasht,
Biror bir afsona va yo sarguzasht?

Sizdan bo'lak yana insonu hayvon
Zotidin dasht aro tutmishkmi makon?

2335 Shohga javob berib dedilarki ul,
Bu yerlarda yomg'ir suvi mo'l bo'lur.

Qavmimizga makon shu dasht, sahrodir,
Barchaga mashg'ulot – sahroda ovdur.

Hayvonlarni ovlab, osharmiz bunda,
Vahshiy hayvon kabi yasharmiz bunda.

Egaymiz ovimiz agar kelsa o'ng,
Etarmiz jun ila terisini to'n.

Na suv bor, na olov, qovjiroq bir dasht,
Bulutdan suv yog'ar, Quyoshdan otash.

2340 Kunduzlari Quyosh yuksalib baland,
Bizni isitadi otashi bilan.

Kechalari shabnam tushganda har gal,
Havodin olurmiz suvni bir qadar.

Bu go'shada bo'lak bir komimiz yo'q,
Bundan-da yaxshiroq anjomimiz yo'q.

So'rdingiz, bu qo'rqinch dashtda yagona
Sizdan bo'lak inson bormidir yana?

Bu dasht aro muncha otash, harorat,
Hatto qush ham etmas uchishga jur'at.

2345 Vahshiy odamlar ham uchraydi, lekin
Boshqalarga sira kelmaslar yaqin.

Bir kunda bosarlar topib muncha yo'l,
Bizga ikki oyda yetishmoq mushkul.

Birisin tushirdik qo'lga beharhol,
Qo'l - oyog'in boylab, so'radim savol.

Nechuk suv ichmayin yashaydi ular?
Ne sababdin bizga sarkashlik qilar?

Dedi: "Suv biz uchun zahardir g'oyat,
Havoning namligi etar kifoyat.

2350 Ilondek birovga bo'lolmaymiz do'st,
Emish bizga kaltakesakdir, xolos.

Sizlardan zarracha foyda yo'q bizga,
Nega boshimizni egaylik sizga?.."

Eb-ichish payti va uxlashga yaqin,
So'radik ulardin ayting deb tag'in,

Ki yurdingiz suvsoq bu sahro uza,
Kezdingiz balandu pastini rosa.

Yotib poyoniga uning erta-kech,
Biror jonu jonzot uchradimi hech?

2355 Dedilar javoban bizga ul guruh:
"Kezdik bu sahroni ziyoda, asru.

Ohulardek yelib oyu yillar biz,
Uning poyoniga yetmadik, afsus.

Boshqa sahroyilar uchragan mahal,
So'radik ulardin tayin bir xabar.

Ayting, dedik, qora tanlidin o'zga
Uchradimi biror maxluqot sizga?

Dedilar: uzoqda bir manzil erur,
U yoqlarda Quyosh sokin sochar nur.

2360 Bir shahar bor yashil o'rmon singari,
Oq tanlidir u manzil odamlari..

Xush chehrayu xush xulqu zebosivar,
Besh yuz yildan ortiq yashaydi ular.

Yoshlari oshsa-da besh yuzdan, hamon
Bilmaslar sira keksalikdin nishon.

U vatanlar andoq dilkashdir, suluv,
Ular to'g'risida bilganimiz shu.

Anmo bizning sahro, pastarin tuproq
Ichra joylar borki, yetmamish oyoq.

2365 U yerlarda giyoh o'smagay, suv yo'q,
Issig'i issiqdir, sovug'i sovuq.

Gar giyoh o'smasa, taqir bo'lsa yer,
Jonzot yasharmidi unda, nima yer?

Shudir eshitganu bilganlarimiz,
Boshqa bir xabarni eshitmadik biz...

Bu sho'rlik qavmga Iskandar hamon
Nozu ne'matlardin ayladi ehson.

Keyin o'rgatdi rasimu oyinni ham,
Talqin etdi donishila dinni ham.

2370 So'ngsiz cho'lda yurish mashaqqat erdi,
Shuning-chun ulardin yo'l surishtirdi.

Iskandardin shafqat ko'rmishdi ular,
Mehr ila muruvvat ko'rmishdi ular.

Dedilar: biz dag'i himmat etaylik,
Suvsiz cho'lda to'g'ri yo'l ko'rsataylik.

Bodi samum esgan biyobondin ul,
Obod manzil sari ko'rsatdilar yo'l.

Iskandar u yo'lda odimlar otdi,
Qo'sh ot ila yo'lning tanobin tortdi.

2375 Ortda qoldi sahro, quyunli, cheksiz,
Yana ko'z o'ngida ko'rindi dengiz.

Ko'rindi zilol suv, tiniq, beg'ubor,
Sohillari yashil, ko'klam, chashmasor.

Shu yerda turdilar bir oydan ortiq,
Mashaqqatdin keyin yozdilar hordiq.

Kema yasadilar suzish uchun o'ng,
Sohildin dengizga tushirdilar so'ng.

Suzdilar bir oydan ziyoda muddat.
Manzilga yetdilar oxir-oqibat.

2380 Yulduzli ko'k harorat ichra endi
Xuddi chayon chaqqan ilondek erdi²⁵⁶.

Janub yoqdin esib xush yoqar nasim,
Tarqadi dillardin g'ami ila vahim.

Shu yerda bir oycha tutdilar qaror
Ki soyalik erdi, yana chashmasor.

Xayru xo'sh etdilar bir xastalik-la.
Doru davo topib ohistalik-la...

**Iskandar janubga ot surib, o'n sarparast, kallaga
sig'inuvchilar yurtiga yetgani**

Muq'anniynoma

Muq'anniy, yo'q otdim ko'ngil sabrini,
Bir savti soz ila ovutgil uni.

Sozingni xush chalib, xushimga keltir,
Behushman, bir yo'la hushimga keltir...

²⁵⁶ Nizomiy yoz kechasining jimir-jimir yulduzli osmonini chayon chaqqan ilon holatiga o'xshatadi.

Doston

So'z zargari ul ajib gavharnigor
Qutisin ochdi, etdi gavhar nisor.

Ki, shoh qaytib Mashriq safaridin bot,
Janubiy mintaqa sari surdi ot.

Jahonning havosi ko'ngilni ochib,
Tuproq ajab atru tarovat sochib,

Norinj ufori-la to'yinganda subh,
Turunji rang ila o'ynaganda suv,

2390 Safarga otlanib, yo'lga tushdilar,
Yangi manzil sari qushdek uchdilar.

Manzilshunoslar ko'rsatib shohga yo'l,
Aydilar qay yo'ldin borishlik ma'qul.

Yo'l uzra bir keng bor misoli bihisht,
Bog'lari mevazor, suvlari kumush.

Ammo xalqi uning yalang sarparast,
Tangri farmoniga rioya etmas.

Balki shoh u joyga qo'nib bir muddat,
Gumrohlarni etar Tangriga da'vat...

2395 Tun Quyosh qoniga to'ldirganda jom,
Shu manzilga yetib, oldilar orom.

Yana tong tovusi yozganda qanot,
Oltinlandi moviy samo, koinot.

Shoh tag'in arg'umoq otiga mindi,
Baxtu iqbol uning hamrohi erdi.

Borardi ot surib ul qomati dov,
Bahrom Go'r singari ovlamoqqa ov.

Ko'rdi har tarafda gulshan, bog'u rog',
Ko'z o'ngida jahon – ravshan bir charog'.

2400 Har taraf gul edi, chamanzor butkul,
Chindanam keng emas, jannat edi ul.

Sarparastlar qishlog'iga yetdi Shoh,
Qishloq kattasini ko'rmadi ammo.

Bunda barcha Xudo sanardi o'zni,
Bid'at, jaholatga burmishdi yuzni.

Har ikmsa bir sopol xum olib tayin,
Unga kunjut yog'i solardi keyin.

Lim to'ldirgach kunjut yog'iga, hamon
Bir insonni joylar edi beomon.

2405 O'ttiz yoki qirq kun o'tganda shundan,
Kesib olar edi boshini tandan.

O'shal xum ichida qoldirib loshin.
Teri va mag'zidin ajratib boshin,

Osardi bir joyga y'sha kallani.
Magar bir Xudo deb bilardi uni.

Qoq suyak kallaga sig'inib bot-bot,
Iqbolini so'rab chekardi faryod.

So'rardi: bu oqshom holim ne bo'lgay?
Ertagi kunimdan menga ne kelgay?

2410 Go'yo ki bir sado kelardi unga,
Go'yo ki bir javob bo'lardi unga.

Ertaga issiq bo'lgay yoki sovuq,
Jahon ahliga ham o'shandin yo'rig'.

U sho'rlik shundoq deb etardi xayol,
Oyu yillar ularda shu erdi hol...

Chu bildi ul shahanshohi chorasoz,
Ki ta'limi devdir bu asrori roz.

Buyurdi, kallalarni sindirdilar,
Yog' to'la xumlarni toshga urdilar.

2415 Aniq dalil, hujjat ila Shahanshoh
Haq dinidin ularni etdi ogoh.

Ixlosu diyonat nima, o'rgatdi,
Xudoligu payg'ambarlikni aytdi.

Bir sohib ko'ngilni rahbar aylabon,
Dedikim, bularga o'zing posbon.

O'lkaning ishini tartibga solib,
Yurho-yurga tushdi lashkar qo'zg'olib.

Ruhi taskin topib, shodlanib chindan,
Iskandar o'tlanib chiqdi manzildan.

2420 Otini yugurtdi rosa, tolmasi,
Yulduz kabi yo'lda orom olmadi.

Yo'l qorong'u edi, toru tang edi,
Har qadamda yantoq, tosh xarsang edi.

Tig'dek cho'qqisi-la paydo bo'ldi tog',
Ming bir azob edi o'shanga chiqmoq.

Har yoqdin ko'z tashlab, sinchiklab raso,
Yo'l izladi toqqa chiqmoqqa podsho.

Keyin lashkarini boshladi toqqa,
O'zi ham lashkari tushdi qiynoqqa.

2425 Qirrali tosh edi yo'lda ketguncha,
Otlar tuyog'idin ayrildi qancha.

Shoh ko'rdi, olmosdek u toshlarki bor,
Otlar tuyog'ini ayladi abgor,

Buyurdi mol terisini charm etib,
O'rangiz otlarning tuyog'iga deb.

Bo'zu namatlar ham o'ralsa, bo'lgay,
Qirrali toshlardin himoya qilgay.

Keyin amr etdiki, borguncha davom,
Yo'llarni toshlardin tozalang tamom.

2430 Yo'l uzra qoyatosh uchrasa qayda,
Po'lat cho'kich urib, etdilar mayda.

Farroshlar yo'llarni tozalab butun,
Shohning huzuriga keldilar bir kun.

Bir hovuch tosh olib kelishdi ular,
Ot-ulov tuyog'in kesmish dedilar.

Taqalarda qolmish mix kabi kirib,
Ne mashaq qat ila oldik sug'urib.

Qattiq po'lat ila urdik necha bor,
Po'lat sindi, bular sinmadi zinhor.

2435 Shoh o'sha toshlarga shamshir sirmadi,
Toshlar ushalmadi, shamshiri sindi.

Necha javhar dag'i berolmadi dosh,
Qalayi dosh berib, etoldi tarosh.

O'zga toshlarni u kesardi zunda,
Shoh uni "olmos" deb atadi shunda.

Farroshlari edi oldida hozir,
Dediki, bu toshlar qimmatbahodir.

Yig'ing uni, sira qolmasin yo'lda,
Qarang, bordir yana o'ng ila so'lda.

2440 Toshdin har biriga namuna berdi,
Shunga o'xshashini topingiz, dedi.

Bu gapdin oyoqqa qalqib lashkari,
O'sha toshni izlashga tushdi bari.

Rosa izladilar pastu balandni,
Ko'p emas, ozmuncha topdilar uni.

Kamarga ulanib kamar bir yo'la,
Tog' tegrasin o'ramish erdi dara.

O'sha dara ichra ko'p olmos edi,
Go'yoki suv to'la kumush tosh edi.

2445 G'ordin gavhar oqizar erdi daryo,
G'ij-g'ij ilon edi u suvlar aro.

Ayqashib yotardi yuz minglab ilon,
Qayda ko'rmish shuncha ilonni inson?

Ilonlar erdikim shunchalar bisyor,
Demakki u yerda xazina ham bor.

Xazinaga yo'l topmoq dushvor edi,
Xavfu xatar edi, ranj-ozor edi.

Shoh shunda ko'rdiki, ul koni olmos
Soriga yo'l olishlik oson emas.

2450 Ilonlar dahshati bor edi, illo,
Jur'at etolmasdi bormoqqa sipoh.

Shoh har tomon boqib, izladi chora,
Dediki, bir chora topilsa zora.

Qoya uzra qora burgutni ko'rdi,
Burgut changalida o'ljasi erdi.

Uchardi necha bir burgutlar hamon,
Shunda shohning chorasi bo'ldi ayon.

Buyurdi, mingta qo'y keltiring darhol,
Semizmi, oriqmi, etmang e'tibor.

2455 So'ying barchasini bitta-bitalab,
Ulaming go'shtini keyin burdalab.

Qaerdaki olmos ko'rinsa ravshan,
O'shaning ustiga oting daf'atan!..

Shohning farmonini etdilar ado,
Qo'ylarni so'ydilar shu fursat aro,

Qayda olmos esa, mo'ljallab uni,
Ustiga otdilar go'sht burdalarini.

Olmoslar go'shtlarga yopishib hamon,
Burgutlar ham paydo bo'ldilar shu on.

2460 Go'sht ila olmosni ko'tardilar tez,
Ilonlar qoldilar suvlarda yolg'iz.

Burgutlar yeyishib go'shtni qoyada,
Olmos poralari sochildi unda.

Askarlar yig'dilar ularni jadal.
Hovuch-hovuch terib, shohga eltdilar.

Olmoslarni jamlab, nazar soldi Shoh,
Ko'ki xira edi, sarig'i a'lo.

Keyin tog'din yelib, tushdilar pastga,
Toshqin shaloladek uhdilar pastga.

2465 Tusharkan, munchakim etdilar shitob,
Oldinda bir yo'lchi yo'q edi shutob.

Otlar tuyog'idin olov sachrabon,
Ko'ksidan ter emas, oqar edi qon.

Bir oycha yo'l bosib, yurdilar uzoq,
Otlar holdin toyib, toliqdi mundoq.

Va oqibat sipoh qutuldi, Shoh ham
Yo'l azobi, og'ir mashaq qatlardan.

Toshloq ortda qolib, ko`rsatdi diydor
Imoratlar tushgan kenglik, chamanzor.

2470 Yam-yashil ekinzor edi har taraf,
Qoru yomg'irlardan o`sardi yashnab.

Maysazorlar shohning ko`nglini tortdi,
Boqarkan, yurakda sururi ortdi.

Termuldi zavqu shavq, muhabbat bilan,
Otlar och, bu yerda shuncha o`t-o`lan.

Qo`lida belkurak tutib bir o`g`lon,
Bosh - oyog`i yalang, yetuk, navqiron.

Ekinzor boshida turardi dadil,
Podsholar tojiga loyiq edi ul.

2475 Belkuragi misoli zarrin kalit,
Uning-la xazina ochardi yigit.

Ekinga ravona aylardi suvni,
Goh ochar, gohida boylardi suvni.

Jahondor so`radi: "Ne uchun sening
Tuproqqa munchalar balanddir mehring?"

Barno yigitdiren va dono sirisht,
Sende yigitlarga yarashmas bu ish.

Belkurak ko`tarmoq sening ishingmas,
Er chopib, don ekmoq sening ishingmas.

2480 Sen kabi gavhardek yigitga mundoq,
Loyiqmas tuproqqa qorishib yurmoq.

Kel, senga saltanat, podsholik beray,
Tuproqni qo'y, davlatsarolik beray..."

Dehqon yigit tinglab bu so'zni shu tob,
Rasmi odob ila ayladi javob.

Dediki, ey buyuk oqili davron,
Hukmingga musallam shu mulki jahon!

Har kimga muvofiq bir ishni bergil,
Ki uni qiynalmay eta olsin ul.

2485 Menga ekin-tikin, dehqonchilik bas,
Podsholik aylamak qo'limdan kelmas.

Dehqon yotsa, unga to'shakdir yeri,
Yumshoq to'shakda u bo'ladi bukri.

Tanim dag'al yerga o'rganmish chunon,
Par to'shakda yotsam, o'ldirgay hamon.

Qattiq tan o'zni gar nozanin etar,
Elimdirki, o'zni asal deb atar...

Shahanshohga xush keldi andoq javob,
Barakalla, deya ayladi xitob.

2490 Yana so'rdi: "Ayt ding yurakda boring,
Degil endi. Kimdir Parvardigoring?"

Turish - turmushingda panohingni ayt,
Kunu tun ichra qiblagohingni ayt.

Kimga sig'inasan, kimga bandasan,
Nazari qay tarafga solmoqdasan?"

Javonmard dediki, ul qodir Xudoy,
Payg'ambar sayladi seni, rahnamoy.

Sen sevganing Tangri mening ham erur,
Sening qiblang mening ham qiblam erur.

2495 Feruza samoni yaratgan o'sha,
Tog' ila sahrani yashnatgan o'sha!

Kunu tun uni deb to'kib ko'z yoshim,
Tuproqqa necha bor qo'yaman boshim.

Shu qoshu ko'zimki, mening emish ul,
O'zim so'rmay turib menga bermish ul.

Lutfu karamlarkim etdi ul qadar,
Har biridin jonimga yuzlab samar.

Shukrona aytaman, vojibdir Shukur.
Tangrini tanigan Shukrona aytur.

2500 Senki kelding hamon Payg'ambar bo'lib,
Qabul aylagaymen dinparvar bo'l ib.

Avvalroq ko'rgandim seni uyquda,
Suv ichra baliqdek tirildim unda.

Mana, kelding o'zing, jonga barobar,
Nechun xizmatingga boylamay kamar?

Senga o'xshashini ko'rmamish dunyo,
Seni toq, yagona yaratmish Alloh.

Sen ila hamisha xurramdir jahon,
Sening sadding ila mahkamdir jahon...

2505 Iskandarkim shohlarning shohi erdi,
U barno, poksiyrat yigitni endi

Manglayidin o'pdi duo ayladi,
Ofarin deb zikri Xudo ayladi.

Elkasiga yopdi shohona to'nni,
Haq dini-la sarafroz etdi uni.

Chamanzor ichrakim, sahnida shu dam,
Ham qizil gul edi, yashil maysa ham,

Shoh sipohi ila kunu tun necha,
Yo'lning charchog'ini tarqatdi picha.

2510 Etti ko'k ustidan Quyosh banogoh,
Xo'rozni qichqirtib berganda sado,

Shoh yana safarga o'zni shayladi,
Yo'lga tushdi, azmi safar ayladi.

Yo'l bosib, necha bir manzildan o'tdi,
Nihoyat go'zal bir manzilga yetdi.

Yashnagan bir diyor jannat misoli,
Ammo paykallari ekindan xoli,

Daraxtu gulu sabza, obi ravon,
Har tarafda shohona qasru ayvon.

2515 Qarovsiz edi bunda har neki bor,
Suv bosib barini etmishdi abgor.

Shoh surdi: "Bu manzilning nomi nadir,
Hokimi kimdiru nechuk kimsadir?"

Dehqoni bormidir, ho'kizi qayda?
Kimlar tirikchilik qilargu bu joyda?"

U yerda yashovchi bir kimsa hamon
Er o'pib, podshoga javob aylabon.

Dedi: "Bu dilkusho, go'zal o'lkadir,
Barakatli yerlar bari shundadir.

2520 Birov bu zaminda etsa ziroat,
Biridan ming unar, hattoki ziyod.

Yurtni zulmu bedod xarob ayladi,
Tiriklikni elga azob ayladi.

Hokimi bo'lsaydi odilu barhaq,
Manzil obod bo'lib, yashar edi xalq.

Insofu adolatdin kelgay samar,
Zolimdin zalolat kelur muqarrar.

Insofu adolat bo'lmasa, gul-da
Quyoshda quriydi, chirydi suvda.

2525 Bir dona arpani haqsiz olsa el,
Arpa. bug'doyini yuvib ketar sel.

Tarozusi ersa o'yinchoqsimon,
Bir dona arpadin buzilgay hamon".

Shohga ma'lum bo'ldi, bu xoki turob
Zolim bedodidin bo'lmishdi xarob.

Adaolat qo'rg'onin bunyod ayladi,
Nomini Iskandarobod ayladi.

Qonun joriy etdi u joyda darrov,
Birovning haqqiga tegmasin birovo.

2530 Har kimsa bersin o'z molidin zakot,
Toki torojiga ko'tarib barot,

Eshigiga kimsa kelmasin zinhor,
Bunday hukmdorga ofarin ming bor!..

Iskandarning ikkinchi bor Hindistonga borgani Muq'anniyoma

Muq'anniy, kel, sozingni soz ayla. hay,
Bu ish bo'yadirki, besoz bo'lmagay.

Sozingni har kimsaga imdod etar,
Ohang ila ko'nglini obod etar...

Doston

Xush yashnab gul ochsa bog'u bahor,
Yasharsa yana olami ro'zgor.

2535 Binafsha tutib bori atrofi bog',
Nargis kaftida ravshan aylab charog',

Qushlarning qalbida qoni gupurib,
Ko'ngil jo'shqini birla chah-chah urib,

Demakim, bu sarv ila shamshod erur,
Qirg'ovul qoni lim may shishadir ul.

Ohular raqs etib, ma'raydi shu chog'
O'shal dasht bag'ridin ohu qo'zichoq.

Suv bo'yida gul o'zni pardozi etar,
Bulbullar sayrashib, nag'masoz etar.

2540 Gul atriya qumri nolasi shu dam
Qovushar, go'yoki ikki yor mahram.

Oqin suvning ovozi xushdir ajab,
Gul suvidir, yoqimlidir ul sabab.

Qiyg'och ko'zli turk go'zali tovlanib,
Chang torlari uzra sochi sollanib,

Sozi nolalari yangrab sozidan,
Uzilarkan etgan ishva-nozidan,

Dilrabo so'zlaring xush ovoz ila
Sen aytasan, u ham aytur soz ila.

2545 Undan shirin bo'sa, sendan g'azallar,
Birisi novotdir, birisi shakar .

Har safar bo'saga g'azal bergaysen,
Novot olarsanu shakar bergaysen.

Ko'nglimni to'tidek quchdi ajab mung,
Hindistoni yodiga tushdi uning...

Doston

Tog'larga rayhonlar berdilar ziynat,
Qorishdi chun Shingarf ila lojuvard.

Ohular o't-o'lan, gullarga botdi,
Tovushlari tog' u sahroni tutdi.

2550 Chechak unib chiqdi quruq tikandin,
Binafsha bo'y sochdi mushk u anbardin.

Nargis bosh ko'tarib, taradi kokil,
Atru ufor xarid etmoqchidir ul.

Gul faslida Eronu Rum sarvari
Yurdi vayronadin obodlik sari.

Azm ayladi yana mulki Hindiston,
El edi, ko'zlagan manzili bo'ston.

Keyin bayrog'ini Mashriqqa surdi,
Bir oycha tog' oshib, sahroda yurdi.

2555 Yo'llar Do'zax kabi qizimish edi,
Baliqning orqasi qizarmish edi²⁵⁷.

Kirdi bir shahargaki, minusirisht,
Turklar uni atardi langarbihisht.

Unda bahor ko'rdiki chun navbahor,
Ibodatxonasin derlar Qandahor.

Sanam yuzli edi dilrabolari,
Bir sanamga sig'ınardi har biri.

Har uyda bir but edi, olti sanam,
Xazinaga o'xshardi ul xona ham.

2560 Sanamning toj kiygan boshi yuksalib,
Xonaning shiftiga yetardi qariyb.

²⁵⁷ Ya'ni, havo juda issiq edi.

Ko'zlari o'rnida gavhar edi, sha'n,
Ikki sham singari yonardi ravshan.

O'shal gavharlardin yorishardi bog',
Tunlari sahnida yongandek chiroq.

Shoh buyurdi: o'shal butlardin hamon
Zaru gavharlarni oling batamom!

Oldilar ul zaru gavharlarni zud,
Butga ziyon edi, xaloyiqqa sud.

2565 Saroyning burchidan bir go'zal chiqib,
Shohga yaqinlashdi oy kabi balqib.

Shoh yo'liga sochin etdi supurgi,
Ofarinlar o'qib, so'ngra dediki,

Shohi jahon, ey dovari dodgar,
Sening izmingdadir boxtaru xovar²⁵⁸.

Jahonni yoritar bosh dagi tojing,
Zar ila gavharga ne ehtiyojing?

Shu butning bir ajib bayoni bordir,
Bobolardan qolgan dostoni bordir.

2570 Shoh izn bersalar, ayon aylayin,
U ko'hna dostonni bayon aylayin.

Jahondor amr etdi, guli dilnavoz
Gapirsin ko'rsatib bizga lutfu noz.

²⁵⁸ Boxtaru xovar – mag'ribu mashriq.

Shu dam ul paripaykaru mushk xol
Labi chashmasidin oqizdi zilol.

Duo aylab dedi: saodatli Shoh,
Zarrin og'ochdirsanu feruza Shox!

Ilgarii emasdi bu joy butxona,
Saroy edi bir gunbazi vayrona.

2575 Dashtdin uchib keldi ikki qush, ajab,
Tumshug'ida ikki gavhar yarqirab.

Qo'ndilar ul gunbaz ustiga hamon,
Saodat elchisi humo qushsimon.

Shahar ahli tinchin yo'qotdi ko'rib,
Qandoq tutsak ekan bu qushlarni deb.

Qushlar esa turib bir muddat, xolos,
Gavharlarni tashlab, etdilar parvoz.

Shahar ulug'lari gavharlar uza
Bahsu munozara etdilar rosa.

2580 Har biri ko'ngliga tamah topdi yo'l,
Gavharni kiritsam derdi qo'lga ul.

Oqibat barcha bir to'xtamga keldi,
Magar aqlu xirad yordamga keldi.

Kelishdi bo'yla ahdu paymonaga:
Gavharlarni beraylik butxonaga.

Bir but yasadilar, sanam, zebu zar,
Ikki ko'z o'rnida ul ikki gavhar.

Ularni osmon etmishdi ravo,
Shohim, sen ulardin etma mosuvo.

- 2585 Quyosh diydalarga ehson etar nur,
Berganin qaytarib olgaymidir ul?

Charog' kim, ul ko'rni ham xursand qilar,
Uni o'chirgaymu ravshan ko'zlilar?

Bevalar ko'ksiga, shohim, solma dog',
Bevalar tunini etma becharog'!..

Buti xush zabondin keldi bu nido,
Buti bezabonni ozod etdi Shoh.

Yozdi ul sanamning taniga shuni,
Ki "Bosdi Iskandar bunda muhrini".

- 2590 Parirux ko'rdiki, ulug' Shahriyor
Butlarni ayadi, bermadi ozor.

Bir nihon xazina ko'rsatdi hamon.
Ko'zlar qamashardi boqib begumon.

Podsho ul javohir husniga to'ydi,
Bir qismini oldi, qolganin qo'ydi.

Tark ayladi so'ngra shu manzilni ul,
Yana dasht u sahro sari oldi yo'l.

Ot surdi, yo'li dasht u toshloq, qamish,
Manzili goh tor edi, goho kengish.

- 2595 Necha xilkim odamiyzod uchradi,
O'zi so'zlab, ularni ham tingladi.

Yazdonparastlikdin xabar aylabon,
Dindan to'tiyoyi nazar aylabon,

Mashribda yo'l bosib zamindan zamin.
Jadal yurdi mo'ljal olib mulki Chin.

Hoqon xabar topdi, haybati bosib,
Ziyofat shayladi unga munosib,

Shoh oldiga kirib keldi orasta,
Dunyoni to'ldirdi ganjga bir pasda.

2600 So'ng ezildi, ta'zim bajo ayladi,
Iskaandar ham e'zoz etdi, siyladi.

Aylantirdi falak niliy gardishin,
Moviy jilo oldi sariq abreshim.

O'tirishdi ikki Shahriyor hamdam,
So'z ketdi aroda har mamlakatdan.

Har mavzuda fikru andisha ayta,
Ahdu paymonlarni tuzdilar qayta.

Hoqon qabul etdi shohning dinini.
O'rgandi ul oyotu oyinini.

2605 Ikkinchi kun qoraxoniy hindu boz,
Ko'rdi Quyoshni, bo'ldi otashparast²⁵⁹.

Iskandar hoqonga ishorat etdi,
Ki yo'lga tushmoqlik fursati yetdi.

Garchi bu joy ko'rkam makon, xushdiyor,
Dengizda suzmoqqa ishtiyoqim bor.

²⁵⁹ Kecha kunduzga yuz tutdi, demoqchi.

Endi yurib, ohangi daryo qilay,
Unda har ne esa, tamosho qilay.

Ko'rsam deyman dengizda ne bor o'shal,
Asov to'liqlarlarda ne asror o'shal.

2610 Hamroh bo'lib kuzat so'lu sog'imni,
Yoritgil yo'limni, guzargohimni.

Hoqon bu taklifni ayladi qabul,
Shohga yo'lchi bo'lish sharaf dedi ul.

Ikki Shahriyor chun etdilar qaror,
Oldinda yo'lshunos bormog'i darkor.

Xayrli tong otib, jahon ochdi yuz,
Tun boshiga tojin qo'ndirdi kunduz.

Shunda amr ayladi ul Shohi jahon:
Barcha birdek yo'lga tushsinlar hamon!

2615 Qo'shinidan o'n ming askar sayladi,
Har biri shohlikka munosib edi.

Yana oziq-ovqat, zarur narsasin,
Ehtiyojga ko'ra oldi barchasin.

Qoldirib bir miqdor ganju sipohdin,
O'zi sur'at ila ko'chdi u joydin.

Xoni xonon esa xizmatda turib,
Hamrohlik rasmini bajo keltirib,

Necha nozu ne'mat ziyoda etdi,
Necha qurol-yarog' omoda etdi.

2620 O'n ming askar qadam tashlab larzakor,
Tartib-nizom ila yurib saf-qator,

Barcha birdek Mashriqqa yuz tutdilar,
Mag'ribiy oltinni nisor etdilar.

So'ng yo'lni janubga burdilar picha,
Yo'l -yo'lakay ov ham qildilar necha.

Qirq kun yo'l bosdilar jadal, tinmayin,
Hordiq yozmay, orom-qaror bilmayin.

Ko'rindi ul moviy dengiz bir mahal,
Shu yerda oqibat qo'nim topdilar.

2625 Jam bo'lib, bir kengash qildilar shunda,
Bayroqlari edi samo qo'ynida.

Shu yerda aytildi turfa hikoyat.
Dengiz sohilida, ajib bag'oyat.

Ki parilar chiqib suvdan har kecha,
Bazm qilisharmish oppoq tonggacha.

Sohilda tun bo'yi quvnab, yayrashib,
Qo'shiq kuylasharmish o'yinga tushib.

Kishi tinglab ularning sho'x sozidin,
Hushidin ajrarmish xush ovozidin.

2630 Baytlar aytish armish navolar uzra,
Ki dunyoda kimsa aytmamish sira.

Tun bo'yi bazmaro chun shavqu shu kuh
Aylarmish o'sha sho'xu shodon guruh.

Tong shamoli yashnab, yorishgan zamon
Sho'ng'ib ketarmishlar dengizga hamon...

Jahondor eshiti, lashkarga, endi
Bir-ikki mil nari chekining, dedi.

Tun nafasi mushki anbarin sochdi,
Yulduzlar samoda daricha ochdi.

2635 Shohning amri bilan bir kema keldi,
Shoh o'ttirib, o'shal manzilga yeldi.

Chodir qurdi unda, ko'rdi bir mahal,
Suv uzra shu`lasin taratdi gavhar.

Parilar mavj aro ko'rindi shu tob,
Suv ostidin go'yo balqidi oftob.

Sochlar yelkalarga sochilmish edi,
Yuzlar lola guldek ochilmish edi.

Har biri kuylardi nozli bir qo'shiq.
Qo'shig'ida yuz bir kuy edi, yoniq.

2640 Quloqqa urilib ul shirin ovoz,
Yurakda toshardi sevinch, ehtiros.

Yig'latdi podshoni u sehrli un,
Keyin kulib dedi: yig'lamoq nechun?

Ohang yangrar edi zeru bam ila,
Ham kulgu, ham yig'i kelgay bir yo'la.

Oyoqqa turdi shoh subhidam payti,
Kemaga o'ttirib, manzilga qaytdi.

Yana Quyosh berdi falakka pardozi,
Jahon qaro tundin bo'ldi beniyoz.

2645 Kemachiga podsho amr ayladi: tur,
Shu onda kemani dengizga tushir!

Sayr etmoq istarmen bahri guharda,
Ilohiy asror bor u to'lqinlarda.

Bu ish xatarlidir, bilaman jiddiy,
Ammo niyat qildim, qarorim qat'iy.

Donishmanddin so'rdim, shu bo'ldi so'zi:
Seni yo'lga boshlar qismatning o'zi ...

Kemachi buyruqni quloqqa oldi,
Kemasini toshqin suvlarga soldi.

2650 Tavakkalga qo'ydi podsho jonini,
Sohilda qoldirdi Chin hoqonini.

Dediki, qaytarmen o'shanga dovr
Tark etma bu joyni, posbon bo'lib tur.

Bilmasmen, bu yo'lda nimalar kutar,
Balki halokatga bo'lurmen duchor?

Qaytsam, hurmatingni qilurmen tamom,
Qaytmasam, o'zing etishni saranjom...

Ko'zdin yoshlarini oqizib podsho,
Bunda qolganlarga ayladi vido.

2655 Kemasini burdi Chin dengiziga,
Tushdi u ilohiy sirlar iziga.

Bahri azim ichra suzarkan shu dam,
Necha sonishmandlar erdilar hamdam.

Necha hakimlardin ul isonafas
Balinosi Shohga hamroh erdi, bas.

Necha yo'ldoshlari qirg'oqda qoldi,
Sohil ko'rinmasdan, yiroqda qoldi.

Tamom yeru samo suv erdi go'yo ,
Dengiz dunyosida suzardi dunyo²⁶⁰.

2660 Kema ilgarilab, suzarkan ildam,
To'lqin ko'tarildi dengizda shu dam.

Suv junbushga tushib, kuchaydi dolg'a,
Orqaga chekinmas, bosardi olg'a.

Ko'pni ko'rgan suvchi, mallohlar hamon,
Qo'rquv, vahim ichra erdilar hayron.

Rahnamodin so'rab, bildilar aniq,
Orqaga qaytishdin bo'lak chora yo'q.

Uzoqdin bir orol ko'rindi shunda,
G'aroyib nur porlab turardi unda.

2665 Dunyo ko'zlariga kelgan edi tor,
Etib shu manzilga, tutdilar qaror.

Mallohlarning piri bor edi andoq,
Podshoga yuzlanib, so'yladi shundoq.

²⁶⁰ Iskandar ma'nosida.

Ki, bu manzil – manzili mushkul erur,
Yo'l topishda eng so'nggi manzil erur.

Ko'pam jahd aylama, sabr ayla, toqat,
Bundan nari dengiz dolg'ali g'oyat.

Olg'a suzar bo'lsak bundan nari, hay,
Ortga qaytishimiz mumkin bo'lmagay...

2670 Etishgach podshoga ishning xabari,
Bildiki, borilmas bu yerdan nari.

Buyurdi bir tilsim yasanglar debon,
Yo'lichiga ishorat aylab har zamon,

Aytsin bundan nari yo'l yo'qligini,
Yo'l xavfu xatarga to'liqligini.

Shunda misdan baland bir tilsim yasab,
Orol tepasida qo'ydilar tiklab.

Toki o'tgan-qaytgan kemalar ko'rsin,
Kema ahli ko'rib, muqarrar bilsin,

2675 Bundan nari yursa, yo'qlikka ketgay,
Odamiyning yo'li shu yerda bitgay.

Toki bu sinoat yetib yo'lichiga,
Yo'lda davom etmay, qaysin ortiga.

Tilsimga yana bir nazar soldi Shoh,
Bildiki, bu ishni buyurmish Alloh.

Donishmandga dedi: bizga shu hasdir,
Buni bunyod etdik, bejiz emasdir.

Alloh shu tilsimga shayladi bizni,
Magar xizri daryo ayladi bizni...

2680 Xudovandi karim amrini aytdi,
Podsho u manzildin orqaga qaytdi.

O'n kuncha yo'l bosib, to'lqin oshdilar,
Ne ajabki, yo'ldin adashmishdilar.

Ko'rdilar yiroqdin, tog' edi baland,
Oldida bir girdob edi daf'atan.

Girdobga bir kema tushsaydi hamon,
Yillar bo'yi unda suzardi sarson.

Xarob bo'lur edi unda alqissa,
Tirik chiqolnamish undan bir kimsa.

2685 U joyga yetganda kemachi ustod
Kemani tog' etagiga surdi bot.

Langar tashlab, shunda to'xtadi oxir,
Kema ahlin toqqa chiqardi bir-bir.

Tepalikdin boqib, xayolga toldi,
Bola-chaqasini xotirga oldi.

Jahondor surdiki, senda muncha g'ami,
Qo'l yuvdingmi deyman dunyodin shu dam?

Kemachi dediki, bu bandi daryo²⁶¹
Munchalar qo'rqinchdir, gush nadir yuxo.

²⁶¹ Daryo - dengiz ma'nosida.

2690 Bu yerga yetgan har kemadir abas,
Bundan eson-omon chiqolgan emas.

Arslon og'zi deb atalur bu yer,
Arslon singari yamlab, yutib, yer.

Boshimizdin necha xatarlar kechdi,
Bu xatar oldida barisi hechdi.

Xastalik kishiga keltirar qiynoq,
Yara toshsa yana, azobdir qandoq!

Agarchi yo'limiz xatarli edi,
Yursak, manfaatli, samarli edi.

2695 Endigi joyimiz qo'rqinch naqadar,
O'lim dargohiga yetishdik magar.

Ammo bir chora bor, shu tog'din keyin
Quruqlikka eltuvchi yo'l bor tayin.

U yo'l so'ngra eltadi Qaysur tomon,
Qaysurdin Chin sari yo'l ketgay hamon.

Yiroq bo'lsa hamki, koni mashaqqat,
Dengizda suzishdin yaxshidir albat...

Iskandar dediki, yaxshidir u yo'l,
Mayli, yiroq bo'lsin, sen salomat bo'!!.

2700 Yana so'rdi: aytgil, fikringda hanuz
O'zga bir andisha yo'qmidir durust?

Toki madad aylab, yo'lga yo'llasin,
Kemamiz yo'lini ravon aylasin...

Donishmand dediki, hamisha, har vaqt
Shohning baxti uchun chekaman zahmat.

Agar sabru toqat etsalar shohim,
Toshdin yasaydirman baland bir tilsim.

Gunbaz ko'targaymen ustida uning,
Nog'ora osarmen ostida uning.

2705 Har kimsaki u yerga qo'ygay qadam,
Nog'orani chalsin urib damba-dam.

Ko'rasizki, kema qo'zg'olgay hamon,
Girdobdin qutilib, yo'l olgay ravon.

Bu taklif podshoga tuyuldi ajib,
Tilsinni donishmand qandoq yasar deb?

Donishmandga, qani, tezroq bo'l, dedi,
Oshkoru nihoning ishga sol, dedi.

Har ne tadorikni ko'rdi, shayladi.
Asbobu anjomni hozir ayladi.

2710 Donishmand rejasin tuzib mukammal,
Bel boylab, amalga kirishdi jadal.

Ulkan tosh qoyadin bir gunbaz yasab,
Unga afsun ila rang berdi ajab.

Misdan tilsim yasab, ostiga bosdi
Va uning ustiga nog'ora osdi.

Va Shohga dedikim, ko'tardim gunbaz,
Tilsimu nog'ora tayyor bo'ldi, bas,

Kemangni behadik dengizga tushir,
Keyin shiddat ila nog'orani ur...

- 2715 Shahanshoh ko'rdikim, bari shay edi,
Kemani tushiring dengizga, dedi.

Suvga tushirdilar kemani shu tob,
Gir-gir aylantirdi kemani girdob.

Shoh gunbazga yetib keldi shu zamon,
Qo'lida tayog'i shay edi hamon.

Qoqdi nog'orani, uchdi jarangos,
Go'yoki Jabroil ayladi parvoz.

Kema uchib chiqdi girdob bag'ridin,
Qutildi ofatning qahru zahridin.

- 2720 Shoh ko'rib, chaqnadi sevinchdin ko'zi.
Bahor oftobidek yorishdi yuzi.

Donishmandga ehson etdi molu ganj,
Ortda qoldi qo'rquv, ortda qoldi ranj...

Bu sirni so'radim bir gal so'z aro,
Yo'lshunos bir kekxa ayladi izoh.

Bobil tarafdadir, dedi, u girdob,
Bu sirga bo'lmagay ikki xil javob.

Ikki anhor oqib, qo'shilsa agar,
Oqimidan ohang, qo'shiq taralar.

- 2725 Kekxa bir donodan so'radim rozni,
Nog'oradin uchgan o'sha ovozni.

Izoh berdi donoyi suratshu nos,
So'ziga keltirib shundoq bir qiyos.

Kema u girdobda tebrangan zamon
Ostida bir baliq bo'lgay begumon.

U doira yasab tinmay aylanur,
Ustida charx urib, kema tebranur.

Nahang aylanarkan, shiddati ortar,
Gohida kemani domiga tortar.

2730 Nog'ora gumburlab yangragan asno,
Nahangni hurkitar qo'rqinch sado.

Vahimaga tushar baliq begumon,
O'zini bir yoqqa otar nogahon.

Yoki to'g'ri chiziq tortadi suvda,
Ortidan kema ham suzadi shunda.

Qutilar shu yo'sin kema hoynahoy,
Yana boshqa sirni bilguvchi Xudoy...

Shoh tilsim sirrini bilib muqarrar,
Dengizda suzishga ayladi qaror.

2735 Bu yerda qolishga sabri yo'q edi,
Baland tog'dek tushib, sohilga keldi.

Tun hindusi moviy ko'k gumbazidan
Etti irmoq sari tashladi rasan.

Shoh ul bandargohda qilib andisha,
Hindudek ip o'yin ayladi pasha²⁶².

Bilmasdi, nog'ora yangraganda bot,
Nechuk ul insonga bergusi najot?

Parvardigor agar aylasa madad,
Boshqa bir madadga qolmagay hojat.

2740 O'zgalarga darmon aylagan ravo,
O'ziga o'zga din izlarmi davo?

Isitmada yongan yegaydir kofur²⁶³
Emasa, yonishdan qutilarmi ul?

Ul kim o'zgalarga baxsh etur darmon,
O'zi ham salomat bo'lur har qachon...

Usta malloh dag'i turmadi qarab,
Kemaga otildi nahangga o'xshab .

Ochdi yelkanni ul bandi-bandidan,
Boylangandi osti-ustidin yelkan.

2745 Suzishga shayladi hamon kemani,
Kelgan yo'lga yana boshladi uni.

Suzdi qora suvda necha bir muddat,
Qadr don sohilga yetdi oqibat.

Xaloyiq kemaga peshvoz chiqdilar,
Xursandchilik ila gurros chiqdilar.

²⁶² Shoh ipdek ingichka yo'ldan ketishga qaror qildi.

²⁶³ Kofur – kamfara, o'tkir hidli, rangli dori.

Iskandar shu tariyq makon tutdi dasht,
Boshidin kechmishdi necha sarguzasht.

Ortda qoldi qo'rquv, tahlika bari,
G'amiu dardni dildan haydadi nari.

2750 Necha bir bandini ozod ayladi,
Xudoyi mehribonni yod ayladi.

Xabardor bo'ldi bu holatdin hoqon,
Keldi shoh oldiga ul shod u xandon.

So'ylabon so'ng hamdu Shukrona bisyor,
Shahriyor poyiga etdi zar nisor.

Shoh dag'i navozish, karam ayladi,
Boshidin kechganni bir-bir so'yladi.

So'yladi necha bir zahmat yetganin,
Unda ajab tilsim bunyod etganin.

2755 Yo'lni adashtirib, tolganin aytdi,
Tog' poyida bandi bo'lganin aytdi.

Tog' boshida topib tiriklik, hayot.
Nog'ora tufayli yetganin najot...

Tingladi qissani ul hoqoni Chin,
Shohga ahsant o'qib, dedi: ofarin!

Ki, Shohlar Shohini falak qo'llamish,
Ko'nglini chun sevinch sari yo'llamish.

Jahonga kelganing ajab roz erur,
Ki Shohi jahon chorapardoz erur.

2760 Har yaxshi, yomonki izlanur hamon,
Ostida bir maqsad yotar begumon.

U parda ortida ne sir bor, ne iz,
Ko'rgay uni aql sohibi yolg'iz.

U joyga bormasa sohib saltanat,
Bu ishlar noma'lum qolardi albat.

Jahon shukuhingdin nurlarga to'lsin,
Shu dunyo sen bilan poyanda bo'lsin!..

Iskandar bir hafta dam olib davom,
Yo'lning azobini unutdi tamom.

2765 Jahongashtalikni yana etdi yod,
Xavfu xatarlarni aylamadi yod.

Samoga o'rladi yana "Ko'ch!" sasi,
Yo'lga tushdi qo'shinning ilk dastasi.

Yo'lchi sorbon yana yo'l boshladi zud,
Qo'shin ko'chdi, ko'kda qo'chganday bulut.

Rangin gilamlar erdi gavharnigor,
Sahroni ayladi misli lolazor.

Qilichlar, qalqonlar sahroni shu dam
Gulu savsan kabi ayladi ko'rkam.

2770 Yurdi dunyo sari yana Shahriyor,
Samolarga uchdi yana chang, g'ubor.

Shoh biyobon sori ravon etdi Raxsh²⁶⁴,
Sipohiga molu yemak etdi baxsh.

Qizg'in cho'llar osha kunduz va kecha,
Haroratda yonib yurdilar necha.

O'n kuncha yo'l bosib yurdilar hama,
Imorat ko'rindi, suv erdi, dala.

Oldinda bir oppoq shahar ko'rindi,
Tuproqdin emasdi, kofurdin erdi.

2775 Hoqondin so'rdi Shoh: kimning shahri bul,
Va nechuk shahardir, qandoq atalur?

Bilguvchi bilganin ayladi bayon:
Kammehr shahar deb atalur hamon.

Agarchi siymu zar bunda mo'l, ziyod,
Boshqa narsalarga bozori kasod.

Bir podshosi bordir, zalolat pesha,
O'zini Xudo deb bilar hamisha .

Bu joydan G'ariblar qochar bag'ri xun,
Ziyolilar bunda ko'rolmaydi kun.

2780 Quyosh tongotarda ko'targanda tug',
Boshlanar dengizda taraqqo-turuq.

Eshitganlar bo'lur andin bag'ri chok,
Qo'rquv, vahimasi aylagay halok.

²⁶⁴ Raxsh - yugurik ot.

Taraqo-turuqda zarb ila zarda,
Bolalar o'ltirar yerto'lalarda.

Kattalar quloqni berkitar hamon,
Yo'qsa, o'shal dahshat bermagay omon.

Shohning ko'ngli xira tortdi, naylasin?
Donishmanddin so'rdi tadbir-chorasin.

2785 Donishmand maslahat berdi: subhgoh
Lashkariga andoq amr aylasin Shoh,

Ki xo'roz qichqirmay qoqsinlar dovul,
Ovozasi yetsin falakka dovur.

Dovul qoqib, suron solsinlar davom,
Taraqo-turuqni bo'g'sinlar tamom.

Quyosh balqib, kunduz yetganga qadar
Dovul qoqishlarni to'xtatmasinlar.

O'shanda dengizdan taralgan baland
Taraqo-turuqlar bo'lmagay pisand...

2790 Shoh so'rdi: ul vahmali shovqin nima?
Aqlu hushni etar chun qiyma-qiyma.

Magar dushmanidir odamizodning?
Sababi ne emish bongu faryodning?

Donishmand dediki, ayo Shahriyor,
Ustodim aytmishdi, xotiramda bor.

Har kuni tong otib, chiqqanda oftob,
Suvning yuzi qizib, qizarar shu tob.

To'liqin ko'tarilar vahima solib,
To'liqinlar to'liqinni quvar qo'zg'alib.

2795 Har lahza gurillab oshar qudrati,
Qudrati osharkan, oshar shiddati.

Boshqa bir dono ham aytmishdi shunda,
Simob bor demishdi o'sha to'liqinda.

Quyosh otash purkab dengiz yuziga,
O'shal dam simobni tortar o'ziga.

Oqshom ufuqlarga botganda Quyosh,
To'liqinlar tinchlanib, tortadi yuvosh.

Simob pastga sho'ng'ir va o'shal zamon
To'liqinlardin tikka yuksalur suron...

2800 Shohi jahon berdi shu onda amrin,
Qo'shin borib tursin shaharga yaqin.

O'zi ham yo'l oldi sokin, betashvish,
Qo'nib, ul makonda topdi osoyish.

Shahar ahli xabar topib keldilar,
Xarid aylamoqqa chopib keldilar.

Qo'shinda necha xil matoh bor edi,
Shahar ahli unga muhtoj, zor edi.

Savdo-qotiq qilib, bo'ldilar xursand.
Sarmoyalar ortdi foydasi bilan.

2805 Shoh ul Mushtariylar shodlansin deya,
Molu bisotidin etdi hadiya.

Ganji naqdinadin ham tanlab chunon,
Shahar hokimiga etdi armuq'on.

Shahar hokimi ham ko'rarkan buni,
Iskandarning xos rasmu oyinini,

Unga e'tibori, hurmati ortdi,
Nozu ne'mat to'la sufra jo'natdi.

Turfa baliqlaru qo'y-qo'zi anga,
Yana turli-turli yemishlar qancha.

2810 So'ng o'zi xizmatga kelib turdi rost,
Dedi: berolmadik ziyofati xos,

Biyobonlarimiz quruq, benavo,
U yerdan yetgani bizga shu havo...

Shoh arz etib unga o'z oyinidin,
Xabar berdi donish ila dinidin.

Hokim qabul qildi, ayladi ixlos,
Avval gumroh edi, bo'ldi haqshunos.

Shahriyor ham undan rozi bo'ldi chun,
Siylab to'n kiydirdi, jo'natdi mumnun.

2815 Tun chekdi yuziga qirmizi atlas,
Baland tom boshidin pastga tushdi tos.

Rohat-farog'atda uxlar edi Shoh,
Yo'l ranjidan hordiq yozib to saboh.

Tong yorishib, yoydi olamga yorug',
Etdi qulog'iga taraqqo-turuq.

“Kechagi tos yana tushdimi nogoh,
Qoʻrqinch sado berar andoq sahargoh?”

Shoh oyoqqa qalqdi shundoq vahm ila,
Hayqirdi, atrofga soldi gʻulgʻula.

2820 Lashkarga amr etib, turinglar, dedi.
Dovul qoqing, tinmay uringlar, dedi.

Nogʻora qoqdilar, urdilar dovul.
Uxloq xoʻrozlar ham uygʻondi butkul.

Dovullar har lahza gumburlab baland,
Qoʻrqinch tovushlarni bosdi dafʻatan.

Dovulga ergashib necha nogʻora,
To peshinga dovur tinmadi sira.

Shahar ahli andoq eshitib suron,
Qiyomat qoʻpti deb ayladi gumon.

2825 Keksa-yosh junbushga keldilar butun,
Tabli Dajjol deya soldilar shovqin²⁶⁵.

Bosildi dengizning qoʻrqinch tovushi,
Taajjub ayladi bunga har kishi.

Kun yarimdan oqqach, asrga yaqin,
Shoh safar tugʻini koʻtardi tagʻin –

Erkak-ayol Shohga taʻzim ayladi,
Arzi niyozini soʻngra soʻyladi:

²⁶⁵Dajjol – nasroniyalarda Isoning, musulmonlarda Muhammad (a.s) ning dushmani, yolgʻonchi Mahdiy, qiyomat oldidan osmondan nogʻora chalib tusharmish.

“Shohim, shu dahshatli dovulingdan, hay,
Birini qoldirsang bizga, ne bo'lgay?”

2830 Har safar gumburlab, taralsa sasi,
Bosilardi andin dengiz na'rasi...”

Shahriyor ularning arzin tinglabon,
Necha bir dovulni ayladi ehson.

Bu shahar ahliga rosa keldi o'ng,
Tongda dovul urish rasm bo'ldi so'ng.

Shohga ham shu odat xush keldi, ma'qul,
Har tong askarlari urdilar dovul.

Xullas, ular so'ngra bir oycha yurib,
Yana mulki Chinga qaytdilar horib.

2835 Yana lashkargohga qadam urdi Shoh,
Falakni o'ziga damsoz ko'rdi Shoh.

Bir oy yozdi shunda safar charchog'in,
Surib xilvat aro ayshu farog'in...

Iskandar shimol haddiga yetib, Saddi ya'juj ko'targani Muq'anniynoma

Muq'anniy, ko'ngil dardiga chora yo'q,
Sozing borki, g'animga bayg'ora yo'q.²⁶⁶

G'anim jonga yetdi, dema bedavo,
Ipak toring chertib, aylagil davo...

²⁶⁶ Bayg'ora – ta'na, malomat.

Doston

Yonib, ko'k toqiga chiqdi oftob,
Arslonlar bo'ldi issiqdin kabob.

2840 Harora oshgandan oshdi gupurib,
Chirku rutubatni havodin surib.

Giyoh donalari pishdi, to'kildi,
Chaman ichra lola sarg'aydi, so'ldi.

Tog'u sahrolarni qopladi buxor²⁶⁷,
Shakar boyladi mevadin mevazor.

Pastdin tog' bag'riga kuchdi andalib²⁶⁸,
Taronalar aytib yig'ladi G'arib.

Ortdi saratonning otash nafasi,
Havoda kesildi bo'zto'rg'ay sasi.

2845 Samolarda porlab Quyosh durafshon,
Aqrabdek har tarafga sochmay xazon,

Betnim kezardi Chin ila Zangda,
Tutun sochgan lagan erdi ilkida.

Yoqib, kuydirardi so'lu sog'ini,
Ho'kiz sag'risiyu go'r tirnog'ini.

Saraton hukmini yuritgan palla,
Quyosh toshlarni ham eritgan palla,

²⁶⁷ Buxor – bug', tuman.

²⁶⁸ Andalib – bulbul.

Sikandarshoh yana oyoqqa turdi,
Chinni tark etdiyu Xarxezga yurdi.

2850 Hoqonni mulkida sobit aylabon,
Safar jabdug'ini yana boylabon.

To'kib hoqon oldiga simu zarin,
Biyobon sari boshladi lashkarin.

Ketarkan, damba-dam bong urib ketdi,
Mashriqdin yo'l bosib, shimolga yetdi.

Yalang qumli sahro edi, alqissa,
Na parranda uchrar, na biror kimsa.

Biyobonda tirik bir jon ko'rmadi,
Yo'l bosib, yo'liga poyon ko'rmadi.

2855 Zamin tovlanardi bamisoli dur,
Oyoq osti qumdan sochilardi nur.

Shohga rahbar dedi: qumdir bu andoq,
Kumushdir yarqirab turuvchi porloq.

Gar bir qadar olsang, ajab koni ganj,
Faqat yetkazmagil tevalarga ranj.

Lashkarga gapirma, olsalar bilib,
Elkaga olurlar og'ir yuk qilib.

Bisotida oltin mo'l erdikim, Shoh
Boshda kumush qumga boqmadi qiyo.

2860 Keyin tiyolmadi o'zni bu ishdan,
Necha bir tuyaga ortdi kumushdan.

Garchi yo'lda yeldek etdilar raftor,
Havoga uchmadi sira chang-g'ubor.

Bir hafta yurdilar yo'lda betinim,
Boshdin-oyoq kumush qum erdi zamin.

Boqib der edingkim, ajab xoku ob,
Yarmi kumush ersa, yarmisi simob.

Na kumush ustida tinchimoq bir dam,
Ichmoqqa yaroqsiz edi suvi ham.

2865 Bir dardga muftalo edi magarda,
Tuproqqa cho'kdimishdi qora bir parda.

Qacda bir chashma oqsa, obi nob,
Qaynar edi uning mavjida simob.

Simob pastda edi, ustida zilol,
Ichganda kimsaga kelmasdi malol.

Ichar edi jur'at etib ba'zilar,
Chunki simob zeru suv edi zabar.

Ammo suv mavjlanib, to'lqin ursa, bas,
Undan ichishlikka botinmasdi kas.

2870 Magar g'afflat bosib, ichar bo'lsa ul,
Tiriklikdan qo'lni yuwardi butkul.

Shoh qo'shinlariga ayladi farmon:
Ogoh bo'ling barcha suv ichgan zamon!

Chashmadan suv olib, sabr etib iching,
Ichar suvni o'bdon tinitib iching...

Bir oycha yurdilar andoq yo'l bosa,
Lashkar tashnalikdan qiynaldi rosa.

Qutildilar oxir kumush qumloqdan,
Tuproqqa yetdilar kelib yiroqdan.

2875 Tuproqqa yuzlarin surdilar bir-bir,
Tuproqdin yaralgan tuproqda tinchir...

Oldinda oromgoh ko'rindi shunda,
Quyosh porlaganday tuyuldi tunda.

Tog' boshida qal'a bor edi, yohu,
Boqqanda ko'ngilni quchardi shu kuh.

Boshi uzra gunbazi feruzarang,
Belida belbog'i toshdan, turfarang.

U yerda bir guruh dinparvar edi,
Musulmon, ammo bepayg'ambar edi.

2880 Yazdon ilhomi-la aylashib qiyos,
Erdi o'z ahvolicha yazdonshunos.

Ko'rdilarki, Shoh Iskandar erdi ul,
Uni Payg'ambar deb etdilar qabul.

Bergan ta'limini aziz tutdilar,
Ta'lim berarmi deb yana kutdilar.

Iskandar din eshigin ochdi kushod.
Dinu donish berdi va molu bisot.

Ko'rdilar shohnikim, erdi chorasoz,
Chora istab anga yuzlandilar boz.

- 2885 Dedilar: podshohim, shafqat aylagil,
Amringga hozirmiz, madad aylagil.
- Ushbu tepalikdin narisi toshloq,
Dashtdir, poyoni yo'q dengizdir andoq.
- Dasht aro bir guruh, Ya'juj unga nom,
Odamiyozdirlar, vale devfom²⁶⁹.
- Yuraklar temirdan, panjalar olmos,
Bo'ridek necha bor yesa ham, to'ymas.
- Boshdin-oyoq tuk qoplamish onchunon,
Yuzlarida yo'qdir burundan nishon.

- 2890 Changali. tishlari yirtqichga o'xshash,
Qon to'kib, hamisha qizil, qontalash.

Quvishib, o'zishar shamoldanam to,
Timoqlari teshar po'latni hatto.

Eb-ichishda noshu kurlar, nosipos,
Uchramas ularda bir yazdonshunos.

Ovqat izlashadi, oromlari yo'q ,
O't-o'landin o'zga taomlari yo'q .

Eb-ichishdan boshqani bilmas ular,
Mingtasi tug'ilsa, bittasi o'lar.

- 2895 Ularning yerida giyoh o'sadir,
Filfil deb atalur, donasi taxir²⁷⁰.

²⁶⁹ Devfom – devga o'xshash.

²⁷⁰ Filfil – murch.

O'shaning donidan bir hovuch otib,
Duch kelgan har joyda uxlashar qotib.

Kundan kun o'tadi, oydan oy o'tar,
Ular qirda qurdek qaynashib yotar.

Har neki uchrasa, yeyishar paqqos,
Oy yarim bo'lganga qadar shu, xolos.

Osmonda oy yarim bo'lganda biroq,
Ularda tinchigay och-ofat tomoq.

2900 Har yili bir karra u joyga, illo,
Qora bulutlardan tushar ajdaho.

Dasht u tog' bag'riga tushar ekan u,
Egaylar to'yguncha necha bir guruh.

Bulutdan tushgan ul taomga to'yib,
Uning otashida o'rtanib, kuyib.

Tandirdek og'izdan chiqib hovurlar,
Zaminni Do'zaxga aylantirurlar.

Ajdaho etining mastligi ila
Bir oycha yemaslar, ichmaslar sira.

2905 So'ng faqat ildizu yaproq yegaylar,
Kasal bo'lmagaylar o'limga qadar.

Gar bittasi o'lsa, ko'mmaslar uni,
Yoprilib, yegaylar o'sha murdani.

Ulardin o'laksa qolmagay zero.
Qabr qazilmagay murdaga aslo.

Boshqa hunarlari yo'qdirki, andoq
Murdadin pok erur bu suv, bu tuproq.

Har muddat biz tomon kelishar shitob,
Manzillarimizni aylashar xarob.

2910 Qo'y-qo'zi qoldirmay, tortib olishar,
Ekinzorlarimiz payxon qilishar.

Qo'ylarimiz qo'rqmas bo'ridan hamon,
Ulardan qo'rqishar, ular beomon.

Ular ajal bo'lib kelishar bizga,
Qo'rquv dahshat solib har birimizga.

Qochamiz ulardan, yo'qsa o'lgaymiz,
Tog'da daraxtlarda jon saqlagaymiz.

Toqqa chiqolmaslar ular baharhol,
Bizni tog' boshidin tushirmoq mahol.

2915 Shohim, bu balodin Xudo asrasin,
Savob bo'hur edi etsang chorasin...

Iskandar bildiki, Ya'juj balodir,
Har biri bir filni yiqishga qodir.

Po'latdin bir devor tikladi payvast,
To qiyomatgacha ko'rmagay shikast.

Qo'lladi tolei yulduz-axtari,
Bunyod etdi chun Saddi Iskandariy...

So'ngra bir shaharga yetib keldi Shoh,
Unda uchramadi bir kimsa ammo.

2920 Jahongashtalikda ayladi davom,
Saroparda ichra yo'l bosdi ravon.

Kezib bir, muddat shu yo'sin etdi gasht,
Necha manzil oshdi yurib tog'u dasht.

Ko'rindi bir orasta manzil ajab,
Ko'ngil yayrar edi husniga qarab.

Jahondor qo'shinga yuzlanib hamon,
Dediki, ko'ringiz na go'zal makon!

Go'zal makon deganicha bor edi,
Suvlar oqib, har yon ekinzor edi.

2925 Har taraf bog', devor-chetan yo'q edi,
Suruv bor ediyu cho'pon yo'q edi.

Navkarlardan bir qo'l cho'zib shu dam,
Meva uzmoq bo'ldi daraxt shoxidan.

Ammo uzolmadi, qaddi bukildi,
Bukildi qomati, kamondek bo'ldi.

Boshqa bir suvoriy tutganda qo'yni,
Isitma otashi kuydirdi uni.

Iskandar dediki, bu sizga ibrat,
O'zi ham qo'l cho'zmay, tiyildi minba'd.

2930 Jumla lashkariga amr ayladi Shoh:
Qo'l cho'zmang birovning bog'iga aslo!

Yana yo'l yurishga etdilar qaror,
Ortda qoldi o'shal chaman, mevazor.

Ko'rindi bir shahar, orasta erdi,
Ko'rganlar, ajabo, jannatmi, derdi.

Yo'l bosib, shaharga yetdi Iskandar,
Unda darvozadin yo'q edi asar.

Donishmandlar ila kirdi shaharga,
Hayratlanib boqdi ko'cha, guzarga.

2935 Har qadamda shinam, sarishta do'kon,
Eshik, qulfdin esa ko'rinmas nishon.

Shahar ahli munisu mardunnavoz,
Chiqdilar shu onda podshoga peshvoz.

Boshladilar moviy qasrga xursand.
Osmondek keng qasr erdi, muzayyan.

Sufra yozib, ne'matga to'ldirdilar,
O'zlari xizmatda tikka turdilar.

Izzat ko'rsatdilar, yuz mehru niyoz,
Ajab mezbhon erdilar mehmonnavoz!

2940 Ochildi podshoning dili bahrasi,
Yorishdi xub chehralardin chehrasi.

Iskandar so'radi: sababi nadir,
Qo'rquvsiz yashay miz, va bexavotir?

Bu tinchu osoyish, farog'at qaydan?
Eshigingiz bilmas sira qulfu band?

Bog' bor, ammo yo'qdir bog'bondin darak,
Suruv bor, yo'q vale cho'pondin darak.

Qo'ychivon yo'q, ammo yuz minglab suruv
O'tlaydi yaylovda erkin, beqo'rquv.

2945 Nedir bu omonlik boisi, illo,
Panoh deb etarsiz kimga tavallo?

Ul yurtning necha bir donishi hamon
Dedilar: Shohimiz, doim bo'l omon!

Boshingga toj qo'ndirgan ul buyuk zot
O'zi yorlaqasin seni umrbod.

Madadkoring mudom Rabbimiz bo'lsin,
Shon-shuhrating yeru samoga to'lsin!

So'rading, nechukdir bu ahvolimiz?
Arz aylasak, ayon bo'lgay holimiz.

2950 Haqiqat uldirki, xalqimiz chindan
Bu dasht u tog'aro yashar qadimdan.

Zaifdirmiz, dinu taqvoli g'oyat,
Rostlik, to'g'rilikdir rasmi rioyat.

Tilimiz kelishmas aldoqchi so'zga,
Demasmiz to'g'rilik, rostlikdin o'zga.

Qing'irlik eshigin bekiddik tamom.
Rostlikka yetishdik butkul, batamom.

O'ngimizda yolg'on aytmasmiz, yana
Uyquda ham yolg'on bizga begona.

2955 Narsa so'ramasmiz, magar sud emas,
Ki Yazdon ul amaldin xushnud emas.

Xudodin ne kelsa, degaymiz Shukur,
Emasmiz xudobexabar, noshukur.

Haqdin har ne kelsa, qabuldir albat,
O'zi yaratdi-ku, etmasmi shafqat ?

Ojizlarga hamisha yormiz, tayanch,
Qiyin kunlarida bo'lurmiz suyanch.

Gar kimsaga bizdan ziyon yetgusi,
Bizga ul zarardin nishon yetgusi.

2960 Zararin qoplarmiz cho'ntagimizdan,
Ki o'shal minnatdor bo'lgusi bizdan.

Bizda teppa-tengdir mol ila bisot,
Birovda kam emas, birovda ziyod.

Do'stu birodarmiz barcha o'zaro,
Birov yig'laganda kulmasmiz aslo.

O'g'ridin xalosmiz, bunga gumon yo'q,
Shahrimizda mirshab tugul, posbon yo'q.

Birovning moliga boqmasmiz hecham,
Ko'z solmaslar bizning molimizga ham.

2965 Qulfu kalit ko'rmas eshiklar sira,
Qo'yu sigirimiz doim dalada.

Xudo marhamatin ko'rsatdi chunon,
Mollarimiz sheru bo'ridin omon...

Bo'ri qo'yimizga og'iz solsa gar,
Gumon yo'qki, shu onda barham topar.

Kim xirmonimizdin bir boshqoq olsa,
O'shal dam ko'ksiga sanchilar nayza.

Er chopib, ekarmiz ekin, kish tikor,
Ekinlarga posbondir Parvardigor.

2970 Boshida turmasmiz kelib kun sayin,
O'rishga kelgaysmiz olti oy keyin.

Bu tuproq bag'ridin xirmon ungusi,
Bir donadin yetti yuz don ungusi.

Bir ish etarmizmi yoki yuz adad,
Tavakkal qilurmiz Xudoga faqat.

Uni deb yasharmiz bu dunyoda, bas,
Panohimiz Alloh, undan boshqamas.

G'iybat qilib, sira so'z so'ylasmasmiz,
Birovga tosh otib, ayb aylasmasmiz.

2975 Birovni parishon ko'rarkan, albat,
Maslahatlar berib, etgaysmiz madad.

Insonni ayaymiz suyak har qachon,
Fitnadin yiroqmiz, to'kmagaysmiz qon.

G'amixo'rmiz hamisha bir-birimizga,
Sevinch ham umumiy sevinchdir bizga.

Bizda simu zarga aldanmas birov,
Simu zar ekan deb ko'z solmas birov.

Bir-birdan tutmasmiz narsani darig',
Zo'rlik-la olinmas bir dona tariq.

2980 Jonivorlar bizdan qochmagay zinhor,
Chunki yetmas bizdan ularga ozor.

Ehtiyoji bo'lganda alqoru jayron
O'zlari eshikdan kirurlar hamon.

Zarurati qadar shikor etarmiz,
Ne hojat ersa, ul miqdor etarmiz.

Boshqalardin bo'lib shunda beniyoz,
Dala-dasht bag'riga haydagaymiz boz.

Ho'kiz, eshshak kabi emasmiz yuxo,
Eb-ichishda meyor bo'lur doimo.

2985 Ul qadar yermizu icharmiz mudom,
Ki andoq yeb-ichishlar etgay davom.

Bu yerda yosh - yalanglar o'lindin yiroq,
Qarilar ham umr ko'rurlar uzoq.

Birov o'lar bo'lsa, chekmasmiz fig'on,
Bilarmiz yo'q erur bu dardga darmon.

Kishining yuziga aytamiz so'zni,
Ortidan so'ylamoq kamsitar bizni.

Bizda tamkin bordir, haddin oshish yo'q,
Birovning ishiga aralashish yo'q.

2990 Har ne yaxshi-yomon yelar bo'lsa ul,
Biz uni qismat deb etgaymiz qabul.

Tangridin ne kelsa bizga erta-kech,
Bu nechun, qaydan, deb so'ramasmiz hech.

Kishi topgay bizda qo`nim va qaror,
Gar bo`lsa biz kabi poku parhezkor.

Agar siyratida bo`lsa o`zga hol,
Bizning davramizdan quvilar darhol...

Iskandar tingladi, o`ylarga toldi,
Bosh egib, shu yerda sargashta qoldi.

2995 Bu ajib qissani tinglamoq tugul,
Biror Shohnomada ko`rmagandi ul.

O`z-o`ziga dedi: bu sir, bu kalom,
Orif esang, senga ibratdir tamom.

Etar endi, kezib, ko`rmasmen jahon
Va har go`shada ham tutmasmen makon.

Jahon kezib, har neki ko`rdim, yetar,
Mardumdin nechakim o`rgandim, yetar.

Jahondin o`rgandim kezib jon halak,
Bu mardumdin o`rganganim bir bo`lak.

Xulosa ayladim oqibat, illo,
Ana shu mardlarning joyidir dunyo.

3000 Shular bois olamda shavqu shu kuh,
Olamning ustuni erur shu guruh!

Ajib bir siyratni ko`rarmen bunda,
Ular inson esa, biz kimmiz unda?

Tangri yo`l boshlabon dasht u dengizga,
Bularni ko`rsatmoq istadi bizga.

Vahshiy odatlardin voz kechib zinhor,
Bulardin ma'rifat o'rganish darkor.

Bulani ko'rsaydim ilgari, chunon,
Jahongashta bo'lib kezmasdim jahon.

3005 Tog' bag'rini makon tutardim magar,
Xudolab belimga boylardim kamar.

Andoq bo'lur edi oyinim mening,
Shundan o'zga bo'lmasdi dinim mening.

Ko'rib chun ularning dinparvarligin,
Iskandar aytmadi Payg'ambarligin.

Ko'rdiki, ular chun yetuk haqshunos,
Molu davlat baxsh ayladi beqiyos.

O'shal mamalakatdin qaytdi shodmon,
Lashkari daryodek surdi dasht tomon.

3010 Bayroqlar ko'tarib yurtga qaytarkan,
Ipaklarga chulg'andi cho'lu chaman.

To'ldirib tog'larni, dasht u o'rmonni,
Qo'shin chumolidek bosdi har yonni.

Har joyda bir to'xtab, olar ekan tin,
Ko'plarni qutqardi bechoralikdin...

Iskandar shimoldan Rumga qaytgani
Muq'anniynoma

Muq'anniy, damingdir dami jonfazoy,
Kalitdir eshikka ul gavharkushoy.

Kalit solib, yo'lni ravon aylagil,
Duru gavharlaring ayon aylagil...

Saraton vasfi

3015 Mevalar yetilib, egsa butog'in.
Dchqon tark ctadi uyi, o'tog'in.

Bog' orasta bo'lib yashnaydi ul dam.
Zamin zebo bo'lur, samo muhtasham.

Pista labi sevinchdin xandon bo'lur,
Xurmo labi nim shirin, nordon bo'lur.

Anor chehrasi nurda yal-yal yonar,
Toji uzra gavharlari tovlanar.

Qizil olma kelur shabnamlarga duch,
O'jarlik bila bosh chiqargay turunj.

3020 Tok-kelinchak esa maydin erur mast,
Qo'llarda olmayu norinj bo'lur. bas.

Anor shoxlari ham yukdan egilgay,
Hama ko'shku ayvon anorga to'lgay.

Anjir o'g'irlashar qushlar har zamon,
Anjirxo'r qushlarga yetishar davron.

Tuproqki ul hamisha bodomga do'st,
Yog' istab, bodomni etar mag'zu po'st.

Unnob la'li labin cho'zib daf'atan,
Findiqdan bo'salar olur bedahan.

3025 Daraxtlar bo'y cho'zib, yashnab, yarqirab,
Socharlar finduqu unnob har taraf.

Uzum sarmast kiyib mushkin kulohin,
Barmoqqa o'ramish zulfi siyohin.

Qovoq hozirlanar chalmoqqa rudni,
Behi tomog'idin olur amrudni.

Uzumlar savatga sig'adi zo'rg'a,
Uzum tashuvchilar botishar terga.

Uzumlarni siqib, ezishar shu dam,
Sharbati xumlarga oqar damba-dam.

3030 Xumlar sado berar qaynab shu onda,
Shira-sharbat atri kezar har yonda.

Bayram nashidasin surardi dunyo,
Iskandar bayramdin yiroqdi ammo.

Biyobonu vodiy, daryo, tog'ni ul,
Yonida bir guruh, kezardi nuqul.

Necha bir xalqlarni qutqarib jangdin,
Qutqarib mardumni ahvoli tangdin.

Umr paymonasi to'lmishdi endi,
Yo'li toru toshloq bo'lmishdi endi.

3035 Ikki eshiklidir dunyo sahni, hay.
Bundan kirilgayu undan chiqilgay.

Ul olti jihatli, yetti butoqli,
Tepasi tor, oldi kengish adoqli.

Sarvdin yetishdi andoq bir ovoz:
“Etgil jahdu jadal aylamoqni bas!

Jahonni ko‘p kezding, magar keldi payt,
Bas endi, avvalgi manzilingga qayt!

Iskandar so‘zini yozganda xattot,
Besh harfda yozmishdi, buni ayla yod.

3040 Besh harfga muvofiq etding besh safar²⁷¹,
Kezding necha tog‘u dengizni, yetar.

Bas, jahon ishidan qo‘lingni tortgil,
Besh oycha yo‘l bosib, uyingga qaytgil.

Yunonga bor endi, tark et bu diyor...”
Tinglaguvchi mast erdi, bo‘ldi hushyor.

Qo‘rqdi bu ovozni tinglab nogahon,
Otning jilovini tortdi ul hamon.

Do‘stlarin voqifi asror ayladi,
Rumga qaytishlikka qaror ayladi.

3045 So‘ng necha tog‘u dasht, daryolar osha,
Yurt sari jadallab yo‘l bosdi shosha.

²⁷¹ Besh safar – Iskandarning Misr, Eron, Hindiston, Rus va Chin o‘lkalariga qilgan safarlari ko‘zda tutilmoqda.

Yo'l bosib, avvalo Kirmonga yetdi,
Undan yurib, Kirmonshohlarga o'tdi.

U yerdan Bobulga tomon oldi yo'l,
Bobuldan Rum tuprog'iga yurdi ul.

Bobuldan Zur shahriga kelgan zamon
Shahanshohning ahvoli bo'ldi yomon.

Yo'l yurishga qolmadi hech rag'batlari,
Tugadi bardoshi, sabru toqati.

3050 Runga yetsaydim deb yutar edi xun,
Oyoq-qo'li bo'yin sunmasdi lekin.

Gumon ayladiki, ichmishdi og'u,
O'shal zahri qotil natijasi bu.

Uni chulg'ab oldi qo'rquv, vahima,
Ortardi davosiz dardu har dama.

Qo'sh ot ila yurtga jo'natdi chopar,
Toki ul vazirga yetkazsin xabar.

Aytsin, shitob aylab, kutarman seni,
Balki oxirgi bor ko'rarsan meni.

3055 Donishmandlarni yig', safigni to'ldir,
Yuzmi yoki ellik bo'lsa ham, keltir...

Chopar shitob aylab, vazirga yetdi,
Har neki aytilmish edi, arz etdi.

Vazir bir chorayi imkon topmadi,
Umid aylamakdin nishon topmadi.

Hama donishmandlarki, Yunonu Rum
Ichra andoq mashhur erdilar ma'lum,

Yig'ib keltirdi, lekin ul Shahriyor
Ilkida yo'q edi endi ixtiyor.

3060 Ko'rdi shoh jismini ojiz, notavon,
Qutilmog'i bu darddin erdi gumon.

O'pdi Shoh ilkini erkalab suyib,
Tomirin tingladi barmog'in qo'yib.

Tomiriga barmoq bosib tingladi,
Xastalik boisin bildi, angladi.

Buyurdi tabiblar shaylanib hamon,
Etsinlar bemorning dardiga darmon.

Doru darmon ersa gar obi hayot,
Andin vafo yetmas yetishsa vafot.

3065 Shahanshohning ishi haddidan o'tmish,
Magar ranji tugab, rohati yetmish.

Har neki olmishdi, omonat erdi,
Qaytarib bermoqlik kerakdir endi.

Jahon o't yoqardi, bir gulxanki xos,
Oltinni tuproqdin etardi xalos.

Tani harakatdin tinib bir pasda,
Yo'qlik olamiga bo'ldi payvasta.

Tanu joni erib borarkan hamon,
Suvda qand, o'tda sham erigansimon,

3070 Bir shamol esdiyu o'chirdi charog',
Bog' ichra daraxtlar duv to'kdi yaproq.

Yashil yaprog'ini butkul to'kdi sarv,
Qanot yozmadi ul sarv uzra tazarv²⁷².

Atri mushk taratgan chechaklar bari
To'kildi tuproqqa xazon singari.

Iskandarki, oyni ko'zlaan edi,
Nola chekib, boshin yostiqqa qo'ydi...

Iskandar vasiyatnomasi Muq'anniyнома

Muq'anniy, bir qushdirsan, soatsbunos,
Tundan necha soat o'tdi, so'yla rost.

3075 Xo'rozlar qichqirmas, kechikdi nadar?
Sug'diy qushing sadosin yangrat baland...²⁷³

Xazon vasfi

Xazon yellariga makon bo'ldi dasht.
Bog' boshiga tushdi boshqa sarguzasht.

Kuzak shamollari bois so'ldi bog',
So'ndi gul-chechaklar ilkida charog'.

Sarg'aydi hama sabzayi maysazor,
To'kildi rayhondin bari bargu bor.

²⁷² Tazarv – qirg'ovul.

²⁷³ Sug'diy qush – rubob.

Og'ochlarning shoxi o't olib bir-bir,
Rangin varaqlarni yoqdilar gur-gur.

3080 Dehqonning bozoriga yetdi ziyon,
Bog'ning eshigini bekitdi bog'bon.

Ariqlarda to'ngib, muz qotdi suvlar,
Podsho hovuziga oqmishdi ular.

Bog' deb aytilurmu bog'nikim, shu tob
Devori yiqiqdir, ahvoli xarob?

Mayu soqiy erdi unda, no'shu noz,
Endi necha hayvon qilur turktoz.

Qushlar sayramaydi qo'ynida uning,
Shamollar uvlaydi sahnida uning.

3085 Sayrga kelganlar bog'ni tark etmish,
Mug'lar ham ko'rinmas, bir yoqqa ketmish.

Endi zaif erur Quyoshdin shu'la,
Suv betida muzdin marvarid jola.

Kechagi bog' erur bugun ship-shiydom,
Nu bulbuldin navo, na guldin nishon.

Gul bag'riga tushmish tikondin dog'lar,
Atru uforini yo'qotmish bog'lar.

O'shal xazon ayyomida ketdi baxt,
So'lmoqqa boshladi kayoniy daraxt.

3090 Iskandarkim, edi ul Shohi jahon,
Davosiz bir dardga yo'liqdi chunon.

Sovuq edi Shohning dami, nafasi,
Ko'p edi yurakda g'amii, g'ussasi.

Tani a'zoyiga yetishdi sustlik,
Qayda endi qudrat, u tandurustlik?

Qushning qanotlari qayrildi mundoq,
Jahon bo'ylab javlon urmishdi qandoq?

Sarg'aydi lolayu ado bo'ldi sarv,
Lochin changaliga duch keldi tazarv.

3095 Lasbkar tabiblari, shahar beklari,
Bemor atrofida jam bo'lib bari,

Dardu davosini axtarib faqat,
Tutardilar unga har turdi sharbat.

Tomir ushlab, undan istardilar roz,
Lekin ketgan umr qaytmas edi boz.

Tabiblar etardi doru davo zud?
Lekin ajal yetsa, davodin ne sud?

Necha chora-tadbir etdilar, ammo,
Ketganni qaytarib bo'lmagay aslo.

3100 Gavhar ketsa qo'ldin, bo'lurmi vosil?
Ming izla, muroding bo'lmagay hosil.

Ketish vaqti kelsa, yetib ranju dard,
Tabiblar bahona izlashar faqat.

Bemor, azoblarga duchor ekan u,
Endi o'z o'limin etadi orzu.

Tabiblar koʻrmagan chora qolmadi,
Vale hech biridin samar boʻlmadi.

Charogʻkim, soʻnishga mahkumdir hamon,
Anga oʻz yogʻi ham aylagay ziyon.

3105 Mevakim, kasalga duchor shu onda,
Tuproqqa tushadi silkinsa novda.

Hoziq hakim gar chorayi jon qilur,
Darmonda qolganda ne darmon qilur?

Toʻqqiz koʻk sirrini bilguvchi olim
Falakdin axtardi podsho tolsin.

Tolei koʻrindi kunduzdin yiroq,
Baxtu iqbol degan yulduzdin yiroq.

Bir yulduz tarafdin madad koʻrmadi,
Umrini choʻzishga ragʻbat koʻrmadi.

3110 Yulduzlarga boqib, hisob etib xos,
Tushdi vahimaga ul axtarshunos...

Iskandar koʻzguga boqib, chekib gʻami,
Soldi nazar jismi zoriga bir dam.

Ogʻriq tani qildek ingichka erdi,
Joni kelmish edi ogʻziga xuddi.

Na jismida quvvat, na ruhida hol,
Chinordek qomati boʻlmish edi dol.

Shamdek erib bitgan edi, angladi,
Oʻzining holiga oʻzi yigʻladi.

3115 Talab aylab bor do'stu damsozni,
Aytidi ko'nglida asragan rozni:

"Kemam girdob aro qoldi, holi tang,
Ajali og'iz ochdi misoli nahang.

Falakdin baski "Ko'ch!" farmoni keldi,
Ko'ch-ko'ronni ortmoq kerakdir endi!

Falak avval oson ayladi ishim,
Berdi dasht u daryoda osoyishim.

Endi o'zi g'anim bo'ldi menga, voy,
Yuz o'g'irdi ko'kda Quyosh birla oy.

3120 Qismat meni oldi qahriga butkul,
Bu ahvoldin omon chiqmog'im mushkul.

Ne tadbir etayki, u charxi baland
Qasd aylab, tashlashim tojimga kamand.

Qayda u xazinam, u ganjim mening,
Rishvat berib, kamaytsam ranjim mening?

Qayda u lashkarim, shamshir chekib, tig',
Jonimni azobdin aylasa forig'?

Iskandarmen, axir, xusravi devband,
Xudovandi shamshiru taxti baland²⁷⁴.

3125 Mashhuri jahondir jangda shiddatim,
Barcha quloqlarga yetmish shuhratim.

²⁷⁴ Xudovand – shamshir va taxti egasi.

Zaharli shamshirinini sirmab yalang,
Daryoyi Qulzumdin chiqarganman chang²⁷⁵.

Kichiklarni baland ko'tardim necha,
Qo'ylarni bo'ridin qutqardim necha.

Singanlarga malham boylab har nafas,
Sindirganlarga esa berdim shikast.

Zulm ko'rganlarni suyab har mahal.
Har necha mushkulot esa, etdim hal.

3130 Qannujdin to o'shal Qulzumu Qirvon,
Shamshirim o'ziga yo'l ochdi ravon.

Ajal yetdi, o'shal tig' bo'ldi zanjir,
Bo'ynimga sirtmoqdek o'raldi hozir.

Kechdim tog' u dasht u daryolarni, bas,
Bir kimsa men kabi kecholgani emas.

Hukmdor Doroning boshini yordim,
Tanini burdalab, tuproqqa qordim.

Urdim bo'yniga Furi qattolni ham,
Egallab Chinda taxti Chippolni ham.

3135 Qobilu Hobildin qasos istadim.
Nosikdin Mansakka tashladim odim.

Majusiylikka men bo'ldim beayov,
Rusning dengiziga soldim o't-olov.

²⁷⁵ Daryoyi Qulzum – Qizil dengiz.

Taxt ustida o'ltirib jamshidvor,
Ganji Faridundin tikladim hisor.

Yiqdim bir yo'la daxmayi Odni,
Ochdim eshigin qasri Shaddodni.

Bordim o'shal olis Sarandibga ham,
Odam qadamgohiga qo'ydim qadam.

3140 Xabar berdim Rustami zol baxtidin.
Kayxusravning jomi birla taxtidin.

Mashriqni tark etib, Mag'ribga yurdim.
Unda yuksak Saddi Ya'ujni qurdim.

Quddusda Odamdek o'ltirganim rost,
Ka'ba halqasiga qo'l urganim rost.

Zulmatda mash'ala yoqdim charog'on,
Jahon zulmiga tamba qo'ydim chunon.

Bekorga shon-shuhrat quchmadim, illo,
G'aflat ichra qadam bosmadim aslo!

3145 Bordim har joyga men haqiqat shior,
Adolat va donish topdilar qaror.

Yoniq havolarki, eritardi tosh,
Mening vujudimga kuch etardi baxsh.

Endi parquv to'shak uzra yotib men,
Quvvatimdan qolib. dardga botibmen.

Bosh yostiqa yetib, tanim bo'ldi sust,
Yostiqa qo'yarmi boshin tandurust?

Qarodin qarodir ko'zimga dunyo,
Tuproq'i, suvi ham qarodir go'yo.

3150 So'rsalar, ne ko'rdim va nechuk erman,
Jahonda hech narsa ko'rmadim. derman.

Go'dak men ul, bir kun yashamish, o'lmish,
Jahonni ko'rmasdan jonini bermish.

Ko'rdim pastu baland jahonni o'zim
Va lekin jahonga to'ymadi ko'zim.

O'ttiz olti yoshim uch ming bo'lsa ham,
Shu bo'lur oxirda aytar xulosam:

Ochdim shu falakning sirrini necha,
Oydan xabar berdim, Quyoshdan mujda.

3155 Jahondiydalarni etdim ehtirom,
Yaratganga Shukrona aytdim mudom.

Umr kechirmadim men g'ofil bo'lib,
Yashadim hunarmand va oqil bo'lib.

Har ilmu donishdin o'qidim daftar,
Lekin ojiz qoldim kelganda ajal.

Necha bir savdoda keldi omadim,
Lekin o'limga hech chora topmadim.

O'limdin o'zga har mushkulning necha
Chorasin topganmen izlab ayricha.

Qayoqqa ketmishlar hakimlar bu dam,
Zar sochgan edim-ku ularga har dam?!

3160 Keling, deng, tuproqni endi zar qiling,
Davoyi ul joni Iskandar qiling.

Arastu qani, ilmu donish ila
Meni xalos etsin darddin bir yo'la?

Balinos qani, ul afsun so'ylasin,
Iskandar joniga chora aylasin?

Falotun qani, ul pokiza inson,
Aylasin shu damda dardimga darmon?

Donishmand ul Volisi dono qani,
Dardi bedavodin qutqarsin meni?

Chorlangiz, kelsin ul farzona Suqrot,
Bersin xastalikdin jonimga najot.

Xirmisga qo'sh otda yuboring chopar,
Balki o'sha dardimga darmon topar?

Tadoviy etar balki Farfurius²⁷⁶
Tutarmen ul bois ofiyatga yuz?..

Yana so'ylab andoq, izladi najot,
Dard aro ayladi Yaraganni yod.

3170 Dardimga osoyish bergaydir, dedi,
Ranjimga baxshoyish bergaydir, dedi.

Bir kimsa qo'limdin tutmadi bu dam,
Kimsasiz bo'lmasin dunyoda odam!

²⁷⁶ Tadoviy – davolash.

Falak etar ekan andoq imtihon,
Joizmidir unga aylasam fig'on?

Axir, tuproq edi avvalgi yurtim,
Yana ul tuproqqa boshimni qo'ygum.

O'lim suvi meni g'arq etmay, avval
O'sha suv betiga otgaymen sipar.

3175 Meni qip-yalang'och tuqqanda ona,
Tuproqqa yalang'och borgayman yana.

Yukim yengil edi tug'ilganim on,
Yukim yengil bo'lsin ketganda hamon.

Bir qush tog' boshiga qo'nib, uchsa gar,
Qo'nib-uchishidan toqqa ne asar?

Men qushmen, mamlakat o'shal tog' bu dam,
Magar ketar bo'lsam, jahonga ne g'ami?

Meni keltirdiyu o'ldirdi darhol,
Nafratga loyiqdir bu dunyoyi zol!

3180 Garchi mendin shafqat ko'rmishlar base,
Ehtimolki sitam-da ko'rmish kase.

Ma'zur tutsin magar sitam ayladim,
Sitamgarlarni chun barham ayladim.

Magar jismi zorim makon tutsa xok,
Poklar dargohiga uchar joni pok.

Qayg'u chekib, o'zni aylamang ado,
Menga kifoyadir etsangiz duo!..”

Shularni so'ylarkan, kutmadi javob,
Yana yostig'iga bosh qo'ydi betob.

Iskandar onasiga maktub yuborgani
Muq'anniyoma

3185 Muq'anniy, kel, shu damda sozingni chal,
Uxlagan jonlarni birdam esga ol.

Agar dardimni olsang sozing ila,
Rohatda uxlardim ovozing ila.

Doston

Qahraton qahriga olsa bog'ni ul,
Gul bargini to'kib, yalang'och qolur.

Ajal kelsa, kim ham bo'lur chorasoz,
Chora eshigini kimsa ocholmas.

Ajal yetib, gar qasdi mardum etar,
Tabiblar u dam chorasin gum etar.

3190 Tunning umri tugab, ado bo'lgan dam,
Quyosh xandon urib, yig'laydi shabnam .

Jahondorning baland uchdi nolasi,
Balandroq yangradi qo'ng'iroq sasi.

Arastu jahondiydayu chorasoz
Qoldi chora topmayin bechora boz.

Shahanshoh dardiga davo topmadi,
Umiddan bir nishon, jilo topmadi.

Dedi shohga: "Ey shami ravshanravon,
Shohlarga nuri diydadirsen hamon!

3195 Kelmish sendin Parvardigordin bu kor,
Umud qil endi faydi Parvardigor.

Pishqirgan bu selga kelmaguncha duch,
Nega o'rnimizdan qo'zg'almadik hech?

May ila limmo-lim to'lmaguncha jom,
Nega jon bermadik, chiqmadi bu jon?

Bir tukungga ziyon yetmasin, ayo,
O'sha bir tukungga jonimiz fido.

Vale bu sharbatdin o'girmaslar bosh,
Ichar uni barcha, keksadirmi, yosh.

3200 Demasmen bu mayni ichgil, ayla no'sh,
Negaki ichganni aylagay behush.

Qadahni to'k deya aytolmagum, bas,
Bunga shoh bazmida jur'atim yetmas.

Darig'o, so'nar endi ravshan charog' ,
Chunki tugab borar yog'dondagi yog'.

Yog'im tugadi deb o'rtanma lekin,
Charog' yana porlab yonini mumkin.

Jahondor dediki: "Etar, qo'y endi.
Tirikligim bitdi, paymonam to'ldi.

3205 Mening izmimdamas osmonlar shu tob,
Yurmas aytganimga oy ila oftob.

Bir hovuch tuproqmen, bir qatra suvmen,
Shulardin ilk bora paydo bo'libmen.

Mehrini ko'rsatdi Haq Parvardigor,
Etdim qaylargacha xursand, baxtiyor.

Qaylarga ko'z tikdim, boshladi yo'l im ,
Qaylarga qo'l cho'zdim, yetishdi qo'lim.

Jahon Shohi bo'ldim shonu shavkatli,
Jonim quvvatliyu tanim qudratli.

3210 Endi-chi, zaiflik ayladi ado,
O'zga bir dunyoga ketmog'im ravo.

Menga tutma ortiq sharobi g'urur,
Endi obi hayvon ham ojiz erur.

Tashnaga Do'zaxdin izlama chora,
To'rt anhorni so'yla ul jannat aro²⁷⁷.

Menga deb duoying aylagil takror,
Balki rahmatiga olur Biru bor..."

Quyosh borib, tog'lar ortiga botdi.
Shahanshoh shu zamon uyquga ketdi...

3215 Tun boshlandi, tun ajdahodek qaro,
Qorishdi har tomon shu zulmat aro.

Kecha tund chehra erdiyu bemehr,
Qorong'ulik ichra kim ko'rmish mehr?

²⁷⁷ Jannatdagi to'rt anhor – Kavsar, Salsabil, Tahur, Taslim.

Yulduzlar yuz ochib, ko'kda ko'rindi,
Mismor urmishdilar lablarga xuddi²⁷⁸.

O'g'ri falak bilan uni quvgan oy,
Qaro xumga tushgandilar hoynahoy.

Jahon sahni qaro tutunga to'la,
Osilmishdi Do'zaxdin bir tuk ila.

3220 O'shal tun aro shohda chun erdi hol,
Yigirma yetti kechalik oy misol²⁷⁹.

Ona mehri bilan to'lmishdi yodi,
Parishonlikka g'arq bo'lmishdi zoti.

Amr ayladi, rumiyalardın bir dabir²⁸⁰,
Xiradmand bo'lsin o'shal. bedoru pir,

Qaro siyoh birlan cheksin xomani,
Yozsin onasiga so'nggi nomani.

Onalarning lafzi kabi mehribon
Arzi niyozini aylasin bayon.

3225 Desinki, meni deb g'amilarga botma,
Yig'lama behuda, yaqo chok etma...

Kotibi qalamkash, so'ylar ekan Shoh.
Nomadin jahonni ayladi qaro.

Qalamni yuritib g'amigin, alamnok,
Falak siynasini etdi chok-chok.

²⁷⁸ Mismor – mix.

²⁷⁹ Oy yigirma yetti kechalik bo'lganda qorayib, ko'zga ko'rinmaydi.

²⁸⁰ Dabir – kotib.

Go'yoki qog'ozga o'raldi abir²⁸¹,
Qog'oz bo'ldi abirdin mushkin harir.

Ma'no nozik tortib, zo'riqdi undan,
Kotibning ko'zi ham toriqdi undan.

3230 Yaratganga aytib Shukrona so'zni,
Ki Ul o'zi berdi ko'rguvchi ko'zni,

Ul o'zi tanhodir, ungapdir niyoz,
Hama xalqu xaloyiqqa korsoz.

Xullas, Yaratganni madh etib andoq,
Kotib nomasini boshladi shundoq:

“Bu nomani Iskandar yozdi bugun,
To'rt ona uchunmas, bir ona uchun²⁸².”

Qatra ketsa, chashma senga yor bo'lsin,
Singan ko'za suv bo'yida bor bo'lsin.

3235 Qizil olma tushsa yerga butoqdin,
Norinj kabi sarg'ayma bu firoqdin.

Sariq gulga shamol sitam etsa gar,
Qizil gul gurkirab tursin har mahal!

Aytar so'z im, ey onayi mehribon,
Mehr dildan kelur tilga begumon.

Kuyarsan, nogahoniy yetsa xabar,
Gulingni yel sovurdi deb aytsalar.

²⁸¹ Abir – anbar.

²⁸² To'rt ona – to'rt unsur: suv, havo, olov va tuproq.

Kuyna ortiq, bolam deb solma ovoz,
Qo'l ingni ul yongan yuragingga bos.

- 3240 Yonishingdin ayyom asrasin doim,
G'ami aro sabringni bersin Xudoyim!

Ul sutki, siyangdin simirdim to'yib,
Ul uyquki, bag'ringda etdi nasib,

Ul dardu alamki, ona chekib bot,
Yosh ketgan o'g'liga aylagay faryod.

Ulki, musallamdir dunyovu dinga,
Ulki, farmon berur osmon, zaminga,

Ulki, hujjat yozar devoni xok deb,
Ulki, mangu yashar minuyi pok deb.

- 3245 Ulki, zindon ahli, to'rt atrofi g'isht,
Ulki, sayr eturlar bo'stoni bihisht,

Ul jonki, jon olgay o'shandin nabot,
Ul jonajonki, bergay g'amidin najot,

Ul mavjki, urgay o'shal daryoyi jud,
Ul farmonki, yaralmish andin vujud,

Ul nomki, ul hamisha afzal erur,
Ul naqsh, oroyishi paykar erur,

Ul pargorki, yetti ko'k uzra baland,
Ul mazmunki, yetti yulduz unga band,

- 3250 Ul ogohlikki, bilgay ezidshunos,
Ul qo'rquvki, his etar sohib qiyos,

Ul shamki, bir donish yondirmish uni,
Ul hamyonki, saxo to'ldirmish uni,

Ul manglayki, davlat uni yoritmish,
Ul oyoqki, rizo yo'liga yurmish.

Ulki, parhezkordir va pokizaroy,
Ulki, nozik ko'rguvchi, mushkulkush oy.

Ulki, aftodadirlar, xoki xush bo'y,
Ulki, ozodadirlar, ta'bir xush xo'y.

3255 Ulki sulton, darveshga do'stdir so'zi,
Ulki darvesh, vale sultondir o'zi,

Ulki, subhidamdir go'zal, orasta,
Ulki, taom erur, jonga payvasta.

Ulki, tunda bedor, erta turguvchi,
Ulki, G'ariblar deb ohlar urguvchi,

Ulki, yig'laguvchi zindoniy erur,
Ulki, mash'alayi ruhoniy erur,

Ulki, go'dak ning sutga intiqligi.
Ulki, keksa bemorning navdimligi.

3260 Ulki, G'ariblarning G'arib boshidir,
Ulki, yetimlar ko'zining yoshidir,

Ulki, uzlat ahli duosida dard,
Ulki, mazmun boshi uzra mashaqqat,

Ulki, g'ami qaydida dilporadirlar,
Ulki, alam ichra bechoradirlar,

Ulki, ko'rgay ranj aro osudalik,
Ulki, ko'rmas ishq aro oludalik,

Ulki, noqis aqlidin mag'lub emas,
Ulki, xursand zuhdidin, xilvatparast,

3265 Ulki, bir harf erur adolat aro,
Ulki, bir naqsh erur saxovat aro,

Ulki, dard erur, zaxmi oshkor emas,
Ulki, zaxm erur, malhami yor emas,

Ulki, sabr erur, ishq savdoda ul.
Ulki, sharm erur, ro'yi zeboda ul,

Ulki faryod, faryod erur bir nafas,
Ki ul faryod chekib, umid aylamas,

Ul sidq erur, dinparvarlarga kelmish,
Vahiydirkim, Payg'ambarlarga kelmish,

3270 Ulki yo'ldir, qismat unga yo'llagay.
Va yo'l uzra rahbar o'zi qo'llagay,

Ul eshikdir, barcha o'tgaymiz andin,
O'tib bir-bir, nari ketgaymiz andin,

Ulki, yiroq ro'yi damsozing menga,
Ulki, yetmas bugun ovozing menga.

Ulki, yolg'iz orzu erur menga chin,
Bunday ojizlikka kishi tushmasin.

Ulki boshga savdoni solguvchidir,
O'zi jon baxsh etib, jon olguvchidir...

3275 Onajon, shu aytgan soʻzlarim haqi,
Mendan xabar yetsa, yigʻlama dagʻi.

Musibat chekmagil, qaro kiyma hech,
Faryod, figʻon solib yigʻlamoqdin kech.

Seni kuydirmasin dard ila firoq,
Onajon, dunyoning avzoyiga boq.

Birovga qolganmi dunyo hech qachon,
Magar qolgan boʻlsa, mayli, chek figʻon.

Magarki dunyoda ustun kimsa yoʻq,
Sen ham shundan taskin topib, tut yoʻriq.

3280 Ragʻbating yetsayu magar gʻami yesang,
Meni deb gʻami chekib, motamda esang.

Gʻami yemakdin oldin oʻzingni shayla,
Shohona bir mehmonnavozlik ayla.

Nozu neʼmat ila dasturxon bezat,
Soʻngra xaloyiqni aylagil daʼvat.

Ulki, yoʻq otmamish biror kimsasin,
Oʻsha dasturxondin taomin yesin.

Agar taom yesa birorta mehmon,
Sen ham gʻanimni chek unda, onajon!

3285 Taomingga birov solmasa nazar,
Senga ham hojatmas gʻamiu qaygʻular...

Mening gʻanimni qoʻy, ona boʻl loqayd,
Odatiy oʻz gʻamiu tashvishingga qayt.

Ikki karra uzun bo'lsa-da unrim,
Biribir boshimga kelardi o'lim .

Insonga nechakim umr bersa, kam,
O'n yilimdir o'sha, yuz yil bo'lsa ham.

Bihishtga borishga qo'rqarmi inson,
Eshik ochiq esa, yo'llar charog'on?

3290 Nega ul taxt sari talpinmay faqat,
Ki ul manzilimdir abadul abad?

Ul taraf ot surishga etdim qaror,
Ko'kida bulut yo'q, yo'lida g'ubor.

Bu saroy menga ham qolmadi oxir,
Ortda qolganlarga tilayman sabr.

Otim sakrab o'tdi daryodan hamon,
Mendan yoru do'stlarga bo'lsin salom!

Falak xalos etdi zindondin bu dam.
Mendek xalos etsin boshqalarni ham..."

3295 Nomani bitirgach, imzo qo'ydi ul,
Keyin jannat sari hamon oldi yo'l .

Kecha mashaqqat-la kunduzga yetdi,
Kunduz yana ohu fig'onlar etdi.

Ikkinchi tun taxtni yukladi filga,
Er osmondek to'nni bo'yadi nilga.

Quyosh botdi samoni sayr aylaboq,
O'shal kecha tortdi yuziga tirmoq.

Yulduz tirnoqlari ko'k'din to'kildi,
Havo kumush rangli tirnoqqa to'ldi.

- 3300 Shohning yuzin ko'rmas bo'lib shu damdin,
Oy ham tirnoq soldi yuzga alamdin.

Qaro tun sochidin to'qib pardani,
Ko'k chulg'adi yerning boshiga ani.

Zanabning og'zidin olishib, yohu²⁸³,
Oy bo'g'ziga zahar to'kdilar, og'u.

Shohning holi boshqacha bo'ldi hamon,
Boshida ajalni ko'rgani zamon.

Ko'rdi, tomirida muzladi qoni,
Xalqumiga kelib tiqildi joni.

- 3305 Qoraydi ko'z o'ngi, zabun bo'ldi hol,
Dami, nafasiga yetishdi zavol.

Jonidin kechdi ul, yetim bo'ldi jon,
Endi jon bermagi bo'lmishdi ayon.

Kuldi, shamdek kulib jonini berdi,
Jon bergan kimsaga jonni topshirdi.

So'nayotgan sham erdi, tark etdi nur,
Ko'rguvchi ko'zlardin yiroq ketdi nur.

Qush parvoz ayladi oshiyonidin,
Bir qiyo boqmayin o'tdi yonidin...

²⁸³ Zanab – dumli yulduz.

3310 Uchramadi menga bir kimsa, illo,
Bu jahon ishlarni bilguvchi, oghoh.

Agar chora bilsa kishi shul ora,
Nega o'z ishiga aylamas chora?

Iskandar jahonni tark etdi abad,
Ul yuksak maqomda keyin qurdi taxt.

Jahonda u ne yaxshilik etmadi?
Jahon unga bir yaxshilik etmadi!

Ishi bitdi, parda ortiga ketdi,
Bundan bezib, boshqa yurtiga ketdi.

3315 Garchi ne-ne manzillarga yetdi ul,
Hindi hech yurmagan yo'lga ketdi ul.

Ilgari har joyga borsa Iskandar,
Borgan u joyidin berardi xabar.

Endi ketgan yo'ldin ortga qaytmadi,
Yurgan yo'llaridin xabar aytmadi.

Magar har kimsaki bu yo'lga yurmish,
Xabardor etishni aylar faromush.

Agar bu qissani aytish bo'lsa boz,
Bu parda ostida qolmas edi roz.

3320 Iskandar bahori sovrildi yelga,
Kayoniy daraxtdin yiqildi yerga.

Belidin yechdilar zarrin kamarni.
Zarrin bir tobutga soldilar uni.

Tobutning ichiga to'ldir ib kofur,
Harir pardasiga qadadilar dur.

Surdilar necha mushku movardu ud,
Judiga yetdi mavji To'foni jud²⁸⁴.

Atru ufor kafansoy erdi anga,
Zarrin tobut endi joy erdi anga.

- 3325 Tan o'lik, yuz sumushdek etsa sukut,
Kafan atru kumush tobutdin ne sud?

Tobutda yotganda, demish Shahriyor,
Bir qo'limni andin eting oshkor.

Kaftimga bir hovuch tuproq bering, bas,
Munodiy har joyda chiqarsin ovoz,

Ki Iskandar, yetti iqlim Shohi ul.
Jahonni tark etib ketganda butkul.

Jahon mulkidin ganji ko'proq edi,
Lek kaftida bir hovuch tuproq edi.

- 3330 Siz ham bir kun tushar bo'lsangiz yo'lga,
Kaftingizda bo'lmas tuproqdin o'zga.

Zur shahridin Misr mulkiga endi
Eldilar, ul diyor vafodor endi.

Iskandariyada tutdilar vatan,
Taxtaga oldilar Shohni taxtidan.

²⁸⁴ Movard – gulob. Judi – Mesopotamiyadagi tog'.

Jahoni dag'ini chekmagan jon qani?
Kim yetmish poyoniga bu nomani?

Ko'shku ayvon edi avval taxtgoh,
Endi yer ostiga ko'chdi taxti Shoh.

3335 Dunyo odamiyga do'st bo'lmish qachon?
Undan mehribonlik kutma hech qachon.

Podshoni tuproqqa topshirib shu dam,
Daxma eshigini yopdilar mahkam.

Shundoq yo'l tutadi hamisha dunyo,
Avval siylab, keyin boqmagay qiyo.

O'tdi shu jahondin minglarcha inson,
Ammo dunyoyi dun gush nadir hamon.

Bu qismatdin kimsa bo'yin tovlamas,
Yana sarrishtani topib ham bo'lmas.

3340 Bu sirni izlashning foydasi yo'qdir,
Xomushlikdin o'zga chora yo'qdir.

Jahonga ko'z solib, jahonni ko'rgil,
Jahondin kelguvchi ziyonni ko'rgil.

Jahonki insonni etgay xor yana,
Qanchalar zulm etsa, sitamkor yana.

Ko'rarsanki, bu chodiri surmagun
Mil tortsa har safar seldek oqar xun.

Oy ila oftobi uning milidir,
Tosh otib, sen o'sha qandilni sindir.

3345 Milini zar dema, zarrinvash erur,
Zar emas ul, qip-qizil otash erur.

Falak bo'lmagay hech bizga qayg'udosh,
Qasdimizga yurar oy bilan Quyosh.

Ihonma hech, ul sohiri jilvagar
Yuzingga kulib, orqadan tig' urar.

Malhamdin lof urar magar so'z aro,
Ikki qo'llab solar taningga yaro.

Qo'y, ortiq chekmagil jahon dardini,
Bu qalqoning qilichdin asrar seni.

3350 Jahon qolsa hamki to'fonlar ichra,
G'arq bo'lgum deb balq qo'rqmagay sira.

Pillakashlik deb bil dunyoni yakkash,
Yarmisi suv esa, yarmisi otash.

Bir yoqdin, bo'yningdin olur halqani,
Boshqa yoqdin yana solur halqani.

Yurarmiz jahonni bilmoq qasdida,
Ustida tutundir, gardi ostida.

Bu dudu g'ubordin ko'rinar ayon
Jangu jadal qilur yer bilan osmon.

3355 Murosa etsaydi yer ila samo,
Bizni aylamasdi munchalar ado.

Nizomiy, so'zingga tugun sol bu dam,
Qo'rqmagil, qo'rqitma o'zgalarni ham.

Sultonning hazmiga borarkan mehmon,
Yo'lning yarmisida bo'lmas pushaymon.

Sulton da'vat etsa, javob ayla xush,
Borib, achchiq bodasini ayla no'sh.

Iskandarkim, mayi jom erdi unga,
Simirdi ul jomdin, ketdi uyquga.

- 3360 May ichganlar dilobod etsin o'zni,
Sulton yodi ila shod etsin o'zni...

Iskandar maktubining onasiga yetgani Muq'anniynoma

Muq'anniy, tarat yana ovozi chang,
Xalos ayla, holim yana bo'ldi tang.

Yo'lim kengish etsang, men tashlab odim,
Bu toshloqdin eltarmen shu bisotim.

Qish ta'rifi

Qish fasli kelganda havolar sovir,
Bulutdan maydalab yog'adi yomg'ir.

Dunyoni qoplagan chang ila g'ubor
Borki, yuvib, barham etar ro'zgor.

- 3365 Dala-dashtga tushib samo shabnami,
Otash saratonning kesilar dami.

Tashna giyohlar ham taqar injular,
Qahraton ularni muz bilan chulg'ar.

Saxovatli bog* ham bugun benavo,
Boridin ayrilib, muflis bir gado.

Rayhon suvin sotganlar endi tinmay,
Sopol idishlarga to'ldiradi may.

Dehqonlar uyida qaynaydi xumlar,
Qishloq ahli issiq chakmonin kiyar.

3370 Ohular kindiklarda mushk keltirur,
Nuqlu navolardin ulush keltirur.

Shohlar o'ltirishar bazm ichra bari,
Ichib obi hayvoni Iskandariy.

Shu dedim, degaymen uni ham keyin,
Shu charxi davrondin kelur ne o'yin?

Doston

Rum ahliga xabar yetdi nogahon,
Tark etdi dunyoni deb Shohi jahon.

Yurtning ulug'lari to'planib shunda,
Dedilar: yurtboshi yo'qdir shu kunda.

3375 Agarki ta'zimda borilsa hanuz,
Borilsin ul dargohi Iskandarus...

Running ziynatlari tortdi qaro rang,
Go'yo bosqin etdi Rumga ahli zang.

Hamon ul nomaki, keltirib uni,
Berdilar onaga buzmay muhrini.

Ona o'qib ko'rib ul g'aminomani,
Qaro qildi ham jomu ham jomani.

Ul xatkim, qo'lida tumor erdi ul,
O'shal tumor kabi bukildi butkul.

3380 Kuni qaro tortsa hamki, shu mahal
Shohning vasiyatiga etdi amal.

Xushnudlik yetsin deb uning joniga,
Riokat etdi ahdu paymoniga.

O'g'lidan so'ng uzoq umr ko'rmadi,
O'lguncha qon yutdi va qon yig'ladi.

Umrining karvon manzilga yetdi,
U ham shu dunyoni tashladi-ketdi...

**Iskandarus otasining motamida nola chekkani va
podsholikni tark etgani
Muq'anniynoma**

Muq'anniy, o'shal sozi g'amginnavoz
Otashida kuydim, taskin ber biroz.

3385 Bir yo'la ovozi navobaxsh ila
Men qaro tundan kunduzga boshla...

Doston

Iskandar vafot etgach, Iskandarus,
Shohlik shavqi ila yangratnadi ko's²⁸⁵.

Agarchi shohlar aro piruzbaxt
O'shal erdi yolg'iz sazavori taxt.

Besh kunlik dunyoga bermadi ko'ngil,
Podsholik maqomin istamadi ul.

Bulbuldek nolalar chekardi baland,
Go'yo yiqilmishdi sarv butog'idan.

3390 Lashkar boshliqlari kelib, bir yo'la
Ahd boylasak derdi valiahd ila.

Xazina eshigin lang ochib ular,
Iskandar o'rmini bossin, derdilar.

Shahzodada shohlik shavqi yo'q edi.
Xudodin o'zga panohi yo'q edi.

Lashkarboshilardin so'radi uzr,
Boshqa bir kishini saylang, dedi ul.

Menga inay haromdir, haromdir bu dam
Otamning o'rniida majlis qurish ham.

3395 Menga begonadir hisobi jahon,
Kalavanning uchi ko'rinmas ayon...

²⁸⁵ Ko's – satta nog'ora, bong.

Gumon etganmidim, Shohi jahonim
Navqiron yoshida berar deb jonin.

Taxtu ayvonini tark aylab hamon,
Qorong'u qabrda tutgay deb makon.

Dunyo ahlin xizmatin tark ayladim,
Xudoparastlikka kamar boyladim.

3400 Bu omonat ko`prikki chun beqaror,
Kishi nechuk turgay unda ustuvor?

Otamdan emasmen ortiq, ziyoda,
Otamki yiqildi, kimman dunyoda?

Istasmen bo'lsam andoq jahongir,
Otamdek yo'l tutib, aylasam tadbir.

Ne ko'rdi dunyoda dilkashlik ila,
Ki men ko'rsam uni dilg'ashlik ila?

Ne ko'rdim, chun hayratga soldi meni,
Dunyo ul taxt uza urdi taxtani.

3405 Hama toju taxtdin yuzni burdim men,
Kayoniy taxtiga taxta urdim men.

Bir burchakda o'ltirgum aftodadek,
Nafas olib bir joni ozodadek.

Dunyo havaslar-la avragay chindan,
Kissalar yirilmish oltin, kumushdan.

Limmo-lim qadahga may quysang tag'in,
Ustingga to'kilur u to'ldirganing.

Bir joydan haydalib, quvilmay kishi,
O'zi istab, andin ketgani yaxshi.

3410 Menda na ishq toj, na savdoyi taxt,
Chunki ajal turar qarsimda har vaqt.

Bu g'or ichra o'rgimchak kabi zinhor
Chivin va chumoli etmagum shikor.

Biror dayri xoro topib dahr aro,
Yasharmen go'shayi xilvatda tanho.

To'kib joni pokim gavharidin yosh,
Tuproqni yuvarmen egib unga bosh.

Dunyo ishlaridin qo'l chekib ortiq,
Ko'rarmen oxirat kunga tadorik.

3415 Bir qush bo'lib tog'da men toat etgum,
Giyoh urug'iga qanoat etgum.

Yo'limda kam bo'lmas ranju mashaqqat,
Oson yesam, qiyin o'lgaymen albat.

O'shal ketish payti yetishgan zamon
Farishtaga eshik ocharmen ravon.

Meni otam kabi mozorga elting,
Bir hovuch tuproqmen, tuproqqa to'king.

Agarda o'limni yod aylasang bot,
Bo'lur yuragingda sabr ila sabot.

3420 O'lim achchig'ini yod etmasang gar,
Eshik ochmoq senga mashaqqat bo'lar...

Xilvat ichra sabru tahammul ila
O'ltirdi, jahondin kechdi bir yo'la.

Sabru toqat ila etdi toatin,
Magar o'lmishdi ul o'lishdin oldin.

Sen ham, ey navqiron, omoda bo'l,
Bobolaring ketdi, tadoriging ko'r.

Bu olam sahnida charxi kajraftor
O'yinlar ko'rsatur, izohi dushvor.

3425 Quduqqa tashladi necha Yusufni,
Qo'ymadi, sindirdi necha bo'yinni...

Arastu umrining yakun topgani
Muq'anniynoma

Muq'anniy, ko'ngilni to'ldirdi fig'on,
Mayin ohang ila nola chek hamon.

Mayin nola cheksang, yetib qarorim,
Men ham tark etardim nolayi zorim...

Doston

Iskandar zindon kundadin yechdi band,
So'ng qal'ayi gardunga otdi kamand.

Faylasuflarki xayli dargoh anga,
Bo'ldilar bu safarda hamroh anga.

3430 Arastu go'yoki yo'qotdi oftob,
Chekdi yuzga qaro bulutdin niqob.

Qaro kiyib, g'ami ichra o'ltirdi ul,
Vaqt yetdi, yo'l tadorigin ko'rdi ul.

Sarvi sanobariga yetdi xazon,
Tani xasta, shirin jon erdi nolon.

Shunda yunoniylar oldi girdini,
Ko'rdi yonida necha Shogirdini.

Shogirdlar ham ko'rdi, u manzilshunos
Manzilga otlanur endi ro'y-rosi.

3435 Undan so'rdilarki, ayo xushmand,
Nechuk ahvoldadir ul charxi baland.

Nechuk bir javhardin o'shal osmon,
Ki undan yiroqdir tasavvur, gumon?

Olis yo'lga otlangan ul rahnamo
Dedi: buni bilguvchi yolg'iz Xudo.

Falakka sarf etib umrim borini,
O'ylardimki, bilarmen asrorini.

Endi bilsam, ojizu bechoramen,
Hech narsadin xabarsiz, ovoramen.

3440 Jahon faylasufi deydilar meni,
Nedir yetti osmon, bilmasmen uni.

“Jahonmadxal” bitib, insho ayladim,
Har ne bilganlarimni jo ayladim²⁸⁶.

Yulduzlar sirtini bayon etdim-da,
Osmon ahvolini so'yladim unda.

²⁸⁶ “Jahonmahdal” – Arastu asari.

Endi aytar bo'lsam, gapning dangali,
Ul eski rasadnomalar puch bari.

Xudoga qasamki, bilmasmen sira,
Nozu ne'matlimi, xolimi sufra?..

3445 Shu nuqtaga yetgach, toli Arastu,
So'z so'ylabon, so'zdin qoldi Arastu.

Yog' uzildi o'shal ravshan charog'din,
Buyurdi: bir olma keltiring bog'din...

Kaftiga qo'ndirib, hidladi bir dam,
Olma hidi erdi joniga malham.

So'ng esa nafasi, dami kesildi,
Joni qalqib, xuddi og'ziga keldi.

Keldi, dedikim: "Arrahil, ey guruh,
Tog' ortidin sochdi tongimiz yog'du.

3450 Ul Yazdoni pokdin keldi joni pok,
Topshirdim, olgay uni Yazdoni pok..."

Shuni aytib, sovuq oh chekdi takror,
Uni ham shu gardun ayladi g'ubor.

Tark etdi bir yo'la g'amiu g'alvani,
Qoldirdi yoru do'stlarga olmani...

Hirmis umrining yakun topgani
Muq'anniyoma

Muq'anniy, sipqordik mayi jonnavoz,
Bir yangi nolayi navo ayla soz.

Bulbuldek aylsin navo bizni mast,
U noladin bu nola bo'lsin abas...

Doston

3455 Hirmis azim daryoga yo'l oldi bot,
Kemasi g'arq bo'ldi, yo'q erdi najot.

Cho'kdiarkan, dedi: "Ne ajab kimsa ul,
Gar kemada yuki bo'lmasa butkul.

Ne hojat yuk yig'ish zil etib, og'ir,
Azim daryoda ul g'arq bo'lur oxir?

Bu jahon azaldin vahshat xonasi.
Ko'kargan har gulning uchar nolasi.

Baland tog'din azim daryoga qadar
Damo-dam qor ila yomg'irga to'lar.

3460 Odamni ko'rarkan jayronu qulon
To'xtamas, tirqirab qochar har tomon."

Men ham bir ohuman, tushibmen to'rga,
O'z oyog'im ila borurmen go'rga.

Bu yo'lda bir kimsa panoh bo'lolmas,
Panoh yolg'iz Yazdon erur menga, bas.

So'nggi yo'lga tushganda siz ham, ayo,
Etarsiz ul Yazdoni pokni panoh..."

Shunday deb u shirin uyquga ketdi,
So'zni sanjob etay, dunyodan o'tdi.

Aflotun umrining yakun topgani Muq'anniynoma

3465 Muq'anniy, bir ohang taratgil ajab,
Bu ilk rijo emas bizdan sen taraf.

Subhidam yangrasa sozingdin bayot,
Jahon ohanglarin aylamasmiz yod...

Doston

Falotun soati yetarkan, dedi:
"Biz ham bosh qo'yarmiz tuproqqa endi.

Xaloyiq nomimni tutarlar baland,
Ki Rumda ustozlar ustozidirman.

O'lim pardasiga yo'l topgan zamon,
Boshqa pardalardin yuz burdim hamon.

3470 Men o'sha bolaman. bosganda uyqu,
Beshigiga qarab emaklaydi u.

Butun vujudida uyqu tuyg'usi,
Bilmas vale nechun kelmish uyqusi.

Bu to'rt unsur, bu to'rt muxolif aro,
Ular – suv va otash, tuproq va havo,

To'g'rilik toparmi bu joyda bashar,
Ki unda egrilik esa har mahal?

Bino poydevori qiyshiq bo'lsa ul,
Uning to'rt devori omonat bo'lur.

3475 Yoshim oshdi bir yuz o'n uch yoshdanam,
Ahvolim o'n yoshli bolaga monand.

Hamon orzularim o'sha, boyagi,
O'zim keksaydimu orzular yangi...

O'shal orzusidin vaqt o'tdi andak,
Uning ham xokini sovurdi falak.

Volis umrining yakun topgani Muq'anniyuoma

Muq'anniy, kel, yodimni yod ayla boz,
Faryodimga tarona tuz jo'rovoz.

Ko'nglimni shod etsang o'shal navodin,
Sakrab o'tar edim yetti daryodin...

Doston

3480 Uyquga ketarkan Volis, xullasi,
To'fon g'arq ayladi umr kemasin.

Do'stu yorlam jam bo'lishib qoshida,
Falakdek turdilar uning boshida.

Xastalik shiddatin chunon ayladi,
Tanini zoru notavon ayladi.

— — — — —
Tolaim bormi deb izladi xabar,
Xabar keldi: sustdir, zaifdir tamal.

Yulduzdanam kelmadi bir omadi,
Sitamgar erdi ul, qiyo boqmadi.

3485 Yoru do'stlariga bir-bir tikib ko'z,
Umrini sarhisob aylab, aytdi so'z.

Dedi: "Bo'lmang sira emin, xotirjam,
Qora qo'ng'iroqli yetti hindudan...

Yulduzlar baxt nishonin bersalar-da,
Goho badbaxtlikdin berurlar mujda.

Ular nahs davrini boshlagan oni,
Zamon bo'lgay sitamkorlar zamoni.

Zulm davom etar, keti ko'rinmas,
Maydonga chiqmagay adolatli kas.

3490 Qachon baxt yulduzi qironga kelur,
Yaxshiga yaxshilik zamoni bo'lur.

O'shal yulduz izga qaytmasdin avval
Falak nomamizni bitirdi tugal..."

Shularni aytib ul Haqqa yukindi,
Lablarini qintib, ko'zini yumdi...

Balinos umrining yakun topgani
Muq'anniynoma

Muq'anniy, ul eski pardada bu dam
Sozingdin nola tuz menga damba-dam.

Qulog'imga yetsa sozing nolasi,
Ko'zlarimdin oqar ashkim jolasi...

Doston

3495 Balinos ham o'shal so'nggi nafasda
Ahli oriflarga so'z qotdi asta.

Dediki: "Ko'chmoqning fursati yetdi.
Boshqa bir manzilga ko'charmen endi.

Bu balchiq xonakim menga saroydir,
Men uchun avvaldin begona joydir.

Bu yetti haykalkim, ko'kdir, kungura,
Bosh egmasman unga, mehrim yo'q sira.

Men falak avjida misoli sulton,
Uyga kelarmanu ketarmen shu on.

3500 Gahi gul ochaman somondin yashnoq,
Tovusdek uchaman butoqdin butoq.

Paridek ko'zlarga ko'rinmay ayon,
Men parvoz etarmen istagan tomon.

Na kelib-ketmoqqa etgum e'tibor,
Na menda zaminu zamon dardi bor.

Istasam, Sidrani bosib o'tarmen,
Istasam, tosh ichra makon tutarmen.

Dashtu daryolardin o'tarmen dadil,
Daryoda Ilyosu sahroda Xizr.

3505 Kelib, ayvonimga boqsangiz albat,
Hamma narsa boru men yo'qman faqat.

Etarmen hamisha yuksakka parvoz,
Mendan ne qolarsa, u mendan emas..."

Aytdiyu shu so'zniyu chuqur tin oldi,
Ketganlar ortidin ravona bo'ldi.

Jabon g'avg'osidin qutuldi butkul.
O'lim do'stlar yonida bayram erur...

Farfirus umrining yakun topgani Muq'anniynoma

Muq'anniy, kel, yana jaranglat chalg'u,
Hayda mendan, bosdi yoprildi uyqu.

3510 Ko'nglimni ul tarannuming etsa xush,
Ko'rmas edim uyquda oshufta tush ...

Doston

Amri safar yetish gach, Farfirus,
Tevaga ko'ch-ko'ron ortib, chaldi ko's.

Dedi do'stlariga: "Bu bog'u chaman
Boqqanda bir quvonch baxsh etar chindan.

Bir kun nasibadir unga yo'q bo'lish,
Magar Do'zaxmidir yo bog'i bihisht.

Bilim bizga qo'rquv bag'ishlar, xolos,
Yo'l to'sardin emin emas yo'lshunos.

3515 Kamonchi hamisha qaddi egik, xam,
Tikuvchining to'ni yamoqdir har dam.

Yog'chining agarchi usti-boshi yog',
Uyida qatra yog' topilmas biroq.

Tuyakash yillarcha tashisa ham ganj,
Boshidin arimas sira dardu ranj..."

Pargori chizishdin qoldi shu nafas,
Xat chizildi uning umriga ham, bas.

Suqrot umrining yakun topgani Muq'anniynoma

Muq'anniy, kel, uyqudin uyg'ot shu tob,
Jaranglat menga rudu changu rubob.

3520 Sozingni et daryo kabi dilnavoz,
Yongan yuragimni sovutgil bir oz...

Doston

Suqrotga ketish fursati yetganda,
Ikki otda peshvoz chiqdi ajalga.

Eshitdiki, ulkim g'anim erdilar,
Yashirincha unga zahar berdilar.

Tani zaharlanib, bo'ldi dardmand,
Safarga shaylanib, bong urdi baland.

Dediki: "Muddati yetishgan zamon
Ajalga chora yo'q, ajal beomon.

3525 Dunyoda qismat yo'q bundan ayricha,
Shu sovuq bolishga bosh qo'yar barcha..."

Ko'rdilar chun ul qushki ulviyxirom
Uzar to'ru domin tark etar tamom,

Dedilar: "Ey Suqrot, ayo xushmand,
Joning ketar bo'lsa tark etib vatan,

Qolsa harakatdin shu jismi zoring,
Qaerda qazilsin sening mozoring?"

Tabassum ayladi ularga ustod,
Dedi: "Ketganlarni sira etmang yod.

3530 Menga farqi yo'qdir, o'rgami, qirga,
Qay bir joy uchrasa, ko'ming u yerga..."

Uyqu to'foniga g'arq bo'ldi shu on,
O'zin suvga otdi o'zgalarsimon.

Eshitgan donolar keyin angladi,
Ul ustodi dono nelar so'yladi...

Nizomiy unringing yakun topgani Muq'anniynoma

Muq'anniy, tarat menga Romishi jon²⁸⁷,
Navozish ayla ul navodin hamon.

Chunon bir navo tuz menga bu navbat,
Ki Xusrav bazmida chalmishdi Borbad...

Doston

3535 Bu doston haddiga yetib tamomiy,
Ketish orzusiga tushdi Nizomiy.

Boshidin necha bir davronlar o'tdi,
Umr kitobining so'ngiga yetdi.

Oltin uch yoshidin o'tib olti oy,
Safar nog'orasini chaldi boboy.

Hakimlar holini so'ylamish edi,
Ular ketdi, men ham ketaman, dedi.

Do'stlarini yig'ib, ayon etdi dil,
Goh yo'ldin xabar berdi, gohi dalil.

3540 Umidim bor, dedi kulib u takror,
Gunohlarim kechirgay Parvardigor.

²⁸⁷ Romishi jon – Eron mumtoz kuylaridan biri.

Biz uchun hech zahmat chekmang, dedi ul,
Sizga bu yer, bizga ul dorussurur²⁸⁸.

Ketdi uyquga shu gapni aytiboq,
Magar aslida ham emasdi uyg'og'...

**Malik Izuddin Mas'ud ibni Arslon madhi
Muq'anniyoma**

Muq'anniy, yana bir navo chal endi,
G'anim ketib, sevinch fursati keldi.

Yo'lovchiga atab jarang ayla soz,
Uni shohning umridek etgil daroz...

Podshoh haqqiga duo

3545 Oldi xirad ahlini ul ro'zgor,
Qoldi shohimizga aql yodgor.

Hamisha yor bo'lsin shavkati, baxti,
Ziynat topsin andin toj ila taxti.

Malik Izuddinga shu charxi baland
Azmu qudrat ila baxsh etmish kamand.

Etti yulduz sirrini ochgan o'sha,
Sakkizinchi qironga sohib, xo'ja²⁸⁹.

²⁸⁸ Dorussurur – rohat uyi, jannat.

²⁸⁹ Nizomiy Malik Izuddinni Quyosh tizimining yetti yulduzi sirrini ochgan va Odam Atodan buyon kechgan sakkizinchi ming yillikning shohi deb ta'riflamoqda.

Kisrovu Kay bazmida o'ltirguchi,
Belida Faridun belbog'i, kuchi.

3550 Labidin no'sh dori berguchi yolg'iz,
Firuza samoni etguchi firuz.

Necha shirin esa – bulog'i uning,
Qulog'ida halqa – qulog'i uning.

Har gal aylar esa bazmi bomdod,
Bazm aro o'ltirar misli Kaykubod.

Asal xonasidir uning manzari,
Olimlar kelishar misoli ari.

Bilimdon olimlar ko'rsatib hunar,
Bilimsizlarining ta'zirin berar.

3555 Bordir har go'shada bir gavharkash e,
Magarki suvdanam olar otash e.

Vaziri shohparvar, maloiksirisht,
Uning kalitidin ochilur bibisht.

Tadbirkorlikda u Nizomdin afzal,
Donishmandlik ila nomi mo'tabar.

Shoh – Malikshoh kabi saxovatlidir,
Ikkinchi Nizomdir qoshida vazir.

Har diyordin keltirmish farzonani,
Necha buyuk ustodi allomani.

3560 Gul kabi bodaga payvastdir ular,
Bulbul kabi mamnunu mastdir ular.

Hama yarim hushyori Shoh yarim mast,
Hama shirinsoʻz, Shoh saxovatli, bas.

Yana bormi birov bazm aylar chunon,
Ham podshodiru ham jahonpahlavon?

Bazniki, gʻavgʻodin unda nishon yoʻq,
Unga shu nomamni etaman tortiq.

Shoh uning-la kezib, dunyoni koʻrgay,
Necha togʻu toshni, daryoni koʻrgay.

3565 Goh ot surib, azmi Tiroz aylagay,
Goh Habash sori turktoz aylagay.

Oʻz joyida oʻtirsada, har zamon
Jahon uning oʻngida boʻlgay ayon.

Nomam solib sevinchdin ovozasin,
Ochar Shohga yetti yurt darvozasin.

Ki andin Shoh majlisi xurram boʻlur.
Pargorida tasviri olam boʻlur.

Ey vorisi ul bazmi kayxusraviy,
Sening qudrating ila davlat qaviy!²⁹⁰

3570 Nazar solgin, bu jomi getinamoy,
Koʻrgil unda, aks etar geti Xudoy.

Bu xayol keldi bir xilvatzodaga.
Shohdin mujda boʻlur u Shahzodaga.

²⁹⁰ Qaviy – kuchli.

Bu kalitdin eshik ochdim men chunon,
Dengizda gavharlar bo'ldi namoyon.

Tong hukmiga bergandan beri rivoj,
Bo'yla durru gavhar ko'rmedi bir toj.

Boshdanoq beshikdin so'z ochdim jo'shib,
Agar madh aylasam etma taajjub.

3575 Shodlik ayyomida tuz bazmi tarab,
Erga kamar boyla samodek ajab.

Ne bo'lurdi, o'shal gulshan bazmgoh
Eshigi bizga ham ochilsa nogoh?

Uning sharofati bilan ul mahal
Necha mushkulotim bo'lur edi hal.

Qo'lim, oyog'imda mador yo'q bu dam,
Borib, u jannatni maskan aylasam.

Yaxshidir jannatga jonni yo'llamak,
Erda azoblarga qo'ymoq ne kerak?

3580 Ikki gavhar etdi dengizim ayon,
Ularning yuzidan yuzim charog'on²⁹¹.

Biri topmish Mar'yam ismatidin nur,
Birida Isoning nuri tovlanur.

Biri oy yuzlidir, chehrasi gulshan,
Birining yuragi Quyoshdek ravshan.

²⁹¹ Ikki gavhar – "Iqbolnoma" kitobi va shoiming o'g'li Muhammad.

Yubordim podshoga ikki hindu qul,
Biri Iqbol esa, bittasi Muqbil²⁹²

Ikkisin jo'natdim Shohga, dil baxshi,
Yoqut xazinaga jo bo'lsa yaxshi.

3585 Onasi kelinni jo'natarkan, hay,
Qizning pardadori og'asi bo'lgay.

Shohning huzuriga borsin baxtiyor
Andoq pardaliyu mundoq pardador.

Huzuringga jismimdin jon yubordim,
Jigarporamni ham hamon yubordim.

Sen uni ortiga qaytargan payting
Umidimdin baland bo'lsin himmating.

So'zimni shu yerda tugatdim, illo,
Har neki istarsen, uni et ado...

“Iqbolnoma” xotimasi

3590 Gavhar tog' bag'ridin chiqqandan beri,
Dunyoning gavharsiz qolmadi yeri.

Bel boyladi gavharni deb do'stu yor,
Gavhariy ataldi gavhar xaridor.

Men toshlar bag'ridan chiqarib gavhar,
Qo'lda tutar bo'lsam tarozu agar,

²⁹² Iqbol – “Iqbolnoma”, Muqbil – Muhammad. Choir shohga “Iqbolnoma” ni o'g'li orqali yuborganiga ishorat.

O'ylamaki, sotib gavharimni bu
Davlat qozonmoqni ayladim orzu...

Sohibi sarvatdin tamah etmasman,
Zahmatim haqqini bersin, demasman.

3595 Kamu ko'p deyishdin yiroqmen, zero,
Oy ila Mushtariy emas aqrabo.

Mushtariy izlarmen, andoq bittisin,
Ki gavharfurushni badnom etmasin.

Dev singari tog'larni aylab makon,
Na'ra tortib vahshiy hayvonlarsimon,

Sellarni xazina uzra burganing,
Gavharni dengizga uloqtirganing,

Yuz bora afzaldir, etsin deb ermak,
She'ru dostoningni nodonga bermak...

3600 So'zning tinglovchisi bo'lsin avvalo,
Xaridorsiz gavharga pastdir baho.

Mening xaridorim bor, gavharshunos,
Gavharshunoslik bobida beqiyos.

Va lekin necha bir niyati qaro
Izimga tushdilar o'shal tog' aro

Boshladilar fitna, janjal, taloshni,
Necha manjaniqdan otdilar toshni.

Etdilar talab gavhari Shabchiroq,
Yo'q, desang, bo'lursen bu bog'din yiroq!..

3605 Ranjidim ularning bu kirdoridin,
 Ko'ngilni g'ash etguvchi bozoridin.

Dedimki dur uchun etilarmi jang?
Navo xushdir so'zga mos tushsa ohang.

Durdan kech, dengizning savdosidir ul
Baho qilsang, dengiz bahosidir ul.

Dengiz ila tijorat etsa kishi,
Dengizcha oltini bo'lsin, kumushi.

Dengiz ila savdo-tijorat etib,
Dengizni dengizga olgaylar sotib.

3610 Har ovoza dunyoda uchgay baland,
 Andozasi bois ul dunyopisand.

Qing'ir-qiyshiq ersa gar andozasi,
Balandlarga uchgaymu ovozasi?

Bu nuqtaki, guldin anga rang erur,
Javobdirkim, ostida farhang erur.

Men taniyman bu dunyoda, ey hakim,
Kamar o'g'risi kim, toj berguvchi kim?

Munchakim so'yladim, aytdim beg'araz,
Bular yo'q sillikdan shikoyat emas.

3615 Jahon mashaqqatin yelkamga ortar,
 Otim holdin toymishi, horib bir qadar.

Suframda topilar bir burda nonim,
Tanim sihatidin bordir fig'onim.

Insonning sog'ligi bo'lmasa durust,
Tanidek, ilkida qalami ham sust.

Qarg'a degan magar sog'lom bo'lsa ul,
Egani Bustiyning anjiri bo'lur²⁹³.

Balli, yoshim bir joyga yetdi, ayon,
Ammo so'zinda fayzu ravnaq hamon.

3620 Hamon yashnab turar sarvi ozodim,
Hamon ravon yurar yo'llarda otim.

Hanuz ellik baytim bahosiga mos,
Tarozigga yuz tashlaydi haqshunos.

Zamona baxtinga hamon hamnafas,
Kaftinga dur berar, taxtinga atlas.

Vale andisham bor, ajab sarbaland,
Otsam arslonning bo'yniga kamand.

Yiqitsam-da, bosib, ustidan kechsam,
Tulkilar yesa, men qonini ichsam...

3625 Mushuk gar qozondin et o'g'irlasa,
Foydasi ne, keyin kampir yig'lasa?

Jahon solib meni yanglish o'yinga,
Falak necha toshlar uyib yo'limga,

Shu yanglig' yetishdi oltmishga yoshim,
Lekin hamon o'sha kuchim, bardoshim.

²⁹³ Bustiy – Xurosonda shirin anjiri bilan mashhur shahar.

Misoli o'n yoshli bolaman hamon,
Hamon yo'ldan urar la'nati shayton.

O'tganlar o'tdilar dashtaro yeldek,
Qolganlar ham qolmas. o'tarlar birdek.

3630 Oy ila yillaring, qisqami, uzun,
Quduqqa solingan chelak deb tushun.

Chelak quduqdan suv chiqarmasa gar,
Arqoning uzunmi, qisqa, ne samar?

Ketdim shu qissani qoldirib, illo,
Sen uni ermakka o'qima aslo!

Tinglagan o'z g'amiu dardiga bo'lsin.
U ham shu dunyoni tark etar bir kun.

Demasin, faloniy tark etdi jahon,
O'zi, do'stlarini o'ylasin hamon.

3635 Bir gal men ham berib xayolga sabot,
O'tganlar yodini etar edim yod.

Ularni yod etib o'ltirgan dami,
Ko'zlarimni yoshga to'ldirdi g'amii.

O'sha g'oyiblardin bittasi magar,
Menga nasihat etdi uyqu mahal.

Ki bizga o'zing ham bo'lursan hamroh,
Bizni deb g'ami chekish senga noravo.

Ketarsan bir kuni shu karvon ila,
Ungacha ishingni saranjom ayla...

3640 Shundan azmi safar rejasin tuzdim,
Behuda ishlardan ko'ngilni uzdim.

Kishi oqil esa, ul mardi hushyor,
Jahon g'avg'osiga etmas e'tibor.

May xumiga tushsam, ne g'amidir u kun
May ila to'nimni etgum lolagun.

Suframda bo'lmasa kiyikdin kabob,
Qorin g'amiini yeb chekmasman azob.

Gar halvo bo'lmasa, yumarmen ko'zni,
Halvo hayolidin xush etgum o'zni.

3645 Magar yog'donimda tugab qolsa yog',
Mayliga jon beray so'ngandek charog'.

Bo'lmasa ilkimda nog'ora nonim,
Nog'oradek zarbdin uzilmas jonim.

Oyu yillar meni sindirsa nogoh,
Mo'miyo bo'lur menga iqboli Shoh.

Xudoyo, bu gavhar, durri marjonni,
Gullagan, yashnagan bog'u bo'stonni.

Asra, bekaslikda bo'lib yor anga,
Hamisha panoh bo'l, madadkor anga.

3650 Bu dariy dostoni tugadi andoq,
Tolei balandu yulduzi porloq.

Shohning nomi kabi Mas'ud bo'lsin ul,
Shoh quvonsin undan, mahmud bo'lsin ul!...

Necha noyob durru durdona tizdim,
Baxtu farah ila marjona tizdim.

Iqboli yorlarni aytur bu ash'or,
Ajabmas, unga ham iqbol bo'lsa yor.

Shahriyor qo'lidan qo'ymasin ani,
Xirad, ilmu donish bo'lsin hamdami!

3655 U bois shu doston bo'lib sarbaland,
Shu doston din u ham bo'lsin bahramand.

Nizomiyni baland ovoza etsin,
Nomini poku beandoza etsin.

Farxunda bo'lsin dag'i nomi aning,
Va boshdin to oxir anjomi aning.

Boshi omon bo'lsin, baxti bebadal,
Yomon ko'z din yiroq bo'lsin har mahal.

Jahon mutc anga, zamon xushkom,
Falak bandayu ro'zgori g'ulom...

SHARAFNOMA

So'zboshi	11
Yaratgan Rahmonu Rahim nomi ila	20
Munojot	28
Sarvari koinot vasfida.....	32
Payg'ambari akram mc'roji.....	34
"Sharafnoma" nazmiga kirishmoq.....	41
Hikoyat	44
O'z holi va zamon ahvoli xususida.....	47
Ushbu noma va o'zga nomalar sharafiga	53
Hazrati Xizrning ta'lim bergani.....	64
Atobeki a'zam madhi	71
Er o'pib aytur.....	77
Dostonni muxtasar bayon etmak	80
Iskandar tarixining qisqa bayoni.....	82
"Sharafnoma" nazmiga Nizomiy rag'batl	88
Doston ibtidosi va Iskandar nasabi.....	92
Iskandarning ilm o'rgangani.....	99
Iskandarning podsho bo'lgani	105
Iskandarga misriylar shikoyati.....	110
Iskandarning zangiylar bilan jangi	116
Iskandarning Misrdan Rumga qaytgani.....	150
Iskandar Doro bilan jang qilishga qasd qilgani	157
Iskandarning ko'zgu yasagani	168
Doro Iskandardan xiroj talab etgani	171
Iskandarning Doroga qarshi qo'shin tortgani	181
Doroning Eron ulug'lari bilan kengashgani	188
Doroning Iskandarga maktubi	202
Iskandarning javobi	208
Doroning Iskandar bilan jangi	216
Iskandar Doroni qatl etgani.....	227
Iskandar Doroning taxtiga o'ltirgani	247
Iskandar Ajam otashkadalarini vayron etgani	264
Iskandar Ravshanakka sovchi yuborgani	275
Iskandarning podsholik taxtiga o'ltirgani.....	288

Iskandar Ravshanakni Runga jo'natgani	297
Iskandar Ka'bani ziyorat etgani	305
Barda podshosi No'shoba dostoni	314
Iskandarning No'shoba bilan bazm etgani	344
Iskandarning Alburz tog'iga chiqqani	352
Iskandar zohid duosi ila Darband qal'asini ochgani	359
Iskandarning Sarir qal'asiga borgani	373
Iskandarning Kayxusrav g'origa kirgani	382
Iskandarning Ray ila Xurosonga borgani	391
Iskandarning Hindistonga borgani	401
Iskandarning Hindistondan Chinga borgani	412
Iskandarning Chin hoqoniga maktubi	423
Hoqonning Iskandarga javobi	430
Rum va Chin naqqoshlari munozarasi	455
Suratgar Moniy afsonasi	459
Chin hoqoni Iskandarni mehmon qilgani	463
Iskandarning ravsiylar hujumidan xabar topgani	476
Iskandar Dashti Qipchoqqa yetgani	483
Iskandar Ravs o'lkasiga yetgani	490
Iskandarning ravsiylar bilan birinchi jangi	500
Iskandarning ravsiylar bilan ikkinchi jangi	506
Iskandarning ravsiylar bilan uchinchi jangi	512
Iskandarning ravsiylar bilan to'rtinchi jangi	517
Iskandarning ravsiylar bilan beshinchi jangi	521
Iskandarning ravsiylar bilan oltinchi jangi	524
Iskandarning ravsiylar bilan yetinchi jangi	529
Iskandar ravsiylar ustidan zafar qozongani	548
No'shobaning asirlikdan qutulgani	553
Iskandar chiniy kanizak ila ko'ngilxushlik etgani	560
Obi hayot afsonasi	575
Iskandarning zulmatga kirgani	586
Iskandarning zulmatdan chiqqani	595
Iskandarning Runga qaytgani	603
Nusratuddin Atobek vasfida	608
Farzandga nasihat	612



IQBOLNOMA

So'zboshi	617
Debocha	625
Munojot	627
Payg'ambari akram, sallallohu alayhi vassalam vasfida	630
Dostonning yozilish sababi va yoru do'stlar yodi	633
Har ishda meyorga rioya qilish zarurati	646
Mamduh maqtovi	649
Er o'pib, aytur	654
Doston ibtidosi	656
Nega Iskandarni Zulqarnayn deyishgan?	665
Iskandar va dono cho'pon hikoyati	671
Cho'pon hikoyati	674
Arshimedis ila chinmiy kanizak hikoyati	678
Moriyayi qibtia rivoyati	685
Xurosoniy va uning xalifaga firib bergani	691
Rivoyatga qaytish	696
Faqir, benavo nonvoy hikoyati	698
Etmish hakim Hirmis so'zini inkor etib, halok bo'lishgani	710
Aflotun Arastuga tanbeh qilib, cholg'u - soz yaratgani	713
Uzuk va cho'pon hikoyati	722
Suqrot va Iskandar ahvoli hikoyati	728
Iskandarning hind donishmandi ila suhbat qurgani	741
Iskandar yetti hakim ila xilvatga chekingani	754
Ilk yaratilish xususida Arastu	757
Ilk yaratilish xususida Volis	760
Ilk yaratilish xususida Balinos	761
Ilk yaratilish xususida Suqrot	762
Ilk yaratilish xususida Farfurius	763
Ilk yaratilish xususida Hirmis	764
Ilk yaratilish xususida Aflotun	765
Ilk yaratilish xususida Iskandar	766
Ilk yaratilish xususida Nizomiy	768
Iskandarning Payg'ambarlik maqomiga yetgani	771
Arastu xiradnomasi	780
Aflotun xiradnomasi	790
Suqrot xiradnomasi	797

Iskandar jahonni kezgani	805
Iskandar janubga ot surgani	833
Iskandarning ikkinchi bor Hindistonga borgani	846
Iskandar shimol haddiga yetib Saddi Ya'juj qurgani	872
Iskandar shimoldan Runga qaytgani	888
Iskandar vasiyatnomasi	893
Iskandar onasiga maktub yuborgani	903
Iskandar maktubining onasiga yetgani	918
Iskandar otasining motamida nola chekkani va podsholikni tark etgani	920
Arastu umrining yakun topgani	924
Hirmis umrining yakun topgani	927
Aflotun umrining yakun topgani	928
Volis umrining yakun topgani	929
Balinos umrining yakun topgani	931
Farfurius umrining yakun topgani	932
Suqrot umrining yakun topgani	933
Nizomiy umrining yakun topgani.....	935
Malik Izuddin Mas'ud ibni Arslon madhi	936
"Iqbolnoma" xotimasi	940

Nizomiy Ganjaviy

ISKANDARNOMA

*Asliyatdan O'zbekiston xalq shoiri
Jamol Kamol tarjimasi*

“NUSXA” nashriyotida nashrga tayyorlandi.

Bichimi 60x84 ¹/₁₆
Shartli b.t. 59,5
Adadi 200

